

# TAFAKKUR ZIYOSI

*Tafakkur ziyosi 3/2022  
ilmiy uslubiy jurnal*



**“Umumiy qadriyatimiz, birgalikda taraqqiyotga intilishimiz, madaniyatlar xilma-xilligiga hurmatimiz ifodasi bo‘lgan ko‘p tomonlama hamkorlikning noyob tajribasi – “Shanxay ruhini” mustahkamlash bugun har qachongidan muhim. Har birimiz kuchli bo‘lsakkina SHHT ham kuchli bo‘ladi.**

**Buning uchun bir-birimizni qo‘llab-quvvatlashimiz, kun tartibimizdagi asosiy masalalarga birgalikda murosa izlashimiz muhimdir.**

**Bugun aynan shunday yondashuv Yevroosiyo makonida xavfsizlik, barqaror taraqqiyotni ta‘minlashning bosh shartiga aylanmoqda. Bu mamlakatlarimiz xalqlarining manfaatlari va intilishlariga mosdir”.**

***O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutqi***

**BOSH MUHARRIR:**

**Shavkat Safarovich Sharipov,**  
pedagogika f.d., professor

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:**  
**Usmonjon Qosimov,** filologiya f.d.  
**G'ayrat O'roqboyevich Qodirov,** biologiya  
f.n., dotsent

**MAS'UL KOTIB:**  
**Farrux Aqchayev,** tarix  
f.b.f.d., dotsent

**TARJIMONLAR:**  
**Zubayda Jumayeva,** filologiya f.b.f.d.  
**Eldar Hasanov**  
(rus tili)  
**Kamoliddin Normurodov**  
(ingliz tili)

**TEXNIK MUHARRIR:**  
**Murodulla Jo'rayev,** filologiya  
f.b.f.d., (PhD)

**NAVBATCHI MUHARRIR:**  
**Feruza Jumayeva** filologiya  
f.b.f.d. dotsent

**SAHIFALOVCHI:**  
**Zuxra Shakarova**  
**Jurnal andozasi Raqamli ta'lim**  
**texnologiyalari markazida**  
**Zarina Abdusattorova**  
tomonidan tayyorlandi

**Muassis:** Jizzax davlat  
pedagogika universiteti  
Jurnal yilda 4 marta  
(har chorakda) chop etiladi.  
Matnlarda foydalanilgan ko'chirma  
va ma'lumotlar aniqligi uchun  
mualliflar mas'uldirlar.  
Jurnaldan ko'chirib bosilganda,  
manba qayd etilishi shart.

**JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI:**

Anatoliy Sagdullayev, tarix f. d., akademik  
Komiljon Tojiboyev, biologiya f.d., akademik  
Jak Miklovik, INSHEA universiteti professori (Fransiya)  
Vasiliy Kochurko, Baranovich DU professori, texnika f. d.  
(Belorussiya)  
Gulsem Lekerova, psixologiya f.d., professor (Janub. Qozog'iston)  
Furqat Jo'raqulov, siyosiy f.d., dotsent  
Botir To'xtamishev, texnika f.n., dotsent  
Sarvar Nazarqosimov, sotsiologiya f.b.f.d. dotsent  
Baxtiyor To'rayev, falsafa f.d., professor  
Qozoqboy Yo'ldoshev, pedagogika f.d., professor  
Xolbo'ta Turaqulov, texnika f.d., professor  
Umrzoq Jumanazarov, filologiya f.d., professor  
Abdug'afur Mamatov, filologiya f.d., professor  
Rahmatulla Bekmirzayev, fizika-matematika f.d., professor  
Oybek Axmedov, filologiya f.d., professor O'zDJTU  
Faniya Axmedshina, tarix f.d., professor  
Baxti Ochilova, falsafa f.d., professor  
Hamid Meliyev, pedagogika f.n., professor  
Xudoybergan Mavlonov, biologiya f.d., dotsent  
Qo'chqor Hakimov, geografiya f.n., professor v.b.  
Mo'min Hoshimxonov, falsafa va filologiya f.d.  
Furqat Axmedov, pedagogika f.n., professor  
Akbar Saitqosimov, falsafa f.d., professor  
Zuhra Yaxshiyeva, kimyo f.d., professor  
Abdunazar Nurmonov, pedagogika f.d., professor  
Rustam Abdurasulov, psixologiya f.d., dotsent  
Marat Sultonov, kimyo f.d., professor  
Ilyos Islamov, tarix f.d., dotsent  
Omon Isarov, filologiya f.d., dotsent  
Muxtorqul Pardayev, tarix f.n., dotsent  
Rabbim Yusupov, texnika f.n., dotsent  
Oleg Kim, filologiya f.n., dotsent  
Abduvali Shamshiyev, iqtisod f.n., dotsent  
Sunnatullo Soipov, filologiya f.n., dotsent  
Yulduz Karimova, filologiya f.n., dotsent  
Kamoliddin Zoyirov, pedagogika f.n., dotsent  
Sherali Abduraimov, pedagogika f.b.f. d., dotsent  
To'ychi Axmedov, tarix f.b.f.d., dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining Filologiya, Falsafa va Pedagogika fanlari bo'yicha ekspert kengashi (2018-yil 29-dekabrda) 260/6-son bayonnomasi) tavsiyasi bilan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181- 6131**

MANZIL: 130100, Jizzax shahri,  
Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy, bosh bino  
TELEFON: (99872) 226 02 93,  
(99897) 644 84 44  
FAKS: (99872) 226 46 56

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
MATBAA BO'LIMI  
Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy  
2022-yil 25-sentabr kuni bosmaxonaga topshirildi.  
Qog'oz bichimi A4 Buyurtma: \_\_\_\_\_  
Nashr adadi: 100

## MUNDARIJA

## TAQVIM

M.A.Jo'rayev. Abdulla Qahhor— mashhur komediyana (Adib tavalludining 115 yilligiga).....	3
G.R.To'lisheva. Cho'lpon ijodi Ozod Sharafiddinov talqinida (Cho'lpon tavalludining 125 yilligiga).....	7
R.Saidova, A.Jumanov. Davr, iste'dod va ijod muammolari (Abdulla Qahhor tavalludining 115 yilligiga).....	11

## PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

G.N.Kurbanova. Kasbiy tafakkur—zamonaviy o'qituvchi kompetentligining tayanch negizi.....	14
G.Abdullayeva. O'zbekistonda oliy kasbiy inklyuziv ta'limning o'ziga xosligi.....	17
N.Y.Qurbanov. Zamonaviy maktab o'qituvchisida ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari.....	20
M.S.Xajiyeva. Xalq pedagogik madaniyatining axloqiy jihatlari va uning yoshlar tarbiyasidagi o'rni.....	23
A.N.Saidov. Malakali kadrlar tayyorlashda rahbar-xodim munosabati.....	27
D.I.Begmatov. Zamonaviy oliy ta'lim muassasasining menejment tizimi.....	30
J.B.Hamraqulov. Talabalarda ekoetik kompetentlikni shakllantirishning axloqiy-pedagogik asoslari.....	33
Sh.Goziyeva. Trends in the development of inclusive education abroad.....	36
A.Sh.Xolmurodov. Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida ilg'or xorijiy tajribalar tahlili.....	40
Z.A.Akbarova, G.M.Nosirova. Maktabgacha kichik yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish bosqichlari.....	45

## AMALIY FANLAR

B.T.Haydarov. Optimization of the physical activity of children through physical education.....	47
E.M.Fayzullayev, M.K.Qahorova. Bolalar musiqa va san'at maktablarida pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etish (Fortepiano sinfi misolida).....	52
F.N.Xalilov, Q.H.Haydarov. Bolalar musiqa va san'at maktablarida vokal-xor malakalari va ularning ahamiyati.....	57
G.X.Xolboyeva. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlashda kasbiy-konsepsiyaviy potensialini oshirish.....	60
D.I.Xidirova. Musiqa madaniyati darslari samaradorligini oshirishda o'qituvchining pedagogik mahorati va kasbiy kompetensiyasining o'rni.....	64
A.I.Olimov, D.X.Eryigitov. Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida takomillashtirish.....	68
X.R.Sanakulov, G.O.Abduraimova. "Steam—ta'lim" yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya fanini o'qitishga tayyorlash omillari.....	72
T.Ch.Aliboyev. Texnologiya darslarida o'quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari.....	77

## IJTIMOIY FANLAR

B.M.Ochilova. Jadidlar ta'limotida milliy uyg'onish g'oyalari.....	80
Ф.А.Ахмедшина Гендерные стереотипы в учебниках для начальной школы.....	86
J.Yaxshilikov, Sh.A.Dusmanov. Globalshuv sharoitida yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy zaifligi sabablari va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari.....	90
A.Hotamov. Muammo — ilmiy bilish shakli sifatida.....	96
R.T.Zohirov. Oila institutida modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari.....	98
S.S.Karimov. Yoshlarda hayotiy maqsadlarni to'g'ri shakllantirishning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.....	103
U.A.Umurzakov. Milliy g'oyada milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi.....	106
X.Xudayberdiyeva. Jadidlarning vatanparvarlik g'oyalari va ularning falsafiy talqini.....	108
M.A.Matnazarova. Globalshuv sharoitida etnomadaniy jarayonlar va millat muammosi.....	111
A.Aripov. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda bag'rikenglik tamoyilining o'rni.....	115

## FILOLOGIYA FANLARI

J.Sh.Djumabayeva, V.Q.Madiyoro. Arxaizmlarning yuzaga kelish sabablari va arxaiklashish hodisasi.....	118
J.A.Jo'rayev. "Gulshanul - asror" asarining Kurteyl tomonidan nashrga tayyorlangan matni xususiyatlari.....	120
N.J.Yarashova. Bola nutqida bilingvizm fenomenining kognitiv asoslari.....	124
N.I.Soatova. O'zbek bolalar she'riyatida Shuhratning o'rni.....	126
N.Avazov. Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy ijodida millat talqini.....	131
Sh.I.Siddiqova. O'zga gap grammatikasi.....	135
O.X.Fayzullayeva. She'riy turkumlarda syujet masalasi.....	138
I.A.Ismoilov. Navoiyning sarlavha yaratish mahorati.....	142
O.M.Ochilov. Xitoy zamonaviy she'riyatining shakllanishida evolyutsiya nazariyasining o'rni.....	146
U.K.Axmedova. Xorijiy tillarni o'qitishda talabalarning XXI asr ko'nikmalarini loyihaga asoslangan ta'lim orqali rivojlantirish.....	150

## TABIY VA ANIQ FANLAR

M.Barakayev, A.Shamshiyev, E.Ostonayev. Muammoli vaziyatlar metodi - matematika fanini samarali o'qitish omili sifatida.....	154
A.Y.Samiyev. O'zbekistonda veterinariya fanining rivojlanish tarixi.....	157
K.X.Abdualiyeva. Kimyodan masalalar yechishni tashkil etishda individual va differensial yondashuv.....	159
I.E.Ibragimov. "Botanika" fanidan o'quv-dala amaliyotlarini tashkil etish usullari.....	163

## YOSH TADQIQOTCHILAR

G.N.Abdullayeva. Zamonaviy tilshunoslikda "vafo" konsepti.....	167
Ш.А.Сиддикова. Формирование необходимых компетенций у будущих педагогов для достижения хороших результатов в международных исследованиях риза.....	170
Sh.E.Doniyorova. Bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishda artpedagogikaning o'rni.....	172
L.B.Doliyeva. Kinesik frazeologiyaning emotsionalik xususiyatlari.....	175
I.Sh.Xamrakulova. Designing a system of formation of logic-psychological thinking of chess players.....	181
R.Xurramov. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida evristik fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	184
K.R.Aliyeva. The reflection of the lyrical heroic character in journalistic lyricism.....	189
M.Masharipov. Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida antonimlarning leksik-semantik voqealanishi.....	194
X.X.Xaitov. "Alpomish" dostonida qo'llanilgan xalq o'yinlari nomlari xususida.....	199
G.X.Jo'rayeva. "Oydinda yurgan odamlar" asarida qo'llanilgan maqollarning lingvomadaniy tahlili.....	202
Y.Q.Qurbanova. O'quvchilarda sintaksisga oid lingvistik kompetensiyani shakllantirish usullari.....	205
Sh.N.Husanova. Shukur Xolmirzayev ijodida milliylik va o'ziga xoslik.....	209
F.R.Abdullayev. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholashning amaliyotdagi holati tahlili.....	212
H.M.Djumayeva. Talabalarni ichki tahdidlardan himoya qilishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish.....	216
D.X.Yo'ldosheva. Pleonazm va unga yondosh hodisalar: tautologiya, antiellipsis, perissologiya, dittologiya.....	219
G.A.Qodirova. Talabalar xorijiy tillarni o'qitishda shaxsga yonaltirilgan ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	223
M.O.Xoldarova. Ta'limda aralash o'qitish metodikasi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	226
S.A.Rasulov. Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyati monitoringini modellashtirish xususiyatlari.....	230
M.N.Qo'ldasheva. Talabalarni innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga o'rgatish metodikasi.....	233
B.M. Hamidova. O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda o'quvchilarning ota onalari bilan o'qituvchilar o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati.....	236

ABDULLA QAHHOR- MASHHUR KOMEDIYANAVIS  
(Adib tavalludining 115 yilligiga)

*Murodulla Alishboyevich Jo'rayev - f.f.b.f.d (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotida komediya janrining shakllanishi, tadrijiy rivoji, tarixiy va badiiy-estetik xususiyatlari Hamza, Abdulla Qahhor kabi yirik adiblarning yetuk asarlari misolida o'rganildi. Jumladan, Abdulla Qahhorning komediya janri taraqqiyotidagi ulkan xizmati va adibning badiiy mahorati yoritildi hamda bugungi komediyana vislikdagi ayrim muammolar xususida fikr yuritildi.

**Аннотация:** В данной статье исследуются становление, постепенное развитие, исторические и художественно-эстетические особенности комедийного жанра в узбекской литературе XX века на примере зрелых произведений таких великих писателей, как Хамза, Абдулла Каххор. В частности, будут отмечены большие заслуги Абдуллы Каххора в развитии комедийного жанра и художественное мастерство писателя, а также обсуждены некоторые проблемы современного комедийного творчества.

**Abstract:** In this article, the formation, gradual development, historical and artistic-aesthetic features of the comedy genre in the Uzbek literature of the 20th century are studied on the example of the mature works of great writers such as Hamza, Abdulla Qahhor. In particular, Abdulla Qahhor's great service in the development of the comedy genre and the artistic skills of the writer will be highlighted, and some problems in today's comedy writing will be discussed.

**Kalit so'zlar:** komediya, janr, badiiy mahorat, adabiyotshunoslik, ma'naviyat, san'at.

**Ключевые слова:** комедия, жанр, художественное мастерство, литературоведение, духовность, искусство.

**Keywords:** comedy, genre, artistic skills, literary studies, spirituality, art.

Jahon madaniyatining uzviy qismi bo'lgan o'zbek adabiyotida komediya janrining paydo bo'lishi va yetuk namunalarining yaratilishi badiiy-estetik tafakkur rivojida yangi bir bosqich bo'lishi bilan birga tanqid va adabiyotshunoslik uchun ham muhim manba va tadqiq obyektini sanaladi. Zero, komediya janri xususiyatlari ham qotib qolgan, qat'iy o'zgarimas mezonlar bo'lmay, balki ular turli davrlarda turlicha mohiyat kasb etishi adabiy jarayon ning obyektiv bir qonuniyati. Ijtimoiy hayot va inson o'y-kechinmalari, turfa holatlarining badiiy in'ikosi bo'lgan komediyaning ham xos janr xususiyatlari tarixan o'zgarib borishi, bu tadrijiy jarayonda ayrim belgi va jihatlarning almashinuvi, ba'zi xususiyatlarning yangicha mazmun-mohiyat kasb etishi tabiiy bir holdir. O'zbek komediyalarining tarixiy taraqqiyot tamoyillarini belgilash, ularning muvofiq adabiy-nazariy tasnif va tavsifini aniqlash maqsadida bu murakkab badiiy-estetik jarayonni o'rganishda mazkur janrning yetuk namunalariga asoslaniladi. Bular - Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Maysaraning ishi", Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", "Tobutdan tovush", Erkin Vohidovning "Oltin devor" va Sharof Boshbekovning "Temir xotin" komediyalaridir. O'zbek komediyalarida shakl va mazmun uyg'unligining takomillashishi, g'oyaviy-estetik va badiiy talqin va tasvirlarning izchilligi va mukam mallashishida ushbu asarlar alohida ajralib turadi. Bu asarlarning yaratilishi va tahlili misolida milliy komediyamizning o'ziga xos tarixiy tadrijiy rivojlanishi va uning g'oyaviy-estetik omillari, janr tabiatida yuz bergan sifat o'zgarishlarini bevosita adabiy jarayon kontekstida izchil yoritish adabiyotshunoslik va ma'naviyatimiz uchun ham alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev asarlari va nutqlarida ta'kidlanganidek, ma'naviy qadriyatlarimiz, adabiyot va san'atimizni chuqur o'rganish va ulardagi ibratli jihatlarni xalqimiz va ayniqsa, yoshlarimizni tarbiyalashga yo'naltirish muhim vazifalardandir<sup>1</sup>.

O'zbek komediyalari tabiatida salkam bir asrlik taraqqiyotida yuz bergan o'zgarish larni o'rganish davomida, bir tomondan, milliy

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori. Prezidentning mamlakatimiz ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruzasi. "Xalq so'zi", 4-avgust, 2017-yil.

komediyalarning o'ziga xosliklari aniq lansa, ikkinchi tomondan, ularning rus va jahon komediyalari bilan mushtarak va farqli jihatlari ham oydinlashadi. Bu jihatdan atoqli adib Abdulla Qahhor ijodi ayriqcha e'tiborga loyiq. Shuni faxr bilan aytish lozimki, Abdulla Qahhor nafaqat milliy o'zbek prozasiva ayniqsa, realistik hikoyachilik rivojida beqiyos rol o'ynadi, balki realistik dramaturgiya taraqqiyotida ham o'zining nodir iste'dodini ko'rsata oldi.

Shu o'rinda aksariyat adiblar ijodi uchun xos bo'lgan muhim bir jihatga, ya'ni yetuk asar yaratish uchun, mavzuni chuqur o'rganish va bo'lajak qahramonlari-odamlar qalbiga qalbini payvand qila olishi zarurligiga e'tibor qarataylik. Abdulla Qahhorning ilk komediyasi "Shohi so'zana" ("Yangi yer") yetuk san'at asari bo'lishining sabab va omillari ko'p. Eng avvalo, bu asarning qanday sharoit da va qanday holatda yaratilgani ham ko'p jihatdan o'rganishga loyiq.

Yozuvchining turmush o'rtog'i, yetuk matnshunosvatarjimon Kibriyo Qahhorovanning "Chorak asr ham nafas" kitobida bu mashhur komediyaning yaratilish jarayoni va ijodiy tarixi haqida juda qimmatli va ishonchli ma'lumotlar keltiriladi. Ya'ni Abdulla Qahhor kolxoz, sovxozni bir aylanib darrov ocherk yozib tashlayveradigan yozuvchilardan emas edi. Adib yozilajak asarlarining qahramoni bilan yaqindan tanishmaguncha qo'lga qalam olmagan. 1948-yil avgustida ular Mirzacho'lga borishadi. O'sha yillari Mirzacho'lning ko'chalari to'piqqa uradigan tuproq, salgina yomg'ir tashlasa, bir haftagacha qurimay, shirachday bo'lib yotar edi. Kolxoz raisi bilan Abdulla Qahhor ko'pincha ot minib dala aylanishardi. Kolxozning kichkinagina dvijogi bo'lib, birlas tap-tap qilib ishlar edi-yu, soat to'qqiz bo'lar-bo'lmas to'xtab qolardi.

Sal vaqtda sovuq ham tushib qoldi. Hujrani isitay desak na o'tin bor, na ko'mir. Toshkentga tushib bir mashinada o'tin-ko'mir olib chiqdik, eski shahar bozoridan bitta o'ttizinchi lampa oldik. Abdulla Qahhor shu lampadan kerosinka yasadilar. Elektr chiroq o'chgandan keyin lampa ham uyni yoritardi, ham isitar, yana ustiga ustak unda choy ham qaynatardi edik. Lekin biror marta Abdulla Qahhor, shu sharoitda yashab ijod qilish mumkinmi, deb shikoyat qilmaganlar. Kun bo'yi yo suvora, yo piyoda dala aylanar edilar. Bir narsani alohida e'tirof qilish kerakki, garchi biz uncha-muncha qiynalgan bo'lsak ham, Mirzacho'l safari Abdulla Qahhor ijodida katta burilish yasadi. "Yangiyer" ("Shohi so'zana")

komediyasining "poydevori" ham o'sha yerda qo'yildi. Undagi Mavlon, "Sinchalak"dagi Eshon kabi obrazlarning protiplarini Abdulla Qahhor Mirzacho'lga uchratganlar". Afsuski, o'sha yillari adib bedavo bir dardga, qand xastaligiga ham chalingan bo'ladi.

Kasalxonadan tuzalib chiqqach, "Shohi so'zana" komediyasini yozib tugatadi. Bu komediya 1949-yili respublika miqyosida o'tkazilgan yopiq konkursda "Mirzacho'llik" imzosi bilan qatnashib, yuksak mukofotga sazovor bo'ladi. O'sha yili o'zbek sahnasining otaxoni Yetim Bobojonov bu asarni Hamza nomidagi akademik drama teatri sahnasida muvaffaqiyatli namoyish etadi. 1950-yili SSSR Davlat mukofotining laureati Y. German bilan B. Rest tarjimasida "Shohi so'zana" Moskvada, "Zvezda" jurnalining mart sonida chop etiladi va kelgusi yili komediya SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ladi. Abdulla Qahhor bu komediyasi bilan birinchi bo'lib o'zbek dramaturgiyasini umumittifoq sahnasiga olib chiqadi. Keyinchalik bu asar bir qator xorijiy mamlakatlarda ham sahnalashtiriladi va 70 dan ortiq teatrlarda muvaffaqiyatli namoyish qilinadi va adabiyotimizga katta shuhrat keltiradi. Bu komediya misolida badiiy ijodning muqaddas bir printsiptini "kashf" etish mumkin: ya'ni chinakam san'at asari yaratish uchun yozuvchi o'sha hayotda yashashi va undagi barcha quvonchu tashvishlarni o'z boshidan qayta kechirishi talab etiladi. Abdulla Qahhorning cho'lquvar-paxtakorlar bilan birga yerto'la-zemlyanka-qora uychalarda yashab, mashhur "Shohi so'zana" komediyasini yozganligi ham ijod ahliga hayotiy bir saboq bo'lishi mumkin.

Yozuvchining asar yaratish jarayonida bu muqaddas ijodiy printsiptiga izchil amal qilganligi va talabchanligini quyidagi misolda ham ko'rish mumkin. Adib dastlabki o'nlab asarlarini mutlaqo san'at asari emas deb hisoblagan va ularni butunlay tanqidiy baholab, biron to'plamiga ham kiritmagan. Yoki 1937-1939 yillarda yozgan va hamkasblari ijobiy baholagan "Tashvish" nomli ijtimoiy-axloqiy mavzudagi dastlabki komediyasidan ham ko'ngli to'lmagan va adabiyotga, ijodga bo'lgan talab-mas'uliyati yuqori bo'lganligidan ham bu asarni e'lon qilishni lozim topmagan<sup>2</sup>.

Ana shunday talabchanlik bilan yaratilgan "Shohi so'zana" komediyasida Xolniso va Hamrobuvi xarakteridagi o'ziga xos jihatlar samimiy kulgi vositasida estetik tanqid ostiga olinadi. Va shu orqali komediyadagi voqealar rivojlantiriladi, oqibatda asar boshida qo'yilgan tugun komik konfliktlar jarayonida, xarakterlar

kulgisi orqali yechiladi. "Shohi so'zana" komediyasidagi kurash, ziddiyat komik va takrorlanmas xususiyatlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Ongida eskicha tafakkur mevalari qotib qolgan, qoloq fikrlash unsurlari mavjud, jamiyatimizdagi boshqa insonlar qarashlariga zid fikrlovchi xarakter egalari o'sib kelayotgan yangi, ilg'or kuchlarga to'qnash kelib, ularga asossiz va noo'rin holatda qarshi kurashishga to'g'ri kelganligi asarda ishonarli aks etgan<sup>3</sup>.

Komik xarakterni tipiklashtirish, uni fosh qilish pafosi, muallif mahorati komediyaning badiiy-estetik va ijtimoiy-g'oyaviy va tarbiyaviy ta'sir kuchini belgi laydi. Chunonchi, Abdulla Qahhorning 1962-yili yaratilgan "Tobutdan tovush" ("So'nggi nusxalar") komediyasi boshidayoq qisqa satrlarda voqelik sodir bo'lgan haqiqiy tipik sharoitni mahorat bilan ko'rsatiladi: "Machitga devor qo'shni Nusrat Suxsurovning hasha matli hovlisida mehmonxona. Divan. Qoziqda salla bilan to'n. Bu yerda tuni bilan ichkilik bo'lgan. Xontaxtada konyakdan bo'shagan shishalar, keragidan ko'proq ryumka, qolgan-qutgan ovqat. Hamma uchib yotibdi: Nusrat Suxsurov divanga intilganu yetolmagan; Yusuf Suxsurovning bir oyog'ini quchoqlagan qolgan; fartuq tutib olgan Qori sichqon poylagan mushukday jag'ini xontaxtaga qo'yganicha pishillab yotibdi"<sup>4</sup>.

Ushbu muhtasar remarka orqali yozuvchi komediyaning satirik ruhi va asosiy personajlari bilan tanishtirib, tomoshabinda bu yoqimsiz manzara va nomaqbul kimsalarga nisba tan istehzoli kulgi uyg'ota oladi va ularning keyingi xatti-harakatlariga bo'lgan qiziqishni ham oshiradi.

Komediyadagi Suxsurov – mol-mulk va boylik orttirishga ruju qo'ygan ayyor bir shaxs. Pora, pul, boylik degan joyda har qanday insoniy tuyg'ulardan, vijdonidan ham voz kecha oladi. Uning diyonatsizligi, pastkashligi oxir-oqibat shu darajaga borib yetadiki, boylik orttirish ilinjida or-nomusni ham unutadi. Komediyada poraxo'rlik muqarrar tarzda boshqa salbiy illatlar, boshqa iflosliklar bilan birlashib ketishi hayotiy haqiqat ekanligi mahorat bilan ochib berilgan. Poraxo'rlik, kooruptsiya bor joyda albatta, maishatparastlik, fohishabozlik, ikkiyuzlamachilik, munofiqlik va laganbardorlik kabi illatlar ham bo'y ko'rsatishi tabiiy hol. Oxir-oqibat, bu tubanliklar barchasi birlashib poraxo'rlar dunyosini ma'na viy tanazzulning eng qorong'u jarliklari sari yetaklashi va

bular jamiyat uchun ham katta xavf solishi komediyada haqqoniy yoritilgan.

Yetuk san'at asarlarini o'rganishda va ularni tahlil etishda, eng avvalo, badiiyatning yuksak mezonlariga asoslanilganidek, adibning chuqur milliylik va xalqchilik bilan yo'g'rilgan komediyalarini o'rganishda ham, albatta, ularning dolzarb g'oyaviy-badiiy muammolari va ayniqsa, yozuvchining inson xarakterini yaratishdagi mahoratiga asosiy e'tibor qaratilishi talab etiladi. Afsuski, adibning boshqa asarlari kabi "Tobutdan tovush" komediyasining yuksak badiiyligi, yorqin hayotiy obrazlari xolisona baholanmadi. Aksincha, asarga ko'proq mafkuraviy talablardan yondashildi va bugungi "sotsialistik jamiyat qora bo'yoqlarda aks ettirilgan" deb, keskin tanqid qilindi. Oqibatda adib istamasa ham, mafkura talabi bilan asarni qayta yozishga majbur qilindi.

Mustabid tuzumning hukmron mafkurasi san'at asarini, xususan, satirik komediyaning o'ziga xos qat'iy qoidalari va talab-mezonlarini unutib, asardagi har bir sahna ko'rinishidan g'oyaviy-siyosiy xato topishga zo'r beradi. Komediyada mahorat bilan tasvirlangan hayotiy lavha va so'z-iboralar butunlay noto'g'ri talqin qilinadi. Mash'um sho'ro tuzumining g'addor siyosati tufayli asar haqida biryozlama hukm va xulosa chiqarilganini Abdulla Qahhor o'kinch bilan komediyadagi bir-ikki ta'sirchan sahna ko'rinishlari orqali shunday izohlagan edi: "Sahnada poraxo'r pora berayotgan odamni aldash uchun: "Men poradan hazar qilaman, poraning yuzi qursin", - deydi. Munofiqona mafkuraning "xushyor" vakillari bu so'zlarni ham siyosatga qarshi, - deb biladi: "So'z pul to'g'risida ketayotipti, pulda bizning gerbimiz bor-ku, "yuzi qursin" degan gapni sovet tomoshabinlari qandoq tushunadi!"<sup>5</sup>

Yoki sahnada machitning imomi, badkirdor kimsa Qori mast bo'lib uchib yotipti, uning o'ynashi kiradi. Shu payt machitdan azon tovushi eshitiladi-yu, fisq-fujur keyinga qoladi. Adabiyotga mafkuraviy qoliplardan yondashuvchi tanqidchilar bu lavhadan ham siyosiy xato topadi: "Dinga qarshi kurashayotgan hozirgi sovet davrimizda sahnadan azon aytilishi qandoq bo'ladi?" So'z pul haqida emas, pora haqida ketayotgani, odamlarni butxonaning jomi xristian, azon musulmon qilmagani bilan bularning ishi yo'q!"<sup>6</sup> Abdulla Qahhorga xos mantiqiy teranlik bilan aytilgan bu e'tirozlardan mazkur

2 Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. -T.: Fan, 2004. 197-b.

3 Qahhorova Kibriyo. Chorak asr ham nafas. -T.: Yozuvchi, 2017. 33-35-bb.

4 Qahhor Abdulla. Tobutdan tovush. -T.: O'zadabiyonashr. 1962. 12-13-b.

5 Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. -T.: Iqtisod-moliya, 2008. 78-b.

6 Qo'chqorova M. Abdulla Qahhor Istiqlof adabiyotshunosligi ko'zgasida. -T.: Tamaddun, 2018. 109-b.

komediyaning g'oyaviy-badiiy mazmuni va obrazlar talqini zamiridagi chuqur hayotiy ma'nolarni anglash bilan birga, ayni paytda, o'zbek tanqidchiligi saviyasi qanchalik past bo'lganligini ham ko'z oldimizga keltiramiz.

Abdulla Qahhorning "Tobutdan tovush" komediyasida ham axloq muammosi yetakchi o'rinda turadi, ayni vaqtda, unda chuqur ijtimoiy dard va muammolar ham o'z ifodasini topgan. Bu masalalar axloq rakursi orqali ilgari suriladi. "komediya yaxlit olib qaralganda, davrning dolzarb ma'naviy-axloqiy muammolarini yoritishga, jamiyat, tuzum ma'naviy-axloqiy jihatdan tanazzulga uchrayotganini ko'rsatishga, bundan ogoh etishga bag'ishlangan"<sup>7</sup>.

Dolzarb muammoni va achchiq hayotiy haqiqatni xalq va jamiyat manfaatlarini nuqtai nazaridan haqqoniy aks ettirgan komediya qadrlanishi o'rniga, aksincha, sotsialistik jamiyatga bir tuhmatdek qabul qilingani sababi adibning relistik tasviri va beqiyos satirasiga bog'liqligi adabiy jamoatchilikka to'la oshkor bo'ldi. Aslida, yozuvchilikni kelajakning maxsus muxbiri deb ta'riflagan Abdulla Qahhor jamiyat rivojiga eng katta to'siq bo'lgan illatlarni ancha oldin ko'ra olgan va bundan xalqimizni ogoh etgan. Ya'ni adib hamisha xalqning dilidagi, tilining uchidagi haqiqatni aytishga intilib, jamiyatda ildiz otgan korrupsiyaga qarshi haq so'zi bilan kurashgan. Bu achchiq haqiqat badiiy ijod va tanqidchilik uchun ham unutilmas bir saboq bo'ldi deyish mumkin.

Afsuski, keyingi yillarda yaratilayotgan komediyalarda zo'rma-zo'raki kulgini yuzaga chiqarishga harakat qilish soxtalikni, bachkana kulgini paydo qilib, natijada asarning badiiy-estetik ta'sir kuchini va tomoshabopligini pasaytirmoqda. Shu munosabat bilan taniqli adib va munaqqidlarning mulohazalari ham bu holatni tasdiqlashini kshrimiz mumkin; "Bugungi kunda komediya deb atalmish sahna

asariga tiyiqsiz chuchmallik, pardasizlik, ko'chani so'zlari va hissiyoti surlik bilan kirib kelmoqda. Komediograflar to'qnashuvlar tarngligi, dialoglar puxtaligi haqida emas, ifodaning qichig'i, so'zlarning pardasizligi haqida ko'proq bosh qotirish moqda. "Xotinlar "gap"idan chiqqan hangoma", "Xotinimning eri", "Erginamning orzusi", "Qalliq o'yin", "Super qaynona" singari bitiklarning nomiyoq tomoshachilarning didini buzishi mumkinligi bilan jiddiy estetik xavf tug'diradi"<sup>8</sup>.

Bu fikrni mutlaq haqiqat deb da'vo qilmagan holda, shuni e'tirof etish lozimki, so'nggi yillardagi qator dramatik asarlarda, chindan ham, o'zbek mumtoz va jahon dramaturgiyasidagi yuksak badiiylik va chuqur hayotiy mazmun o'rniga yengil-elpi talqinlar ko'paygan. Ayrim shoir-yozuvchilar borki, ular, asosan, o'quvchi yo tomoshabinni qanday qilib bo'lsa-da kuldirishga urinadi. Badiiylikdan yiroq bo'lgan bunday zaiflik va adabiy qusurlarni bartaraf etish va "atomdan kuchli bo'lgan" adabiyotning saviyasini ko'tarish bobida Abdulla Qahhor kabi ustoz adiblarning ijodiy an'ana va mahorati bugungi yosh komediyanavislari uchun o'ziga xos badiiy mahorat maktabi bo'la oladi. Darhaqiqat, O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov, akademik Baxtiyor Nazarov va yirik qahhorshunos Usmonjon Qosimov kabi taniqli olimlarimiz yakdillik bilan aytganlaridek, Abdulla Qahhor ijodini yanada chuqurroq, teran, ayniqsa, jahon adabiyoti kontekstida va badiiy mahorat sir-asrorlari negizida mustaqillik davrining erkin xolis mezonlari asosida o'rganish va tadqiq etishning yangi ikkinchi bosqichi boshlanmoqda. Qahhor iste'dodi qudratining rang-barang qirralarini uning o'ziga munosib ravishda keng va chuqur yoritish masalasida biz, tanqidchilar adib ijodi va betakror siymosi oldida doimo qarzdormiz.

## CHO'L PON IJODI OZOD SHARAFIDDINOV TALQINIDA (Cho'lpon tavalludining 125 yilligiga)

*Gulzina Ravshanovna To'lisheva - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada Cho'lpon ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi, bu borada taniqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov tadqiqotlarining o'rnini hamda ilmiy ahamiyati tadqiq etilgan.

**Аннотация:** В статье исследуется изучение творчества Чулпона в узбекском литературоведении, роль и научное значение исследований известного литературоведа Азада Шарафиддинова.

**Abstract:** The article examines the study of Chulpan's work in Uzbek literary studies, the role and scientific significance of the research of the well-known literary critic Azad Sharafiddinov in this regard.

**Kalit so'zlar:** adabiy tanqid, adabiyotshunos, talqin, tahlil, badiiy ijod, shoir, she'r, millatparvar.

**Ключевые слова:** литературовед, литературовед, интерпретация, анализ, художественное творчество, поэт, поэзия, националист.

**Keywords:** literary criticism, literary critic, interpretation, analysis, artistic creation, poet, poem, nationalist.

XX asr o'zbek adabiyoti yorqin siymolarga boyligi bilan dunyo madaniyati tarixida alohida bir davrni tashkil etadi. Shunday ulug' ijodkorlardan biri, shubhasiz, Cho'lpondir. Haqiqatan ham, Abdulhamid Cho'lpon ijodi olmos yanglig' serqiradir. Uning ilk qadamlaridan boshlab adabiyot va badiiy ijod mohiyatini qanchalik chuqur ang'ay olganini 1914-yili yozilgan "Adabiyot nadir" maqolasi ham yaqqol namoyon etadi. Ushbu maqolasida Cho'lpon adabiyot xususida fikr yuritarkan, chinakam millatparvar bir ziyoli sifatida Turkistonning istiqboli haqida qayg'uradi. Xalqning kelajagini ta'minlaydigan omillar to'g'risida mulohaza yuritadi. Shoir hayoti va ijodini butun umri davomida o'rgangan va bu yo'lda qancha to'siq va dashnomlarga uchragan zabardast adabiyotshunos, endilikda O'zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov to'g'ri e'tirof etganidek, Cho'lponning teran mazmunga ega bunday bashoratomiz mulohazalari bugun ham qimmatini yo'qotgan emas<sup>1</sup>.

Cho'lpon shunday yozgan edi: "Hech to'xtamasdan harakat qilib turgan vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qaro kirlar ila xiralangan ruhimiz uchun shul qadar adabiyot kerakdir.

Adabiyot yashasa, millat yashar: adabiyoti gullamagan va adabiyotining taraqqiyosiga cholishmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotidan, o'ydandan, fikran mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur"<sup>2</sup>.

Ko'rinadiki, yosh shoirning ilk asarlaridayoq badiiy ijodning asosiy maqsad-vazifasini to'g'ri ang'ay yetganligi va she'riyatining bosh mavzusi xalqini hayoti bo'lishi kerakligi bo'lajak yirik shoir ijodiga katta umid tug'diradi. Cho'lponning dastlabki she'rlarida ham va keyinchalik ijodiy kamolotga yetishgan davridagi she'rlarida ham asosiy o'rin tutgan muqaddas mavzulardan biri - bu ona - Vatan madhi, uning erk va istiqbolini kuylash bo'lgan.

Adabiy faoliyatini kichik maqola va hikoyalardan boshlagan Cho'lpon keyinchalik betakror ijodi va she'riyati bilan o'zbek adabiyotining yuksak cho'qqilaridan biriga aylandi. Uning yoniq insoniy tuyg'ular ifodalangan she'rlari 20-30-yillarda Oybek, G'afur G'ulom, Uyg'un, Hamid Olimjon, Mirtemir, Usmon Nosir singari shoirlarning kamol topishida poetik mahorat namunasi bo'ldi. Shu bilan birga, Cho'lpon nasr va dramaturgiyada, tarjima san'ati va adabiyotshunoslik sohasida ham barakali ijod qildi. U haqli ravishda XX asr

o'zbek adabiyotining eng yorqin siymolaridan biri sanaladi va e'zozlanadi.

Cho'lponning ijodkorlar safiga qaytishi adabiyotimiz tarixidagi kemtiklikni to'ldiradi, uning asarlari esa adabiyotimiz bosib o'tgan murakkab yo'llar haqidagi tasavvurimizni boyitibgina qolmay, bugun ham bizga katta zavq va ma'no bag'ishlaydi. Ular insoniy mazmunining teranligi, goyalarining baland pardalarda kuylangani bilan birga, chinakam san'at namunalari sifatida biz uchun g'oyat ardoqlikdir<sup>3</sup>.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ko'pqirrali iste'dod sohibidir. U, eng avvalo, hassos shoir sifatida tanilgan va o'zbek she'riyatida chin ma'noda yangi badiiy-estetik ufqlar ochgan. Ayni choqda, uning o'zbek realistlik nasri va dramaturgiyasi, badiiy tarjima, publitsistika, tanqid va adabiyotshunoslik sohalaridagi xizmatlari ham beqiyosdir.

Cho'lponning adabiyotga ilk qadamlaridanoq mustamlaka sharoitida g'afolat og'ushidagi xalqni uyg'otish, uning qalbiga ma'rifat, milliy taraqqiyot va Istiqlol g'oyalarini singdirishga kirishganidan shahodat beradi. Jadid adabiyotining bunday ilg'or g'oyalari Cho'lpon ijodining asosini tashkil etadi. Odatda, Cho'lpon haqida gap borganda, birinchi navbatda, «Vijdon erki», «Ko'ngil», «Kishan» singari ruhning, qalbning hur bo'lishi to'g'risidagi she'rlari yodga keladi. Ana shu tuyg'u shoirning «Buzilgan o'lkaga» singari Sho'ro hokimiyatining kirdikorlarini, milliy siyosatining reaksiyon mohiyatini fosh etuvchi she'rlarida kuchli aks-sado berib, Istiqlol uchun kurash g'oyasi bilan tutashib ketgan. Shu kabi she'rlar o'z davrida xalqning peshqadam vakillarida milliy mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot uchun kurash g'oyasini uyg'otgan. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1897-yilda Andijonda tug'ilgan. Bu yilni ko'rsatishimizga sabab, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov o'zining «Cho'lpon» nomli asarida ta'kidlaganidek, rus adibi Vasiliy Yanning taklifi bilan 1934-yili Cho'lpon tomonidan yozib berilgan va Katta sovet entsiklopediyasiga kiritilgan avtobiografiyasida uning o'zi xuddi shu yilda tug'ilganini qayd etgan. Cho'lpon ijodini turli xil taxallus bilan boshlagan. XX asr boshlarida xalqimiz feodalizm va mustamlaka zulmi ostida erksiz bo'lib yashayotgan edi. Qo'shni mamlakatlarda milliy inqilob sodir bo'lib, qator xalqlar o'z erki va huquqi uchun kurash boshlagan bir davrda g'afolat uyqusida, jaholat va nodonlik botqog'ida yotgan o'zbek elini uyg'otish Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Hamza singari ijodkorlarning zimmasiga tushgan edi. Cho'lpon bu davrda «Qurboni jaholat», «Do'xtur Muhammadiyor» singari hikoyalarini va xalq ongu-tafakkurini boyitishga qaratilgan

publitsistik maqolalar yozib, boshqa jadidlar bilan birga milliy Istiqlol g'oyalarini kuylash yo'lida xizmat qiladi. Cho'lpon 20-yillarning o'rtalarida ham she'riy, ham nasriy, ham dramatik ijod bilan qizg'in shug'ullanadi. Natijada «Buloqlar» (1922), «Uyg'onish» (1923), «Tong sirlari» (1926) nomli she'riy to'plamlarini hamda «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy g'iz», «Oq podshoning in'omi» singari ko'plab hikoyalari va qator maqolalarini e'lon qiladi. Ammo 30-yillarda avj olgan mafkuraviy tanqid va tahdid oqibatida uning asarlari bosilmay qoldi. Shundan keyin Cho'lpon ko'proq badiiy tarjima bilan shug'ullanishga majbur bo'ladi. Shekspirning «Xamlet», Pushkinning «Boris Godunov» va «Dubrovskiy», Gogolning «Tergovchi», Frankoning «Feruza», Gorkiyning «Ona», Andreyevning «Etti osilgan kishining hikoyasi» kabi yirik asarlarni mahorat bilan tarjima qilib, o'zbek tarjimachilik maktabining asoschilaridan biriga aylanadi.

Afsuski, eng faol va millatparvar kuch sifatida maydonga kelgan jadidchilik harakati va adabiyotining asl maqsadi va ulkan ijtimoiy-siyosiy ahamiyati ko'plab tarixiy-adabiy manbalarda butunlay biryozlama talqin etib kelindi. Behbudiy va Qodiriy, Fitrat va Cho'lponlar asos solgan jadid adabiyotining ulkan ahamiyati shundaki, tarixiy haqiqatni favqulodda katta jasorat va mahorat bilan, xalq va millat manfaatlarini nuqtai nazaridan haqqoniy aks ettirgan.

Ana shunday jasorati va millatparvarligi uchun Stalinchi qotillarning qo'llarida qatl etilgan begunoh, yosh pokiza siymolarimiz - Abdulla Qodiriy, Fitrat, Elbek, Go'zi Yunus, Botu, Otajon Xoshim, Gulom Zafariy va boshqa fidoiy ziyolilar qatorida Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham bor edi. Ya'ni Cho'lpon ham xalqimizning boshqa ko'pgina asl farzandlari kabi Stalin qatag'onining qurboni bo'ldi - 1938-yili «xalq dushmani» sifatida otildi, asarlarini nashr etish, nashr etilganlarini o'qish va umuman, Cho'lpon nomini tilga olish qat'iy qat'iy taqiqlandi. Faqat 1956-yili Stalin shaxsiga sig'inish oshkora qoralangandan keyingina Cho'lpon ham oqlandi. Ammo shundan keyin ham yana 30-yil mobaynida uning asarlari nashr qilinmadi, ijodi o'rganilmadi, adabiyotdagi o'z o'rniga qaytarish ishi paysalga solib kelindi. Bunday nohaqlikning achinarli oqibatini ko'rsatuvchi tarixiy bir faktni misol tariqasida keltirib o'taylik. 1968-yili asosan Ozod Sharafiddinovning ko'p yillik izlanishlari natijasida Cho'lpon va boshqa qatag'on qurbonlari bo'lgan shoirlarning yetuk she'rlaridan «Tirik satrlar» nomli to'plam tayyorlanadi. Ammo shu noyob kitob o'sha davrdagi hukmron kommunistik partiya siyosati tufayli taqiqlanadi va johillik bilan yo'q qilinadi. Lekin bu taqiqlar ham O.Sharafiddinovning

haqiqatga bo'lgan ishonchini so'ndirolmaydi va u Cho'lpon ijodini targ'ib etishdan to'xtamaydi. Nihoyat, XX asr 80-yillari o'rtalarida sobiq sho'ro mamlakatida qayta qurish va oshkoralik jarayoni boshlangach, ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgach, Cho'lponga nisbatan yo'l qo'yilgan adolatsizlik barham topa boshlaydi. Ozod Sharafiddinov, Naim Karimov kabi fidoiy adabiyotshunoslarimizning yelib-yugurishlari natijasida qisqa muddatda uning «Bahorni sog'indim», «Yana oldim sozimni», «Adabiyot nadir?» nomli kitoblari va uch jildlik saylanma asarlari nashr etildi, teatr sahnalarida dramalari qo'yila boshlandi. «Kecha va kunduz» romani asosida videofilm yaratildi, shoir ijodi to'grisida turli-tuman maqolalar va risolalar e'lon qilindi. Uning hayoti va ijodini yorituvchi hujjatli film dunyoga keldi, muntazam bulmasa ham, Cho'lpon kunlari o'tkazila boshlandi. Cho'lpon ijodi bo'yicha D.Quronov, Sh.Rizayev, N.Yo'ldoshev kabi tadqiqotchilarning dissertatsiyalari yoqlandi. Abdulla Qodiriy va Fitrat bilan birga Cho'lpon ham Alisher Navoiy nomidagi Respublika Davlat mukofoti bilan taqdirlandiki, bu ham xalqimizning buyuk san'atkorlar xotirasiga chuqur ehtiromidan yorqin nishonadir.

O'sha murakkab va ziddiyatli davr va adabiy muhitda ba'zi bir shoirlar millatchilikni fosh qilishda boshqa yo'ldan boradilar - ular millatchilik kayfiyatidagi ayrim she'rlarni olib, o'sha she'rnin asosiy g'oya va mazmuniga qarama-qarshi g'oyalarni olg'a suradigan bahsli she'rlar yaratadilar. Masalan, Cho'lponning «Buzilgan o'lkaga» she'riga qarshi G'ayratiy «Tuzalgan o'lkaga» she'rini yozadi. Agar Cho'lpon she'rida tog'lar ko'klarga salom bergan o'lkaning boshida bugun bulut «ko'lanka» solayotganidan shikoyat qilsa, G'ayratiy unga qarama-qarshi o'laroq, revolyutsiya tufayli qaynab-toshayotgan jo'shqin hayot manzarasini chizadi.

Cho'lpon ijodi va yetuk asarlari tanqid va adabiyotshunoslikning muhim muammolaridan bo'lgan tarixiylik va badiiy haqiqat mutanosibliigi masalasini ham o'rganishga asos-manba bo'la oladi. Istiqlol tufayli yurtimiz tarixini haqqoniy o'rganish, yoritish mkoni tug'ildi. Prezidentimiz farmoni bilan.1.09.2019-yildan o'z faoliyatini boshlagan «O'zbekiston tarixi» Telekanali faoliyati ham ana shu ezgu maqsadga qaratilgan. Sobiq sho'ro davrida ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'lgani singari mafkura, tarix, adabiyot va san'at sohalarida ham ko'plab jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgani endilikda butun murakkabligi va fojiasi bilan ayon bo'lyapti. Xalqimizning yaqin o'tmishi va madaniyati tarixini xolisona o'rganish, O'rta Osiyo va chor Rossiya munosabatlari tarixi mavzusini ilmiy asosda yoritish va unga ijtimoiy adolat nuqtai

nazaridan baho berish hamda tarixiylik va badiiy talqin muammolarini keng o'rganish ma'naviyatimiz va istiqloq mafkurasining ham dolzarb muammolaridan sanaladi.

Taassuf bilan aytish joizki, o'tgan asr ikkinchi yarmi va asrimiz boshlarida yuz bergan tarixiy voqea-hodisalar to mustaqillik yillariga qadar biryozlama, ya'ni tarixiylik va badiiylik mezonlariga butunlay zid ravishda yoritib kelindi. Ya'ni Turkiston o'lkasining chor Rossiya tomonidan qonli to'qnashuvlar va ayovsiz janglar ostida shafqatsizlarcha bosib olinganligi va oqibatda bu o'lka mustamlakachilikka aylantirilganligi ayrim soxta baynalmilalchi olimu siyosatdonlar tomonidan xaspo'shlanib kelindi. Oqibatda go'yo «O'rta Osiyo o'z ixtiyori bilan Rossiyaga qo'shilgan, Rossiya O'rta Osiyoga madaniyat va ma'rifat olib keldi» qabilidagi uydirmalar to'qib chiqarildi.

Holbuki, chor Rossiyasining g'orator siyosatini amalga oshirishda o'zlarining qabih rejaları va vahshiyona yovuzliklari bilan dovruq taratib, xalqning tavqila'nati va cheksiz g'azabiga duchor bo'lgan oq podshoning arzandalari bo'lmish Chernyaev, Kuropatkin, Skobelev, Mochalov va Koufman kabi qattol rus generallarining kundalik-esdaliklarida ham, o'tgan asrning so'ngida yaratilgan ayrim muhim tarixiy va adabiy asarlarda ham O'rta Osiyoning chor Rossiyasi tomonidan ayovsiz qurolli to'qnashuvlar va xunrezliklar bilan zabt etilganligi butun tafsilotlari bilan bayon etilganligidan ko'z yumib kelindi. Xalqimiz boshidan kechirgan bu fojialar badiiy adabiyotda, qator realistlik asarlarda ham o'z aksini topganligini ta'kidlash zarur. Masalan, millatparvar shoirimiz Cho'lponning «Jonlar berib, qonlar to'kkan erlar...»-deb yozgani bejiz emas edi. Bu satrlarni har bir vijdonli muarrix va har bir iste'dodli adib qat'iy amal qilish kerak bo'lgan va tarixnavislikda ham, badiiy ijodda ham muqaddas aqidalardan biri sanalmish tarixiy haqiqat prinsipining o'zigaxos she'riy bir ifodasi tarzida tushunish mumkin. Darhaqiqat, rus hamda boshqa qarosh xalqlar bilan birodarlarcha munosabatlarimiz va turli sohalaridagi hamkorligimiz tufayli ijtimoiy-iqtisodiy turmushimiz va adabiy-estetik tafakkurimizda sodir bo'lgan ijobiy o'zgarishlardan ko'z yummaganimiz holda, tarixiy haqiqatga va o'tgan ajdodlarimizning muqaddas xotiralariga nisbatan xolis bo'lishimiz lozim. Chor Rossiyasining «Tosh bersa yutguvchi nafi yoriq» (Abdulla Oripov) mal'un generallari rahnamoligida Turkiston o'lkasi tomon o'tgan asr o'rtalarida boshlangan bosqinchilik yurishlari xalqlarimiz boshiga ne kulfatlar solganligi va zulm iskanjasida ham o'zligini yo'qotmay, erk va ozodlik uchun adolatli kurashga otlangan ming-minglab vatanparvar yurtdoshlarimizning chorizm istilochilari

<sup>3</sup> Sharafiddinov O. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. - T.: "O'qituvchi". 1999-yil 167-168-b.

tomonidan beayov qirib tashlanganligi o'tmishning shunchaki bir xunuk voqealari yohud tarix lavhalarigina emas, balki ular o'sha asrning unutilmas, mudhish bir fojeasi sifatida qoralanishi lozim. Bosmachilik deb qoralangan, aslida, milliy ozodlik harakatining avj olishining asosiy sabablaridan biri ham ana shundaligi endi ayon bo'ldi.

O'lkamizda chorizm siyosati qanchalik dahshatli oqibatlariga sabab bo'lganligini ko'plab tarixiy hujjatlar va adabiy manbalar to'la isbot qila oladi. Chunonchi, asrimiz boshida bor-yo'g'i o'n yil ichida - 1909-1920-yillarda Turkiston aholisining bir milliondan ortiq kishisi nobud qilingan. Chorizm zulmi ostida ro'y bergan bunday xunrezliklar millionlab hamyurtlarimizning yostig'ini quritib qolmasdan, balki jannat misol butun o'lkamizni vayron qilgan, obod shahar va qishloqlarimizni ham xarobaga aylantirgan. Millatimiz va adabiyotimiz faxri bo'lgan Fitrat va Cho'lponlarning 20-yillarda chuqur dard bilan yozilgan achchiq alam va faryod to'la asarlari xalqimiz boshiga tushgan ana shu fojialarni haqqoniy aks ettiruvchi adolatli bir aybnomadek jaranglaydi. Cho'lponning 1921-yili yozilgan "Yong'in" nomli she'rida aks ettirilgan davr fojialari ko'lami va dahshatini unga epigraf qilib olingan quyidagi xabar orqali ham bilib olishimiz mumkin:

"Talanmagan, yiqilmagan yer yo'q,  
Go'daklar nayza boshida" (Xabar).

She'rdagi har bir misra bu og'ir fojiani ta'kidlash bilan birga mudroq uyqudagi xalqni erk-ozodlik uchun kurashga da'vat etadi. Binobarin, shoir qalbidan bamisoli qon kabi sizib chiqqan satrlar nafaqat og'riqli savollar, balki ular o'sha yillar xalqimiz boshidan kechirgan fojialarning haqqoniy manzaralari hamdir.

Shunday katta bir o'lkada yonmagan,  
Yiqilmagan, talanmagan uy yo'qmi?  
Bir ko'z yo'qmi qonli yoshi tommagan,  
Butun ko'ngli umidsizmi, siniqmi?..<sup>4</sup>

Bunday she'rlar o'sha yillari hukmron sinfiy mafkura tomonidan millatchilik ruhida yozilgan va sotsialistik hayotni buzib tasvirlovchi g'oyaviy zararli asarlar sifatida keskin qoralangan bo'lsa-da, aslida, ular chinakam millatparvar shoir Cho'lponning shafqatsiz realizmidan, haqqo'yligidan dalolat

edi. Cho'lpon she'riyatining ana shunday chuqur hayotiyiligi va haqqoniyligini ta'kidlagan Ozod Sharafiddinov shoir she'riyatini "Zamonning nufuzli badiiy hujjati" deya ta'riflagan edi<sup>5</sup>.

Bu ta'rifda aslo mubolag'a yo'q deb o'ylaymiz. Cho'lpon adabiy ijod bilan shug'ullana boshlagan yillarda o'zbek madaniy hayotiga teatr san'ati kirib keldi. Shoir yangi tashkil topgan teatr truppalari qatnashib, kichik sahna asarlari yozadi. Uning qalamiga mansub «Boy», «Xalil farang», «Cho'rining isyon», "Yorqinoy" dramalari ana shu hamkorlik mahsulidir. 1924-yili Moskvadagi "Buxoro maorifi" uyida o'zbek drama studiyasi tashkil etilgandi. Cho'lpon adabiyotchi va tarjimon sifatida o'zbek- professional teatr jamoasining paydo bo'lishiga yordam bergan. O'zbek teatr san'atining beshigi - hozirgi O'zbek milliy akademik teatrining asoschilaridan biri bo'lgan Cho'lpon sahna san'atini ham yaxshi bilgan, Moskvadagi badiiy teatrning, shuningdek, Vaxtangov va Meyerold teatrlarining badiiy tajribalari va an'alarini puxta o'zlashtirgan san'atkor sifatida o'zbek drama artistlari avlodining shakllanishiga ham ko'z-maklashgan. U dastlab ana shu teatr uchun jahon mumtoz adabiyoti namunalarini tarjima qilib beradi. Keyinchalik o'zbek tilining nozik va vafis jilolarni teran his etgan shoir Shekspir, K.Goldoni, K.Gotssi. A.Pushkin kabi buyuk adiblar asarlarini o'zbek kitobxonlari mulkiga aylantirdi. Bu bilan milliy adabiyotimizning jahon mumtoz va zamovaviy adabiyoti tajribalari bilan boyishiga bebaho hissa qo'shadi. Binobarin, o'zbek zamovaviy tarjima maktabining shakllanib, kamol topishida ham Cho'lponning xizmatlari katta bo'lgan.

Ozod Sharafiddinov kabi allomalarimiz haqli ravishda Cho'lponni «Istiqloq jarchisi» deb ataydi. Darhaqiqat, Cho'lpon mustaqillikka erishgan Turkiston xalqlari ozodligini, uning mustaqil davlat bo'lib ravhaq topishini orzu qilgan edi. Cho'lponning adabiy merosi va u qoldirgan ma'naviy mulk istiqloq sharofati bilan keng o'rganila boshlandi. Bu meros katta fazilatlariga ega. Bu ma'naviy merosda Cho'lpon bosib o'tgan yo'l muhrlanib qolgan bo'lib, uni mustaqil yurt farzandlari o'rganishlari bilan birga Vatanga, ona zaminning muqaddasligi, erk va hurriyatning bebaho ne'mat ekanligini anglaydilar.

<sup>4</sup> Cho'lpon. Yana oldim sozimni. -T.: Adabiyot va san'at, 1991. 27-b.  
<sup>5</sup> Cho'lpon. Adabiyot nadi? -T.: Cho'lpon, 1994. 58-b.

## DAVR, ISTE'DOD VA IJOD MUAMMOLARI (Abdulla Qahhor tavalludining 115 yilligiga)

Rizvon Saidova - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Akbar Jumanov - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o'zbek adabiyotining zabardast vakillaridan biri Abdulla Qahhor ijodining asosiy mavzulari va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari adib yashagan davr muhiti bilan bog'liq tarzda o'rganilgan. Shu bilan birga Abdulla Qahhor ijodining shakllanishi va kamolga yetishida rus va jahon adabiyotining ijodiy ta'siri masalalari yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается один из ведущих представителей узбекской литературы 20 века Абдулла Каххор в связи с основными темами и идейно-художественными особенностями творчества писателя. В то же время в статье в рамках темы освещаются вопросы творческого влияния русской и мировой литературы на становление и созревание творчества Абдуллы Каххора.

**Abstract:** In this article, one of the leading representatives of Uzbek literature of the 20th century, Abdulla Qahhor, is studied in relation to the main themes and ideological-artistic features of the work of the writer. At the same time, in the article, the issues of the creative influence of Russian and world literature on the formation and maturation of Abdulla Qahhor's work are covered within the scope of the topic.

**Kalit so'zlari:** satira teatri, "konfliktsizlik nazariyasi", qahhorshunos, realistik san'at, muallif shaxsi, iste'dod xarakteri, badiiy-estetik tafakkur mahsuli, biografik unsurlar, badiiy ijod

**Ключевые слова:** театр сатиры, «теория бесконфликтности», нарцисс, реалистическое искусство, личность автора, характер таланта, продукт художественно-эстетического мышления, биографические элементы, художественное творчество

**Keywords:** theater of satire, "theory of non-conflict", narcissist, realistic art, personality of the author, character of talent, product of artistic-aesthetic thinking, biographical elements, artistic creativity

XX asr o'zbek adabiyotini Abdulla Qahhor ijodisiz to'liq tasavvur etib bo'lmaydi. Ayniqsa, o'zbek hikoyachiligi shakllanishi va taraqqiyotida adibning xizmati beqiyosdir, Bizning fikrimizcha, o'zbek romanchiligi rivojida Abdulla Qodiriy qanchalar yuksak mavqeni egallasa, o'zbek realistik hikoyachiligi sohasida ham Abdulla Qahhor shunday sharaflari o'rinni egallagan desak mubolag'a bo'lmaydi. Abdulla Qahhor realistik hikoyachilikda nafaqat o'zbek yozuvchilariga, balki ko'plab rus va jahon adiblari uchun ham ustoz bo'lib hisoblanishi hech kimda shubha uyg'otmasa kerak. Abdulla Qahhor asarlari haqiqiy iste'dod mevalaridir. Bu iste'dodning nodir qirralari va nurli jilolari bor. Yangi davr o'zbek nasri, xususan, realistik prozamız rivoji shubhasiz Abdulla Qahhor nomi bilan bog'liqdir.

Adibning "Sarob" asari romanchiligimizda oldinga tashlangan bir qadam bo'lsa, "Sinchalak" povesti, mahorat jihatidan mukammal qissalaridan biri. "O'tmishdan

ertaklar"i esa adabiyotimizda yangi bir sahifa ochdi. (Sh.Xolmirzaev) Abdulla Qahhor o'zining "Shohi so'zana" (Yangi yer)", "Og'riq tishlar", "Tobutdan tovush" (So'nggi nusxalar) va "Ayajonlarim" komediyalari bilan ulkan dramaturg sanaladi. Respublikamizdagi yagona satira teatri Abdulla Qahhor nomi bilan atalishi bejiz emas. Adib adabiyotimizning cho'ng chinorlari- Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon va Maqsud Shayxzoda kabi ko'p qirrali iste'dod sohibi edi.

Abdulla Qahhor ham boshqa adiblarimiz kabi davr farzandi edi. U ham Oktabr inqilobi va komfirqaning "jozibador" va dalariyushiorlariga ishonib, qalam tebratgan va muayyan darajada zamon talablariga bo'syunishga majbur bo'lganini inkor etib bo'lmaydi. Masalan, adibning adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolgan "Hamqishloqlar" hikoyasida real hayot voqeligi davr talabi va mafkura bilan birmuncha bo'yab-bejab tasvirlangan.

Bundan 65 yillar ilgari yozilgan, ammo

<sup>1</sup> Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор Т., 1988.17-б.



adibning biron to'plamiga kiritilmagan va adabiyotshunoslikda o'rganilmagan "Hamqishloqlar" hikoyasida davr muhri, nuqsi aniq sezilib turadi. Ya'ni urushdan keyingi davrda hukm surgan "konfliktsizlik nazariyasi" va madhiyabozlik kabi illatlar Qahhor asarlariga ham salbiy ta'sir o'tkazganini shu hikoya misolida ham ko'rish mumkin. Hikoyani o'qigan o'quvchi ko'z oldida 50-yillar dagi og'ir qishloq hayoti emas, balki zamonaviy bir shahar manzaralari gavdalanishi turgan gap: "Biz boqqa kirganda, xiyobonlarda odam kezar, qizil choyxona va qiroatxona gavjum, gulzorda ikki odam bo'yi otilib, rang-barang chiroqlar yog'dusida yuz tovlanib tushayotgan fontan atrofida bolalar u yoqdan bu yoqqa yugurishar edi". (Hikoya va ocherklar. T.O'zdamnashr. 1955, 10-b).

Iste'dodli qahhorshunoslarimizdan U.Qosimov va R.Qo'chqorovlar to'g'ri aytganidek, Abdulla Qahhordek haqqo'y yozuvchi ham ba'zi asarlarida realistlik san'at prinsiplaridan bir qadar chekinishga majbur bo'lgani, oqibatda shunday bo'yab-bejashlar o'rin olganiga sabab hukmron mafkura va g'arazli tanqidning asossiz talablari edi<sup>2</sup>. Hikoyada mashhur "Sinchalak" qissasidagi ayrim voqea va xarakterlarning dastlabki chizgilarini ham uchratish mumkinki, bular ham asarning o'quvchi va tadqiqotchilar uchun muayyan adabiy-tarixiy qimmatga ega ekanligidan guvohlik beradi.

Tanqid va adabiyotshunosligimizda turli xil talqin va bahslarga sabab bo'lib kelayotgan yana bir holatga to'xtalish lozim. Abdulla Qahhorning xalqimiz hayoti va tarixini yorituvchi "O'tmishdan ertaklar" qissasi va qator hikoyalari nisbatan noxolis bir qarash davom etib keladi. Ya'ni emishki, adib xalqimiz o'tmishini butkul qoralab yozadi va hatto "uydirmachilikka berilib" ketadi degan ayblovlar ham bo'lgani adabiy jamoatchilikka ma'lum. Bunday biryoqlama qarashlar asossizligi "O'tmishdan ertaklar" qissasidagi muxtasar so'zboshida ham qahhorona qayd etilgan. Taassufki, bunday qarashlarga adib ijodini chuqur o'rgangan atoqli olim M.Qo'shjonov va I.Haqqulovlar ham qo'shilib, bu xulosaga moyillik bildiradi: Abdulla Qahhorning "deyarli barcha asarlarida moziy juda nursiz va qop-qora bo'yoqlarda namoyon bo'ladi, deydi hassos adabiyotshunos I.Haqqulov"<sup>3</sup>. Bizningcha, eng avvalo, mazkur asarlar yaratilishi bilan bog'liq hayotiy va adabiy-estetik omillarni nazarda tutish lozim. Zero, muayyan asar, avvalo, muallif shaxsi, iste'dod xarakteri, hayot tajribasi, voqelikni

hissiy-emotsional idrok etishi va badiiy-estetik tafakkuri mahsuli bo'lib maydonga keladi. Bu murakkab va ma'lum darajada sirli bo'lgan ijodiy-ruhiy jarayonda yozuvchining shaxsiy hayoti, ko'rgan-kechirganlari, biografik unsurlari ham muhim o'rin tutishi tabiiy. Bu jihatdan Abdulla Qahhorning "Hayot hodisasidan badiiy to'qimaga" nomli maqolasi va "O'tmishdan ertaklar" qissasidagi so'zboshisi alohida ahamiyatga ega. Taniqli adabiyotshunos Hotam Umurov ta'kidlaganidek, sobiq sovet davridagi eng nufuzli adabiy jurnalda nashr qilingan va adabiy jamoatchilikda katta qiziqish uyg'otgan ushbu salmoqli "maqolada "Bemor", "O'g'ri", "Adabiyot muallimi" hikoyalari yaratilishi bilan bog'liq yosh ijodkorlar uchun ijodiy laboratoriya vazifasini o'tovchi ko'plab hayotiy va badiiy lavhalar keltirilgan"<sup>4</sup>.

Abdulla Qahhor shaxsi, asarlari ijodiy tarixini tushunishda o'ziga xos ochqich bo'lgan bu maqolada adabiyot va hayotning uzviy bog'liqligi haqida shunday deydi: "Ko'plar qatori men ham o'z tajribalarim, shaxsiy taassurotlar adabiy asar uchun eng qimmatli material ekanini tushunib olgunimcha "yozuvchilik" da ko'p sarson bo'lganman". (6.314) Darhaqiqat, Ch.Aytmatov, A.Tvardovskiy kabi mashhur shoir va yozuvchilarlar ham bolalikda ko'rgan-kechirganlari va xotiralarini ijod uchun "oltin zahira" deb ta'riflashadi. Binobarin, "Bemor", "O'g'ri", "Anor", "Dahshat" singari mumtoz hikoyalari va "O'tmishdan ertaklar" qissasi yaratilishida Abdulla Qahhordek yirik shaxs va ijodkorning o'ziga xos badiiy-estetik tafakkuri, ijodiy mushohada quvvati, hayotiy voqelik, tarixiy o'tmish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar va yozuvchining turmush tajribasi va xasbi holi unsurlari ham muhim omillar bo'lgan.

Ayrim adabiyotshunoslarning Abdulla Qahhorning "deyarli barcha asarlarida moziy juda nursiz va qop-qora bo'yoqlarda namoyon bo'ladi" degan xulosa bahsli ekanligini adib asarlari ham tasdiqlashi mumkin: "Bemor" da qo'shni kampir kasal ayolga va yosh qizchasiga hamdardligi va chorasizlikdan, rahmdilligidan yig'lagani, odamiylik va mehr-oqibati kitobxonni befarq qoldir maydi. Yoki "O'g'ri" hikoyasidagi qo'shnilarning oqibati-chi? Ular ham qashshoq, bechorahol bo'lsa-da, uyida borini mushtipar Qobil boboga berishadi.

"O'tmishdan ertaklar" da Abdullalar yangi mahallaga ko'chib kelgan kunioq hali durustroq tanishib ulgurmagan qo'shnilari To'xta xola osh qilib chiqadi. Abdulla Qahhor mana shunday oddiy odamlarning o'zaro mehr-oqibatlarining odatiy, hayotiy ifodasi bo'lgan

2 Раҳмон Қўчқоров. Истеъдод қадри. Т., 1989. 66-67-б.

3 Адабиётимиз фаҳри. Т., 2007. 30-31-б.

4 Шарафиддинов О. Абдулла Қаҳҳор. Т., 1988.

hayotiy lavhalarni, aslida, xalqimizning yuksak bir fazilati sifatida tasvirlagan.

Yoki quyidagi lavhada ham insoniylik, diyonat kabi azaliy fazilatlar aks etgan: "Olim buva, saharda turib non yopadi, nonni do'konning oldidagi taxtaga dastalab qo'rganidan keyin chorvog'iga kirib ketadi-yu, shom qorong'isida chiqadi; do'konga kelib nonni, tushgan pulni sanaydi, pul ba'zan kam kelsa kerak, javraydi, pul yoki non kam kelganiga emas, pul tashlamasdan non olib ketgan kishi birovning haqini yeb, gunohkor bo'lganiga kuyadi.

Yoki usta Abduqahhor bilan temirchi hamkasblarining o'zaro muomalamunosabatlaridagi mehr-oqibat, samimiyatdan kitobxon dili yorishmaydimi? Usta birdan-bir boyligi "Zinger" tikuv mashinasini sotib, pulini shogirdi Kulalaga beradi va tanishlaridan ham kerakli asbob-uskunalarini olib, uning hamma ishkalini but qilib beradi. Qaysi tadbirkor yo ustoz o'z dastgohi-ish qurolini ham shogirdiga berib, yana bunday odamgarchilik-himmat ko'rsata oladi? Yoki Abdulla Qahhorning "O'tmishdan ertaklar" qissasida ham bir necha o'rinda oddiy temirchilar xira shamchiroqda kitobxonlik qilib o'tirganlari tasvirlangan. Bularni "o'tmishning qop-qora lavhalari" deb atasak, adolatdan bo'ladimi? Nihoyat, Abdulla Qahhor asarlarida ham yaqqol namoyon bo'lib turgan shafqatsiz realizmini va xolis va haqqoniy tasvirlash mahoratini his etish uchun kitobxondan Maksim Gorkiy orzu qilgan ziyraklik va nekbinlik bilan birga asar qahramonlariga hamdardlik tuyg'usi ham talab qilinadi. Butun hayoti davomida kitob mutolaasini asosiy mashg'ulot deb bilgan Maksim Gorkiy sevimli ustoz A.P.Chexov asarlarining g'oyat ta'sirchan-ligini ta'kidlab, jumladan shunday yozadi: "Chexov hikoyalari o'qiganimda, donishmand bir odamning chuqur g'am-anduhini eshitgandek bo'laman..."-degan edi<sup>5</sup>. Bunday teran xulosa Abdulla Qahhorning yuksak mahorat bilan yaratgan ko'plab realistlik asarlariga nisbatan ham munosib bir ta'rif bo'lishi mumkin, deb o'ylaymiz. Zero, hamisha xalq dardi va tilining uchidagi muhim gap, ya'ni hayot haqiqatini aks ettirishni o'zining oliy maqsad va a'moli deb bilgan Abdulla Qahhor asarlari tagzaminida ham ana shunday millatparvar ulkan qalb sohibining nurli dard-armonlari ifodalangan.

Istiqlol sharofati bilan o'zbek adabiyoti va tanqidchiligi ham g'oyaviy, ham badiiy-estetik saviyasi jihatidan yangi bir bosqichga ko'tarildi. Shu munosabat bilan

adabiyotshunos U.Qosimovning bir xotirasini keltirishni lozim topamiz. Qahhorshunos olim yozishicha, Abdulla Qahhor Uy-muzeyida an'anaviy xotirlash kechasi aytilgan muhim bir haqiqat alohida e'tiborga loyiq. Taniqli adiblar, akademiklar, adabiyotshunos-muxlislar qatnashgan anjumanda E.Vohidov tarixiy bir voqeani sharqona lutf bilan e'tirof etgan. Istiqlol davri ijod ahliga e'tibor va g'amxo'rlik beqiyos ortdi. Mashhur ijodkorlar: Said Ahmad, Abdulla Oripov, Ozod Sharafiddinov va To'lepbergen Qayipbergenov Vatanimizning oliy mukofoti- "O'zbekiston Qahramoni" unvoni bilan taqdirlandi. Ular barchasi Abdulla Qahhor mehridan va unutilmas saboqlaridan bahramand bo'lgan. Shu bois ustozimiz Abdulla Qahorni to'rt marta adabiyotimiz Qahramoni bo'ldi,-deb e'zozlaymiz<sup>6</sup>. Bu-samimiy va adolatli e'tirof edi!

Qodiriy va Qahhorning ustoz sifatidagi faoliyatidan bahramandlik keyingi avlodlar tafakkuri va ijodida, tili va uslubida ham rivoj topmoqda. Abdulla Qahhorning butun ijodida, xususan, adabiy-tanqidiy asarlarida katta o'rin tutuvchi muammolardan biri, hech shubhasiz, badiiy asar tili masalasidir. Chunki til uning uchun hamisha eng muhim sohagina emas, balki adabiyot rivojining asosiy sharti, omili bo'lgan. A.Qahhor tasavvuriga ko'ra, til yozuvchining asosiy quroli, adabiy formaning muhim bir elementi bo'lishi bilan birga, asar mazmunining munosib bir shaklda namoyon bo'lishi hamdir. Bu haqda yozuvchi shunday deydi: «Adabiyot — bu til! Men shu vaqtga qadar biror yozuvchi tilsiz, imo-ishoralar bilan badiiy asar yaratganini eshitganim yo'q... Agar hozir mendan «Siz uchun til badiiy ijodning boshqa muammolari orasida qanday o'rin tutadi?» - deb so'rashsa, men javob berishga qiynalaman. «Asosiy o'rinni», — deyishdan boshqa so'zim yo'q» Adibimizning bu fikrini tilga bo'lgan g'oyat mas'uliyatli munosabatini va badiiy til haqidagi qarashlari tub mohiyatini belgilovchi negizi deb qarash mumkin.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, nafaqat o'zbek adiblari, balki rus va boshqa xalqlar adabiyotining Konstantin Simonov, Boris Plevoy, Georgiy Sevun, Leonid Lench, G'abit Musrepov, To'qon Alimqulov kabi taniqli adiblari hamda Vetnam davlatining sobiq birinchi rahbari Xo Shi Min ham Abdulla Qahorni ustoz deb bilishgan. Bunday yuksak e'tirof ham-adabiyotimiz va xalqimiz uchun bir faxr desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

5 Қўшқонов М. Абдулла Қаҳҳор маҳорати. Т., 1988.

6 Қосимов У.Езувчининг сирлари. Абдулла Қаҳҳор сабоқлари. Т., 1995.

## KASBIY TAFAKKUR—ZAMONAVIY O'QITUVCHI KOMPETENTLIGINING TAYANCH NEGIZI

*Gulnoz Negmatovna Kurbanova - p.f.d. (DSc), Buxoro tibbiyot instituti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kasbiy tafakkur tushunchasi, uning mohiyati, zamonaviy o'qituvchining shaxsiy hamda kasbiy faoliyat tizimida tutgan o'рни shuningdek, kasbiy tafakkurni rivojlantirish yo'llari to'g'risida fikrlar bayon etilgan.

**Аннотация:** В данной статье описывается понятие и сущность профессионального мышления, его роль и место в системе личностно-профессиональной деятельности современного педагога, также способы развития профессионального мышления.

**Abstract:** This article describes the concept and essence of professional thinking, its role and place in the system of personal and professional activities of a modern teacher, as well as ways to develop professional thinking.

**Kalit so'zlar:** tafakkur, kasb, muloqot, bo'lajak o'qituvchi, rivojlanish, tarbiya, xususiyat, mezon, kompetentlik, natija.

**Ключевые слова:** мышление, профессия, общение, будущий учитель, развитие, образование, характеристика, критерий, компетентность, результат.

**Keywords:** thinking, profession, communication, future teacher, development, education, characteristic, criterion, competence, result.

Mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va o'zgarishlar davrida alohida e'tibor bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashga qaratilib, o'z navbatida ular talaba shaxsini shakllantirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga mas'ul hisoblanadilar. Oliy ta'lim muassasalari zamonaviy talabalari kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosining dolzarbligi shundaki, bo'lajak o'qituvchining tafakkuri murakkab ichki psixologik faoliyat sifatida uning kelajakdagi kasbiy yetukligini belgilaydigan mezon bo'lib xizmat qilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi<sup>1</sup> mazkur sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib beradi.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim

platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Shaxsning kasbiy kamoloti masalasi uning hayotida muhim o'rin tutadigan faoliyat yo'nalishidir. Bu faoliyat yo'nalishini to'g'ri tanlash va belgilash keng ko'lamdagi shaxsiy muammolarni hal etishga olib keladi.

Kasb tanlash – kasb talablaridan kelib chiqib, bir qancha variantlar orasidan shaxsiy xususiyatlari va xislatlari ustuvorligiga ko'ra munosibrog'ini tanlashni bildiradi. Kasb tanlash kasbiy yo'nalganlikka nisbatan bir muncha murakkabroq jarayon. Chunki shaxsda kasbga xos xususiyatlar – muayyan kasbni egallashga tayyorgarlik (bilim, tajriba, dunyoqarash doirasining kengligini) darajasining mavjudligini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy shakllanish va kasbiy faoliyat muammolarini tadqiq etish dolzarb va keng qamrovli psixologik - pedagogik muammo sifatida baholash uchun barcha asoslar mavjud.

Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlarini – o'z kasbiga sodiqligi, e'tiqodliligi,

o'z kasbini sevishi uni boshqa kasb egalaridan ajratib turadi. Chunki ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchi, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida quyidagini ta'kidlaydi: «Yana bir muammoni hal etish ham o'ta muhim hisoblanadi: bu – pedagoglar va professor-o'qituvchilar tarkibining professional darajasi, ularning maxsus bilimlaridir. Bu borada ta'lim olish, ma'naviy-ma'rifiy kamolot masalalari va haqiqiy qadriyatlarini shakllantirish jarayonlariga faol ko'mak beradigan muhitni yaratish zarur»<sup>2</sup>.

Bugungi o'qituvchi o'z kasbining mohir ustasi sifatida, o'z burchiga sodiq, shaxsiy manfaatidan ko'ra xalq manfaatini ustun qo'yib, zimmasidagi vazifani bajaradigan kompetentli shaxs bo'lishi lozim. Bu borada o'qituvchilar o'z ustida tinmay ishlashlari, jismoniy, ruhiy va kasbiy jihatdan tayyorgarliklari yuqori darajada bo'lishiga erishishlari talab etiladi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri shuki, u o'zi o'qitayotgan predmetlarni chuqur bilishi, uning metodikasini o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Predmet va uning nazariyasini chuqur bilish, uni qiziqarli qilib talabalarga yetkaza olish bolalarning shu predmetga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi, o'qituvchining obro'sini oshiradi. Talabalar o'qituvchining o'z bilimlarini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning fidoyiligini ham qadrlashadi. O'qituvchining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi (ayniqsa, O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixi, madaniyati, urf-odatini o'rganish, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda) ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi.

Hozirgi zamon o'qituvchisi milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, ta'lim muassasasida uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatimizda yuqori malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon andozalariga mos bilim ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash zarur. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga

javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga yetishsin.

Bizning dunyoni, uning sir-asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatligi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli muno-sabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

Tafakkur – inson ongining bilish obyektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir.

Y.Kornilovkasbiy tafakkurni kasbiy faoliyat jarayonida kasbiy vazifalarni yechishdagi inson tafakkurining namoyon bo'lishi deb hisoblasa, D.Kavtaradze amaliy kasbiy vazifalarni hal etishda iqtidor ko'nikmalarni hosil qiladigan kompetent tafakkur deb belgilaydi.

O.Tixomirov kasbiy tafakkurni kasbiy ijodiy topshiriqlarni yechishga qaratilgan turli tuman evristik usullarni o'zida mujassamlashtiradi, Yu.Kulyutkin esa ijodiy xarakterga ega tafakkurning yuksak darajadagi kasbiy rivojlanishi jarayoni deb ta'rif beradilar. M.Kashapov fikricha, kasbiy tafakkur bu kasbiy faoliyatda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni topish, o'rganish, barataraf etishning yuqori darajadagi bilish jarayonidir. Ko'rinib turibdiki adabiyotlar tahlili natijasi "kasbiy tafakkur" tushunchasining turli xil talqin etilishi uning tuzilishi va tarkibiy qismlari bo'yicha bir xil aniq fikr mavjud emasligini ko'rsatmoqda<sup>3</sup>.

Bizning fikrimizcha, kasbiy tafakkur – bo'lajak o'qituvchining jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlar mazmunini anglagan holda, unda faol ishtirok etishi hamda egallangan kasbiy tajribani qo'llash orqali, tanlangan kasbi bo'yicha mantiqiy fikrlash jarayonida pedagogik vazifalarni yechishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirishga oid shaxsiy-kasbiy fazilatlarining tarkib topishidir.

Kasbiy tafakkurni rivojlantirish inson kasbiy yetuklik jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida uning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat olib borishiga imkon beradi. Kasbiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy o'rinni oliy ta'lim muassasalaridagi ta'lim-tarbiya

<sup>2</sup> Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик - ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: «Ўзбекистон», 2017. 45-б.

<sup>3</sup> Корнилов Ю.К. О рождении и развитии мыслительного процесса в педагогической деятельности /Ю.К. Корнилов // Психология педагогического мышления: теория и практика. – М.: ИП РАН, 1998. – С. 3-8.

<sup>1</sup> "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019 yildagi PF-5847-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

olish jarayoni egallab, bu jarayonda bo'lajak mutaxassisning kasbiy yetuklikka erishish yo'liga muhim poydevor qo'yiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tafakkurini maqsadli yo'naltirilgan holda rivojlantirishning ba'zi jihatlari L.Jalilova, Y.Osipova, N.Stepanova, B.Lomov, N.Kuzminlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Mazkur tadqiqotchilar bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tafakkurini rivojlantirishni tafakkurning mantiqiy madaniyatini rivojlantirish, aniq pedagogik vaziyatlarda pedagogik hamda psixologik nazariyalar, kategoriyalar, tamoyillar va qonuniyatlarni qo'llash ko'nikmalarini egallash, pedagogik intuitsiyani rivojlantirish, dialektik tafakkur asoslarini va ilmiy tafakkur metodlarini egallash, kasbiy refleksiya qobiliyatlarini egallash, talabalar bilan samarali muloqot ko'nikmalarini egallash hamda tor mutaxassisligi dorasidagi ilmiy tafakkur ko'nikmalarni hosil qilish bilan bog'liq holda o'rganganliklari diqqatga sazovordir. Tafakkur ko'pgina fan sohalari (falsafa, mantiq, jamiyatshunoslik, pedagogika, fiziologiya, kibernetika, biologiya)ning tadqiqot objekti hisoblanadi. Psixologiyada tafakkur voqelikni umumlashtirish darajasiga, muammoni yechish vositasi xususiyatiga, holatlarning inson uchun yangiligi, shaxsning faollik ko'rsatish darajasiga ko'ra bir necha turlarga (ko'rgazmali harakat, ko'rgazmali-obrazli, amaliy, nazariy, ixtiyoriy, ixtiyorsiz, mavhum, ijodiy va h.k.) ajratib tadqiq qilinadi. Ijtimoiy hayotda, ta'lim jarayoni va ishlab chiqarishda odamlar o'rtasidagi aloqa va munosabatlar ham tafakkur yordamida namoyon bo'ladi. Jamoada tanqidiy qarash, o'zini o'zi tanqid, baholash, tekshirish, o'zini o'zi tekshirish, nazorat qilish, o'zini o'zi nazorat qilish, guruhiy mulohaza yuritishdan iborat tafakkur sifatleri vujudga keladi. Insonning inson tomonidan idrok qilinishi ham tafakkur bilan uzviy aloqadadir. Ijodiy ishlar, kashfiyotlar, ixtirolar, takliflar tafakkurning mahsuli hisoblanadi. Psixologiya tafakkurning filogenetik (insoniyat paydo bo'lishi davri), ontogenetik (kishi umri davomida) bilishga oid tarixiy jihatlari ham o'rganadi. Hozirgi zamon fanining juda ko'p murakkab masalalari tafakkurdagi mantiqiy jarayonlarni yanada chuqurroq o'rganishni taqozo etmoqda<sup>4</sup>.

Tafakkur – miya faoliyati bo'lib, u tufayli inson, so'zlar va obrazlar yordamida o'z organizmining turli-tuman holatlarini hamda borliqda real mavjud va mavhum jismlar va

hodisalarni ko'z oldiga keltirishi va ifodalashi mumkin. Tafakkurning umumiy tasnifidan ko'rinib turibdiki, odam miya faoliyatining ushbu bosh funksiyasida so'zlar va obrazlar, ya'ni organizmning turli-tuman faoliyati bilan to'g'ridan-to'g'ri va so'z orqali ta'sirlanishning hamkorligi orqali shakllangan vaqtli aloqalar muhim rol o'ynaydi. Bunda, vaqtli aloqalar tafakkurning fiziologik apparati, uning tahlilli-sintetik mexanizmi hisoblanadi

Mustaqil shaxs insonparvar, demokratik jamiyatda mavjud bo'lgan obyektiv shart-sharoitlar va subyektiv omillarning ta'siri natijasida qaror topadi. Mustaqil shaxsning shakllanishida obyektiv shart-sharoitlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, subyektiv omillar: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahallalar, siyosiy partiyalar, madaniy-ma'rifiy uyushmalar va boshqa jamoat tashkilotlarining hamkorlikda, yagona dasturga asoslangan tarbiyaviy-mafkuraviy ishlarining ta'siri beqiyosdir.

Mustaqil shaxs uch asosiy komponentni: mustaqil fikrlashni, mustaqil ishlashni va mustaqil yashashni o'zida mujassamlashtiradi. Ushbu komponentlar mustahkam hamkorlikda faoliyat ko'rsatib, shubhasiz, biri ikkinchisiga ta'sir o'tkazib turadi. Lekin shaxs mustaqilligi, eng avvalo, uning fikr-mulohaza yuritish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Xuddi shu qobiliyat tufayli inson o'zi ko'rgan, bilgan, eshitgan, atrofida sodir bo'layotgan hodisalar, voqealar, jarayonlarning mohiyatini, ularning to'g'ri yoki noto'g'ri, chin yoki yolg'onligini aniqlaydi. Aniqroq qilib aytganimizda, inson xuddi shu qobiliyat tufayli kundalik turmushida vujudga kelgan muammolar yechimini topadi.

Muayyan mazmundagi vazifalar va muammolarni hal qilishda turli tafakkur turlarining o'ziga xos xususiyatlari va namoyon bo'lish darajalari inson ongining xususiyatlari (chuqurlik, kenglik, moslashuvchanligi, tanqidiy mushohada, tezlik va mustaqilligi) haqida fikr yuritish imkoniyatini beradi.

Aqliy fazilatlarining o'ziga xos uyg'unligi turli muammolarni hal qilishda barqaror namoyon bo'lishi orqali insonning tafakkur uslubini xarakterlaydi. Sintetik, idealistik, pragmatik, analitik, real fikrlash uslublari ajratiladi.

Shunday qilib, "kasbiy tafakkur" tushunchasi fanda umumiy qabul qilingan aniq ta'rifga ega bo'lmasdan, u yoki bu kasbiy faoliyatni amalga oshirish jarayonida

## O'ZBEKISTONDA OLIY KASBIY INKLYUZIV TA'LIMNING O'ZIGA XOSLIGI

Gavhar Abdullayeva - p.f.b.f.doktori (PhD), Chirchiq davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida Davlat siyosati darajasida "2022-2026-yillarda Yangi o'zbekistonni rivojlanish strategiyasi to'g'risida"da, nogironligi bo'lgan shaxslarning mamlakat ijtimoiy hayotida faol jalb etilishi ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy moslashtirish va ularga korreksion-pedagogik yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish ustuvor yo'nalish etib belgilangan. Respublikamizda tibbiyot, maxsus ta'lim sohasidagi ilmiy va amaliy yutuqlar bilan bog'liq bo'lgan ijodiy o'zgarishlar ro'y berdi. Axborot texnologiyalarini keng qo'llash asosida oliy ta'limni texnologik modernizatsiya qilinishi amalga oshirilmoqda.

**Аннотация:** На уровне государственной политики в Республике Узбекистан "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы" предусмотрено активное вовлечение лиц с инвалидностью в социальную жизнь страны. Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 приоритетным направлением определено дальнейшее совершенствование системы социальной адаптации и оказания коррекционно-педагогической помощи лицам с ограниченными возможностями здоровья. В нашей республике произошли положительные изменения, связанные с научными и практическими достижениями в области медицины, специального образования. На основе широкого применения информационных технологий осуществляется технологическая модернизация высшего образования.

**Abstract:** At the level of state policy in the Republic of Uzbekistan "On the Development Strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026" provides for the active involvement of persons with disabilities in the social life of the country. By Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. UP-60 dated January 28, 2022, further improvement of the system of social adaptation and provision of correctional and pedagogical assistance to persons with disabilities has been identified as a priority. There have been positive changes in our republic related to scientific and practical achievements in the field of medicine, special education. Technological modernization of higher education is carried out on the basis of wide application of information technologies.

**Kalit so'zlar:** nogiron talabalar, inklyuziv ta'lim, korreksion yordam, axborot texnologiyalar.

**Ключевые слова:** студенты с инвалидностью, инклюзивное образование, коррекционная помощь, информационные технологии.

**Keywords:** students with disabilities, inclusive education, correctional assistance, information technology.

Bugungi kunga kelib, alohida ta'limga muhtoj va nogironligi mavjud yoshlarning kasb-hunar ta'limi masalalari O'zbekiston Respublikasi ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yuqori sifatli kasb-hunar ta'limini olish imkoniyati, mehnat bozoridagi talab nogironlarga iqtisodiy turmush sharoitlarini yaxshilashga, mehnat va ijtimoiy izolyatsiyani yengishga va jamoat hayotiga iloji boricha faolroq qo'shilishga imkon beradi. Aytish mumkinki, ta'lim ushbu toifadagi odamlarni rehabilitatsiya qilishning asosiy vositalaridan biriga aylanmoqda.

So'nggi yillarda zamonaviy O'zbekiston jamiyati amalga oshirilayotgan ta'lim amaliyoti va ta'lim sohasida o'rnatilgan munosabatlar doirasida nogironlar va imkoniyatlar cheklangan shaxslar bilan munosabatlarning yangi shakllarini amalga oshirishga tayyorligini namoyish etdi. Inklyuziv ta'limning tarqalishi ushbu toifadagi shaxslarning kasbiy tayyorgarligi doirasini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi, ularning zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshiradi. Nogironlar uchun teng ta'lim imkoniyatlarini ta'minlash mustaqil yashash, kasb-hunar ta'limi va

<sup>4</sup> O'zbekiston milliy ensiklopediyasi 8-tom.299-b.

ijtimoiy mehnatga moslashish tamoyillarini amalga oshirishning muhim tarkibiy qismidir<sup>1</sup>. Nogironlarni sotsializatsiya qilish jarayonlarini takomillashtirish va ularning jamiyatga integratsiyalashuvining zamonaviy tendensiyalari ilm-fanga ushbu toifadagi aholini ijtimoiy va ta'lim makoniga kirishining turli bosqichlarida qo'llab-quvvatlashning mazmuni va mohiyatini to'liq aks ettiradigan modellar va algoritmlarni ishlab chiqish zarurligini keltirib chiqardi<sup>2</sup>. Mavjud rivojlanish muammolarini bartaraf etishda qo'llab-quvvatlash jarayoni sifatida qo'llab-quvvatlash nogiron talabalarga hayot yo'lining barcha bosqichlarida ongli hayot tanlashlariga yordam berish uchun mo'ljallangan.

O'zbekiston Respublikasida nogironlarning inklyuziv kasbiy ta'limini amaliy qo'llab-quvvatlash vositasi o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida asosiy kasbiy ta'lim tashkilotlarini (KTT) va shunga muvofiq Oliy ta'lim tizimida inklyuziv Oliy ta'lim resurs markazlarini (OTRM) yaratish tashabbusini amalga oshirish<sup>3</sup>. Loyihalarni amalga oshirish va ularni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan modellar va algoritmlarni yaratish jarayonida nogironlar va nogironlar uchun oliy ma'lumotni qo'llab-quvvatlashning asosiy bosqichlari va mutaxassislarining tegishli ish yo'nalishlari aniqlandi:

1. Asosiy umumiy va o'rta umumiy ta'lim bosqichida nogironligi bor bo'lgan shaxslarga kasbgayo'naltirish ishlarini qo'llab-quvvatlash: 4-bo'lim. Nogironligi bor bo'lgan talabalar ta'limini har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

2. Bitiruvchi talabalar o'rtasida kasbga yo'naltirish tadbirlarini o'tkazish;

3. Abituriyentlar kontingentini tahlil qilish va prognozlash va diagnostika va kasbga yo'naltirish bo'yicha maslahatlar berish;

4. Qabul komissiyasi kotiblari uchun brifinglar o'tkazish.

5. Qabul qilish qoidalari va tartibi, tanlangan kasb va mutaxassislik bo'yicha nogironlar va nogironlar uchun kollejlarda, texnik maktablarda va universitetlarda o'qish imkoniyati to'g'risida maslahat berish;

6. Tibbiy-ijtimoiy ekspertiza, shahar maktablari, nogiron abituriyentlarning otanalari bilan o'zaro hamkorlik;

7. Talabgorning maxsus ta'lim ehtiyojlarini va u uchun zarur bo'lgan maxsus ta'lim sharoitlarini aniqlash uchun talabgorning maxsus so'rovnomasini to'ldirish.

8. Hujjatlarni taqdim etish bosqichida nogironlar uchun maxsus shart-sharoitlar yaratish va assistent o'qituvchilarni jalb etish;

9. Nogiron talabalarni tanlangan mutaxassisligi bo'yicha tayyorlash va ishga rejalashtirilgan orbital nomzodlar bilan

muhokama olib borish;

10. Nogiron abituriyentlarga kirish test sinovlaridan o'tishlari uchun maxsus sharoitlar yaratish.

12. O'rta maxsus kasb - hunar va oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilishni qo'llab-quvvatlash: - nogironlar va nogironlarning kiruvchi kontingentini tahlil qilish, individual reabilitatsiya dasturlari va so'rovnomalarini tahlil qilish (o'qituvchilar, o'qituvchilar-kuratorlar va talabalar-o'yin texniklari, moslashuv fanlari murabbiylari, bo'lim jadvallari, o'quv bo'limi), o'quv dasturlari va o'quv fanlarining ish dasturlarini ishlab chiquvchilar);

13. Nogiron talabalar bilan ishlaydigan tarkibiy bo'linmalar, o'qituvchilar va mansabdor shaxslarni maxsus o'quv sharoitlarini yaratish va nogiron talabalarining maxsus ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish zarurligi to'g'risida xabardor qilish;

14. Nogiron talabalar va o'qituvchilar uchun maxsus o'quv sharoitlarini (kirish infratuzilmasi, uslubiy va o'quv materiallari) ta'minlash;

15. Tanlangan yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha o'qitishni qo'llab-quvvatlash:

- universitetga moslashishning diagnostikasi va yordami, moslashuv fanlari dasturiga maxsus texnologiyalar, usullar va metodlarni kiritish;

- ta'limni tiklash, o'quv dasturlari va o'quv fanlarining ish dasturlarini moslashtirish uchun sharoit yaratish; individual ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish;

- nogiron talabalar uchun moslashuv fanlari va ixtisoslashtirilgan moslashuv modulini joriy yetish;

- kasbiy faoliyatning ayrim turlari bilan shug'ullanishga qarshi ko'rsatmalar va nogironlarning mehnat sharoitlariga gigiyenik talablarni hisobga olgan holda amaliy mashg'ulotlarning individual variantlarini aniqlash;

- nogiron va nogiron talabalar uchun o'quv qiyinchiliklarini bartaraf etish va akademik xavflarning oldini olish bo'yicha maslahat berish;

- nogiron o'quvchilarni madaniy, ijodiy va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va ishtirok etishga jalb qilish;

- adaptiv jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish.

Amaliyotni qo'llab-quvvatlash:

- ta'lim (kasb/mutaxassislik) yo'nalishlari bo'yicha amaliyot rahbarlariga, ish beruvchilarga nogironlar amaliyotini qo'llab-quvvatlash bo'yicha uslubiy tavsiyalar tayyorlash va tarqatish;

- muqobil amaliyot imkoniyatini yaratish,

shu jumladan ta'lim tashkiloti asosida;

- menejerlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni amalga oshirish, amaliyot asoslari va bitiruv ishini qo'llab-quvvatlash, malakaviy topshiriq, ishga joylashish, yosh mutaxassisni birlamchi qo'llab-quvvatlash;

- ish joyida kasbiy o'zini o'zi belgilash va mustahkamlash masalalari bo'yicha talabalarga maslahat berish;

- talabalarni turli darajadagi kasbiy mahorat tanlovlarida ishtirok etishga jalb qilish;

- "Karera texnologiyasi" kursini o'zlashtirish; - kafedralar, nogiron talabalarini va ushbu toifadagi shaxslarni qo'llab-quvvatlash resurs markazi, bandlikka ko'maklashish markazi va nogironlar va HIA bitiruvchilarini ishga joylashtirishga yordam beradigan tashkilotlar, birlashmalar, korxonalarining o'zaro hamkorligi;

- nogiron bitiruvchilarga ish qidirish va ish bilan ta'minlashga ko'maklashish.

Bugungi kunda O'zbekistonda imkoniyati cheklangan yoshlarning oliy ta'lim olish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi, chunki har yili mamlakatdagi oliy o'quv yurtlariga davlat granti asosida qo'shimcha ikki foizlik kvota asosida mingdan ortiq talaba qabul qilinadi<sup>4</sup>.

"Oliy o'quv yurtlarida imkoniyati cheklangan talabalarining ijtimoiy moslashuvi" loyihasi doirasida mamlakatimizning 3 ta oliy o'quv yurtida: Toshkent davlat pedagogika universitetida tadqiqotlar (anketalar, suhbatlar, kuzatishlar) o'tkazdik. Nizomiy, Chirchiq davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika instituti iqtidorli va iqtidorli talabalarining oliy ta'lim olishlari uchun yaratilgan ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarni o'rganish imkonini berdi.

So'rovnomada 525 nafar birinchi kurs talabalarini ishtirok etib, ulardan 43 nafari eshitish qobiliyatida nuqsoni bor (8,1%), 105 nafari ko'rish qobiliyatida (20,2%), 248 nafari tayanch-harakat tizimida (47,1%), 129 nafari boshqa kasalliklar (25,1%) nuqsoni bor. Talabalar kontingenti tarkibiga 43 kishi (8,1%) I guruh nogironi, 440 kishi (84,2%) II guruh nogironi, 15 kishi (3,0%) III guruh nogironi, 27 kishi (5,4%) bolalik nogironi kiritildi.

Talabalar so'rovida ta'lim muassasalari binolari va binolarining kirish darajasi, jamoada maqbul psixologik sharoitlarning mavjudligi va maxsus o'quv dasturlari, moslashtirilgan o'quv materiallari, o'quv qo'llanmalari va texnologiyalaridan foydalanish, repetitor xizmatlarini ko'rsatish va boshqa shartlar bilan bog'liq savollar kiritilgan. Maxsus ta'lim ehtiyojlari bo'lgan talabalar tomonidan o'quv dasturlarini ishlab chiqish.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar bilimni nazorat qilish og'zaki

amalga oshirilayotgani, yaqin atrofdagi ixtisoslashtirilgan maktab o'qituvchilari yozma ishlarni o'qishga jalb etilayotgani aniqlandi. Eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilar muloqot va nazorat ishlarida yozma nutqdan foydalanadilar.

Xuddi shu paytni o'zida, talabalar (41,2%) qo'rquvi yo'qligi ta'kidladi, ramkalar, moslashtirilgan liftlar, avtomatik ravishda eshiklarini ochib, yetarlicha keng eshik, moslashtirilgan dush, tayanch-harakat buzilishi va vizual mahrum bo'lgan talabalar qulay harakat va universitet ta'lim yotoqxonasida qolish uchun qiyin qiladi. Auditoriya va vizual mahrum bo'lgan talabalar (43,4%) katta matnlarni idrok yetish va tushunishdagi qiyinchiliklar tufayli o'qituvchilar tomonidan ma'ruza materiallarini tezis bilan taqdim etish zarurligini ta'kidladilar, imo-ishora tili va tiflotexnik o'quv qo'llanmalariga ehtiyoj borligini, axborot-resurs markazlari, yashash joylari mavjudligini ta'minlash zarurligini ta'kidladilar yotoqxonalar), o'quv materialini moslashtirish, zarurligi mutaxassis-surdotarjimonlarda va boshqalarda.

Tiffopedagoglar, o'quvchilar, yordamchi o'qituvchilar va ularga hamroh bo'lgan mutaxassislar zarurligini ko'rsatadigan kosmosga yo'naltirishning qiyinchiliklari, uzluksiz harakatlanish, ma'ruzalar yozuvlari va o'quv materiallarini tushunish. Nozologiya bo'yicha talabalar kontingentini tahlil qilish chog'ida ko'rish va eshitish qobiliyati og'ir bo'lgan talabalar maxsus pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgani aniqlandi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, eshitish va ko'rish nazorati yo'qligi sababli kar va ko'r talabalar nutq terapiyasi bilan to'liq shug'ullana olmaydilar.

- nogiron o'quvchilarni o'quv jarayoniga moslashtirish;

- fanlarni rivojlantirish uchun qo'shimcha darslar tashkil etish;

- typhoon tarjimon xizmatlarini ko'rsatish, darsliklarni audio yozib olishda yordam berish, Brayl va katta shriftda bosilgan materiallarni tayyorlash, yordamchi texnologiyalarga yordam berish;

- ko'zi ojiz o'quvchilarni hududda, ta'lim muassasasi binosi va binolarida harakatlanishga o'rgatish, arxitekturaviy qulaylikni ta'minlash, imkoniyati cheklangan o'quvchilarning shaxsiy avtomobillari uchun to'xtash joylari ajratish, o'quvchilarni tashishni tashkil etish<sup>5</sup>.

Shu sababli, nogiron talabalar uchun oliy kasbiy ta'lim olish huquqini ta'minlash maqsadida oliy o'quv yurtlari talabalariga ta'lim olish uchun ijtimoiy va pedagogik sharoitlarni, samarali ta'lim texnologiyalarini joriy etishni ta'minlash shart.

1 "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: 2020 yil 15-oktabr, URK-641-son. <https://lex.uz/docs/5049511>

2 "Nogironlar huquqlari to'g'risida"gi Konvention. Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr. [un.org/ru/documents/decl\\_conv/convention\\_s/disability.shtml](http://un.org/ru/documents/decl_conv/convention_s/disability.shtml)

3 "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (yanji taxrir). T.: 2008-yil 11-iyul, URK-162-son. <https://lex.uz/docs/1372495>

4 "Eshlariga oid davlat siyosati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. T.: 2016 yil 14 sentyabr, URK-406-son. <https://lex.uz/docs/3026246>

5 Кукушкина О.И. Использование информационных технологий в различных областях специального образования // Автореферат диссертации. Москва, 2005 г. - 58 с.

## ZAMONAVIY MAKTAB O'QITUVCHISIDA IJODIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

*Nuriddin Yahoqulovich Qurbonov - p.f.b.f.d.(PhD), Jizzax viloyati pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi*

**Annotatsiya:** Maqolada maktab o'qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari ko'rib chiqiladi hamda kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining umumiy o'xshash va farqli tomonlari yoritilgan. Ijod va uning turlari ko'rsatilgan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические предпосылки развития творческой компетентности школьного учителя, выделяются общие сходства и различия понятий компетентность и компетентность. Показаны креативность и ее виды.

**Abstract:** The article examines the pedagogical prerequisites for the development of the creative competence of a school teacher and highlights the general similarities and differences between the concepts of competence and competency. Creativity and its types are shown.

**Kalit so'zlar:** ijod, kompetensiya, kompetentlik, o'qituvchi, pedagogik shart- sharoit.

**Ключевые слова:** креативность, компетенция, компетентность, учитель, педагогические условия.

**Keywords:** creativity, competence, competency, teacher, pedagogical conditions.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar umumta'lim maktab o'qituvchilariga qo'yilayotgan davlat talablariga to'la javob beruvchi, keskin o'zgarishlarga moslasha olish darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu borada Davlat ta'lim standartlarida maktab o'qituvchilariga qo'yiladigan talablar o'qituvchilarning ijodiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlar yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida umuminsoniy qadriyatlar, milliy va jahon madaniyatiga asoslangan ijodkor shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanishi belgilab qo'yilgan.

Kompetensiya - mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini etib qaydetib qo'yilgan. Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman ma'nolarini bildirib, - subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki xarakterlarni samarali birga tashkil qila olishlikka tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu

subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olish xususiyati hisoblanadi. Kompetensiya insonning mavjud bilim va hayotiy tajribalarga tayangan holda ma'lum bir muammoni hal etishga doir qobiliyatidir.

Kompetensiya va kompetentlik tushunchalari mazmunan bir xil maqsadga qaratilsada, mohiyatan bir-biridan qisman farq qiladi. Kompetentlik amaliy faoliyat bilan bog'liq bo'lib, tajriba orqali kompetensiya talablarini bilim, ko'nikma, malaka orqali namoyon etish darajasi demakdir<sup>1</sup>. Ma'lum sohaga oid insonning kompetentlik darajasi mehnat faoliyatida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, faoliyatning natijasiga qarab baho beriladi.

Kompetentlik, kompetentli, kompetentlilik, kompetensiya tushunchalari kompetensiyaviy yondashuvning yetakchi kategoriyalari sifatida namoyon bo'ladi. Kompetentlik deganda ko'pincha shaxsning integral sifatleri tushuniladi. Ular shaxsning umumiy qobiliyatida, uning ta'lim olish jarayonida o'zlashtirilgan bilimi va tajribasiga asoslangan faoliyatida namoyon bo'ladi.

<sup>1</sup> Гулямов К.М. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш // Монография. - Т.: "ТО'УТЕРА PRINT" нашриёти, 2020.-15 б

Kompetentlik - bu shaxsning bilim, ko'nikma va malakalar asosida shakllangan sifati bo'lib, ularni muayyan vaziyatda, kasbiy faoliyatida qo'llay olishdir. Kompetentlik muayyan sohaga oid faoliyatni o'zlashtirib borish jarayonida vujudga keladi, shuning uchun ham ushbu faoliyat kompetentlikning ikkinchi muhim poydevori hisoblanadi.

Tegishli sohaga oid bilim, ko'nikma, malakalar va shu soha bo'yicha amaliy faoliyat tajribasi bo'lmasa kompetentlikning shakllanishi mumkin emas.

Kompetentlikning muayyan sohaga oid bo'lishi uning o'ziga xosligi va aniqligini belgilaydi.

Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiylik kasb etsa, kompetentlik individuallik xarakteriga egadir.

Nemis tilida ommalashtirilgan ilmiy-amaliy adabiyotlarda faqat bir so'z kompetensiya shaklida qo'llanilib, Hilbert Meyr o'quvchi va o'qituvchi kompetensiyalarini alohida izohlab, bu atamani, ayniqsa, o'quvchiga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab shunday deydi:

- Kompetentli o'quvchi "quruq bilim" sohibi bo'lib qolmasdan, o'z bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan bilimlar mazmuniga ega.

- Kompetentli o'qituvchi esa pedagogik faoliyatida o'ziga ishongan holda, o'zini qiynamasdan (sog'ligini asragan holda) nazokat bilan dars bera oladi. Bundan tashqari, u ta'limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o'z ustida ishlashga tayyor turadi<sup>2</sup>. Kompetentli bo'lgan o'qituvchi katta kuch sarflamasdan katta yutuqlarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'qituvchi kompetensiyasi tayanch va fanga oid (xususiy) kompetensiyalardan iborat. Tayanch kompetensiya - maktab ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi barcha fan o'qituvchilarga xos bo'lib, fanga oid kompetensiya esa xususiylik xarakteriga ega bo'lgan fan o'qituvchilariga taalluqlidir. Ta'lim beruvchi hamda ta'lim oluvchining ta'lim jarayoni nihoyasida ega bo'lgan barcha amaliy sifatleri, bilimi, ko'nikma va malakalari yig'indisidan iboratdir. Xulq-atvor va

fikrlashi esa keng ma'nodagi "kompetentlik" tushunchasiga kiritiladi. Ta'lim jarayonining maqsadi ta'lim oluvchining kompetentliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Tayanch kompetensiyalar - inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxsiy hayotda, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy malaka va ko'nikmalar majmuidan iborat.

Kompetentlik ma'lum sohaga doir biron-bir muammoni hal etishga imkon beruvchi shaxsning zaruriy kompetensiyalarni egallaganligi sifatida talqin etilgan. Kompetensiyalar yig'indisi kompetentlikni tashkil qiladi<sup>3</sup>.

Shunday qilib "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari bilim, ko'nikma va malaka tushunchalariga qaraganda kengroq ma'noga ega bo'lib, ular shaxsning yo'nalganligi, uning stereotiplarini yengish, muammolarni his etish, kuzatuvchanlik, fikrlash qobiliyatini; xarakterini - mustaqillik, maqsadga intiluvchanlik, irodaviy sifatlarini qamrab oladi.

Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" - yaratuvchi, ijodkor) - individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Ijod - insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko'rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o'tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko'riladi, noto'g'ri bo'lsa yangilanadi. Izlanishlar natijasi turli shakllarda (badiiy asar, matematik formula va b.) yuzaga chiqadi. Uni jamiyat e'tirof etsagina haqiqiy, to'liq ijod bo'ladi. Ijod fan-texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi<sup>4</sup>.

Ijodni shartli ravishda ikkiga: ilmiy ijod va

<sup>2</sup> Гулямов К.М. Компетенциявий ёндашув асосида бўлажак амалий санъат ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш тизимини такомиллаштириш // Монография. - Т.: "ТО'УТЕРА PRINT" нашриёти, 2020.-69 б

<sup>3</sup> Муслимов Н.А., ва бошқалар. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси // Монография. - Т.: "Фан ва технология" нашриёти, 2013.-128 б

<sup>4</sup> Асадов Ю.М. Формирование и развитие профессионализма учителя на основе технологического подхода // Известия Самарского научного центра Российской академии наук (Том 12.). - 2010. № 5.- С. 18-20.

badiiy ijodga bo'lish mumkin. Olimlar faoliyati ilmiy ijodga, san'atkorlar, yozuvchilar faoliyati badiiy ijodga qaratilgan. Ba'zi kishilarda har ikki ijod rivojlangan bo'lishi mumkin. Ilmiy ijodda tabiat va jamiyat hayotining obyektiv qonuniyatlari aks etsa, badiiy ijodda ma'naviy hayot muammolariga san'atkorning subyektiv, o'ziga xos qarashlari, his-tuyg'ulari aks etadi. Badiiy ijodda hayotning turfa ranglari hamda voqealari orasidan ibratli va ijtimoiy ahamiyatli bo'lganlari tanlab olinadi va badiiy umumlashtiriladi. Badiiy ijod murakkab jarayon bo'lib, inson faoliyatining idrok etish, baholash, qadrlash singari turlari bilan bog'liq holda amalga oshadi. Buning uchun ijodkor erkin xayol, ozod tafakkur, keng ko'lamli tasavvur, milliy g'urur va yuksak orzularga ega bo'lishi kerak. Badiiy ijod mahsulotining ommaviyligi va ijtimoiy ahamiyati ana shu bilan belgilanadi. Ijodning taraqqiy etishida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy shart sharoitlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Maktab o'qituvchisi quyidagi ijodiy sifatlariga ega bo'lishi zarur: ilhomlanganlik, fantaziya, qarama-qarshiliklarga sezgirlik, harakatlarning tarqaluvchanligi, tanqidiylik, his-tuyg'ular, aqlning egiluvchanligi va boshqalar.

Maktab o'qituvchisi ijodkorlik kompetentligini amalga oshirish uchun, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar yaratilishi lozim. O'qituvchining ijodkorlik faoliyati pedagogik shart-sharoitlar yaratishni tasniflash negizida shaxs faoliyatining tarkibiy komponentlari: bilish, ijodiy, kommunikativ, badiiy faoliyatlar yotishi mumkin.

A.V.Tutolmin o'z tadqiqotlarida bo'lajak o'qituvchi ijodiy kompetentligining paydo bo'lishi va rivojlanishining samaradorligini ta'minlab beruvchi pedagogik sharoitlar quyidagilardan iborat:

- umumpedagogik (tizimli yondashuvni amalga oshirish, uzluksiz ta'lim bosqichlarida ijodiy rivojlanayotgan ta'lim maydonlarini yaratish);

- metodik (kompetentli yondashuvni amalga oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion ta'lim texnologiyalarini egallashi, ilmiy-tadqiqot faoliyati aktivizatsiyasi);

- maxsus shartlar (shaxsga taalluqli yondashuv realizatsiyasi, talabalarning intellektual va ma'naviy, ijtimoiy va individual, normativ va ijodiy rivojlanishi)<sup>5</sup>.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga asoslanib maktab o'qituvchisining ijodiy kompetentligi rivojlanishini ta'minlab beruvchi pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- O'qituvchini predmetli, metodik, kommunikativ ijodkorligi haqidagi bilimlardan xabardor qilish;

- Erkin, majburiy bo'lmagan o'quv vaziyatini, ochiq, ishonchli muomala muhitini yaratish;

- O'qituvchilarning noodatiy savollarga, g'oyalarga, takliflarga diqqat bilan munosabatda bo'lish va ijodiy ish uchun ularning ahamiyatini baholash;

- Ta'lim oluvchilarning ijodiy faolligini oshiradigan masalalardan foydalanish;

- Ta'lim subyektlari orasida ijodiy muhitni yaratish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maktab o'qituvchilarida ijodiy kompetentlikni rivojlantirish uchun pedagogik ijod to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchi ijodiy faoliyati haqidagi bilimlar bilan ta'minlanishi, ijodiy muhitni yaratish, trening va boshqa mashg'ulotlar uchun muvaffaqiyatli vaziyatni yaratish hamda pedagogik shart-sharoitlar yaratish lozim.

## XALQ PEDAGOGIK MADANIYATINING AXLOQIY JIHLARI VA UNING YOSHLAR TARBIVASIDAGI O'RNI

*Maksuda Sultanovna Xajiyeva - f.f.d., professor, Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada, aholining ta'lim-tarbiya tajribasini nazariy jihatdan boyitish, o'tmishdagi pedagogik merosning eng ilg'or va samaralilarini saralab olish va uni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning bugungi sharoitida qo'llash hamda xalq pedagogik madaniyatining ko'plab jihatlari, bolalarni mehnatga tayyorlash, bolalar muhitining "axloq kodeksi", yoshlarning estetik ideallari, milliy tarbiya konsepsiyasi, tarbiya usullari haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрено теоретическое обогащение образовательного опыта населения, отбор наиболее передового и эффективного педагогического наследия прошлого и его применение в современных условиях воспитания подрастающего поколения, а также многие аспекты обсуждаются народная педагогическая культура, подготовка детей к труду, «этический кодекс» детской среды, эстетические идеалы молодежи, концепция народного воспитания, методы воспитания.

**Abstract:** In this article, the theoretical enrichment of the educational experience of the population, the selection of the most advanced and effective pedagogical heritage of the past and its application in the current conditions of educating the young generation, as well as many aspects of the people's pedagogical culture, preparing children for work, the "code of ethics" of the children's environment, the aesthetic ideals of young people, the concept of national education, methods of education are discussed.

**Kalit so'zlar:** xalq pedagogikasi, ta'lim-tarbiya tajribasi, ma'naviy madaniyat, yodgorliklar, inson or-nomus, insoniy muhabbat harakat jihati, mardlik va tavakkalchilik.

**Ключевые слова:** народная педагогика, воспитательный опыт, духовная культура, памятники, человеческое достоинство, человеческая любовь, аспект действия, мужество и риск.

**Keywords:** national pedagogy, educational experience, spiritual culture, monuments, human dignity, human love, action aspect, courage and risk.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarorida "tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlod tarbiyasida keng qo'llash" muhim vazifa sifatida belgilanganligini qayd etish joiz. Zero, ma'naviy barkamollikka erishish, ma'rifatli inson sifatida kamol topish orzusi Sharq mutafakkirlari ta'limotida azaldan ustuvor g'oya bo'lib kelgan. Allomalar asrlar davomida ma'naviy barkamollikka erishishning afzalliklari, jamiyat ravnaqida ma'naviy barkamol insonning o'rnini to'g'risida ilg'or falsafiy fikrlarni ilgari surib kelganlar, ushbu yo'nalishda falsafiy ta'limotlar yaratganlar. Aholining ta'lim-tarbiya tajribasini nazariy jihatdan boyitish, o'tmishdagi pedagogik merosning eng ilg'or va ilg'orlarini saralab olish va uni yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning bugungi sharoitida qo'llash bo'yicha keyingi ishlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalish etnopedagogik tadqiqotlarning dolzarbligini ochib beradi. Minglab, yuzlab yillar muqaddam paydo bo'lgan xalq pedagogik yodgorliklarida o'qitish va tarbiyalashning ma'lum yo'l va vositalari, hatto juda oddiy formulalar, pedagogik talablar mavjud. Ularda xalq pedagogik madaniyatining ko'plab jihatlari mavjud: bolalarni mehnatga tayyorlash, bolalar muhitining "axloq kodeksi"; yoshlarning estetik ideallari, asosiy tushunchasi - milliy tarbiya konsepsiyasi, tarbiya usullari va

5 A.V.Tutolmin Становление и развитие творческой компетентности будущего учителя (на основе системного подхода): Автореферат дис...докт..пед.наук (специальность 13.00.08 - теория и методика профессионального образования). - Чебоксары, 2009. - С.43.

1 "Ўзбекистон Республикасида миллий маданиятни янада ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида". Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2018 йил 30 ноябрь. 07/18/4038/2243-сон.

boshqalar saqlangan. Shu munosabat bilan xalq pedagogikasining ma'naviy hayotdagi hodisa sifatidagi o'рни va rolini anglash; uning mazmuni, tuzilishi, tarbiyaviy vazifalari, vositalari va boshqalar. Ko'rinib turibdiki, o'zining ijobiy ma'no va qimmatini yo'qotmagan ta'lim-tarbiya tajribasini yanada aniqroq tasniflash yo'llarini belgilashga yordam beradigan bir qator ma'naviy madaniyat yodgorliklari haqida to'xtalib o'tish zarur. Barkamol avlodni tarbiyalash aynan ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish orqali amalga oshirilishi mumkinligi bugun barchaga ayon. O'zbekiston hukumatining maxsus qarori bilan uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining qabul qilinishi tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv zaruratini asoslab berdi<sup>2</sup>.

Inson o'zi qadrli deb bilgan narsasini yanada hurmat qilishi, unga mehr bilan munosabatda bo'lishi sharaf belgisidir. Demak, or-nomus insoniy muhabbat bilan uzviy bog'liqdir. Sevgi izzatning hissiy manbai bo'lsa, or-nomus muhabbatning qadri, harakat jihati, or-nomus insonda kuch-g'ayratni yondirib, mardlik va tavakkalchilikka yetaklaydi, matonatni oshiradi, kuch beradigan energiya.

Imom haqida Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning hadislarida shunday deyilgan: "Insonning uchta hurmati bor: biri iymon, ikkinchisi vatan, uchinchi oila, ikkinchisi soxta nomus". Ya'ni, bema'nilik uchun raqobat qilish - nomus belgisi emas. Inson qadr-qimmatini tashqi dushmanlardan himoya qilish bilan birga, ichki dushmanlardan, ya'ni o'zining ichki kasalliklaridan ham himoyalinish muhim va bu katta mehnat talab qiladi. Shaxsning shahvat va suiiste'mol bilan kurashida ham nomus darajasi namoyon bo'ladi. Chunki yuqorida tilga olingan qadriyatlarida tashqi dushmanning adovatidan ko'ra insonning ma'naviy buzuligini bilan bog'liq bo'lgan qimmatli narsaning qadr-qimmatini yo'q qiladigan nafs adovati hukmronlik qiladi.

Pedagogika har qanday davrda jamiyatda alohida o'rin tutgan. Har bir mamlakat va xalqning tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari bor. Islomda ta'lim tizimi esa juda sifatli. Yevropa pedagogika tizimida asosiy e'tibor tarbiyaga emas, ta'limga qaratiladi. Va bunday pedagogikada ba'zi kamchiliklar mavjud. Chunki bilimsiz odam jamiyatga zarar etkazishi mumkin. Har qanday

qurolli mudofaadan tashqari qaroqchilik va jangovar maqsadlarda foydalanilganga o'xshaydi. Islom dini boshqa dinlarga tengi yo'q, ta'lim-tarbiya, aql-idrok, xayrixohlik, ijtimoiy adolat, shuningdek, inson huquqlari va qadr-qimmatiga alohida urg'u berilgan dindir.

Pedagogika, inson kamoloti, harakat va munosabatlarni tartibga solish nuqtai nazaridan islom dini alohida o'rin tutadi<sup>3</sup>. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam haqida shunday dedilar: U zot Allohning payg'ambarlariga isyon qilib, Allohning g'azabiga uchraganini hikoya qiladi. "Ey Payg'ambar, Qur'onni nozil qilish bilan Biz senga avvalgilarning voqealarini bayon qilishimiz yaxshidir" (Yusuf surasi, 3-oyat).

Pedagoglar bolalar tarbiyasida keng qo'llashda qo'l kelishini bilgan holda, inson tasavvuriga asoslangan ko'plab ertaklarni aytib berishni tavsiya qiladi. Islom pedagogikasi esa har qanday yoshdagi kishilar uchun ertak emas, balki haqiqiy tarixiy misollarga to'la, ularni esda qolishga chorlovchi hikoyadir. U kishilarni tafakkur qilishga undaydi: "Ulardan oldingilarning oqibati qanday bo'lganini ko'rmaydilar? Albatta, oxirat taqvodorlar uchun yaxshiroqdir. (Yusuf surasi, 109-oyat)<sup>4</sup>.

Qur'onda ilm haqida 823 ta, aql haqida 49 ta, tafakkur haqida 18 ta parcha bor. Ana shu oyatlar asosida tarbiyalash natijasida inson Alloh taoloning borligini va uning sifatlarini ongli ravishda anglab yetadi va ko'rona e'tiqoddan xalos bo'ladi. O'qituvchilar atrof-muhitni inson tarbiyasida muhim rol o'ynaydigan ta'lim markazi sifatida qabul qiladilar. Islomda ham Qur'oni karimda solih kishilarni bir-birlari bilan bo'lishga chaqiradi: "Ey mo'minlar, Allohdan qo'rqinglar va rostgo'ylar bilan birga bo'linglar" ("Tavba" surasi, 119-oyat). Bu oyat har qanday jamiyatda hamisha tavsiya qilinadi. Shunday qilib, islom dinining pedagogikadagi ahamiyati jamiyatda salmoqli o'rin tutadi.

Farzand ota-ona qo'lidagi omonatdir. Qalblari musaffo va olmosdek qadrli. Bola yosh tayoq kabi moslashuvchan. Har qanday shaklga kiritilishi mumkin. Bu unumdor tuproqqa o'xshaydi. Hosil tuproqqa nima eksang, o'shani olasan. Shuning uchun, bola nimaga moslashsa, unga ko'ra boshqariladi va o'sadi. Uyada nimani ko'rsa, uchayotganda ushlaydi. Farzandlarga iymon, Qur'on va

Ollohu taoloning amrlari o'rgatilsa, dinda ham, dunyoda ham baxtiyor bo'ladi. Bu baxt va savobni ota-onalar va ustozlar birgalikda oladilar. Agar bolaga bu narsalar o'rgatilmasa va ularni odatga aylantirmasa, u baxtsiz bo'ladi. Har bir yomon ishning aybi ota-onaga, ustozga yoziladi.

Kimki o'z farzandiga man qilingan biror narsani qilsa, gunoh qilgan bo'ladi. Farzandlarini ichkilik ichishga, qimor o'ynashga, fahsh adabiyotlarni o'qishga, yolg'on gapirish, o'g'irlik kabi yomon xulq-atvoriga undaydigan, qiblagga qarshi turishiga sababchi bo'lgan kishi gunoh qilgan bo'ladi. Dinimizning asosi iymon, farzlarni o'rganish va o'rgatishdir. Ollohu taolo buning uchun payg'ambarlar yubordi. Ollohu taolo musulmonlarni yaxshilik qilishga buyurgan<sup>5</sup>.

Islom dini inson moddiy va ma'naviy hayotining barcha sohalariga taalluqli bo'lgan mukammal va mislsiz mafkuradir. Chunki u inson tabiati izlagan barcha ezgulik va saodat yo'llarini ko'rsatib, o'zining sog'lom ruhi bilan insoniyatni har xil ma'naviy kasalliklardan qutqaradi. Islomning o'zgarmas, qat'iy va doimo yangi qoidalari jamoat sohasini to'liq qamrab oladi. Inson hayotining biron bir go'shasi yo'qki, u dinimizning ma'rifiy ko'rsatmalariga amal qilmasa. Diniy an'analarni jalb qilish sharoitida ta'limning mohiyati haqidagi g'oyaga to'xtaladigan bo'lsak, bu holda pedagogik jarayonga qarash ma'naviy salohiyatni alohida e'tibor berish lozim<sup>6</sup>.

Dinimiz o'lim hayotning oxiri emasligini ko'rsatadi; Bu dunyo hayoti oxirat hayotidan ajralmasdir. Inson bir tomonlama mavjudot emas; ruh va tananing bir-biri bilan favqulodda aloqasi bor. Binobarin, Islom ikki dunyo saodati yo'lini aniq ko'rsatib turibdi.

Islom nuqtai nazaridan odamlarning moddiy xususiyatlaridan butunlay farq qiladigan istak va mayllari ham bor. O'zining oliy maqsadiga erishmoqchi bo'lgan kishi moddiy iplarni uzib, komillik darajasiga erisha oladi; Bu asosiy va eng oliy maqsaddir. Inson tanasi, aqli va ruhi har biri alohida istaklar bilan yashaydi, ularga to'liq reallik bilan qarash kerak va biri ikkinchisidan ustun bo'lmasligi kerak. Islom nomutanosibliklarga qarshi chiqadi va inson baxtini moddiy va ma'naviy mayllarning har tomonlama va mukammal ta'minlanishida ko'radi. Bunda insonning moddiy mayllarini

unutmaslik va uning tabiiy ehtiyojlarini hisobga olish kerak.

Islom tarbiyasi insonning nafs va mayllarini tartibga soladi va poklaydi. Ularni yaxshi xulq-atvoriga yo'naltirish va ba'zi nopok narsalarni ko'rsatmaslik uchun. Inson shunday bir dunyoda yashaydiki, u bir tomondan o'zining moddiy ehtiyojlarini ta'minlashi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zining ma'naviy mayllarini qondirishi kerak. Har qanday shaxs yoki jamiyat har ikki yo'nalishda muvozanatlashganida hayot haqiqiy baxt va saodatga aylanadi. Dinimiz insonga axloqiy fazilatlarini, yuksak ma'naviyatni egallashi uchun zarur bo'lgan qoidalarni juda aniq ko'rsatib beradi va u Alloh taolo tomonidan berilgan aql-zakovat orqali bu yo'lni to'liq to'g'riligini anglab yetadi<sup>7</sup>.

Islom dinining barcha ta'limotlari va insonlarga yuklagan vazifalari har bir insonning kuchi va qobiliyati doirasidadir. Islom shariati insonga ma'lum bir vazifani yuklasa, eng avvalo uning tabiiy xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga oladi. Inson hech qachon qo'ldan kelganidan ortiq qila olmaydi. Bugungi kunda eng kuchli va qonuniy manba - umumiy iroda. Zamonaviy dunyoning demokratik tizimlarida qonun asos bo'lgan manba xalq va ko'pchilikning fikridir. Jamiyat taqdirini aynan "umumiy iroda" belgilab beradi va bu yerda boshqa hech narsa rol o'ynamaydi. Ozchilik haq bo'lsa ham, hech kim ular bilan hisoblanmaydi.

O'rta Osiyo bilan azaldan chambarchas bog'liq bo'lgan O'zbekiston zaminiga ham islom dini ta'sir ko'rsatgan. Musulmonning ma'naviy hayotining ikki yo'nalishi o'rtasidagi raqobat o'sha paytda Movarounnahrda boshlangan madaniy taraqqiyotga katta ta'sir ko'rsatdi. Birinchi yo'nalish Aflotun va Aristotel kabi yunon faylasuflariga asoslangan Sharq peripatetiklari bilan bog'liq. Uning asoschisi Abu Nosir Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn al-Farobiy at-Turkiy, jahon madaniyati va maorifining Arastudan keyingi ikkinchi ustoz, qadimiy O'tror shahrida tug'ilgan. Al-Farobiyning ma'naviy merosi qozog'istonlik va boshqa olimlar tomonidan muvaffaqiyatli o'rganilgan. Ilm-fan va madaniyatning al-Farobiy tadqiqot o'tkazmagan sohasi yo'q, u 200 dan ortiq risolalar yozgan<sup>8</sup>.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, musulmon mamlakatlaridagi podshohlar,

2 Қаранг: "Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида". Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори. - Т.: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси. - 2020 йил 3 январь. 09/20/391/0777-сон.

3 Бобоева М.Р. Теоретические основы педагогики ненасилия в контексте гуманистического воспитания подрастающего поколения : диссертация ... кандидата педагогических наук. Душанбе, 2020. - 192 с.

4 Қуръони Каримнинг машхур суралари фазилати. Тошкент: "Гофур Фулом". 2021 йил. 138 б.

5 Саяхов Р.Л. Формирование толерантности слушателей мектеба на основе активизации педагогического потенциала исламских первоисточников : диссертация ... кандидата педагогических наук. Уфа, 2019. - 204с.

6 Ходжаиязов С. У. Хоразм муфаккиrlarining ma'naviy-ma'rifiy qarashlari. Lesson Press MCHJ nashriyoti. 2021. 38 b.

7 Магомадова З.Х. Педагогические возможности среды в воспитании толерантности у подростков : диссертация ... кандидата педагогических наук. - Махачкала, 2020. - 196 с.

8 Волжанская И.Г. Изучение литературы Востока в педагогическом вузе : На материале мифологии и полуфольклорной прозы Средневековья : диссертация ... кандидата педагогических наук. - Б.м., 2006. - 208 с.

sultonlar va amirlarning tuzumlari, o'g'ay otalik va ta'lim-tarbiyaga e'tiborsizlik islom olamining ilmiy hayotiga zarba bo'ldi. Nihoyat, musulmonlar o'zlarining ilmiy o'tmishlarini unutishga, ota-bobolarining muvaffaqiyatlari va kashfiyotlari bilan faxrlanishga va bu yutuqlarni rivojlantirishga moyil emas edilar. Bugungi kunda musulmon davlatlarida 1803 ta universitet bor, ammo ulardan faqat 312 tasida ilmiy maqolalar muntazam chop etiladi. Eng faol 50 ta universitetdan 29 tasi Turkiyada, 9 tasi Eronda, 6 tasi Malayziya va Misrda. Pokistonda faqat ikkita universitet, Uganda, Birlashgan Arab Amirliklari, lordaniya, Saudiya Arabistoni, Livan va Quvaytda ikkita universitet faoliyat yuritadi. Birlashgan Arab Amirliklarida yalpi ichki mahsulotning (YalM) atigi 0,87 foizi tadqiqotga sarflanadi. Saudiya Arabistonida bu ko'rsatkich 0,82 foiz, Quvaytda 0,3 foiz, Ummonda 0,25 foiz, Misrda 1,1 foiz va Pokistonda 1,2 foizni tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dunyo "inson irodasi kuchi"ni eng muqaddas ijtimoiy qonun sifatida tan oladi. Lekin Islomga ko'ra, Qonunchilik faqat Xudoning irodasiga bog'liq bo'lib, bu erda oddiy xalqning taqdiri ko'pchilikni tashkil etuvchi shaxslarning xudbin istaklari asosida belgilanmaydi. Islom nuqtai nazaridan qonunchilikni hech qachon ilohiy qonundan ajratib bo'lmaydi. Xudoning hukmronligi va qonunlari hamma odamlarga tegishli. Ibadat Xudoniki bo'lgani kabi, mutlaq kuch va qonun ham faqat Unga tegishlidir. Hech bir inson o'zi xohlaganicha hukm qilish va qonun chiqarish huquqiga ega emas. Qanday qilib biz mutlaq topinishimiz bo'lsa-da, Xudodan boshqa qonunlarga bo'ysunishimiz mumkin? Ibadat Xudoniki bo'lgani kabi, mutlaq kuch va qonun ham faqat unga tegishlidir. Hech bir inson o'zi xohlaganicha hukm qilish va qonun chiqarish huquqiga ega emas. Qanday qilib biz mutlaq topinishimiz bo'lsa-da, Xudodan boshqa qonunlarga bo'ysunishimiz mumkin?

Islom dinining maqsadi insoniyat jamiyatining barcha sohalarida adolatni ta'minlashdir. Chunki inson tabiati mana shu narsalarni talab qiladi va Alloh taolo bandalariga aynan shuni buyurgan.

Inson tanasi juda murakkab va sirli bo'lgani uchun, uning mavjudligini tartibga soluvchi qonunlar ham xuddi shunday qiyin va

murakkab. Hech kim bu qonunlarni to'liq aniq bilaman, xato va gunohdan xoliman deb da'vo qila olmaydi. Shuningdek, u o'z baxt yo'lini to'liq anglab yetgan deb da'vo qila olmaydi.

Shuningdek, biz insoniyat ega bo'lgan ilmning cheklovlarini hisobga olishimiz kerak. Zamonaviy ilm-fan haqida doktor Karel shunday yozadi: "To'g'ri, odamlar o'zlarini yaxshiroq bilish uchun ko'p mehnat qilishgan. Dunyoda sodir bo'layotgan voqea va mavjudotlarni o'rganuvchi olimlar hozirgacha ko'plab kashfiyotlar qilishgan. Biroq, bu barcha ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, inson o'zi haqida juda oz narsa bilishini endigina anglay boshladi.

Haqiqat shuki, biz nihoyatda savodsiz va johilmiz. Anchadan beri inson haqida izlanishlar olib borgan va bu sohada yetarlicha ma'lumot olsa bo'ladi, deb o'ylagan olimlar ham tanasiga oid ko'plab savollar oldida ojiz qolishadi. Ko'rinib turibdiki, bu mutaxassislar tomonidan olingan ma'lumotlar ochilmaganlar bilan solishtirganda ahamiyatsiz va bu bilimlar hali boshlang'ich bosqichida.

Inson tanasini tan olmasdan turib, uning hayotini tartibga soluvchi va jamiyatda manfaatlarini himoya qiluvchi qonunlarni qo'llash mumkin emas. Shuning uchun ham turli jamiyatlarda odamlar o'zlariga qo'ygan bu qonunlar insoniyatning ko'p muammolarini adolatli hal qila olmaydi. Kundalik hayot muammolarini, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy masalalarni hal etishga qaratilgan qonunlarni qo'llashda yuzaga keladigan qarama-qarshilik va kamchiliklar bunga misol bo'la oladi. Yuqori va mukammal deb topilgan qonunlar vaqt o'tishi bilan yo'zgartiriladi yoki "takomillashtiriladi". Biroq, ularni qo'llashda hali ham kamchiliklar va qarama-qarshiliklar mavjud.

Insonlar qonun chiqarayotganda, ularga o'z xohish-istaklari va mayllari ta'sir qiladi. Bu faktning o'zi adolatning umumiy tamoyilini himoya qilishdan keskin farq qiladi. Monteske shunday deb yozgan edi: "Qonunda o'z fikrini bildirmaydigan qonun chiqaruvchi yo'q edi. Buning sababi, har bir qonun chiqaruvchining o'ziga xos tendensiyalari va fikrlari bor. Qonun chiqaruvchi qonun chiqarar ekan, unga shaxsiy qarashlarini kiritmoqchi. Aristotel qonunni qabul qilar ekan, u Platonning hasadini bosmoqchi bo'ldi. Aflotun afinaliklarning zulmidan charchagan va bu nafratni u qabul qilgan qonunlarda ham ko'rish mumkin. Bundan maqsad qabul qilingan qonun qonun chiqaruvchining shaxsiy xohish-istaklari, mayl va hissiyotlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ba'zida qonunlar butunlay bu his-tuyg'ular

ta'sirida bo'ladi"<sup>9</sup>.

Ilohiy qonunning inson qonunidan asosiy farqi shundaki, inson huquqi faqat ijtimoiy tartibni o'rnatishga qaratilgan. Bu qonunlarning insonning ma'naviy va axloqiy fazilatlariga hech qanday aloqasi yo'q. Odamlarning ichki xunukliklari jamiyat tartibiga zid harakatga aylanmaguncha tuzatishga qadam qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, zamonaviy fan tarmog'i sifatida etnopedagogikaning muhim va dolzarb muammolaridan biri madaniy-tarixiy va badiiy-diniy yodgorliklarni o'rganishdir. Tarixiy-diniy xarakterdagi yozma merosni o'rganish insoniyatning sivilizatsiya sifatidagi taraqqiyot jarayonini aks ettirish va inson tafakkurini takomillashtirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. Badiiy va diniy yodgorliklarni o'rganish ulardagi g'oyalar, qoidalar va motivlarning san'at asarlariga

kirib borish darajasini aniqlash uchun axborot maydonini kengaytiradi. Qur'on Islom dinining muqaddas kitobi sifatida nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki islom olamining ilmiy va madaniy muhitida ham doimo muhim o'rin tutgan. Xuroson uslubining ilk namoyandalari ijodini o'rganish ular asarlarining g'oyaviy-badiiy yo'nalishiga Qur'on motivlari va hadislarning ta'sir darajasiga oydinlik kiritadi. Qur'oni karim motivlariga murojaat qilish, islom dinining muqaddas kitobi oyat va suralariga turli shakllarda to'g'ridan-to'g'ri va ma'naviy murojaatlar ham o'z asarlarini shunday muhitda yaratgan shoirlarning mahorati, bilim darajasi va dunyoqarashini ochib beradi. Islomning mafkuraviy-diniy ta'limoti ustun mavqeni egalladi.

## MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHDA RAHBAR-XODIM MUNOSABATI

*Asliddin Norbobo o'g'li Saidov - Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim muassasalarida kadrlar va ularning bazasida mahoratli rahbar-xodimlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga oid fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, mahoratli kadrlarni tayyorlash hamda ularni qo'llab-quvvatlashning uslubiy, moddiy, ilmiy, tashkiliy kabi jihatlari tadqiq qilingan.

**Аннотация:** В данной статье представлены идеи по дальнейшему совершенствованию системы подготовки кадров в образовательных учреждениях и квалифицированных менеджеров на их основе. Также были изучены методические, материальные, научные и организационные аспекты подготовки квалифицированных кадров и их обеспечения.

**Abstract:** This article presents ideas on further improvement of the system of personnel training in educational institutions and qualified managers based on them. The methodical, material, scientific and organizational aspects of training qualified personnel and their support were also studied.

**Kalit so'zlar:** rahbar, xodim, milliy kadrlar, rahbar-xodim munosabati, o'zbek modeli.

**Ключевые слова:** руководитель, служащий, национальный персонал, отношения руководитель-служащий, узбекская модель.

**Keywords:** leader, employee, national personnel, leader-employee relations, uzbek model.

Ma'lumki, kadrlarni tayyorlash – tayyorlash tizimi ko'p yillar davomida metodologik, moddiy, ilmiy, biologik, tashkiliy, shakllangan. Shu sababli, O'zbekiston boshqaruv va boshqa turlarni o'z ichiga malakali kadrlarining xalqaro maydondagi olgan ko'p komponentli jarayon. Bu o'rinda keng muvaffaqiyati ko'p jihatdan kadrlarni tayyorlash juda muhim hisoblanadi. Shu o'rinda biz bir tayyorlash tizimining muvaffaqiyatli ishlashiga bog'liq. Har qanday uslubiy pozitsiya mulohazalarimizni bayon etishni maqsad qiladik. Har qanday uslubiy pozitsiya mashg'ulotlar tizimining umumiy qonuniyatlari va eksperimental tadqiqotlar natijalarini hisobga olgan holda o'rganilayotgan

O'zbekistonda malakali kadr zaxirasini

<sup>9</sup> Монтескье Ш.Л. О духе законов. Эксклюзив М. АСТ 2021. - 864с.



pedagogik hodisa amaliyotining tarixiy tajribasiga asoslangan ilmiy xulosa bo'lishi kerakligidan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash jarayonini optimallashtirish usullari, shakllari va vositalarining mohiyatini ilmiy jihatdan asoslash uning konseptual asoslarini, retrospektiv tahlil asosida tashkiliy va uslubiy yechimlarni o'rganishga asoslangan bo'lib, bu yuqori malakali rahbar va xodim tayyorlashda malakali kadrlar tayyorlash tizimi evolyutsiyasi jarayonida sabab-ta'sir munosabatlarini o'rnatishga imkon beradi<sup>1</sup>.

«Davlat rahbarlari fuqarolarning sadoqati va fidoyiligi-la qudratlidir»<sup>2</sup>, degan edi ulug' bobomiz Amir Temur. Rahbar - ustoz, murabbiy, rahbar - millat tarbiyachisi, abadiyatga daxldor shaxsdir. Rahbarning mashaqqatli mehnati natijasi o'laroq kelajagimiz vorislari kamol topib boradi. Shunga ko'ra rahbarlarga qaratilgan e'tibor Vatani taqdiriga qaratilgan e'tibordir.

«Rahbarlar rolining yanada oshishi hozirgi zamon kishisining murakkablashuvi bilan ham bog'liq. Shuning uchun har bir rahbar insonni bilishga intilmog'i kerak. U hayotda o'zining yutuqlari, kamchiliklari, ulug'vorligi, kundalik talablari bilan boshqalardan farq qiladi. Agar rahbar o'z qo'l ostidagi insonlarning individual va psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini, ko'nikma, malaka va qobiliyatlarini bilmasa, yaxshi rahbar bo'la olmaydi. U kishilarning umumiy va xususiy qobiliyatlarini, temperament tiplarini, xarakter xislatlarini ustalik bilan hisobga olgan holda ish tutmog'i kerak. Masalan, ayrim kishilar tezkor harakatlarga tayansalar, boshqalarda esa mantiqiy fikr yuritish ustun bo'lishi mumkin. Shu kabi shaxsiy sifatlarini hisobga olgan holda ma'lum vazifalarni tavsiya qilishi va texnologik zanjirda uni o'z o'rniga qo'ya bilishi, ta'lim tizimiga oid ma'lumotni unumli tarzda ko'ra bilmog'i kerak. Shunday ekan, har qanday ta'lim muassasasining rahbari o'z faoliyatini yuksak darajada tashkil etishi va jamoani boshqarishi uchun bir qancha psixologik xususiyatlarga ega bo'lmog'i lozim»<sup>3</sup>.

Ma'lumki, boshqaruv jarayoni uchun ijrochilar (mehnatkashlar, ishlovchilar, xodimlar)ning psixologik xususiyatlari va ularning o'ziga xosligi, shuningdek tizim muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan jamoa, guruh va ularning a'zolari muayyan darajadagi psixologik ma'lumotlilik, faoliyat va muomalani tashkil qilish, uyushtirish, muloqotga kirishish,

voqelikka tortilganlik masalalarini e'tiborga olish boshqaruv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishni ta'minlaydi.

Shu o'rinda tizim, model tushunchasiga e'tiborimizni qaratamiz, zero u ijtimoiy boshqaruv nazariyasining asosiy tushunchalaridan biridir<sup>4</sup>. Tizimlarni tasniflash, qo'yilgan vazifalarga qarab, turli mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi. Avvalo, tizimlar obyektiv olamga mansubligiga qarab bo'linadi. Ijtimoiy, biologik va jonli tabiat bilan bog'liq tizimlar ajralib turadi. Sheynov.V.P.ning ta'rificha, integral tizim tarkibiy qismlar majmui sifatida tushuniladi, ularning o'zaro ta'siri uning generatorlariga xos bo'lmagan yangi (integral, tizimli) fazilatlarini yaratadi. Aynan integral tizimni rahbar-xodim munosabatlarida qo'llash eng samarali usullardan biri<sup>5</sup>.

Tizimning ayrim tarkibiy qismlarini qayta tashkil etish va umumlashtirish asosida yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimining samaradorligi va tejamkorligini oshirish, rahbar-xodim ierarxiyasining barcha darajalarida moddiy va kadrlar konsentratsiyasining tashkiliy va boshqaruv texnologik yechimlariga alohida e'tibor qaratilmog'i zarur.

Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, rahbar psixologiyasini ma'naviy jihatdan shakllantirish uchun quyidagi omillarga asoslangan holda amalga oshiriladi:

- Tashabbuskorlik, doimo yangi imkoniyatlarni izlab topish;
- Vaqtdan, shuningdek vaziyatdan hamisha unumli foydalana olish;
- Hayotda har doim boshqalardan bir qadam oldinda yurish;
- Bo'ladigan o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilish;
- Qat'iyatli, tirishqoq, sabr-bardoshli bo'lish;
- Uchraydigan har xil qiyinchilik va to'siqlarga tayyor turish,
- Ularni irodaviy qat'iyatlilik bilan yengish;
- Maqsadni aniq belgilab, unga erishishga harakat qilish;
- Har bir ishda mas'uliyatni chuqur his etish;
- Faoliyat sohasi yuzasidan yetarli darajada ilmiy-amaliy axborotga ega bo'lish;
- Muntazam ravishda rahbarlik faoliyatini oldindan qat'iy rejalashtirish va unga amal qilish;
- Sheriklarini o'zi ilgari surgan yangi

1 Рамендик Д.М. Управленческая психология. – Москва, 2006. – С.256.

2 Махмудов И.И. Бошқарув психологияси. – Тошкент, 2006 – Б.160.

3 Худойбердиев И. Раҳбар ва бошқарув. – Қарши, 2005. – Б.4.

4 Қаршибоев М., Мусаев Ф. Тараққийнинг ўзбек модели. – Тошкент, 2002. – Б.5.

5 Шейнов В.П. Искусство управлять людьми. – Москва, 2010. – С.112.

g'oyani amalga oshirishga ko'ndirish, da'vat qilish va yo'naltirish;

• Ish yuritishda mustaqil bo'lish.  
Ko'p yillik tayyorgarlik jarayoni vaqt o'tishi bilan uning tuzilishi doimo murakkablashib boradi, chunki rahbar-xodimlarning vazifalari, yoshi, darajasi, shuningdek ularning dunyoqarashi o'zgaradi.<sup>6</sup>

Shuni inobatga olgan holda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida rahbar zamonaviy ishbilarmonlikga erishishi uchun quyidagi uslubiy qoidalarga asoslanishi maqsadga muvofiq:

- Xodimlariga, sheriklariga, hamkorlariga, jamoa a'zolariga bergan va'dasini doim o'z vaqtida bajarishi kerak;
  - Mag'rurlanib ketmasligi, jamoa o'rtasida kamtar, o'ziga ortiqcha baho bermasligi zarur;
  - Faqat o'z nuqtayi nazarini, fikrini o'tkazishi emas, xodimlarning ham fikri bilan hisoblashishi zarur;
  - Xodimlarning bilim va malakalarini, qobiliyatlarini qadrlashi lozim;
  - Ishtiroki zarur bo'lgan masalalarni hal qilishda qatnashishi shart;
  - Qo'l osgidagi xodimlarni kerak bo'lsa rag'batlantirish, ularning fikrini agar o'rinli bo'lsa ma'qullash kerak;
  - Xodimlarining takliflarini e'tibor bilan tinglashi, to'g'ri bo'lsa, ish faoliyatida foydalanish, noto'g'ri bo'lsa, xushmuomalalik bilan ulardan voz kechishi lozim;
  - Har qanday sharoitda ham jamoa oldida o'zini yo'qotmasligi zarur;
  - Faoliyatidagi har bir xato va kamchiliklarini sinchiklab tahlil qilib, kerakli saboqlarni chiqarib borishi lozim<sup>7</sup>.
- Yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida rahbar-xodim munosabatini aniqroq aniqlash, kadrlarning raqobatbardosh faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga va malakali kadrlar sifatlarini rivojlanish qobiliyatlarining individual dinamikasini aniqlash uchun zarurdir.
- Kadrlar tayyorlashning eng istiqbolli yo'llardan biri rahbar-xodim munosabatiga e'tiborni qaratgan holda rahbar-xodim munosabatida xatolarga yo'l qo'ymaslik lozim. Ish jarayonidagi kamchiliklar, rahbar va xodim

o'rtasidagi kelishmovchiliklar malakali kadrlar yetishtirish imkoniyatlarining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayonida rahbar-xodimlarning barchasi aloqada bo'lishi va kamchiliklardan qochishi zarur.

Davlat rahbarimiz Sh.M.Mirziyoyev mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi, «Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak» nomli ma'ruzasida «Eng muhim vazifamiz - mamlakatimizda tinchlik va farovonlikni mustahkamlash, odamlarni, xalqimizni hayotdan rozi qilishdan iborat. Buning uchun el-yurtimiz, avvalo biz - rahbarlarning faoliyatidan rozi bo'lishi kerak. Buning uchun har bir rahbar o'z aravasini o'zi tortishi, o'z sohasidagi ishlarning ahvoli uchun o'zi shaxsan javob berishi kerak. Shundan keyin jamiyatimizda o'zgarish bo'ladi, rivojlanish bo'ladi» deya ta'kidladilar<sup>8</sup>. Shuni hamisha yodda tutish kerakki, yuqori turuvchi rahbarlar bilan o'zaro munosabatlar prinsipial asosda qurilishi va ayni vaqtda yuksak madaniyati bilan farqlanishi kerak. Shundagina ular xo'jalik va tashkilotlarda ishlab chiqarishni boshqarish sistemasining samaradorligini oshirishning omiliga aylana oladi.

Har qanday jamiyat rahbarlik tizimi rahbar, rahbarlar guruhi bilan mavjud. Rahbarsiz jamiyatning, jamiyatsiz rahbarning bo'lishi mumkin emas. Uning jamiyatda alohida o'rn bor. Kelajagi buyuk davlatni munosib rahbarlarga qoldirish uchun, avvalo ishonchli yoshlardan rahbarlar jamoasini tarbiyalab borish zarur. Yosh rahbar davlatni oqilona idora qiladigan, siyosatni, fan yutuqlarini joriy qiladigan, sof go'zallikni ko'ra oladigan, adolatga tayanadigan, huquqiy bilimni yaxshilikka da'vat etuvchi, inson ruhiyatini (psixologiyasini) o'rgangan, san'atni va adabiyotni xush ko'radigan bo'lishi lozim. Rahbarning ishonchi, e'tiqodi intizomi tarbiyasi kuchli bo'lsa, jamiyat tez rivoj topadi.

6 Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. – Тошкент, 2007. – Б.39.

7 Боймуродов Н. Раҳбар психологияси. – Тошкент, 2007. – Б.40.

8 Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қоидаси бўлиши керак. – Тошкент, 2017. – 108 б.

## ZAMONAVIY OLIY TA'LIM MUASSASASINING MENEJMENT TIZIMI

*Davlatjon Ibadullayevich Begmatov - o'qituvchi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada zamonaviy oliy ta'lim muassasasining menejment tizimi ko'rib chiqilgan. Oliy kasbiy ta'lim muassasasining boshqaruvchi va boshqariladigan quyi tizimlarining xususiyatlari, oliy ta'lim menejmentining mohiyati va vazifalari ochib berilgan. Oliyog'ning innovatsion rivojlanishida ta'lim menejmentining roli ko'rsatilgan.

**Аннотация:** В статье рассмотрена система менеджмента современного высшего учебного заведения. Раскрыты характеристики управляющей и управляемой подсистем высшего профессионального учебного заведения, сущность и задачи менеджмента высшего образования. Показана роль образовательного менеджмента в инновационном развитии вуза.

**Abstract:** The article considers the management system of a modern higher educational institution. The characteristics of the managing and managed subsystems of a higher professional educational institution, the essence and tasks of higher education management are disclosed. The role of educational management in the innovative development of the university is shown.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy oliy ta'lim muassasasi, O'zbekiston oliy ta'lim menejmentining boshqaruvchi va boshqariladigan quyi tizimlari, oliy ta'lim menejmenti, innovatsion ta'limni boshqarish.

**Ключевые слова:** современное высшее учебное заведение, управляющая и управляемая подсистема менеджмента высшего образования Узбекистана, менеджмент высшего образования, инновационный образовательный менеджмент.

**Keywords:** modern higher education institution, managing and managed subsystem of higher education management in Uzbekistan, higher education management, innovative educational management.

Ta'limni boshqarishning zamonaviy nazariyasida ta'lim tashkilotlarining mohiyati, ularni ilmiy namoyish etish usullari qayta ko'rib chiqilmoqda. Agar ilgari bunday tashkilotlar boshqariladigan obyekt sifatida qaralgan bo'lsa, bugungi kunda ta'limni boshqarishning yetakchi tushunchalari ularni boshqarish va o'zini o'zi boshqarish subyekting bir turi sifatida ko'rib chiqilmoqda. Bu zamonaviy oliy ta'lim muassasasiga to'liq tegishli.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasasini turli xil sharoitlarda: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, ma'naviy va axloqiy sharoitlarga asoslanib, ta'lim, tadqiqot va iqtisodiy funksiyalarni faol bajaradigan oliy kasbiy ta'lim muassasasi deb ta'riflash mumkin.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi tobora o'quv va o'z-o'zini rivojlantiradigan tashkilotga aylanib bormoqda va bunday tashkilotlarni endi mexanistik yondashuv nuqtai nazaridan ko'rib chiqish mumkin emas. Buning uchun dinamik yondashuv zarur bo'lib, unda oliyog'lar tashqi muhit bilan o'zaro aloqada bo'lgan va ma'lum bir ta'lim muassasasining individual

xususiyatlarini aks ettiruvchi ma'lum tashkiliy madaniyatni shakllantiradigan o'zgaruvchan, faol subyektlarni ifodalovchi ta'lim tashkilotlari sifatida qaraladi.

Zamonaviy oliy ta'lim muassasasi innovatsion o'zgarishlarni va strategik rivojlanish vazifalarini quyidagi darajalarda amalga oshiradi:

- oliy talimda menejment – global oliy ta'limning Yevropa va jahon madaniy-ma'rifiy makoniga integratsiyalashuvini nazarda tutuvchi;

- milliy, ilmiy bilimlarni shakllantirish va iqtisodiyot va butun jamiyatni rivojlantirish uchun yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan;

- hududiy, ilmiy-texnikaviy kadrlar va hududni rivojlantirishga mafkuraviy yordam berish, mehnat bozori va ijtimoiy sheriklik ehtiyojlariga moslashuvchan javob berish;

- mahalliy, sifatli ta'limning samarali tizimini qurish, ilg'or ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish, oliy ta'lim muassasasi menejmentining samarali modelini yaratish, xodimlar va talabalarning o'zini o'zi boshqarish

tizimini rivojlantirishni o'z ichiga olgan tashkilot sifatida oliyog'ning innovatsion rivojlanishi bilan bog'liq.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining menejment tizimi ikkita quyi tizimning o'zaro ta'sirini anglatadi: boshqaruvchi va boshqariladigan.

Boshqaruvchi quyi tizimning subyektlari: ta'limni boshqarish organlari – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, hududiy ta'limni boshqarish organlari, mamlakat va viloyatlar rektorlari kengashlari, rektorat, Vasiylik Kengashi, talabalarning o'zini o'zi boshqarish organlari; oliyog' va uning bo'linmalari rahbarlari – rektor, prorektorlar, institut direktorlari, dekanlar, muovinlari, idoralar rahbarlari, ilmiy va o'quv idoralar rahbarlari, shuningdek turli xizmatlar va idoralar.

Oliy ta'lim muassasasining o'zi bo'lgan boshqariladigan quyi tizimda bir qator boshqaruv quyi tizimlarini ajratish mumkin. Masalan, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida quyidagi boshqaruv quyi tizimlari alohida ahamiyatga ega:

- strategik rivojlanish;
  - o'quv ishlari;
  - ilmiy-tadqiqot ishlari;
  - oliyog'ni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish;
  - xalqaro faoliyat;
  - ijtimoiy-ma'rifiy ishlar;
  - ma'muriy va iqtisodiy faoliyat.
- Ushbu kichik tizimlarning har biri uning mazmunini aks ettiruvchi bir qator aniq funksiyalarni bajaradi.

Strategik rivojlanishni boshqarish quyi tizimi strategik rejalashtirish va boshqarishni, oliyog'ni strategik rivojlantirish bo'yicha dasturlar va loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni, tashkiliy rivojlanishning muayyan bosqichlarida aniq strategiyalarni belgilashni, kadrlar strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni va shakllantirishni, shuningdek, kadrlar zaxirasi, asosiy guruhlarining ta'sirini aniqlash va ular bilan o'zaro hamkorlik qilish strategiyasini belgilash, oliyog'ning tashqi va ichki muhitini tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, ta'lim muassasasining tashkiliy rivojlanishini monitoring qilish mexanizmini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

O'quv ishlari boshqarishning quyi tizimiga o'quv jarayonini boshqarish, davlat ta'lim standartlari talablarini bajarish, o'quv jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, ta'lim sifatini boshqarish tizimini joriy etish, o'quv jarayonining moddiy bazasini mustahkamlash, litsenziyalash, sertifikatlash va boshqarish kiradi.

Oliyog'ning ilmiy-tadqiqot ishlarini boshqarishning quyi tizimi turli xil bilim

sohalarida ilmiy tadqiqotlarni rejalashtirish va tashkilotlashni, ilmiy tadbirlarni (konferensiyalar, seminarlar, treninglar) tashkilotlashni, ilmiy va pedagogik xodimlarning malakasini oshirishni boshqarishni, Phd, doktorlik va dissertatsiya kengashlarini boshqarishni, o'qitish faoliyatini tashkilotlashni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasasini axborotlashtirish va kompyuterlashtirishni boshqarishning quyi tizimi o'quv jarayoni va ilmiy faoliyat konsepsiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishni, kompyuter tarmoqlarini boshqarishni va o'qituvchilar va talabalarning turli xil axborot resurslariga kirishini ta'minlashni, o'quv jarayoniga yangi axborot texnologiyalarini joriy etishni, masofaviy va ilmiy faoliyatni joriy etishni, aralash ta'lim, AKT texnologiyalari sohasida o'qituvchilar malakasini oshirishni nazarda tutadi.

Xalqaro faoliyatni boshqarishning quyi tizimi xalqaro aloqalarni boshqarish uchun tashkiliy tuzilmani yaratish, xalqaro ilmiy va ta'lim loyihalari va o'quv dasturlarini boshqarish, xorijiy oliyog'lar bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni va xalqaro strategik sheriklikni rivojlantirish, oliyog'ning xalqaro assotsiatsiyalari va konsorsiumlari bilan o'zaro aloqalarni, ta'lim xizmatlari eksportini boshqarishni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy va ma'rifiy ishlarni boshqarishning quyi tizimi oliyog'ning ijtimoiy rivojlanishini boshqarish, uning xodimlarini boshqarish, ta'lim muassasasi xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish va boshqarish, madaniy, dam olish va sport bilan ommaviy ishlarni boshqarishni o'z ichiga oladi.

Ma'muriy va iqtisodiy faoliyatni boshqarishning quyi tizimiga moddiy-texnik bazani mustahkamlash, mehnat xavfsizligi va sog'lig'ini ta'minlash, ta'mirlash va qurilish ishlarini boshqarish, yotoqxonalar faoliyatini boshqarish, bino va inshootlarni texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlari faoliyatini tashkilotlash va monitoring qilish kiradi.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining moslashuvchan boshqaruv tuzilishi uning ochiq ta'lim tizimi, mintaqadagi fan, madaniyat va ta'lim markazi, ta'lim xizmatlarining global va ichki bozorida raqobatbardosh o'quv va o'quv tashkiloti sifatida innovatsion rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunday boshqaruv modeli jamoat va ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuz beradigan o'zgarishlarga, zamonaviy mehnat bozori bilan samarali o'zaro munosabatlarga, uning rivojlanishi va kelajakdagi ehtiyojlarini bashorat qilish qobiliyatiga, ichki izolyatsiyani yengib o'tishga, ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini ta'minlashga, ilmiy bilimlarning globallashuvi va xalqarolashtirishning global jarayonlariga qo'shilishga moslashuvchan javobni nazarda

tutadi<sup>1</sup>.

Shu munosabat bilan ijtimoiy-madaniy hodisa va umuminsoniy qadriyat vazifasini bajaruvchi tarbiyaning shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati mustahkamlanadi. Oliy kasbiy ta'lim shaxsni rivojlantirish mexanizmiga, shu sababli umuman ijtimoiy ongga, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga, yangi geosiyosiy sharoitlarda davlatning xalqaro obro'siga, milliy xavfsizlikning asosiga aylanadi. Oliy ta'lim rahbariyati o'z davrining zamonaviy muammolariga javob berishga chaqiriladi.

Oliy ta'lim menejmenti – bu o'quv jarayonining yuqori sifati va mutaxassislarni tayyorlash, ularning kasbiy bilimlari, ko'nikmalari va qobiliyatlarining yuqori darajasi, prinsipial fuqaroligi va yuksak axloqiy fazilatlarini tufayli ta'lim xizmatlarining ichki va tashqi bozorlarida yuqori raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan oliygohning boshqaruv tizimi<sup>2</sup>.

Oliy ta'lim menejmenti oliygoh faoliyatining har xil turlarini (o'quv, ilmiy-tadqiqot, sanoat, tadbirkorlik, moliyaviy-iqtisodiy va boshqalarni) boshqarishni, strategik rejalashtirish va boshqarish; oliy ta'lim sifati sohasida siyosatni ishlab chiqish, sifat menejmentini rivojlantirish va uni ta'lim muassasasining umumiy rahbariyati bilan birlashtirish; xodimlarni rivojlantirish va malakasini oshirish; o'qituvchilar, xodimlar va talabalarni ijtimoiy himoya va qo'llab-quvvatlashni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim menejmentining vazifalari asosan oliygohning zamonaviy sharoitlarda bajaradigan quyidagi funksiyalari bilan belgilanadi: asosiy (ta'lim, tadqiqot, tarbiya), bozor va ijtimoiy. Axborot texnologiyalari ushbu funksiyalarni amalga oshirishga yordam beradi. Oliy o'quv yurtida yangi axborot madaniyatining rivojlanishi menejment tizimida sezilarli o'zgarishlar bilan birga keladi.

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni boshqarishni muvofiqlashtirish uchun maxsus lavozimlar va menejment organlari joriy etilmoqda. Oliygozlarni innovatsion rivojlantirish strategiyasini tanlash sohasida konsalting faoliyatini amalga oshiradigan maslahatchi-nazoratchilar instituti yaratilmoqda. Infratuzilmani qo'llab-quvvatlash tizimi innovatsion faoliyatning samaradorligini,

boshqaruv choralari tizimi esa innovatsion texnologiyalarning samarali uzatilishini, universitet va biznes o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi.

Shu bilan birga, innovatsion menejmentga muvofiq oliygohlarda menejment faoliyatining uslubiy ko'rsatmalari quyidagilardan iborat:

- akademik oliy ta'limning asosi sifatida "izlanish orqali o'rganish" tamoyilini ta'minlash;
- fundamental fanlarni rivojlantirish va ilmiy maktablarni qo'llab-quvvatlashga e'tiborni kuchaytirish;

- sanoat sohasi va ijtimoiy-madaniy sohadagi mintaqaviy muammolarni hal etishda oliy o'quv yurti olimlarining ishtiroki;

- iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun sharoit yaratish;

- ilmiy va o'quv jarayoniga yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va noyob tadqiqot jihozlaridan foydalanish<sup>3</sup>.

Innovatsion ta'lim menejmenti tamoyillari zamonaviy oliy ta'lim muassasasi menejmentining munosabati bilan birlashtirilgan bo'lib, bu boshqaruv yoki hal qilib bo'lmaydigan boshqaruv vazifalarini belgilaydigan, ammo ularning ehtimoliy yechimini topishga intiladigan boshqaruvni anglatadi<sup>4</sup>.

Ta'lim muassasalarining intensiv innovatsion rivojlanishi yangi turdagi kasbiy faoliyatning paydo bo'lishiga olib keldi – menejerlar va ilmiy-tadqiqot va o'quv guruhlariga "o'sish nuqtalarini" aniqlashda, zarur o'zgarishlarning mohiyati va ketma-ketligini tushunishda, kasbiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berish uchun mo'ljallangan menejment bo'yicha konsalting faoliyati.

Boshqaruv konsepsiyasi sohasidagi mutaxassislar sifatida konsalting markazlari vakillari ham, maxsus tayyorgarlikdan o'tgan oliy ta'lim, malaka oshirish tizimlari xodimlari ham harakat qilishlari mumkin. Menejment bo'yicha maslahatchilar faoliyatining ma'nosi tashkilot hayotining turli jabhalarida sezilarli o'zgarishlarga erishish, boshqacha qilib aytganda, uning innovatsion rivojlanish jarayonini amalga oshirishdir.

Xulosa o'rnida aytish kerakki, oliy ta'lim menejmenti oliygohning o'quv faoliyati strategiyasi va asoslarini yaratishga, o'quv jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etishga, tartibga solish, iqtisodiy asoslarni ishlab chiqishga, tarkibiy bo'linmalar ishini

1 Ветров Ю. Высшее образование: проблемы, перспективы // Высшее образование в России. 2006. №11. С. 168-171.

2 Дятченко Л., Тарабаева В. Системные инновационные процессы – основа динамичного развития классического университета // Высшее образование в России. 2008. №5. С.13-18.

3 Стронгин Р., Грудзинский А. Проектно-ориентированное управление инновационным университетом // Высшее образование в России. 2008. №4. С.26-30.

4 Журавлев В.А., Ладыжец Н.С. Пассионарный университетский менеджмент // Университетское управление: практика и анализ. 2003. №1(24). С.4-8.

muvofiqlashtirishga va boshqa boshqaruv jarayonlariga qaratilgan bo'lishi kerak.

## TALABALARDA EKOETIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AXLOQIY- PEDAGOGIK ASOSLARI

*Jahongir Baxtiyorovich Hamraqulov - o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada talabalarda ekologik ideallarni shakllantirish, ekologik axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashning integrallashgan ta'lim metodikasi haqida fikr yuritiladi. Tabiatni muhofaza qilish faoliyatini aksiologik-axloqiy qadriyatlar, tamoyillar yordamida boshqarish masalalari bayon etiladi.

**Аннотация:** В данной статье отражена комплексная педагогическая методика формирования у студентов экологических идеалов, воспитания их на основе экологических нравственных ценностей. Описаны вопросы управления природоохранной деятельностью с помощью аксиологических, этических ценностей и принципов.

**Abstract:** In this article reflected a comprehensive pedagogical methodology for the formation of environmental ideals among students, their education on the basis of environmental moral values. The issues of environmental management with the help of axiological and ethical values and principles are described.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, etika, kompetentlik, ekologik etika, ekologik qadriyat, global ekologik muammolar, ekologik axloqiy kompetentlik, ekoetika mafkurasi, ekologik mas'uliyat.

**Ключевые слова:** экология, этика, компетентность, экологическая этика, экологическая ценность, глобальные экологические проблемы, эколого-этическая компетентность, идеология экоэтики, экологическая ответственность.

**Keywords:** ecology, ethics, competence, ecological ethics, ecological value, global ecological problems, ecological and ethical competence, ideology of ecological ethics, ecological responsibility.

Atrof-muhit muhofazasi, tabiat softligi, tabiiy go'zallikni asrashga bugungi kunda barcha jalb etilmoqda, turli jamoat tashkilotlari tuzilmoqda. Ekologiya atrof-muhitning sifat holatini belgilovchi omil sifatida iqtisodiyot, ijtimoiy hayot, davlatlarning ichki va tashqi siyosatiga ham kirib bordi, ekologik xavfsizlik muammosi butun insoniyatning umumiy muammosiga aylandi. Xususan, O'zbekistonda ham ekologik etika muammolariga bag'ishlangan bir qator ilmiy izlanishlar ham olib borilmoqda. Masalan, Z.Abdullayev, A.Nigmatov, L.Abdunazarov, Sh.Muhamedov, I.Hoshimova va boshqa olimlar tomonidan ekologik mas'uliyat, ekologik axloqiy qadriyatlar, ekologik ong va faoliyat, ekologik ta'lim-tarbiya metodikasiga doir bir qator tadqiqotlar olib borilgan<sup>1</sup>. Ma'lumki, ekologik etikaning axloqiy asoslarini tabiat bilan munosabatlardagi axloqiy normalar, qoidalar va urf-odatlar tashkil qiladi. Insoniyatning tabiatga antropotexnogen ta'siri jarayonida axloqning ikki jihati ko'zga tashlanadi. Birinchidan, inson tabiatni o'zining muayyan manfaatlarini, ehtiyojlariga ko'ra, maqsadga muvofiq, o'zlashtirishi orqali o'z ijtimoiy-axloqiy mohiyatini namoyon qiladi. Ikkinchidan, inson tabiatni o'zgartirib, uni "ijtimoiylashtirishi" bilan axloqiy munosabatlarni ham takomillashtirib boradi. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi faoliyatining asosiy vazifalaridan biri sifatida "ekologik tarbiya, targ'ibot va ta'limni,

1 Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 21-апрелдаги «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5024-сон Фармони.; Абдуллаев З. Экологические отношения и экологическое сознание. Ташкент: Зиё. – 2004.; Нигматов А. Экологиянинг назарий асослари. Ташкент. – 2013.; Нигматов А., Абдуназаров Л., Мухамедов Ш. Касбий экологик таълим ва тарбия. Ташкент: Иқтисодиёт-молия. – 2016.; Нигматов А.Н., Абдуназаров Л.М. Экологик таълимнинг методологик асослари // География жамияти илмий журнали. Ташкент. – 2016. №49.; Нигматов А.Н., Абдуназаров Л.М., Тобиринов О.Қ. Экологик таълим ва тарбияда хорижий таъриб / Фарғона водийси ресурс салоҳиятидан фойдаланишнинг геоэкологик асослари. Республика илмий-амалий анжумани. Фарғона. – 2017.; Нигматов А.Н., Абдуназаров Л.М., Мухамедов Ш.Н. Касбий экологик таълим ва тарбия. – Ташкент: Iqtisod-Moliya. – 2016.; Хошимова И. Диалектика глобального, регионального и локального в экологии: Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Ташкент, – 1992.

shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish" masalasi qo'yildi<sup>2</sup>. Keyingi yillarda ekologiyaga axloqiy munosabatni shakllantirishni ta'lim tizimiga olib kirish, ilm oluvchilarda ekologik mas'uliyatni oshirish eng samarali usul ekanligi namoyon bo'lmoqda.

Talabalarda ekoetik kompetentlikni shakllantirish ulara tabiatni asrab-avaylash mas'uliyatini anglash hisoblanadi. Talabalarining ekoetik kompetentligi ularning ekologik mas'uliyatidan kelib chiqadi. Ekologik mas'uliyat tabiatni muhofaza qilish munosabatlarini muvofiqlashtiradigan uslublar va vositalar majmuasining birligidan iborat. Boshqacha aytganda, ekologik mas'uliyat kishilarning ekologik xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtiradigan, maqsad birligini ta'minlaydigan ijtimoiy hodisadir. Talabalarining ekoetik kompetentligi tabiatni muhofaza qilish, ijtimoiy-siyosiy munosabatlaridagi tutgan o'rnini va bajarayotgan funksiyasiga bog'liq.

Talabalarda ekologik etikaga doir kompetentlikni rivojlantirishda "tabiat-jamiat-inson" majmuasida ularning ekologik mas'uliyatini oshirish va unga "ekologiyalashgan etika" kategoriyalari asosida yondashish kerak bo'ladi. Albatta, bu holatda inson tomonidan tabiatni o'zgartirish faoliyatlarini axloqiylik yoki axloqsizlik tarzida baholash emas, balki, kishilarning tabiatni muhofaza qilish amaliyotiga, umuman, biosfera ekologik mutanosibligiga va jamiyat rivojlanishi manfaatlariga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilish faoliyati nuqtai nazaridan qarash lozim.

Rim klubi namoyandalaridan biri bo'lgan A.Pechchei fikricha, insonning tabiatga nisbatan yovuzlik munosabatlarini bartaraf qilish va uning himoyachisiga aylantirishda axloqni kuchaytirish, o'ziga xos "ekologik etikani" yaratish - ekologik muammoni hal qilishning eng maqbul yo'lidir<sup>3</sup>. Shu bilan birga, ushbu jarayonni oliy ta'limga olib kirish, uning imkoniyatlaridan talabalarda ekoetik bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda foydalanish talab etiladi.

Hozirgi davrga kelib, ekologik axloqiy normalarning yuksak ideallari, tabiatga munosabatning yangi axloqiy mezonlari tarkib topmoqda. Umuminsoniy ekologik qadriyatlarining axloqiy jihatlari siyosat, iqtisod va mafkura sohasidagi munosabatlarni belgilovchi omilga aylanmoqda, ya'ni ekologik ideallarning axloqiy mazmuni boshqa ijtimoiy ong shakllarini kengroq miqyosda qamrab

olmoqda. Shu bois, talabalarda ham ekologik qadriyatlar asosida ekologik ideallarni shakllantirish, ekologik axloqiy qadriyatlar asosida tarbiyalashning integrallashgan ta'lim metodikasini ishlab chiqish lozim.

Talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirish va ularda ekologik axloqiy munosabatlar tizimini shakllantirish, tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishidagi harakatlantiruvchi motivi ekologik qadriyatlaridir. Ekologik axloqiy qadriyatlar - jamiyatning umuminsoniy tamoyili, normalari, qonun-qoidalari va idellari tarzida namoyon bo'lib, tabiat muhofazasida subyektning amaliy faoliyatini maqsadga muvofiq yo'naltiruvchi omildir. Shuning uchun ham, ekologik axloqiy qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, tabiiy boyliklardan foydalanishni oqilona tashkil qilishning sharti hisoblanadi. Bunda ekologik faoliyatni boshqarish bilan bog'liq umuminsoniy qadriyat normalari, qonunlari, talablari, mezonlari, tamoyillari va hokazolar, o'zining funksional mazmuniga ko'ra, bir-biriga bog'liqdir. Shunday ekan, integrallashgan ta'lim asosida talabalarda ekologik bilimlarini o'stirish, ijtimoiy fanlar asosida ularning dunyoqarashini insonparvarlashtirish va shu orqali ekologik qadriyatlariga hurmat va ularni asrab-avaylashga munosabatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Buning uchun esa ta'lim-tarbiya va ijtimoiy muhit integratsiyasi asosida talabalarga ekologik kodeksni singdirib borish talab etiladi. Ekologik qadriyat normalari va tamoyillari majmuasining anglangan zaruriyati - axloqiy "ekologik kodeks" mushtarakligini belgilab turadi. Ayniqsa, ekologik vaziyat keskinlashayotgan davrda, inson va tabiat munosabatlarini boshqarish, "ekologik etika kodeksi"ga amal qilishini taqozo qiladi. Olim F.S.Xudushinning fikriga ko'ra, "ekologik etika kodeksi" - insoniyatning biosfera xilma-xil boyliklari bo'lgan yerga, suvga va uning boshqa komponentlariga munosabatlarini belgilovchi "yozilmagan" qonunlar majmuasidir. Bu qonunlarning amalga oshirilishi muhim amaliy maqsadlarni: sayyora tozaligini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va qayta ishlab chiqarishni ta'minlash vazifalarini bajarishga ta'sir o'tkazadi<sup>4</sup>. Demak, ekologik ta'lim va tarbiya, ijtimoiy gumanitar fanlar va targ'ibot ishlari asosida talabalarda tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, uni asrab-avaylash, biosfera sofligini saqlashdagi yozilmagan qonunlarni o'rgatib borish, ijtimoiy muhitda bolalarni yoshligidanoq ekologik axloq asosida tarbiyalash mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 21-апрелдаги «Экология ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш соҳасида давлат бошқаруви тизimini такомиллаштириш тўғрисида»ги ПФ-5024-сон Фармони.

<sup>3</sup> Печчеи А. Человеческие качества. – М.: Прогресс. – 1980. 214-б

<sup>4</sup> Худушин Ф.С. Природа и мораль. – М.: Знание. – 1983. 5-б.

Ekoetika nuqtai nazaridan, ekologik boshqarish - axloqiy normalar, kodekslar, tamoyillar yordamida insonning tabiatni o'zgartirish va muhofaza qilish faoliyatlarini muvofiqlashtirib, uni oqilona tashkil qilishdan iborat. Aksiologik qarashlar ekologik faollik va mas'uliyatga nisbatan mustaqil, lekin o'zaro bog'liq uch yo'nalishda ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni: birinchisi - ekologik faoliyatni "axloqlashtirishdan" iborat ekoetika mafkurasini vujudga keltirish; ikkinchisi - ijtimoiy-axloqiy munosabatlarni ekologiyalashtirish; uchinchisi - ekologiyalashgan axloqiy qadriyatlarini davlat siyosati darajasiga ko'tarishdir. Bu yo'nalishlarning o'zaro birligi, shaxsning ijtimoiy-ekologik faoliyati va mas'uliyati strukturasi ta'sir qilib, uning "ekologik sifatlarini" belgilovchi universal axloqiy normalar majmuasini vujudga keltiradi.

Integrativ ta'lim asosida talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirish - ularni ekologik faoliyatga tayyorlash hisoblanadi. Ekologik faoliyat boshqa faoliyat turlari kabi murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Ekologik faoliyat shakllari konkret vazifalaridan kelib chiqib, subyektning muayyan axloqiy normalarni tanlash imkoniyati - jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq.

Har qanday jamiyat, ma'lum ma'noda, kelajak avlodlarning yashashiga putur yetkazadigan antiekoetik xatti-harakatlardan voz kechib, hozir yashayotgan insonlarning ehtiyojlariga kelajak avlodlar manfaatlarini qurbon qilishni ta'qiqlovchi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, ma'naviy-axloqiy normalar majmuasini vujudga keltirgan. O'z navbatida bu normalar, tabiatning obyektiv rivojlanishi jarayonida, insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari asosida vujudga kelishi, biosfera ichki ekologik muvozanatini saqlashi hamda tabiatga antropotexnogen ta'siri bilan, bir-biridan farq qiluvchi, nisbatan mustaqil hodisalardir. Ekologik axloqning bu munosabatlarni ongli tarzda, maqsadga muvofiq boshqarishi, uning subyektivlik mohiyatini namoyon qiladi.

Tabiatboyliklari, insoniyatqadriyatlarining moddiy asosi sifatida, kelajak avlodlar uchun saqlab qolinmog'i kerak. Chunki keyingi avlodlarning ekologik faolligi va mas'uliyati bizning shu ijtimoiy hodislarni qay darajada tashkil qilganimizga, o'zlashtirganligimizga va "moddiylashtirganligimizga" bog'liq. Talabalarda ekoetik kompetentlikni rivojlantirishda tabiatni asrash, uning tabiiyligini, boyliklarini kelajak avlodga qoldirish majburiyatini ham shakllantirish talab etiladi.

Bugungi globallashgan olamda global ekologik muammolarning kuchayib borish sharoitida talaba-yoshlarda ekologik ongni

shakllantirish muhim hisoblanadi. Ekologik ong talaba-yoshlarning ekologiyani bilishi, uni anglashi va unga munosabatni ko'rsatib bersada, uni tugal himoya vositasi sifatida ko'rsatib bo'lmaydi. Chunki muammoni bilish degani uning kuchayib ketmasligi uchun harakatga kirishishni anglatmaydi. Jamiyatimizdagi muammo mavjud muammolarni bilsa-da, unga loqaydlik bilan qarashda hisoblanadi. Shu bois, talabalarda ekologik axloqiy muammolarga daxldorlik hissini shakllantirish zarur.

Ekologik mas'uliyat, talabaning tabiat bilan birligini anglashi bo'lib, biosfera muvozanatini ijtimoiy boshqarishning majmuaviy imkoniyatlarini yaratadi. Zero, yuqoridagilarni umumlashtirib aytganimizda, tabiatni o'zgartirish va muhofaza qilish faoliyatini aksiologik-axloqiy qadriyatlar, tamoyillar yordamida boshqarish: birinchidan, "tabiat-jamiat-inson" majmuasi munosabatlarining ma'naviyatga ta'siri bevositaligi bilan xarakterlanib, konkret ekologik vaziyatlardan kelib chiqadi. Ikkinchidan, yoshlarning texnogen faoliyati biosfera muvozanatiga putur yetkazishning ma'naviy-axloqiy oqibatlarini, istiqbollarni to'liq tasavvur qilib, kelajak avlodlar oldida uning o'z mas'uliyatini, burchini anglashiga qaratiladi. Uchinchidan, kishilarning tabiatga nisbatan antiekoetik xatti-harakatlari o'z motivlari, sabablariga ega bo'lib, axloq - shu sabablarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan. To'rtinchidan, "inson va inson", "inson va tabiat" o'rtasidagi axloqiy yoki g'ayriaxloqiy munosabatlar, har bir majmuada o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi, biroq ularning ijtimoiy mohiyati - tabiatni muhofaza qilish orqali insonni muhofaza qilishdadir. Beshinchidan, ekologik axloqiy qadriyatlarining evristik funksiyasi - ekoetikaning: "ekologik vijdon", "ekologik burch", "ekologik mas'uliyat" va boshqa kategoriyalar mazmunidagi dialektik bog'lanishlarni oqilona tashkil qilishdan iborat. Oltinchidan, ijtimoiy birliklarning ekologik ehtiyojlari va manfaatlariga mos keladigan «axloqiy qadriyatlarining majmuasi siyosiy munosabatlarda ham ustunlik kasb etishi darkor». Demak, ekoetikaning axloqiy asosini talabalarga singdirish orqali ulardagi axloqiy mas'uliyatni shakllantirish mumkin bo'ladi.

Xulosa qilganda, talabalarda atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, ulara tabiatdan oqilona foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ekologik mas'uliyatni oshirishda ekoetik kompetentlikning o'rnini yuqori hisoblanadi. Shuning uchun ekoetik kompetentlikni integrativ ta'lim asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

## TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE EDUCATION ABROAD

*Shakhnoza Goziyeva - teacher, Uzbek State University of World Languages*

**Abstract:** This article analyzes the experience of countries with the most advanced legislation, as well as current trends and directions of inclusive education.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eng ilg'or qonunchilikka ega davlatlar tajribasi hamda inklyuziv ta'limning zamonaviy tendensiyalari va yo'nalishlari tahlil etiladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется опыт стран с самым передовым законодательством, а также современные тенденции и направления инклюзивного образования.

**Keywords:** inclusive education system, educational inclusion, inclusive society, "Inclusive model", individual planning approach, inclusive culture.

**Kalit so'zlar:** inklyuziv ta'lim tizimi, ta'lim inklyuziyasi, inklyuziv jamiyat, "Inklyuziv model", individual rejalashtirish yondashuvi, inklyuziv madaniyat.

**Ключевые слова:** система инклюзивного образования, образовательная инклюзия, инклюзивное общество, "Инклюзивная модель", индивидуальный подход к планированию, инклюзивная культура.

General aspects of the development of the education system are characterized by processes associated with the creation of equal conditions for students. In this regard, it is necessary to pay special attention not only to the material way of life of the student, but also to his physical and mental capabilities. In particular, in this direction it is necessary to create appropriate conditions in the organization of education of people with disabilities.

In each country, the system of inclusive education is formed on the basis of traditions, customs and established values. Also, the mentality of different peoples and the legislative aspect aimed at improving the education system have an effective influence on the establishment of a priority direction in this regard.

Changing approaches to teaching and educating children with disabilities is aimed at the formation and development of social activity of an individual with the skills of socially adaptive behavior in a mobile economy.

One of the ways to implement this task is educational inclusion, which is primarily seen as a means of social rehabilitation not only of the child himself, but also of his family. In addition, the development of inclusive education provides equal rights, accessibility and the opportunity to choose the appropriate educational path for any child, regardless of physical and other abilities.

Experience of foreign countries In

Europe, the USA and other developing countries, the development of this area acquires a social character. For example, in Germany, a certain proportion of inclusive education students receive mixed education in regular classes. However, they also retain the conditions associated with the individual educational process, and they have the opportunity to receive the necessary medical care and correction of deficiencies during their studies. In many European countries, inclusive education has features similar to the German system. The process of training disabled people has a positive effect on their future participation in work, maintaining free social relations with society.

The countries with the most advanced legislation include Canada, Cyprus, Denmark, Belgium, Spain, Sweden, the US and the UK. Italian legislation has supported inclusive education since 1971. In many other countries (Norway, Germany, Finland), inclusive education has existed for at least 30–40 years.

In the United States, inclusive education has long been part of the mainstream education system. There, the regulatory legal documents of education are defined as mandatory for all categories of children. In this regard, classrooms have been created for mentally retarded and hard of hearing students. The advanced psychological and pedagogical concepts of American scientists make up a large layer of special pedagogy and are the basis of inclusive education<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> <https://yangi.tsue.uz/ru/news/inklyuziv-talim-qanday-shakllanadi>

Education in the USA is built according to the "Inclusive Model" and is a priority. As part of an inclusive approach, each school or institution takes into account the individual needs of all students. Children with visual impairments are given the opportunity to use a guide dog. Thus, in the United States there is a well-functioning education system that provides equal opportunities for all people, covers all areas of life, promotes the maximum integration of a person with special needs into society, and also ensures the acceptance of "special" education<sup>2</sup>.

In 1973, the US Congress, building on the experience of the District of Columbia, passed the Education for the Disabled Act (later renamed the Education for the Disabled Act), which provided the necessary funding for special education in the local school system. In the United States, 30 percent of students diagnosed with mental retardation are isolated from other children. A partially inclusive format has been developed for students with intellectual disabilities. A distinctive feature of the use of inclusive education technologies in the US higher education system is the creation of departments at universities to work with people with disabilities. The adoption in 1975 in the United States of the "Education for all disabled persons act" and "On integration" was a natural result of the long-term struggle of the democratic strata of society against racial segregation. The further development of democratic tendencies in this direction naturally led to the transfer of racial integration rights to the problems of the disabled and the development of integration processes associated with special education oriented towards "mainstream" education.

By the end of the 20th century, the principle of an integrated approach was implemented in the educational practice of many countries of the world (USA, Great Britain, Sweden, Germany and Italy, Scandinavian countries) to give children with developmental problems the opportunity to study in a public school together with normal children. At the same time, additional special support conditions were created to facilitate learning.

At that time, the process of allocating children with special needs for education was expanded in the USSR. By the mid-1980s, there were 8 types of schools for children with developmental disabilities.

Children with disabilities were viewed through the lens of "defectology" (a medical

model) and treated accordingly. Based on this philosophy, the deficiencies they have are defects that can be corrected if appropriate services are provided.

The result of this approach was the systematic placement of children in residential institutions where they could grow and develop, supported and protected from society at large, taking into account the type of health impairment.

Currently, the process of closing special schools and turning them into general education centers is actively developing in Norway. The special school system is complementary to the public school system. Special school teachers are being retrained to work in the new environment, but the educational institutions entrusted with this function are not able to fully equip teachers with the specific skills needed to work in integrated settings, following traditional roles<sup>3</sup>.

In Sweden, special schools for mentally retarded children are integrated into a general education school, placing classes in its building. Special education for children with autism at an early age is a complex problem, since these children study in small groups in a regular school, and there are 2 teachers and assistants for every 3 children. In Sweden, the process of integration is very hasty, integration has many negative aspects, while it is not a goal, but a means of integrating and normalizing children with special needs<sup>4</sup>.

In Canada, there is an inclusive education system, and an individual approach to planning is implemented, based on the wishes and abilities of the child. The curriculum is adapted to the needs of the child. All children are included in the educational process, there are almost no special schools. There are separate classes (but these are exceptional cases). All children are included in the educational process, recreation, entertainment, life<sup>5</sup>.

In France, inclusive education is presented in two forms:

- children with disabilities study in a regular class under the guidance of a non-specialist teacher (this is a "school inclusion" class);

- they study in a special class for children with disabilities, but under the guidance of a special teacher ("pedagogical integration class")<sup>6</sup>.

A school inclusive classroom is an open classroom where a student with a disability can go to work individually or in groups with

<sup>2</sup> Сигал Н.Г. Реализация инклюзивного образования за рубежом // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2013. – №12. – С. 97–103.

<sup>3</sup> Стангвик Г. Политика интегрированного обучения в Норвегии. Интегрированное обучение: мировой опыт / под ред. С. Пейла, К. Мейера и С. Хегарти. Лондон, 2006.

<sup>4</sup> Сигал Н.Г. Реализация инклюзивного образования за рубежом // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2013. – №12. – С. 97–103.

<sup>5</sup> М.А. Шаповалова, О. А. Денисова Тенденции развития инклюзивного образования детей с ограниченными возможностями здоровья в зарубежных странах и России // Специальное образование. 2017. №. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tendentsii-razvitiya-inklyuzivnogo-obrazovaniya-detey-s-ogranichennymi-vozmozhnostyami-mi-dorovyaya-zarubezhnyh-stranah-i-rossii> (дата обращения: 18.03.2022).

<sup>6</sup> Сигал Н.Г. Реализация инклюзивного образования за рубежом // Вестник Челябинского государственного педагогического университета. 2013. – №12. – С. 97–103.

a special teacher at appropriate times of the school day. Special teachers, as a rule, work in resource centers and visit all students assigned to the center according to the schedule and provide the necessary support to them and teachers. The inclusion time gradually increases, which allows the child to move from the "school class of inclusion" to full individual inclusion. French teachers believe that this form of inclusion is very effective for children with visual and musculoskeletal disorders. However, this is completely unacceptable for deaf and mentally retarded children. For such children, pedagogical integration classes are opened, which are an open system that unites middle and high school students for escort and supervision. An individual school plan is developed for each student with a disability, which defines the conditions of the school process, as well as pedagogical, psychological, social and medical measures. The main problems in the implementation of inclusive education in France are the development of methodological support for inclusive practice, and insufficient staffing.

Inclusive schools in India exist alongside special schools. Children with severe and complex pathologies study in special schools. A child studying in an inclusive school has the opportunity to be with his family, go to school near his home. More than 90% of disabled children in India live in rural areas. Education in special schools and education in general education programs is not available to all children, therefore, inclusive education provides equal opportunities for all students and realizes the right to social culture. The following models of inclusive education are currently being implemented in India:

- disabled children study in general education schools and live in boarding schools with normally developing children or live in boarding schools for disabled children or live at home with their parents);
- disabled children study in a separate class of a general education school;
- when the teacher visits the child at the local school and the child stays with the parents;
- disabled children (children with disabilities) study in a general education school with constant visits to a teacher and a specialist (speech therapist, defectologist, psychologist) with knowledge in the field of education;
- where one special teacher in a certain direction teaches different categories of children with disabilities.

The ideal concept of inclusive education aims to help the child fully integrate into society<sup>7</sup>.

Analyzing the pedagogical views of foreign scientists on the definition of the essence and content of the concept of "inclusive" or inclusive education, we can say that this is a multifaceted pedagogical phenomenon, a step towards creating an inclusive society for all children, genders, ages, ethnic origin, developmental disabilities / whether they participate and contribute to society. It should be noted that in a number of foreign countries, such as Norway, Sweden, Canada, Germany, the USA, France, there is a combination of systems of special and inclusive education and special education. At the same time, special schools are educational organizations that teach children with severe developmental disabilities, and using the example of India, we emphasize that there is no integration of general and special education systems, but there are trends in the development of inclusive education.

The variability in the implementation of inclusive education, the effectiveness of its implementation in many years of practice, the positive impact of schools on each participant in the educational process, the achievement of stable growth rates for students with disabilities are common trends for foreign countries.

The implementation of inclusive education in foreign countries consists of:

- carrying out educational work with parents of disabled children and their healthy peers in order to form a positive attitude and awareness in the development of society;
- training teachers to work in an inclusive school;
- implementation of early diagnosis of children and the creation of special inclusive programs;
- expand interdisciplinary cooperation in order to create an inclusive culture among all participants in inclusion.

As a result of the analysis of the literature, three options for the implementation of inclusive education in foreign schools can be distinguished:

- the inclusion of disabled children in general education classes is carried out on the basis of broad and systematic pedagogical cooperation within the framework of the implementation of the models "Professional cooperation" and "Cooperative education" (Germany, USA, Canada, Norway);
- schools with the participation of children with disabilities based on temporary pedagogical interaction within the framework of consulting, team models and parallel learning models (France, Sweden);
- schools focused on the social integration of these children within the

<sup>7</sup> Малофеев Н. Н. Специальное образование в меняющемся мире. Россия. – М.: Просвещение, 2010. – Ч.1. – 319 с.

framework of special classes with dispersed pedagogical interaction and the leading role of a special teacher (India).

Thus, an analysis of the history of the development of foreign experience allows us to determine the following conditions necessary for successful implementation:

- democratic social structure with guaranteed individual rights;
- creation of material support, appropriate special education services and special living conditions for children in need of special education, in the structure of the state general education school;
- non-violence of the flow of integration processes, the possibility of choosing an alternative in the presence of a guaranteed list of educational and correctional services;
- provided by the system of general education and special education;
- the readiness of the whole society, the individual for integration processes, coexistence and interaction with people with disabilities.

But this is a long process of education of the whole society.

The fundamentally important achievements of foreign scientists is that during this period the issues of comprehensive provision of this category of children in general education schools are being updated, namely:

- a differentiated approach and diagnostic methods are being introduced to identify children with "special educational needs";
- psychological, pedagogical and medical assistance is provided on the basis of classification and groups of differences;
- organized work with parents and teachers;
- increased individualization in training.

Inclusion issues are becoming a common theme of a wide range of interdisciplinary scientific discussions. In this regard, the German scientist developed a holistic concept of integration based on the scientific and pedagogical work of T. Hellbrugge, the ideas of Montessori pedagogy of a healthy child and the little-known Montessori pedagogy for children with disabilities and successfully implemented it in the Munich Children's Center. An important position of the scientist in the development of this concept was the implementation of constant interdisciplinary cooperation between teachers, psychologists and pediatricians based on the principle of social development.

The development of inclusive education abroad is carried out with the important active role of parents of children with disabilities and representatives of public organizations and continues in the face of serious problems caused by the following limiting factors:

- insufficiently developed scientific and methodological base;

- lack of necessary theoretical knowledge and practical experience among teachers of a general education school;

- the predominance of the authority of medical science and the firm establishment of a medical approach to the upbringing of such children in a system of segregated educational institutions.

The following current trends in the development of inclusive education abroad can be distinguished:

- strengthening international cooperation between countries and the implementation of international initiatives based on national legislation;

- national state programs aimed at the targeted promotion of anti-discrimination policy and the creation of inclusive schools;

- based on improving the quality of partnerships within the framework of interdisciplinary cooperation, expanding the boundaries of interaction between participants in inclusive education in the "family-school-community-society" system and increasing the socio-pedagogical significance of inclusion;

- strengthening a positive-value attitude to the diversity of the needs of children, especially children with disabilities, in an inclusive class, changing the procedures for diagnosing and assessing their educational needs on the basis of interdisciplinary, especially close cooperation with the parents of these children;

- awareness of the need to develop individual trajectories for the education and upbringing of children and improve the quality of inclusive education by increasing attention to the period of early education of the child and carrying out preventive measures;

- modernization of educational programs for the professional training of teachers and the training of school and pedagogical personnel, including school leaders and support staff, in order to form an inclusive culture.

Based on the experience of inclusive education in many countries with different levels of economic and social development, the following can be indicated as the main directions for its implementation:

- focus on the individuality and flexibility of the educational process;

- diversification of educational services;

- to expand the opportunities for education of children with disabilities without a long separation from the family;

- development of teacher training programs in the field of inclusive education, etc.

Inclusive education does not isolate students from society. They will have the

opportunity to generalize the acquired skills. The system "family-kindergarten-school-vocational college-higher education-employment" will create a framework for

parents to easily and safely bring students with disabilities to general education and higher education institutions.

## PEDAGOG KADRLAR MALAKASINI OSHIRISH TIZIMIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR TAHLILI

*A'zam Shaxriyovich Xolmurodov - i.f.n., Jizzax viloyati pedagoglari yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi*

**Annotatsiya:** Maqolada malaka oshirish kurslarining kvalifikatsiyasi, ularni shakli, turi, davomiyligi, ta'lim dasturlarining mazmuni, markazlashgan va nomarkazlashgan kabi kategoriyalar, malaka oshirish jarayonlari bilan bog'liq qator o'ziga xos muammoli jihatlar, mazkur tizimning rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalari, malaka oshirish tizimidagi xorijiy tajribalar tahlili, uzluksiz ta'lim konsepsiyasi haqida fikr yuritiladi.

**Аннотация:** В статье классифицированы курсы повышения квалификации, их форма, вид, продолжительность, содержание образовательных программ, централизованные и децентрализованные, ряд специфических вопросов, связанных с учебным процессом, современные тенденции развития системы, анализ зарубежного опыта подготовки кадров. системы, обдумывалась концепция непрерывного образования.

**Abstract:** The article classifies advanced training courses, their form, type, duration, content of educational programs, centralized and decentralized, a number of specific issues related to the educational process, current trends in the development of the system, analysis of foreign experience in training personnel. system, the concept of continuous education was considered.

**Kalit so'zlar:** uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, hayot davomida ta'lim (lifelong learning education), kattalar ta'limi (adult education), uzluksiz kasbiy ta'lim (continuing vocational education and training), umrbod ta'lim, ta'lim uchun o'z-o'zini rag'batlantirish

**Ключевые слова:** концепция непрерывного образования, обучение на протяжении всей жизни, образование взрослых, непрерывное профессиональное образование, обучение на протяжении всей жизни, самомотивация к обучению.

**Keywords:** the concept of lifelong learning, lifelong learning education, adult education, continuing vocational education and training, lifelong learning, self-motivation to learn.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va zamonaviy yondashuvlar asosida takomillashtirish rivojlangan mamlakatlar ta'lim islohotlarining asosiy yo'nalishlari sifatida belgilandi. Malaka oshirish ko'plab xorijiy davlatlar tajribasida mavjud bo'lib, kasbiy rivojlanish, o'qituvchilarni rivojlantirish, uzluksiz kasbiy rivojlanish kabi tushunchalarda o'z aksini topadi.

Pedagog kadrlar malakasini oshirish borasidagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish ularning o'ziga xos differensial xususiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Dunyo tajribasida malaka oshirishning ko'p turlari amaliyotda uchraydi, bular tajribasiz-yosh o'qituvchilar uchun boshlang'ich malaka oshirish kurslari, qo'shimcha kasbiy ta'lim, qayta tayyorlash, tajribali o'qituvchilar

uchun mo'ljallangan malaka oshirish kurslari kabilardir.

Malaka oshirish kurslarining institutsional tuzilishini uqtainazaridan olib qaraladigan bo'lsa, pedagog kadrlarning, xususan, umumta'lim maktabi o'qituvchilarining malakasini oshirish Yaponiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Italiya kabi davlatlarda qonunchilik bilan nazoratga olingan bo'lsa, Shvetsiyada bu narsa davlat aralashuviz amalga oshiriladi.

Malaka oshirish kurslarining kvalifikatsiyasi xususida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ularni shakli, turi, davomiyligi, ta'lim dasturlarining mazmuni, markazlashgan va nomarkazlashgan kabi kategoriyalar bo'yicha ajratish mumkin bo'ladi.

Shubilan birga, malaka oshirish jarayonlari bilan bog'liq qator o'ziga xos muammoli

jihatlari mavjud bo'lib, ular mazkur tizimning rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalarni belgilab berishga turtki bo'lgan.

Rivojlangan davlatlarning malaka oshirish tizimidagi asosiy tendensiyalaridan biri bu uzluksiz ta'lim konsepsiyasi bilan belgilanadi.

Uzluksiz ta'lim - bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi bo'lib, davlat va jamoat institutlari tizimidan foydalanish asosida, shaxs va jamiyat ehtiyojlariga muvofiq, butun umr davomida shaxsning ta'lim (umumiy va kasbiy) salohiyatini oshirish jarayoni hisoblanadi. Uzluksiz ta'lim tushunchasining kelib chiqishi qadimgi faylasuflar davriga borib taqaladi. "Hayot davomidagi ta'lim" atamasi birinchi marta 1968-yilda YUNESKO Bosh konferensiyasi materiallarida qo'llanilgan deb talqin etiladi. 1972-yilda Parijda "Uzluksiz ta'lim kontekstida kattalar ta'limi" bo'yicha III xalqaro konferensiyasi bo'lib o'tadi va mazkur konferensiyada Edgar For (fr. Edgar Faure) komissiyasining ta'lim paradigmasining asosiy qoidalari, uning faoliyatida uzluksizlik tamoyiliga asoslanish g'oyasi ilgari suriladi. 1970-yillarning o'rtalaridan boshlab ko'plab mamlakatlarda uzluksiz ta'lim g'oyasi qo'llab-quvvatlandi.

Uzluksiz ta'lim tuzilmasi quyidagilardan iborat:

- hayot davomida ta'lim (lifelong learning education);
- kattalar ta'limi (adult education);
- uzluksiz kasbiy ta'lim (continuing vocational education and training).

Uzluksiz kasbiy ta'lim jarayonida inson doimiy ravishda bilim va ko'nikmalar zaxirasini to'ldiradi, malakasini oshiradi. Bunda kasbiy tayyorgarlikning asosi uzluksizlik tamoyilidir. Uzluksiz kasbiy ta'limning maqsadlari ta'lim oluvchilarda mustaqillik, maqsadlilik va mas'uliyatni rivojlantirish, iqtisodiyotda, butun jamiyat madaniyatida, shuningdek, kasbiy hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga moslashish qobiliyatini mustahkamlashdan iborat.

Uzluksiz ta'limning tasnifiy shakllari sifatida rasmiy, norasmiy va informal ta'limni kiritish mumkin bo'ladi.

Rasmiy ta'lim - bu maktab o'quvchilari va yoshlarning asosiy faoliyati sifatida o'zaro bog'liq bo'lgan o'quv dasturlari majmuasini ta'minlovchi ta'lim muassasalari tizimi.

Norasmiy ta'lim - bu rasmiy ta'lim ta'rifiga kirmaydigan har qanday tashkil etilgan va davom etuvchi o'quv faoliyati. Norasmiy ta'lim

talabani sertifikatlash uchun mo'ljallanmagan. U ham kasbiy yo'nalishga, ham umumiy madaniy yo'nalishga ega bo'lishi mumkin.

Informal ta'lim - bu o'quv faoliyatining barcha turlarini o'z ichiga olgan ta'lim. Aniq bir ta'lim tashkiloti yoki muassasasi tizimida emas, balki individual va guruh darajasida amalga oshirilishi mumkin. Bunday ta'lim odamlarning kundalik hayotdagi munosabati va xatti-harakatlarini eng samarali tarzda o'zgartiradi, degan fikr mavjud. Informal ta'limning keng qo'llaniladigan shakli sifatida masofaviy ta'lim yoki ochiq ta'lim resurslari (MOOS) asosidagi mustaqil ta'limni keltirish mumkin bo'ladi<sup>1</sup>.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, malaka oshirish ta'lim tizimidagi ilg'or tajribalarning shakllanishida uzluksiz ta'lim konsepsiyasining rivojlanishi bilan birga, malaka oshirish ta'limining individuallashtirilgan ehtiyojlarga yo'naltirish g'oyasi ham shakllana borgan. Bu o'z navbatida, rivojlangan davlatlarning malaka oshirish, xususan, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi o'ziga xos modellarini shakllanishiga asos bo'lgan.

Jumladan, Amerika Qo'shma Shtatlarida o'qituvchilarning malakasini oshirish tizimining rivojlanishi tahlili shuni ko'rsatdiki, ushbu mamlakatning siyosiy va ihsanlik dunyosi rahbarlari boshqa mamlakatlarga qaraganda uzoq muddatli iqtisodiy farovonlikning zaruriy sharti - pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning samarali tizimi ekanligini anglab yetishgan. Biroq, Amerikada ham malaka oshirish tizimining shakllanishi va rivojlanishi izchil va bir xil bosqichda kechgan emas.

Mutaxassislar Amerika Qo'shma Shtatlaridagi malaka oshirish tizimining rivojlanish bosqichlarini shartli ravishda uch bosqichga ajratib ko'rsatishadi.

Qo'shma Shtatlarda malaka oshirish tizimini rivojlantirishning birinchi bosqichi (1940-1960-yillar)da malaka oshirish ta'limini moliyalashtirish va nazoratini amalga oshirishda davlatning aralashuvi kuzatilmagan. Malaka oshirish kurslari mazmunida umumiy pedagogik va ijtimoiy-psixologik masalalarga juda kam e'tibor qaratilgan bo'lib, bu davrda o'qituvchilik kasbi maxsus bilimlar talab qilmaydigan kasb sifatida qaralgan.

Ikkinchi bosqich (1960-1980-yillar)da oliy o'quv yurtidan keyingi pedagogik ta'lim tizimining shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, bunda malaka oshirishning yangi shakllarini

<sup>1</sup> <https://ru.wikipedia.org/wiki>

(universitetlar va pedagogika kollejarida turli xil qisqa va uzoq muddatli kurslar) tashkil etishga alohida e'tibor qaratilib, malaka oshirish ta'limini moliyalashtirishda markazlashtirish va uni davlat tomonidan muvofiq lashtirish tizimi joriy etila boshlangan<sup>2</sup>.

Uchinchi bosqichda, ya'ni pedagog kadrlar malakasini oshirishning samarali tizimini joriy etish, ta'limni modernizatsiyalash natijasida 1980-yillarda amerikalik maktab o'qituvchisining kasbiy rivojlanishida professional-kasbiy jihat yetakchilik qilgan va bunda asosan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, faoliyatli-kognitiv yondashuv metodologiyasiga asoslanilgan. Shaxsiy va kasbiy jihatdan yetuk, malakali, yangicha ish uslubiga moslashuvchan va ijodiy fikrlay oladigan o'qituvchilarni tayyorlashga e'tibor kuchaygan. Malaka oshirish ta'lim dasturlarini o'zlashtirishda modulli yondashuv, ya'ni bir modulni o'zlashtirib, o'qituvchi (tyutorga) imtihon topshirgandan so'ng navbatdagi modulga o'tish tizimi joriy etiladi. Bu o'z navbatida mutaxassis uchun ijobiy motivatsiya yaratib, mustaqil ishlash madaniyati oshadi, mustaqil va ijodiy faollik rivojlanadi.

XXI asr boshlarida esa, Amerikada pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini takomillashtirishda o'quv jarayonini diversifikatsiya qilish, malaka oshirish tizimida ta'lim xizmatlari marketingini rivojlantirish, innovatsion ta'lim texnologiyalarini joriy qilish, mentorlik tizimini rivojlantirish, kasbiy malakalarni muddatli o'zlashtirishdan, uzluksiz kasbiy rivojlanish, hayot davomidagi ta'lim (lifelong learning) yondashuvlariga ustuvorlik berilgan<sup>3</sup>.

Malaka oshirish ta'lim dasturlari mazmunida esa, xodimning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini oshirish, mulqot ko'nikmalari, intizom, kasbiy va shaxsiy o'zini o'zi rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash istagi kabi fazilatlarga alohida ahamiyat beriladi; mehnat faoliyati subyekti sifatida mutaxassisning kasbiy ahamiyatli sifatleri va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularni haqiqiy mehnat sharoitlariga moslashtirish; hamkasblar va ta'lim oluvchilar bilan professional munosabatda bo'lish; kasbiy faoliyatning muayyan turini muvaffaqiyatli amalga oshirish; kasbiy faoliyat istiqbollari bashorat qilish kabi kompetensiyalarning rivojlantirilishiga alohida ustuvorlik beriladi<sup>4</sup>.

Buyuk Britaniyadagi o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida "yangi", "yosh bitiruvchi" dan "mutaxassis" gacha rivojlanishiga ko'maklashish uchun mo'ljalangan.

Zamonaviy Buyuk Britaniya ta'limining o'ziga xos xususiyatlari orasida an'ana va innovatsiyalar uyg'unligini ajratib ko'rsatish mumkin bo'ladi.

Buyuk Britaniyada ta'limning shakllangan ijobiy an'alariga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishadi va ularni saqlashga harakat qilishadi. Chunki, ko'pgina ta'lim muassasalari asrlar davomida shakllangan an'analarga ega hisoblanadi va ular qo'llab-quvvatlanadi.

Shu bilan birga, britaniya tizimi innovatsiyalarsiz o'zining yuqori sifat va reytingini saqlab qolishi ham mumkin emasligini tan olgan holda, ta'limni tashkil etish shakllari, mazmuni hamda yondashuvlarni modernizatsiya qilishga ham alohida e'tibor qaratiladi.

Ta'lim muassasalarining xilma-xilligi va o'zgaruvchanligi.

Britaniya ta'limi turli muassasalar tizimida amalga oshiriladi, ular orasida xususiy va davlat ta'lim muassasalari, statsionar ta'lim muassasalari va maktab-internatlari; faqat qizlar o'qiydigan ta'lim muassasalari va o'g'il bolalar uchun maktablar va hokazo. Buyuk Britaniyada ta'lim olish uchun, xususan malaka oshirish uchun ham xohlagan ta'lim muassasasini tanlash mumkin bo'ladi. Ta'lim sifati yuqori, shu bilan birga qimmat ham hisoblanadi.

Buyuk Britaniya ta'limining yana bir ijobiy jihati bu ta'lim oluvchilarning o'quv yutuqlarini nazorat qilish va baholash tizimining mustaqilligi, qat'iy va izchilligidir.

Buyuk Britaniyada har bir talaba uchun markazlashtirilgan ma'lumotlar bazasi yaratilgan va takomillashtiriladi. Talabalarning ta'lim yutuqlarini baholashda uchta yondashuv qo'llaniladi: mezonli, me'yoriy va individual. Mezon yondashuvi darajasida ta'lim yutuqlarini milliy standartga muvofiqlik darajasi tekshirilsa, me'yoriy darajada - shakllangan bilim va ko'nikmalar asosida ta'lim oluvchilarni istiqbol va imkoniyatlari aniqlanadi, individual darajada har bir talabaning eng yuqori natijalari tengdoshlarining ta'lim yutuqlari darajasi bilan

<sup>2</sup> Узлуksиз таълим агентликлари; Миллий таълим институти; Миллий фан фонди ва бошқалар.

<sup>3</sup> Хатюшина А.А. Повышение квалификации учителей США с учетом личностного развития // Социально-реабилитационная инноватика: теория, технологии, практика. - М: Изд-во РГСУ, 2007.

<sup>4</sup> Афанасьев В.В., Куницына С.М., Лебедев В.В., Расташанская Т.В., Табаровская К.А. Отечественный и зарубежный опыт персонализации в системе дополнительного профессионального образования, Международный научно-исследовательский журнал №9 (51) Часть 4.

taqqoslanadi<sup>5</sup>.

Shu o'rinda, tadqiqotchi M.Yuldashov, aksariyat xorijiy davlatlarda ta'lim sifatini baholash ikki tarkibiy qismdan, ya'ni ichki (o'zini-o'zi baholash) va tashqi baholashdan iborat bo'lishi lozimligi, shuningdek, mazkur tashkil etuvchilarning aniq mexanizmlari har xil bo'lishi mumkinligi tan olinadi, deya ta'kidlaydi. Dunyoda mavjud ta'lim sifatini baholash tizimlarini ham ularda tashqi yoki ichki baholashga urg'u berilishiga qarab, shartli ravishda, ikki modelga bo'lish mumkin. Birinchi, ta'lim muassasalarining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan "fransuz" modeli. Bunda ta'lim muassasasi tomonidan o'zini-o'zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e'tibor tashqi baholashni samarali o'tkazishga qaratiladi. Ta'lim sifatini baholashning ikkinchi - "ingliz" modeli asosini ta'lim muassasasi tomonidan ichki baholash tashkil qiladi<sup>6</sup>.

Xitoyda ham o'qituvchilar malakasini oshirish kurslari va institutlari mavjud. Maktablarda yangi o'qituvchi o'z hamkasblarining mahorat darslarida qatnashishi, tajribali mutaxassislar bilan darslarni tahlil qilishi va yosh o'qituvchilar uchun tanlovlarda qatnashishi shart. Davlat rejasida pedagog kadrlar malakasini oshirish bilan bir qatorda ularni ishga qabul qilishda aniq malaka standartlarini ishlab chiqish belgilangan. Boshlang'ich va o'rta maktab o'qituvchilari o'z malakalarini muntazam ravishda yangilab turishlari kerak. Shu maqsadda viloyat miqyosidagi ta'lim bo'limlari yagona imtihonlarni tashkil qiladi, ularda o'qituvchilarning malakasini tasdiqlovchi sertifikatlar beriladi. Maktab direktorlarini lavozimga tayinlashning malaka mezonlarini ishlab chiqish, ularning kasbiy malakasini oshirishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xitoyda maktab o'qituvchilarining malakasini oshirish yoki universitetda yoki malaka oshirish institutlarida amalga oshirilib, asosan masofaviy malaka oshirish dasturlari keng qo'llaniladi.

Yaponiyada rasmiy buyruqqa ko'ra, o'qituvchi doimiy ravishda professional formada bo'lishi, malakasini oshirishi uchun ish joyini muntazam ravishda o'zgartirishi kerak. O'qituvchilar hamkasblarining darslarida qatnashishlari kerak. Ba'zi o'qituvchilar

aspirantura va doktoranturada o'qishni davom ettirish uchun stipendiya olishadi. 2004-yildan boshlab Yaponiyada o'qituvchining kasbiy faoliyatini baholash tartibi malaka oshirish darslari natijalariga bog'liqligi o'rnatildi. Malaka oshirish sertifikatini olmagan o'qituvchilar nomaqbul deb topiladi va maktabda ishlashdan chetlashtiriladi. Yaponiyada maktab jamoasi o'zi uchun muhim bo'lgan yo'nalishlarni belgilab, o'qituvchilari uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etadi.

Malaka oshirish tizimidagi ilg'or tajribalardan yana biri bu ta'limdagi, xususan, malaka oshirish tizimidagi vaucher tizimi hisoblanadi. Kattalar ta'limida vaucher g'oyasi asosan Yevropa mamlakatlarida tarqalgan.

1996-yildan Finlandiyada ishsizlarga bir yoki ikki yo'nalishda kasbiy ta'lim olishi uchun vaucherlarni joriy qilish boshlangan. Bunda katta yoshli ta'lim subyektlari, ya'ni ishsiz fuqarolar vaucherlarni olishi (600 Fin markasi hisobida) yoki bandlik markazlarida bepul o'qishi mumkin edi. Bunday yondashuv ularda qo'shimcha kasb o'rganishga, jumladan, til kurslariga borishga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari borasidagi yangi kurslarni o'zlashtirishga va shu orqali yangi ish joylarini izlab topishiga bo'lgan motivatsiyaning ortishiga sabab bo'lgan. Bu tajriba Ispaniya, Italiya, Rossiya kabi davlatlarning malaka oshirish tizimida ham o'z aksini topgan.

Respublikamizda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish davlat rahbari darajasida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi F-134-son Farmoni qabul qilinib, unda:

malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda Toshkent davlat pedagogika universiteti hamda malaka oshirish ta'lim muassasalarining o'quv-rejalari va dasturlarini to'liq qayta ko'rib chiqish hamda xalqaro talablar asosida takomillashtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalariga ularning o'quv jarayoniga xalqaro tan olingan ta'lim dasturlarini joriy qilish;

ta'lim sohasida xizmat ko'rsatuvchi xorijiy tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish hamda dasturlarni sotib olish va amaliyotga tatbiq etish;

pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish yo'nalishida:

<sup>5</sup> Е.В.Андренко. Сравнительная педагогика. Новосибирск 2016, 66-70 стр.

<sup>6</sup> Е.В.Андренко. Сравнительная педагогика. Новосибирск 2016, 66-70 стр.



aniq va tabiiy fanlar bo'yicha malakali xorijiy mutaxassislarini jalb qilish;

xorijiy mutaxassislar, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tashkilotlari hamda malaka oshirish ta'lim muassasalarining malakali xodimlaridan iborat bo'lgan trenerlar guruhlarini shakllantirish va joriy yil yakuniga qadar joylarga chiqqan holda kamida 20 foiz umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagoglar uchun zamonaviy metodikalarga asoslangan sayyor o'quv mashg'ulot va seminar-treninglar o'tkazish kabi vazifalar belgilangan<sup>7</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi (O'RQ-637-son) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ham Ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlariga xorijiy davlatlarning tegishli vakolatli organlari hamda ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish, pedagog xodimlar va ta'lim oluvchilar almashinuvini amalga oshirish, rahbar hamda pedagog xodimlarning xorijiy davlatlarda tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish vakolati berilgan<sup>8</sup>.

Ilmiy-pedagogik tahlillardan ma'lum bo'ladiki, xorijiy davlatlarning pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi o'ziga xosligini quyidagilarda ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

- birinchidan, rivojlangan davlatlarda malaka oshirish ta'lim tizimining tashkiliy-boshqaruv tizimidagi o'ziga xosliklarning mavjudligi. Masalan, Shvetsiyada malaka oshirish tizimiga davlatning aralashuvi kuzatilmaydi, aksincha ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ta'lim xizmatlari sifatida ko'rsatiladi; Finlandiyada mutaxassisning jumladan, pedagog kadrlarning malaka oshirishi va kasbiy rivojlanishi uchun ish beruvchilar javobgar hisoblanadi; Yaponiyada esa malaka oshirish davlat nazoratidagi yo'nalish hisoblanadi. Shu bilan birga, Amerika, Rossiya, Finlandiya kabi rivojlangan davlatlarda, shu jumladan, bizda ham o'qituvchilarning malaka oshirish natijalarini ommalashtirishga qaratilgan turli tanlov va konkurs larni tashkil etish, masalan, "Yil o'qituvchisi" va bu orqali ularni rag'batlantirish mexanizmlari ham

mavjud;

- ikkinchidan, xorijiy amaliyotda malaka oshirish ta'lim muassasalarining aksariyat qismi oliy ta'lim muassasalari huzurida faoliyat yuritadi. Bunda malaka oshirish jarayonlarida ta'lim, fan va amaliyot integratsiyasiga alohida e'tibor qaratilib, ilmiy-innovatsion ishlanmalar hamda soha yutuqlarini pedagog kadrlar tomonidan tezroq va samarali o'zlashtirilishiga erishiladi;

- uchinchidan, rivojlangan davlatlarda ta'lim muassasalari, xususan, oliy ta'lim muassasalari akademik va moliyaviy mustaqillikka ega bo'lib, buning asosida ular o'quv rejalari, o'quv dasturlari, malaka talablarini kasbiy standartlar asosida mustaqil shakllantirish va tasdiqlash, ta'lim olish shaklini belgilash, shu bilan birga faoliyatining asosiy yo'nalishi ta'lim, ilm-fan, uning natijalarini joriy etish hamda tijoratlashtirish bilan bog'liq bo'lgan davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmaydigan tarkibiy tuzilmalar, tijorat va notijorat tashkilotlarni tashkil etish huquqiga ega hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida malaka oshirish tizimidagi ta'lim xizmatlarini rivojlantirishga tashkiliy-boshqaruv jihatidan imkoniyat yaratadi.

Shu bilan birga, malaka oshirish tizimidagi ilg'or tajribalarni tahlil etish asosida o'ziga xos mulohazali jihatlar ham ko'zga tashlandi, ya'ni malaka oshirish kurslarida pedagoglarning kasbiy rivojlanishi mazkur kurslarda dars beradigan uslubchi-tutorlarning malaka darajasiga bog'lanib qolishi, pedagoglarda o'z ustida ishlash va malaka oshirishga nisbatan motivatsiyaning yetishmasligi, ta'limni tabaqalashtirish darajasining pastligi va malaka oshirish ta'lim dasturlariga imkoniyatning hammaga ham tengdek emasligi kabilardir.

Yuqorida keltirilgan tahlillarga asoslanib, respublikamizda pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimidagi ta'lim xizmatlarini tashkil etish, malaka oshirishning ta'lim mazmuni va shakllaridagi variativlikni rivojlantirish va ehtiyojlarga yo'naltirish kabi masalalarning ilmiy-pedagogik yechimlariga e'tibor qaratiladi.

## MAKTABGACHA KICHIK YOSHDA BOLALARNI BADIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH BOSQICHLARI

*Zukhro Akmaljonovna Akbarova - DSc, dotsent Farg'ona davlat universiteti*

*Gulira'no Muhammadolimovna Nosirova - magistrant, Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning ahamiyati hamda so'zning ta'siri natijasida bolalarda hissiy rivojlanish va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В статье рассматривается важность приобщения детей дошкольного возраста к художественной литературе и эмоциональное развитие и формирование личностных качеств у детей в результате воздействия слова.

**Abstract:** The article discusses the importance of introducing children of preschool age to fiction and the emotional development and formation of personal qualities in children as a result of the influence of words.

**Kalit so'zlar:** pedagogika, maktabgacha ta'lim, so'z san'ati, hikoya, she'r, ertak

**Ключевые слова:** педагогика, дошкольное образование, искусство слова, рассказ, стихотворение, сказка.

**Keywords:** pedagogy, preschool education, word art, story, poem, fairy tale

O'sib kelayotgan yosh avlodni kitob bilan tanishtirish, badiiy adabiyot olamiga yetaklash har bir tarbiyachining muhim pedagogik vazifasidir. Badiiy adabiyot orqali bolalar milliy va umuminsoniy qadriyatlarini idrok etadi, ularsiz jamiyat va shaxsning ma'naviy hayotini amalga oshirish mumkin emasligini anglaydi.

Maktabgacha davrdagi har bir yosh bosqichi o'zining nutqiy rivojlantirish vazifalarini qo'yadi. Yoshi o'sib borishi bilan adabiy asarlarni qabul qilish darajasi ham ortib borishi tufayli ular asta-sekin murakkablashtirilib boriladi. Bolalarda she'r tinglay olish qobiliyati rivojlanadi. Shundan kelib chiqqan holda kattalar bolalarning yosh imkoniyatlarini bilishlari zarur. Bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni har bir yosh bosqichida bolalar badiiy adabiyoti bilan tanishtirib borish masalalarini ko'rib chiqamiz.

Mavzuning o'rganilishi. Maktabgacha kichik yoshidagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi - bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg'ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg'urishdir<sup>1</sup>. Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she'riyat, ya'ni folklor va mualliflik she'riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh

qahramonlari bolalar, hayvonlar bo'lgan, o'yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarli.

Natijalar va muhokama. Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she'rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o'yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo'nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqdid qiladi. Bola adabiy asarlarda bayon qilingan voqealarni juda jiddiy qabul qiladi. O'ziga yoqib qolgan ertakni bir necha marta eshitishga ham tayyor. Uning qahramonlarini illyustratsiyalar va o'yinchoqlarda xursand bo'lib tanib oladi, har gal ertakning baxtli yakunini berilib kutgani holda syujet harakatlarining odatdagi ketma-ketligini sinchkovlik bilan kuzatib boradi. Kichikintoylarga mo'ljallangan badiiy asarlar soni unchalik ko'p emas. Shuning uchun ular ko'p martalab takror jaranglashi, bolaning kundalik hayotiga kirib borishi va unda badiiy asarni his qilishning birlamchi asoslarini rivojlantirishi lozim. Kichik yoshdagi bolalarga o'qib beriladigan asarlar doirasini asosan folklor asarlari tashkil qiladi. Ular eng yaxshi tarzda ilk yoshdagi bolalar ehtiyojlariga mos keladi, chunki u so'z, ohang, musiqa va harakatni o'zida jamlagandir. Bolalar hayvonlar haqidagi xalq ertaklari bilan tanishadilar: «Sholg'om», «Bo'g'irsoq», «Uycha», «Chipor

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022-2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi F-134-son Farmoni.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi (O'RQ-637-son) "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 68-moddada.

<sup>1</sup> Алексеева М.М., Яшина В.И. «Методика развития речи и обучение русскому языку дошкольников» Учебное пособие. 2-е издание. М.: Академия, 2008, стр. 143.

tovuq» va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishda quyidagi omillarga e'tibor qaratmoq g'oyat muhimdir<sup>2</sup>:

1. Bolaga so'z san'ati olamini ochish, kitobga qiziqish va mehrni, uni tinglash va tushunishni, xayoliy voqealarga emotsional munosabat bildirishni, qahramonlar haqida qaygurish va «ularga yordamlashish» hissini tarbiyalash, ya'ni bolalarni badiiy rivojlantirish, ularni bo'lajak kitobxon sifatida shakllantirish;

2. Hikoyani tinglash va tengdoshlari bilan birgalikda bilish malakasini hosil qilish;

3. Bolalarga sanoq she'r matniga mos keluvchi o'yin harakatlarini bajarishni o'rgatish;

4. Bolalarda xalq asarlari, she'rlar, qo'shiqlar ohangdorligi va musiqiylikiga nisbatan emotsional munosabat bildirishni tarbiyalash;

5. Bolalarga adabiy asarlar ko'p martalab o'qilganida va hikoya qilinganida ularning qahramonlarini tanib olishda yordamlashish;

6. Bolaning she'rlar va ertaklardan ayrim so'zlar hamda ifodalarni takrorlashga rag'batlantirish;

7. Illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishni, ulardan adabiy asarlar qahramonlarini tanib olishni va illyustratsiya mazmuni bo'yicha oddiy savollarga javob berishni o'rgatish (Kim bu? Quyoning quloqlari qani? U nima qilayapti? Sichqon qani? va h.k.).

8. Bolalarga dastlab ko'rgazmali asosda (suratlar, o'yinchoqlar, harakatlar), so'ngra esa ko'rgazmasiz taqdim qilinayotgan qisqa she'rlar, sanoq she'rlar, ertaklardagi harakatlar rivojini kuzatib borishni o'rgatish;

9. Bolani kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus chop etilgan (rang-barang, yirik suratli, muqovasi qattiq va yuviladigan) kitoblardan mustaqil ravishda foydalanishga undash.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish bolalarda adabiy asarlarni estetik qabul qilish qobiliyati va mahoratini tarbiyalash, ularda badiiy-nutqiy faoliyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir<sup>3</sup>.

Kichik yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishlar mazmuni va shartlari qanday bo'lmog'i lozim?

Tarbiyachining badiiy asarni o'qish yoki hikoya qilish jarayoniga u xuddi ana shu voqyealar tomoshabini yoki ishtirokchisi sifatida emotsional tarzda qo'shilib ketishi bolalar bilan pedagogik ishlarni olib borishning eng muhim sharti hisoblanadi. Aynan bir asarning o'zi ko'p marta takrorlanishi lozim:

tarbiyachi suratli kitobdan «Sholg'om» ertagini o'qiydi, so'ngra uni kitobsiz hikoya qilib beradi, o'yinchoqlar bilan ko'rsatadi, guruhga boshqa rassom tomonidan ishlangan illyustratsiyalarni olib keladi, bolalar bilan birgalikda o'qiydi va hikoya qiladi.

Kattalar badiiy so'zni bolaning kundalik hayotiga doimiy ravishda kiritib borishlari (Uxla, qarog'im mening), bolaning o'z ismini u yoki bu o'yin yohud maishiy vaziyatga mos keluvchi xalq qo'shig'iga qo'shib aytishlari lozim (Allayo-alla, Gulnor qizim uxlasin, alla va h.k.). Tarbiyachi (kattalar) bolalar bilan birgalikda tanish va notanish kitoblardagi illyustratsiyalarni ko'zdan kechirishi, bolalarni tanish asarlar, illyustratsiyalar va o'yinchoqlar qahramonlarini tanib olishga, qahramon ismi va uning harakatlari nomini aytishga, shuningdek, badiiy matnning ayrim ifodali qismlarini aytib berishga («Qochib ketdim bobomdan, qochib ketdim momomdan,...») undashi darkor.

Ayniqsa, 4-5 nafar boladan iborat bo'lgan kichik guruhlar bilan kitoblarni ko'rib chiqish va o'qish, shuningdek, har bir bolaning tanlab olingan va guruhda saqlanayotgan kitoblardan erkin foydalanishi uchun tegishli sharoit yaratilishi alohida ahamiyatga egadir. Bolalarga barcha notanish so'zlar ma'nosini darhol tushuntirib berishga, xususan obrazli tavsiflash yohud u yoki bu ertakdan kelib chiqadigan ma'noni o'z so'zlari bilan aytib berishga intilmaslik zarur<sup>4</sup>.

Bolaning o'zlashtirish darajasi quyidagilarda ifodalanadi: bola kitob tinglash, o'yinda ishtirok etish haqidagi taklifga faol javob beradi. Uning o'zi kattalardan she'rlar, ertaklar o'qib berishni iltimos qiladi. Qabul qilishga oson qo'shiladi. Asar mazmuniga oid savollarni diqqat bilan tinglaydi va ularga javob beradi. Matnga mos o'yin harakatlarini bajaradi. Tinglagan asarlarining mazmunini biladi, illyustratsiyalarda tanish asar epizodlari va ularning qahramonlarini taniydi. O'qilgan kitobga nisbatan yorqin munosabat bildiradi, kuladi, quvonadi, yig'laydi, qo'shiqlar, sanoq, she'rlarni jo'r bo'lib aytishda faol ishtirok etadi. Ilk yoshdagi bolalarda yuqorida aytib o'tilgan bilish, nutqiy qobiliyatlarini, badiiy asarga nisbatan munosabatni shakllantirish uchun ularga badiiy asarlarni tanishtirish metodikasini bilish va uni to'g'ri qo'llay olish zarur.

Kichik guruhdan boshlab bolalarga janrlarni farqlashni o'rgatish lozim. Tarbiyachi badiiy asar janri nomini albatta aytishi darkor: «Men sizlarga ertak aytib beraman», «Hikoya, she'r o'qib beraman».



Takror o'qishda bolalar she'r mazmunini o'zlashtirib oladilar, qofiya va ritmni his qiladilar, ayrim so'zlar va ifodalarni esda saqlab qoladilar hamda shu bilan o'z nutqlarini boyitadilar. Ushbu yoshda nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash katta ahamiyatga egadir: she'r o'qishda kichkintoylarga har bir so'zni aniq aytgan holda ularga shoshmasdan talaffuz qilishni o'rgatish zarur. Bolalarda qofiyalanayotgan so'zlarga urg'u berish odati mavjud, shuning uchun tarbiyachi mantiqiy urg'ularni to'g'ri qo'yishi va bolalarning ham she'rni to'g'ri aytishlariga erishishi lozim.

Xulosa. Mazmuni har bir bolaga tushunarli va yaqin bo'lgan ertak hamda she'rlar o'qib bo'linganidan so'ng bolalarga ularning shaxsiy hayotidagi ana shunday holatlarni eslatib o'tish mumkin. Bu savollarga javob berar ekan, bolalar o'z fikrlarini faqat bir-ikkita oddiy gaplardan tuzadilar, lekin buning o'zi endi kelgusida ravon nutqni rivojlantirish uchun tayyorgarlikdir<sup>5</sup>.

Kichkintoylarga ko'p savol bermaslik lozim, odatda ularning asarni qanday tushunganliklarini, qaysi so'zlarni esda saqlab qolganliklarini va ushbu mazmun bolaning shaxsiy tajribasi bilan qay darajada bog'lanishini aniqlovchi ikki-uchta savol berish kifoya. She'riy obrazlar yaxshi o'zlashtirilishi va unutilib ketmasligi uchun yil mobaynida bolalarga tanish hikoyalar, she'rlar, ayrim ertaklar yoki ertaklardan ritmik qatorlarni takror o'qish lozim. She'rlar va ertaklarni esda saqlab qolish lug'atni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun bolalarning mashg'ulot davomida eshitgan so'zlari ularning faol lug'ati tarkibiga kirishiga intilish zarur. Buning uchun esa ushbu so'zlarni to'g'ri ko'rinishlarda tez-tez takrorlash lozim, bo'lmasa kichkintoy yangi so'zlarni shunchaki tovushlar uyg'unligi sifatida qabul qiladi va ularning ma'nosini tushunib yetmaydi.

## OPTIMIZATION OF THE PHYSICAL ACTIVITY OF CHILDREN THROUGH PHYSICAL EDUCATION

*Baxtiyor Tojiyevich Haydarov - professor, Uzbek-Finland pedagogical institute*

**Abstract:** The article describes ways to increase the motor activity of children by means of non-traditional gymnastic exercises in preschool educational institutions, methods for the formation and development of physical qualities, basic movements, age-appropriate skills and abilities of children.

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida bolalarni noan'anaviy gimnastika mashqlari vositasida harakat faolligini oshirish, salomatligini mustahkamlash, jismoniy sifatleri, asosiy harakatlarini shakllantirish va rivojlantirish usullari, bolalarning yoshiga mos bo'lgan ko'nikma va malakalar tizimi yoritilgan.

**Аннотация:** В статье описаны пути повышения двигательной активности детей средствами нетрадиционных гимнастических упражнений в дошкольных образовательных организациях, методы формирования и развития физических качеств, базовых движений, соответствующих возрасту навыков и умений детей.

**Keywords:** 6-7 years old, primary gymnastics, rhythmic exercises, pedagogical experiment, physical activity, physical fitness, physical qualities.

**Kalit so'zlar:** 6-7 yosh, boshlang'ich gimnastika, ritmik mashqlar, pedagogik tajriba, harakat faoliyati, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar.

**Ключевые слова:** 6-7 лет, начальная гимнастика, ритмические упражнения, педагогический эксперимент, двигательная активность, физическая подготовленность, физические качества.

**Aim:** To encourage the development of motor activity and physical fitness in children by means of rhythmic exercises based on beginner gymnastics.

**Methods:** 1. Pedagogical test; 2. Pedagogical experience; 3. Heart rate monitoring; 4. Self-examination; 5. Statistical analyses.

**Results:** It was found that in children 6-7 years old, through the implementation of rhythmic exercises based on beginner gymnastics, motor activity increased by 11.4%.

<sup>2</sup> Гербова В.В. «Занятия по развитию речи с детьми» М.: Просвещение, 2004, стр. 13.

<sup>3</sup> Гурович Л.М. «Ребенок и книга» Книга для воспитателя детского сада. М.: Просвещение, 2002, стр. 35.

<sup>4</sup> Логинова В.И., Максаков А.И., Попова М.И. «Развитие речи детей дошкольного возраста» Пособие для воспитателя детского сада. М.: Просвещение, 2004, стр. 98.

<sup>5</sup> Логинова В.И., Максаков А.И., Попова М.И. «Развитие речи детей дошкольного возраста» Пособие для воспитателя детского сада. М.: Просвещение, 2004, стр. 98.

and physical fitness increased by 11.32%. After the experiment, significant changes were revealed ( $p < 0.05$ ,  $847 \pm 0.9$ ,  $t_{ct} = 1.55$ )

Conclusion: In the experimental group, motor intensity ranged from 75-87%, and the heart rate in the main part of the program ranged from 87 to 187 beats per minute. When choosing the means and methods of physical education, the age characteristics of children 6-7 years were taken into account. The program implemented in the experimental group showed a high efficiency compared to the traditional program used in the control group.

The priorities of educational organizations in the field of children's sports and selection of talented youth have been defined; one of the main tasks is to increase students' interest in physical activity and sports for physical development and health promotion by conducting classes in beginner gymnastics in preschool educational organizations<sup>1</sup>.

In developed countries, preschool age is an important period in the physical and all-around development of children. During this age period, the foundation of health, proper physical development, and physical abilities are formed, and interest in physical activity and sports is formed<sup>2</sup>.

It is necessary to encourage physical development and active movement in children, to scientifically approach the development of the content and methods of the encouragement of physical development, and to address important issues of reducing physical inactivity, increasing endurance, forming an interest in sports activities from childhood, independent thinking in classes and in play activities, and participating in physical and sports activities<sup>3</sup>.

The purpose of the study was to improve the motor activity of children through physical education in preschool educational organizations through the development of a methodological program and a program of rhythmic exercises.

Objectives of the study: To identify the mechanisms of motor activity development in children aged 6-7 years in preschool educational organizations. Development of a program of rhythmic exercises aimed at preventing musculoskeletal system problems,

taking into account the age characteristics of children aged 6-7 years. We provide practical recommendations based on an improved model of indicators of physical fitness in children attending preschool educational organizations.

Pedagogical testing. To study and assess the level of physical fitness of respondents aged 6-7 years, the following tests were used to determine the effectiveness of the developed program: long jump from a standing position, running in a squat, bending the trunk, leaning forward, and running for 10 meters.

Pedagogical experience. To develop physical fitness and determine the motor activity of children aged 6-7 years, experiments were conducted in 76 state schools, with 38 located in Samarkand. The experimental program covered the means and methods aimed at increasing physical education among preschool children. To increase the physical, functional and adaptive capabilities of the body, a group (primary) method of performing exercises of various types of running and jumping, dancing, outdoor games, and preliminary gymnastic complexes was introduced. In total, 50 to 70 percent of the content of the lesson is devoted to the development of motor activity (see figure 1).



1 Decree of President Sh. M. Mirziyoyev № 5368 "On measures to radically improve the system of public administration in the field of physical culture and sports" from Tashkent, 2018.  
 2 Meliyev H. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T; Iqtisod-Moliya 2012y o'quv qo'llanma., Holboeva G.H. Mechanisms of improving primary gymnastics in increasing the motor activity of preschoolers // Scientific Bulletin of the Samarqand State University 2019, issue 6; 140-144.  
 3 Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569., Xolboyeva G.X. "Methods of development of physical qualities in gymnastics for 5-7 years old". // Novateur publications JournalINX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 Volume 6, issue 6, June -2020; 743-747., Holboeva G. H. Nazarova D. Mechanisms of increasing the motor activity of children aged 5-6 years on the basis of initial gymnastic exercises. // Scientific theoretical journal "Science to sport". 2020 Year Number 6. ISSN.2181-7804; 72-75., Haydarov B.T., Holboeva G.H., Theory and methodology of physical education. // Textbook Samarqand state university edition. 2020; 56-59.

Figure 1 Model of the experimental program

The experiment was conducted on the basis of a set of exercises, including health and educational orientations, that composed the program and tools (see figure1).

Somatoscopic examination was conducted to study and evaluate the physical development of preschool children<sup>4</sup>. Somatoscopy assessed the posture, chest, abdomen, features of the external and internal structure of the body, and features of the development of the musculoskeletal system in accordance with the generally accepted methodology described in the literature. Somatoscopic examination of respondents in the experimental-test and control groups revealed a predisposition to various diseases of the musculoskeletal system (17.5% in the control group, 16.5% in the experimental-test group).

The heart rate measurement method is described in the heart rate measurement register (record). Based on the data obtained, physiological curves were established that reflect changes in heart rate during various physical exercises. These data were used to determine the intensity of motor activity and to determine compliance with the capabilities of the child's body and the tasks involved in physical education. In the experimental and test groups, the method was used to study the effect of training on the body, load control, and heart rate control. In the experimental group, motor intensity of classes ranged from 75-87%, and heart rate ranged from 87 to 187 beats per minute. When choosing the means and methods of physical education, the age characteristics of children 6-7 years were taken into account.

Statistical analyses were used to determine the objectivity, reliability and normal distribution of data obtained during the experiment and to determine their properties and values. Using the Stuart Fisher criterion, the data were processed with Excel. After the experiment, differences in the statistical reliability of the test results were detected ( $p < 0.05$  indicated statistical significance,  $847 \pm 0.9$ ,  $t_{ct} = 1.55$ ).

III. Results and discussion.

During the course of the study, a comparative pedagogical experiment was conducted to identify and test the effectiveness of the experimental and testing methodology.


The experiment involved respondents aged 6-7 years from 120 preschool educational organizations (60 in the experimental group, 60 in the control group). At the beginning of

the experiment, a comparative analysis of the physical development and physical fitness of the respondents of the experimental and control groups was carried out.

In the experimental and control groups, 30-minute classes were conducted according to a program consisting of a set of rhythmic exercises based on beginner gymnastics three times a week for six months. Those who were in the control group engaged in a traditional program of physical education (the duration and time of classes were similar).

The motor intensity of physical education in the experimental group varied from 60-65% to 75-87%, depending on the tasks and type of activity, and in the control group, it was lower and amounted to 50-68%. In the experimental and test groups, the effect of training on the body was assessed according to the method, load control, and heart rate control. The effectiveness of the proposed method was evaluated by comparing the indicators of physical development and physical fitness, as well as by comparing the data of the musculoskeletal system of the respondents in the experimental and control groups at the beginning and at the end of the experiment.

Review of the results of the experiment. 1. The results of somatoscopic examination of children in the experimental and control groups after the experiment showed that the prevalence of children with a predisposition to diseases of the musculoskeletal system in the control group decreased from 17.5% to 14.5%, and in the experimental group, the prevalence decreased from 16.5% to 10.5% (see picture1).



Picture 1

4 Xolboyeva G.X. Dastlabki gimnastika mashg'ulotlari asosida 5-6 yoshli bolalarning harakat faolligini oshirish mexanizmlari. // "Fan sportga" ilmiy nazariy jurnal. 2020 yil 6-son. ISSN.2181-7804. B.72-75.

In the comparison of the traditional and research programs, the experimental program had a greater effect on the prevention of various musculoskeletal disorders due to the special program methods and tools aimed at forming the correct posture, as well as exercises aimed at strengthening the muscles.

Analysis of respondents with problems with the musculoskeletal system in the experimental and control groups were conducted at the beginning and at the end of the experiment (see picture 2).

At the beginning of the experiment, there was no significant difference in the indicators of physical development or the results of physical fitness of the respondents between the experimental and control groups.

Analysis of physical performance indicators in the experimental and control groups during the experiment (n = 60).

Table 1


Test	Group	Start of the experiment			End of the experiment			Absolute difference	Relative difference, %	t <sub>0</sub>	P
		$\bar{x}$	$\sigma$	V, %	$\bar{x}$	$\sigma$	V, %				
Shuttle run, s	CG	11,15	1,43	12,83	10,81	0,91	8,42	-0,34	3,05	1,55	>0,05
	EG	11,22	1,45	12,92	10,63	0,9	8,47	-0,59	5,26	2,68	<0,01
Jumping from the position, cm	CG	101,95	12,56	12,32	106,33	10,95	10,25	4,38	4,30	2,04	<0,05
	EG	103,27	12,73	12,33	110,61	11,16	10,99	7,34	7,11	3,36	<0,001
Torso folding	CG	10,12	7,41	10,41	10,32	0,84	11,33	6,23	4,37	2,14	>0,05
	EG	10,15	8,35	11,3	13,45	0,98	13,54	6,85	7,13	4,52	<0,01
Tilt forward	CG	2,59	0,51	19,69	2,73	0,46	16,85	0,14	5,41	1,58	>0,05
	EG	2,65	0,52	19,62	4,61	0,45	15,63	0,23	8,68	2,50	<0,01
Crawling for 10 meters	CG	7,61	0,98	12,88	7,29	0,93	12,76	-0,32	4,20	1,83	<0,05
	EG	7,65	0,99	12,94	7,01	0,84	11,65	-0,44	5,75	2,63	<0,01

Note: EG – Experimental group; CG – control group.

After the experiment, changes in the statistical reliability (P<0.05) of the test results

were detected:

1. Test shuttle run - from 11.22 to 10.61 seconds;
2. Test jump from the position-from 103.27 cm to 110.61 cm;
3. Test Torso folding from 13.11 s to 26,05 s.
4. Test Crawling for 10 meters –from 7,65 s to 7,01 s;
5. Test Tilt forward from- 2,65 cm to 4,61 cm.




Picture 2. Relative dynamics of indicators of physical fitness of the experimental and control groups during the experiment (% , n = 60)

At the end of the experiment, a significant change in physical development indicators was observed in both groups. Thus, the increased loads did not have a negative impact on the respondents (as evidenced by the results of pedagogical observations and heart rate monitoring data).

A comparative analysis of the indicators characterizing the physical condition of children in the experimental group at the beginning and at the end of the experiment allowed us to ensure a significant change in the results associated with all control exercises.

In comparison with the traditional program, the use of the experimental program had effective advantages, which positively affected the dynamics of physical fitness and motor activity indicators (see picture 2).



Picture 3. Dynamics of heart rate in physical education classes of experimental-test and control groups. Heart rate monitoring data showed that the loads in all parts of the experiment corresponded to the age of the respondents, the recommendations of the "First step" program and state requirements. The analysis of the pulse dynamics in the classes of the experimental and control groups showed that physical exercises in the experimental group, in comparison with the classes in the control group, had a more positive effect on the child's body (see picture 3). Additionally, the pulse measurement data confirm the effectiveness of the experimental method:

- In the experimental group, the motor intensity of training ranged from 75-87%, and the heart rate ranged from 87 to 187 beats per minute;

- When choosing the means and methods of physical education, the age characteristics of children aged 6-7 years were taken into account.

The results of the respondents in the experimental group were good compared to the results of the respondents in the control group. After the experiment, significant changes in the test results were revealed (p<0.05, 847 ±0.9, t<sub>st</sub>=1.55). Shuttle run decreased from 11.22 s to 10.61 s, long jump from a standing position

increased from 103.27 cm to 110.61 cm, torso flexion increased- from 13.11 to 26.05, crawling for 10 meters decreased from 7.65 to 7.01 s, and leaning forward increased from 2.65 cm to 4.61 cm. The growth dynamics were assessed, and the listed factors confirming the effectiveness of the program indicate that we achieved our goal. According to the results of the experiment, in children 6-7 years old who participated in the traditional program in the CG, the length and weight of the body increased by 3.7 and 2.8%, respectively, by the end of the experimental period, and in the EG, those who participated in the improved experimental program, these indicators were 5.6 and 4.7%, respectively. In other words, there were no statistically significant changes in the functional parameters observed by anthropometric and physical indicators in children in the EG or in the CG. Physical abilities (shuttle run, long jump from a standing position, torso flexion, leaning forward, crawling up to 10 m) also differed in that children with EG had more intensive growth than those with CG, and the relative dynamics of growth in physical fitness indicators are reflected in Table 1 and Picture 3. The results of the study prove the effectiveness of the tested methods for the development of physical fitness and motor activity in children.

## BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA PEDAGOGIK JARAYONLARNI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISH (FORTEPIANO SINFI MISOLIDA)

*Ermat Majidovich Fayzullayev - p.f.n., Jizzax davlat pedagogika universiteti*  
*Madina Komil qizi Qahorova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida pedagogik jarayonlarni rejalashtirish va tashkil etish, ularda o'qituvchi mahoratining ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, unda pedagogik mahorat kerakligi, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan metodlarga egalik ahamiyati yoritib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о планировании и организации педагогических процессов в детских музыкальных и художественных школах, о значении педагогического мастерства в них. Сегодня в установлении эффективности деятельности учителей музыки и педагогической деятельности подчеркивается важность педагогического мастерства и владения методами, необходимыми для каждого педагогического процесса.

**Abstract:** This article talks about the planning and organization of pedagogical processes in children's music and art schools, and the importance of teacher skills in them. Today, in establishing the effectiveness of music teachers' activities and pedagogical activities, the importance of pedagogical skills and the possession of methods necessary for each pedagogical process is highlighted.

**Kalit so'zlar:** musiqa, san'at, cholg'u, ijro, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, komponent, mutaxassis.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, инструмент, исполнительство, эстетика, деятельность, педагогика, педагогическое мастерство, компонент, специалист.

**Keywords:** music, art, instrument, performance, aesthetics, activity, pedagogy, pedagogical skill, component, expert.

O'zbekiston milliy taraqqiyoti yo'lida ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish ustuvor vazifalardan etib belgilangan. Bunday mamlakat fuqarolari har tomonlama komillik sari intilib yashashi, davlat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" asarida "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"<sup>1</sup> deb ta'kidlagan. Bundan anglash mumkinki, bilim maskanlarida o'quvchi-yoshlar, talabalar tomonidan o'zlashtirilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar ertangi kunda ularning o'zlari tanlagan sohaning yetuk mutaxassislari bo'lib yetishishlarining asosiy omilidir. Musiqa komil inson tarbiyasida uni ezigulikka yetaklovchi, ma'naviy dunyosini boyituvchi, axloqiy tarbiyalovchi, estetik didini oshiruvchi muhim omillardandir. Shu tufayli ham bola kamol topishida, uning tarbiya, ta'lim olish jarayonlarining har qanday bosqichi va ko'rinishlarida musiqiy tarbiyaning o'rnini beqiyos. Bugungi kunda Yangi O'zbekiston har tomonlama rivojlanish jarayonlarida o'z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yar ekan, musiqa madaniyati uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'inlarida qay tarzda amalga oshirilish muammolarini ham dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab oldi. Bu sohada bir qator farmon, qarorlarning

<sup>1</sup> I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent., 2016. 61-bet.

qabul qilinishidan musiqaning yoshlar tarbiyasida naqadar muhim o'rin tutishini anglash mumkin. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2020-yildagi PF-6000-sonli "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rnini va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni, 02.02.2022-yildagi PQ-112-sonli "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari hamda maktab-internatlarning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 09.01.2019-yildagi 9-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida O'zbekiston davlat simfonik orkestrini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 05.05.2021-yildagi 278-sonli qarori, shular jumlasidandir.

Musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'alarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"<sup>2</sup>. Bu jihatlarda musiqiy fanlar, umuman musiqaning inson axloqiy, estetik tarbiyasida muhimdir. O'zbekistonda ta'lim turlari quyidagilar: "Maktabgacha ta'lim va tarbiya; -Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim; -Professional ta'lim; -Oliy ta'lim; -Oliy ta'limdan keyingi ta'lim; -Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; -Maktabdan tashqari ta'lim."<sup>3</sup> Maktabdan tashqari ta'lim turiga kiruvchi bolalar musiqa san'at maktablari aynan bolalarga musiqiy bilimlar berish, ularni professional musiqa va san'at turlari bilan shug'ullanishlarga yo'naltirilgan ta'limdir. "Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'alariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy saviyasini har tomonlama oshirishdan iborat. Quyidagilar bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy vazifalari hisoblanadi: -o'quvchilarning ma'naviy va estetik rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish; -o'quvchilarning iste'dodini har tomonlama kamol toptirish, madaniy saviyasini yuksaltirish; -o'quvchilarni milliy va jahon musiqasi, tasviriy san'atning yuksak namunalaridan va o'zbek xalqining mumtoz musiqa merosi durdonalaridan bahramand bo'lishi uchun zarur sharoitlar yaratish; -milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni uzviy birlashtirish asosida o'quvchilarda yuksak axloqiy fazilatlarini shakllantirish; -o'quvchilarga umumiy musiqa, xoreografiya, teatr san'ati, tasviriy va amaliy san'at yo'nalishlari bo'yicha bilimlarning boshlang'ich asoslarini o'rgatish orqali ularni musiqa va san'at olamiga jalb etish; -iqtidorli o'quvchilarni musiqa va san'at yo'nalishlari bo'yicha o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida o'qishini davom ettirish uchun tayyorlash"<sup>4</sup>. Bolalar musiqa va san'at maktablari maqsad-vazifalariga ko'ra o'quvchilarni musiqa va san'atning turli sohalarida professional tarzda ta'lim-tarbiya berishdan iborat.

Har bir xalqning o'z milliy cholg'u sozlari bor. Shu bilan birga, butun jahonning barcha xalqlari orasida ommalashgan cholg'u asboblari ham mavjud. Skripka, klarnet, truba, fortepiano kabi musiqa cholg'ulari shular jumlasidandir. Ular orasida fortepiano cholg'usi o'zining qulayligi, mosligi va ommaviyligi bilan alohida o'rin tutadi. Forteplano musiqiy tadbirlarning har qanday sharoitlarida yetakchi hamda ko'makchi cholg'u sifatida ishlatilishi mumkin. Shu bois forteplano cholg'usi ixtisosligi bo'yicha saboq oluvchilar boshqa cholg'ularga nisbatan ko'p. Musiqa ta'limining har bir bosqichi jahon andozalarining ilg'or pedagogik ish namunalari asosida tashkil etilgan. O'quvchilar boshlang'ich bosqichning o'zida musiqa madaniyati, musiqa san'atining nazariy hamda amaliy bilimlariga ega bo'ladi. Musiqa savodi va nazariyasi, solfedjio, musiqa tarixi kabi fanlar musiqani

<sup>2</sup> Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil, 4-bet.

<sup>3</sup> Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahriri. 23.09.2020-yildagi O'ZB-Q-637-son Qonun. 7-modd.

<sup>4</sup> "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2016-yildagi 144-sonli qarori

nazariy o'zlashtirishga qaratilgan. Ijrochilik bilan bog'liq ixtisoslik darslari o'quvchilarda mutaxassislik ko'nikmalarini shakllantiradi.

“Boshlang'ich ta'lim tizimi muayyan ixtisoslik, ya'ni professional darajadagi mutaxassis tayyorlashning ilk bosqichidir”<sup>5</sup>. O'quvchilar umumiy bilimga ega bo'lish bilan birga, ixtisoslik tamoyillarining boshlang'ich sabog'ini oladilar. Bolalarning musiqa san'atiga kirib kelishi va o'z ixtisoslik kasbida ta'lim olishi bu bosqichning muhim omillaridan biri. O'quvchi bolalik davridan shaxsiy ijrochilik ko'nikmalarini hosil qilishi va bunda muntazam tayyorlanib borishi juda muhimdir. Shu bois, musiqiy ta'lim tizimining boshlang'ich bosqichi bolalar musiqa maktablari faoliyati bilan bog'liqdir. Bolalar musiqa va san'at maktablari o'qituvchilari mukammal tarzda ishlangan o'quv dasturlari asosida ta'lim beradilar. Ta'lim tizimining o'rta bo'g'iniga musiqa san'ati sabog'iga ega, u yoki bu cholg'u ijrochiligi bo'yicha muayyan boshlang'ich malakaga erishgan holda keladilar. Ayniqsa, fortepiano cholg'u ijrochiligi bolalarning mas'uliyatli va murakkab ish hisoblanadi. San'atdan olingan ilk taassurotlar o'quvchining musiqiy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Hatto ahamiyatsiz bo'lib ko'ringan xatolar ham bunda noxush vaziyatlarga ohb kelishi mumkin. Avvallari o'qituvchilar musiqiy ta'limni bevosita nota yozuvini tushuntirishdan boshlar edilar. Yetarli darajadagi musiqiy taassurotlar zahirasiga ega bo'lmagan, cholg'uning sadolanishini tinglashga o'rganmagan bola ilk mashqlarni haqiqiy musiqiy nutq ifodasi sifatida qabul qilmas edi.

Nota yozuvini shu taxlit o'rganish o'quvchida fortepianoning uyokibuklavishining belgisi ko'rinishida namoyon bo'lib, bunday o'qitish uslubi o'quvchi uchun har qanday hayotiylikdan holi bo'lib ko'rinardi. O'qitish uslubiyotining ko'p uchraydiga tanishtirish musiqiy nutqqa e'tibor bilan quloq solish, uning mazmun va tuzilishini anglash, yangrash sifatini aniqlashni o'rgatish zarur. O'quvchining eshitish tarbiyasi badiiy, shu bilan birga, bola uchun tushunarli va qiziqarli material asosida amalga oshirilishi kerak. Shu maqsadda xalq kuylari, kompozitorlarning bolalar va ommaviy qo'shiqlarini qo'llash afzaldir. Ushbu musiqiy material maktab va maktabgacha bo'lgan

davr uchun mo'ljallangan turli xil qo' shiq to'plamlaridan olinishi mumkin. Qo'shiqlarni matn bilan o'rganish maqsadga muvofiq. Shunga ko'ra, bolada mashg'ulotlarga nisbatan qiziqish uyg'onib, qo'shiqlarning musiqiy mazmuni yanada aniqlashadi.

Boshlang'ich ta'limda bolaga turli kuy qo'shiqlarni o'rgatish bilan bir qatorda, ilk darslardan uni cholg'u bilan tanishtirishni boshlash kerak. Bunda fortepianoning tuzilishi haqida gapirib berilsa, bola uchun juda qiziqarli bo'ladi. Klaviaturani ko'rsatish, o'rta, yuqori va pastki registrlarning yangrash xarakterini chalib namoyish etish, turli balandlikdagi tovushlarni tinglab ko'rish zarur. Tovushning “past” va “baland” tushunchalarini aniqlab berish kerak bo'ladi. Ilk darslarda o'quvchi tovushlarning nomlarini o'rganadi. Aynan ushbu qora klavishlar yordamida o'quvchi oq klavishlarni tezda topa olishiga erishish lozim. Bilimlarni mustahkamlash maqsadida uy vazifasi sifatida tovushlarni har xil oktavalarida aniqlash bo'yicha qator vazifalar berish mumkin. O'quvchini chalishga o'rgatishdan avval uni cholg'u oldida to'g'ri, qulay va erkin o'tqazish kerak. Bunda bolaning bukchaymasligi yoki zo'riqib o'tirmasligiga, ijro vaqtida yelkalarini ko'tarmasligiga e'tibor berish muhimdir. Tirsaklarni tanaga juda yaqin tutish ham, tashqariga qaratib burish ham ma'qul emas. Balandligi bo'yicha tirsaklar taxminan klaviatura darajasida bo'lishi kerak. Ijro erkinligiga erishishda oyoqlarining yaxshi tayanch bo'lishi katta ahamiyatga ega. Bolaning oyoqlari yergacha yetmagan holda uning oyoqlari tagiga taxtacha qo'yish kerak bo'ladi. O'quvchining fortepiano ijrosi paytida qanday o'tirishi hamisha o'qituvchining diqqat markazida turishi kerak. Ammo bu masala bo'yicha o'quvchini hadeb bezovta qilaverish kerak emas.

Ushbu jarayonlarda o'qituvchidan alohida pedagogik mahorat talab etiladi. O'qituvchi “pedagogik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi”<sup>6</sup> zarur. O'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umumilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan

5 Muhammadjonova Z. “Fortepianoda chalishni o'rgatish uslubiyoti”. Yangi nashr nashriyoti. Toshkent., 2006-yil. 8-bet

6 Mavlonova R, Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009-yil. 11-bet

kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Mahorat – bu “ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun zarur bo'lgan shaxsning shaxsiy xususiyatlari kombinatsiyasidir”<sup>7</sup>. Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. “Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu – o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis”<sup>8</sup>dir.

Pedagog “o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lishi”<sup>9</sup>zarur. Musiqa adabiyotining eng muhim shakllaridan bo'lmish sonata ustida ishlash o'quvchining rivoji uchun katta ahamiyatga ega. Gaydn, Motsart, Betxoven sonatlariga tayyorgarlik bosqichi sifatida klassik sonatinalarni o'rganish ma'qul. Ular o'quvchini klassitsizm davri musiqiy tili xususiyatlari bilan tanishtirib, klassik shakl, ritm turg'unligi hissini tarbiyalaydi. Shu bilan birga, mazkur sonatinalar ijro aniqligi va matndagi barcha unsurlarning puxta bajarilishi singari xislatlarni shakllantiradi. O'quvchiga foyda beradigan ijro dasturini tanlash rivojlanishning garovidir. Yoki aksincha, o'quvchi imkoniyatiga mos kelmaydigan ijro dasturini tanlash salbiy natijalarga olib keladi. Shu bois o'quvchi imkoniyati doirasini hisobga olib dastur tanlash pedagogik jarayonning muhim tomonlaridandir.

Demak, o'quvchining shaxsiy ish rejasini bir maromda tuzish va natijalarni qayd etib borish lozim. Chunki shaxsiy rejaning o'zi uning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi. U, albatta, muayyan o'quvchining tarbiyasiga, bilim saviasining tobora oshib borishiga asoslanishi lozim. O'quvchining individual shakllanish xususiyatlarini inobatga olish repertuar tanlashda mezon bo'lib xizmat qilishi kerak. O'quvchini imkoniyatlarini ochib beradigan asarlarni tanlay bilish va bu imkoniyatlarini ko'rsatib, uni rivojlantirishga yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Albatta, o'quvchilarning xarakteri turlicha va anglash-idroklash qobiliyatlarini ham har xil bo'

ladi. Ayrim o'quvchilar asarni o'rganish uchun ko'p vaqt mashq qiladilar. Toki asar g'oyasini tushunmaguncha o'zlashtira olmaydilar. Qiziqish uyg'onmagandan keyin undagi ishonch ham so'nadi. O'z imkoniyatlariga ham ishonmay qolib, oldiga qo'yilgan maqsadni amalga oshirolmaydi. Shu bois, o'quvchida salbiy munosabat tug'dirmaslik uchun, uning tabiatiga xos, ijroviy texnikasiga mos, qiziqtiruvchi asarlarni tanlash maqsadga muvofiqdir.

Odatda, o'quvchilarning aksariyati shinavandalarga tanish bo'lgan va nomdor mualliflarning keng tarqalgan asarlarini ijro etishni yoqtiradilar. Pedagog bunga qarshi bo'lmay tanlasa, qiyinchiliklarni yengish o'quvchi uchun oson kechadi. Bunda o'quvchi ham o'zining imkoniyatiga ishonch bilan qaraydi va maqsadga erishish uchun bor kuchini sarflaydi. O'quvchilar orasida befarqlari ham kam emas. Ba'zilar uchun qanday asar ijro etishlarining farqi yo'q. Repertuar tanlashda fikrini so'rasangiz “menga farqi yo'q” yoki “baribir” degan javobni olasiz. Bunday o'quvchilar loqaydlar toifasiga kiradilar va ularga maxsus e'tibor hamda pedagogik psixologiya asosida yondashish talab etiladi. Odatda o'quvchi qanchalik iste'dodli bo'lsa, uning asar o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi shunchalik baland bo'ladi. Hattoki, mustaqil tarzda ham o'ziga yoqqan asarlarni o'rganib va yodlab ijro etib yuradi. Albatta, o'rtacha qobiliyatli yoki intiluvchanlik saviyasi nisbatan pastroq o'quvchilarga musiqaga bo'lgan munosabatlarini to'g'ri topib olishlariga yordam berish lozim. Yordamning bir necha yo'llari mavjud.

Pedagogik amaliyot nuqtayi nazardan kelib chiqib, avvalo o'quvchining ishtiyoqini oshiruvchi voqea va aniq faktli ijrochilik yutuqlaridan so'zlab berish kerak. Toki, uning qalbida bir xohish paydo bo'lsin. Shu bilan birga, uning tabiatiga mos sharoit yaratib berish maqsadga muvofiqdir. Bunda o'quvchining musiqani qayta-qayta tinglashi ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'quvchining musiqiy asarlarni turli san'atkorlar ijrosida tinglashi uning ijro uchun asar tanlashida juda keng imkoniyatlar yaratib beradi. O'quvchining ruhiy holatiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardan biri – o'quvchi ijrosini vaqti kelganda

7 Маркова А.К. Психология профессионализма. – М.: Знание, 1996. 26-бет

8 Холіқов А “Pedagogik mahorat”. Iqtisod-moliya nashriyoti, Toshkent., 2011-yil, 11-bet.

9 Asqarova M., Xayitboyeva M., Nishonov M. Pedagogika. “Talqin” nashriyoti. Toshkent., 2008-yil. 37-bet.

rag'batlantirib turishdir. O'quvchi o'z ijrosini ustoziga qanchalar ma'qul bo'lganini uning intiluvchanlik hissi rivojlanadi. Shaxsiy ijrochilik mahoratiga yanada e'tibor beradigan bo'ladi. Musiqa darslari vaqtida asar ustida ishlashda o'quvchida jonli munosabat kuchayadi. Yosh o'qituvchilarning o'quvchilar tarbiyasidagi jiddiy xatolaridan biri - ijro uchun o'ta mushkul asarni tanlashdadir.

"Birinchidan, bu zaif ijroga olib keladi. Ikkinchidan, o'quvchida saviyasiz ijroga ko'nikma paydo qiladi. Uchinchidan, o'quvchida bu jarayon befarqlikni keltirib chiqaradi. Unda "asarni yodlab shunchaki ijro etib bersam bo'ldi", degan tushuncha paydo bo'ladi"<sup>10</sup> Bu o'quvchiga o'ta mushkul asarlarni umuman tavsiya etib bo'lmaydi degani emas. Aksincha, o'quvchiga imkoniyatidan ustun bo'lgan, mushkul asarlarni ularning xohishiga qarab berish maqsadga muvofiqdir. Chunki bu asarni o'quvchi xohlab oladi shunga yarasha kuch sarf qiladi. Demak, o'quvchi imkoniyatlarini ikki omilga asoslanib rivojlantiradi. Pedagogning o'z o'quvchisi uchun repertuar tanlashida bir qator jihatlarga e'tibor berishi maqsadga muvofiqdir. Ular o'quvchini ko'p qirrali ma'naviy-estetik tarbiyasiga qaratilgan bo'lishi muhimdir. Chunonchi, bunday munosabat o'quvchining musiqiy dunyoqarashini boyitadi. U musiqa san'atida mavjud uslublar, janrlar, shakllar, kompozitorlik ijodiyoti bilan yaqindan tanishishga imkon yaratadi. Hech bo'lmaganda, tanishish uchun bir qator asarlarni cholib ko'rib chiqish ham muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Pedagog darslarni tashkil etishda ijodkorona yondashish dars samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi. "Darslar samaradorligi omillaridan biri pedagogni talabalik yillaridanoq darslarni kreativ tarzda olib borishga o'rgatishdir"<sup>11</sup> deb Patti ta'kidlar ekan, pedagog talabalik yillaridan, ilk pedagogik

jarayonlaridanoq har bir mashg'ulotni noan'anaviy tashkil etishi muhim. Pedagogik tajribaning ushbu ko'rinishi zamirida o'quvchi mahoratini rivojlantirishning qator omillari yotadi. Ya'ni, o'quvchining dunyoqarashi kengayishi bilan birga, notadan o'qish malakasi oshadi, ansambl bo'lib ijro etish ko'nikmasi kuchayadi, jo'rnovozlik mahorati yaxshilanib boradi. Bularning barchasi keyingi amaliy faoliyat jarayonida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijro dasturini tanlashda yana ba'zi holatlarga e'tibor berishni unutmaslik kerak. O'quvchi repertuaridagi asarlar o'zining xarakteri, sur'ati, tonal rejasi jihatidan imkon qadar rang-barang bo'lishi kerak.

Ko'pincha dars shakllari pedagogning uslubiy qarashlari, shaxsiy ko'nikmalari va tabiati bilan xarakterlanadi. O'qituvchi o'quvchi bilan dars o'tish jarayoni qanchalik rang-barang bo'lishiga qaramay, ularning barchasiga tegishli bo'lgan mezonlar bor. Birinchi navbatda, buni biz o'qitishning ketma-ketlik tamoyillarida ko'rishimiz mumkin. Darsni nimadan boshlasa maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Eng avvalo, mashqlardanmi, etyudlardanmi yoki badiiy repertuarlardanmi, agar pyesalardan boshlash kerak bo'lsa, qaysi janrdan boshlash o'rinli bo'ladi degan savol amaliyotda muhimdir. Eng asosiysi, o'quvchini biror tartibga qattiq ko'nikib qolishi yaxshi natijaga olib kelmaydi. Har qanday darsni ma'lum tartibda va qiziqarli o'tkazish juda muhimdir.

Bolalar musiqa va san'at maktablari fortepiano sinfi mashg'ulotlarida dars jarayonlarini rejalashtirish va tashkil etishda o'quvchining imkoniyatlariga e'tibor qaratish, o'qituvchining o'z pedagogik mahorati, ijodkorligini namoyon etishi dars samaradorligini belgilovchi eng muhim jihatlardir.

## BOLALAR MUSIQA VA SAN'AT MAKTABLARIDA VOKAL-XOR MALAKALARI VA ULARNING AHAMIYATI

*Faxriddin Nuriddinovich Xalilov - p.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti*  
*Qutlug Hamdamovich Haydarov - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida vokal xor mashg'ulotlarida qo'shiq kuylash qoidalari haqida so'z boradi. O'qituvchilar dars faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda o'quvchilar bilan ishlash, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalik faoliyatdagi ahamiyati yoritib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассказывается о правилах пения на уроках вокального хора в детских музыкальных и художественных школах. Значение работы со студентами в установлении эффективности педагогической деятельности учителей, педагогической деятельности, важность владения видами компетенций, необходимых в каждом педагогическом процессе.

**Abstract:** This article talks about the rules of singing in vocal choir classes at children's music and art schools. The importance of working with students in establishing the effectiveness of teachers' teaching activities, pedagogical activities, and the importance of possessing the types of competences necessary in each pedagogical process.

**Kalit so'zlar:** musiqa, san'at, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

**Ключевые слова:** музыка, искусство, нравственное воспитание, эстетика, деятельность, педагогика, педагогическое мастерство, компетентность, компонент, специалист.

**Keywords:** music, art, moral education, aesthetics, activity, pedagogy, pedagogical skill, competence, component, expert.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston har tomonlama rivojlanish jarayonlarida o'z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yar ekan, musiqa madaniyati uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'inlarida qay tarzda amalga oshirilish muammolarini ham dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab oldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz"<sup>1</sup> deb ta'kidlar ekan, Yangi O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o'z yo'lini tanlashida mamlakat fuqarolari har tomonlama komillik sari intilib yashashi, davlat taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Yurt ravnaqi yo'lida yoshlarning bilim

egallashlari bilan bir qatorda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ma'nan yetuk, sog'lom fikrlovchi, yuksak kasbiy mahoratli qilib tarbiyalash bu yo'lida dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"<sup>2</sup> deb ta'kidlagan.

Musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'alarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"<sup>3</sup>. Musiqa "insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda tengsiz ahamiyat kasb etadi"<sup>4</sup>

Maktabdan tashqari ta'lim turiga kiruvchi bolalar musiqa san'at maktablari aynan bolalarga

<sup>10</sup> Muhammadjonova Z. "Fortepiano ansamblini o'qitish uslubiyati". Turon-Iqbol nashriyoti. Toshkent 2010-yil., 46-bet.

<sup>11</sup> Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014. Pg 10

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. President.uz sayti <https://president.uz/oz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.

<sup>2</sup> I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent., 2008. 61-bet.

<sup>3</sup> Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent., 2010-yil, 4-bet.

<sup>4</sup> Umarov E., Karimov M., Mirsaidova M., Oyo'jayeva G. Estetika asoslari. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009-yil. 123-bet.

musiqiy bilimlar berish, ularni professional musiqa va san'at turlari bilan shug'ullanishlarga yo'naltirilgan ta'limdir. "Bolalar musiqa va san'at maktabining asosiy maqsadi yosh avlodning musiqa va san'at turlariga qiziqishi va qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, ularni xalqimiz an'analariga va milliy qadriyatlarimizga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, ma'naviy va ma'rifiy haviyasini har tomonlama oshirishdan iborat"<sup>5</sup>.

Bolalar qo'shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo'lib, u o'quvchilarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o'rin egallaydi. Yaxshi qo'shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol topdiradi va tarbiyalaydi. Cholg'u kuylaridan farqli o'laroq qo'shiq kuylash kuchli emotsional ta'sir kuchiga ega. Chunki qo'shiqda musiqa badiiy birligi namoyon bo'ladi. qo'shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Qo'shiq inson aqliy kamolotini o'sishiga, dunyoqarashini kengayishiga, atrof-alam haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Qo'shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o'z kechinma va his-tuyg'ularini faolroq ifodalaydilar. Qo'shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o'zlashtirishga yordam beradi. Biror bir cholg'uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlardan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituvi, lad hissi rivojlanadi. Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini, boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'rovoqlik qilishga intiladi, jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib "kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongilligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqni so'z ma'nosi va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asarni mazmuni orqali hayotni o'rganadilar. Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat bajarishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

"Vokal-xor malakalari 6 (olti) turga bo'linadi:

1. Darsda qo'shiq kuylash holati
2. Ashulachilik nafasi
3. Ovoz hosil qilish
4. Sozlanish
5. Ansambli
6. Talaffuz"<sup>6</sup>

Qo'shiq kuylash - musiqiy tarbiyaning asosiy vositasidir. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi. Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar eshitish qanday xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolalarning nutqini rivojlantiradi. Musiqi o'qituvchisi (rahbari) bolalarni qo'shiq kuylash jarayonida so'zini kuyga mos qilib kuylash ularni nazorat qilib turadi. Bolalarga eng samarali ta'sir ko'rsatish sahna madaniyati-yu imo-ishoralari, mimikalar orqali amalga oshadi. A.S. Makarenkoning fikricha, "... mimikaga ega bo'lmagan, yuziga kerakli ifodani bera olmaydigan yoki kayfiyatini ushlab tur olmaydigan yaxshi o'qituvchi bo'lishi mumkin emas. Ishonchim komilki, kelajakda pedagogika oliy dargohlari ovozni, turishni, tanangizni va yuzingizni boshqarishni o'rgatadi, shakllantiradi va bunday qobiliyatlarsiz men o'qituvchini tasavvur qila olmayman"<sup>7</sup>

Bola ovozni o'ziga xos xususiyatlari bog'cha bolalarining ovozi nozik, yumshoq mayin bo'ladi. Bola tomog'i undagi bo'g'in bilan katta kichkina bo'ladi. Shuning uchun ovozi yumshoq va tovush rezonatori orqali kuchaytirib beriladi. Rezonator ikkiga bo'linadi:

1. Yuqori bosh rezonator.
2. Pastki ko'krak rezonatori.

Ko'krak rezonatori ovozni kuchaytirib beradi. Bosh rezonator esa ovozni jarangli qilib beradi. Kuylash - bu murakkab jarayon bo'lib, tovush hosil qiladi, ya'ni kuylash davrida eshitish va kuylash bir-biri bilan bog'liq bo'lishi kerak. Bolalar kattalarning nutqi va ohangiga taqlid qiladilar, ovozlari qushlarning, uy hayvonlarining tovushlarini ifodalaydilar. O'quvchilarda kuylash malakalarini samarali shakllantirishda, eng avvalo, inson ovoz apparati tuzilishini bilib olishimiz kerak. Og'iz, burun bo'shlig'i, halqum, traxeya, bronxlar va o'pkalar ovoz hosil qiluvchi a'zolar hisoblanadi. Asosiy ovoz apparati esa hiqildoqda joylashgan. Bolalarni kuylash ijodini rivojlantirish bo'yicha ish asta-sekin olib boriladi. Shuni inobatga olgan holda maktab ta'lim-tarbiya dasturida har bir sinf diapazoniga mos asarlar berilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, yosh bolalarda hali ovoz mushaklari rivojlanmagan bo'ladi. 7 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan vaqt ovoz mushaklarining shakllanish davri hisoblanadi. Unga qadar ovoz mushaklari

vazifasini paylar bajaradi. 11-13 yoshga kelib bolalarda hiqildoq mushaklari to'liq shakllanadi va 20 yoshga qadar rivojlanib boradi. Shundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, 11-13 yoshda ovoz hosil qilish kattalarnikidan farq qiladi. Buni qo'shiq o'rgatish jarayonida albatta inobatga olishimiz kerak. Bolalar ovozi to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish uchun o'qituvchi ovoz apparati o'zgarish xususiyatlari bilan birga, bolalarning kuylash imkoniyatlarini yaxshi bilish kerak. Chunki bolalarning yosh diapazoniga amal qilishlik ovozi to'g'ri tarbiyalashning, kuylash faoliyatini samarali amalga oshirishda muhim shartlaridan biridir. 6-7 yoshli bolalarda kuylash imkoniyati u qadar katta emas. Yuqorida aytib o'tilgandek, bu ularning ovoz apparatlari to'liq shakllanmaganligi bilan bog'liq.

Tanlangan asar o'quvchilarda anchayin qiyinchilik tug'dirsa o'qituvchi barcha imkoniyatlarni prognozlab hisobga olishi zarur. "Bunda tessitura, diapozon, matndagi qiyinchiliklar, ritm, garmonik struktura (tuzilish) ni sinchiklab o'rganib chiqishi lozim"<sup>8</sup>.

1-sinf o'quvchilari ovozi mi 1-sol' 1, fa 1-lya 1 diapazonida yaxshi jaranglaydi. Shuning uchun ham dastlab diapazon jihatdan chegaralangan, uncha murakkab bo'lmagan, sodda, ammo xarakterli va obraz jihatdan erkin qo'shiqlar kuylashga berilishi lozim. Asta-sekin qo'shiqlar diapazoni kengaytirib boriladi. Har bir qo'shiqda o'quvchilar kuy tovushlari va balandligini ko'rgazmalar va harakatlar orqali bilib boradilar. Bu esa ovoz va eshituv muvozanatini ta'minlaydi va tovush balandligini to'g'ri aniqlashga o'rgatadi. 2-sinf o'quvchilarning ovozlari esa mi 1 - si 1, diapazonida ancha tabiiy jaranglaydi. Shu bilan birga ushbu diapazon hali nozik va kalta ovoz paylari imkoniyati bilan ham belgilanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarning darslarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda yengil, zo'riqmay kuylashga erishish kerak.

Asta-sekin kuylash diapazoni kengaytirib boriladi. O'quv yili oxiriga kelib ushbu sinf o'quvchilari diapazoni re1 - re1 ga o'tadi. Uchinchi-to'rtinchi o'quv yillarida esa o'quvchilar ovozi do 1- re 2 (mi 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. To'rtinchi sinf o'quvchilari ovoz diapazoni do kichik oktava - mi 2 (fa 2) diapazonida to'liq jaranglaydi. Bu davrga kelib ular kuylash malakalariga ega bo'ladi. 5-6-sinfda 11-13 yoshli o'quvchilar bilan ishlash jarayonida o'qituvchi ishida qiyinchiliklar vujudga keladi. Chunki bu davrda hiqildoqning o'sishi natijasida bolalar ovozi «mutasiya» holati kuzatiladi. Mutasiya har kimda turlicha kechadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi bilishi va ovoziging individual o'zgarishlarni kuzatib borishi lozim.

"Bolalar ovozi muhofaza qilishda kuylash malakalari ustida ish to'g'ri olib borilishi kerak. Jamoa bo'lib kuylash malakalariga: 1)

Kuylashdagi holat (turib, o'tirib kuylash); 2) Nafas hosil qilish; 3) Tovush hosil qilish; 4) Soz; 5) Talaffuz; 6) Ansambli"<sup>9</sup>.

Qo'shiq kuylash holati deganda darsda o'quvchilarning o'tirishi va turish holati nazarda tutiladi. O'tirib yoki turib kuylaganda bosh, qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi haqida o'quvchilarga tushuntirish va doimo nazorat qilib, eslatib turish talab etiladi. Mazkur malakaning qoidalari gavdani qiyshaytirmasdan to'g'ri turish, o'tirib kuylaganda parta suyanchig'iga suyanmasdan, yelkalari yengil kerib, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yin va boshni to'g'ri ushlab, qo'llarni erkin pastga tushirish va kaftlarni tizzalar ustiga yengil qo'yib engashmasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin kuylash kabi holatlardan iboratdir.

Ma'lumki kuylashdagi nafas bilan fiziologik nafas o'rtasida ma'lum darajada farq bor. Fiziologik nafas bola tug'ilgan kundan tabiiy holda hayotining oxirigacha amal qila boshlaydi va aniq bir ritmdan ma'lum bir vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Ashula aytishdagi nafas esa qo'shiq xarakteriga qarab, tez, qisqa vaqt oralig'ida sodir bo'ladi. Nafas olish va uni chiqarish qo'shiq jumlasining chuzimiga, sur'atiga va harakterining ifodalanishiga qarab chuziladi. Sun'iy nafasdan aktiyorlar, suhandonlar va qo'shiqchilar foydalanadilar. Shuningdek, sun'iy ya'ni ehtiyojiga qarab olinadigan nafas, ashulachilik nafasi deyiladi, Ashulachilik nafasining quyidagi turlari mavjud: ko'krak nafasi; diafragma nafasi; qorin nafasi. Kichik bolalarning ko'krak nafasi hali tor, qisqa ekanligi sababli, ular nafasni ko'krak bilan oladilar, shu bois ashula aytganlarida yelkalarini ko'tarib, shoshilib va qo'shiq jumlasini, so'zini bo'lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun bolalarning yelkalarni ko'tarmasdan, osoyishta, vazmin nafas olishi va uni qo'shiq jumlasining oxiriga qadar bir maromda yetkazish, ayniqsa, so'zni bo'lib nafas olmaslikni o'rgatib borishi lozim.

Nafas olish malakasini ustida ishlash jarayonida bolalar diqqatini ovozlarning kuychan, ravon, yoqimli jaranglashiga jalb etiladi. Buning uchun gulni hidlagandek osoyishta va shovqinsiz nafas olishga o'rgatiladi. Ana shu malakani amalga oshirishda darsliklarda, qo'llanmalarda tavsiya etilgan vokal - xor mashqlarini kuylash, bolalar xorlarida ijro etilgan qo'shiqlarni magnit tasmlari orqali tashlash kabi amaliy mashg'ulotlarda shakllantirib boriladi. Bolalar mashq va qo'shiqlarni kuylaganda o'qituvchining qo'l ishoralariga qarab nafas olishga va uni tejab, rasamati bilan jumla oxirigacha yetkazishga odatlanib borishadi. Ayniqsa, dirijorlik holatlari «diqqat», «auf», «ijroni boshlash», «ijroni tugatish»larga rioya etib kuylashga o'rgatish nafasini rejaga solish uchun muhimdir. "Bolalar ovoz apparatining tuzilishi va rivojlanish

5 "Bolalar musiqa va san'at maktablari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.05.2016-yildagi 144-sonli qarori

6 Sharipova G., Asamova D., Xo'jayeva Z. "Musiqi o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuari". TDPU rizografi. Toshkent., 2014-yil. 22-bet.

7 Макаренко А.С. Педагогические сочинения: В 8 т. М.: Прогресс, 1983-1986. 172-бет.

8 Ortiqov T. "Musiqi o'qitish metodikasi". "Muharrir" nashriyoti. Toshkent., 2010-yil. 69-bet.

9 Soipova D. "Musiqi o'qitish nazariyasi va metodikasi". Fan va texnologiya markazining bosmaxonasi. Toshkent., 2009-yil. 80-bet.



xususiyatlarini bilish bolalar ovozi saqlash va to'g'ri tarbiyalash imkonini beradi<sup>10</sup> Bolalar nafasining hajmi imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashq va qo'shiqlarda nafas olish joylari oldindan belgilab qo'yiladi va ularni o'rgatish jarayonida amalga oshiradi.

## JISMONIY MADANIYAT MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA KASBIY-KONSEPSIYAVIY POTENSIALINI OSHIRISH

Gulxayo Xolboyeva Xolboyeva - p.f.b.f. doktori (PhD) O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Jismoniy tarbiyaning sifatini tubdan o'zgartiruvchi yana bir asosiy vazifasi – ta'limni shaxsning jismoniy, axloqiy va aqliy rivojlanishining haqiqiy mexanizmiga aylantirish funksiyasidir. Ijtimoiy taraqqiyotning barcha sohalarida shaxsning rolini kuchaytirish jismoniy tarbiya tizimini jamiyatning sog'lom inson salohiyatining asosiy manbai sifatida tubdan o'zgartirishning o'ta muhim vazifasidir. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun jismoniy tarbiya va sport sohasida yuqori pedagogik va ilmiy-tadqiqot madaniyatiga ega, keng ma'noda kasbiy ijodkorlikka qodir mutaxassislar talab etiladi. Faqatgina jismoniy tarbiya mutaxassisi o'zining shaxsiy, umumiy va professional madaniyati professional faoliyat loyihasini mintaqaning o'ziga xos ijtimoiy sharoitlariga moslashtirishga imkon beradigan ijtimoiy talablarga javob beradi.

**Аннотация:** Другой основной задачей, принципиально меняющей качество физического воспитания, является функция превращения воспитания в реальный механизм физического, нравственного и психического развития человека. Усиление роли личности во всех сферах общественного развития является важнейшей задачей коренного изменения системы физического воспитания как основного источника здорового человеческого потенциала общества. Для выполнения этих задач в области физического воспитания и спорта требуются специалисты с высокой педагогической и научно-исследовательской культурой, способные к профессиональному творчеству в широком смысле. Только специалист по физическому воспитанию отвечает тем социальным требованиям, которые позволяют его личностной, общей и профессиональной культуре адаптировать проект профессиональной деятельности к конкретным социальным условиям региона.

**Abstract:** Another main task that fundamentally changes the quality of physical education is the function of turning education into a real mechanism of physical, moral and mental development of a person. Strengthening the role of the individual in all areas of social development is a very important task of fundamentally changing the physical education system as the main source of healthy human potential of the society. To carry out these tasks, specialists with a high pedagogical and scientific-research culture, who are capable of professional creativity in the broad sense, are required in the field of physical education and sports. Only a physical education specialist meets the social requirements that allow his personal, general and professional culture to adapt the project of professional activity to the specific social conditions of the region.

**Kalit so'zlar:** konseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik, loyihalash, gumanitar, model, intellektuallik, kognitivlik, kreativlik, kommunikativlik.

**Ключевые слова:** концептуально-теоретический, конструктивно технологический, дизайнерский, гуманитарный, модельный, интеллектуальность, познавательный, творческий, коммуникативный.

**Keywords:** conceptual-theoretical, constructive-technological, design, humanitarian, model, intellectuality, cognitive, creativity, communicative.

Oliy ta'limdagi sifat o'zgarishlari kasbiy mahorat bilan keng umumiy oliy ta'lim tizimining maqsadlarini yuqori gumanitar dunyoqarashni uyg'unlashtirgan

10 Xo'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K. Tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent, 2008-yil. 41-bet

mutaxassislarni tayyorlashga yo'naltirishda namoyon bo'ladi. Shu munosabat bilan oliy ta'lim tizimida integratsion jarayonlarning ustunligi yuzaga keladi, unda gumanitar bilimlar yetakchi rollardan biri hisoblanadi<sup>1</sup>.

Mutaxassislar oliy ta'limni rivojlantirishning asosiy vazifalaridan biri sifatida uni modernizatsiya qilish, mazmun-mohiyatini insonparvarlashtirish va insonparvarlashtirish tamoyillari asosida takomillashtirishda ko'rmoqda.

Bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga qaratilgan an'anaviy sotsiotsentrik ta'lim yondashuvidan farqli o'laroq, talabning qobiliyatlarini maksimal darajada ochib berishga, kasbiy faoliyatda uning individual xususiyatlarining barcha ko'p qirraliligi va o'ziga xosligini anglashga imkon beradigan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>2</sup>.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aslida universitetda jismoniy tarbiyani gumanitarizatsiya qilish prinsipini amalga oshirishning ajralmas tavsifini taqdim etadigan, uning mazmunli namoyon bo'lishi va amalga oshirish tartibini ochib beradigan ishlar mavjud emas. Jismoniy madaniyatdan uning gumanitar salohiyatining xilma-xilligida foydalanish hozirgi kunga qadar mutaxassislarni tayyorlash tizimida to'liq aks ettirilmagan<sup>3</sup>.

Oliy ta'lim nazariyasi va amaliyotida universitetning ijtimoiy-madaniy makonida gumanitar madaniyat etishmasligini bartaraf etishda jismoniy madaniyatning mazmunli va protsessual imkoniyatlari tushunilmagan va oshkor etilmagan, bu muammoning kontseptual-nazariy, konstruktiv-texnologik va uslubiy-amaliy jihatdan rivojlanmaganligi kuzatilmogda.

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

aniqlangan qarama-qarshiliklarni hisobga olgan holda tadqiqot muammosi aniqlandi:

universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishni ta'minlaydigan nazariy va uslubiy qoidalar, etakchi tendentsiyalar, tamoyillar va psixologik-pedagogik sharoitlar to'plami qanday?

Universitetda jismoniy tarbiya bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etish uchun nazariy va uslubiy asoslarni ishlab chiqish va asoslash.

Universitetda mutaxassislarni tayyorlashning yaxlit jarayonida talabalarning jismoniy tarbiyasining mazmuni.

Gumanitar fanlar bo'yicha dizayn va qurilish

universitetda jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning yo'naltirilgan mazmuni.

Muammo, maqsad, obyekt va mavzu asosida quyidagi tadqiqot vazifalari aniqlanadi:

- gumanitar obyektlarni loyihalash va tashkil etishning nazariy va uslubiy asoslarini tashkil etuvchi qoidalar to'plamini asoslash. Oliy o'quv yurtlarida jismoniy tarbiyaning yo'naltirilgan mazmuni;

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishning konseptual yondashuvlarini aniqlash;

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash modelini ishlab chiqish;

- o'quvchilar jismoniy tarbiyasida ta'limni insonparvarlashtirishning yetakchi yo'nalishlari, didaktik tamoyillari va psixologik-pedagogik shartlarini aniqlash;

- o'quvchi shaxsi jismoniy madaniyatini shakllantirish sharoitida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini tajriba-sinov tekshirishni amalga oshirish;

- insonparvarlik yo'nalishidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash shaxs jismoniy madaniyatining mazmunli xususiyatlari bilan jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmuni;

- universitetda jismoniy tarbiya mazmunini insonparvarlashtirish tamoyillari asosida loyihalash va tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot farazi universitetda jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etish jarayoni samarali bo'ladi, agarda:

- uslubiy tamoyil sifatida jismoniy

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" PF-5368-son farmoni. 2018-yil 5-mart.

2 2019-2023 O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi 2019-yil 15-fevral.

Meliyev H. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. T. Iqtisod-Moliya 2012-y o'quv qo'llanma., A.O.Abdurquddusov, H.F.Rashidov. Kasb-hunar pedagogikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: O'MKHTTKMO va UQTI, 2011. - 108 b. 3. I.J.Ishmuhammedov. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. Ilmiy jurnal. -T.: TDP, 2004. -44 b. 4.

3 Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojiev X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569.Xolboyeva G.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari // SamDU ilmiy axborotnomasi. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144.Kholboeva, Gulhaya Kholboeva (2021) "Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes", Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1 : Iss. 2 , Article 1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/>

madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish g'oyasiga asoslanadi;

- jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalash va tashkil etishga kontseptual yondashuvni ishlab chiqdi;

- pedagogik obyektlarni tizimli tashkil etish tamoyillariga asoslangan va shaxsning jismoniy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini loyihalashning ko'p bosqichli modeli ishlab chiqildi;

Tadqiqot metodlari. Vazifalarni hal qilish va tadqiqot farazsini tekshirish uchun quyidagi tadqiqot usullari qo'llanildi: falsafiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik va maxsus adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, universitetlarning jismoniy tarbiya kafedralarining shaxsiyat muammolari bo'yicha tajribasini tahlil qilish va umumlashtirish. Jismoniy tarbiya jarayonida bo'lajak mutaxassisni shakllantirish, talabalar va o'qituvchilaridan so'rovnomma va anketa olish, o'z pedagogik faoliyatini retrospektiv tahlil qilish, modellashtirish, ekspert baholash usuli, gumanitar yo'naltirilgan mazmunning ishlab chiqilgan modelini aprobatsiya qilish va tuzatish bo'yicha pedagogik tajribalar o'tkazildi. Jismoniy tarbiya bo'yicha ta'lim, tajriba ishtirokchilarining harakatchanligini nazorat qilish testlari, statistik ma'lumotlarni qayta ishlashning matematik usullari qo'llanildi.

Tajriba-sinov ishlari dasturining amalga oshirilishi taklif etilayotgan jismoniy madaniyat ta'limining gumanitar-yo'naltirilgan mazmuni modelining samaradorligini tasdiqladi.

Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunining insonparvarlik ahamiyatini aniqlashda ekspert protsedurasi quyidagilardan iborat edi: talabalar tomonidan o'z-o'zini diagnostika qilish, bu subyektivlik prinsipiga va malakali va tajribali universitet o'qituvchilarining ekspert bahosiga mos keladi.<sup>4</sup>Tanlangan mezonlar bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish ko'rsatkichlarini (TMIK) kompleks monitoringi tajriba-sinov va nazorat guruhlarida sezilarli farqlarni qayd etish imkonini berdi (1-rasm q.). Ekspert baholash natijalariga ko'ra, birinchisi barcha sakkizta mezon bo'yicha o'quv manbaalarining insonparvarlik qiymati ko'rsatkichlarini yaxshilashning aniq progressiv xarakterini ko'rsatdi, bu ishlab chiqilgan dasturning samaradorligini ko'rsatadi.

Natijalar tahlili. Tajriba-sinov guruhlarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining qiymat-semantik tashkil etilishining o'sishi TMIK 0,89 (yuqori daraja), nazorat guruhlarida

- 0,30 (past daraja) bilan aniqlandi; an'anaviylik mezoniga ko'ra, tajriba-sinov guruhlarida TMIK 0,78 (o'rtachadan yuqori daraja), nazoratda - 0,27 (past daraja); TMIKni amalga oshirish amalga oshirilayotgan ijodiy ta'lim muhiti mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,86 (yuqori daraja) va 0,39 (past daraja) ni tashkil etdi; tashqi kontekst mezoniga ko'ra, mos ravishda 0,89 (yuqori daraja) va 0,24 (past daraja); "o'zini o'zi boshqarish"ning namoyon bo'lish mezoniga ko'ra TMIK 0,88 (yuqori daraja) va 0,30 (past daraja) edi.

Agar tajriba boshida solishtirilgan guruhlarida 60,6% dan 80,5% gacha talabalar va ekspertlar "men"ning namoyon bo'lish mezonini "mazmunda ifodalangan" deb baholagan bo'lsa, tajriba oxirida talabalarining 74% va o'qituvchilarning 88,9 foizi uning tajriba-sinov mazmunda ijobiy namoyon bo'lishi haqida o'z fikrlarini o'zgartirdilar. Ayniqsa, o'quvchilarda o'z-o'zini bilish va o'z-o'zini rivojlantirishga doimiy ehtiyojning namoyon bo'lishidagi progressiv o'zgarishlar sezildi. Nazorat guruhida bu ko'rsatkich deyarli o'zgarishsiz qoldi.

"Jismoniy madaniyat" fanining mazmuni uning gumanitar mohiyatini belgilaydi va talabalarni jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlarini bilan tanishtirishda bir qator umumiy ta'lim va kasbiy yo'naltirilgan fanlarga kiritadi, ular orasida shaxsning o'zini o'zi o'zgartirish, o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi boshqarish bilan bog'liq qadriyatlar mavjud. 1-rasmda jismoniy madaniyatning gumanitar qadriyatlarini pofillash natijasida talabalarining o'zini o'zi o'zgartirish jarayoniga qo'shilishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan. Tajriba-sinov guruh talabalarini psixofiziologik qobiliyat va imkoniyatlarini aniqlashda, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishda sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega; o'z istagini mukammal o'rganishga intilish ((o'z-o'zini anglash va o'z-o'zini bilish qadriyatlarini); kognitiv faoliyat, kognitiv faoliyat usullarini o'zlashtirish, o'z-o'zini o'rganish qobiliyatlarini (o'z-o'zini tarbiyalash va o'zini takomillashtirish qadriyatlarini); jismoniy holatni o'z-o'zini boshqarish, jismoniy tarbiya va sport faoliyatini belgilangan maqsadga muvofiq ravishda tuzatish va qayta tashkil etish, o'z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati, psixofiziologik tartibga solish usullarini (o'z-o'zini tashkil etish va o'zini o'zi boshqarish qadriyatlarini) bilish. Talabalarining nazorat guruhlarida esa bu ko'rsatkichlar zaif ifodalangan.

Tadqiqot farazsini tasdiqlash uchun muhim masala talabalarining o'zini o'zi


4 Черняев В.В. Организация и управление учебным процессом в период реформирования высшего образования // Проблемы инновационного образования в системе непрерывной подготовки учительских кадров: Материалы третьей области, науч. - практ. конф. - Липецк, 1998. - С.21-26.20. Черняев В.В. Гуманитарные ценности физической культуры будущего учителя // Магистр. -2002. - Учебное пособие - С. 87 - 95. Хо'jayev N, Tojiboyeva D, Mamaraximov B, N.Shomurodova Kasbiy ta'lim metodikasi Toshkent.: Iqtisodiyot, O'quv qo'llanma. 2007-190 b.

o'zgartirish jarayoniga jalb qilishning psixologik mexanizmlarini ochib beruvchi ko'rsatkichlarni aniqlash edi.

1-jadval Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat bo'yicha ta'lim mazmunini insonparvarlashtirish

№	Mezon asoslari	Asosiy qadriyatlar
1	Qadriyatlar qiymati	1. Insonparvarlik 2. Individuallik 3. Insonparvarlik bilimi
2	Madaniy	1. Intellektuallik 2. Kognitivlik 3. Yaxitlik
3	Innovatsion	1. Muammoli 2. Kreativlik 3. taqdiylik
4	Tizimli va tizim faoliyat	1. ma'naviy va jismoniy mohiyatni amaliy o'zgartirish 2. Professionallikda yo'naltirish 3. Faol harakat faoliyati
5	Koventsiyal	1. Variantlilik 2. Boshqarish 3. Alternativlik
6	Ijodiy bilish muhiti	1. Insonparvarlikning mikroijodiy muhiti 2. Kommunikativlik 3. O'qituvchi statusining tizimli yaratuvchilik roli
7	Yuqori kontekstlik	1. Universitetdan tashqari kommunikatsiya 2. Berdavoatlik 3. Targ'unlik
8	O'z-o'zini namoyon qilish	1. O'z taqdirini o'zi belgilash 2. O'z-o'zini bilish 3. O'z-o'zini o'zgartirish

O'z-o'zini anglash, o'zini o'zi belgilash, o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini o'zi anglash va o'zini o'zi boshqarish jarayonlarini o'rganish



uchun o'z-o'zini anglash testi qo'llanildi. Uning yordami bilan quyidagilar baholandi: o'quvchilarning istak va ehtiyojlariga munosabati, o'ziga ishonchi (o'zini o'zi anglashi); shaxsning ruhiy salomatligi, uning yaxlitligi, mustaqilligi va erkinligi (avtonomiya); o'quv va kasbiy faoliyatga, hayotga (ijodkorlikka) ijodiy munosabat;


boshqalar bilan do'stona munosabatlar o'rnatish qobiliyati (aloqa). Muvaffaqiyat motivatsiyasi - natijalarni yaxshilashga intilish, o'z maqsadlariga erishishda qat'iyatlilik - butun hayotga ta'sir qiladigan asosiy shaxsiy xususiyatlardan biridir. Talabalarining jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida o'z taqdirini o'zi belgilashga tayyorligi, uni takomillashtirish u'zlarini izlash to'g'risida qaror qabul qilish uchun asos bo'lib, unga erishish zarurligi to'g'risidagi anketa ma'lumotlari bo'ldi.

1-rasm. Natijada o'quvchilarning o'z-o'zini o'zgartirish jarayoniga jalb etilishi

Tajriba oxirida jismoniy madaniyatning insonparvarlik qadriyatlarini ichkilashtirish: 1 - o'z-o'zini baholash va o'zini o'zi bilish, 2 - o'z taqdirini o'zi belgilash, 3 - o'zini o'zini tushunish va o'zini o'zi anglash, 4 - o'zini o'zi rivojlantirish. o'z-o'zini takomillashtirish, 5- o'z-o'zini tashkil etish va o'z-o'zini tartibga solish (1-rasm).

Tajriba davomida olingan ma'lumotlarni tahlil qilish sub'ektlar guruhlarida talabalarining shaxsiy fazilatlarining jiddiylikni aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, barcha tanlangan ko'rsatkichlar bo'yicha tajriba guruhi talabalarini sezilarli ijobiy o'zgarishlarni o'zlarida sezishgan. (p < 0.01 darajasida) o'z-o'zini

Ko'rsatkichlar ishonchligining o'zgarishi, %



2-rasm. Talabalar guruhlarida shaxsiy fazilatlarini o'z-o'zini o'zgartirishga tayyorlik ko'rsatkichlarining jiddiylikni o'zgartirish.

anglash, ijodkorlik va erishish istagi zarurati nuqtai nazaridan o'zgarishlar sezilarli darajada edi. Tajriba davri uchun nazorat guruhida o'zgarishlar ifoda etilmaydi (2 rasmga q). Olingan natijalar gumanitar yo'naltirilgan ta'lim mazmunining talabalarining o'zi tomonidan ishlab chiqilgan, o'zi tomonidan tashkil etilgan va boshqariladigan talabalarining subyektiv faoliyatiga ta'siri haqidagi farazni tasdiqlaydi.

Tajriba-sinov tadqiqot natijalari ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmunini

o'zlashtirishda tajriba-sinov guruhlarda shaxsning jismoniy madaniyati tarkibiy qismlari (SHJM) rivojlanishining barqarorligini aniqlashga imkon berdi. Ushbu ta'sir diagrammalar tomonidan aniq ko'rsatilgan (2-rasmga q.).

Xulosalar. Jismoniy tarbiya sohasida oliy ta'limni modernizatsiya qilish nuqtai nazaridan rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri uning mazmunini insonparvarlashtirish ekanligi aniqlandi. Uning loyihasi va tashkil etilishi ta'lim amaliyoti talablariga samarali javob beradi. Jismoniy madaniyatning gumanitar ahamiyati mutaxassis shaxsni har tomonlama yetuk rivojlantirishga, talabalarning inson va ularga yo'naltirilgan tizimli bilimlarini shakllantirishga, shaxsning o'zini namoyon qilishi va o'zini anglashi uchun qulay imkoniyatlar yaratishga, talabalarning o'zlarining muhim kuchlarini sog'lom va samarali hayot tarzida to'liq amalga oshirishga tayyorligini faollashtirishda namoyon bo'ladi.

1. Jismoniy madaniyat ta'limini

insonparvarlashtirishning mazmunli jihati murakkab, ko'p qirrali hodisa bo'lib, u quyidagilarni nazarda tutadi: uning mazmunida insonparvarlik qadriyatlarini aniqlash; o'quvchilarning ma'naviy va jismoniy kuchlari va qobiliyatlarini uyg'unlashtirish; ularni hayotning tabiiy va ijtimoiy sohalarida tashabbuskorlik va mas'uliyatni tarbiyalash; shaxsiy va kasbiy o'sish, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi anglash imkoniyatlarini ta'minlash; bo'lajak mutaxassis shaxsini o'z-o'zini rivojlantirish va o'zini o'zi takomillashtirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

2. Jismoniy madaniyat bo'yicha ta'limning gumanitar yo'naltirilgan mazmuni modeli ishlab chiqildi, bu evolyutsion yo'l bilan amalga oshiriladigan jismoniy tarbiyaning innovatsion tizimini loyihalash strategiyasini asoslash imkonini beradi; pedagogik loyihani mantiqiy va didaktik loyihalashda amalga oshirish, uning natijalarini amaliyotga tatbiq etildi.

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA O'QITUVCHINING PEDAGOGIK MAHORATI VA KASBIY KOMPETENSIYASINING O'RNI

*Dilrabo Ibrohimovna Xidirova - magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'limda musiqa madaniyati darslarini tashkil etish, unda o'qituvchi kasbiy mahorati ahamiyati haqida so'z boradi. Bugungi kun musiqa o'qituvchilari faoliyati samaradorligini, pedagogik faoliyatini yo'lga qo'yishda, avvalo, unda pedagogik mahorat, har bir pedagogik jarayonda zarur bo'lgan kompetensiya turlariga egalikning ahamiyati yoritib o'tilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится об организации занятий музыкальной культурой в общем среднем образовании, а также о важности профессионального мастерства педагога. Подчеркнута важность педагогического мастерства, владения видами компетентности, необходимыми в каждом педагогическом процессе, в становлении эффективности деятельности учителей музыки и педагогической деятельности на сегодняшний день.

**Abstract:** This article talks about the organization of music culture classes in general secondary education, and the importance of the teacher's professional skills. The importance of pedagogical skill, the possession of the types of competence necessary in each pedagogical process in the establishment of the effectiveness of music teachers' activities and pedagogical activities of today has been highlighted.

**Kalit so'zlar:** musiqa madaniyati, axloqiy tarbiya, estetika, faoliyat, pedagogika, pedagogik mahorat, kompetensiya, komponent, mutaxassis.

**Ключевые слова:** музыкальная культура, нравственное воспитание, эстетика, деятельность, педагогика, педагогическое мастерство, компетентность, компонент, специалист.

**Keywords:** music culture, moral education, aesthetics, activity, pedagogy, pedagogical skills, competence, component, specialist.

Ta'lim sohasi rivojida pedagogik kadrlarni muhim ahamiyatga ega. Yangi O'zbekiston bilimlari, zamontalablariga mostarzd tayyorlash iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o'z yo'lini

tanlashida kadrlar tayyorlash masalasini ham dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Bu vazifani amalga oshirishda uzluksiz ta'limning muhim bosqichi bo'lgan Oliy ta'lim muassasalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Oliy dargohlarda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar bilim va salohiyati umumiy o'rta ta'lim sifatini belgilab beradigan eng zarur omillardan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son Qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonidabelgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda bo'lajak pedagoglarni o'z faoliyatlarida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llab, olingan bilim, ko'nikma, malakalarini amalga tatbiq eta oladigan qobiliyatli, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida Oliy ta'lim muassasalari rivoji, pedagogik kadrlar tayyorlashga e'tibor qaratilgan. "Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi...Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir"<sup>1</sup>.

Oliy dargohlarda pedagogik faoliyatga tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilar bilim va salohiyati umumiy o'rta ta'lim sifatini belgilab beradigan eng zarur omillardan. Musiqa ta'limi maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'limdagi bola ma'naviyati, madaniyati, estetik didi, dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim fan bo'lib, pedagoglarga alohida mas'uliyat yuklaydi. Umumiy o'rta ta'limda o'rgatilayotgan har bir fanning maqsad va vazifalari belgilab qo'yilgan. Musiqa

madaniyati fanining ham o'z maqsad, vazifalari bo'lib, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini, milliy g'urur hamda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish, tafakkurini kengaytirish, bolalardagi ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirish hamda tashabbuskorlikni tarbiyalashdan iboratdir.

"Musiqa madaniyatini o'quvchilar ongida shakllantirish asnosida fan o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi:

- O'quvchilarga berilayotgan musiqiy ta'lim-tarbiyani hayotga bog'lab olib borish;
- O'quvchilarda musiqa san'atiga mehr, qiziqishi o'stirish;
- O'quvchilarda musiqiy-badiiy didni va musiqa faoliyatlariga ehtiyojini rivojlantirish;
- Musiqa haqida bilim, malakalar doirasini tarkib toptirish;
- Iqtidorli o'quvchilarning musiqiy rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish;
- Musiqiy faoliyatlar jarayonida badiiy-ijodkorlik his-tuyg'ularini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash"<sup>2</sup>.

Demak, musiqa ta'limining oliy maqsadi: "musiqani idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o'z milliy an'analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an'ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir"<sup>3</sup>Zero, o'qituvchi "pedagoglik kasbiga doir bilimlarni, ya'ni psixologik, pedagogik malaka va mahoratni, ilmiy-nazariy va amaliy bilimlarni puxta egallagan bo'lishi"<sup>4</sup>zarur. O'qituvchining kasbiy va pedagogik mahorati deganda ustuvor ijtimoiy-siyosiy, umummilliy, maxsus, psixologik-pedagogik va kasbiy-metodik bilim va ko'nikmalar tizimi asosida olingan kasbiy faoliyatini amalga oshirish qobiliyati tushuniladi.

Pedagogik mahorat tushunchasiga esa hozirgi zamon psixologiya va pedagogikasida turlicha ta'rif beriladi. "Pedagogik mahoratga ega mutaxassis bu - o'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohalarini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis"<sup>5</sup>dir. Pedagogik mahorat tushunchasi quyidagicha izohlanadi:

1 O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi Qonuni, 23.09.2020-yildagi O'RQ-637-son. 11-modda.

2 Ho'jayeva M. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent, 2008. 10-11-bet.

3 Yusupova N. Musiqa savodi, metodikasi va ritmika. Musiqa nashriyoti. Toshkent, 2010. 4-bet.

4 Mavlonova R., Abdurahimova R. Pedagogik mahorat. Fan va texnologiya nashriyoti. T., 2009. 11-bet

5 Xolliqov A "Pedagogik mahorat". Iqtisod-moliya nashriyoti, Toshkent, 2011. 11-bet.

- Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlikning yuqori ko'rsatkichi;

- O'z faniga doir mukammal bilimlar sohibi;

- Pedagogika va psixologiya oid bilimlarni ham puxta o'zlashtirib, o'z kasbiy faoliyatida ularni ishlata oladigan shaxs;

- O'quv va tarbiyaviy ishlar uslubiyatini mukammal biladigan pedagog.

Musiqaning o'qituvchisining pedagogik mahorati bir-biri bilan bog'liqlikda bo'lgan bir nechta tarkibiy qismlardan iborat:

a) Pedagogik faoliyatning eng muhim tarkibiy qismi - o'qituvchining ijtimoiy rivojlanishning ehtiyojlari, jamiyat tomonidan shaxsga qo'yiladigan asosiy talablarni bilishidir. Dunyoqarash jihatida bo'lajak musiqachining o'qituvchisi faoliyatida, ijodiy izlanishlarida ijtimoiy yo'nalishlarni belgilaydi. Bolalar musiqaning o'qituvchisining haqiqiy dunyoqarashi, uning u yoki bu voqelik hodisasiga shaxsiy munosabatini yaxshi his qilishadi va qaysidir tomondan o'zlariga singdirishga harakat qilishadi.

b) Pedagogika, psixologiya va fiziologiyada to'plangan kasbiy pedagogik bilimlar. O'qituvchi doimo o'zgarib turadigan pedagogik vaziyat bilan shug'ullanadi. O'qituvchilarning darsdan-darsga musiqadagi bilimi, tajribasi boyitiladi, shu bilan birga ularning aqliy, axloqiy rivojlanishi bir-biridan farqlanadi. Bularning pedagogik usullarini o'zgarishini, muayyan vaziyatda eng samarali bo'ladiganlarini izlash va qo'llashni talab qiladi.

c) Pedagogik faoliyatning keyingi tarkibiy qismi - bu yuksak axloq, uning yetkazib beruvchisining estetik madaniyati. Sababi musiqaning "insonni estetik tarbiyalashda, uning estetik didini o'stirishda tengsiz ahamiyat kasb etadi"<sup>6</sup> Bolalarga eng samarali ta'sir ko'rsatish sahna madaniyati-yu imo-ishoralari, mimikalar orqali amalga oshadi.

d) Keyingi komponent tadqiqotdir. Zamonaviy maktabda global o'zgarishlar jarayonlari sodir bo'lib, bo'lajak o'qituvchidan o'z faoliyatini yangi pedagogik bosqichga yo'naltirishni talab qiladi. Bo'lajak musiqachining o'qituvchisining tadqiqot komponentini o'zlashtirishi pedagogik hodisalarga ijodiy yondashish, ilmiy-pedagogik tadqiqot usullarini o'zlashtirish, boshqa o'qituvchilar tajribasi va o'z tajribasini tahlil qilish asosidagi o'zaro bog'liq harakatlarning izchil tizimidir.

Bugungi jadal rivojlanayotgan

davrdan ta'limni yanada takomillashtirishni dars jarayonida innovatsiyalarning turli shakllaridan tadbiiq etmasdan turib amalga oshirishning imkoni yo'q. Bu esa ta'lim va tarbiyani o'rganuvchi pedagogika sohasiga "kompetensiya", "kompetentlik", "kasbiy kompetensiya" kabi tushunchalar kirib kelishiga asos bo'layotgani ma'lum. "Hozirgi zamonda har bir mutaxassisning o'z sohasida ustuvor o'rin egallashida, har tomonlama kasbiy raqobatga bardoshli bo'lishida pedagogdan pedagogik mahorat asosi bo'lmish - kasbiy kompetentlikka egalik va uni izchil ravishda oshirib borishni talab etmoqda."<sup>7</sup> Har bir jarayon, mashg'ulotda o'qituvchi o'z kasbiy kompetensiyasini namoyon etishi zarur.

"Kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik" ni anglatadi.

"Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir"<sup>8</sup>. Inson o'z sohasida professional tarzda bo'lishi mumkin, lekin masalalarni hal etishda kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish qiyin masala.

Bir qancha ilmiy izlanishlarda tadqiqotchilar pedagogik va psixologik nuqtai nazardan "kasbiy kompetensiya" tushunchalariga to'xtalib o'tgan. Jumladan, o'z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi 4 ta tarkibiy asoslardan iborat deb aytib o'tadi:

- Ijtimoiy kompetentlik;
- Shaxsiy kompetentlik;
- Individual kompetentlik;
- Maxsus kompetentlik"<sup>9</sup>

Bo'lajak pedagoglar yuqorida sanab o'tilgan kompetensiyalarga ega bo'lishi uning faoliyatida yuqori malakali pedagog bo'lib shakllanishida ahamiyatli jihatlardir. Bu kompetensiyalarning har birini aynan bo'lajak musiqachining o'qituvchilar uchun bog'liqlik tomonidan ko'rib o'tish ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish ahamiyatini anglashga yordam beradi.

Ijtimoiy kompetentlik - ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish, turli malakalarga egaligi, muloqotga kirisha

olishi, kasbining etika qoidalarini bilishi, raqobatbardoshlik, o'z mutaxassisligiga ijtimoiy qiziqishni uyg'ota bilish, jamoada o'zining shaxsiy kasbiy sifatleri bilan ajralib turishni anglatadi. Musiqaning o'qituvchilari boshqa pedagogik sohalar singari dars jarayonida sinf muhitini yarata olishi, o'quvchilar bilan bevosita muloqotni yo'lga qo'yishi dars mazmuni, samaradorligini belgilashi ma'lum.

"Shaxsiy kompetensiya - kasbiy jihatdan o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyat davomida o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish, universiallik, ijodiy yo'nalganlikdir"<sup>10</sup>

Individual kompetentlik - o'z-o'zini boshqarish, kasbiy rivojlanish, o'zini professional tarzda qabul qila olish, tashkilotchilik, turli tajribalar orqali o'zini rivojlantirish, professional o'sishda o'z shaxsiy yo'lini belgilash va yangiliklar yaratish. Har bir mavzu o'ziga xosligi, mazmuni bilan farqlidir, bu esa pedagogning darslarga alohida yondashuvini talab etadi.

Maxsus kompetensiya - o'z kasbining mohiyatini anglab yetish, yuqori natijalarga erishish, kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etishga tayyorlanish, vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyatdagi natijalarni real baholash bo'lib, maxsus kompetensiya o'z ichiga yana bir qancha kompetensiya sifatlerini qamrab oladi: psixologik, metodik, information, kreativ, innovatsion, kommunikativ kompetentlik.

O'qituvchilarda bo'lishi zarur bo'lgan kompetensiyalar o'qituvchi yordamida shakllanishi va oshirib borilishini inobatga olsak, pedagogda tayanch va fanga oid kompetensiyalar albatta rivojlantirilgan bo'lishi shart. "O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi, uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Kommunikativ kompetensiya - ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi - media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishlashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini

shakllantirishni nazarda tutadi.

O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi - doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi - jamiyatda bo'layotgan voqea, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Milliy va umummadaniy kompetensiya - vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi - aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarni tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdorligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur kompetensiyalar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi"<sup>11</sup>

Bunday sifatlarga ega pedagog bo'lish hozirgi zamon musiqaning madaniyati fani o'qituvchilari oldiga ham bir qator dolzarb masalalarni qo'yishi tabiiy. Ko'p qirrali yetuk mutaxassis sifatida shakllanish uchun esa o'z ustida tinimsiz ishlash, pedagogik mahoratni rivojlantirib borish musiqaning o'qituvchilarining asosiy vazifalaridir. Darslarning samaradorlik ko'rsatkichlari o'qituvchi va o'quvchidagi tayanch va fanga oid kompetensiyalar qay darajada egallanganligi va rivojlantirilganligi bilan uzviy aloqadorlikda bo'lar ekan, bo'lajak pedagogning ayni ushbu qobiliyatlari ustida ishlash bu asosiy vazifa sanaladi.

6 Umarov E., Karimov M., Mirsaidova M., Oyxoyeva G. Estetika asoslari. Cho'pon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009. 123-bet.

7 Pieter Koortzen "A competence executive coaching model: original research" et al., SA Journal of Industrial Psychology, 2010.

8 Utanov U.Q., Qosimova O.X. "Xalq ta'limi xodimlarini kasbiy kompetentligini rivojlantirish" // "Pedagogik innovatsiyalar va yuqori samaradorlikka yetaklovchi ta'limiy g'oyalar" respublika

ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi to'plami. Termiz, 2020. 722-bet.

9 Маркова А.К. Психология профессионализма. М., 1996. 37-бет.

10 Monica Brophy "Competencies: a new sector" et al., Journal of European Industrial Training, 2002. Pg 5.

11 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 06.04.2017 yildagi 187-sonli "umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" q qarori. 1-bob.

## BO'LAJAK JISMONIY MADANIYAT O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH

*Alisher Isakovich Olimov - p.f.b.f.d. (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti*  
*Dilshod Xolboyevich Eryigitov -- dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalaridagi jismoniy madaniyat o'qituvchilarini kasbiy-pedagogik tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni, masofaviy ta'lim texnologiyasi va masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini, zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagoglarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье использование информационных и коммуникационных технологий в профессионально-педагогической подготовке учителей физической культуры высших учебных заведений, технологии дистанционного обучения и дидактического обеспечения дистанционного образования, теоретико-педагогические основы развития информационно-коммуникативной компетентности педагогов. в среде современных информационных технологий.

**Abstract:** In this article, the use of information and communication technologies in the professional-pedagogical training of physical culture teachers in higher education institutions, distance learning technology and didactic support of distance education, theoretical-pedagogical foundations of the development of information-communicative competence of pedagogues in the environment of modern information technologies are explained.

**Kalit so'zlar:** kasbiy tayyorgarlik, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, masofaviy ta'lim, slaydlar, videolavhalar, maultimedia, elektron darsliklar.

**Ключевые слова:** обучение, информационно-коммуникационные технологии, дистанционное обучение, слайды, видеоролики, мультимедиа, электронные учебники.

**Keywords:** training, information communication technologies, distance education, slides, videos, multimedia, electronic textbooks.

Dolzarliligi. Respublikamiz oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa, yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish"<sup>1</sup> masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. "Sport ta'limi muassasalarida trener va mutaxassislarning sifat tarkibini, xususan oliy ma'lumotli xodimlar sonini bosqichma-bosqich oshirish" dolzarb vazifa hisoblanmoqda<sup>2</sup>. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi pedagogika oliy ta'lim muassasalarida kasbiy tayyorlash jarayonini takomillashtirish, bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislari sport ixtisosligi vositalari orqali kasbiy tayyorgarlikni samarali shakllantirishning ilmiy asoslangan yo'llarini izlab topishni talab qiladi. Shu bilan birga, bo'lajak pedagoglar va oliy ma'lumotli jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning innovatsion shakllari va uslublarni ishlab

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2017-йил 3-июндаги ПҚ-3031-сон "Жисмоний тарбия ва оммавий спортни янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. «Халқ сўзи» газетаси 2017-йил 6-июн, 111 (6805)-сон.

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва спортни янада такомиллаштириш ва оммалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги. ПФ – 5924-сон Фармони, 24.01.2020 й. <http://lex.uz>

chiqish bo'yicha bir qator muammolar mavjud. Jismoniy madaniyat o'qituvchilarini kasbiy –pedagogik tayyorlashda axborot kommunikatsiya texnologiyalarni qo'llash muammolari bo'yicha ilmiy-metodik adabiyotlar tahlil qilinganda, masofaviy ta'lim texnologiyasi va masofaviy ta'limning didaktik ta'minotini, zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagoglarning axborot-kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini shakllantirishni tadqiq qilgan.

Bir qator mualliflarning fikricha, axborot texnologiyalari yuqori rivojlangan hozirgi kunda ta'lim jarayoniga informatsion-kommunikatsion vositalarni, kompyuter texnologiyalarni keng tadbiriq etish, dars jarayonida va darsdantashqari mashg'ulotlarda slaydlar, videolavhalar, multimedia, elektron darsliklar va qo'llanmalardan foydalanishni yo'lga qo'yish davr taqozosiga aylandi. Elektron darsliklar va qo'llanmalar zamonaviy axborot texnologiyalari majmuasi sifatida respublikamizda ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi<sup>3</sup>. Ilmiy asoslangan ilg'or axborot texnologiyalar va innovatsiyalar o'z-o'zidan ta'lim tizimiga kirib kelmaydi.

Bu tadqiqotchi-pedagog faoliyati va uning motivatsiyasiga bog'liq jarayon. Bugungi kunda pedagogika sohasida yangi ilmiy yo'nalish-pedagogik innovatsiya va ta'lim jarayonini yangilash g'oyalari paydo bo'lishi natijasida o'qituvchining pedagogik faoliyatida ham yangi yo'nalish "Pedagogik innovatsion axborot texnologiyalari faoliyati" tushunchasi paydo bo'ldi.

Bo'lajak pedagog kadrlarni tayyorlashda ta'limning faol usullarini va texnik vositalarini qo'llashda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi ilmiy yangiliklarni aniqlangan<sup>4</sup>:

- jismoniy madaniyat jarayonida ta'limni individuallashtirish asosida pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv faoliyatida talabalarda jismo-niy harakat faolligiga oid motivatsiyasi rivojlantirilgan;

- bo'lajak jismoniy madaniyat mutaxassislari shaxsiy, umumiy madaniyat va maxsus kompetentligi xususiyatlari, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligi, funksional holatini individual ko'rsatkichlarining o'zgarishi aniqlangan;

- jismoniy madaniyat mutaxassislarning kasbiy kompetentligini (ishchanlik, harakatchanlik o'z-o'zini anglash, bilim, tajriba,

xabardorlik qobiliyatlari) shakllantirishda individuallashtirish yondashuv ta'limi asosida takomillashtirilgan;

- bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida sog'lomlashtirish ta'limini individuallashtirish modeli (jismoniy sifatlar, mustaqillilik ko'nikmasi va psixofiziologik, salomatlik holati hamda ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish) takomillashtirilgan.

Ta'lim sifatini oshirishda bo'lajak mutaxassislarni yetuk kadr darajasiga, maqomiga (pozitsiyasiga) qo'yish imkonini beradigan usullar ancha darajadagi zahiralarga ega. Buning uchun, egallangan nazariyani real amaliyotga yaqinlashtirish holatini yuzaga keltirish zarur, ularni qo'llashning psixologik mexanizmi, talabalarni faoliyatning bir (bilish) turidan boshqa (professional) turiga o'tkazishdan iborat. Ko'pchilik mualliflar o'yin usullarining samarasi ancha katta ekanligini ta'kidlashgan. O'yinlar ulardan oldin tashkil etilgan ma'ruzalarda va seminar mashg'ulotlarida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga imkon yaratib beradi.

Masofaviy o'qitish sxemasi doirasida uchta turdagi o'zaro ta'sir mavjud:

- Tegishli shaklda taqdim etilgan o'quv yurtidan mustaqil ravishda taqdim etilgan o'quv yurti bilan mustaqil ravishda o'quv matni bilan mustaqil ravishda amalga oshiriladigan "O'quv mazmuni" turining o'zaro ta'siri;

- talabalar o'qituvchi bilan turli muloqotga kiradigan "o'quv-o'qituvchi" turining o'zaro ta'siri;

- Trenerlar guruhlarida mustaqil ravishda bir-birlari bilan mustaqil o'zaro aloqada bo'lgan "stajor o'rganish" ning o'zaro ta'siri.

Masofadan o'qitish texnologiyalarida barcha turdagi o'zaro ta'sirni ta'minlash uchun yo'l topish kerak. Shu bilan birga, mutaxassislarning so'zlariga ko'ra, masofaviy o'qitishning muhim jihati "O'quv-o'qitish" ning o'zaro ta'siri bo'lishi mumkin. Ular o'rtasidagi ma'lumot almashish istiqbollari nafaqat talabalarni ijtimoiylashtirishning istiqbollari, balki ishoratlar bo'yicha didaktik o'qitish usullaridan foydalanish imkoniyatini beradi, shuningdek, kichik guruhlarida o'qitish talabalarining bir-biriga yordamini tashkil etishga xizmat qiladi.

Masofaviy shaklda o'quv jarayoni an'anaviy tarzda ta'lim va o'quv materiallari bilan mustaqil ishlashga qaratilgan

<sup>3</sup> Olimov A.I. Булажак жисмоний тарбия ўқитувчиларини ўқитишда мобил иловалардан фойдаланиш методикасини такомиллаштириш ("Жисмоний маданият назарияси ва методикаси" фани мисолида). Пед. ... ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчиқ – 2021, 59-б.

<sup>4</sup> X.B.Тухтаҳўжаев педагогика олиқ таълим муассасаларида талабалар таълимини индивидуаллаштириш (жисмоний тарбия мисолида). Пед. ... ф.б.ф.д (PhD) диссертацияси автореферати. Чирчиқ – 2018, 59-б.

ekanligidan farq qiladi. Ular axborot tashuvchisi sifatida ish olib boradilar, bu taklif etilayotgan o'quv materiallarining shakli va mazmuni va mazmuni talablarini sezilarli darajada o'zgartiradi. Multimedia komplekslari eng katta samaradorlik, dasturlashtirilgan ta'limning eng yaxshi sxemalariga ega, bu kompyuter test tizimlari va internet orqali interfaol aloqani o'z ichiga oladi. Bunday o'quv multimedia komplekslari kognitiv faoliyatning barcha bosqichlarida kasbiy yo'naltirilgan amaliy vazifalarni hal qilish uchun tanishishga yordam beradi.

Bilimni baholash masofadan o'qitish texnologiyalarining muhim va muammoli tarkibiy qismlaridan biridir. Masofadan o'qitishning asosi talabalarning mustaqil ishi bo'lib, shuning uchun o'quv qo'llanmalarini tezkor, obyektga asoslangan nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Ovoz va videofilm konferensiya rejimida audio va videokonferent rejimida audio va videokonferent rejimida sinxron-og'zaki ravishda so'rovnomalarni sinxron-og'zaki so'rovnomalardan foydalanish juda muhimdir.

Ta'limning texnik vositalari bilan bir qatorda, ta'lim muassasalarida o'qish va bilimni o'zlashtirish paytida eng samarali vosita kompyuter hisoblanadi. Hozirgi vaqtda qo'llanilayotgan ta'lim beruvchi kompyuter dasturlari sohaga oid materialni ancha to'liq va ancha tez o'zlashtirilishiga ko'maklashadi<sup>5</sup>.

Multimediali sinflarda o'qituvchining roli o'zgaradi. U axborotni toliqtiradigan darajada takrorlashlardan voz kechish va o'z diqqatini o'quvchilarga individual yordam berishga, axborotni muhokama qilishga, tinglovchilarda tadqiq qiluvchi yondashuvni rivojlantirishga mujassamlashtirgan holda, dars vaqtdan ancha samarali foydalana boshladi. Bu holat ta'lim sifatini oshirilganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, multimediali ta'lim tizimida yuzaga kelgan ma'lum bir kamchiliklarni ham aytish lozim. Gap shundaki, multimediali mahsulotlarning ko'pchiligi ta'lim beruvchi mutaxassislar tomonidan emas, balki informatika mutaxassislari tomonidan yaratilgan. Shuning uchun, ushbu dasturlarning metodik ta'minlanishi ko'pincha mukammal bo'lmagan.

Axborotni taqdim qilish uchun texnik vositalarni bilish, ilgari inson uchun noma'lum bo'lgan oddiy predmetlarni tanish paytida zarur bo'lgan vaqt bilan ko'rgazmali tavsiflanadi:

- so'z bilan ta'riflash paytida – 2,8 sek.;  
- konturli rasmda tasvirlash paytida - 1,5 sek.; - oq-qora fotosuratda - 1,2 sek.; - rangli fotosuratda - 0,8 sek.; - predmetni tabiiy kattaligida namoyish qilish paytida - 0,4 sek. adabiyotlarni tahlil qilish natijasi axborot texnologiyalarni ta'limda qo'llashning to'rtta yo'nalishini ajratish imkonini berdi:

- ta'limning individual usullarini amalga oshirish;  
- bilimni hisobga olish va nazorat qilish;  
- dars jarayonini boshqarish;  
- har xil jarayonlarni imitatsiyalash (modellash).

Mutaxassislarning faoliyati, borgan sari, ularning ma'lum bir axborotga ega ekanligiga, bu axborotni samarali qo'llash qobiliyatiga ulkan darajada bog'liq bo'lmoqda. Har qanday sohadagi zamonaviy mutaxassis informatsion qo'limda erkin yo'nalishi uchun axborotni kompyuterlar, telekommunikatsiyalar va informatsion texnologiyalarning boshqa vositalari yordamida olish, qayta ishlash va foydalanishni bilishi kerak. Jamiyatning informatika vositalari va usullari arsenalini (to'plamini) o'zlashtirgan malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj ta'lim siyosatining yetakchi omiliga (konsepsiyaga) aylanmoqda. Jismoniy tarbiya va sport ta'limi sohasida zamonaviy informatsion texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy qilishning tashkiliy, moddiy-texnik, ilmiy-uslubiy jihatlari bilan bog'liq bo'lgan ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga qaramasdan, ular bir qator soha mutaxassislari ma'lum darajada qiziqishni uyg'otmoqda. Chunki bu yerda, xuddi boshqa sohalaridagi kabi, birinchi galda ma'lum darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni to'plashga yo'naltirilgan an'anaviy tayyorlash shakllaridan axborotni to'plashni, qayta ishlashni va uzatishni samarali amalga oshirish, mustaqil ishlash va ta'lim olishni, ta'limning mazmunini, usullarini va tashkiliy shakllarini sifatli o'zgartirish imkonini beradigan informatsion va kommunikatsion texnologiyalarga o'tish zarurati yuzaga keldi<sup>6</sup>.

Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi mutaxassislarning kasbiy faoliyatida zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llashning asosiy yo'nalishlari yuzaga chiqmoqda. Ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- har xil sport fanlari bo'yicha nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish dasturlarini ishlab

chiqish va qo'llash;

- ta'lim beruvchi multimedia-tizimlar;  
- ma'lumotlar bazasini yaratish va qo'llash;

- kompyuter musobaqalarini, taktik harakatlarni va jarayonlarni modellash;  
- musobaqalarga xizmat ko'rsatish uchun informatsion texnologiyalarni qo'llash;  
- informatsion texnologiyalarni reklama, nashriyot va tadbirkorlik faoliyatida qo'llash;  
- informatsion texnologiyalarni ilmiy tadqiqotlarni tashkil qilish va amalga oshirishda qo'llash;

- psixotashxisning avtomatlashtirilgan usullari;

- sport faoliyatining avtomatlashtirilgan usullari;

- funksional tashxisning avtomatlashtirilgan usullari;

- masofaviy ta'limni tashkil qilish va h.k.

Ilg'or informatsion texnologiyalar bazasida ta'lim sohasining zamonaviy holatini tahlil qilish, ikkita omil: ta'lim texnologiyasi va nazariyasi - o'zaro zaruriy aloqasiz harakat qilishini ko'rsatadi. O'quv jarayoniga oddiygina texnik vositalarning kiritilishi emas, balki xususan, ta'lim vazifalarini hal qilishga yo'naltirilgan yangi-jismoniy tarbiya va sport uslubiyatini takomillashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalarining kiritilishi muhimdir. Bu esa o'z navbatida ushbu sohada chuqur tadqiqotlarni amalga oshirish zaruratini kuchaytiradi. Shu tufayli, zamonaviy informatsion texnologiyalarni qo'llashning, boshqa sohalarida to'plangan tajribalarni pedagogik jihatdan anglashning, jismoniy tarbiya va sport sohasida mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda dasturiy vositalarni yaratish va o'rganish bo'yicha mos ravishdagi ilmiy va uslubiy ishlarni amalga oshirishning didaktik va uslubiy tamoyillari alohida dolzarblikka ega bo'ladi.

Ta'limning zamonaviy bosqichi katta quvvatga ega bo'lgan shaxsiy kompyuterlarni, katta xajmdagi tez harakatlanadigan jamg'aruvchilarni, yangi informatsion va telekommunikatsion texnologiyalarni,

multimedia-texnologiyalarni va virtual reallikning qo'llanilishi bilan hamda sodir bo'layotgan jarayon va uning ijtimoiy oqibatlarini bilan tavsiflanadi.

Ta'lim tizimida informatsion texnologiyalarni qo'llash "Ta'limning kompyuter metodologiyasini" yaratishga ko'maklashdi. U o'quv jarayonida o'quv-bilish faoliyatini kompyuterda modellashni, axborot berish usulini, o'quv faoliyatini dasturlashtirishni, assotsiativ usulni, testlash usulini, faol o'rgatishning o'yin usulini, loyihalar usulini qo'llashga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda jismoniy madaniyat o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda ana'anaviy ta'lim tizimiga yangi shakl va usullarni joriy qilish, ma'lum darajadagi o'zgartirishlarning albatta kiritilishi, bu, o'qituvchi faoliyatida ham va talaba faoliyatida ham namoyon bo'lishi kerak. Ta'limi tizimini rivojlantirish quyidagi ustuvor yo'nalishlarga asosan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Sport ta'limi tizimining mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek, malakali professional pedagog kadrlarni tayyorlash, trener-o'qituvchilar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining tegishli yo'nalishlarida ta'limning pedagogika, didaktika, amaliy pedagogik psixologiya, metodika, umumkasbiy va maxsus fanlarga alohida e'tibor qaratgan holda, o'quv materiallarini va pedagogik baholashni ishlab chiqish orqali pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanishining zamonaviy tendensiyalarini hisobga olgan holda sport ta'limi tizimida kompyuterlashtirish darajasini oshirish; axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda yangi avlod darslik va o'quv-uslubiy adabiyotlarini tayyorlash va chop etishni tashkillashtirish zamonaviy axborot texnologiyalari muhitida pedagoglarning axborot-kommunikativ va kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosi hisoblanadi.

<sup>5</sup> Абрамян А.М. Подготовка бакалавров по физической культуре в области использования информационных и коммуникационных технологий в педагогической и тренерской деятельности: Автореф. дис... канд. пед. наук. Москва. 2012. – С. 22

<sup>6</sup> I.M.Polulashchenko. (2020) Professional Training of Future Teachers of Physical Culture as an Important Component of Patriotic Education. International Journal of Innovative Technologies in Social Science. 6(27). doi: 10.31435

## “STEAM-TA'LIM” YONDASHUVI ASOSIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHGA TAYYORLASH OMILLARI

*Xamrakul Rizakulovich Sanakulov - p.f.n., dotsent, Toshkent davlat pedagogika universiteti*  
*Gulchirov Ozotovna Abduraimova - p.f.f.d. (PhD), Toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada “STEAM-ta’lim” yondashuvi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini texnologiya fanini o'qitishga tayyorlash texnologiyalari va uni amalga oshirish bosqichlari keltirilgan.

**Аннотация:** В статье представлены технологии подготовки будущих учителей начальных классов к технологии обучения и этапы ее внедрения на основе подхода “STEAM-образование”.

**Abstract:** The article presents technologies for preparing future primary school teachers for teaching technology and the stages of its implementation based on the “STEAM-education” approach.

**Kalit so'zlar:** “STEAM-ta’lim”, kompetensiya, kasbiy tayyorgarlik, texnologiya fani, LEGO konstruktori.

**Ключевые слова:** “STEAM-образование”, компетенции, профессиональное подготовка, технологии, конструктор LEGO.

**Keywords:** “STEAM-education”, competencies, vocational training, technologies, LEGO constructor.

Dunyoda ta'limning axborotlashuvi davrida raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash, bo'lajak o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini ta'minlashning maqsadli modellari, dars mashg'ulotlarining pedagogik ssenariylari hamda multimediali elektron recurclari ta'lim jarayoniga tatbiq etilgan. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini texnologiya fanini o'qitish jarayonida fan, texnika va texnologiya, muhandislik, dizayn elementlarini amaliyot bilan bog'lab o'rganishning «STEAM – ta'lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san'at, Mathematics – matematika) yondashuvi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda<sup>1</sup>.

Hozirgi zamon jamiyati ta'lim tizimi oldiga murakkab vazifalarni qo'yimoqda: o'quvchini birinchi navbatda, tez o'zgaradigan axborot bilan ishlashga qaratilgan alohida intellektual qobiliyatlarini talab qiladigan kelajak jamiyatida yashashga tayyorlash; axborot olish, uni qayta ishlash va amalda qo'llash malakalarini rivojlantirish “STEAM – ta'lim” asosini tashkil qiladi.

“STEAM – ta'lim” yondashuvi o'quvchilarga dunyoni tizimli o'rganish, atrofda ro'y berayotgan voqea-hodisalar mantig'ini tushunish, ularning aloqadorliklarini aniqlash va tushunish, o'zi uchun yangi, g'ayrioddiy va qiziqarli bo'lganlarni “kashf” qilish imkonini beradi.

Ma'lumki, bugun axborot oqimi juda katta, hordiq vositalari (qurollari) esa juda rang-barang, oqibatda o'quvchi ulkan raqamlar olamida o'zini yo'qotishi mumkin, demak, o'qituvchi o'quvchilar uchun tushunarli, ularning turli kompetensiyalarini rivojlantirish imkonini beradigan vositalarni topa bilishi lozim. Shunday vositalardan biri «LEGO 2:0» robotexnika to'plamidir. LEGO konstruktori o'quvchilarga ularning xususiyatlaridan qat'i nazar bilimlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirish imkonini taqdim eta oladi. Masalan, kesma – nuqtalar bilan cheklangan to'g'ri chiziq. Kesma boshi va oxiriga ega (ular qizil rangdagi g'ishtchalar bilan ajratib ko'rsatilgan). Nur. Nurning boshi bor, ammo oxiri yo'q. To'g'ri chiziq. Uni ikkala tomonga uzaytirish mumkin (O'qituvchi “nuqta” – g'ishtchalarni o'rnatadi). To'g'ri chiziq – ikki nuqta o'rtasidagi eng qisqa

masofa chizig'i. Birinchi sinf o'quvchilari to'g'ri chiziq bir-biriga yaqin turgan nuqtalar ko'p ekanini tushunadi. Buni bolalar «LEGO» g'ishtchalari (nuqtalar) to'g'ri chiziqni qurayotib, aniq ko'radi. To'g'ri chiziq bo'ylab yotgan va yotmagan nuqtalarni ko'rsatish uchun ham qo'llanmadan foydalanish mumkin. Platogo yopishtirilgan lego-g'ishtchalar yordamida bitta nuqta orqali ko'plab to'g'ri chiziq o'tkazish mumkinligini ham ko'rsatish mumkin<sup>2</sup>.

3-sinfda o'quvchilar to'g'ri to'rtburchak kvadrat maydoni bilan tanishtiriladi. Kvadrat, to'g'ri to'rtburchak perimetri va maydonini topish formulalarini o'rganadi. 4-sinfda to'g'ri to'rtburchak diagonallari o'rganiladi.

LEGO Education WeDo birlamchi robotidan foydalanishning o'ziga xos algoritmini “Atrofimizdagi olam” darslari misolida ko'rib chiqamiz.

Dars mavzusi – «Yovvoyi hayvonlar». O'quvchilarga yovvoyi hayvonlar to'g'risida qilgan chiqishlari bo'yicha to'ldiriladigan krossvord taklif qilinadi (krossvord kataklariga hayvon nomlari yoziladi). Keyin o'qituvchi 5-6 o'quvchidan iborat jamoalarga yoki juftliklarga konstruktordetallaridan o'zlariga yoqqan yovvoyi hayvonni yig'ishni taklif etadi.

Integratsiyalangan, tadqiqotchilik va predmetli-amaliy faoliyatni o'z ichiga olgan, o'quv jarayoni bolalarga tabiatshunoslik sohasida jonsiz tabiat ob'ektlari bilan yaxshiroq tanishish imkonini beradi, modellarni loyihalashtirish va modellashtirish bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni egallashga ko'maklashadi. Bu o'quvchilar kelajagi va istiqboli uchun eng yaxshi asosni yaratadi<sup>3</sup>.

“STEAM – ta'lim” yondashuvning o'zlashtirishga ta'siri. “STEAM – ta'lim” yondashuvning asosiy g'oyasi quyidagicha: amaliyot xuddi nazariy bilimlar kabi muhim, ya'ni o'qiyotganda, biz nafaqat miyamiz, balki qo'llarimizni ham ishlatishimiz kerak. Faqat sinf ichida o'qitish jadal o'zgarayotgan olam bilan tenglasha olmaydi. “STEAM – ta'lim” yondashuvning asosiy farqi bolalar predmetlar ko'pligini muvaffaqiyatli o'rganish uchun ham miyasi, ham qo'lini ishlatishga o'rganadi. Bilimlarni ularning o'zlari topadi va o'zlashtiradilar. Boshlang'ich ta'limda “STEAM – ta'lim”ni joriy qilish zarurati: matematika, tabiatshunoslikka qiziqishni faollashtiradi; texnika, robot

texnikasi, konstruksiyalash sohasida bilim egallashga ko'maklashadi; ijodiy qobiliyat va kommunikativ ko'nikmalarning rivojlanishiga ko'maklashadi; o'quvchining salohiyatini erta aniqlash va uning kasbiy o'zini o'zi belgilashiga ko'maklashishdan iborat<sup>4</sup>.

“STEAM – ta'lim” ni joriy qilishning afzalliklari:

Texnika fanlariga qiziqishning rivojlanishi. Progressiv (ilg'or) tizimning joriy qilinishi maktabgacha ta'lim muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari va boshqa ixtisoslashtirilgan muassasalarda o'quvchilarni o'quv jarayoniga jalb qilish imkonini beradi.

Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish. O'quvchi va talabalar test va turli tajribalarni o'tkazish vositasida nostandart vazifalarni hal qilishga o'rganadi. Bu hammasi o'quvchilarga ularni g'ayrioddiy, nostandart muammolar “taqdim etadigan” katta hayotga tayyorlanish imkonini beradi.

Kommunikativ ko'nikmalarni faollashtirish. Mazkur tizimni joriy qilish asosan jamoaviy ishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar ko'p vaqt mobaynida o'qituvchi bilan birgalikda tadqiqot olib boradi va modellarini rivojlantiradi. Ular instruktorlar va o'rtoqlari bilan dialog olib borishga o'rganadi<sup>5</sup>.

“STEAM – ta'lim”ni amalga oshirish:

- tadqiqotchilik va tajriba-sinov orqali ta'lim oluvchilar ongida olamning yaxlit manzarasini shakllantirish;
- integratsiyalab o'qitishni (fanlararo aloqadorlikni) ta'minlash;
- ilmiy-texnik bilimlarni hayotda qo'llash;
- tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish;
- o'z kuchiga ishonch hosil qilish;
- faol kommunikatsiya va jamoada ishlash malakasi;
- texnik fanlarga qiziqish, ijodga motivatsiya, tashabbuskorlik, mustaqillik, raqobatbardoshlik, mobillikni rivojlantirish;
- kasbga yo'nalganlikni shakllantirish;
- ta'lim oluvchilarni hayotdagi innovatsiyalarga tayyorlash;
- asosiy ta'lim dasturining majburiy qismini to'ldirish;
- pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish imkonini beradi.

“STEAM – ta'lim” dasturi dars

<sup>2</sup> Gulchirov Abduraimova. Methodical Training of Elementary School Teachers in Technology Subject // «Eastern European Scientific Journal» Düsseldorf. – Germany, 2018. Vol. 2. – P. 285 – 288. (13.00.00; №20).

<sup>3</sup> Мавлонова Р., Рахманкулова Н. Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Ўқув қўлланма, – Т.: F.Фулом, 2013. – 270 б.

<sup>4</sup> Gulchirov Abduraimova. Methodical Training of Elementary School Teachers in Technology Subject // «Eastern European Scientific Journal» Düsseldorf. – Germany, 2018. Vol. 2. – P. 285 – 288. (13.00.00; №20).

<sup>5</sup> Мавлонова Р., Рахманкулова Н. Бошланғич таълимда педагогика, инновация, интеграция. Ўқув қўлланма, – Т.: F.Фулом, 2013. – 270 б.

mashg'ulotlari, darsdan tashqari mashg'ulotlar va sinfdan tashqari tadbirlarni o'z ichiga oladi. "STEAM – ta'lim" – bu o'quv dasturlaridan o'rin olgan turli fanlarga oid "o'tuvchan" mavzularni tadqiqotchilik va loyihalash metodlari asosida o'rganishda integratsiyalangan darslar siklogrammalari, ilmiy, texnik va muhandislik tarkibiy qismlarini qo'llab-quvvatlovchi, ta'lim oluvchilarning muhandislik va texnik mutaxassisliklarga qiziqishini oshirish hamda fan-texnika sohasida o'qishni davom ettirishga motivatsiyalash imkonini beradigan tadqiqotchilik laboratoriyalari, to'garaklar tarmog'idir. O'quv mashg'ulotlarida pedagoglar tomonidan ilg'or ta'lim texnologiyalari va metodikalari faol qo'llanadi. Pedagoglar HP Reveal, QR-kod yaratish uchun sayt-generatorlardan, internet-servislardan foydalanadi. Bu darslikdagi rasmlarni jonlantirish, multimediali interaktiv o'yin va mashqlarni yaratish imkonini beradi. Mobil ilovalardan foydalanish o'quvchilarda fanni o'zlashtirishga qiziqish uyg'otadi, ularning bilish faolligini oshirishga ko'maklashadi. Darsdan tashqari mashg'ulotlar, qo'shimcha ta'lim, sinfdan tashqari tadbirlar tizimi sifatida qaraladi.

Kasbgay o'naltirish tadbirlari korxonalariga sayohatlar, muassasa bitiruvchilari, mehnat faxriylari bilan uchrashuvlar, sinf hamda axborot soatlari, ta'lim muassasalarida ochiq eshiklar kunlari, oliy ta'lim muassasalar bilan hamkorlik, «IT – ta'lim», ota-onalar yig'ilishi, sotsium bilan o'zaro hamkorlik, konferensiyalar va boshqa ko'rinishda o'tkaziladi.

"STEAM – ta'lim" dasturining joriy qilinishi ancha material talab vazifa, maxsus jihozlar mavjud bo'lishini talab qiladi. Plastilin, xamirdan va shunga o'xshalardan narsalar tayyorlash o'quvchilarning kichik motorikasini va fantaziyasini rivojlantiradi, shuningdek, san'at va modellashtirishning qay tarzda birlashtirilishini namoyish qiladi. Plastilindan buyumlarni tayyorlayotib, o'quvchilar uchta o'lchamga duch keladi: balandlik, uzunlik va en (kenglik). Kartondan ishlangan konstruktor – sotib olinadigan konstruktorning eng yaxshi muqobili. Kartondan ishlangan rangli geometrik shakllar o'quvchilarni shakl va ranglarni farqlash, konstruksiyalashga o'rgatishda qo'l keladi. Pedagoglar tomonidan didaktik materiallar: yog'och kubchalar, egiluvchan materiallardan geometrik shakllar tayyorlangan va sinovdan o'tkazilgan. Bolalar uy, ko'prik va boshqa inshootlarni konstruksiyalashda yog'och kubiklarni afzal

ko'radi, chunki ular o'zida tabiiy iliqlikni, tabiiy tozalikni, betakror hidni "saqlab qoladi". Yog'och kubchalar to'plamlari rolli o'yinlarda keng qo'llanadi. Egiluvchan materiallardan ishlangan geometrik shakllar bolalar qo'llari bilan paypaslaganda yoqimli, xavfsiz va yorqin bo'lib, tekislikda modellar yaratish imkonini beradi. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'kidlashicha, jonli va jonsiz tabiat bilan tajribalar bolalarning yaxlit rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi: davomiy tajribalar tufayli xotirasi rivojlanadi, tahlil va sintez, taqqoslash, tasniflash va umumlashtirish operatsiyalarini bajarish zarurati tufayli fikrlash jarayonlari faollashadi<sup>6</sup>.

Ko'rganlari haqida hikoya qilish, aniqlangan qonuniyatlar va xulosalarni muhokama qilish istagi nutq rivojlanishiga turtki bo'ladi. Tajriba-sinov faoliyati emotsional sohaga, ijodiy qobiliyat va atrof olamga qiziqishning oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.


Konstruksiyalash aqliy rivojlanishda muhim o'rin tutadi. Konstruktiv faoliyat davomida bola pedagog tomonidan berilgan qandaydir predmet modelini tayyor detallardan yasaydi. Bu jarayonda u o'zining atrofdagi predmetlar haqidagi tasavvurlarini real modellarda gavdalantiradi. Konstruksiyalash davomida tarbiyalanuvchi o'zining tasavvurlarini aniqlashtiradi, shakl, kattalik, konstruksiya kabi xossalari va boshqa tushunchalarni yanada puxta o'zlashtirish imkoniga ega bo'ladi.

1–4 sinflarda qo'shimcha ta'lim mashg'ulotlarida metall konstruktordan foydalaniladi. Uning yordamida o'quvchilar ma'lum mexanizmlarni modellashtirishi va yaratishi, shuningdek, fantaziyasini ishga solib, kutilmagan texnik yangiliklarni kashf qilishi mumkin. Yengil avtomobil va yuk avtomobili, traktor, ko'tarma kran, motosikl, samolyot, vertolyot, poezd – bular hammasi va boshqalar metall konstruksiyalardan yig'ilishi mumkin. Konstruktorning foydasi, shubhasiz: nafaqat jismoniy, balki ijodiy sifatlarni ham rivojlantiradi. Bunday bolalar konstruktori orastalik (ozodalik) va o'troqlikni namoyon qilish imkonini beradi, chunki har bir to'plamda modelni yasash uchun zarur ko'plab kichik detallar bor. Kichik detallarni yig'ishda sezgi ishga tushadi, motorika, obrazli va fazoviy tafakkur, shuningdek, mexanik xotira rivojlanadi.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida qobiliyatlarni rivojlantirish,

uni yuqori texnologik ijodiy mehnatga tayyorlash, butun umri mobaynida yangi bilimlar olishga o'rgatish talab etiladi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "STEAM – ta'lim" yondashuvi asosida tayyorlashda ta'lim traektoriyalarini individualashtirish, shaxs xususiyatlarini hisobga olish va ijodiy salohiyatini oshirish hamda texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarlikni ta'minlovchi kompetensiyalar tizimini shakllantirish talab etiladi (1-shakl).

1-shakl. Texnologiya fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini ta'minlovchi kompetensiyalar tizimi



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "STEAM – ta'lim" yondashuvi asosida texnologiya fanini o'qitishga tayyorlashda tadqiqotchilik xarakteridagi dars mashg'ulotlari (dars – laboratoriya, kashfiyotchilik darsi, dars – ijobiy hisobot, dars – qiziqarli yonimizda, dars – olimlar haqida hikoya, dars – tadqiqotchilik loyihasi himoyasi, dars – ekspertiza, dars – "tadqiqot uchun patent", ochiq fikrlar darsi, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv tajriba-sinov, tadqiqotchilik xarakteridagi uy vazifasi) muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda «Texnologiya» fani doirasidagi texnologik ta'lim "STEAM – ta'lim"ning ajoyib namunasi bo'la oladi. Bu fanni o'qitishdan maqsad – texnosferaning tarkibiy qismlari, zamonaviy ishlab chiqarish va unda keng tarqalgan texnologiyalar

to'g'risida tasavvurlarni shakllantirish. Texnologiya o'quv fani sifatida bugungi kunda o'quvchilarning mehnat bozori sharoitida kasbiy o'zini o'zi belgilashiga ko'maklashadi, loyiha-tadqiqotchilik, dizaynerlik va ilmiy-texnik faoliyatga yo'naltiradi. Ta'lim oluvchilarning «Texnologiya» predmet sohasidagi o'quv-bilish faoliyati tabiiy-ilmiy, ilmiy-texnik, texnologik, tadbirkorlik va gumanitar sohalarga oid bilimlarga asoslanadi. Talabalarning samarali fanlararo loyiha ishlari uchun muhit yaratishga yo'naltirilgan fanlararo ilmiy-talimiy "ijodiy makon"ni yaratish va rivojlantirish yuzaga kelgan mazkur vaziyatdan chiqish yo'li bo'lishi mumkin. Bunday makonlarning asosiy rollaridan biri shundaki, u o'z hududida turli sohalarga oid bilim va tajribani birlashtirishni ta'minlay oladigan ilmiy, talimiy, biznes va sanoat muhiti integratori rolini bajaradi. Bu kabi "ijodiy makon"larni yaratish bo'yicha xorijiy universitetlar (masalan, Design Factory Aalto University, Finland, FabLab va boshq.) tajribasi alohida o'rganishni talab qiladi, biroq muhim masalalardan biri bunday markazlarning standartlashtirilgan o'quv jarayoniga integratsiyalanganlik darajasidir. Boshqacha aytganda, "ijodiy makon" butun o'quv jarayonini ta'minlaydigan uzviy va asosiy tuzilma sifatida qaralishi, yoki "erkin praktikum" uchun bo'sh joyni egallab, majburiy hisoblanmasdan, faqat o'quv rejani o'zlashtirishga ko'maklashishi muhim. Garchi talabalar nisbatan kam mustaqillikka ega bo'lgan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida uchun qo'shimcha emas, balki asosiy ta'lim strukturalari sifatida bunday markazlarni yaratish maqsadga muvofiq bo'lsa-da, masala munozarali va ko'plab yechimlarga ega. "Ijodiy makonning" farqli xususiyatlaridan biri o'quv jarayonining loyiha metodi asosida ta'lim oluvchilarning o'quv materialining maksimal mumkin bo'lgan massiviga kirishi, foydalaniladigan o'quv materiallarining ishonchiligi va relevantligi o'qituvchilar tomonidan majburiy ekspertiza qilinadigan tarzda erkin qurilishi lozim. Ta'limning mustaqilligi bunday ilmiy-talimiy markazlarda o'qitishning majburiy sharti bo'lishi kerak. Bu markazlar magistrlar tayyorlash dasturlari bo'yicha samarali ishlashi mumkin, bunda asosiy ta'limiy baza bakravriat darajasida o'zlashtirilgan bo'ladi. Bunday ilmiy-talimiy markazlarni joriy universitetlar tajribasi asosida yaratish oliy ta'limni asta-sekinlik bilan isloh qilish va bu jarayonni uning qatnashchilari uchun nisbatan "og'riqsiz" qilish imkonini beradi.

"STEAM – ta'lim" ning afzalliklari:

6. Санакулов Х.Р., Мелибоева С.С., Абдураимова Г.О. Меҳнат ва уни ўқитиш методикаси. Дарслик. –Т., 2019. – 210 б.



1. "STEAM – ta'lim" kuchaytirilgan moliyalashtirish zonasiga aylanib bormoqda: soni tobora ortib borayotgan turli notijorat tashkilotlar maktablarda texnologik yo'naltirilgan loyihalarni amalga oshirish uchun grantlar taqdim qilmoqda.

2. "STEAM – ta'lim" – kasbiy rivojlanishning nihoyatda keng imkoniyatlari tanlovi (foydalanish samaradorligi mamlakatda STEAM fanlari bo'yicha o'qitish texnologiyalarini joriy qilish bo'yicha harakatlar tobora kengayib borishiga bog'liq).

3. O'quvchilarga texnologiyalardan foydalanish (ularga kirish) imkoniyatining taqdim qilinishi. Dunyo kompyuter tarmoqlariga bog'liq bo'layotgan ayni davrda o'quvchilar raqamli kontentni tashkil etmoqda va undan hozirgacha kuzatilmagan miqyosda foydalanmoqda. Ular veb-saytlarni ishga tushirmoqda, telefonlarga filmlarni suratga olmoqda va o'zlari o'yinlar ishlab chiqmoqda.

4. "STEAM – ta'lim" o'quvchilarga yanada faol bo'lish imkonini beradigan muhit yaratadi. Natijada o'quvchilar ta'lim jarayoniga nafaol kuzatuvchi emas, balki ishtirokchi sifatida jalb qilinganida, nimaga o'rganganini yaxshiroq eslab qoladi.

5. "STEAM – ta'lim" o'quvchilardan tanqidiy fikrlash, jamoada mustaqil ishlash qobiliyatining rivojlanganligini talab etadi.

"STEAM – ta'lim" ning kamchiliklari:

1. Kommunikativ, ayniqsa muloqot ko'nikmalarining zaifligi. "STEAM – ta'lim"da o'qituvchilar e'tiborni ko'proq faqat kitobdan foydalaniladigan ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, materiallar strukturalariga qaratadi.

2. O'qituvchilar asosan "STEAM – ta'lim"ga mashg'ulot jarayonini qaratgani sababli ular o'z ijodiy ko'nikmalarini boy berishi mumkin. Ko'plab kashfiyot va ixtirolar dastlab mavjud bo'lmagan va kutilmagan yechim topadigan fikrlar ko'rinishida yuzaga kelgan.

3. Yaxshi ta'lim olgan o'qituvchilar operatsion tizimlar va texnika bilan yaxshi ishlay oladi, biroq odatdagi hal etiladigan muammolarni hal qilishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin.

4. O'qituvchilarning yorqin ifodalangan tor ixtisoslashuvi va buning oqibatida o'quvchilar bilimlarining fragmentar xarakter kasb etishi. Bunday yo'nalishni joriy etishga faqat qo'shimcha kasbiy tayyorgarlikdan o'tgan va tabiiy-ilmiy o'quv fanlari va texnologiyalar yagona tizimida ishlashga tayyor o'qituvchilargina qodir bo'ladi.

"STEAM – ta'lim"ni joriy qilish shartlari:

1. Iste'doli o'quvchilarni izlash, qo'llab-quvvatlash va kuzatishning tarmoqlangan tizimini shakllantirish zarur.

2. Har bir umumiy o'rta ta'lim maktabida alohida iqtidorli o'quvchilarni aniqlash uchun ijodiy muhitni rivojlantirish zarur. Yuqori sinf o'quvchilariga kunduzgi, sirtqi, kechki ularga yashash joyidan qat'i nazar ixtisoslikka oid tayyorgarlik dasturlarini o'zlashtirish imkonini beradigan o'quv muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini taqdim etish kerak.

3. Ayni vaqtda shakllanib ulgurgan iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish kerak. Bu, avvalo, o'quvchilar tunu kun shu yerda bo'ladigan ta'lim muassasalari, texnik-texnologik maktablar va iqtidorli o'quvchilar uchun internatlar mavjud tajribasini ommalashtirish kerak.

4. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq bo'lishi kerak. O'quvchi yuqori natijalarga erishsa, o'qituvchi sezilarli darajada moddiy rag'batlantirilishi kerak.

5. Mahalliy o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash uchun moddiy va ma'naviy rag'batlar tizimini joriy qilish kerak. Asosiysi, o'qituvchilik kasbiga yosh iste'dodli insonlarni jalb qilish<sup>7</sup>.

"STEAM – ta'lim"da ijodiy va badiiy o'quv fanlarini (tasviriy sa'nat, texnologiya, informatika) o'z ichiga olgan kreativ yo'nalish faol rivojlanadi. Chunki faqat fanga asoslangan kelajak kimnidir quvontirishi gumonli. Biroq fan va san'at sintezini gavdalandirgan kelajak hozirdayoq ko'pchilikni to'liqlantirmoqda. Aynan shuning uchun ham bugunning o'zida yaqinlashib kelayotgan kelajakning eng yaxshi vakillarini qanday tarbiyalash haqida o'ylash lozim.

"STEAM – ta'lim" – o'quv jarayoni, karera va keyingi kasbiy rivojlanishni bog'laydigan o'ziga xos ko'prik. Innovatsion ta'lim konsepsiyasi bolalarni texnik jihatdan rivojlangan dunyoga professional darajada tayyorlash imkonini beradi.

Ilmiy tadqiqot ishlari natijasida shuni xulosa qilish mumkinki, boshlang'ich ta'limda "STEAM – ta'lim"ni joriy qilish zarurati: matematika, tabiatshunoslikka qiziqishni faollashtiradi; texnika, robot texnikasi, konstruksiyalash sohalarida bilim egallashga ko'maklashadi; ijodiy qobiliyat va kommunikativ ko'nikmalarining rivojlanishiga ko'maklashadi; o'quvchining salohiyatini erta aniqlash va uning kasbiy o'zini o'zi belgilashiga ko'maklashishdan iborat bo'ladi.

7 Теплова А.Б. Психолого-педагогические условия реализации программы «STEM образования для дошкольников и младших школьников». IX Международной научно-практической конференции «Исследовательская деятельность учащихся в современном образовательном пространстве» Том 1, Москва, 2018. – С. 160-165.

## TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

*Turgun Chindaliyevich Aliboyev - katta o'qituvchi, PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirish bosqichlarining o'ziga xos jihatlari to'g'risida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** Этапы имеют адаптивный, развивающий, практически-деятельностный, а также аналитически-оценивающий характер. В статье речь идёт об особенностях этапов развития креативных качеств в учениках.

**Abstract:** The article is about the features of the stages of developing creative qualities in students.

**Калит so'zlari:** o'quvchi, kreativlik, bosqich, o'quvchilarda kreativlik sifatlarni rivojlantirish.

**Ключевые слова:** ученик, креативность, этап, развитие креативных качеств в учениках.

**Keywords:** a student, creativeness, the development of creative qualities in students.

Globalashuv sharoitida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni ifodalovchi ijtimoiy-pedagogik talab yangi tamoyillar bilan boyitilgan holda takomillashuvga erishib bormoqda. Agarda mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish talabi pedagogik fikrlar va maktablar taraqqiyoti tarixining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy subyektning estetik hissiyotlarga boy bo'lishiga erishish negizida qondirilgan. Kishilik munosabatlari tarixining keyingi davrlarida shaxs faoliyatining o'ziga xos orginal, juz'iy g'oyalarga ega bo'lishiga erishish bilan tavsiflangan.

Innovatsion ta'lim muhitining shakllanishi esa shaxs intellektini rivojlantirish inson kapitalidan samarali foydalanishning asosi ekanligini tasdiqlamoqda. Zero, inson kapitalidan samarali foydalanish jamiyat rivojiini ta'minlaydi. SHU sababli jahon miqyosida shaxs intellektini rivojlantirish, unda tanqidiy, ijodiy va kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantirish ehtiyoji tobora dolzarblashmoqda. Jahon ta'limi tajribasi zamonaviy jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutayotgan STEAM fanlari – aniq fanlar (science), texnologiya (technology), injener (engineering), dizayn (art), matematika (mathematics)ning imkoniyatlariga tayangan holda kreativ shaxsni tarbiyalash, malakali mutaxassislarni tayyorlash jamiyatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan jadal rivojlantirish istiqbolini kafolatlashini tasdiqladi. "STEM – forward" ("STEM – kelajakda"; Quddus,


2014-yil) nomli konferensiyada o'quvchilarni o'zlashtirish darajasi muloqot, kooperativ (o'zaro hamkorlik), tanqidiy tafakkur, kreativlik mezonlarini bilan baholash maqsadga muvofiqligi e'tirof etib o'tilgan. Qolaversa, 2021-yildan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini o'qish, matematik, tabiiy-ilmiy va kompyuter savodxonligi kabi yo'nalishlar bo'yicha baholash imkonini beradigan PISA (Programme for International Student Assessment; O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha Xalqaro dastur) ning kreativlik mezoni bilan boyitilayotganligi dolzarb ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.

MDH mamlakatlarida "Rivojlanish nuqtasi" (Rossiya), "Smart maktablari" (Belorussiya), "Bolalar muhandislik akademiyasi", "Beshta fan" (Ukraina) kabi STEAM maktablari va markazlari tashkil etilgan, Qozog'iston Respublikasida poytaxt maktablarining 70 ga yaqinida 2016-2017-yildan boshlab "Robot texnikasi" o'quv fanining o'qitilishi joriy etilgan.

O'zbekistonda esa umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining bilim va intellektual rivojlanish darajasini PISA dasturi asosida baholash, STEAM fanlarining chuqur o'qitilishiga erishish orqali "O'zbekiston Respublikasining 2030 yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga

kirishiga erishish”yo’lida amaliy ishlar tashkil etilmogda.

O’quvchilarda kreativlikni shakllantirish murakkab jarayon bo’lib, bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirish talab qilinadi. Tadqiqot muammosi doirasida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar – Uollas Grem, Betti B.Rossmann, Aleks Osborn, Duayt X.Perkins, Don Koberg, Djeym F. Bandrovskiy, Skott G.Isaksen, Robert Frits, Sidni J.Parnsning ilmiy ishlari, ular tomonidan asoslangan kreativ tafakkur modellari bilan tanishish orqali o’quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish quyidagi bosqichlar asosida kechadi, degan xulosaga kelindi:



1-rasm. O’quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari.

I. Moslashish (adaptiv) bosqichi: maxsus mashqlar yordamida o’quvchilarda kreativ fikrlash layoqatini shakllantirish. Ushbu bosqichda topshiriqlarning bajarilishi umumiy xarakter kasb etib, o’quvchilardan turli sohalari bo’yicha orginal fikrlarni ilgari surish talab qilinadi. Moslashish bosqichida “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodi<sup>2</sup>, E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan<sup>3</sup> foydalaniladi. Ulardan foydalanishda quyidagicha yo’l tutiladi:

1. “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodidan foydalanishda o’quvchilarga erkinlik beriladi; mavzu doirasini chegaralamagan holda ixtiyoriy ravishda o’zlari xohlagan kitob yoki jurnaldan foydalanish imkoniyati yaratilib, “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodi bo’yicha topshiriq bajariladi.

2. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalanishda shtrixlar asosida tasvirlarni hosil qilishda o’quvchilarga erkinlik beriladi; o’quvchilar har bir shtrix bo’yicha turli sohaga taalluqli tasvirlarni hosil qiladi; bunda eng muhimi – o’quvchilar xayolot dunyosining boyligi bo’lib, tasvirlarning orginal bo’lishiga e’tibor qaratish zarur.

II. Rivojlantirish bosqichi: maxsus mashqlar yordamida o’quvchilarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish. Ushbu bosqichda topshiriqlarning bajarilishi xususiy xarakter kasbetib, o’quvchilardan “Texnologiya” fani sohalari bo’yicha orginal fikrlarni ilgari surish talab qilinadi. Rivojlantirish bosqichida ham “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodi, E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalaniladi. Ulardan foydalanishda quyidagicha yo’l tutiladi:

1. “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodidan foydalanishda o’quvchilar uchun erkinlik borasida cheklov qo’yiladi; mavzu doirasi chegaralanib, “Texnologiya” fani bo’yicha darslik, o’quv qo’llanma yoki fan doirasida qamrab olingan sohalarga doir ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop jurnal, adabiyotlardan foydalangan holda “Tasodifiy assotsiatsiyalar” metodi bo’yicha topshiriq bajariladi.

2. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testidan foydalangan holda shtrixlar asosidatasvirlarni hosil qilishda o’quvchilarning erkinligi cheklanadi; o’quvchilar har bir shtrix bo’yicha faqatgina “Texnologiya” fani doirasiga qamrab olingan sohalarga taalluqli tasvirlarni hosil qiladi; bunda eng muhimi – o’quvchilar xayolot dunyosining boyligi bo’lib, tasvirlarning orginal bo’lishiga e’tibor qaratish zarur.

III. Amaliy-faoliyatli bosqichi: “Texnologiya” fani bo’yicha o’quv topshiriqlarini berish asosida o’quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish. Ushbu bosqichda o’quvchilar tomonidan “Texnologiya” fani bo’yicha o’quv topshiriqlari bajariladi.

IV. Tahlil-baholash bosqichi: o’quvchilarning kreativlik sifatlariga egaliklarini baholash. Bunda o’quvchilar tomonidan taqdim etilgan o’quv topshiriqlarining yechimlari tahlil qilinib, baholanadi. O’quvchilarning yechimlarini baholashda Joy Pol Gilford tomonidan ilgari surilib (tezkorlik, egiluvchanlik, orginallik), T.I.Vinogradova (Gritsay) tomonidan to’ldirilgan (zehning o’tkirligi, majoziy ma’no (metafora)ga egalik, qoniqish) kabi mezonlarga tayanib ish ko’riladi.

Ya’ni: 1) topshiriqlarni bajarishda o’quvchilarning o’quv-bilish faoliyati topshiriqni tezkorlik bilan bajarish (tezkorlik); 2) bir topshiriqni bajargandan so’ng navbatdagi topshiriqni bajarishga tezkor moslashish (egiluvchanlik); 3) ko’plab o’ziga xos (orginal) g’oyalarni ilgari surish (orginallik); 4) topshiriqning mohiyatini qisqa muddatda anglab olish (zehnlilik); 5) echimni majoziy (ramziy) ma’noda talqin eta olish (metafora); 6) ish natijasidan zavqlanish (qoniqish) qobiliyatlariga egaliklari inobatga olinadi.

“Texnologiya” darslarida o’quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishda, eng avvalo, o’qituvchi tomonidan beriladigan topshiriqlarning mohiyatini ham o’zgartirish, ularning rag’batlantiruvchi, ularni ijodiy va kreativ fikrlashga turtki beruvchi ko’rsatmalar asosida savol yoki topshiriqlar to’plamini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotni olib borishda mazkur vazifaning ham ijobiy hal qilinishiga e’tibor qaratildi.

Natijada quyidagi ijodiy, innovatsion, kreativ xarakterga ega savollar hamda topshiriqlar to’plami shakllantirildi:

I. Nazariy xarakterdagi topshiriqlar to’plami: 1. Metallni bukishda asosiy e’tibor o’lchamlarni to’g’ri belgilashga qaratilishi zarur, shunda.... Fikrni davom ettiring. 2. “Ichki kiyimlar (ichki ko’ylaklar, maykalar, korsetlar) insonning tana haroratini mo’tadil saqlab turishga xizmat qiladi. Chunki ular bevosita badanga kiyiladi va yopishib turadi”. Ushbu fikrga qarshi fikr bildiring.

Respondent-o’quvchilar tomonidan quyidagi qarshi fikr bildirildi: “Ichki kiyimlarning barchasi ham, masalan, ostki yupkalar, tungi kuyaklar, chaqaloqlar kiyimlari, kalsonlar, pijamalar badanga yopishib turmaydi. Shuning uchun ular tana haroratini to’liq saqlay olmaydi”.

3. Yog’ochning qattiqligi unga boshqa qattiq jismning botishiga qarshilik ko’rsatish darajasi bilan belgilanadi. Yog’ochning qattiqligini aniqlashning eng oddiy usuli unga mix qoqib ko’rishdan iborat.

Fikrga nisbatan uchta fikr ayting. Ularning: birinchisi fikrni tasdiqlasin; ikkinchisi fikrni to’ldirsiz, uchinchisi fikrni inkor qilsin.

1. Tasdiqlovchi fikr: yog’ochning qattiqligi unga o’zidan qattiq buyumlarning uchini, tig’ini, qirrasini botirib ko’rish orqali aniqlanadi.

2. To’ldiruvchi fikr: oddiy mix qayrag’och, eman, shamshod, nok, akatsiya

kabi qattiq yog’ochlarga emas balki tol, terak, qarag’ay kabi yumshoq yog’ochlarga qoqiladi.

3. Inkor etuvchi fikr: yog’och qanchalik qattiq bo’lmasin, unga zax, namlik, suv, zararli mikroorganizmlar va yog’ochni kemiruvchi qurtlar tomonidan zarar etadi.

II. Amaliy xarakterdagi topshiriqlar to’plami (topshiriqlar “Kashta namunalari”, “Металлические решетки”, “Детские одежды” mavzularidagi ma’lumotlarni taqdim etgan saytlar<sup>4</sup> materiallari asosida shakllantirildi):

1. Yog’ochning teksturasi – radius bo’ylab yoki egri chiziqqa urinma chiziq bo’yicha yo’naltirilgan kesma bo’lib, ishlangan yuzada yog’och tolalarining tabiiy rasmi yaqqol ko’rinadi. Yog’ochning teksturasi orqali quyidagi ko’rsatkichlarni baholash mumkin: yillik qatlamlarning kengligini; tusi (rangi) orqali ancha avval yoki yaqinda ishlov berilgan yog’och ekanligini; o’zak nurlarini; ildizlari yirikligini; - ....; - .... . Yog’ochning teksturasi orqali aniqlanadigan ko’rsatkichlarni nihoyasiga etkazing.

O’quvchilar tomonidan topshiriq quyidagicha bajariladi: Yog’ochning teksturasi orqali quyidagi ko’rsatkichlarni baholash mumkin: yillik qatlamlarning kengligini; tusi (rangi) orqali ancha avval yoki yaqinda ishlov

berilgan yog’och ekanligini; o’zak nurlarini; ildizlari yirikligini; yog’och tolalarining holati (to’lqinsimon, chalkash ekanligi)ni; rivojlanmagan kurtaklarning izlari (yog’ochning “ko’zlari”) bor-yo’qligini.

Topshiriqlar quyidagi jadvalda berildi:

2.		Yangi detal bilan to’ldiring
3.		Mahsulotni yangi rang bilan boying. Nima uchun bunday rang tanlaganingizni izohlang
4.		Sizingcha, ushbu ma’lumotda nima ortiqcha?
5.		Yangi ornament bilan to’ldiring
6.		Jarayonni yakuniga etkazing
7.		Kompozitsiyaga o’zgartirish kiriting

Tadqiqotni olib borish jarayonida mazkur holatlarni inobatga olish kutilgan natijani kafolatlanadi. O’quvchilar “Texnologiya” darslarida o’zlashtirilayotgan mavzular bo’yicha kreativ g’oyalarni ilgari surish, ularni asoslash, o’ziga xos (orginal) g’oyalarni ajratib ko’rsatish malakalarini o’zlashtiradi.

Demak, o’z mohiyatiga ko’ra kreativlik yaratish, yaratuvchanlikni ifodalaydi. Shaxs kreativligi u tomonidan tashkil etiladigan faoliyatning samaradorligini oshiribgina qolmay, uning uzoq yillar davomida o’z dolzarbligini yo’qotmaslik, amaliy qiymatini pasaymasligini ta’minlaydi. Faoliyat mazmunining yangi g’oyalarni boyitilishi, innovatsion tarkibiy qismlar bilan to’ldirilishi uni tashkil etayotgan shaxs uchun ham, atrofdagilar uchun ham birdek qiziqarli, zavqli bo’lishiga yordam beradi. O’z faoliyatini ana shu tarzda yo’lga qo’yishga erisha olgan shaxs bozor munosabatlari sharoitidagi murakkab, kuchli raqobatga bardoshli bo’la oladi. Shu sababli umumiy o’rta ta’lim maktablarida o’quvchilarda kreativ sifatlarini shakllantirish, uni izchil rivojlantirib borish mehnat bozorida o’z o’rniga ega bo’lishiga yordam berish bilan birga sohaning rivojlanishiga ham zamin yaratadi. O’quvchilarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning asosiy bosqichlari ya’ni moslashish (adaptiv), amaliy-faoliyatli, tahlil-baholash, rivojlantirish orqali yondashuv “Texnologiya” darslarida o’quvchilarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish samaradorligini kafolatlaydi.

1 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasining Xalq ta’limi tizimini 2030 yilga qadar rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi (2019 yil 29 aprel) PF-5712-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/4312785>.

2 Методики развития креативности // [http://moluch.ru/rules/?utm\\_source=selfad&utm\\_medium=popup&utm\\_campaign=archive](http://moluch.ru/rules/?utm_source=selfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive)

3 Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления // <https://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-dagnostika-tvorcheskogo-myshleniya>.

4 [google.co.uz/search?q=kashta+namunalari+foto&tbn=isch&ved=2ahukewjhwm17L\\_pahupwiokhvnbqkq2-cceqgiabaa&oeq=kashta+namunalari+foto](https://google.co.uz/search?q=kashta+namunalari+foto&tbn=isch&ved=2ahukewjhwm17L_pahupwiokhvnbqkq2-cceqgiabaa&oeq=kashta+namunalari+foto)

## JADIDLAR TA'LIMOTIDA MILLIY UYG'ONISH G'OYALARI

*Baxti Muradovna Ochilova - f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagoqika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada vatan tarixining murakkab, dolg'ali davrlari ijtimoiy fikrini o'rganishga bag'ishlangan. Unda jadidchilik hodisasi milliy uyg'onish maqomida ko'rib chiqilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению общественной мысли в сложные и бурные периоды истории страны, в которой джадидизм рассматривается как явление национального возрождения.

**Abstract:** In this article, dedicated to the study of social thought, the complex periods of the country's history are considered as a phenomenon of national awakening.

**Kalit so'zlar:** tarix, tarixiy xotira, g'oya, mafkura, jadidchilik, milliy uyg'onish, milliy o'zlikni anglash, ma'rifat, usuli jadid, Behbudiy, Munavvar Qori, Fitrat.

**Ключевые слова:** история, историческая память, идея, идеология, джадидизм, национальное пробуждение, осознание национальной идентичности, просвещение, приёмы джадидизма, Бехбуди, Мунаввар Кори, Фитрат.

**Keywords:** history, historical memory, idea, ideology, Jadidism, national awakening, awareness of national identity, enlightenment, Jadid method, Behbudi, Munavvar Qori, Fitrat.

Haq olinur, berilmas. Har millat va mamlakat xalqi o'zining huquqi, dini va siyosatini harakat va ittifoq ila boshqalardan oladi... biz musulmonlar, xususan, Turkiston musulmonlari, istaymizki, hech bir kishi bizning din va mamlakatimizga zulm, tahdid qilmasun va bizni ham boshqalarga tahdid qilmoqqa aslo fikr va niyatimiz yo'q.

(Mahmudxo'ja Behbudiy)

O'tmishdagi evrilishlar, urush va inqiloblar, yuksalishdan inqirozga ketish holatlari, jamiyatdagi tub o'zgarishlar tarixga qiziqish va e'tiborni kuchaytiradi, tarixiy xotira ming yillar davomida ijtimoiy hayotni tanazzulga uchrashishdan himoyalaydi. "Tarixni o'rganish – deb ta'kidlagan edi XVIII asrning buyuk nemis ma'rifatparvari Fridrix Shiller, – aqlimizni nurlantiradi, qalbimizni olijanob fidoyilik bilan alangalantiradi<sup>1</sup>. Bu xususda o'zbek jadid-ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "har bir qavm o'zining bosib o'tgan ijtimoiy, siyosiy ahvolini bilishi kerak, o'zini o'sha o'tgan tarixiy davri bilan taqqoslab o'sha davridan qanchalik rivojlanganligini bilishi joizdir. Har bir millat agar yashashni xohlasa, o'z qavmining o'tmishi, tarixiga murojaat qiladi va agar biror qavm halokatga mahkum bo'lgan bo'lsa, uning sabablarini o'rganib, bu halokatga bog'liq bo'lgan odatlarini tark qilishi kerak. Boshqa bir millatning taraqqiysiga sabab bo'ladigan qoidalarni o'ziga qabul qilishi

zaruriyatdir"<sup>2</sup> – deb yozgan edi.

Shu nuqtai nazarlardan jahon madaniyati tarixida alohida o'rin tutgan o'zbek turkiy milliy uyg'onish hodisasini o'rganish ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etib kelmoqda. Chunki, bu hodisa davrning dolzarb masalalarini ko'tarishi, mavjud tartibotlarning barcha asosiy jihatlarini tubdan o'zgartirishni ifodalashi, siyosiy, huquqiy islohotlarni kun tartibiga qo'yishi, ijtimoiy fikrni o'zgartirishi, yangilikni vazifa etib belgilash va aksariyat holatlarda o'z yakunini siyosiy kurashda topishi bilan xarakterlanadi.

Umumnazariy ma'noda olganda jadidchilik o'z davrining eng peshqadam milliy uyg'onish mafkurasi bo'lib, u o'zida milliy ozodlik yo'lidagi ijtimoiy harakat va ma'rifatparvarlik g'oyalarini ifodalaydi. "Jadid" tushunchasi ifodalagan voqeliklarda ham bu o'z ifodasini topgani kuzatiladi. "Musulmonlar jamiyatini zamonaviy aloqa vositalari va muloqotning yangi shakllaridan foydalanish orqali isloh qilishga urinuvchi shaxslar "jadidlar" deb ataladi"<sup>3</sup>. "Tijorat maydonlarida, tahsil madrasalarida, axloq to'g'ivlarida o'z ishlarining qoidasini va zibarini bir yahudiy qadar biluvchi ongli kishimiz yo'q. Dunyoning telefon va teleg'rof hamda temur yo'llar kabi fanniy mo'jizalarini ko'rub-da shunlarning sirlarini o'granurg'a tirishuchi odamimiz yo'q. Hatto madrasalarimizdan chiqub-da bir jamoatning kofirligini e'lon etuchilarimiz-

da durust yoza bilmaylar. Shu holni yaratub, bundan rizo bo'lub turuchi birgina musulmonda bo'lmasa kerak. Mana shu shiy ravishda bo'lg'an ijtimoiy xastaliklarimizg'a davo izlovchilar "jadid" lardir"<sup>4</sup>.

Jadidlar istiqol uchun sabot-matonat yo'lini tutgan, millatning taraqqiyoti uchun bel bog'lagan kishilar edi. Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Behbudiy, Fitrat, Munavvar Qori, Avloniy, Tavallo, Cho'lpon...hammalari millatimiz ruhiyati va xarakteri ichiga teran ijtimoiy maqsadlarni ko'zlagan holda kira olgan edilar. Ular shu tariqa millatning asl tabiatiga xos bo'lmagan, faqat zulm va zulmat ichida, zo'raonliklar ostida uzoq muddatlarda orttirilgan kayfiyatlar va odatlarni fahmlab yetdilar. Millat zulm ostida orttirgan kayfiyatlardan biri hamiyatsizlik, ikkinchisi g'ayratsizlik edi. Ijtimoiy taraqqiyot uchun kurashga bel bog'laganlar shu ikki hodisaga qarshi va shu ikki hodisadan hosil bo'lgan ilmsizlik, jaholat, qiziqishlarning o'lishi kabi millat tabiatiga yot bo'lgan salbiy xususiyatlarga qarshi jang olib bordilar.

Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!! - deya da'vat qildi Munavvar qori, ko'zimiz g'aflat uyqusidan ochild, atrofimizga nazar solmakimiz lozimdir. Har millat o'z saodat hol va istiqbolini muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib, ilm va maorifg'a ortiq darajada ko'shish qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavflik o'lub hamma olamga masxara va kulgu o'lmog'imizda hech shubha yo'qdir<sup>5</sup>.

Jadidchilik harakati davlat, tuzum, boshqaruv tizimini isloh etish, millatni ong va tafakkurini rivojlantirish orqali, umuman, jamiyatni yangi hayot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilib qo'ygan g'oya va tamoyillar aniq amaliy tadbirlarni o'zida mujassamlashtirgan tizim edi. Lekin bu tizim o'z-o'zidan yuzaga kelmadi. "Turkistondagi jadidchilik harakati murakkab, tarixiy jihatdan serqirra yo'lni bosib o'tdi. Jadidlar turli mamlakatlardagi taraqqiyot, islohotlar uchun olib borilgan harakatlarning falsafiy tajribasiga tayanib, bu tajribani milliy asosda qayta ishlashga intildi, ayni paytda ijtimoiy taraqqiyot yo'llari haqidagi turli qarashlarning to'qnashuv maydoni ham bo'ldi. Mustamlakachilikka qarshi kurashning bosh g'oyasi ana shu murakkab yo'lda shakllanib yetildi"<sup>6</sup>.

Jadidlar o'z maqsadlarini amalga

oshirishda milliy matbuotni qudratli vosita sifatida ko'ra oldilar. 1906-yilda Munavvarqori rahbarligida "Xurshid", 1907 – 1908-yillarda Abdulla Avloniy muharrirligida "Shuhrat" gazetasi chiqa boshlagan. "Taraqqiy" (1906), "Samarqand" (1913), "Sadoi Turkiston" (1914-1915), "Sadoi Farg'ona" (1914) va 1917-yildan keyin chiqqan "El bayrog'i", "Kengash", "Turon", "Oyna", "Hurriyat", "Najot", "Ulug' Turkiston", "El bayrog'i", "Tujjor", "Sayohat xotiralari", "Oyina" singari gazeta va jurnallar chop etildi. Jadidlar matbuoti "har millatning ulamosi, ahli qalami, mutafakkirlari o'z millatining namoyandasi uchun yo'l ko'rsatur, mashvarat berur, millat axloqining islohi uchun masjidlarda pand va nasihat berur, maktab va madrasalarda dunyo va oxiratta kerak ilm va fan, ta'lim berarlar, kitob va gazet ila ummatni muslihi uchun bahs va muhokama qilurlar"<sup>7</sup> degan vazifani qo'yadi.

Jadid matbuoti ta'lim-tarbiya, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va huquqiy masalalarga keng o'rin beradi, Turkistonga muxtoriyat olish masalasini ilgari suradi. U "Rossiya imperiyasida 30 mln turkiy xalq vakillari yashaydi. Ularning hammasi uchun ham Turkiston xalqi avtonomiya oluvi kerak va buning uchun barcha qardosh turkiy qavmlar ham yordam bermog'i lozim. Buning uchun hozircha qurol, oqcha yo'q ammo ularni topa bilamiz va buni kerak deb bilamiz"<sup>8</sup> "Demokratiya – bu jamiyatga teng huquqlar, umumiy saylovlar, bepul ta'lim va tibbiy xizmatlarni joriylash demakdir"<sup>9</sup>; "Bizlar hozirgi ittifoqsizligimizni yo'qotib, birlashsak, shunda hech bir xavfu-xatar bizga ta'sir qilmas. Shul vaqtda biz muxtoriyatni yo'qotmaymiz, bizdan uni tortib ololmaslar. Do'st, bizlarda hozir hech bir yetishgan narsalarimiz yo'q. Bizlarda ishga keraklik kishilar yo'q. Bizlarda asbob olat, to'p, to'fang va boshqa kerakli narsalar yo'q. Lekin, ushbu yo'q narsalarni xohlagan vaqtda bor qilmoqqa sabab bo'ladirgan himmat va g'ayratimiz bor. Agar shul himmatimizni kerak vaqtda sarf qilmoqqa dangasalik qilmasak, kerak joyda g'ayratimizni ko'rsatmasak maqsadimizga yeta olmaymiz. Ey, Turkiston musulmonlari! Ey, turk beshigida bo'lgan turk bolalari! Ey, Turkistonni o'z vatani deguvchilar!

Turkiston muxtoriyatini mustahkamlamoq uchun oqcha kerak, oqcha! Ko'rsatingizlar himmatingizni"<sup>10</sup>.

Jadidlarning xalqaro aloqa va munosabatlarga kirishga harakat qildi, bu

1 Янги ва энг янги давр Фарбий Европа фалсафаси. – Тошкент: Шарк, 2002. –Б. 83-84.

2 Абдурауф Фитрат. Рахбари нажот. – Т., Шарк, 2001. – Б. 50-51.

3 Adeeb Khalid. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Tzarist Central Asia. PhD. Madison 1993.-P.137.

4 Фитрат, Танланган асарлар. 3-жилд, Т., Маънавият, 2003, -Б. 210.

5 Мунаввар қори Абдурашидхонов. Танланган асарлар. - Т.: "Маънавият", 2003. –Б. 145-146.

6 Жаид маърифатпарварлик ҳаракатининг гоъвий асослари. – Т., Тошкент ислом университети, 2016. – Б. 6.

7 <https://elibrary.ru/item.asp?id=24065184>

8 "Улуғ Туркистон". №3. 1917-йил. 5-май.

9 "Улуғ Туркистон". № 6. 20-май. 1917-йил.

10 "Эл байроғи". №17. 23-январь. 1918-йил.

esa Rossiya, Turkiya, Misr, Eron jadidlarining dasturi bilan tanishish imkonini berdi. 1903-1904-yillarda Mahmudxo'ja Behbudiy Peterburg, Moskva, Qozon, Orenburg, Qrimda bo'ldi. Maorif sohasida Rossiya, ayniqsa, Qrim jadidlari tajribasi, Ismoil Gasprinskiy bilan yaqindan tanishuv Behbudiyning butun sa'y-harakatini jamiyatni qayta qurish rejalarini amalga oshirishga qaratishiga turtki bo'ldi. Tatar matbuoti, xususan, "Tarjimon", "Vaqt", "Sho'ro", "Ong" nomli gazeta va jurnallari jadidlar faoliyatida katta o'rin tutadi. Mazkur nashrlarning sahifalarida Turkiston jadidlari tomonidan 138 ta maqola bosildi. Turkistonning siyosiy ahvoli, davlat qurilishi, idora usuli, aholining turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari bilan bog'liq muammolar yoritildi.

1916-yil qo'zg'oloni (Imperator Nikolay II ning 1916-yil 25-iyundagi "Imperiyadagi rus bo'lmagan erkak aholini harakatdagi armiya rayonida mudofaa inshootlari va harbiy aloqa yo'llari qurish ishlariga jalb qilish" haqidagi farmoniga qarshi) va 1917-yil 27-fevral inqilobi (Birinchi Jahon urushidan Rossiyaning siyosiy, iqtisodiy tanazzuliga qarshi xalq qo'zg'oloni oqibatida Romanovlar sulolasining taxtdan ag'darilishi) jadidchilikning siyosiy faollashuviga ta'sir ko'rsatdi.

Bu tarixiy sharoit tub aholini islom mafkurasi asosida birlashtiruvchi, Munavvar qori tomonidan boshqarilgan "Sho'royi islom" jamiyatini tuzishga olib keldi va jamiyat halq hayotini isloh qilish uchun quyidagi maqsadlarni amalga oshirishni o'z vazifasi deb belgiladi:

1. Turkiston musulmonlari orasida siyosiy, ilmiy va ijtimoiy jihatdan zamonga muvofiq islohot fikri tarqatmoq;
2. Butun Turkiston musulmonlarini bir fikr va bir maslakka keltirmoqqa tadbir va harakatlar qilmoq;
3. Mamlakatning usul idoralari haqida ma'lumot yig'ib "Ta'asis majlisi"ga hozirlamoq;
4. Turkistonning har bir shahar, qishloq va ovullarida mitinglar yasab, siyosiy, ilmiy va ijtimoiy xudbalar o'qitmoq<sup>11</sup>.

Jadidchilar jamiyat inqirozining asosiy sababini savodsizlik, ilmsizlik, ma'rifatsizlikda ko'rib, asosan, xalqni ilm-ma'rifatli qilish, diniy va dunyoviy bilimlarni teng o'rganish, yosh avlodga berilayotgan ta'lim-tarbiya tizimini yangilash va rivojlantirish, siyosiy va insoniy huquqlar yuzasidan jadal islohotlarni amalga oshirishni maqsad qildilar. Bu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Zamona ilm-fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur"<sup>12</sup> g'oyasi harakat dasturining

muhim omili bo'ldi. Zerokim, g'oya jamiyat taraqqiyotini belgilovchi, iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy hayotni harakatga keltiruvchi bosh omil sifatida inson ongi va tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. Ijtimoiy ong darajasiga ko'tarilgan g'oya esa inson tafakkurining o'zgarishiga ta'sir qiladi va jamiyat ongida o'z ifodasini topadi.

Fevral voqealardan keyingi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar davrida Turkistonda 1916-yilga qadar ham faoliyat ko'rsatgan milliy jamiyatlar o'z oldilariga siyosiy vazifa va milliy ozodlik g'oyalari qo'ya boshladilar. Toshkentda "Sho'royi islom", "Turon", "Sho'roi Ulamo", "Ittifoqi musulmin", Qo'qonda "G'ayrat", Buxoroda "Yosh buxoroliklar", Xivada "Yosh xivaliklar", Samarqandda "Ittifoq", "Mirvaj ul-islom", "Miftah ul-maorif" kabi tashkilotlar faoliyat ko'rsata boshladi. Bularning ijtimoiy-siyosiy yo'nalishini belgilashda Munavvar qori, U.Xo'jayev, M.Behbudiy, A.Zohiriy, A.Z.Validiy, Mustafo Cho'qay, Fitrat, F.Xo'jayev, U.Po'latxo'jayev, Sherali Lapin, M.Mirmo'minboyev, O.Mahmudov, Polvonniyoz hoji Yusupov, T.Norbo'tabekov kabi taraqqiyparvarlar faollik ko'rsatdilar. Munavvar qori tomonidan 1918-yilda Toshkentda ochilgan "Turk o'chog'i" ilmiy-madaniy jamiyati, uning o'zining izohlari bilan aytganda, "Turkiston turklarini milliy tug'ostiga to'plab, alarga milliy ruh, milliy g'oya va milliy tarbiya bermoq, milliy urf-odatimizga muvofiq suratda ilm va ma'rifatimizni, tijorat, ziroat va san'atimizni rivojlantirib, chin bir turk madaniyati vujudga keltirmak va shu tariqa millatimizning ruhiy va jismoniy quvvatini orttirish"<sup>13</sup> maqsadida barpo etilgan edi.

Bu o'rinda Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, boshlab beruvchisi Mahmudxo'ja Behbudiy katta o'rin tutadi. Behbudiyning ijtimoiy-siyosiy, huquiy, madaniy va ma'riatparvarlik g'oyalari "Qonuni Ovrupo", "Haq olinur, berilmas!", "Loyiha", "Turkiston", "Ehtiyoji millat", "Bizni hollar va ishlar", "Jaholat dardlaridan", "Bizni kemiruvchi illatlar", "Yoshlarga murojaat", "Muhtaram yoshlarga murojaat" kabi maqolalarida va "Padarkush" "Bizni kemiruvchi illatlar", "Kitobat - ul aftol", "Ikki til emas, to'rt til lozim", "Ehtiyoji millat" kabi qator asarlarida yoritiladi. Uning fikriga ko'ra, millat ozod bo'lib, o'zining mustaqil davlatini o'rnatmaguncha, ijtimoiy adolatni tiklab bo'lmaydi. Millat o'zini anglagandagina ijtimoiy-siyosiy masalalarni boshqalar bilan teng muhokama eta oladi. Millat zamon va dunyo voqealaridan, Vatanining ahvolidan, ijtimoiy va kundalik hayotidan xabardor bo'lib borishi zarur. Buning uchun matbuot, teatr va

ma'rifat kerak. Millat o'z davrining zamonaviy ilm-fanini egallamas ekan, u o'zligini anglay olmaydi, shuning uchun u boshqa xalqlarga qaram bo'lishga majbur bo'ladi.

"Padarkush" dramasi ana shu xulosalar tufayli yuzaga keldi. Asar ma'rifatsizlik, jaholat, axloqsizlik hamda farzand tarbiyasiga noto'g'ri yondashuv qanday og'ir oqibatlariga olib kelishi haqida bayon qiladi: "Bizlarni xonavayron, bachagiryon, bevatn va bandi qilg'on tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanga darbadarlik, asorat, fahru zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyaning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiyot qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiyot qiladi. Asir va zabun bo'lganlarida beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o'qitmamiz, bul tariqa yomon xodisalar va badbaxliklar oramizda doimo hukm-farmo bo'lsa kerak. Bu ishlarni yuq bo'lmog'iga o'qimoq va o'qitmoqdan boshqa iloj yo'q"<sup>14</sup>. Mutafakkir kuyunganida jon bore di. Sababi, o'shadavrlardaboylar o'zlarining boyliklarini faqat bazmu jamshid va kayfu safoga sarflar, farzandlari tarbiyasiga yetarli ahamiyat bermasdilar. "Padarkush" dramasida ma'rifatparvarlarning ijtimoiy-ma'rifiy g'oyalari o'z ifodasini topgan. Asarda boyning "boylik turganda ilm-ma'rifatning keragi yo'q" qabilida ish tutib, o'g'li Toshmurodni takasaltang, noshud qilib o'stirganligi haqida so'z boradi. Boy ilmning afzalligi haqida gapirgan domla hamda taraqqiyparvar ziyolini jerkib tashlaydi. Oxir oqibat ilm-ma'rifat ko'chasiga kirmay, ichkilikka, maishatga mukkasidan ketgan o'g'il o'z otasining o'limiga sababchi bo'ladi.

Uyg'onishning asosiy shartlaridan bir maorifdir. Buni chuqur anglagan Behbudiy o'z asarida ta'lim va tarbiyani inson tafakkurini o'zgartiruvchi omil hamda harakatga keltiruvchi kuch sifatida ilgari suradi. Uning g'oyalari yangi maktablar uchun mo'ljallangan darsliklar orqali ham keng yoyildi. 1904-yilda "Risolai asboi savod", 1905-yilda "Muntahabi jug'rofiyai umumiy", "Risolai jug'rofiyai Rusiy", 1908-yilda "Kitobat-ut atfol", "Amaliyoti islom", 1909-yilda "Tarixi islom" kabi kitoblari chop etiladi.

Ta'lim-tarbiya bilan bog'liq muammolarga jiddiy e'tibor qaratgan Behbudiy shunday deb yozadi: "Zamonning marvari ila ba'zi rasm va odatlar doimo o'zgarib turadiki, bu o'zgarish bobomiz Odam zamonasidan beri voqea bo'lib kelmoqdadir. Rasm va odatlar ichida yaxshisi bo'lg'onidek, yomon va zararlisi ham mutloqo bordir. Chunonchi, burung'i zamonda isrofli to'y va aza va bazmi juvon kabi yomon odatlarimiz

yo'q edi. So'ngra paydo bo'ldi: qabul etdik. Endi shuning qo'lidan osonlik ila qutula olmay turibmiz"<sup>15</sup>. "A'molimiz yoinki murodimiz" nomli maqolasida turkistonliklarning turli tadbir, to'ylaridan tortib milliy o'yinlarigacha bo'lgan har kunlik turmushidan yon-tevaragidagi millatlar ishlariga va qanday yashayotganlariga qarashga chaqiradi. U xalqni isrofli tadbirlardan voz kechib, ularga sarf qilinadigan mablag'ni iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida milliy kadrlar tayyorlash maqsadida bolalarni o'qishi uchun yo'naltirishga da'vat etadi<sup>16</sup>.

Behbudiy, milliy urf-odatlarini himoya qilish bahonasida, milliy cheklanishga borib qolishdan saqlanishni, bezarar yangiliklarga intilishidan cho'chimasligini alohida ta'kidlaydi: "...Endi kelayluk juz'iy tashabbuhlar mos'alasigakim, bu: kursi (stul)ga o'tirmoq, qoshiq va chinakcha bilan iste'mol etmak, medal taqmoq, havoning issiqligi uchun bosh yalang'och o'tirmoq kabi shaylardan iboratdir. Agar bu juz'iy tashabbuhlar ila-da kishi kofir bo'laversa, bas, yer yuzida bir nafar ham musulmon qolmasligi lozim kelur..."<sup>17</sup>

Behbudiyning fikrlarida nafaqat o'sha davr, balki, hozirgi zamonamiz uchun ham ibrat olsa arzigulik g'oyalar mavjudki, bu g'oyalar zamirida insonni tarbiyalashda hamma narsani qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qilish, unga ixlosmand bo'lish emas, balki zararli odatlardan saqlanish, millatimiz ma'naviyatini darz ketgizuvchi, xalqimiz mentalitetiga zid xatti-harakatlarni hayotimizdan siqib chiqarishga qat'iy da'vat ham bor. Garchi unda jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan har bir yangilik, o'zgarishga ijodiy yondashishga da'vat etilayotgan bo'lsa -da, shaxs ma'naviyati bilan bog'liq barcha masalalarga o'ta mas'uliyat bilan yondashish zarurligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Jadidlarning Buxorodagi mafkurachilardan biri Abdurauf Fitrat edi. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, adabiyotshunos, san'atshunos Abdurauf Fitrat butun faoliyatini el va yurt ozodligi, taraqqiyot maqsadlariga bo'ysundirgan, shu zaylda davlatning boshqaruv tizimini, maorifni, jamiyatni, tuzumni isloh qilish g'oyalari ilgari surgan, mutafakkir-faylasuf va davlat arbobi edi. Taraqqiyparvar olim 1923-1926-yillarda Rossiyaning Moskvadagi Sharqshunoslik ilmiy-tekshirish institutida ishlagan, Leningrad davlat universiteti Sharq fakulteti Sharq xalqlari tili, adabiyoti, madaniyati mavzularida ma'ruzalar olib borgan, 1924-yilda professor ilmiy unvonini qo'lga kiritib, tarixda birinchi

11 Munavvar qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2003. - B. 42.

12 Mahmudxo'ja Behbudiy Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2005. B. 56.

13 Munavvar qori Abdurashidxonov, Yalqovlik e'vimizdir // Uz AC, 1991, 26 aprel.

14 Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2005. - B. 50.

15 Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2000. - B. 87.

16 A'molimiz yoinki murodimiz // O'yna. 1914. № 6-7.

17 Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. - T.: "Ma'naviyat", 2000. - B. 87.

o'zbek professori sifatida e'tirof etilgan.

Fitratning ilk faoliyatiga XIX asr oxiri va XX asr boshlarida musulmon olamida katta mavqega ega bo'lgan islomchilik g'oyasi va uning Turkiyadagi asoschilari Jalolidin al-Afg'oni (1839-1897), Nomiq Kamol (1840-1888), tatar mutafakkirlari Ismoilbek Gasprali (1851-1914), Rizo Faxriddin (1858-1936), o'zbek jadidchilik harakatining rahbari Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) qarashlari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Turkiyaning Istanbul dorilfununidagi to'rt yillik tahsili Abdurauf dunyoqarashining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

1909-1916-yillarda Fitrat jadid ma'rifatparvari sifatida ijod qildi. Uning jamiyat hayotini demokratik tarzda qayta qurish g'oyalari, ijtimoiy-siyosiy, falsafiy qarashlari "Sayha" degan she'riy to'plamida, "Munozara", "Hind sayyohi" deb nomlangan nasriy asarlarida, "Chin sevis", "Hind ixtilolchilari", "Arslon", "Abulfayzxon", "Vose' qo'zg'oloni", "Boy", "Xalil farang", "Cho'ring isyon", "Yorqinoy" dramalarida, "Kecha va kunduz" romanida, "Oila" asarida, "Bedil", "Muxtasar islom tarixi", "Najot yo'li" kabi risolalarida ochib beriladi. Fitratning har bir asari istiqbol va taraqqiyot konsepsiyasi sifatida ahamiyatga ega. Turkiston jadidchiligini tadqiq etuvchi ayrim olimlarning ta'kidlashlaricha, mahalliy jadidlar 1917-yilga qadar umumiy bir dasturga ega bo'lmaganlar. Ularning fikricha, turkistonliklarning dunyoqarashini bir qadar o'zgartira olgan asarlar Fitratning "Munozara" va "Hind sayyohi"dir.

"Munozara"da tanqid ostiga olingan Buxoro ijtimoiy hayotni xarob holatga solgan jaholat, nodonlik va boshqarish tizimi "Hind sayyohi"da har tomonlama tahlil qilinadi. "Hind sayyohi" 1912-yilda Istanbulda nashr etildi. Bu asar Buxoroda ham, Turkustonda ham ijtimoiy fikrni uyg'otishda juda katta rol o'ynadi. Chunki unda o'sha davrdagi Buxoro hayotining eng chirsillab turgan, keskin ijtimoiy muammolari qalamga olingan bo'lib, hayotda teran va izchil islohotlar o'tkazish zaruriyati ta'kidlangan edi. Hind sayyohi bu Fitrat. U Hindistondan kelgan ochiq fikrli, taraqqiyparvar hind sayyohi tilidan juda g'arib va ayanchli ahvolga tushib qolgan Buxoro uchun islohot-o'zgartirish kiritish g'oyasi, e'tiroznoma g'oyasi, islohchilik g'oyasini ilgari surdi. Mana shu g'oyalar asnosida vazifalarni belgiladi: jamiyat hayotining hamma sohasini isloh qilish, ijtimoiy tuzumni o'zgartirish; demokratik xarakterdagi boshqaruvni joriy qilish; diniy mutaassiblik va milliy mahdudlikdan voz kechish; jahondagi ilg'or, taraqqiy etgan mamlakatlar tajribasini o'rganish; ta'lim-

tarbiya va maktab sohasini isloh qilish. "... qachonki bu adashuvchilar falokat va ojizlik yukidan «dod» deb, g'afolat uyqusidan uyg'onib o'zlarining saodatlarini barqaror etish yo'lida sa'y-harakat etsalar, ... va dono, zukko, ahamiyatli, mutafakkir yoshlar... Shuning o'zi buxoroliklarning uyg'onishi uchun katta dalildir. Hammaga ma'lumki, har bir millatning taraqqiyoti uchun ilm asosiy sababdir. Sizning ilmingiz yo'q... bir johil millatning olim bo'lishi uchun uch narsa zarurdir: pul, madrasa, sa'yu amal"<sup>18</sup>.

Fitrat yangi jamiyat qurmoq uchun ishni, eng avvalo, oilani isloh qilishdan, cheklangan tafakkurni, madaniyatni o'stirishdan boshlamoq zarur, oilaning asosini to'g'ri qurmay turib, jamiyatni isloh qilish, uning rivojini taraqqiyot sari yo'naltirish mumkin emas va oxir oqibatda millatning taqdiri oilaning holatiga bog'liq bo'ladi deb hisoblaydi. "Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa, shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi"<sup>19</sup>.

"Oila" asarining "Farzand tarbiyasi" bobida muallif oddiy va yorqin misol bilan o'z davri odamlarining farzand tarbiyasiga naqadar yuzaki munosabatla bo'lishini tanqid qiladi: "Biz turkistonliklar bolalarimizdan ko'ra mollarimizga yaxshiroq qaraymiz. Eshak va qo'ylarimizni farzandlarimizdan ham ko'proq yaxshi ko'ramiz deb aytmayapman. Yo'q-yo'q, bolalarimiz jonimizdan ham aziz. Ular nazarimizda, hammadan suyuqli va aziz. Lekin baxtimizga qarshi shuni e'tirof qilish lozimki, shuncha muhabbat va mehrga qaramasdan, eshak va qo'ylarimizdan kamroq tarbiyalaymiz. Bunga "dalil shulkim, kimning uyida moli bo'lsa, tekshirsa ko'radiki, yil davomida uning mollaridan bittasi ham kasal bo'lmagan, ammo farzandi hech bo'lmasa, uch marta xastalikka chalingan. Bas, ma'lum bo'ladiki, u kishi molining kasal bo'lmasligiga ko'proq e'tibor berar ekan"<sup>20</sup>.

Asarning farzand tarbiyasiga bag'ishlangan faslida tarbiyani an'anaviy yo'nalishda talqin etadi: jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya va axloqiy tarbiya. Ana shu uch tarbiya uyg'unligida haqiqiy inson kamol topadi, deb hisoblaydi muallif.

Farzand tarbiyasi xususida so'z yuritib, Fitrat o'z asarida tarbiyani 3 bosqichga bo'ladi va bu bosqichlarda farzandning tarbiyasi bilan shug'ullanishi kerak bo'lgan mas'ullar haqida aytib o'tadi. Ya'ni:



1. Tug'ilishdan 7 yoshgacha ota-ona zimmasiga tushadi;

2. 8-20 yoshgacha maktab va madrasa zimmasiga tushadi;

3. Keyin umrining oxirigacha odamning o'zining boshiga tushadi.

"Oila" asarida oila muhitini barpo etuvchi "Badan tarbiyasi", "Aqliy tarbiya", "Axloqiy tarbiya", "Maktab", "Ota-onaning haq-huquqlari" munosabatlar tizimi ishlab chiqilgan. "Badan tarbiyasi" fasli tibbiy amaliy qoidalar dasturi bo'lsa. "Axloqiy tarbiya" fasli ma'lum ma'noda, o'ziga xos axloqiy tarbiya nazariyasi hisoblanadi. U ixtiyor erkinligi muammosini mayl tushunchasi orqali o'rtaga tashlaydi: baxt mayli, faoliyat mayli, aloqa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli va h.k. Bularning hammasida ham insonni jamiyat a'zosi sifatida, ijtimoiy mavjudot sifatida olib qaraydi. Shuningdek, u izzat-nafs, ayniqsa, iroda masalasiga alohida to'xtalib o'tadi. "Iroda va ixtiyor" sarlavhasi ostidagi kichik faslda Fitrat farzandni irodali qilib tarbiyalashga da'vat etadi.

Fitratning axloqiy qarashlarining dolzarbligi shundaki u o'z davrini axloqiy hayotini tahlil qilish orqali o'zgartirishga da'vat etadi va shu orqali ma'naviy-axloqiy uyg'onish g'oyasini ilgari suradi.

Darhaqiqat, "Jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qanchako'p o'rgansak, bugungi kundahambizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotining qadrini anglab yetadi"<sup>21</sup>. Tarixiy haqiqatni qaror toptirish, yurt ozodligi va erkinligi yo'lida qurbon bo'lgan xalqimizning ulug' farzandlari nomini tiklash, ularning hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq va targ'ib etish maqsadida mamlakatimizning birinchi Prezidenti tashabbusi bilan 2000-yil 12-mayda Toshkentning Yunusobod tumanida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi. Millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun 2020-yil 30-sentabr kuni Prezidentimiz farmoniga ko'ra, Mahmudxo'ja Behbudiy "Buyuk xizmatlari uchun", Abdulhamid Cho'lpon «Mustaqillik» ordeni bilan bilan taqdirlandi. Zerokim, "Jadid bobolarimiz yurtimizni ozod etishga, qoloqlikdan olib chiqib, hamma sohalarni rivojlantirishga borini bag'ishlagan. Buning badalini o'z jonlari bilan to'lagan. Biz bugungi mustaqillik, tinchlik, erkinlik sharoitida ularni eslashimiz, e'zozlashimiz ham qarz, ham farz"<sup>22</sup>.

Mavzu tadqiqi natijasida quyidagi

xulosalarga kelindi:

Milliy uyg'onish O'rta Osiyo mintaqasida jadidchilik shaklida namoyon bo'ldi. Bu fenomen noyob ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy hodisa bo'lib, milliy-ozodlik masalalarini kun tartibiga qo'ydi, ijtimoiy-ma'naviy hayotning barcha jabhalarini yangilashni ko'zda tutdi, jamiyat fikrini band etdi va taraqqiyotning kaliti bo'ldi. Jadidchilar o'z oldilariga milliy-iqtisodiy mustaqillik, milliy davlatchilik, milliy o'zlikni ta'minlash, milliy miqyosdagi til, o'qitishda yangi usul maktablari ochish va ilm fanni rivojlantirish, ijtimoiy ravnaqqa erishish va hayotga yangiliklarni joriy qilish kabi ulug' vazifalarni qo'ydilar.

Mahmudxo'ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, Turkistonning birligi, mustaqilligi uchun kurashgan millat jonkuyari, birinchi o'zbek dramaturgi va teatr arbobi. Uning usuli jadid maktablari, matbuotdagi millat haq-huquqiga, tarixiga, til va adabiyot masalalariga, dunyo ahvoriga doir maqolalari, sahna asarlari jasorat namunalari bilan to'la. Behbudiy darsliklari yangi avlod tarbiyasida dasturi bo'lib xizmat qildi. "Haq olinur, berilmas" degan oltin iborasi bugungi kunimizda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning hikmatlarida milliy o'zlikni anglashning betakror ifodasini ko'ramiz. Uning hayot yo'li ayniqsa yoshlar uchun katta ma'naviy meros, ibratli maktab vazifasini o'taydi.

Milliy uyg'onish, millatning o'zligini anglash jarayoni mazkur davr adabiyotining ruhi va mazmunini tashkil qildi. Bu davr adabiyotining bosh mavzui "Millat" bo'lgan. Munavvar Qori, Behbudiy, Fitrat kabi vakillari tomonidan o'lmas asarlar yaratildi. Ozodlik, ezgulik va hurfiylik kuylandi, ijtimoiy-siyosiy-huquqiy muammolar, axloqiy-estetik masalalar yechimi ko'rsatildi, jaholat va mutaassiblik Qur'on ma'rifati bilan tanqid qilindi.

Fitrat shijoatli siyosiy shaxs, mohir jurnalist, lider jadidchi, qaysar milliyatchi, bilimdon dinshunos, qomusiy olim. Uning "Sayyohi hindi" asari Turkistondagi milliy uyg'onish harakatining dasturi bo'lib xizmat qildi. "Oila" risolasi oilaning jamiyat va inson hayotidagi rolini oshirishga, oila a'zolarining huquqiy me'yorlarini belgilashga qaratilgan fikr va mulohazalari yanada rivojlantirildi.

Jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy va badiiy merosi bugungi kunda mamlakat oldiga qo'yilgan strategik vazifa - Uchinchi Uyg'onish davrining poydevorini yaratishda katta ahamiyatga ega.

18 <https://e-tarix.uz/363-hind-sayyohi>

19 Абдурауф Фитрат. Оила. Т., Маънавият, 2000, -Б. 8.

20 Абдурауф Фитрат. Оила. Т., Маънавият. 2000. - Б. 55

21 Мирзиёев Ш.М. Буёқ келажғимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураимиз. - Т.: Ўзбекистон, 2017.-Б.178

22 <https://president.uz/uz/lists/view/4592>

## ГЕНДЕРНЫЕ СТЕРЕОТИПЫ В УЧЕБНИКАХ ДЛЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Фания Абзаловна Ахмедшина - д.и.н., профессор, Джизакский государственный педагогический университет

**Аннотация:** В данной статье предпринята попытка проведения гендерного анализа учебников для начальной школы в мире на предмет наличия гендерных стереотипов. Приводятся примеры как учебники являясь главным средством обучения могут оказать влияние на процесс социализации детей, усвоение общественных гендерных норм и закрепление гендерных стереотипов.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada gender stereotiplari, jinsga asoslangan kamsituvchi munosabat mavjudligi bo'yicha boshlang'ich maktablar uchun darsliklarning gender tahlilini o'tkazishga harakat qilingan. O'qitishning asosiy vositasi bo'lgan darsliklar bolalarning ijtimoiylashuvi jarayoniga, ijtimoiy gender me'yorlarini o'zlashtirishiga va gender stereotiplarini mustahkamlashga qanday ta'sir qilishi mumkinligi haqida misollar keltirilgan.

**Abstract:** This article attempts to conduct a gender analysis of textbooks for primary schools in the world for the presence of gender stereotypes, discriminatory attitudes based on gender. Examples are given of how textbooks, being the main means of teaching, can influence the process of socialization of children, the assimilation of social gender norms and the consolidation of gender stereotypes.

**Ключевые слова:** гендерный анализ учебников, тендерные стереотипы, социальные роли женщин и мужчин.

**Kalit so'zlar:** darsliklarning gender tahlili, gender stereotiplari, ayollar va erkaklarning ijtimoiy rollari.

**Keywords:** gender analysis of textbooks, tender stereotypes, social roles of women and men.

Образовательная сфера является мощным средством, с помощью которого осуществляется и обучение, и воспитание, и реализация социальных ролей. Школа оказывает большое влияние на процесс социализации детей, усвоение общественных гендерных норм и закрепление гендерных стереотипов.

Уже начиная с учебной литературы для начальных классов воспроизводятся традиционные тендерные стереотипы о разделении сфер жизни, профессий, семейных обязанностей, увлечений. Если за мужчинами закрепляется профессиональная сфера и активный отдых вне дома, то за женщинами, в основном, дом, семья, дети. Такая информация о социальных ролях женщин и мужчин, нормах поведения формирует в сознании школьников понимание того, что является «нормой» в обществе.

Большинство ученых пришли к выводу, что мальчики и девочки в процессе воспитания подвергаются разному обращению, что получило название

дифференцирующей социализации. Так, американские психологи Э. Маккаби и К.Джеклин отмечают несколько возможных вариантов, объясняющих процесс гендерной социализации: родители обращаются с разнополыми детьми так, чтобы приспособить их поведение к принятым в обществе нормативным ожиданиям. Мальчиков поощряют за энергию и соревновательность, а девочек — за послушание и заботливость. Родители считают поведение, «естественное» для данного пола, неизбежным и не пытаются изменить его; поэтому мальчикам сходят с рук шалости, за которые девочек наказывают<sup>1</sup>.

Дискриминационное отношение по половому признаку отражены также в детских книгах и учебниках начальной школы. Это доказывается специальными исследованиями, проведенными в разных странах в разные годы. Анализ учебников в мире на предмет наличия гендерных стереотипов начался с 1980-х годов, по результатам которых в развитых странах

были проведены соответствующие реформы. В 2011 году в США были опубликованы результаты исследования, которое часто называют самым масштабным в этой области. Эксперты рассмотрели более 5600 детских книг, изданных в течение XX века и обнаружили, что в заголовках мужчины фигурировали почти вдвое чаще женщин и в 1,6 раза чаще становились главными героями<sup>2</sup>.

Несмотря на определенный прогресс в сокращении сексизма исследования показывают, что в учебниках начальной школы во всем мире женщин изображают в стереотипных ролях или игнорируют, и это усиливает гендерный дисбаланс в школах. По оценкам экспертов сдвиги происходят «очень медленно». Например, профессор Реи Лессер Блумберг из Университета Вирджинии изучая учебники по всему миру более десяти лет пришла к выводу: «Дискриминация по половому признаку - это проблема школьного образования, которая спрятана в тени. Так, из хрестоматии для начальных классов в Гаити ученики узнают, что мамы «занимаются детьми и готовят еду», а отцы работают «в офисе». В пакистанском иллюстрированном учебнике все политики, авторитетные и влиятельные - мужского пола, в Турции мальчик на рисунке мечтает стать врачом, а девочка представляет себя будущей невестой в свадебном платье. Поразительный пример приведен в итальянском учебнике. В одном из разделов есть словарь разных профессий: 10 разных вариантов для мужчин и ни одного - для женщин. В индийском учебнике по истории для третьего класса нет ни одной женщины, которая работает. Учебник по английскому языку в Кении, изображает активных мужчин, которые имеют «интересные идеи», тогда как женщины и девушки готовят блюда и заплетают косы куклам. В книгах, утвержденных министерством образования Ирана, мужские персонажи составляли до 80%. В Индии - лишь 6% иллюстраций, на которых женщины изображены отдельно, а в Грузии - 7%. Обзор учебников по математике Камеруна, Кот-д'Ивуаре, Того и Туниса показал, что соотношение женских и мужских персонажей составляет менее 30%, такой же обзор учебников по естествознанию в Великобритании и Китае показал, что 87% персонажей в них мужского пола. Исследование, проведенное в Австралии

выявило, что вдвое больше мужчин изображено на руководящих должностях и в четыре раза больше - в политике и правительстве" хотя по статистике женщин в этой стране больше, чем мужчин<sup>3</sup>.

К таким же выводам пришли и исследователи, проанализировав 21 учебник для 1-4 классов по чтению, русскому и узбекскому языкам, математике, пению, изучению окружающего мира для общеобразовательных школ Узбекистана. «Наши наблюдения приводят нас к неутешительному выводу, что процесс усвоения факта профессиональной сегрегации женщин происходит уже на уровне начального образования. Скучный список «женских» профессий ограничивает возможности выбора девочек и женщин, и тенденции концентрации женщин в определенных отраслях (как правило, менее оплачиваемых и менее престижных) прочно закладываются уже в начальной школе». «Гендерные стереотипы в учебниках отражают существующие в общественном сознании людей мнения и установки в отношении полоролевого поведения». Поэтому «для преодоления сложившихся стереотипов уже в рамках начальной школы должна действовать продуманная система профессиональной ориентации подрастающего поколения, которая способствовала бы реализации индивидуальных качеств и способностей детей без ограничения их выбора предписаниями по полу»<sup>4</sup>.

В исследовании российских ученых для выяснения роли школьных учебников в ранней гендерной социализации, в воспроизведении патриархальных стереотипов гендерных отношений, для определения, какие профессии фигурируют как мужские/женские и какие феминные/маскулинные качества внедряются в сознание детей раннего школьного возраста в рамках научно-исследовательской программы «Гендерные стереотипы в социокультурных процессах современного российского общества» был проведен контент-анализ. Работа была проведена в два этапа шести учебников для 1-4 классов, по которым в течение длительного времени изучаются соответствующие предметы во многих школах Российской Федерации. Результаты анализа на первом этапе учебников математики и русского языка показали, что в различных учебниках разброс обращений к мужским и женским образам очень велик, так

<sup>2</sup> Валерия Перассо. 100 женщин: «Детей будущего нельзя учить по книгам из прошлого» <https://www.bbc.com/ukrainian/features-russian-41612562>

<sup>3</sup> Валерия Перассо. 100 женщин: «Детей будущего нельзя учить по книгам из прошлого» <https://www.bbc.com/ukrainian/features-russian-41612562>

<sup>4</sup> Алимджанова. Динара. Гендерные стереотипы в учебниках начальной школы Узбекистана [http://d1019822.idhost.kz/site03/magazin/magazin\\_07\\_01.htm](http://d1019822.idhost.kz/site03/magazin/magazin_07_01.htm)

<sup>1</sup> Курамшев А. В. Гендерная социализация <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernaya-sotsializatsiya>

если в «Математике» мужские образы встречаются только в 1,8 раза чаще, чем женские, то в «Русском языке» - в 4,2 раза. В отдельных типах упражнений эти цифры еще выше: так, в «Русском языке» к мужчинам обращены 36% рисунков, а к женщинам - всего 5%. Частота обращений к мужским профессиям намного превышает упоминание женских (соотношение 88 : 12), причем спектр «мужских» профессий намного богаче. Такие занятия, как игра в куклы, шитье, всегда определяются как женские, а связанные с различной техникой, конструкторами, с рыбалкой - как мужские<sup>5</sup>. Авторы пришли к выводу, что в начальной школе в детях через структуру упражнений и рисунков бессознательно закрепляется андроцентризм.

На втором этапе были отобраны альтернативные учебники и их проанализировали по той же схеме, что и учебники первой группы и выяснили сохранение традиционного закрепления сфер жизнедеятельности: дом - за женщиной (этой сфере посвящены 76% норм, касающихся женщин), внешний по отношению к дому мир - преимущественно за мужчиной (62% норм поведения вне дома касаются мужчин, 3% - женщин и 35% - и тех, и других). В целом, характер и структура гендерных стереотипов, содержащихся в школьных учебниках начальной школы обеих групп, схожи. Таким образом, контент-анализ учебников начальной школы показал, что они транслируют патриархальные представления о роли мужчин и женщин в жизни общества, закрепляющие за мужчинами сферу общественной жизни (работа, политика, бизнес и т.д.), а за женщинами - приватной (дом, семья, дети)<sup>6</sup>.

Как справедливо подчеркивает автор статьи «Гендерные стереотипы в учебниках начальной школы» Заиграева Н.В., опубликованной 27 июня 2017 года наглядная информация через картинки успешно запечатлевается детьми и является одним из факторов, влияющих на гендерную идентификацию и социализацию. Проведя контент-анализ шести учебников начальной школы с целью выяснения представленности в них гендерных стереотипов: общее число изображений лиц мужского и женского пола, количество изображений лиц мужского и женского пола в инструментальной и экспрессивной

сферах деятельности, в сфере отдыха, соотношение изображений мальчиков и девочек в сфере учебной деятельности она пришла к выводу, что за женщиной в большей степени закрепляется семейная сфера, дом.

Мужчинам, напротив, чаще отводятся роли вне дома, обычно в профессиональной сфере. Например, общее количество изображений лиц мужского пола превышает количество изображений лиц женского пола в 2,3 раза (соответственно 69,6% и 30,4% рисунков). Женский образ отождествлялся с экспрессивной сферой деятельности (в этой сфере распределение следующее: 70% рисунков женского пола и 30% - мужского). Частота встречаемости мужских профессий превышает частоту изображений женских (соотношение 74%:25%), сфера отдыха мужских и женских персонажей тоже очень сильно отличается (соотношение 77% : 22%)<sup>7</sup>. Таким образом через структуру рисунков в содержании учебников бессознательно закрепляется неравенство гендерных образов.

По мнению авторов гендерного анализа школьных учебников Академии образования Таджикистана гендерная проблематика прослеживается не только в учебниках, но и в самой школьной среде. «Мы обратили внимание на то, как распределяются дежурства в классах. Увидели, что если дежурными являются мальчик и девочка, то мытьем парт и полов занята лишь девочка. Пропаганда гендерного неравенства в образовательной программе влияет на сознание подростков, в котором закрепляется образ женщины, которая намного слабее мужчины, которая не может играть активную роль в обществе и государстве. Чтобы сломать такие стереотипы в сознании подростков и в целом в патриархальном таджикском обществе, специалистам сферы образования рекомендовано уделять большое внимание гендерному равноправию в своей деятельности»<sup>8</sup>.

Автор исследования процесса тендерной социализации в начальной школе, изучив учебники для 1-4 классов общеобразовательной школы Казахстана пришел к неутешительному выводу, что в учебниках мужчине принадлежит главенствующая роль в культуре и обществе. Женские образы, представленные на страницах учебных книг, традиционны: мама, бабушка,

работающие по дому или занимающиеся детьми, девочка, играющая в куклы или помогающая маме<sup>9</sup>.

Проанализировав 18 учебников для начальных классов в Молдове, журналистка «Suntraprinte.md» обнаружила, что гендерные роли патриархального общества сохраняются и сегодня: женщины заботятся о доме и детях, в то время как мужчины - это главы семей и главные «кормильцы», что «отрицательно влияет на детское восприятие роли женщин и мужчин»<sup>10</sup>.

ЮНЕСКО считает, что эти учебники - «скрытая преграда» для достижения гендерного равенства. В докладе ЮНЕСКО о глобальном образовании говорится, что в учебниках разных стран мира возросло количество контента, который касается гендерного равенства. Теперь в школьных книгах чаще упоминают о правах женщин и гендерной дискриминации, особенно в учебниках, изданных в Европе, Северной Америке и странах Африки к югу от Сахары. Исследование, проведенное в Гонконге, показало равное количество мужских и женских персонажей в учебниках по английскому языку. Определенного прогресса также достигли в Иордании, Палестинской автономии, Вьетнаме, Индии, Пакистане, Коста-Рике, Аргентине и Китае. В Индии и Малави учителя используют гендерно нейтральные книги, чтобы в процессе групповой дискуссии научить учащихся определять дискриминацию по половому признаку и ставить стереотипы под сомнение. В некоторых шведских учебниках есть гендерно-нейтральные персонажи и местоимения, а повседневная жизнь в них изображают в тонах равноправия. В обновленной версии китайского учебника молодые женщины и мужчины обсуждают вопросы, касающиеся экономики. Бангладешский учебник изображает женщину играющей в футбол, а индийский - мужчину моющим посуду. Эксперты советуют прибегать в классе к альтернативным методам, которые позволяют уравновесить учебники сомнительного качества<sup>11</sup>.

Результаты некоторых академических исследований показывают положительное влияние гендерно нейтральных книг на формирование гендерно толерантных взглядов на мир у детей. Например, работа

с первоклассниками в Израиле показала, что дети, которые видели изображение мужчин и женщин как равных, думали, что девушкам и юношам одинаково подходит большинство профессий. Дети же, которые учились по дискриминационным учебникам, были склонны соглашаться со стереотипами<sup>12</sup>.

В новом глобальном докладе ЮНЕСКО о перспективах образования: «Совместное переосмысление наших перспектив: новый социальный договор в интересах образования» (10 ноября 2021 года) подчеркивается необходимость преодоления дискриминации, отставания и социального отчуждения и «направить усилия на обеспечение гендерного равенства и прав всех»<sup>13</sup>.

По нашему мнению, для естественного развития разносторонней и индивидуальной личности вне зависимости от пола необходимо внедрить в образовательный процесс уже с первых дней учебы гендерно-чувствительный подход. Для гендерно чувствительной социализации мальчиков и девочек в школе необходимо создать систему тендерного образования, складывающуюся из написания учебников, подготовки и повышения квалификации педагогических кадров системы среднего образования, организации воспитательного процесса в школе с учетом тендерного фактора, а также включающая тендерное просвещение учащихся с помощью спецкурсов и рассмотрения гендерной тематики в рамках обязательных дисциплин<sup>14</sup>.

Итак, в заключение можно сказать, что учебники являясь главным средством обучения могут оказать влияние на процесс социализации детей, усвоение общественных гендерных норм и закрепление гендерных стереотипов. Оказывают положительное влияние гендерно нейтральных книг на формирование гендерно толерантных взглядов на мир у детей. Гендерные стереотипы в учебниках отражают существующие в общественном сознании людей мнения и установки в отношении полоролевого поведения. Для преодоления сложившихся стереотипов уже в рамках начальной школы должна действовать продуманная система профессиональной ориентации подрастающего поколения.

9 Кушнир М.П. Женские образы в учебниках начальной школы Республики Казахстан [http://www.rusnauka.com/3\\_SND\\_2010/Pedagogica/58402.doc.htm](http://www.rusnauka.com/3_SND_2010/Pedagogica/58402.doc.htm)

10 Гендерные стереотипы в школьных учебниках: место мамы на кухне, отца - на работе <https://euroradio.fm/ru/gendernye-steriotipy-v-shkolnykh-uchebnikakh-mesto-mamy-na-kuhne-otca-na-rabote>

11 Валерия Перассо. 100 женщин: «Детей будущего нельзя учить по книгам из прошлого» <https://www.bbc.com/ukrainian/features-russian-41612562>

12 Там же

13 Совместное переосмысление наших перспектив: новый социальный договор в интересах образования [https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379381\\_rus](https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000379381_rus)

14 Смирнова А.В. Гендерная социализация в общеобразовательной школе [https://new-disser.ru/\\_avtoferats/01002801793.pdf](https://new-disser.ru/_avtoferats/01002801793.pdf)

5 Котлова Т.Б., Смирнова А.В. Гендерные стереотипы в учебниках начальной школы <https://cyberleninka.ru/article/n/gendernye-steriotipy-v-uchebnikakh-nachalnoy-shkoly>

6 Там же

7 Заиграева Н.В. Гендерные стереотипы в учебниках начальной школы [https://www.b17.ru/article/gendern\\_steriotip/](https://www.b17.ru/article/gendern_steriotip/)

8 Гендерное неравенство в школьных учебниках <https://www.dialog.tj/news/gendernoe-neravenstvo-v-shkolnykh-uchebnikakh>

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSH MUTAXASSIS XODIMLARNING AXLOQIY-MA'NAVIY ZAIFLIGI SABABLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI

*Jo'raboy Yaxshilikov* - professor, Samarqand davlat universiteti  
*Sherzod Abduvaliyevich Dusmanov* - tyutor, Samarqand davlat chet tillari instituti

**Annotatsiya:** Ilmiy maqolada globallashuv sharoitida yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrash omillari, obyektiv va subyektiv sabablari, shuningdek, ochiq va yopiq shakllari, ularning oldini olish va bartaraf etish chora-tadbirlari yoritilgan.

**Аннотация:** В научном состоянии описаны факторы, объективные и субъективные принципы нравственной и духовной деградации молодых специалистов в условиях глобализации, а также открытые и закрытые формы, меры по их устранению и устранению.

**Abstract:** The scientific article describes the factors, objective and subjective reasons for the moral and spiritual degradation of young professionals in the context of globalization, as well as open and closed forms, measures to prevent and eliminate them.

**Kalit so'zlar:** axloq, axloqiy-ma'naviy tanazzul, obyektiv va subyektiv sabab, axloqiy-ma'naviy tarbiya, yuridik omil, iqtisodiy omil, intellektual omil, tashkiliy omil, ruhiy omil.

**Ключевые слова:** нравственность, нравственно-духовной деградации, объективная и субъективная причина, нравственно-духовное воспитание, эстетическое воспитание, правовой фактор, организационный фактор, духовный фактор.

**Keywords:** morality, moral and spiritual degradation, objective and subjective reasons, moral and spiritual education, aesthetic education, legal factor, organizational factor, spiritual factor.

Globallashuv sharoitida yangilanayotgan O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatni bunyod etish va fuqarolik jamiyatini qaror toptirish ishlari oson kechmasligi tabiiydir. Bu jarayonning borishi, bir tomondan, mulkni xususiyashtirish ishlarini tez va soz o'tkazib, tejankorlikka, sifatga asoslangan ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni taqozo etayotganligi, ikkinchi tomondan, odamlarning ongida shakllangan "davlat boqadi" degan psixologiyani tugatish bilan bog'liq tushunchalarni tezroq tugatib, uning o'rniga ishbilarmonlikka asoslangan tadbirkorlikni rivojlantirishni, uchinchi tomondan korrupsiyani tezroq tag-tomiri bilan tugatishni talab qilayotganligi bilan xarakterlanadi.

Ushbu ishlarni amalga oshirishda jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-madaniy hayoti sohalarida bir qator yetishmovchiliklar, ziddiyatlar bo'lishi aniq. Ana shu yetishmovchilik va ziddiyatlar irodasi sust, e'tiqodi yetarli

darajada shakllanmagan yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy jihatdan tanazzulga duchor etishi mumkinligi endi hech kimga sir bo'lmay qoldi. Bu xususda davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Hayotimizning turli sohalarida muammo va kamchiliklarimiz yetarli. Biz ularning barchasini o'zimizga yaxlit tasavvur etamiz... Hayot oldimizga yana ko'plab sinov va muammolarni qo'yish mumkin va biz har qanday kutilmagan holatga tayyor turishimiz zarur"<sup>1</sup>, degan edi. Shu bilan birga 2017-yilning 15-iyun kuni Toshkentda bo'lib o'tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda yosh avlod tarbiyasi haqida prezidentimiz alohida to'xtalib o'tdi.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim –

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. -Ташкент: Ўзбекистон,2021.

yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidladi Prezidentimiz<sup>2</sup>.

Xo'sh, axloqiy-ma'naviy tanazzul deb nimaga aytiladi va u qanday sohalarida ko'rinadi?

Axloqiy- ma'naviy tanazzul deb jamiyat va davlat tomonidan qonun hujjatlari, nizom va buyruqlarda belgilab qo'yilgan axloqiy normalar, professional burch va vazifalarni bajarishda o'zlarining shaxsiy manfaatlarini jamiyat, davlat, xalq manfaatlaridan ustun qo'yib, suiiste'mol qilishlari, pora olish, kalondimog'lik, tamagirlik, qo'pollik qilish, jinoyatni hisobdan yashirish kabi qonunga xilof xatti-harakatlarining majmuiga aytiladi. Bunga misol qilib, birgina 2021-yilda mamlakatimizda Bosh prokuratura tomonidan 2804 nafar mansabdor shaxs jinoiy javobgarlikka tortilganini, ularning jinoyati oqibatida esa davlatga 913,7 mlrd so'mlik moddiy zarar yetganini ma'lum qildi. Jinoiy javobgarlikka tortilgan mansabdor shaxslarning 1741 nafari o'zganing mulkini o'zlashtirish va rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (2020-yilda – 660 nafar), 269 nafari firibgarlik (2020-yilda -167 nafar), 153 nafari pora olish, 168 nafari mansab vakolatini suiiste'mol qilish (2020-yilda – 47 nafar), 42 nafari mansab vakolati doirasidan chetga chiqish (2020 yilda – 25 nafar), 41 nafari mansab soxtakorligi (2020-yilda – 11 nafar), 12 nafari pora berish va 353 nafari boshqa jinoyatlarni (2020-yilda – 280 nafar) sodir etgan.

Demak, bunday jinoyatkorona qilmishlar, albatta axloqiy-ma'naviy jihatdan o'zini o'ta "aqlli" deb bilguvchi odamlarning xatti-harakatlaridan boshqa emas, albatta. Shunga ko'ra odamlarning axloqiy-ma'naviy tanazzul jarayonini, uning kelib chiqish sabablarini tugatish yo'llarini tadqiq etish hozirgi kundagi dolzarb masalalar qatoriga kiradi. Bunday jarayon yosh mutaxassislarni ham o'z domiga tortishi, ehtimoldan xoli emas. Chunki yosh mutaxassislar mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini tashkil etar ekan, ularning ko'pchiligi davlat hokimiyatining vakili sifatida

ish ko'rar ekanlar, ularning har bir xatti-harakati odamlarning diqqat-e'tiborida turadi. Bitta mas'uliyatli vazifaga qo'yilgan yosh mutaxassis xodimning qilgan xatosi, qo'polligi yoki pora olishi butun tizimini xalq oldida abgor qilishi, boshqa halol ishlayotgan xodimlarning obro'siga putur yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrashning oldini olish, unga yo'l qo'ymaslik bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Yosh mutaxassis xodimlar axloqiy-ma'naviy buzilishining ikki turi mavjud: birinchisi – yosh xodimning tajribasizligi, qonun va buyruqlarni bilmasligi, qiyin sharoitlarda o'zini yo'qotib qo'yishi tufayli bo'ladigan kasbiy buzilish; ikkinchisi–moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish sohasida ishlab, tajriba orttirgan xodimlarning qonunlardagi kamchiliklarni anglab, hamma narsani tushungan holda, boylik orttirish maqsadida, ongli ravishda axloqiy yomonlikka yo'l qo'yishi asosida yuzaga keladigan axloqiy-ma'naviy buzilish. Shu joyda Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel "Buzuq, suyuq odam shundayki, u o'zi qilayotgan yomon, uyatli ishni eng yaxshi va foydali ish, deb o'ylaydi. Unga yoqadigan narsa bo'lsa, bas, har qanday aql-idrok (axloq-odob) qoidalari uning uchun bir chaqa. Haddan oshuvchi, tiyiqsiz odamda, har qalay, aql-idrok bor va shu narsa uning zararli mayl, ehtiroslariga qandaydir qarshilik qilib turadi. Buzuq odamni tuzatish osonmi yo tiyiqsiz odamnimi? Bir qarashda buzuq odamni tuzatish osonroq ko'rinadi. Bunday odamni aqlliroq bo'lishga, odobsizlik yomon deb, odob doirasida ish tutishga da'vat qilinsa bas, shu bilan ular tuzalib ketishlari mumkin. (Tabiatan) tiyiqsiz, ochko'z, haris odamlarda aql-idrok qonunlari bo'lsa ham ular bari bir beodoblik (axloqsizlik) qilaveradilar, bunday odamlar tuzalmaydi.

Ochko'z, tiyiqsiz odamda aql-idrok qoidasi bor - bu esa har bir insonning javhari birinchi asosidir. Buzuq, suyuq odamda esa bu narsa yo'q. Demak, buzuq odam ochko'z, tiyiqsiz odamdan yomonroqdir. Hayvonfe'l odam ham shunday. Bu yomon xislat hayvonda emas, odamda uchraydi. Haddan tashqari buzuq odam hayvonfe'l odamdir. Hayvonda esa yomonlikning javhari yo'qdir. Aql-idrok qonuni esa insonlik javharidir"<sup>3</sup>, degan edi. Bundan shunday xulosaga kelish

<sup>2</sup> <https://www.standart.uz/ru/news/2017/06/16>

<sup>3</sup> [https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/20/crime/?utm\\_source=push&utm\\_medium=telegram](https://www.gazeta.uz/uz/2022/01/20/crime/?utm_source=push&utm_medium=telegram)



mumkin, yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrashlariga ularning atrofini o'rab turgan odamlarning ta'siri ham sabab bo'ladi. Odam joniga qasd qilishlar, bosqinchilik, o'g'rilik, ig'vo, tuhmat, urush-janjallar yosh mutaxassis xodimlarning ma'naviy-ruhiy holatiga salbiy ta'sir qilib, oxir-oqibatda uning xulqi o'zgarishiga, kasbiy jihatdan buzilishiga olib kelishi mumkin.

Yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy ongida, xatti-harakatlarida yuzaga kelgan buzilishlar quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

- toshbag'irlik, odamlarga yuzaki munosabatda bo'lish, g'amxo'rlik va rahm-shafqatning yo'qligi;

- subutsizlik;
- g'irromlik, ta'magirlik, vijdotsizlik, shaxsga befarqlik, kasbiga sovuqqonlik bilan qarash;

- axloq prinsiplari (insonparvarlik, jamoatchilik, vatanparvarlik) va normalarini (burch, vijdon, mas'uliyat, sha'n va qadr-qimmatlar) bilan turib atayin buzish;

- kasbiy bilimlarining past darajada ekanligi;

- odamlarga muntazam ravishda shubha bilan qarash, o'ch olish payida bo'lish, zahrini sochish;

- o'ziga berilgan vakolatlardan mutlaqo noto'g'ri foydalanish, lavozimini suiiste'mol qilish va h.k.

O'zbekiston xalqi ezgu niyatlar bilan yangi ijtimoiy adolat, tenglik, barqarorlik va birodarlikka asoslangan yangi ma'rifiy jamiyat qurayotgan vaqtda uning bag'rida paydo bo'lib qolayotgan bunday ba'zi bir illatlarning kelib chiqish sabablari nimada? Bunga quyidagilar sabab bo'lmoqda:

Birinchi, bozor iqtisodiyotini noto'g'ri tushunish, uni har xil yo'llar bilan boylik orttirishdangina iborat deb o'ylash, ana shu maqsadni amalga oshirish uchun ayrim badnafs fuqarolarning qonunga, umuminsoniy axloqqa zid harakatlar orqali mol-dunyo orttirishga intilayotganliklari kuzatilmoqda.

Ikkinchi, yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ishonish yetishmaydi, yetarlicha murabbiylik qilinmayapti, ularning tashabbusini bo'g'ish hollari uchramoqda. Bu axloqiy yomonlik to'g'risida I.A.Karimov: «Men bir narsaga qattiq ishonaman: yoshlarda shijoat bor, yangilikka intilish bor, ixtiro qilishga, kashfiyot yaratishga ishtiyoq bor. Lekin ularning

oldida katta bir to'siq turibdiki, bu to'siqni ba'zan zambarak o'qi bilan ham otib qulatilib bo'lmaydi. Bu to'siqning nomi byurokratiya, ta'magirlik, mahalliychilik, urug'chilik. O'sib kelayotgan yoshlarga quloq solishi, madad berishi lozim bo'lgan ko'p mansabdorlarda insof, diyonat yo'qligi ham shu to'siqning bir ko'rinishidir. Bunday odamlarning niyati aniq – besh-o'n yil amallab o'tirgan mansabini yo'qotmasa, mo'may maoshi va xufiya «shapka»sini olib tursa, marra uniki – u yog'i pensiya. Mustaqil davlatimizning bugungi bosh shiorlaridan biri – yurtim deb, elim deb yonib yashash undaylarning tushiga ham kirmaydi.

Oqibatda yangilik kurtakligidayoq nobud bo'ladi va uni boshlagan yosh tadbirkorning xafsalasi pir bo'ladi, taraqqiyoti, intilishi so'nib qoladi»<sup>4</sup>, - deb haq gapni aytgan edi.

Uchinchi, qonunlarning o'z vaqtida qabul qilinmasligi yoki qabul qilingan qonunlarning o'z vaqtida hayotga tatbiq etilmasligi, natijada fuqarolarning axloqiy ongida ikkilanishlarning paydo bo'lishiga hamda huquqiy madaniyatning shakllanishi past darajada qolib, ularning shu asosda har xil huquqbuzarliklar, qonunbuzarliklarni sodir etishlari.

Yuqorida sanab o'tilgan sabablar, albatta, Yosh mutaxassis xodimlarning xizmat faoliyatiga, turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatishi tabiiy. Bular sog'liqni saqlash xodimlari axloqiy-kasbiy buzilishlarining tashqi sabablari, xolos. Uning tub sabablarini esa Yosh mutaxassis xodimlarning xizmat faoliyatini tashkilotishda, boshqarishda, xizmat jamoalarida axloqiy-ruhiy-ma'naviy muhitda, tarbiyada yo'l qo'yilgan kamchiliklardan izlash kerak.

Yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-kasbiy buzilishining obyektiv va subyektiv sabablari bor.

Obyektiv sabablari. Ular quyidagilardan iboratdir:

- professional faoliyatning xususiyatlari, (masalan, harbiy xizmatchilarning - M.N.) ya'ni qiyin va xavfli sharoitlarda, favqulodda holatlar va ekstremal vaziyatlarda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib, o'limga tik qarab, jismoniy va ruhiy jihatdan zo'riqib ishlashlari, ma'naviy va ruhiy jihatdan o'z qobiliyatini tiklab olish uchun vaqt yetishmasligi;

- axloqan buzular dunyosi bilan muntazam ravishda aloqada bo'lish, ularning salbiy ta'sirini sezish va oqibatda ma'naviy

tanazzulga tomon og'ib ketish holatlarining mavjudligi;

- ishni tashkil qilish va boshqarishda xato va kamchiliklar, ya'ni hisobotlarning takomillashmaganligi, xizmat sohalari o'rtasida birgalikda harakat qilishning yo'qligi, miqdor ketidan quvish, haybarakallachiliklarning hamon uchra turishi;

- birga ishlayotgan ba'zi xodimlarning o'z xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilishlari, ishga sovuqqonlik bilan yondashishlari, odamlarga nisbatan befarqlik, yuzaki munosabatda bo'lishning yangi kelgan yoki vijdonli, mehnatkash va intizomli xodimga salbiy ta'siri;

- rahbar xodimlar va bevosita boshliqlar tomonidan nazorat qilish ishlarining muntazam ravishda tashkil qilinmaganligi yoki to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi;

- axborot-texnika vositalari bilan yetarlicha ta'minlanmaganlik, zarur asbob-uskunalar bilan jihozlanmaganlik;

- oilaviy munosabatlardagi va turmush sharoitidagi qiyinchiliklar;

- kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va xatolar;

- xodimlarni tarbiyalash ishlarini amalga oshirishda hisob-kitobdan adashishlar, ya'ni yuzaki yondashuvlarga yo'l qo'yishlar;

- miqdor ortidan quvish, ushbu ko'rsatkichlarni qayd etilishda xasposhlanishi va h.k.

Subyektiv sabablar. Bular quyidagilardan iboratdir:

1) xodimlarning xizmat-kasb sohasidagi bilim darajasi nihoyatda pastligi va o'z kasb mahoratini oshirishga urinmasliklari, o'z ishiga tanqidiy nazarning yo'qligi, to'plagan arziyas tajribasiga haddan tashqari ishonish va h.k.;

2) xizmat vazifasini bajarishga ma'naviy-ruhiy jihatdan tayyor emaslik, o'zini yo'qotib qo'yish, o'z xatti-harakatlarini nazorat qila olmaslik, bo'shanglik, spirtli ichimliklar ichishga ruju qo'yganlik va h.k.;

3) xizmat jamoasidagi axloqiy-ma'naviy-ruhiy muhitning yomonligi, shaxs va jamoa o'rtasidagi manfaatlar va maqsadlarning mushtarak emasligi;

4) xodimlar axloqiy, xizmat va irodaviy tayyorgarligining yetarli darajada emasligi;

5) xizmat jamoasi manfaatlarini mansabparastlik, guruhbozlik manfaatlaridan ajrata olmaslik;

6) xodimlarning o'z ish vaqtlarini to'g'ri tashkil qila olmasliklari, jismoniy va ruhiy zo'riqishlardan xalos bo'lish usullarini bilmaslik, ishdagi va oiladagi tashvishlardan o'zini xoli qilolmaslik va h.k.

Axloqiy-ma'naviy buzilishlarni keltirib chiqaruvchi omillar. Yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy tanazzuliga olib keluvchi obyektiv va subyektiv sabablardan tashqari bir qancha omillar ham mavjud. Bu omillar quyidagilardan iborat:

Yuridik omillar:

- qonunlarning nomukammalligi;
- ish boshqaruvidagi noaniqliklar;
- xodimlarni boshliqlarning noto'g'ri buyruqlaridan himoya qiluvchi yuridik kafolatning yo'qligi.

Iqtisodiy omillar:

- aniq iqtisodiy rag'batlantirishning yo'qligi;

- ish haqini to'lashdagi asossiz tenglashtirishlar;

- maxsus unvonlar berish darajasining samarali emasligi;

- ish vaqtida daromadni oshirish imkonining yo'qligi;

- texnika bilan yetarli darajada ta'minlanmaganlik;

- moddiy-texnika bazasining yo'qligi yoki eskirganligi.

Tashkiliy omillar:

- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishdagi kamchiliklar;

- rahbarlar tomonidan nazoratning yo'qligi;

- ishni baholash mezonlarining takomillashmaganligi, hisob-kitob ishlarining yaxshi tashkil qilinmaganligi;

- xodimlarning malakasini oshirishga e'tibor berilmasligi;

- rahbarlarning ishga uning mohiyatini tushunmasdan asossiz ravishda aralashishlari.

Intellectual omillar:

- xodimlar bilimining yetishmasligi;

- huquqiy, axloqiy, siyosiy va umumiy kasbiy madaniyatning shakllanmaganligi yoki yetarli rivojlanmaganligi;

- qo'l ostidagilarni va o'z-o'zlarini tarbiyalashdagi kamchiliklar.

Ijtimoiy-ma'naviy-ruhiy omillar:

- rahbarlarning qo'polligi va o'zini boshqara olmasligi;

<sup>4</sup> Арасту. Ахлоқи кабир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015-йил.

– ijtimoiy guruhbozlik, milliy biyozlik;  
– o'ziga haddan tashqari ishonish;  
– takabburlik va mansabparastlik;  
– o'zini o'zi nazorat qilishning past darajada ekanligi.

Bunday omillarning kelib chiqish sabablari haqida davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Milliy ma'naviyatimizga mutlaqo begona bo'lgan zararli g'oyalar, tushuncha va qarashlar chegarani buzmasdan, bildirmasdan, ta'bir joiz bo'lsa, "chaqirilmagan mehmon" bo'lib xonadonimizga, jamiyatimizga, eng yomoni, murg'ak bolalarimizning pokiza qalbi va ongiga kirib kelayotganidan ham ko'z yuma olmaymiz.... Ma'naviy hayotimizda bo'shshish, bo'shliq sezilmoqda. Ma'naviy immuniteti zaif bo'lgan ba'zi yoshlar yurish-turishda ham, muomala-munosabatda ham begonalariga ko'r-ko'rona ergashmoqda. Milliy o'zligimizni, buyuk ajdodlarimizni tanimaslik, ilm va irodaning yetarli emasligi bunga sabab bo'lmoqda, desak, to'g'ri bo'ladi.... Korrupsiya, ta'magirlik, byurokratiya nafaqat iqtisodiy, ma'naviy hayotda ham oyog'imizga bolta urmoqda. Bu illatlarga qarshi keng ko'lamlilik kurash boshladik. Lekin barchamiz bu xavfga qarshi birgalikda kurashmas, jamoatchilik nazoratini kuchaytirmas ekanmiz, bu muammolardan xalos bo'lolmasligimizni hayotning o'zi ko'rsatmoqda.

Shu sababli, hozirgi vaqtda ijtimoiy-ma'naviy muhitni ilmiy asosda taxlil qilib, uni yaxshilash, takomillashtirish bo'yicha samarali mexanizmlarni ishga solishni davrning o'zi talab etmoqda. Jamiyatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar shunday asosda yo'lga qo'yilmagani uchun ham ular kutilgan natijani bermayapti"<sup>5</sup>degan edi.

Shunday qilib, yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrashishlarining oldini olishni ikki yo'nalishda, ya'ni umumiy chora-tadbirlarni va bevosita chora-tadbirlarni qo'llash asosida olib borish maqsadga muvofiqdir.

Umumiy chora-tadbirlarga jamiyatdagi ziddiyatlarni tadrijiy yo'l bilan hal qilgan holda, yosh mutaxassislar o'rtasida qonunga itoatkorlikni, hayotning barcha jabhalarida qonunlarning ustunligini ta'minlash kabilarni kiritish mumkin. Bu esa, o'z navbatida yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetish, ijtimoiy burch, ya'ni

o'z qilmishlari uchun davlat oldida javobgarlik tuyg'usining shakllanishiga olib keladi. Chunki, qonunlarga itoat qilishni xalq birligi va kuch-qudratining manbai deb atash mumkin. Demak, bu boradaga asosiy vazifa yosh mutaxassis xodimlarni huquqiy tarbiyalash va shu asosda ularning huquqiy ongini o'stirib, huquqiy madaniyatini shakllantirishdan iborat.

Yosh mutaxassis xodimlarni axloqiy-ma'naviy tarbiyalash ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish ularning kasbiy buzilishlarining oldini oluvchi eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Axloqiy-ma'naviy tarbiya ilmiylik, g'oyaviylik, haqqoniylik, maqsad va vositalarning mushtarakligi, voqelik bilan uzviy bog'lanish, ijodiy yondashuv prinsiplariga amal qilgan holda olib borilib, yosh mutaxassis xodimlarini kasbiy tanazzulga uchrashdan saqlab turadi.

Axloqiy-ma'naviy tarbiyaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: 1) yosh mutaxassis xodimlarni har qanday qiyin va xavfli sharoitlarda ham yuksak darajadagi axloqiy g'oyalarga, Vatanga sadoqatli bo'lish, xalqqa chin dildan xizmat qilish, insoniylik, adolatparvarlik, qonuniylik, jamoachilik, milliy g'urur, sha'n va qadr-qimmatni saqlash ruhida tarbiyalash; 2) axloqan pok, rostgo'y, sobitqadam, tashabbuskor, mas'uliyatli, mustaqil fikrlovchi yosh mutaxassis xodimlarini tarbiyalab yetishtirish; 3) mard, jasoratli, tadbirkor, o'z manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo'yishni xayoliga ham keltirmaydigan xodimlar avlodini vujudga keltirish; 4) yuksak darajadagi axloqiy-huquqiy madaniyat sohibi bo'lgan, kasb madaniyatining sir-asrorlarini puxta egallagan yosh mutaxassis xodimlarni kamol toptirish; 5) yuksak darajadagi professional bilim ega, o'zining axloqiy-kasbiy burchini chuqur his qiladigan, «yosh mutaxassis xodim» degan yuksak nomga dog'tushirmaydigan xodimlarini tarbiyalab yetishtirish va ularning qahramonligi, odamiyligi, insonparvarligi, xushmuomalaligi bilan faxrlanish mumkin bo'ladigan shifokor mutaxassislarni tarbiyalash.

Yosh mutaxassis xodimlarni axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrashlarining oldini olishda qo'llaniladigan maxsus aniq chora-tadbirlar sifatida quyidagilar tavsiya qilinadi:

1. Professional faoliyatni tashkil etish sohasida:



– har bir xodimni tanlab olishda va ishga tayinlashda ularning qiziqishlarini inobatga olish;

– xodimlarga aniq vazifalar, topshiriqlar berish, ularning bajarilishi uchun barcha chora-tadbirlarni ko'rish;

– xodimlarga fuqarolar bilan muomala qilish madaniyatini, ruhiy aloqa o'rnatish mahoratini o'rgatish;

– xizmat vazifasini bajarishda ishga ijodiy yondashuvchi, chigal masalalarning yechimini tezlikda topuvchi, muammolarni hal qilishda ilm-fan yutuqlarini o'rganib, ulardan unumli foydalanuvchi xodimlarni taqdirlash, izzat-hurmatini joyiga qo'yish;

– o'z ishini o'zi tahlil qilishga, o'zini o'zi nazorat qilishga o'rgatish;

– bo'sh vaqtlardan samarali foydalanishlari, oilasi tinch, hayoti sermazmun bo'lishi uchun ular haqida tinmay g'amxo'rlik qilish;

– o'zgalarga ruhiy ta'sir o'tkazish usullarini amalda qo'llashni o'rgatish va sog'liqni saqlash xodimini qo'rqinchli holatlarda ishlashga ruhiy jihatdan tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

– jismonan chiniqtirish va chidamliligini oshirish.

2. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish sohasida:

– xodimlarda ilmiy dunyoqarash, axloqiy-huquqiy e'tiqod, g'oyaviy-siyosiy madaniyat va irodaviy xislatlarni, qisqacha aytganda, milliy istiqloq mafkurasini shakllantirish;

– ularni tanqid va o'z-o'zini tanqid ruhida tarbiyalash;

– iroda va xarakter kuchini chiniqtirish;

– axloqsizliklar dunyosining ta'siriga qarshi tura olish qobiliyatini hosil qilish;

– xizmatda va turmushda shaxsiy namuna orqali ta'sir ko'rsatish;

– tarbiyalash jarayonida o'rgatish va majburlash, rag'batlantirish va jazolash usul va vositalaridan unumli foydalanish;

– jamoada sog'lom ruhiy muhitni vujudga keltirish;

– yashash sharoitlari, dam olishini yaxshilash borasida g'amxo'rlik qilish;

– tarbiyaning barcha turlarini, usul va vositalarini, prinsiplarini birga qo'shib olib borish, ayniqsa, huquqiy va axloqiy tarbiyaning uzviy birligiga asosiy e'tiborni qaratish;

– xalqimizning asrlar osha yashab kelgan an'analari, urf-odatlarini va tili bilan bog'liq qadriyatlardan tarbiya jarayonida milliy g'ururni o'stirish va milliy ongini shakllantirishda unumli foydalanish va boshqalar.

Yosh mutaxassis xodimlarning axloqiy-ma'naviy tanazzulga uchrashmalarining oldini olish masalasining yechimi "Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi" da belgilab berilgan quyidagi yettita yo'nalish: "inson qadriyatini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish; milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish; umumbashariy muammolarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yechim topish; mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq va pragmatik, faol tashqi siyosat olib borish" aniq belgilab berilgan.

<sup>5</sup> Каримов И.А. Узбекистоннинг сиёсий- ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари // Унинг ўзи. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 1996.

## MUAMMO – ILMIY BILISH SHAKLI SIFATIDA

Abdunabi Hotamov - f.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ilmiy bilishning shakllaridan biri bo'lgan muammoning mazmun-mohiyati, uni hal qilish jarayoni haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, bilish jarayonida vujudga keladigan muammoli vaziyat va ziddiyatlar ham qisqacha tahlil etilgan.

**Аннотация:** В данной статье речь идёт о содержании и сущности одной из форм научного знания проблемы и процессе её решений. Так же в статье анализированы возникающие в процессе познания проблемные ситуации и противоречия.

**Abstract:** This article discusses the essence of the problem, which is one of the forms of scientific knowledge, and the process of solving it. Also, the problem situations and conflicts that arise in the process of knowledge are briefly analyzed in the article.

**Kalit so'zlar:** muammo, muammoli vaziyat, ziddiyat, fan, gipoteza, nazariya, ilmiy bilish, bilish nazariyasi, metodologik prinsip.

**Ключевые слова:** научное знание, проблема, проблемная ситуация, противоречие, наука, гипотеза, теория, теория познания, методологический принцип.

**Keywords:** problem, problematic situation, contradiction, science, hypothesis, theory, scientific knowledge, theory of knowledge, methodological principle.

Muammo ilmiy bilish jarayonida vujudga keladigan yangi faktlar, ma'lumotlar va eskicha nazariya, metodlar o'rtasidagi ziddiyatlarni ifodalaydigan ilmiy bilishning muhim shaklidir. Muammo bilish jarayonida paydo bo'ladigan qiyinchiliklar, to'siqlar bo'lib, ularni hal qilish uchun tadqiqotchilardan ham nazariy ham amaliy jihatdan katta kuch-g'ayrat talab qilinadi. Fan oldida turgan muammoni aniq tushunib yetgan holda to'g'ri qo'yilishi, uni hal qilishning muhim omili bo'lib hisoblanadi.

Fan falsafasining yirik vakili K.Popper qarashlariga ko'ra, fan kuzatishdan ham va hatto nazariyadan ham boshlanmaydi. Fan muammodan, uning qo'yilishidan boshlanadi. Muammolarni hal qilish uchun biz nazariyalarni yaratamiz, nazariyalarning tanazzuli yangi muammolarni keltirib chiqaradi va bu jarayon mana shu tarzda davom etaveradi. Shuning uchun ham fan rivojlanishining umumiy sxemasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: bunda R1 – birlamchi muammo; N1, N2, ..., Nn – muammoni hal etish uchun ilgari surilgan nazariyalar; YE – tekshirish, ilgari surilgan nazariyalarni falsifikatsiyalash va chetlashtirish; P2 – chetlashtirilgan nazariyalardan qoldirilgan - yangi, yanada chuqur va murakkab bo'lgan muammolar. Ushbu sxemada fan bilimlarning oddiy to'plamidan iborat emasligi, balki, doimo progressiv tarzda o'sib boruvchi muammoli jarayon ekanligi ko'rsatilgan<sup>1</sup>.

Odatda, fanda yangi muammoning ilgari surilishi ilmiy bilish jarayonida yuzaga kelgan muammoli vaziyatning paydo bo'lishi bilan

bog'liq bo'ladi. Ya'ni, fan oldida paydo bo'lgan yangi ma'lumotlarni avvalgi bilimlar asosida tushuntirish va avvalgi metodlar asosida tadqiq etish mumkin bo'lmay qoladi. Avvalgi bilimlar va yangi bilimlar elementlari, faktlarining bir-birlariga mos kelmay qolishi jarayonini dialektik ziddiyat deb atash mumkin. Dialektik mantiq hamda bilish nazariyasi ayni mana shu ziddiyatni bilish jarayonining harakatga keltiruvchi va rivojlantiruvchi kuchi deb biladi.

Biz tahlil qilayotgan masalada ziddiyat bilish va bilmaslik o'rtasidagi ziddiyat sifatida bevosita muammo bilan bog'liqdir. Ayni ziddiyat muayyan muammoli bilishlik vaziyatini shakllantiradi. Bunday vaziyatlarda inson (muammoni tushunishda) intellektual qiyinchiliklarga duch keladi, ko'zlangan maqsadga amaldagi usullar orqali erisha olmaydi. Bu esa insonni tushuntirish va harakatning yangi usullarini izlab topishga undaydi hamda muammoni shakllantirish va hal etish jarayonida faol fikriy faoliyat yuritishni shart qilib qo'yadi<sup>2</sup>.

Ziddiyat – har qanday muammoning negizidir. Bilish faoliyatida turli ziddiyatlar paydo bo'ladi. Eski bilimlar va yangi faktlar, muayyan hodisalar to'g'risidagi empirik tasavvurlar va ilmiy bilimlar, masalani nazariy yo'l bilan yechish imkoniyatlari va uni amaliyotda qo'llab bo'lmasligi, amaliyotda qo'lga kiritilgan natijalar va nazariy asoslarning mavjud emasligi va hokazolar orasidagi munosabatlar shunday ziddiyatlardir.

Yangi bilimning vujudga kelishi muammosi

bilan shug'ullangan faylasuf A.V.Slavin yangi bilimlarni uch turga ajratadi: 1) Yangi empirik (eksperimental) faktlarni ochish; 2) muayyan nazariyadagi empirik yo'l bilan aniqlanmagan tushuncha va muhokamalarni sistemaning boshlang'ich qoidalaridan kelib chiqqan holda deduksiya yo'li bilan oydinlashtirish; 3) yangi tushuncha va muhokamalar, ilmiy qoida va prinsiplarni vujudga keltirish, yaratish. Bular mavjud bilimlardagina kelib chiqmaydi, balki, birinchidan, bu tushuncha, qoida va hokazolar mavjud bilimlar doirasiga sig'maydi; ikkinchidan esa, yangi bilimlar eskilari bilan ziddiyatda bo'ladi. Bu ziddiyat yangi, yanada kengroq va umumiy bo'lgan nazariy bilimlar sistemasi yaratishni talab qiladi<sup>3</sup>.

Muammo keng ma'noda – o'rganish va hal etishni talab qiladigan murakkab, ziddiyatli nazariy yoki amaliy masaladir. Fanda – bu narsa va hodisalarning mohiyatini ochish jarayonida paydo bo'ladigan ziddiyatli vaziyatdir. Bu vaziyat qo'yilgan masalani hal etish uchun tegishli kuchlarni safarbar etadi, ularning harakat yo'nalishini belgilaydi, ularni rag'batlantiradi, qo'llab-quvvatlaydi. Muammoni yechish uchun, harakat yoki ixtiro usullarini topish uchun – izlanishlar olib borish, yetishmaydigan bilimlar bilan qurollanish zarur. Muammoni hal etish yo'llarini aniqlash, bilish materialini loyihalashtirish, ushbu faoliyatning ijodiy mazmunga ega ekanligini bildiradi.

Y.S.Jarikov muammoni shunday ta'riflaydi: Muammoni shunday savol turi sifatida tasavvur qilish kerakki, unga to'plangan bilimlarda javob yo'q va bizga ma'lum bo'lgan usullar yordamida ham unga javob topib bo'lmaydi<sup>4</sup>. Bunda asosiy jihat subyekt faolligining yangi bilimlarni egallashga yo'naltirilganligidir. Bu esa muammoli vaziyat ham muammo, ham ziddiyat, intellektual tanglik sifatida aqliy jarayonlar faolligiga samarali ta'sir qilishini, bilishning yangi usul va vositalarini shakllantirish imkonini berishini ko'rsatadi.

Muammoni hal qilish jarayoni bir qancha asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi. Bularning hammasi u yoki bu holatda subyekt faolligining muayyan shakl va darajalari bilan bog'liq bo'ladi. Muammoli vaziyatni anglab yetish, uning tub mohiyatini oydinlashtirish (aniqlash), to'g'ri ifodalash (izohlash), uni hal qilish to'g'ri ekanligini tekshirish, nafaqat yangi bilimlarni, balki, shu bilan birga mavjud bilimlarni yangidan ifodalashni, yangidan guruhlashni talab qiladi. Bu jarayon shuningdek, o'z ichiga savol va gipotezalar, xayol va intuitsiya va hokazolarni ham qamrab oladi.

Umuman muammoli masalalarni yechishga yo'naltirilgan tadqiqot faoliyati

odatda, to'rt bosqichga ajratiladi: 1) muammolarning vujudga kelishi va uni hal etishga undovchi dastlabki omillar; 2) muammolarni insonning tushunishi, anglashi va "qabul" qilishi; 3) muammolarni yechish yo'llarini izlash jarayoni (muammoli masala holatini analiz qilish, mavjud bilim va ko'nikmalaridan samarali foydalanish, gipotezalarini ilgari surish, ularni muhokama qilish va tekshirish); 4) Eng so'nggi natijalarni olish va ularning bahosi<sup>5</sup>.

Demak, muammo mavjudligi, faollikni, harakatni taqozo qiladi, chunki, busiz muammoni hal qilib bo'lmaydi.

Umuman muammo – murakkab, ziddiyatli fenomen: bu o'z ichiga noaniqlik, ziddiyatlilik, imperativlikni qamrab oluvchi muayyan ijobiy bilimlardir.

Muammoni qo'yish va hal etishda ijtimoiy-madaniy omillar, tafakkurlash uslubi, falsafiy bilimlar o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazadi. Bu omillar tadqiqotchi tayanadigan dunyoqarashlik va metodologik yo'l-yo'riqlar bo'lib hisoblanadi<sup>6</sup>. Bu jarayonda falsafaning evristik roli maxsus – ilmiy bilimlarni muammolashtirish shaklida namoyon bo'ladi. Falsafa – ayrim fanlar obyektlarining tegishli turlarini bilib, o'zlashtirib olganlariga qadar ilmiy tadqiqot uchun zarur bo'lgan kategorial materiallarni, kategoriyalar sistemasi yaratadi. Mana shu asoslar fanlarning fundamental muammolarni qo'yish va oydinlashtirishga yordam, rag'bat beradi. Bu muammolarni izohlash va hal etishda falsafiy – dunyoqarashlik va metodologik prinsiplar, tafakkurlash uslubi, dunyoning ilmiy manzarasi muhim tanqidiy-baholovchilik va bog'lovchilik vazifalarini bajaradi.

Demak, muammoni qo'yish qobiliyati – bilish jarayonining yana bir darajasidir. Shu bilan birga – bu jihat tafakkurlash uslubi ilmiyligining ko'rsatkichidir. Tayyor bilimlar, javoblar oldida bosh egish, ularga to'la moyillik dogmatizm va sxolastikaga olib boradigan yo'ldir. Fanlarning rivojlanishi, albatta, yangi muammolarning paydo bo'lishini taqozo qiladi. Hal etilgan muammolardan hal etilmaganlariga o'tish, ya'ni, muammolilik – ham fan ham tafakkurlash uslubi, ham ilmiylik mezonini tavsifidir.

Shunday qilib, muammoni to'g'ri qo'yish va uni hal etishga intilish ham ilmiy bilimlar rivojlanishining o'ziga xos qonuni, butun bilish jarayonining harakatlantiruvchi kuchidir. Fanda muammolilik darajasining oshib borishi nafaqat obyektning bilish yo'lidagi to'siqlarni bartaraf etadi, obyektning mohiyatini to'laroq ochishga yordam beradi, balki, shu bilan birga subyektning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini

3 Қаранг: Славин А.В. Проблема возникновения нового знания. М. Наука, 1976. – С.51.

4 Жариков Е. С. Научный поиск. – Киев.: 1967. – С. 12.

5 Қаранг: Жариков Е. С. Научный поиск. – Киев.: 1967., Берков В.Ф. Научная проблема. Минск. БГУ. 1979.

6 Қаранг: Микешина Л. А. Детерминация естественно - научного познания. – Л.: ЛГУ, 1971; Ребена Я.К. Социальная детерминация научного познания. М. Наука, 1983.

bilishdagi qobiliyatini ham namoyon qiladi. Insonning nimalarga qodir ekanligini ko'rsatadi. Uni rag'batlantiradi, yanada samaraliroq faoliyat yuritishga undaydi.

## OILA INSTITUTIDA MODERNIZATSIYA VA TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI

Ramiz Turdimurodovich Zohirov - f.f.b.f.d. (PhD), Qarshi davlat universiteti

**Annotasiya:** Maqolada oila instituti jamiyatning tarkibiy qismi ekanligi, globallashuv va xalqaro integratsiya ta'sirida oila instituti hayotida modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari ro'y berayotganligi, ularning o'zbek oilalarida namoyon bo'lishi masalalari tadqiq qilinadi.

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопрос института семьи как неотъемлемой части общества, влияние глобализации и международной интеграции, процесс модернизации и трансформации в жизни института семьи, их проявление в узбекских семьях.

**Abstract:** The article examines the issues of the family institution as an integral part of society, the impact of globalization and international integration, the processes of modernization and transformation in the life of the family institution, their manifestation in Uzbek families.

**Kalit so'zlar:** oila, jamiyat, globallashuv, integratsiya, modernizatsiya, transformatsiya, konservativizm, gender tenglik, etnotafakkur, mikrojamiyat.

**Ключевые слова:** семья, общество, глобализация, интеграция, модернизация, трансформация, консерватизм, гендерное равенство, экстремист, этнопатология, микрообщество.

**Keywords:** family, society, globalization, integration, modernization, transformation, conservatism, gender equality, extremists, ethnopathology, micro-society.

Oila instituti jamiyatning tarkibiy qismi, shuning uchun sotsiumda, ijtimoiy hayot va munosabatlarda kechayotgan o'zgarishlar unga ta'sir etmay qolmaydi, albatta. Shuning uchun oila institutidagi o'zgarishlar jamiyat va ijtimoiy munosabatlarda ro'y berayotgan voqealar bilan uyg'un qaralishi darkor. Haqiqatan ham, oilashunoslikdagi tadqiqotlarda oila instituti ijtimoiy-demografik, ma'naviy-axloqiy va iqtisodiy sohalar bilan uyg'un qaraladi.

Bugun jamiyatda, globallashuv va xalqaro integratsiya ta'sirida, oila instituti hayotida modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari ro'y bermoqda. Shunday ekan, ikki ushbu modernizatsiya va transformatsiya jarayonlari oila instituti hayotida nimalarda namoyon bo'lmoqda, ular oila institutining ijtimoiy funksiyalariga qanday ta'sir etmoqda degan savollar uyg'onadi.

"Modernizatsiya" so'zi "zamonaviy" yoki "zamonaviylashtirish" ma'nolarini anglatadi. Uning genезisi va jarayonlari haqida turli qarashlar, fikrlar mavjud. Ilmiy adabiyotlarda asosan uning ijtimoiy siyosiy, iqtisodiy, ba'zan esa madaniy

jarayonlar bilan bog'liqligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham ilmiy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalarida "siyosiy modernizatsiya", "iqtisodiy modernizatsiya" va "madaniy hayotni modernizatsiyalash" kabi iboralar, tushunchalar ko'p ishlatiladi. Ammo ilmiy adabiyotlarda oila hayotini modernizatsiyalash borasida deyarli hech nima uchramaydi. Bizning fikrimizcha, buning ikki sababi bor: birinchisi, oila konservativ institut ekani uchun u modernizatsiyani yoqtiravermaydi, chekkadan kiritiladigan har qanday zamonaviylashtirish unga zo'ravonlik, tazyiq bo'lib ko'rinadi. Oila, hatto u ijtimoiy hayot va munosabatlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, o'zining chegarasiga ega, u ushbu chegarani buzishga qarshilik ko'rsatadi. Biz istaymizmi yoki yo'q, oila asrlar davomida yaratilgan etnoan'analar va etnotajribalarni asrashga intiladi, ularni buzish, yangilash va modernizatsiyalash ochiq tarzda bo'lmasada, yashirin tarzda, ichki qarshilikka uchraydi. Aynan ushbu etnoan'analar va etnotajribalar orqali oila o'zining mustaqilligini, daxlsizligini, differensial xususiyatlariga ega institut ekanini isbotlaydi. Ikkinchisi, oila instituti hayotidan

joy olgan o'zgarish milliy tajribaga, boylikka va o'lmas an'anaga aylanadi. Jamiyatda sodir etiladigan o'zgarishlarga tashqi siyosiy, xalqaro va iqtisodiy-moddiy omillar tez ta'sir qilishi mumkin. Aynan shu jarayon shaharlar, an'analar va marosimlarning qiyofasi o'zgarayotganida, yangi inshootlar va yo'llar, maydonlar va dizaynlarda aks etadi. Oilaning go'yoki ushbu o'zgarishlarga aloqasi yo'qdek ko'rinadi, u o'z tashvishlari va ehtiyojlari bilan yashayotgandek. Ha, bunda konservativizmning ta'siri bor, ammo u oilani ijtimoiy borliqdan yakalab qo'yuvchi mutlaq konservativizm emas.

Aslida konservativizm uchta bo'ladi:

1) o'zining tajribalaridan boshqasini tan olmaydigan, faqat o'z tartiblari va an'analarini to'g'ri deb biluvchi mutaassib, mutlaq (agressiv) konservativizm;

2) asosli omillar ta'sirida etnoan'analar va etnotajribalarini qisman, kamdan-kam hollarda modernizatsiyalashga rozi bo'ladigan, bosiq, mo'tadil konservativizm;

3) modernizatsiyani o'z etnoan'analar va etnotajribalari doirasida qabul qilishga moyil, yangilik va o'zgarishlarni tabiiy hol sifatida qabul qiladigan ijobiy konservativizm.

Mutlaq konservativizmsotsialtajribalarning emas, balki, ko'pincha din va diniy aqidalarga o'ralgan tasavvurlarning, an'ana va urf odatlarning tarafdori. U mutlaq konservativizmi ijtimoiy hayotda emas, ko'pincha oila va oilaviy munosabatlarida ifoda etib, oila a'zolariga, ayniqsa xotin-qizlarga boy feodallarcha qaraydi, ularning huquq va erkinliklarini o'z tasavvuricha belgilaydi. U gender tenglik haqida eshitishni istamaydi, imkoni yuzaga kelgan zahoti diniy mutaassiblikka beriladi. Buni u "etnotajriba" atashdan tortinmaydi, amri ma'rufda eshitganlarini mutlaq haqiqat atashdan qaytmaydi. Shuning uchun mutlaq konservativizm bilan diniy mutaassiblik orasi bir qadam.

Mutlaq konservativizm oilada diniy tartib, uyushqoqlik va ahillik bo'lib ko'rinishi mumkin. Ba'zan bunday hayot tarzi gender tenglik yuzaga keltiradigan "sen-men" yoki "seniki-meniki" degan mayda nizolarga duch keladigan kishilar uchun ideal tartib ko'rinadi, ularda ham ana shunday osoyishta, bir subyekt (bu subyekt ko'pincha erkak bo'ladi) tomonidan boshqariladigan oilaga havas uyg'otadi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, mutlaq konservativizm va mutaassiblikni keltirib chiqaruvchi omillarga:

"maksimalizm balosi. Ekstremistlar ba'zi yoshlarni birdaniga hamma narsa boyluk, shonshuhrat, martabaga osongina ega bo'lishga, qahramon sifatida tanilishga, go'yoki sharafli ishni bajarayotganliklariga ishontirishlari;

ekstremistlar o'zlariga a'zo bo'lganlarga individual tarzda yondashishlari va ularning boshqa narsalar bilan chalg'ib ketishlariga umuman imkon bermasliklari;

ekstremistlar o'z g'oyalarini targ'ib etishda, e'tibordan chetda yurgan, hayotda ko'p narsaga erishmagan, o'z iqtidorini yuzaga chiqarishga intilmagan, o'zini go'yoki kamsitilgan deb hisoblovchi kishilarni o'zlariga jalb qilishlari;

diniy ko'ringan, aslida oqim g'oyalarini aks ettiruvchi broshyura va kitoblarni turli yo'llar bilan bepul tarqatib, mustaqil fikri umuman shakllanmagan, befarq va loqayd kishilarni yo'ldan urishga harakat qilishlari;

ayollardagi tez hissiyotga beriluvchanlik, ta'sirchanlik, ishonuvchanlik, rahmdillik, qiziquvchanlik kabi tuyg'ulardan o'zlariga jalb qilish yo'lida foydalanishlari;

ruhan ezilgan, yaqin kishisidan ajralib qolgan, hayot zarbasiga uchragan, bedavo dardga chalingan ayollar yoki yoshlarni aqlan va jismonan kuchsizliklaridan foydalanib, ularga jismoniy zulm o'tkazish, kaltaklash yoki narkotik moddalarga qaram qilib o'z maqsadlari yo'lida qo'g'irchoqqa aylantirishlari;

ekstremistlar o'zlarini "beg'araz yordam", "g'amxo'rlik" qiluvchi kishilar sifatida ko'rsatishga harakat qilib, buning uchun ehtiyojmand oilalarni, turli kasalxonalarini, mehribonlik uylarini topib, "xayriya tadbirlari"ni o'tkazib ularning ishonchiga kirishga harakat qilishlari kabilar" kiradi<sup>1</sup>.

Agar ushbu belgilardan kelib chiqsak, ulardagilarni tasdiqlovchi ko'pgina misollarga duch kelamiz. Masalan, "O'g'lingiz (qizingiz) tezroq ko'p pul topish o'yi bilan chet elga ketmoqchi bo'lsa yoki chet el firmasiga yollansa, unga nima maslahat bergan bo'lardingiz?" degan savolimizga olgan javoblarimiz quyidagicha taqsimlandi:

- "o'zimizda ish ko'p-ku" – 59 %
- "tezroq ko'p pul topish qiyin" – 57 %
- "qarshi bo'lardim" - 39 %
- "surishtirib ko'r, derdim" – 36 %
- "bejiz ko'p pul berilmaydi" – 22 %
- "bu odatiy hol" – 20 %
- "ma'qullardim" – 19 %
- "bilmayman" – 3 %

<sup>1</sup> Саидов С. Ёшлар орасида мутаассибликни келтириб чиқарувчи ижтимоий омилларга қарши кураш бугунги куннинг долзарб масаласи // Мутаассибликни келтириб чиқарувчи ижтимоий омиллар ҳамда маҳалла, таълим муассаси ва ҳамкорлиги таҳлили масалалари. Республика илмий-амалий конференцияси. Тошкент: "Маънавият", 2016. 50-51 б.

Mazkur javoblardan konservatizmning uchala ko'rinishiga ham misollar topsa bo'ladi. "O'zimizda ish ko'pku" (59%), "Tezroq ko'p pul topish qiyin" (57%) va "Surishtirib ko'r, derdim" (36%) degan javoblarda mo'tadil konservatizm ta'siri mavjud. Bu respondentlar o'g'li (qizi)ning chet el firmasiga yollanishiga, agar asos topilsa, qarshi bo'lmaydi, balki o'g'li (qizi) taklifini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Bu respondentlar "ma'qullayman" va "ma'qullamayman" o'rtasida turishibdi. "Bu odatiy hol" (20%) va "Ma'qullardim" (19%) degan javoblarda mutlaq konservatizm kuzatiladi. Bu respondentlar farzandlarining tezroq ko'p pul topishini istashadi, ular farzandlari kimga va qanday shartlarda yollanayotgani bilan qiziqmaydilar. Ular bugun mutlaq konservatizmga moyil ekanliklarini oshkor qilishmasa-da, agar sharoit talab etsa, erta yoki indin bu xislatini ayon etishlari mumkin. Jamiyatdagi gumanistik etnoan'analarning ta'siri tufayli ular mutlaq konservator ekanliklarini yashiradilar, uni ochiqdan ochiq bildiravermaydilar. Qiziq hol shundaki, mutlaq konservatizmga moyil kishilar impulsiv emas, balki bosiq, hatto keragidan ortiq bosiq. Ular duch kelgan narsaga munosabat bildirmaydilar, balki bu munosabatini (ko'pincha bu munosabat salbiy bo'ladi) ichida yashiradilar.

Mutaassiblik jamiyat tomonidan qoralanayotganida ular bu munosabatini yashirishga intiladilar. Shu bilan birga, ular turmush qiyinchiliklaridan yaxshi xabardor, pul iqtisodiy-moddiy muammolarning yechimi ekanini aniq biladilar. Ular bu qiyinchiliklarga duch kelishgan, ularning chig'iriqlaridan o'tishgan va, shu sababli, hayotiy pozitsiyasini ko'proq pul topishga qaratgan. Pul topish va boy-5 badavlat yashash g'oyasi targ'ib etilayotgan jamiyatda bu respondentlarimizni qoralashimiz mumkin emas.

Yoqimli (ijobiy) konservatizm tarafdorlari chet el firmalari behuda ko'p pul ishlashni va'da qilmasliklarini sezishadi, ular o'zlarining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib o'g'lim (qizim) chet firmalariga tezroq ko'p pul topish niyatida yollanishlariga "qarshi bo'lardim" (39%) va "bejiz ko'p pul berilmaydi" (22%) deb javob berishadi. Bu respondentlarning "ijobiy konservator"ligi shundaki, ular farzandlarini mavjud an'anaviy hayot tarziga, boriga shukur qilib yashashga, pulga ruju qo'ymaslikka, "el o'zini - o'zi boqadi" degan etnoan'analarga va etnotajribalarga ergashib yashashga moyildirlar. Ular zamonaviylashishga qarshi

emas, ammo hayotiy muammolarni, turmush qiyinchiliklarini uzoqlarda yurib emas, balki shu yerning o'zida, etnoan'aviy usullarda, asta sekin hal etish tarafdorlaridir. Bunday oilalar farzandlarining zamon talablarini hisobga olib, e'tiqodli, bilimli, ijtimoiy faol va badavlat yashashini istashadi. Oilaviy etnoan'analarga rioya etish, ayniqsa e'tiqodli bo'lish ular uchun juda muhim milliy qadriyat hisoblanadi.

Xo'sh, oiladagi modernizatsiya jarayonlari nimalarda aks etadi? Modernizatsiya jarayonlarini avvalo etnotafakkurdan izlamoq kerak, chunki R.Dekart aytganidek "men fikrlayapman, demak, men mavjudman"<sup>2</sup>.

Oila instituti ham fikrlovchi insonlar birligidir. Ichki hayotiga, turmushi va oilaviy munosabatlariga ta'sir etuvchi fikrlash tarziga qarab biz ularning oilasidagi muhit, yangilikni idrok etishi, etnoqadriyatlarini asrashi va modernizasion o'zgarishlarning ta'siri haqidagi fikrlarini bilamiz. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, "etnotafakkur ko'pincha ijtimoiy ong, ijtimoiy fikr tarzida keladi. Ulardagi o'zgarishlarni etnotafakkurdagi yangilanishlar sifatida qarash mumkin"<sup>3</sup>.

Shu bilan birga ular, fundamental ahamiyatga ega bir fikrni bildirishadi. "Modernizatsiya, deb yozishadi ular, etnotafakkurni mutlaq o'zgartirmaydi, undagi ustki o'zgaruvchan qismni yangilaydi xolos. Etnotafakkurdagi ichki barqaror, etnomadaniy qadriyatlar ta'siridagi qism esa saqlanib qoladi. Mazkur yadroni yo'qotish millatning assimilyatsiyalashuvini anglatadi, shuning uchun modernizatsiya etnotafakkurining ustki qismini yangilaydi. Shunday modernizatsiya jarayonlari uchraydiki, ular etnomadaniy qadriyatlarini, yadroni ham o'zgartirib yuborishi mumkin. Biroq bunday ta'sir juda kam uchraydi"<sup>4</sup>.

Mazkur fikr aynan oilaga va undagi etnoan'analarga va etnotajribalarning modernizatsiyalashuviga taalluqlidir.

O'zbek oilasiga tashqi tazyiqlar ko'p bo'ldi, mo'g'ullar tazyiqi, arablar tazyiqi, Chor Rossiyasi tazyiqi, sho'rolar tazyiqi shular jumlasidandir. Ammo o'zbek oilasi o'zining etnoan'analari va etnotajribalarini asrab keldi. Bu etnoxususiyatlarga oilaparvarlik, bolajonlik, kommunitar an'alarga tayanish, mehnatsevarlik, oila boshlig'iga ehtirom va unga ergashish, e'tiqodli yashash, quda - andachilikni qo'llab-quvvatlovchi koordinasion aloqalarni e'zozlash, diaxron aloqalarni asrash, yetti avlodni bilish, tejamli turmush yuritish,

oilaviy sirni yoymaslik, "yon qo'shni - jon qo'shni" tamoyiliga amal qilish kabilar kiradi. Bu etnoxususiyatlar o'zbek oilasini o'ziga xos, etnoan'analari va etnotajribalarga ega institutga aylantirgan.

O'zbek oilasi modernizatsiya jarayonlarini ushbu etnoxususiyatlari orqali baholaydi. Masalan, bugun ta'lim tizimida modernizatsiya keng amalga oshirilmoqda, ammo ularning mohiyatidan oilalar, ota-onalar yaxshi xabardor emas. Tadqiqotchilar S.D.Norqulov va F.S. Umarova o'tkazgan sotsiologik so'rovnoma natijalaridan ma'lum bo'ladiki, respondentlarning 37% "universitetlarning 1000lik" tizimi nima, "kredit modul" nima degani, "Bolonye jarayoni" va "Heymis tizimi" deganichi, "global tarmoq" nimani anglatadi, "universitet reytingi", "ta'lim tizimini modernizatsiyalash", "pedtexnologiya", "masofaviy o'qish" nega kerak, "ta'limga investitsiya kiritish", "xalqaro standartlar" kabi savollar haqida aniq tushunchalarga ega emas. Ular nima uchun institutlar universitetlar va akademiylarga aylantirilayotganining ahamiyati haqida biror nima deya olishmaydi. Jamiyatda, ta'lim tizimida kechayotgan modernizatsiya jarayonlaridan ular deyarli bexabar, vaholanki, ularning farzandlari u yoki bu oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishadi"<sup>5</sup>.

Respondentlarning deyarli yarmi, ya'ni 48% oliy ta'lim tizimidagi an'anaviy kasb-kordan tashqari yana qanday yo'nalishlar mavjudligini bilishmaydi. Ular farzandlarining xorijiy yo'nalishlardagi kasb-korlarga qiziqishlari borligini tan olgan holda, bu kasb-korlar farzandlariga nimalar berishini aytisholmaydi. Respondentlarning 41% O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqilgani va qabul qilinganidan bexabar, 28% u haqda eshitganu, lekin aniq qanday maqsad va vazifalarni nazarda tutishini bilishmaydi. Hatto mazkur respondentlar ichida oliy ma'lumotlilar 87% ni tashkil etishadi". Agar bu kuzatishlardan kelib chiqsak, jamiyatda, shu jumladan, ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiya aholidan chekkada kechmoqda, degan fikr uyg'onadi.

Tadqiqotchilar o'rinli uqtirishadi: "Ammo bu fikr ta'lim tizimiga etnotafakkurning munosabati deyarli salbiy ekan, degan fikrga olib kelmaydi. Oliy ta'lim tizimida bugun xalqaro standartlarni joriy etish shiddat bilan davom etmoqda, bu modernizatsiyalashtirishning barcha jihatlarini bilan keng omma tanish bo'lmasligi mumkin"<sup>6</sup>.

Demak, modernizatsiya etnotafakkurga, u orqali etnoan'analarga va etnotajribalarga, ta'sir etadi, biroq uni obyektiv baholash, idrok etish bilim, vaqt va tajribani taqozo etadi. Xalqaro tajribalardan o'tgan yuqorida sanab o'tilgan modernizatsiya usullari hali o'zbek etnotafakkurida, ota-onalar ongida yetarli o'rin topmagan bo'lishi tabiiy hol, chunki ular milliy ong va ijtimoiy fikrdan tashqarida, goho esa ular xohishiga zid tarzda amalga oshirilmoqda. Ayniqsa o'zbek oilalarining modernizatsiya jarayonlarini obyektiv baholashi uchun hali ko'p vaqt kerak bo'ladi, undagi konservatizm ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Oiladagi modernizatsiya avvalo er-xotin munosabatlariga borib taqaladi. Oilada kim nima bilan shug'ullanishi kerak, kim yetakchi rolini bajarishi lozim, degan savollar gender tenglik g'oyasishakllanganidan berikuntartibida turibdi. Maxsus tadqiqotlar ko'rsatadiki, aynan ushbu savollar oilaviy nizolarga sabab bo'lishi kuzatiladi. Erkakning mavqei masalasi bugun shubha ostiga olinmoqda, u endi oldingi patriarxal munosabatlar va tartiblar hukmron davrga qaytolmasligini biladi, tushunadi. Bu inqirozli vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqarishga har bir erkakda ham jur'at yetavermaydi<sup>7</sup>.

Shuning uchun aksariyat erkaklarda gender tenglik, feminizatsiya e'tirozlar, hatto ochiqdan ochiq qarshilik (mutlaq konservatizm) uyg'otadi. Masalan, internet saytda quyidagi fikrlar bildiriladi: "Keyingi o'n yilda ayollar shu darajada erkaklashib ketdiki, ular kirib bormagan joy va soha qolmadi. Haydovchilar ayollar, sartoroshlar ayollar, temiryo'lchilar ayollar, mardikorlar ayollar, xullas, hamma sohada ayollar. Avvallari erkaklar ayolini mashinasining oldi o'rindig'ida olib yurishni or bilardi, hozirda o'zlari old o'rindiqda uyalmay o'tirishibdi. Yoki restoranlarda ayollar, choyxonada ayollar, hattoki erkaklar hojatxonasini pul oluvchi kassiri ham ayollar. Avvallari ayollar: "erkaklar ko'p ekan" deb oshxonalariga kirishmagan bo'lsa, hozirda erkaklar "u yerda ayollar ko'p" deb, choyxonalariga kirishmayapti, naqadar o'lchovlar o'zgarib ketdi, erkaklar ham butkul o'rganib bo'ldik, ko'nikdik va ko'nikib borayapmiz. Ayollar erkinlikni shu darajada tez o'zlashtirishmoqdaki, hatto avrat chegarasida ham erkaklarga taaluqli hukmni o'zlariniki qilishdi (ya'niki kindik va tizza oraliq'i). Bizlar ham ana shu chegaradan o'tganini behayo deyaapmiz. Rasululloh "ummatim, ummatim" deganlarida bizni

2 Декарт Р. Сочинения в 2 т. - Москва: Мысль, 1989.-С. 316-317.

3 Норкулов С.Д., Умарова Ф.С. Модернизация в узбек этнофакультетах. - Ташкент: Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi, 2021. 33-б.

4 Уша асар. 34-б.

5 Уша асар. 120-б.

6 Уша жойда.

7 Қаранг: Антология гендерной теории. - Минск: Поппури, 2000; Бендас Т.В. Гендерная психология. - СПб.: Питер, 2007.

aytishgan deymiz". Bu o'rinda muallifning mutlaq konservativizmga moyilligi kuzatiladi va shu bilan birga, jamiyatda kechayotgan modernizatsiyaning ayollar faoliyatiga, turmushi va tafakkuriga ta'siri namoyon bo'ladi.

Ha, bugun ayollarimiz ilgari faqat erkaklarga xos bo'lgan kasb - korni egallamoqda, kiyinishda ularga taqlid etishadi, ko'chaga chiqish yoki chet ellarga borib kelishda erkaklardan ruxsat so'rash endi orqada qoldi. Kafe, restoranlarda to'planishib "gap" uyushtirish, ularda spirtli ichimliklar ichish, erkakona so'zlarni ishlatish, katta davralarda istagan kishisi bilan raqsga tushish, kech uyga qaytish, ko'ngliga ma'qul kishilar bilan uchrashishga ahdlashish, dallollik, sudxo'rlik, kim oshdi savdosi bilan shug'ullanish kabi sohalarda ham ayollar ko'pchilikni tashkil etmoqda. Madaniy-maishiy xizmatlar ko'rsatish, ko'ngil ochar tomoshalar uyushtirishda xotin-qizlar 75-80% ni tashkil etmoqda. Bularning barchasi oilaviy munosabatlarga ta'sir etib, er va xotin o'rtasidagi ilgarigi subordinasion aloqalarni o'zgartirib yubormoqda.

Demokratiya va gender tenglik shunchaki nazariya, qarashlar emas, ular ijtimoiy munosabatlarni, oila institutidagi etnoxususiyatlarni, ilgarigi an'analarni o'zgartirib yubormoqda. Globallashuv va xalqaro integratsiya xotin-qizlarimizni jahon bozorlariga olib chiqqani, ayrim qizlarimiz, otana roziligisiz, chet ellik yigitlar bilan tanishib, ularga turmushga chiqayotgani real voqeyelikdir. Hattoki, shunday hollar uchraydiki, qizlarimiz ikkinchi xotin bo'lib arab mamlakatlaridagi yigitlarga, erkaklarga tegishadi, ulardan farzandlar ko'rib, kundoshlari bilan bir hovlida yoki alohida kvartirada yashashadi. Bugun turmushning an'anaviy modellari transformatsiyaga uchramoqda, chet elliklar ta'sirida oila institutiga etnotajribalarga zid tartiblar kirib kelmoqda.

Masalan, o'zbek etnoan'analari va etnotajribalariga ko'ra, qiz bolaga bo'lg'usi kuyov tomonidan sovchi keladi, bu bir necha bor takrorlanishi mumkin, qizni turmushga uzatishning uzundan uzoq marosimlari bajariladi, ya'ni yaqin kishilar, kattalarishtirokida non sindiriladi, to to'y bo'lguncha kuyov tomon kelin tomonni yo'qlab turadi va boshqalar. Chet elliklarga turmushga chiqayotgan qizlarimizda bu etnoan'analari deyarli uchramaydi, to'y kunini ham yoshlarning o'zlari belgilashi mumkin. Etnotajribalardagi bu transformatsiya jarayonlari qayerga olib borishini hozir aytish qiyin, ammo o'zbek oilasi etnoan'analardagi

o'zgarishlar sodir bo'layotganini ko'rmaslik mumkin emas.

O'zbek oilalarida islomiy qadriyatlarga ergashish, rioya etish barqaror o'rin egallab kelgan. "Jangovar ateizm" davrining tanazzulga uchrashi bilan islomiy an'analari va tartiblarga qaytish kuchaygani tufayli oilalarimizda xotin-qizlarning yig'ilishib Qur'onni tilovat etishi, namoz o'qishi, hajga borishi, shar'iy nikohdan o'tishi kabilar qayta tiklandi, odatiy holga aylandi. Shu bilan birga, boshqa tomondan, xotin-qizlarimizda chet tillarini o'rganish, chet ellarga o'qishga, sayohatga va dam olishga borish, tashqi savdo-sotiqlar bilan shug'ullanish, ishlashga xalaqit bermaydigan kalta yubka yoki shim kiyish, sochlarini yoyib yurish, erkaklar davrasiga ochiq holda kirish va ular bilan teng muloqot qilish, ish so'rab turli tashkilotlarga borish, biznes va tadbirkorlik bilan shug'ullanish kabilar modernizatsiya ta'siridandir. Hatto xotin-qizlarimiz qadimdan erkaklar mashg'uloti bo'lib kelgan diplomatiya, harbiy ishlar va ichki ishlar tizimiga ham etishmoqda.

Bu jarayonlarni bir qolipda baholash mumkin emas, ularda ziddiyatli jihatlar ham bor. Masalan, diplomatiya ishlari bilan shug'ullanuvchi ayol yurtma-yurt yurishi, turli davralarda qatnashishi, davlat siyosatiga oid qarashlarni himoya qilib, erkak diplomatlar bilan bahslashishi, kerak bo'lsa, josuslik vazifasini bajarishi zarur. Bu vazifalar ayollardan erkakona fazilatlarini, mardlik, dovyuraklik va tashqi tazyiqlarga chidashni talab etadi. Oilasi bor, ayniqsa o'zbek ayoli bunday vazifalarni o'z ustiga ololmaydi. Yoki ichki ishlar sohasini olaylik. Sir emaski, bu soha turli nizolarni, janjalli holatlarni hal etishga yo'naltirilgan. U jismoniy tayyorgarlikdan tashqari, ma'naviy ruhiy chidamni, bardoshlikni talab etadi. Har kuni duch kelinadigan bunday hollar ayol psixologiyasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi.

Shunday ekan, bu sohalarni feminizatsiyalashtirishga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Gender tenglik va oilaviy hayotni modernizatsiyalash xotin-qizlar psixologiyasiga, salomatligiga aks ta'sir etadigan vazifalar orqali amalga oshirilishi etnoxususiyatlarga mutlaq zid yondashuvdir. Shunday bo'lsa-da, ba'zan yuridik xizmat sohalardagi xodimlarning 70 % ga yaqinini xotin-qizlar tashkil etishi keltiriladi, ammo bu xotin-qizlarning ko'pchiligi kotiba, ish yurituvchi, stenografist, xat tashuvchi kabi vazifalarda ishlaydi. Modernizatsiya va transformatsiya jarayonlarini obyektiv zaruriyat, ehtiyoj sifatida qabul qilinishi asosan yoqimli konservativ va

zamonaviy oilalarda uchraydi.

Respondentlarimizga "Qizingiz Sizning ruxsatingizsiz chet ellikka turmushga chiqib, o'sha yerda qolib ketsa, uni yoqlarmidingiz?" degan savol bilan murojaat etgandik. "Yo'q" deb javob berganlar 62 % ni, "Biror nima deyishim qiyin" deb javob berganlar 29 % ni, "Ha" deb javob berganlar esa 9 % ni tashkil etgan. "Ha" deb javob berganlar ichida oliy ma'lumotli va shaharlarda yashovchilar 88 % ni tashkil qiladi. Demak, oliy ma'lumotli bo'lish, shaharlarda yashash oilada modernizatsiya jarayonlariga ijobiy munosabatning shakllanishiga turki beradi. "Yo'q" deb javob berganlar ichida maxsus o'rta va o'rta ma'lumotli respondentlar 91 % ni tashkil qiladi. Ularning aksariyati qishloq joylarida istiqomat qilishadi. Bu o'rinda mazkur oilalarda mutlaq konservativ munosabatlar shakllangani kuzatiladi. "Biror nima deyishim qiyin" deb javob berganlarni mo'tadil konservatorlar safiga kiritish mumkin.

Oila institutining butunlay

modernizatsiyalashuvini tasavvur qilish qiyin, agar shunday oilalar uchrasa, ular chet el ta'siriga tushib qolgan va assimilyatsiyalashgan oilalardir. Ba'zi oilalarda chet tillarda gapirish, chet el tovarlari va ne'matlarini iste'mol qilish, chet el firmalari va korxonalarida ishlash, farzandlarini ham shu yo'sinda tarbiyalashga intilish uchraydi. Biroq bu tashqi ko'rinishlardir, bunday oila ma'lum bir etnoxususiyatlar hukmron ijtimoiy muhitda yashayotganini unutilib bo'lmaydi. Istashadimi yoki istashmaydimi, ushbu etnomuhit talablari bilan hisoblashishga, ular ta'siriga berilishga majbur.

Demak, konservativizm oila institutining ontologik asosidadir, etnoan'analari va etnotajribalar oilani barqaror, muqim institut sifatida saqlab keladi. Oilaning mikrojamiyat, ijtimoiy institut sifatida shakllanishi etnogenez bilan bog'liqdir.

## YOSHLARDA HAYOTIY MAQSADLARNI TO'G'RI SHAKLLANTIRISHNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Sanjar Sindorqulovich Karimov - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada hayotiy maqsadlarning yoshlar faoliyatini yo'naltiruvchi omillardan biri ekanligi hamda yoshlarda hayotiy maqsadlarni to'g'ri shakllantirishning jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligi uchun ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется социально-философское значение правильного формирования жизненных целей у молодежи для развития общества и благосостояния народа как одного из направляющих факторов активности молодежи.

**Abstract:** This article analyzes the socio-philosophical significance of the correct formation of life goals in young people for the development of society and the well-being of the people as one of the guiding factors of youth activity.

**Калит so'zlar:** yoshlar, maqsad, hayotiy maqsad, ehtiyoj, manfaat, determinant, jamiyat, taraqqiyot.

**Ключевые слова:** молодежь, цел, жезненная цел, потребность, интерес, детерминант, общество, развитие.

**Keywords:** youth, purpose, life goals, need, interest, determinant, society, development.

Tarixdan ma'lumki, har qanday yonalishlaridan biri hisoblanadi. Bu xususida jamiyatning taraqqiyoti va xalqining farovon to'xtalar ekan Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev, bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beriladigan e'tiborga bog'liqdir. "Yangi yurtimizda barpo etishga qaratilgan umumxalq harakati saflarida siz, aziz Bugungi kunda "Milliy tiklanishdan - milliy yoshlarimizning qudratli to'lqin bo'lib yuksalish sari" g'oyasi asosida islohotlar maydonga chiqayotganingiz, yuksak tahsinga yo'lidan borayotgan yurtimizda ham yoshlar sazovordir", -deb ta'kidlaydilar. Shu nuqtai masalasi davlat siyosatining eng ustuvor nazardan olib qaralganda, aholisining

1 Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон ёшлари форумида сўзлаган нутқи. [https://uz.uz/posts/bilimli-yoshlar-kelazhak-poydevori\\_281136](https://uz.uz/posts/bilimli-yoshlar-kelazhak-poydevori_281136)

yarmidan ko'prog'i yoshlardan iborat<sup>2</sup> bo'lgan mamlakatimizda yoshlarni Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik xususiyatlariga ega, o'zlarining mustaqil fikri, mustahkam hayotiy pozitsiya va jamiyat uchun ahamiyatli hayotiy maqsadlarga ega faol shaxs qilib tarbiyalash muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Ushbu vazifaning muhimligi xususida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev, "Men hurmatli ota-onalar, bobolarimiz va momolarimizni, jonkuyar ustoz va murabbiylarni, muhtaram ziyolilarimiz, keng jamoatchiligimizni bu masalaga befarq bo'lmasdan, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ishlarimizni yanada kuchaytirishga da'vat etaman. Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvandlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur<sup>3</sup>", - deb ta'kidlaydilar. Shu jihatdan olib qaralganda, yoshlarimizda mustaqil fikr va keng dunyoqarash, jamiyatimizning umumiy manfaatlariga muvofiq keluvchi hayotiy maqsadlarni tarbiyalash orqali, avvalo, ularni globallashtirish jarayonlari ta'sirida kirib kelayotgan turli tuman zararli g'oyalar va qo'shtirnoq ichidagi ommaviy madaniyatning ta'siridan saqlashimiz mumkin bo'ladi. Boshqa tomondan esa, yoshlarimizda daxldorlik, fidoiylik, vatanparvarlik tuyg'ularini tarbiyalash va jamiyat uchun ahamiyatli bo'lgan yaratuvchanlik, tadbirkorlik, tashabbuskorlik faoliyatlariga safarbar etish imkoniyati paydo bo'ladi.

Zero, yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida yoshlarning hayotiy maqsadlarining umummilliy manfaatlar va jamiyatning nechog'lik hamohang shakllanishi, insonparvarlik, vatanparvarlik, daxldorlik kabi yuksak axloqiylik g'oyalari bilan sug'orilishi ijtimoiy taraqqiyotning kafolati bo'lib xizmat qilishi shubhasiz.

Ayni shu jihatdan ham, yoshlarning jamiyatdagi o'рни, mavqei va faoliyatining asosiy determinanti va yo'naltiruvchi omili sifatida hayotiy maqsad tushunchasini o'rganish masalasi hozirgi davrda nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarda hayotiy maqsad shakllantirishning falsafiy jihatlarini

o'rganish bo'yicha mamlakatimiz olimlari tomonidan fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur yo'nalishda izchil holatda ilmiy izlanishlar olib borish zaruriyatini vujudga keltiradi va shu orqali yoshlarda hayotiy maqsadlarni tarbiyalashning zamonaviy uslublarini yaratish "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da belgilab qo'yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirish borasida o'ziga xos bir qadam bo'ladi.

Bugungi davrimizdagi ta'lim-tarbiya sohasidagi o'ziga xos murakkab sharoitni hisobga olgan holda aytish mumkinki, "hayotiy maqsad" kategoriyasi, uning strukturasi, yoshlarda hayotiy maqsadning to'g'ri shakllanish jarayoni, bunga ta'sir ko'rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar masalasini o'rganish quyidagi jihatlariga ko'ra muhim hisoblanadi:

birinchidan, jamiyatimizda yuz berayotgan yangilanishlar tufayli ilm-ma'rifati va g'oyaviy sohada keng ko'lamli vazifalar yuzaga chiqmoqda. Ayniqsa, yosh avlodni yangi zamon talablariga mos fikrlaydigan, o'zining aniq hayotiy pozitsiyasi va maqsadlariga ega kadrlar sifatida tarbiyalashga bo'lgan ehtiyojning har doimgidan ham oshib borayotganligi, ayrim o'quvchi-yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi<sup>4</sup>;

ikkinchidan, hayotiy maqsad tushunchasi, uning shaxs barkamolligi va faolligiga ta'siri masalalari falsafiy jihatdan yaxlit o'rganilmaganligi sababli, shaxs kamolotida hayotiy maqsadning o'rnini asoslash va ushbu masaladagi yangi tadqiqotlar natijalarini yoshlar ijtimoiy qiyofasini shakllantirishga yo'naltirish orqali bugungi kunning dolzarb tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga yo'naltirish zarurati;

uchinchidan, Yangi O'zbekiston g'oyasi asosida mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonida islohotlar muvaffaqiyati bevosita alohida shaxsning hayotiy maqsadlarining umummilliy manfaatlar va jamiyatning maqsadlariga nechog'lik hamohang shakllanishi bilan bog'liq ekanligi;

to'rtinchidan, shaxs ijtimoiylashuvi va ijtimoiy faollik jarayonida hayotiy maqsadning o'рни, shuningdek, yoshlarda hayotiy maqsad

2 Мирзиёев. Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент. «Ўзбекистон». 2017. 89- б.

3 Шавкат Мирзиёев: Ёшлар келажиги билан боғлиқ ҳар қандай вазифа бирламчи аҳамиятга эга. <https://uz.uz/news/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-kelajagi-bilan-bogliq-har-qanday-vazifa-birlamchi-ahamiyatga-ega>

4 "Узлуksиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 31.12.2019 йилдаги 1059-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4676839?ONDATE=03.01.2020&action=compare>

shakllantirishning falsafiy jihatlarini o'rganish bo'yicha fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmaganligi mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish va hayotiy maqsadni tarbiyalashning zamonaviy uslublarini yaratishni taqozo etmoqda.

"Hayotiy maqsad" tushunchasi hozirgi kunning ilmiy kontekstida keng qo'llanuvchi tushunchalar qatorida bo'lmasa ham, shaxs va jamiyat aloqalarini o'rganuvchi ko'plab ijtimoiy gumanitar fanlar sohasidagi tadqiqotlarda ushbu tushunchaga nisbatan o'ziga xos yondashuvlarni topish mumkin. Bu masaladagi yondashuvlarni umumlashtirgan holda, bu tushunchaga hayotiy maqsad - inson o'z hayoti davomida amalga oshirishga intiladigan eng asosiy natijalarni birlashtiruvchi, inson faoliyatining yo'nalishi, mazmuni va uzoq muddatli mo'ljallarini belgilab beruvchi eng asosiy, tub, pirovard maqsaddir deb ta'rif berish mumkin.

Ushbu masalada xususan, L.N.Kogan qarashlari alohida ajralib turadi. Uning fikricha, o'zining qobiliyati va is'tedodini ijodiy imkoniyatlari va ma'naviy boyligini jamiyat taraqqiyoti va umumiy man'fati yo'lida sarflash har bir kishining aniq hayotiy maqsadi bo'lishi kerak. L.N.Kogan "insonning barcha kuchlari rivojlanishi"ni nafaqat shaxsning ijtimoiy taraqqiyot oldidagi vazifasini bajarish vositasi sifatida, balki, shu bilan birgalikda shaxsning o'z maqsadi, ya'ni inson hayoti ma'nosining ajralmas elementi sifatida ham ko'rib chiqadi. Koganni avvalo ushbu muommoning etarli darajada yoritib berilmagan jihatlarini qiziqtiradi.

"Shaxsning o'z kuchi va qobiliyatini jamiyat manfaati yo'lida sarflash, uning ichki maqsadi va kamolotining me'zoni sifatida insonning o'z-o'zini namoyon qilishi va hayotining mazmunini tashkil etadi<sup>5</sup>" - deb ta'kidlaydi Kogan.

L.N.Kogan maqsad va hayot ma'nosining aloqadorligi haqida shunday xulosa chiqaradi: "Inson, faqatgina uning o'zi, o'z maslagi va hayotining ma'nosini belgilaydi. Hayotiy maqsadni belgilashning asosini insonning hayotning qadri haqidagi o'y hayollari, mulohazalari tashkil etadi. Bunda ushbu qadriyatlarining nafaqat alohida inson uchun, balki boshqa kishilar uchun ham, jamiyat uchun ham ahamiyatli ekanligini hisobga olish kerak bo'ladi<sup>6</sup>". Demak, yoshlarning hayotiy maqsadlarini shakllantirishda ushbu maqsadlarning jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar va jamiyatda ustivor bo'lgan g'oyalarga muvofiq shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim hisoblanadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yoshlarning jamiyatdagi o'рни, mavqei va faolligining asosiy determinanti vayo'naltiruvchi omili bo'lgan hayotiy maqsad masalasida ilmiy tadqiqotlar olib borish bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, yoshlarda hayotiy maqsadni tarbiyalashning zamonaviy uslublarini yaratish orqali jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi va xalq manfaatlarini o'zining shaxsiy manfaatlarini bilan uyg'un holatda tasavvur etadigan taraqqiyparvar avlodning shakllanishiga erishish mumkin.

5 Коган Л. Н. Цель и смысл жизни человека. - М.: Мысль. - 1984. С. 8.

6 Коган Л. Н. Цель и смысл жизни человека. - М.: Мысль. - 1984. С. 218.

## MILLIY G'UYADA MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK UYG'UNLIGI

Uyg'un Abdutalipovich Umurzakov - o'qituvchi, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada milliy g'oyada milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi hamda ularning uzviy bog'liqligi keltirilgan. Shuningdek, unda umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi va milliy g'oyaning asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik haqida so'z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена гармония национализма и универсализма в национальной идее, а также их взаимообусловленность. Также упоминается приоритет общечеловеческих ценностей и гуманизма, одного из основных принципов национальной идеи.

**Abstract:** This article presents the harmony of nationalism and universalism in the national idea, as well as their interdependence. It also mentions the priority of universal values and humanitarianism, one of the main principles of the national idea.

**Kalit so'zlar:** milliylik, ma'naviyat, insoniy qadriyatlar, madaniyat, ta'lim va tarbiya, taraqqiyot.

**Ключевые слова:** национальность, духовность, человеческие ценности, культура, образование и воспитание, развитие.

**Keywords:** nationality, spirituality, human values, culture, education and upbringing, development.

Milliy g'oya tizimida milliylik va umuminsoniylik uyg'unligi hamda ularning uzviy bog'liqligi umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligiga asoslanadi. Ularning asosiy tamoyillaridan biri insonparvarlik g'oyasi bilan bog'liq bo'lganligi sababli, milliylik va insonparvarlik tizim sifatida ham, tuzilishi va funksiyasi jihatidan ham bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Millat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan g'oyalar, eng avvalo, milliy zamin bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ana shunday o'zaro bog'liqlik natijasida vujudga kelgan umuminsoniy g'oyalar ham millat manfaatiga, ham uning kamolotiga xizmat qiladi.<sup>1</sup>

Bu jarayonda ikkita muhim qonun amal qilishini ta'kidlash zarur: Birinchi qonun – millatning o'ziga xos xususiyatlari va mentaliteti bo'lishidir. Ikkinchi qonun - vorislik qonuni, milliy taraqqiyotga ham taalluqlidir. Bu ikki qonuniyatning uyg'unligi milliy g'oyaning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.<sup>2</sup> "Milliy mafkura asoslari faqat millatning tor yerlari bilan chegaralanmaydi. Shu bilan birga, u insoniyatning ilg'or yutuqlariga tayanadi."

Shu nuqtai nazarda, milliy ong milliy tafakkurning milliy o'zlikni shakllantirishga qaratilgan markazi bo'lib.<sup>3</sup>

- millatni birlashtirishga qaratilgan;
- millat manfaatlarini ifodalash;
- milliy g'urur va mas'uliyatni shakllantirish va mustahkamlashga asos bo'lish;

• ko'p millatli mamlakatimiz aholisida yagona Vatan ruhini shakllantirishga asos bo'lish;

• milliy merosning ma'naviy manbai bo'lish, tarixiy xotirani asrash, o'zlashtirish va kelajak avlodga yetkazish;

• yoshlarimizning ma'naviy salohiyatini shakllantirishga qaratilgan vatanparvarlik, millatparvarlik va umuminsoniylik;

• xalqimizning mustaqil shaxs sifatidagi mavqeini aks ettirish;

• millatimiz bilan yonma-yon yashayotgan millat va elat vakillarini tashkil etish, ular bilan tinch-totuv yashash, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatish, ko'maklashish, hamkorlikni mustahkamlash hamda yagona O'zbekiston xalqi tuyg'ularini shakllantirish manbai bo'lish;

• xalqimizning zamonaviy sivilizatsiyalariga munosib hissa qo'shish uchun ma'naviy-ruhiy kuch va ilhom baxsh etish;

• O'zbekiston xalqida milliy xavfsizlik va milliy taraqqiyot ruhini shakllantirish va mustahkamlashning nazariy asosi bo'lishidir.

Komil inson g'oyasini aks ettirish milliy g'oyaning asosiy milliy va umummilliy tamoyillaridan biridir.<sup>4</sup> Milliy ong, milliy tafakkur, milliy o'zlikni anglash uchligiga amal qilmagan, aks ettirmagan, rivojlantirmagan va mustahkamlamaydigan g'oya milliy g'oya maqomiga ega bo'la olmaydi. Professor

N.Jo'rayev to'g'ri ta'kidlaganidek, "Milliy g'oya, milliy ong milliy an'analar, urf-odatlar, turmush tarzi asosida shakllanadi. Insonlar ongli ravishda umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan milliy manfaatlar atrofida aql-idrok yo'li bilan birlashadilar. Binobarin, bu intilishlar to'plami millionlab odamlarni milliy istiqloq g'oyasi orqali kuzatib boradi."

Milliy g'oya millat yoshlarini vatanparvarlik ruhida jipslashishga undaydi. Bu O'zbekiston xalqining maqsad va manfaatlariga hamohangdir.<sup>5</sup> Shu ma'noda jamiyatimizning milliy mafkurasini, mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsadlarini ifodalovchi, uning o'tmishi va kelajagini bog'lovchi azaliy orzu-niyatlarini ro'yobga chiqarishga xizmat qiluvchi g'oyalar tizimidir. Bunda milliy g'oyaga munosabat, millatidan qat'i nazar, mamlakat fuqarosida vatan tuyg'usi bo'lsagina belgilanadi.<sup>6</sup>

Milliy g'oya va mafkuraning uzluksiz samarali faoliyat yuritishida milliy va umuminsoniy mohiyat uyg'unligi muhim ahamiyatga ega, ya'ni u boshqa millat va elatlarning o'ziga xos ijobiy an'alarini o'zida aks ettiradi.<sup>7</sup> Ularning dunyoqarashini shu Vatan tarixi, madaniyati, urf-odat va an'alaridan ajralgan holda tahlil qilib bo'lmaydi. Ular bir-birini to'ldiradi va boyitadi.

Binobarin, Respublikamizda yashovchi har bir millat boshqa millatning o'ziga xos madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari va an'alarini bilan yonma-yon, umumiy va ma'naviy bir makonda joylashadi. Shu ma'noda, jamiyatimizning milliy mafkurasini, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalaydigan, uning o'tmishi va kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan asriy orzu-istaklarni amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalar tizimidir.<sup>8</sup> Bunda mamlakat fuqarosi qalbida qaysi millatga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, Vatan tuyg'usi mujassam bo'lsagina, milliy g'oyaga munosabat uyg'un tarzda qaror topadi.

Professor N.Jo'rayev, insonning hayotda tutgan o'rnini va rolini belgilashi, asrlar mobaynida shakllangan dunyoqarashlar, milliy an'analar asosida ulug' ajdodlarimizning buyuk merosi, g'oyalari asosida yangi, zamonaviy, ilg'or g'oyani vujudga keltirishi, inson faoliyati va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni chuqurlashtirishi, jamiyat hayotini tashkil etishga, aholiga ta'sir o'tkazishga va uni safarbarlikka da'vat etishi, insoniyat taraqqiyoti tarixiy tajribalari bilan milliy uyg'unish manfaatlarini uyg'unlashtiradigan omilga aylanishi milliy g'oyaning o'ziga xos xarakterli jihatlari sifatida jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida milliy taraqqiyotga turtki beradi, deb hisoblaydi.<sup>9</sup>

Bizning fikrimizcha, birinchidan, bu jarayon mamlakatdagi barcha millat va elat vakillarini yagona mushtarak maqsad sari birlashtirishda hamda "oila va vatan" tuyg'ularining shakllanishida; ikkinchidan, milliy o'zlikni anglash orqali jamiyat mafkurasining asosiy maqsadlaridan biri O'zbekistonda yashovchi barcha fuqarolarning imon va e'tiqodidan qat'iy nazar mustaqillikning ongli fidoyisiga aylantirishda; uchinchidan, dunyodagi barcha davlat va xalqlar ichida O'zbekistonning o'rnini anglab yetishda hamda uni umumtaraqqiyotga olib chiqishda; to'rtinchidan, milliy o'zlikni anglash millatlarni bir-biridan ajratish emas, aksincha, ular o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda ko'rinadi.

Shuning uchun ham ko'p millatlilik sharoitida millatlarning milliy o'zligini anglashi davlat siyosatiga daxldor muammodir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bizning davlatimiz ko'p millatli va ko'p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo'lgan bag'rikenglik an'alarini muhim rol o'ynamoqda".

Ta'kidlash joizki, targ'ibot-tashviqot ishlari milliy g'oyaning mazmun-mohiyatiga hamohang bo'lsagina kutilgan natijaga erishish mumkin. Xususan, milliy g'oya targ'iboti bilan bog'liq barcha va ayrim darajalarda: davomiylik; qadam ba qadam; faoliyat; mafkurani e'tiqodga aylantirish; ish bilan so'z birligi; shaxsiy namuna; hayotiylik (muvaffaqiyatlarni ham, kamchiliklarni ham ko'rsatish) muhim. Shuningdek, milliy g'oya va milliy g'oya targ'iboti boy tarixiy merosimizni chuqur o'rganish, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, ilm-fan va ta'limni rivojlantirish, jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy fikrni o'zgartirish va yuksaltirish bilan bog'liq.

O'zbekiston aholisining milliy tarkibining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ish yuritish ijtimoiy to'ntarishsiz ham taraqqiyotga erishish mumkinligini ko'rsatadi. Bu O'zbekiston tanlagan yo'lining mazmun-mohiyatiga hamohangdir.<sup>10</sup> Milliy o'zlikni anglash davlat, butun jamiyat manfaatlarini aks ettiruvchi mezondir. Boshqacha aytganda, davlat va jamiyat taraqqiyotini yuksaltirish jarayonida o'zlikni anglash umummilliy ehtiyojga aylanadi. Milliy o'zlikni anglash ham milliy taraqqiyot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etishda yagona maqsad yo'lida birlashtiruvchi kuch darajasiga ko'tarildi.<sup>11</sup>

Birinchidan, millat taraqqiyotida muhim o'rin tutadigan g'oyalar, eng avvalo, milliy

5 Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. (o'quv qo'llanma).

6 Nazarov Q. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. - T.: Yangi asr avlodi, 2001.

7 Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. - T.: Ma'naviyat, 2007.

8 Mamashokirov S., Tog'ayev Sh. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. - T.: Ma'naviyat, 2007.

9 Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. 97-109-b.

10 Xonazarov Q. Millat nazariyasiga tanqidiy nazar // milliy tiklanish, 1998, 16-iyun.

11 Nazarov Q. Milliy istiqloq g'oyasining asosiy maqsad va vazifalari. - T.: Yangi asr avlodi, 2001.



zamin bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ana shunday bog'lanish va bog'lanish natijasida vujudga kelgan umuminsoniy g'oyalar ham millat manfaatiga, ham uning kamolotiga xizmat qiladi;

Ikkinchidan, milliy g'oya va mafkura bir tizim bo'lib ishlashi uchun, avvalo, har bir kishi uni ongli ravishda anglashi, unga e'tiqod qilishi va unga amal qilishi, o'z xalqining o'tmishi, madaniy merosi va qadriyatlaridan xabardor bo'lishi zarur. Bu jarayonda xalqlarning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'un ko'rib

chiqish muhim omil bo'ladi;

Uchinchidan, jamiyatlar taraqqiy etgan sari turli xalqlar va millatlar jahon hamjamiyatiga aloqador bo'lib, turmush tarzi tezlashadi. Bu esa milliy madaniy merosga, uning rivojlanishiga soya solmasligi kerak. Aksincha, milliy madaniy meros milliy g'oyaning umuminsoniy asoslari yo'nalishlari bilan bog'liq holda rivojlanishi va yangilanishi zarur.

## JADIDLARNING VATANPARVARLIK G'OYALARI VA ULARNING FALSAFIY TALQINI

*Xuriyat Xudayberdiyeva - tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yoshlarda vatanparvarlik xususiyatlarini shakllantirishda jadid mutafakkirlarining qarashlari, millatni ma'rifatli qilish, vatanparvarlikni shakllantirish, milliy uyg'unlik yo'lidagi olib borgan sa'y-harakatlari va hikmatli so'zlarining tahlili keltirilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются взгляды джадидских мыслителей на формирование у молодежи патриотических качеств, их усилия по просвещению нации, формирование патриотизма, путь национального пробуждения, их мудрые изречения.

**Abstract:** This article analyzes the views of Jadid thinkers on the formation of patriotic qualities among young people, their efforts to educate the nation, the formation of patriotism, the path of national awakening, their wise sayings.

**Калит so'zlar:** vatanparvarlik, millat, ma'naviyat, ma'rifat, adolat, ezgulik, halollik, ehtiyoj, taraqqiyot, xalqsevar.

**Ключевые слова:** патриотизм, нация, духовность, просвещение, справедливость, доброта, честность, нужда, прогресс, патриотизм.

**Keywords:** patriotism, nation, spirituality, enlightenment, justice, kindness, honesty, need, progress, patriotism.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal islohotlar davrida jahon sivilizatsiyasiga o'zining boy ma'naviy me'rosi bilan muhim hissa qo'shgan buyuk allomalarning shaxsiyati, ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama, chuqur o'rganishga katta e'tibor berilmoqda. Mazkur masalada Prezident Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida «Hozirgi kunda O'zbekistonning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rtaga qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin»<sup>1</sup>, deya takidlaydi.

Shu bois, jamiyatning ma'naviy yuksalishi, vatanparvarlik tarbiyasi, uni davlat barqarorligini saqlashdagi konstruktiv roli

haqidagi buyuk mutafakkir, alloma va jamoat arboblarning ilmiy-falsafiy qarashlarini chuqur tadqiq etsak, jahonning rivojlangan demokratik davlatlarining yuksalish tarixini o'rgansak, mamlakatimizni umuminsoniylik tendensiyalarigamosravishdayuksaltirishimiz, xalqimizni davlat va jamiyatning milliy yuksalishida faol ishtirok etishga safarbar eta olamiz.

Yoshlarimiz uchun chinakam vatanparvarlik etaloni jadid bobolarimizni konstruktiv ta'limotida aks etgan. Jadidchilik XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragida vujudga kelgan harakat. U O'rta Osiyo xalqlarining madaniy, milliy siyosiy jihatdan rivojlanishi uchun alohida o'ringa ega bo'ldi. U dunyo ahamiyatiga molik vatanparvarlik, insonparvarlik va milliy qadriyatlarga asoslanib, jamiyat taraqqiyotining ehtiyojlari va o'lkaning

tub aholisi manfaatlariga javob berdi<sup>2</sup>.

Jadidlar insoniyatni komillik sifatlarini belgilashda, milliy va islomiy an'analarga, xususan, mutasavvuf allomalarning komil inson haqidagi ta'limotiga tayangan, shuningdek ushbu yondashuvni zamon talablariga muvofiq tarzda rivojlantirganlar. Shuningdek, ikkinchi tarafdin, xorij falsafasida o'z talqinini topgan inson konsepsiyasidagi g'oya, fikrdan unumli foydalangan. Jadidlar matbuoti ana shunday haqqoniylik va jasorat namunasi bo'lib, milliy o'zlikni anglash, milliy iftixor va vatanparvarlik va xalq taqdiri uchun mas'uliyat tuyg'ularini shakllantira oldi.

Jadidchilik harakatining vatanparvarlik g'oyalarini quyidagi muhim belgilarda ko'rishimiz mumkin:

birinchidan, ular ozodlikka, mustaqillikka qon to'kishlarga olib keluvchi qirg'in-barot urushlar bilan emas, balki aholining savodini chiqarish, ma'rifatli qilish (qaramlikning kelib chiqishi, uning millat taqdiridagi oqibatlarini tushunib etishlari) orqali erishish;

ikkinchidan, milliy ongni rivojlantirish – milliy birlikni ta'minlashning asosiy omili ekanligi, bu esa taraqqiyotga olib boruvchi asosiy omil ekanini milliy ongda shakllantirish;

uchinchidan, jadidchilik harakati namoyondalari faqat o'z g'oyalarini ilgari surish, uni tashviqot qilish doirasida cheklanib qolmasdan, ular yangi usul orqali aholining umumiy savodxonligini ko'tarish borasida ko'pgina ishlarni ham amalga oshirdilar.

Bu davrda yashagan ma'rifatparvar bobolarimizning asl maqsadi – Vatan mustaqilligi va ravnaqi masalasi edi. Aynan shuning uchun ular xalqimizni bilimni qilishga bor kuchlarini sarfladilar, maktablar ochdilar, kitob va jurnallar chop etdilar, teatr jamoalarini tashkil qilib, aholini ma'rifatga chaqirdilar. Birinchi o'zbek pedagogi, ustoz Abdulla Avloniyning: O'tar kunlar, o'tar zamon, Ey Vatanim bo'lma hijron! Men ketsam-da, sen bo'l omon, Omon Vatan, Vatan omon!, – degan misralarida jadidchilik harakati ishtirokchilarining asl niyatini anglash mumkin.

Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida "...Shuning hammaga ma'lumdurki, eng muqaddas diniy yerimiz o'lan Arabistonga bog'larini, hovllarini sotub hijrat qilgan hojilarimizning aksari yana o'z Vatnlariga qaytub kelurlar. Buning sababi, ya'ni bularni tortib keturgan quvvat o'z Vatnlarining, tuproqlarining mehr-u mahabbatidur"<sup>3</sup> deb bekorga ta'kidlamagan. Buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi doimo halol mehnat bilan

yashashga, vatanparvarlik, mardlik, saxovat va kamtarlikka chaqirishi bilan katta ahamiyat kasb etadi. Zero, vatanparvarlik g'oyasi ongiga chuqur muhrlangan, dunyoqarashi keng, har jihatdan bilimni, zukko, yurt kori uchun daxldorlik hissini tuyadigan hamisha ogoh avlodni hech kim eng olmaydi. El-yurti uchun yonib yashayotgan bunday navqiron avlodga chetdan hech kim o'z ta'sirini o'tkaza olmaydi. Bu borada Abdulla Qahhorning "Yurtni obod qilaman degan kishi o'zi obod bo'ladi"<sup>4</sup>, Pahlavon Mahmudning "Kimdaki bo'lmasa zamona g'ami, Yo olamdan emas, yo emas odam"<sup>5</sup>kabi so'zlari izohga muxtoj emas.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy Vatanga bo'lgan muhabbat inson ma'naviy-axloqiy kamolotining eng muhim alomatlaridan biri ekanligini ta'kidlab Vatan bilan faxrlanish, Vatanni sevish kishining eng katta boyligi ekanligi qayd etadi.

Jadidchilikning mohiyati millatni qoloqlik, xurofot botqog'idan olib chiqibgina mustaqillikka erishish, ya'ni milliy davlatni barpo etish mumkunligini asoslashdan iborat bo'lgan. Bunda ularga "Haq olinur, berilmas" va "Najot ilmi urfonda" shiorlari dasturilamal bo'lgan.

Jadidchilik harakatining yana bir vakili Sayid Rizo Alizoda "Turkiston-bizning Vatanimiz" nomli maqolasida o'zining ona-yurtga bo'lgan cheksiz mehr-muhabbatini buyuk his-tuyg'u bilan izhor qilib, xalqni Vatan himoyasiga chaqiradi. "Sho'lai inqilob" jurnalining 1919-yil 4-sonida Sayid Rizo Alizoda Vatan istiqboli yo'lida qurbon bo'lish, uning baxt-saodati va sharafini himoya qilish uchun kurashishni muqaddas ish, deb biladi: "Shu yerning ob-havosidan bahramand bo'lib kamol topsangu, uning sharafini himoya qilmasang, oyoq osti bo'lishiga, qadrsizlanishiga yo'l qo'ysang, nobakor ajnabiy o'z Vatnining shon-shavkati uchun ota-bobolaringning kindik qoni to'kilgan yeringni vahshiyaracha toptab, qoni simirsa va uni o'zining ahlatxonasiga aylantirsa-yu, sen hissizlarcha qarab tursang yoki undan qochsang, o'zing uning haqoratlanishiga ko'maklashing, unda sen bu vatanning nomusli va sodiq farzandi emassan!"

Sayid Rizo Alizoda Vatanga bemehr kishilarni pastkash-razil va hatto hayvondan ham tuban hisoblaydi.

"Biz Vatanimizni loaqal shuursiz hayvonlarcha sevmaymizmi? Axir, ularning uyiga begona bir hayvon kirmoqchi bo'lsa, uni yo'qotish uchun ular tishlari va oyoqlari, panjalari va shoxlari bilan hujum qilmaydilar mi?"

<sup>2</sup> Ahmedova M. Falsafa. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari jamiyati, 2006. – B. 154.

<sup>3</sup> Saidova M.Sh. Sinfdan tashqari o'qish darslarida maqol va hikmatlardan foydalanish. – Namangan, 2021. – 48 b.

<sup>4</sup> Sayid Rizo Alizoda. Turkiston-bizning Vatanimiz// "Sho'lai inqilob" jurnali. 1919-yil 4-soni

<sup>5</sup> Salomov G'. (G'aybulla as-Salom) Movarounnahr farzandi// O'zbekiston adabiyoti va san'at, -1992. -№20 -son.

Yoki xonadonlariga o'g'ri va talonchilar hujum qilganda, ularni yo'qotish uchun o'sha dargoh egasi kurashmaydimi? Nahotki bizning o'sha xonadon egasichalik vatanparvarlik g'ayratimiz bo'lmasa?" Sayid Rizo Alizodaning bunday publitsistik jonfido maqolalar o'sha yillarda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'qituvchilarning milliy iftixori va vatanparvarlik hissini oshirar, o'z yurtini himoya qilishga da'vat etardi.

Sayid Rizo Alizodaning vatanparvarlik g'oyalari ayniqsa, uning «Turkiston bizning Vatanimiz», «Bog'ishamolda ochlik», «Boylar, mulkdorlar umidlarini yo'qotmoqdalar», «Ingliz imperializmining tarafdorlari o'qislar», «Turkiston musulmonlarining fojiasi», «Buxoro voqealari to'g'risida» asarlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Sayid Rizo Alizodaning haqiqiy vatanparvarligini quyidagilarda ko'rish mumkin: birinchidan, u Turkiston xalqlarining kuch-qudrati va qobiliyatiga ishonadi; ikkinchidan, shu davrdagi ijtimoiy va davlat tizimiga tanqidiy nuqtai nazardan qaradi; uchinchidan, o'zining ko'pqirrali ma'rifatparvarlik, pedagogik va adabiy faoliyati bilan maorifning rivojlanishi va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda katta hissa qo'shdi. Shunday qilib, uning ma'rifatparvarlik va pedagogik merosi vatanparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgandir. Ma'rifatparvarning fikricha, O'zbekistonning kelajagi uchun mahalliy maktablar butunlay milliy xarakter kasb etmog'i kerak. Yosh avlod avvalambor, Vatan tarixi bilan yaxshi tanishishi, buyuk mutafakkirlarning tarbiyaga oid bildirgan fikrlarini o'rganishi, milliy an'analarga sodiq bo'lishi zarur va faqat shundagina farovon jamiyatni barpo qilish mumkin. Sayid Rizo o'z Vatani O'zbekistonning munosib farzandi edi. Quyidagi so'zlar uning qalamiga mansub «Sen bekorga bu Vatanning ishonchli va vijdonli o'g'loni emassan».

Alizodaning vatan Said Rizo Alizodaning fikricha, o'z Vatani xojayin bo'lmagan, o'z mehnatining rohatini ko'rmagan va uning boyliklaridan bahramand bo'la olmagan xalq shu Vatanda o'zini begona deb his qiladi. U «Turkiston bizning Vatan» maqolasida ham yurtlari o'z Vatannining haqiqiy farzandlari ekanliklarini ta'kidlaydi. Shuning uchun bu yerning hamma boyliklaridan ular manfaatdor bo'lishga haqlidirlar, uni himoya qilish esa bu yerda yashovchi har bir kishining muqaddas burchidir. S.Alizoda bu mavzuga bag'ishlab quyidagi jumalarni yozgan: «Vatan-bizning onamiz, or-nomusimiz va vijdonimizdir! Dushmanlardan uni himoya qilish bizning burchimizdir. Vatanni tashlab boshqa mamlakatlarga qochib ketish bu

pastkashlik va tubanlikdir».

XX asrning yirik siyosiy arboblardan biri Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) ma'naviy yangilanishlar negizida jamiyat ravnaqini ko'rib, shunday deydi: "...maktabimiz, do'konimiz, korxonamiz, madrasamiz va shu kabi boshqalar zamonaviy islohotga muhtojdir. Aks holda, har narsa qo'ldan ketadi, bizda mardikorlikdan boshqa ish qolmas. Bir uskuna, do'kon va saroyini ishlatishga ham zamonaviy ilm va zamon yangiligini bilish lozim. Yo'qsa, bizdan ko'ra dunyo ilmini yaxshi biladiganlarga mulk va asbobimiz o'tadi va bu shunday davom etmoqda".

Behbudiyning jamiyatning vatanparvarlikni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoji, mamlakatda amalga oshiriladigan keng ko'lamlil islohotlarga yo'l ochib berishini nazarda tutadi. Shu maqsadda alloma insonni zamon va madaniyatdan xabardor bo'lishi uchun oyna hisoblangan matbuot va teatr zarurligini yoqlab chiqadi.

Jadidchilik harakatining nazariy asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1938) o'z faoliyati davomida nafaqat adabiyot va madaniyat sohalari bilan mashg'ul bo'ldi, balki Turkiston siyosiy hayotida yirik davlat arbobi sifatida adabiyotga o'z nomini muhrlab qo'yd. Fitratning asarlari bugungi kunda ham ilmiy-nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etib, mamlakatimizni yanada rivojlantirish, vatanparvarlikni yuksaltirishda xizmat qilib kelmoqda. Muallif tomonidan ilgari surilgan taraqqiyparvarlik g'oyalari, uning ibratli siyosiy faoliyati va fuqarolik jasorati faqatgina olim yashab ijod etgan davr uchun ahamiyat kasb etmay, bugungi kunda ham ilm va ma'rifat ixlosmandlari uchun o'ziga xos mahorat va ibrat maktabi bo'lib kelmoqda. Fitratning butun umri davomida Turkistonning ozod va mustaqil bo'lishi uchun ilm-ma'rifatni targ'ib qilganligini uning quyidagi so'zlari tasdiqlaydi: "...millatimiz, xalqimizning bu darajada tuban qoluvlarini, shu shiy martabada yomon kunlarga tushushlarini nodonlig'lari sabab bo'ldi, bizning uchun o'quv, ilm va ma'rifatga yopishuv(imiz) lozim. Vatanimiz, mamlakatimiz va millatimiz ilm nuri birla yoqtursun, din ham dunyo ilmlari birla jihazlansun". Ma'rifatparvar olimning ushbu so'zlaridan shunga amin bo'lish mumkinki, ularning barchasida Vatanni ardoqlash, uni sevish, asrab-avaylash, ma'rifatni yuksaltirish masalalari birinchi o'rinda turadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki jadid mutafakkirlarining millatni ma'rifatli qilish, vatanparvarlikni shakllantirish, milliy uyg'onish yo'lidagi olib borgan sa'y-harakatlari besamar ketmadi. Bugungi kunda erkin va saodatli hayotimiz shu kabi ulug' insonlarning zahmatli

6 Behbudiy M. Ehtiyoji millat // Samarqand, 1913-yil, 12-iyul.

harakati mevasidir desak, xato bo'lmaydi. bilishlari va unutmashliklari kerak. Zerokim, yoshlarimizning har biri bunday fidoyi, vatanparvar, asl ziyoli siymolarni yaxshi

## GLOBALLASHUV SHAROITIDA ETNOMADANIY JARAYONLAR VA MILLAT MUAMMOSI

Muhayyo Axmetjanovna Matnazarova - doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada globallashuv sharoitida etnomadaniy jarayonlar va millat muammosi masalalarini tadqiq etishning nazariy-metodologik jihatlarini ko'rsatilgan. Millatlararo munosabatlariga oid ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-ilmiy konsepsiyalar mohiyati, etnomadaniy jarayonlar va milliy-etnik munosabatlar barqarorlikni ta'minlashda tolerantlik, o'zga din va etnos vakillariga, ularning urf-odat, an'ana va qadriyatlariga hurmat nazari bilan qarash muhim ahamiyat kasb etishi tadqiq etilgan.

**Аннотация:** В статье представлены теоретико-методологические аспекты исследования этнокультурных процессов и проблемы нации в условиях глобализации. Сущность социально-политических, философских и научных концепций межэтнических отношений, этнокультурных процессов и национально-этнических отношений играет важную роль в обеспечении стабильности, толерантности, уважения к другим религиям и этническим группам, их традициям, обычаям и ценностям.

**Abstract:** The article presents the theoretical and methodological aspects of the study of ethnocultural processes and the problems of the nation in the context of globalization. The essence of socio-political, philosophical and scientific concepts of interethnic relations, ethnocultural processes and national-ethnic relations plays an important role in ensuring stability, tolerance, respect for other religions and ethnic groups, their traditions, customs and values.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, etnomadaniy jarayonlar, etnos, millat, milliy ma'naviyat, etnologiya, etnojtimoiy organizm, milliy mentalitet.

**Ключевые слова:** глобализация, этнокультурные процессы, этнос, нация, национальная духовность, этнология, этносоциальный организм, национальный менталитет.

**Keywords:** globalization, ethnocultural processes, ethnos, nation, national spirituality, ethnology, ethnosocial organism, national mentality.

Bugun butun dunyo globallashuv sharoitida yuz berayotgan siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, ijtimoiy va ma'naviy munosabatlar va shuningdek, etnomadaniy jarayonlar va millat masalasidek dolzarb muammolar girdobida qolmoqda. Ayniqsa, millatlararo munosabatlar va diniy bag'rikenglik masalalari, turli etnik nizolar, bir millatning ikkinchi millatning iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun bo'lishiga intilishi, migratsiya jarayonlarining kuchayishi, iqtisodiy darajasi yuqori bo'lmagan mamlakat fuqarolarining rivojlangan davlatlari sari intilishi murakkab vaziyatni vujudga keltirmoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda har bir davlat, har bir xalq o'zining milliy xavfsizligini ta'minlashga, milliy qadriyatlarini asrab-avaylashga e'tiborini kuchaytiradi. Aslida ham xavfsizlikni ta'minlash kompleks

vazifa hisoblanib, tolerantlik, o'zga din va etnos vakillariga, ularning urf-odat, an'ana va qadriyatlariga hurmat nazari bilan qarash muhim ahamiyat kasb etadi. Etnomadaniy jarayonlar ilm ahli uchun nihoyatda muhim mavzu hisoblanadi. Chunki global olamda kechayotgan turli ijtimoiy-siyosiy muammolar zaminida millat masalasi, milliy mentalitet, o'zlikni anglash, masalalari yotadi. Etnomadaniy jarayonlar, bugungi xalqlar etnomadaniyatida kechayotgan evolyutsion jarayondagi milliy o'ziga xoslikka qarama-qarshi bo'lgan "global zamonaviylashuv" miliy-ma'naviyatning yo'q bo'lishiga zamin yaratadi.

Milliy ma'naviyatning tashqi ta'sirlar orqali yemirilishi va uning yo'q bo'lishi, millatning yo'q bo'lishidek xavfni vujudga

keltiradi. Etnomadaniyatni asrash orqali milliy mentalitetni boyitish hisobiga millatni asrab qolish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda biz yashayotgan ona zaminida turli-tuman xalqlar o'zlarining milliy-etnik madaniyati va an'analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O'z navbatida har bir etnik birlik o'ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. N.I.Konrad ta'biri bilan aytganda: "...har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar takrorlanmas xususiyatlarni o'zida mujassam etgan, o'ziga xos tarixiga ega. Hatto aytish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi"<sup>1</sup>.

Etnomadaniyatda etnos va millat tushunchalarining ilmiy va metodologik tahlili tadqiqotchi olimlar tomonidan alohida e'tibor qaratiladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar nuqtai nazaridan etnos, etnik birlik muammosi doirasida primordialistik, instumentalistik va konstruktivistik yondashishlar orqali tahlil etiladi.

Etnos (yunoncha – "xalq", inglizcha – ethnos, nem. – yethnos) – tabiiy – tarixiy jarayonlar natijasida tarkib topgan kishilar guruhidir<sup>2</sup>.

Etnos atamasi dastlab yunon tilidagi manbalarda yunon bo'lmagan xalqlarga nisbatan qo'llanilgan. Aynan shu ma'noda mazkur ibora Rim madaniyati va lotin tilida ham uchraydi. XVIII asrning oxiriga qadar etnos atamasi nihoyatda chegaralangan holda qo'llanilgan. Faqat XIX asrdan e'tiboran bu atama ilmiy adabiyotlarda "xalq" (narod) ma'nosida qo'llanila boshlangan. Garchi etnologiya fanida etnos iborasi anchadan buyon ishlatilayotgan bo'lishiga qaramay, faqat XX asr oxirida dunyo bo'yicha etnogenez va etnik tarix hamda etnik jarayonlarga qiziqishning ortishi natijasidagina u alohida kishilar jamoasini anglatuvchi maxsus atama sifatida qo'llanila boshlangan. Shubhasiz, mazkur ibora bugungi kunga kelib ijtimoiy fanlar tizimida o'zining munosib o'rnini topdi, deb aytish mumkin.

Etnos atamasi juda keng va aksincha tor ma'noda ham ishlatiladi: dunyo xalqi, O'zbekiston xalqi, Amerika xalqi, viloyat xalqi. Boshqa kichik bir kishilar guruhiga nisbatan ham "xalq" iborasi qo'llaniladi. Etnologiya fanida etnosni belgilovchi bir qancha alomatlar mavjud: hudud, til, iqtisod, madaniyat, tarixiy

qismatining umumiyligi, ong sezimi, etnosning uyushqoqligi ma'lum bir davlat doirasida bo'lishi, o'z etnik nomi (etnonimi) ga ega bo'lishi, diniy e'tiqodning umumiyligi va boshqa shu kabi alomatlar.

O'zining metodologik yondoshuvi va tadqiqot aspektidan kelib chiqib zamonaviy fanda etnos bilan bog'liq turli qarashlar va maktablar shakllangan.

– mashhur turkiyshunos olim L.N.Gumilevning passionar nazariyasi;

– nazariyotchi rus akademigi Y.V.Bromleyning dualistik kontseptsiyasi;

– N.N.Chebaksarov va S.A.Arutyunovning etnos bilan bog'liq informatsion kontseptsiyasi;

– G.E.Markova va V.V.Pimenovalarning tizimli-statistik yoki komponentli nazariyasi.

Demak aytish mumkinki hozirgi kunga qadar etnos tushunchasi ta'rif bo'yicha ham fanda yagona fikr mavjud emas. XX asrning 20-yillarida rus emigranti S.M.Shirokogorov (1887–1939) tomonidan etnosga ilk bora quyidagicha ta'rif berilgan edi: "Etnos – bir tilda so'zlashuvchi, kelib chiqishi bir ekanligini tan oluvchi, urf-odatlar majmuasi hamda umumiy turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir<sup>3</sup>. XX asrning 60–70-yillariga kelib etnos nazariyasiga oid qarashlarda yangi bosqich boshlangan. Sobiq ittifoqning nazariyachilaridan P.Kushner, S.A.Tokarev, N.N.Chebaksarov, Y.V.Bromley, V.I.Kozlovlar etnosni o'ziga xos ta'rifini keltirdilar. Ayniqsa, bu borada Y.V.Bromleyning fikrlari e'tiborga sazovordir. Uning "Etnos va etnografiya", "Etnografiyaning zamonaviy muammolari", "Etnos nazariyasidan ocherklar" kabi qator asarlarida etnos nazariyasiga doir mavjud ilmiy qarashlar tahlil qilingan hamda ijodiy rivojlantirilgan. Natijada nazariy etnografiyada "bromley kontseptsiyasi" yoki "Etnosni dualistik nazariyasi" deb ataluvchi kontseptsiya paydo bo'ldi. Bu kontseptsiya uning 1983-yilda nashr etilgan "Очерки теории этноса" (Etnos nazariyasidan ocherklar) nomli monografiyasida to'raligicha o'z ifodasini topgan<sup>4</sup>.

Keng ma'nodagi etnos yoki etno-ijtimoiy tuzilmaga ta'rif berar ekan Y.V.Bromley yozadi: "Etnik ko'rinishni ijtimoiy-iqtisodiy holat bilan mustahkam aloqadorligini alohida ta'kidlash kerak, qaysiki ular o'zaro bog'liqdir. Etnos agar yagona (umumiy) bir davlat tarkibida mavjud bo'lsa, ushbu o'zaro aloqadorlik yanada

1 Гулыга А.В. Н.И. Кон рад как философ // Проблемы истории и теории мировой культуры. М.: Наука, 1974

2 Краткий этнологический словарь. Москва: фонд "Социальный мониторинг", 1995. –С. 13–15

3 Широкогоров С.М. Этнос. Исследование основных принципов изменения этнических и этнографических явлений // Известия восточного факультета Дальневосточного университета. – Шанхай, 1923. – С. 13.

4 Бромлей Ю.В. "Очерки теории этноса". Москва: 1983. – С. 34.

muhimdir. Bu holatda tarkib topayotgan o'ziga xos tuzilma nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy umumiylikka ham ega bo'ladi<sup>5</sup>. Umuman olganda Bromleyning fikricha, etnos - aniq bir hudud, til, kelib chiqish, madaniyat umumiyligi, o'z-o'zini etnik anglash va o'z etnik nomi (etnonimi) ga hamda o'ziga xos turmush tarziga ega bo'lgan kishilar guruhidir<sup>6</sup>.

Xarakterli jihati shundaki, muallif etnos tushunchasini bir vaqtning o'zida ham tor ma'noda, ham keng ma'noda tushunmoq kerak degan fikrni o'rta tashladi. Olim tor ma'nodagi etnos tushunchasini ayni vaqtda "etnikos", keng ma'nodagi etnos tushunchasini esa "etnoijtimoiy tuzilma" deb ham ataydi.

Uning fikricha, tor ma'nodagi etnos yoki etnikos – bu o'ziga xos barqaror madaniyat (xususan til), psixika hamda etnik o'z-o'zini anglash va o'z etnik nomiga (etnonimiga) ega bo'lgan kishilarning tarixan tarkib topgan guruhidir. Keng ma'nodagi etnosga yoki etno-ijtimoiy tuzilmaga nafaqat hududiy-siyosiy, balki ijtimoiy, iqtisodiy umumiylilik ham kiradi. Bunga misol tarzida o'zbek xalqini oladigan bo'lsak, mazkur nazariya tarafdorlarining qarashlariga ko'ra, butun yer sharida yashovchi o'zbeklar-etnikos bo'lsa, O'zbekiston hududida yashovchi o'zbeklar esa – etnoijtimoiy organizm hisoblanadi.

Etnosning shakllanishidagi eng muhim alomatlardan biri mazkur etnosga mansublikni idrok etish, ya'ni etnik o'zlikni anglash hissi ham kiradi. Etnik o'zlikni anglash hissi mazkur xalqqa tegishli fuqarolar tomonidan o'zlarining kelib chiqish tarixi va tarixiy taqdirleri umumiyligi to'g'risidagi tasavvurlar asosida shakllanadi. Hatto misol uchun ma'lum bir qism o'zbeklar, ruslar, yahudiylar, armanlar, polyaklar turli mamlakatlarda yashasalar-da, o'zlarini tarixiy vatanlaridagi etnik jamoalari bilan bog'laydilar. Bundan tashqari har bir etnik jamoaga mansub kishilar o'zlarini boshqa guruhga mansub odamlardan "biz" va "ular" degan antitezis asosida ajratib talqin qiladilar<sup>7</sup>.

Akademik A.Asqarovning fikricha, etnos – bu biologik hosila emas, balki ijtimoiy hodisadir<sup>8</sup>. U kishilik taraqqiyotida ma'lum bir bosqichning hosilasidir. Etnos so'zining shakllanish jarayonida, ya'ni etnogenez bosqichida va undan keyin ham har xil tarixiy sabablarga ko'ra, uning tarkibiga yangidan-yangi etnik qatlamlar qo'shib boradi. Etnos

nazariyasi borasida mashhur turkiyshunos olim L.N.Gumilev, etnos ijtimoiy emas, balki bio-geografik hosiladir. Etnos biosferaning tarkibiy qismi bo'lgani bois undagi qonuniyatlarga bo'ysunadi<sup>9</sup>, – deb ta'kidlaydi.

Millat-uzoq davom etgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakllangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos madaniyat, ong va mentalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli hisoblanadi.

Millat termini qadimda va O'rta asrlarda asosan kelib chiqishi bir bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan umumiylilik kasb etgan ma'lum bir guruh kishilarga nisbatan qo'llanilgan. Yangi davrda, ayniqsa, XVIII asr yakunida bo'lgan Buyuk Fransuz inqilobidan keyin fransuz, ingliz va g'arbiy Yevropa xalqlari tillarida millat termini ma'lum bir davlat fuqarolariga nisbatan, ya'ni etnik ma'noda qo'llanila boshlangan. Markaziy va Sharqiy Yevropada milliy davlatchilik taraqqiyoti biroz kechroq boshlanganligi bois millat iborasi bir hududda yashagan hamda til – madaniy munosabatlar umumiyligiga ega bo'lgan, ya'ni etnik ma'noda qo'llanila boshlangan. Shu bois millat nazariyasi o'rnini bosgan. Millatning yangi ilmiy kontseptsiyasining muallifi fransuz olimi E.Renan hisoblanadi. U ilk bora 1877-yil etatik va etnik talqinlarni umumlashtirishga hamda millat iborasini dastlab qo'llanilishi O'rta asrlar Yevropasida milliy davlatchilikni paydo bo'lish jarayoni bilan bog'liq deb talqin qilgan. Millat uning fikricha, avvalo, ma'lum bir guruh kishilarning birgalikda yashashga, oldingi ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan an'analarni saqlab qolishga bo'lgan harakat hamda umumiy maqsad yo'lida birlashishiga aytiladi. E.Renandan so'ng ijtimoiy fanlar tizimidan millat iborasi bilan bog'liq qator nazariy-metodologik qarashlar bayon qilingan bo'lsa-da, lekin ularning birortasi mukammal nazariya tarzida shakllanmagan va umum tomonidan e'tirof etilmagan.

Sovet davrida millat atamasiga rivojlangan sinfiylikka xos etnos tipi deb ta'rif berilgan. Millat iborasining paydo bo'lishi feodal tarqoqlikni yuzaga kelishi va kapitalizmning maydonga kelishi bilan bog'liq tarzda yuz bergan xo'jalik va boshqa aloqalarning rivojlanishi, ona tilida ijod qiluvchi ziyolilar va adabiyotchilarning ko'payishi, milliy-etnik

5 Бромлей Ю.В. "Очерки теории этноса". Москва: 1983. – С. 34

6 Бромлей Ю.В. "Очерки теории этноса". Москва: 1983. – С. 34

7 Asqarov A. O'zbek xalqi etnogenezi va etnik tarixining ba'zi bir nazariy va ilmiy metodologik asoslari//O'zbekiston tarixi 2002. №4. 54-60-betlar

8 A. Asqarov. Марказий Осиёда аънавий ва замонавий этномаданий жараёнлар. 1-қисм. Т., 2005.

9 Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера земли. Л., 1990. –С.399.

o'zlik hissini kuchayishi, milliy davlatchilikni qurish harakatining avj olishi bilan bog'liqdir. Yevropadagi dastlab paydo bo'lgan millatlar markazlashgan davlatlar hududida ya'ni bir yoki bir necha etnik munosabatlari yaqin bo'lgan xalqlar orasida shakllangan. Masalan, fransuz millati shimoliy fransuzlar va provansallardan tashkil topgan.

Millat iborasi G'arbiy Yevropa tillarida "bir davlat fuqarolari jamoasi" mazmunini anglatuvchi siyosiy ma'noni anglatgan. So'nggi o'n yilliklarda millat iborasi bilan bog'liq an'anaviy qarashlarda inqilobiy o'zgarishlar yuz berdi deb aytish mumkin. Ayniqsa, bu borada Mikluxa –Maklay nomidagi Etnologiya va antropologiya instituti direktori V.Tishkovning tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir. Uning fikricha, millat tasavvurdagi tuzilma bo'lib jamoaviy harakatlarga asos bo'ladi va qat'iy voqelikka aylanadi<sup>10</sup>.

O'z navbatida V.A.Tishkov makon va zamon hamda bugungi kunda dolzarb bo'lib turgan terrorizm, ekstremizm, millatchilik, separatizm, diasporalar, kam sonli milliy guruhlar tushunchalarini "ijtimoiy antropologiya" nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Uning fikricha, turli-tuman mahalliy qarama-qarshiliklar tarixiy va etnik muammolardan emas, balki "zamonaviy muammolarga oid ijtimoiy makondagi zamonaviy ishtirokchilarning zamonaviy ixtiloflari"dan paydo bo'ladi va o'z navbatida bu vaziyatda milliy adovat va agressiya sun'iy tarzda ataylab avj oldiriladi<sup>11</sup>. Bizningcha, bunday keskin qarash sovetlar tuzumidan keyingi sobiq ittifoq olimlari orasida garchi dastlabki yangicha qarash bo'lsada, lekin muammoning to'liq yechimini anglatuvchi mukammal javob emas, balki birmuncha bahsli, lekin e'tiborga

sazovor konstruktivistik mulohazadir.

Bugun dunyoning siyosiy manzarasi unda mavjud bo'lgan etnos yoki millatlar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki millatning o'ziga xosligi uning ichki ma'naviy-ruhiy olamni tashkil etuvchi milliy erkinlik, or-nomus, qadr-qimmat, izzat-nafs, g'urur kabi tuyg'ularda namoyon bo'ladi. Agar tashqaridan yoki boshqa millatlar tomonidan salbiy ta'sirlar ko'rsatilsa, hatto, davlatlararo munosabatlarda ziddiyatli holatlar paydo bo'ladi va ular og'ir munosabatlarga olib kelishi mumkin. Bu esa millat taqdiriga ta'sir etadi. Gustav Lebon fikricha, muhit va voqealar ma'lum davrga nisbatan ijtimoiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, hatto, bu ta'sir juda kuchli bo'lishi ham mumkin. Biroq, agar bu ta'sirlar xalqning ajdoddan avlodga o'tib kelayotgan tafakkur tarziga zid bo'lsa, uncha ham uzoqqa bora olmaydi va tezda o'z kuchini yo'qotadi<sup>12</sup>.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, dunyoda ikkita bir xil odam bo'lmaganidek, ikkita bir xil millat ham bo'lmaydi. Shuning uchun ularning xarakterlari, dunyoqarashlari, e'tiqodlari, manfaatlari, ichki-ruhiy olamlari ham turlicha hisoblanadi. Bu esa millatlar mavjud ekan millatlararo munosabatlardagi muammolar ham saqlanib qolaveradi. Bugungi kunda millat taqdiri uning kelajakdagi o'rnini belgilash ilm ahli uchun dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Chunki bugungi kunda polietnik mamlakatlarda turli millat va elat vakillari yashashi bilan izohlanadi. Bu esa o'z navbatida milliy o'zlikni anglash masalalari bilan muntazam va izchil shug'ullanishi lozim bo'ladi. Agar mamlakat polietnik ya'ni ko'p millatli tarkibga ega bo'lsa, buni yanada ehtiyotkorlik bilan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

## YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA BAG'RIKENGLIK TAMOYILINING O'RNI

*Alisher Aripov - mustaqil tadqiqotchi. Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'zbek xalqi ma'naviy takomilida bag'rikenglik tamoyili va isonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutishi ilmiy tahlil etilgan. Shuningdek, yoshlar hayotida bag'rikenglik fenomeni jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhiti barqarorligini ta'minlaydigan muhim mezonlardan biri ekanligi yoritib berilgan.

**Аннотация:** В данной статье научно анализируется значение принципа толерантности и идей гуманизма в духовном развитии узбекского народа. Также поясняется, что явление толерантности в жизни молодежи является одним из важных критериев, обеспечивающих стабильность социально-духовной среды общества.

**Abstract:** This article scientifically analyzes the importance of the principle of tolerance and the ideas of humanism in the spiritual development of the Uzbek people. It is also explained that the phenomenon of tolerance in the life of young people is one of the important criteria that ensure the stability of the socio-spiritual environment of society.

**Калит so'zlar:** jamiyat, millat, ma'naviyat, ma'naviy takomil, ma'naviy tarbiya, komil inson, bag'rikenglik, isonparvarlik, vatanparvarlik, barqarorlik, fidoyilik.

**Ключевые слова:** общества, нация, духовность, духовное совершенствование, духовное воспитание, совершенный человек, толерантность, гуманизм, патриотизм, устойчивость, целеустремленность.

**Keywords:** societies, nation, spirituality, spiritual perfection, spiritual education, perfect man, tolerance, humanism, patriotism, sustainability, purposefulness.

O'zbek xalqi ma'naviy takomili va komil inson tarbiyasida bag'rikenglik tamoyili va isonparvarlik g'oyalari muhim o'rin tutadi. Jamiyatda zamonlar osha ma'naviy-ma'rifiy tarbiya samarasi o'laroq, insonlarda vatanga, millatga, elu-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish, bag'rikenglik tuyg'ularini namoyon etish xususiyatlari to'liq shakllanib borgan. Vatanni sevmagan, millati tarixi va taqdiriga loqayd qaraydigan insonning komilligi haqida so'z bo'lishi mumkin emas. Ma'naviyat va ma'rifatli, komil inson, iymonli kishilargina insofli, mehnatsevar, tadbirkor, el-yurt dardiga malham bo'luvchi haqiqiy vatanparvar bo'ladi, yaxshilikka moyillik va yomonlikdan tiyilish hissi kuchli shakllanadi.

Yoshlar hayotida bag'rikengligi fenomeni jamiyat ijtimoiy-ma'naviy muhiti barqarorligini ta'minlaydigan muhim mezonlardan biridir. Jamiyat ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy barqarorligi mamlakatning milliy yuksalishi va kelajak istiqbolini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning

ta'kidlashicha, "Dunyodagi murakkab vaziyatni o'zingiz ko'rib turibsiz. Har kuni yangi-yangi xavf-xatarlar va tashvishlarga duch kelyapmiz. Bunday vaziyatlarda xalqimizning irodasi va matonatiga tayanib, O'zbekistonning milliy manfaatlariga javob beradigan yagona to'g'ri yo'lni topish uchun birgalikda intilmoqdamiz. Mehnatkash va bag'rikeng, olijanob xalqimiz, sizday bilimli, faol va shijoatli o'g'il-qizlarim bor ekan, biz har qanday qiyinchiliklarni albatta yengib o'tamiz!"<sup>1</sup>.

Ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizni yuksaltirish, ularni boyitish har birimizda milliy o'zligimizni anglash, o'tmish merosimiz va yuksak an'alarimizga e'tiqod va faxrlanish tuyg'ularini mustahkamlaydi. Ma'naviyat takomili insonlarda azaldan shakllangan turmush tarzi va hayotiy tutumlarini makon va zamon nuqtai nazari bilan har tomonlama takomillashtirib, ularda insonparvarlik va fidoyilik ruhini ro'yobga chiqaradi, jamiyat va el-yurt oldidagi o'z burchini e'zozlash tuyg'usini kuchaytiradi. Shu asnod, A.Saitkasimovning

<sup>10</sup> Рыбаков С.Е. Философия этноса.. – М.: ИПК Госслужбы, 2001. – С.358

<sup>11</sup> Гумилев Л.Н. Этногенез и биосфера земли. Л., 1990.-С.399

<sup>12</sup> Г.Лебон. Омма психологияси. Тошкент: "Ешлар матбуоти", 2021. –176 б.

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. "Янги Ўзбекистон" боғида Ёшлар кўни муносабати билан ташкил этилган тадбирдаги сўзланган нутқ. 30-июнь 2022-йил. <https://sputniknews-uz.com/20220701>.

ta'kidlashicha, "Ma'naviyat tafakkur va taraqqiyot mezonini hisoblanadi. U ilmiy, badiiy, ijodiy, iqtisodiy yutuqlar hosilasi sifatida rivojlanib, xalqimiz dunyoqarashi, ongi, tafakkuri va tarixan takomillashib kelgan ulkan imkoniyatlari bilan hamohang holda yuksalib boradi"<sup>2</sup>.

Bag'rikenglik azal-azaldan o'zbek xalqi mentalitetiga chuqur singib ketgan ijtimoiy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Bag'rikenglik xalqimizda asosan tarixiy an'analar, madaniy meros va ma'naviy-ijtimoiy va diniy-axloqiy qoidalar asosida shakllangan va hozirgi zamonaviy jamiyatda ham insoniy munosabatlar tizimi rivojiga xizmat qilmoqda. Sharq renessansi mashhur faylasuf mutafakkiri Abu Nasr Forobiy bu jarayonlar haqida shunday yozadi: "Har bir inson o'z tabiati bilan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi etuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga erishish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni bir-biriga etkazib beruvchi va o'zaro yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina odam o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka erishishi mumkin"<sup>3</sup>.

Abu Rayhon Beruniy ham o'z davrida jamiyat a'zolarining yagona maslak atrofida jipslashib, bir-biriga o'zaro yordam ko'rsatib, bag'rikenglik tamoyilida yashash lozimligini, jamiyatda mavjud tahdid va xavf-xatarlarga nisbatan bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishi lozimligi to'g'risida aytgan edi. Mutafakkir kishilarning jamiyatda mavjud ehtiyojlari bois jamoa bo'lib, bir-biri bilan o'zaro munosabatlarda ahillik va bag'rikenglik yordam asosida yashashi lozimligi to'g'risida shunday yozadi: "Inson unda ko'plab ehtiyojlar mavjudligi, o'zini himoya qilish usullarining kamligi va dushmanlarining ko'pligi bois o'ziga o'xshash kishilar bilan o'zaro ko'maklashish hamda boshqalarni ta'minlashga qodir ishlarni amalga oshirish uchun jamiyatda birlashishga majbur bo'ladi"<sup>4</sup>.

Yuksak ma'naviyatli komil inson tarbiyasi insoniylikning eng asosiy fazilatlarini va xislatlarini ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishini ta'minlab, insonning ezgulikka, gumanistik g'oyalarga munosabatida hamda amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi. Zero, "Ma'naviyat - inson hayotining gultoji. U har qanday sharoitda

inson sha'nini, shavkatini, shonini, jamoatchilik orasidagi obro'-e'tiborini belgilaydigan muhim omillardan biri. Ma'naviyat - insonni xurofotdan, jaholatdan qutqarguvchi qudrat. Uni muqarrar kamolotga yetkazuvchi, hayotini shukuhlarga to'ldiruvchi ma'vo, barcha illatlardan asraguvchi xaloskor!"<sup>5</sup>.

Insonning jamiyatda bag'rikenglik tuyg'usini ijtimoiy mezonlarini tahlil etadigan bo'lsak, u har tomonlama mavjud ma'naviy tamoyillar, muayyan qadriyatlar va avloddan avlodga o'tuvchi an'analarga har tomonlama mos keladi. Inson, aniqsa yoshlar qatlamlari jamiyat a'zosi sifatida siyosiy, huquqiy, ijtimoiy va madaniy an'analar va ko'rsatkichlarga mos ravishda bag'rikenglik qobiliyatlarini o'zlashtirishi muhim jarayondir. Yoshlar jamiyatga qanchalik to'laonli a'zo sifatida o'zini namoyon qila olishi, ijtimoiylashuvi, ma'naviy qiyofasini ko'rsata olishi va ijtimoiy hayot qonun-qoidalar va me'yorlarga amal qilsa, inson va jamiyat o'rtasida barqaror munosabatlar shakllanadi.

Bag'rikenglik jamiyatda ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash, ma'rifiy va axloqiy ideallarni ijtimoiy hayotda ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyatga ega. I.Karimov jamiyatda fuqarolar jipsligi va tinchlik-totuvlikni ta'minlash mamlakat fuqarolari birligini ta'minlash ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning mezoni ekanligini ta'kidlagan edi: "O'zbek xalqi ruhining tiklanganligi, millat ma'naviy-axloqiy ideallarining shakllanganligi chuqur milliylik bilan umuminsoniylik chambarchas bog'liq bo'lgan hodisadir. O'zbekistonda yashayotgan xalqlar, o'ziga xosligini yo'qotmagan holda, umuminsoniy ruhiyatga, xulq-atvor falsafasiga ega bo'lmoqdalar. Bu esa mustaqillik yillari mobaynida millatlararo totuvlik manbai bo'lib kelgan yagona ma'naviy-ruhiy negizni vujudga keltirdi"<sup>6</sup>.

Bag'rikenglik fenomeni jamiyatda ezgulik va insoniylik tamoyillarini ta'minlash mezoni bo'lishi bilan birgalikda inson ma'naviy fazilatlarini ro'yobga chiqarish, pirovardida jamiyatda barqaror muhitni shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, bag'rikenglik insonda axloqiy, siyosiy va ma'naviy faollik, o'z burchiga, o'z xalqiga va uning muqaddas narsalarga bo'lgan barqaror munosabati, halollik, kamtarlik va samimiylilik fazilatlarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Mazkur fazilatlar ham bugungi globalashuv davrida,

2 Святкасимов А. Миллий ғоя ва ижтимоий барқарорлик. –Тошкент, Тафаккур, 2014. –Б. 10.

3 Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шахри. -Тошкент: А.Қодирий, 1993. –Б. 183.

4 Беруний. Танланган асарлар. Т.3. –Т: Фан, 1996. –Б. 83.

5 Жўраев Н. Маънавият-инсон қалбнинг сарчашмаси. –Т.: Маънавият, 2015. –Б. 30.

6 Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6 - жилд. - Т.: Ўзбекистон. 1998. - Б. 129.

insonlarda, ayniqsa yoshlar ma'naviy olami barqarorligini ta'minlashda xizmat qiladi.

Insonning ma'naviy qadriyatlaridan biri bo'lgan bag'rikenglik tuyg'usi jamiyat taraqqiyoti va ijtimoiy munosabatlarda madaniy ko'rinishlar hosil qiladigan jarayon hisoblanadi. Insonning ijtimoiy hayotda odamlar bilan muloqotda insoniylik va bag'rikenglik yuzasidan yondoshishi borasida Q.Nazarovning ta'kidlashicha: "Inson – tarixiy taraqqiyot jarayonida turli xislatlar, sifatlar va xususiyatlarga ega bo'lgan, ma'naviy-axloqiy jihatlarni qiyofasida aks ettirgan ijtimoiy mavjudot sifatida jamiyatdagi asosiy qadriyatdir. Shu bilan birga, u olamga ijtimoiy munosabatda bo'lish, odamlar bilan muomala va aloqaga kirishish, mehnat qilish asosida moddiy va madaniy boyliklarni vujudga keltirish, tafakkuri, his-tuyg'ulari, fikrlarini tili vositasida ifodalash kabi xususiyatlarga ega bo'lgan umumijtimoiy vujud hamdir. Inson jamiyatsiz yashay olmaganidek, jamiyat ham insonsiz mavjud bo'lmaydi"<sup>7</sup>.

Jamiyatda ma'naviy barqarorlikni ta'minlash undagi hayot-mamot xususiyatlar, insonlar va boshqa ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, tinchlik, va barqaror turmush tarzini kafolatlaydi, jarayonda yoshlar ma'naviy bag'rikengligi fenomeni muhim ahamiyatga ega sifatida namoyon bo'ladi. Chunki yoshlar ma'naviy hayotning barqaror asosda shakllanishini tahlili shuni ko'rsatadiki, bag'rikenglik jamiyatda mavjud bo'lgan barcha ma'naviy jarayonlarning rivojlanishi va istiqboliga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, jamiyatda demokratik, fuqarolik jamiyatiga asoslangan an'analarining rivoji jarayonida bag'rikenglik fenomenining hayotiy amaliyoti uchun dolzarblik kasb etadi.

Olimlarning qayd etishicha, "Islohotlar markazida insonning oliy qadriyat sifatida baholanishi mamlakatimiz strategik vazifalariga hamohangdir. Xususan, bu

boradagi barcha o'zgarishlarning mazmun - mohiyati ham inson va uning qadr-qimmatini ko'tarish bilan bog'liq. Holbuki, ushbu qadriyatlar asosida shakllangan jamiyat, mohiyatiga ko'ra, xalqaro talablarga, umuminsoniy qadriyatlarining ustuvorligi tamoyillariga mos keladi, ularning milliy darajada namoyon bo'lishi uchun imkon yaratadi. Shu bilan birga, u mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elat, har bir shaxs, turli qatlam vakillarining umumiy maqsad-muddaolarini ifodalaydi"<sup>8</sup>.

Yoshlar ma'naviy xavfsizligi va bag'rikenglik fenomeni shakllashtirish va yuksaltirish shart-sharoitlarini barqaror asosda ta'minlash bilan bog'liq ilmiy tahlillar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Bag'rikenglik yoshlarning atrof-muhit va jamoatchilikka teran munosabati, odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, jamiyatda mavjud qadriyatlar va an'analarni asarash va kelgusi avlodlarga qoldirish bilan bog'liq xislatlarni vujudga keltirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Bag'rikenglik yoshlarning shaxs sifatida erkinligi va huquqlarini ta'minlash, ularni jamiyat ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarida faolligi, vatan, xalq va jamoatchilik ishida mas'uliyat bilan yondoshuvlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Progressiv g'oyalar bilan sug'orilgan bag'rikenglik fenomeni diniy, badiiy, falsafiy, huquqiy, axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy xususiyatlarni o'z ichiga olib, barcha insonparvarlik tuyg'ularidan iborat ilg'or dunyoqarashning asosi bo'lib xizmat qiladi.

4. Yoshlar ma'naviy barqaror muhiti va bag'rikenglik fenomeni shakllashtirish jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy jarayonlarni rivojlantirish, uni barqaror asosda mavjud bo'lishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan jarayondir.

7 Назаров Қ. Маънавий қадриятлар ва инсон қадри. Т., "Маънавият", 2011. –Б. 21.

8 Назаров Қ, Куронов М. ва бошқ. Бу муқаддас Ватанда азиздир инсон. Т., "Ўзбекистон", 2010. –Б.4.

## ARXAIZMLARNING YUZAGA KELISH SABABLARI VA ARXAIKLASHISH HODISASI

*Jamila Sharipovna Djumabayeva - DSc, dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti*  
*Valida Quvondiq qizi Madiyorova - tayanch doktorant, O'zbekiston Milliy universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada so'zlarning tarixiylik nuqtayi nazariga ko'ra turi arxaizmlar haqida so'z yuritiladi. Arxaizmlarning xususiyatlari, so'zlarning arxaiklashishiga olib keluvchi ichki va tashqi omillar xususida fikr yuritiladi. Arxaiklashish hodisasiga ta'sir qiluvchi omillar va ularning turlari haqida so'z yuritiladi.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются архаизмы, которые с исторической точки зрения являются типами слов. Обсуждаются характеристики архаизмов, а также внутренние и внешние факторы, которые приводят к архаизмам. Анализируются факторы, влияющие на феномен архаизма и их виды.

**Abstract:** This article deals with archaisms, which are the type of words from the historical point of view. The characteristics of archaisms, as well as the internal and external factors that lead to the archaisms are discussed. The factors influencing the phenomenon of archaism and their types are analyzed.

**Kalit so'zlar:** arxaizm, istorizm, neologizm, qisman arxaiklashish, butkul arxaiklashish

**Ключевые слова:** архаизм, историзм, неологизм, частичная архаизация, полная архаизация.

**Keywords:** archaism, historism, neologism, partial archaisation, complete archaisation

Til dinamik xususiyat kasb etib, to'xtovsiz (mansab nomlari), omoch, yorg'ichoq, charx harakatda bo'ladi, u tinimsiz rivojlanadi, kabilar shu jumladandir<sup>1</sup>.

yangilanadi va ichki va tashqi manbalar orqali boyib boradi. Umuman, aytganda, uning tarkibiga kiruvchi leksik birliklar doimo o'zgarishda bo'ladi. Ushbu jarayonlar asosida tildagi ma'lum bir so'zlar vaqt o'tishi bilan eskirib, iste'moldan chiqadi, ularning o'rniga yangi so'zlar kirib keladi. Ushbu maqolamiz obyekti bo'lgan arxaizmlar ham aynan ana shu jarayonlar natijasida yuzaga keladigan birliklardan hisoblanadi. Lekin tilning tarixiy rivojlanishi mobaynida nafaqat arxaizmlar, balki istorizmlar va neologizmlar ham paydo bo'ladi, hamda ushbu tushunchalarni bir-biridan ajratib olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Istorizmlar, ba'zi manbalarda tarixiy so'zlar deb ham yuritiladi. Istorizmlar o'tmishga oid narsa, hodisalarni ifodalagan, biroq hozirgi tilimizda o'z sinonimiga (muqobiliga) ega bo'lmagan so'zlardir. Masalan: miri, paqir, (pul birliklari) qozi, qushbegi, yasovul, xalifa

(mansab nomlari), omoch, yorg'ichoq, charx kabilar shu jumladandir<sup>1</sup>.

Neologizmlar, yangi so'zlar deb ham yuritiladi va ular ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot va o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan narsa – hodisalarning yangi nomlaridir<sup>2</sup>. Masalan, vayfay, blogger, smm, troll kabi so'zlar shu jumladandir.

Tilimizdan o'rin olgan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa bir lisoniy birliklar bu – arxaizmlardir. Arxaizmlarni o'rganish bo'yicha jahon va o'zbek tilshunosligida bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Z.A.Aziz va boshqalar<sup>3</sup>, S.O.Eratay va M.Keklik<sup>4</sup>, K.J.Hammond<sup>5</sup>, H.Durgut<sup>6</sup>, T.Heinzelmann<sup>7</sup> va boshqalar badiiy asarlar kontentidagi arxaizmlarning xususiyatlarini o'rganganlar. D.Rusady va S.Munawarah<sup>8</sup>, N.Desriawati va boshqalar<sup>9</sup> esa turli shevalardagi arxaik so'zlarning tadqiqi borasida ish olib boranganlar.

O'zbek tadqiqotchilaridan X.D.Madaminova "Boburnoma" asaridagi

arxaizmlarni tarjima qilinishi bilan bog'liq muammolar va yechimlarni<sup>10</sup>, rus olimlaridan S.N.Igoryevna nutqda tibbiyotga doir arxaizmlarni tarjima qilish masalalarini<sup>11</sup>, M.A.Kharmandar esa zamonaviy fors poetikasida va tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan arxaizmlarni tadqiq qilish muammolarini o'rganib tahlil qilishgan<sup>12</sup>.

Ammo arxaizmlarning paydo bo'lish sabablari, ularga ta'sir qiluvchi omillar, arxaiklashish nuqtayi nazariga ko'ra arxaizmlarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash masalalariga yuqorida tilga olingan tadqiqotlarda yetarlicha o'rin ajratilgan emas. Shu sababli, ushbu maqolada arxaizmlarning yuqorida sanab o'tilgan jihatlarni o'rganishni maqsad qilganmiz.

Jamiyat a'zolarining tili va tafakkuri o'rtasidagi aloqadorlik, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot hamda iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi yangilanishlar, o'zgarishlar tilimizning lug'at tarkibiga yangi-yangi so'z va atamalarining kirib kelishiga zamin yaratadi. Bu hodisa ayni paytning o'zida muayyan so'z-leksemalarning eskirishiga, tarixiy kategoriyaga aylanishiga sabab bo'ladi.

Gap arxaizmlar xususida borar ekan, mazkur yo'nalishidagi ilmiy manbalarda rang-barang qarashlar va tasniflarga duch kelamiz. Masalan, Hasanxon Jamolxonov tomonidan 2005-yilda nashr etilgan darslikda arxaizmlar "Arxaizm-leksema", "Arxaizm-semema" va "Grammatik birliklarda arxaiklashish" kabi shakllari haqida so'z yuritiladi<sup>13</sup>, Adiba Turaxojayevatomonidan nashrgatayyorlangan o'quv-uslubiy qo'llanmada arxaizmlarning tug'ilish sabablari, istorizmlardan farqli jihatlari haqida fikr yuritilib, leksik-stilistik jihatdan ham arxaiklashish hodisasi haqida mulohazalar yuritiladi<sup>14</sup>.

Arxaik elementlar aslida chegaralangan qatlamning muayyan sathini ifodalasa ham, ushbu qatlamning boshqa sathlarining ichida ham mavjud bo'lishi mumkinligi va ularning ham tekshirish, tadqiq qilish bugungi kun lingvistikasining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Masalan: chegaralangan qatlamga mansub varvarizmlar, professionalizmlar, evfemizmlar va hatto jargon va vulgarizm birliklari orasida ham arxaiklashish mavjud. Lingvistik nuqtayi nazardan leksikamizning ana shu jihatlarni o'rganish fanimiz taraqqiyoti uchun muhim ma'lumotlarni taqdim etadi.

Arxaizmlarning paydo bo'lishiga tilga ta'sir qiluvchi turli ichki va tashqi omillar

sababchi bo'ladi. Jumladan, zamonaviy avlod vakillari sonining ortib, keksa avlod kishilari sonining kamayib borishi, mahalliy tilga nisbatan aholining munosabati pozitiv bo'lmashligi, tildagi ayrim leksik birliklarni iste'mol qiluvchi kishilarning kamayib borishi, chet so'zlarning juda ko'p miqdorda kirib kelishi kabi omillar tildagi muayyan so'zlarning arxaiklashishiga olib keladi<sup>15</sup>. Bundan tashqari, milliy madaniyatning o'rnini zamonaviy madaniyat egallashi, sinonimlarning ko'payishi va boshqalar ham arxaizmlarning paydo bo'lishiga sezilarli ta'sirini o'tkazadi.

Leksemalarning arxaiklashish jarayoni bir necha shakllarda amalga oshadi:

1. Tilda ma'lum bir so'zning teng huquqli varianti, ekvivalenti paydo bo'ladi, bu o'rinda chetdan so'z kirib kelishi muhim faktor vazifasini o'taydi;

2. Tilning ichki imkoniyatlari va resurslaridan foydalangan holda yangi so'zning hosil bo'lishi natijasida biror so'zning iste'moldan qolib ketishi;

3. Tilning passiv lug'at boyligidan o'rin olgan tayyor so'zning yangicha ma'no olishi va qayta qo'llana boshlashi natijasida muayyan so'zning muomaladan chiqishi kabilar arxaizmlarni yuzaga kelishiga olib keladi.

Keyingi bosqichda esa mavjud variantlardan biri o'z qo'llanilish sferasini kengaytiradi, ikkinchisi esa funksional doirasini kichraytiradi, natijada endi ularning variativlik xususiyati kontrastiv xarakter kasb eta boshlaydi. Navbatdagi bosqichda, ikkinchi variantdan neytral variant sifatida foydalanuvchilar soni kamayib, unda eskilik bo'yog'i mavjud deb hisoblovchilar ko'payib boradi. Oxirgi bosqichda, ushbu variant endi arxaizmga aylanadi, yoki ma'lum bir ma'noni ifodalovchi tushuncha sifatida tilning cheklangan periferiyasida saqlanib qoladi, yoki o'zining kategorik xususiyatini o'zgartiradi<sup>16</sup>.

Yuqorida sanab o'tilgan bosqichlardan ko'rinib turibdiki, so'zlarning arxaiklashishi uzoq vaqt davom etadigan jarayon bo'lib, shu nuqtayi nazardan, so'zlarning arxaiklashish xususiyatiga (ko'lamiga) ko'ra uchta tipni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Qisman arxaiklashish. Bunda so'zning o'zagi saqlanib qolib, tarkibidagi qo'shimchada, yoki so'zning tarkibidagi kichik nutqiy komponent, ko'pincha tovushda o'zgarishi (eskirishi) kuzatiladi. Masalan, qilar – qilar yoki oyina – oyina kabilar;

2. To'liq arxaiklashish. Bunda tildagi mavjud so'z shu ma'noni ifodalovchi ikkinchi

1 N.Turniyazov, A.Rahimov, O'zbek tili, Samarqand, 2006.

2 N.Turniyazov, A.Rahimov, O'zbek tili, Samarqand, 2006.

3 Zulfadli Abdul Aziz, Syamsul Bahri Yusuf, Faisal Mustaf, Siti Munawarah, Acehese archaic words in Hikayat: an early influential literary work, *Lingua Cultura*, 14 (2) December, 2020, pp 161-169

4 Sevda Ozen Eratalay, Murat Keklik, Yapi ve anlam bakimindan klasik Türk Şiirinde Arkaizm Örnekleri, *Türk dili ve edebiyati dergisi*, Cilt: 59, sayi: 1, 209, 131-157

5 Kenneth James Hammond, Beyond archaism: Wang Shizhen and the legacy of the northern song, *Ming studies*, 36, pp 6-28

6 Hüseyin Durgut, Litvanya tatarlari el yazmalarındaki türkçe Miraçnamede bazı arkaik kelimeler üzerine, *Motif Akademi Halkbilimi Dergisi*, 2018, Cilt: 11, Sayi: 21, 105-114

7 Tobias Heinzelmann, The hedgehog as historian- linguistic archaism as a means of satire in the early work of Refik Halid Karay, *The Middle eastern press as a forum for literature*, pp.196-210

8 Davin Rusady, Sri Munawarah, Searching of Sundanese Archaic words in Inner and Outer Baudi, *The Tenth Conference on Applied Linguistics and The Second English Language Teaching and Technology Conference in collaboration with The First International Conference on Language, Literature, Culture, and Education (CONAPLIN and ICOLLITE 2017)*, pp. 592-596

9 Nanda Desrivawati, Yunisrina Qismullah Yusuf, Siti Sarah Fitriani, An analysis of Acehese archaic words among north Acehese speakers

10 Xoshimova Dildora Madaminova. Reflection of archaisms in translation of "Boburnama", *International journal of English literature and social sciences*. Vol 3, Issue 5, Sep-Oct, 2018, pp 913-915

11 Сокол Наталья Игоревна. Медицинские архаизмы в специальной и неспециальной речи как проблема переводоведения. Конференция «Ломоносов», 2016

12 Kharmandar, M. A. (2014). Exploring archaism in translation theory and modern Persian poetics: Towards a Persian translation paradigm. *Iranian Journal of Translation Studies*, 12(46), 40-56. <http://journal.translationstudies.ir/index.php/ts/article/view/54>

13 Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: Talqin, 2005. – B.205.-B.272

14 Турахужаева А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув-усlubий қўлланма. – Қўқон: ҚДПИ наشري, 2006. – B.38. – B.61 bet

15 Davin Rusady, Sri Munawarah. Searching of Sundanese Archaic Words in Inner and Outer Baudi. *The Tenth Conference on Applied Linguistics and The Second English Language Teaching and Technology*, pp. 592-596, DOI: 10.5220/0007171505920596.

16 Стилистический энциклопедический словарь русского языка [Текст] / под ред. М. Н. Кожинной. - М.: Флинта, Наука, 2003.

bir so'zga o'z o'rnini bo'shatib beradi. Masalan, sayyod –ovchi yoki navkar – askar va boshqalar.

Biroq har qanday tarixiy so'zning ko'p asrlardan keyin ham tilga qayta kirish imkoniyati har doim saqlanib qoladi. Fikrimiz dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek tilida XIX asrlargacha faol qo'llanilgan vazir, hokim, viloyat, tuman, devon(devonxona) kabi so'zlar XX asr oxirlariga kelib amalda qo'llanilib kelinayotgan ministr, gubernator, oblast, rayon, kanselyariya kabi so'zlarning o'rnini egalladi hamda o'tgan asrning oxirgi dekadasi boshlab yana tilning aktiv ishlatiladigan periferiyasiga kirdi. Mazkur jarayonga mamlakatimizda va jahonda o'tgan asr oxirlarida ro'y bergan ijtimoiy-siyosiy hodisalar sabab bo'lganini qayd qilish lozim.

Bildirilgan mulohazalarni xulosasi sifatida aytishimiz mumkinki, til o'zining

taraqqiyoti davomida jamiyat bilan birga rivojlanadi, o'zgarib boradi. Tildagi tinimsiz o'zgarishlar natijasida istorizmlar, neologizmlar va arxaizmlar paydo bo'ladi. Arxaizmlarning paydo bo'lishiga turli ichki va tashqi omillar ta'sir qiladi. So'zlarning arxaiklashishiga olib keluvchi ichki omillarga tildan foydalanuvchilar soni, jinsi, yoshi, tildagi sotsial qatlamlarning tilga bo'lgan munosabati kabilarni kiritish mumkin. Tashqi omillar sifatida esa tilga chet so'zlarning kirib kelishi va mahalliy aholiga chet madaniyatining ta'sir qilishi kabi jarayonlar kiradi. Arxaiklashish hodisasi ko'lamiga ko'ra qisman va to'liq arxaiklashish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, arxaizmlar iste'moldan chiqib ketgan bo'lishiga qaramay, ularda yana faol qatlamga qaytish imkoniyati saqlanib qoladi.

## “GULSHANUL- ASROR” ASARINING KURTEYL TOMONIDAN NASHRGA TAYYORLANGAN MATNI XUSUSIYATLARI

*Jamoliddin Amijonovich Jo'rayev - f.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Pave-De-Kurteyl, Abel Jan Batist Mari Mishel tomonidan nashrga tayyorlangan Haydar Xorazmiyning “Gulshanul-asror” asari matnining o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritiladi va yana Fransiyalik olimning bizning yurtimizdan yetishib chiqqan mazkur ijodkorning asariga bo'lgan qiziqishi natijasida uning “Merojnoma” va “Gulshanul- asror” kabi asarlarining matnini nashrga tayyorlaganligi, shuningdek, “Gulshanul –asror” asari matnining 249 baytining boshqa nusxalar bilan qiyosiy tahlili o'z aksini topgan.

**Аннотация:** В данной статье Пав-Де-Куртейль, Абель Жан-Батист Мари-Мишель, подготовленные к публикации особенности текста Хайдара Хорезми «Гюльшанул-асрор», и в результате интереса французского ученого к творчеству этого выросшего художника в нашей стране он подготовил к печати текст своих произведений, таких как «Мерожнома» и «Гюльшанул-асрор». Также отражен сравнительный анализ 249 строф текста «Гюльшанул-асрар» с другими копиями.

**Abstract:** In this article, Pave-De-Courteille, Abel Jean-Baptiste Marie-Michel, prepared for publication the features of the text of Haydar Khorezmi “Gulshanul-asror”, and as a result of the interest of the French scientist in the work of this grown artist in our country, he prepared for publication the text of his works such as “Merozhnoma” and “Gulshanul-asror”. A comparative analysis of 249 stanzas of the text “Gulshanul-asrar” with other copies is also reflected.

**Kalit so'zlar:** Kurteyl, Haydar, turkigo'y, Qozon, uyg'ur, xattotlik, nasriy, Temurxon, kutubxona, Britaniya, Hirot.

**Ключевые слова:** Куртейл, Гейдар, тюркский, казанский, уйгурский, каллиграфия, проза, Темур-хан, библиотека, Британия, Герат

**Keywords:** Kurteil, Haydar, Turkic, Kazan, Uighur, calligraphy, prose, Temur Khan, library, Britain, Herat.

Pave-de-kurteyl 1821-1889-yillarda asarlar bo'yicha ilmiy tadqiqodlar olib Parijda yashab, turkiy tillarda yozilgan borgan bo'lib, De Frans kollejining turkiy

tillar bo'yicha professori hamda Peterburg Fanlar akademiyasining a'zosi ham bo'lgan. U 1882-yilda Mir Haydar Xorazmiyning hirotlik Malikshoh baxshi<sup>1</sup> tomonidan uyg'ur yozuvida xattotlik san'ati asosida yozilgan “Me'rojnoma” asari qo'lyozma nusxasini fransuz tiliga tarjima qilgan. Shuningdek, yana u 1889-1890-yillarda turkiy tilda yozilgan “Tazkiratul avliyo” asarini ham uyg'ur tilidan fransuz tiliga tarjima qilgan yirik olimdir<sup>2</sup>.

Olim Haydar Xorazmiyning “Me'rojnoma” asarining matnini tayyorlash bilan birga “Gulshanul asror” (Mahzanul asror) asari matnini ham nashrga tayyorlab, ularni bir jildga e'lon qilgan. Shu sababli ham ushbu maqolamizda Haydar Xorazmiyning “Gulshanul asror” nomli masnaviysi matni xususiyatlari haqida ba'zi fikrlarni bildirmoqchimiz.

Pave-de-Kurteyl tomonidan (A. Pavet de Courteille. Miradj-name, Pubiya pour la premyere fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheque Nationale, Paris, 1882) nashr qilingan “Merojnoma” nomli asarning tuzilishi quyidagicha: Kirish, “Me'rojnoma” asari matni va unga berilgan sharhlar. Ikkinchi qismida “Gulshanul asror” matni va uning nasriy bayonidan va unga berilgan izohlardan iborat.

Kurteyl asarning kirish qismida “Me'rojnoma”ning yozilishi va uning xususiyatlari haqida ma'lumot berish bilan birga “Gulshanul asror” (Mahzanul-asror) ni uyg'ur yozuvidagi qo'lyozmasiga asoslanib, aslida xattot Alishoh baxshi tomonidan ko'chirilganligi, undagi ba'zi xatolarni Malikshoh baxshi tomonidan tuzatilganligini eslatib o'tadi. Shuningdek, asarning qaysi so'zlarga tuzatish kiritingini ham misollar asosida ko'rsatib o'tadi. Yana ushbu qo'lyozmada asar nomi va sarlavhalar berilmaganligi, muallifning aniq emasligi, “Abushqa” lug'atidagi ushbu asardan she'riy parchalar berilib,

Tutti jahon zamzamai Haydariy, To'ldi sado gunbazi nilufariv.

توتى جهان زمزمهء حيدرى<sup>3</sup>

تولدى صدا كئىزى نيلوفرى<sup>3</sup>

baytlarining izohiga “Mahzani Mir Haydar” nomining qo'shilib yozilganligini ko'rishimiz mumkin.

Kirish qismida Kulteyl Alisher Navoiyning

“Majolisun-nafoyis” asaridan Haydar Xorazmiy haqidagi quyidagi ma'lumotlarni ham keltiradi.

Jumladan, Amir Temurning nabirasi Sulton Iskandar Sheroziyga Mavlono Haydar turkigo'y, aning modih ekanligi haqidagi ma'lumotlarni kiritib, ushbu masnaviysini keltiradi:

Himmat elidur yadi bayzo degan,  
Er nafasidur dami Iso degan.

هت ايلي دور يدي بيضا ديگان  
اير نفسى دور دمی عيسى ديگان<sup>4</sup>

kabi bayt va ma'lumotlar keltirib asarning muallifi Haydar Xorazmiy ekanligini isbotlashga harakat qiladi.

Asarning 54-74- betlarida “Gulshanul-asror” ning fransuz tilidagi nasriy bayoni va izohlar keltirilgan. Nasriy bayonini sakkiz (I-VIII) qismga ajratib, jami, sakkizta masnaviy sifatida ifoda qilingan. Nasriy bayonini keltirish bilan birga asar matnidagi ba'zi farqli jihatlari ham ko'rsatilib o'tilgan. Masalan, uyg'ur yozuvidagi bilan arab yozuvidagi farqli jihatlari ko'rsatilib o'tilgan.

Bundan tashqari “Qutadg'u bilig”ning rus turkologi V.V. Radlov nashr ettirgan feksime nashridagi “Muqaddima”da Berlin kutubxonasida Haydar Xorazmiy “Gulshanul asror” (Mahzanul-asror) asari ining eski uyg'ur yozuvidagi bir nusxasi borligi aytiladi va bu nusxa Parijdagi (Kurteyl e'lon qilgan) nusxaga juda o'xshash ekanligini ta'kidlanadi<sup>5</sup>.

Rieu, Charles Pierre Henring “Britaniya muzeyidagi turk qo'lyozmalari katalogi”da Britaniya kutubxonasidagi “Gulshanul asror” (Mahzanul-asror) asari nusxalarining ikkinchisi, ya'ni Or. 3491-raqamli qo'lyozmasi to'g'risida ma'lumot berib qavs ichida ushbu fikrlar keltiriladi: (Qo'shimcha 7914, folga. 121a-123a) (Pave de Kurteylning uchinchi ko'chirmasi, Me'rojnoma, 59-bet).<sup>6</sup>

Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan A.Pave de Kurteyl tomonidan 1882-yilda ko'chirilgan “Merojnoma” nomi ostidagi nashr qilingan kitobning 62-95 sahifalarga joylashtirilgan Haydar Xorazmiyning “Gulshanul asror” asari tavsifi quyidagicha: (Extraits du <sup>مخزن مير حيدر</sup> manuscript ougour appartement a Monsieur Guy le Strengre) <sup>مخزن مير حيدر</sup>

“Mahzan Mir Xaydar” qo'lyozmasidan

<sup>1</sup> <https://siam.press/wiki/ru>

<sup>2</sup> <https://ru.wikipedia>

<sup>3</sup> A. Pavet de Courteille. Miradj-name, Pubiya pour la premyere fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheque Nationale, Paris, 1882, pp, XXVII, 45-6et

<sup>4</sup> A. Pavet de Courteille. Miradj-name, Pubiya pour la premyere fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheque Nationale, Paris, 1882, pp, XXVII, 45-6et

<sup>5</sup> Абдуллаев Н. Хайдар Хоразмиий ва унинг “Маҳзанул асрор” асари. Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти. Тошкент, 1976, 8 -бет

<sup>6</sup> Rieu, Charles Pierre Henri. Catalogue of The Turkish Manuscripts in British Museum. London: Gilbert and Rivington, Limited, St. John's Houer Clarkenwell Road, 1888, 298-299

lavha<sup>7</sup>

Sarlavhadan oldin noma'lum o'quvchi tomonidan ingliz tilida "Brition bib. Add: 7914 (pp 115-141)" jumlasini keltirilgan. Ya'ni Britaniya kutubxonalarida 7914 raqami ostida saqlanayotgan nusxadan olinganligi mazmuniga jumalalar "ishora" sifatida ruchkada yozilgan.

Ushbu fikrlarni umumlashtirib shuni aytish mumkinki, A. Pave de Kurteyl "Gulshanul asror"ni nashrga tayyorlashda 7914 raqamli qo'lyozmadan foydalangan bo'lsa kerak.

Kitobning ba'zi joylarida uyg'ur yozuvidagi nusxadan parchalar keltirilgan. Asarda sarlavhalar berilmagan. Har sahifaga 15 yoki 17 qatordan baytlar yozilgan. Bu nusxa jami to'g'giz masnaviydan iborat bo'lib, hikoyalar, so'z boshi yoki va'z-nasihatlar bir - biriga singdirilib yuborilgan va

Bismillahir rahmonir rahim  
Fathu zafar oyatidir ey hakim.

بِسْمِ اللّٰهِ الرَّحْمٰنِ الرَّحِیْمِ

فَتْحٌ وَ ظَفْرٌ اَیْتِی دَوْرَ اَی حَکِیْمِ

deb boshlanuvchi baytlarda Alloh Taologa hamdu-sano keltirilmagan. Asar baytlarining ketma-ketligiga e'tibor qaratilsa, uning ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lgan nusxalaridan farqli jihatlarni ko'rish mumkin.

1) Jumladan, payg'ambarimizga atalgan asar na'ning mazkur quyidagi ikki bayti berilmagan.

Jumla Rasul sarvaridur mustafo,  
Koni karam ma'dani sidqi safo.  
Qurb maqomida ochib iloh,  
Olam va Odamg'a qilib ani shoh.

جمله رسول سروری دور مصطفیٰ

کن کرم معن صدق و صفا

قرب مقامیدا اوجب اله

عالم و آدم غه قلیب انی شاه

Kurteyli nashrida birinchi bayt shunday boshlanadi: Vasl bisotini qilib takyagoh,  
Bo'ldi biz ummatlar uchun uzri xoh

وصل بساطینی قلیب تکیه گاه

بولدی بیز امت لر اوچون عذر خواه

Shu masnaviyning davomi sifatida 9+6 shaklida baytlar bir-biriga birikib kelgan: Umr chu qat'i etti adam manzili,  
So'zga raqam urdi qalamning tili.

قوت ایچیندا ناکیم اردی نهان

بار چا بو قدرت بیلا بولدی عیان

Oxirgi bayti:

Qut ichinda nakim erdi nihon,

Borcha bu qudrat bila bo'ldi ayon.

بیر کیچه غم برله ایدی همئفس

موتیس و نسمازیم اول ایردی وین

Jami: 15 bayt, 63-64 -sahifalar.

2) "Musannifning vasfi holi"ga bag'ishlangan masnaviyning birinchi bayti: Bir kecha g'am birla edim hamnafas,  
Munis damsozim ul erdivu bas.

شوق و هوس تیلکا روان لیغ یاریب

سوز دمنینه روح نشان لیغ یاریب

Oxirgi bayti:  
Shavqu havas tilga ravonlig' borib,  
So'z damina ruhi nishonlig' borib.

شوق و هوس تیلکا روان لیغ یاریب

سوز دمنینه روح نشان لیغ یاریب

Jami: 41 bayt, 64-70-sahifalar.

3) "Hikoyati Mahmud"ning birinchi bayti:

Qish kuni Mahmud tafarrux qila,  
Qo'sh sola otlandi nadimlar bila.

قیش کونی محمود تفرح قیله

قوش سالا اتلاندی نادیملار بیله

Oxirgi bayti:

Muzhiri oyati Kalomi Karim,  
Muzhiri axloqi sifoti qadim.

مظہر ایاتی کلام کریم

مظہر اخلاق صفتی قدیم

Jami: 43 bayt, 70-75-betlar.

4) Forslik suvoriy haqidagi hikoyatning birinchi bayti:

Forsda bir fors chobuk suvor,  
Shahr ichinda qilur erdi guzor.

فارسدا بیر فارس چابک سوار

شهر ایچیندا قیلور ایردی گزار

Oxirgi bayti:

Xarj qilib uyida yarog'i bila,  
Yegay oni o'g'liyu ushshog'i bilan.

خارج قلیب اویندا یراغی بیلا

یگای انی اوغلی اوشاغی بیلا

Jami: 15 bayt, 70-78-sahifalar.

5) Xotam Toyiga bag'ishlangan masnaviyning birinchi bayti:

Qofilayi bir arabdin magar,  
Qildi bani Tiyi hashmina guzar.

قافله بیر عرب دین مگار

قیلدی بنی طی حاشینه گزار

Oxirgi bayti:

Ko'rdi akin ul teva uchun malol,  
Uzr qulungkim, manggo qilsun halol.

کوردی اکین اول تیوه اوچون ملال

عذر قولونک کیم مانکا قیلسون حلال

Jami: 22 bayt, 76-81-sahifalar.

6) Piri laduniy bilim sahibi ekanligi haqidagi masnaviyning birinchi bayti:

Ko'fada bir piri lotuniy sabaq,  
Sayir eta bozorg'a qoydi ayaq.

چذب قلیب درد معما کشای

اوردی نا کیم حاصلینا پشت پای

Oxirgi bayti:

Jazb qilib dardi muammo kushoy,  
Urdu nakim hosilina pushti poy.

چذب قلیب درد معما کشای

اوردی نا کیم حاصلینا پشت پای

Jami: 44 bayt, 81-86-sahifalar.

7) Horun va Bahlul haqidagi hikoyatning birinchi bayti:

Bir kacha Horun bila Bahlul mast,  
Bo'ldi Xilofat uyida ham nishast.

بیر کاجا هرون بیل بھلول مست

بولدی خالفت اویدا هم نیشست

Oxirgi bayti:

Bahr bikin mavizan alo xomush,  
Ganj tok akanda vale xok po'sh.

بهر بیگین موج زن الا خموش

کنج تاک اکنده ولی خاک پوش

Jami: 19 bayt, 86-89-sahifalar.

8) Temurxon haqidagi hikoyat masnaviyning birinchi bayti:

Chunki Tamurbek burun etti xuruj,  
Davlati topmaytur adi bu uruj.

چونکی تالمربک بورون ایتی خروج

تور ادی بو عروج دولتی

Oxirgi bayti:

Himmat eli davlat etagin tutar,  
Er kishi himmat bila yorga yetar

هیمات ایل دولت ایتاگین توتار

اکی کیشی هیمات بیل یورگا ییتار

Jami: 28 bayt, 89-92 -sahifalar.

9) Masnaviyning xotimasi sifatida yozilgan ushbu masnaviyning birinchi bayti quyidagicha:

Ey ki bu ma'nig'a talabgorsan,  
Tebran agar voqifi asrorsan.

ای کی بو معنی غا طلب گزارسان

تیران اگر واقف اسرار سان

Oxirgi bayti:

Yo'lda turur yuz mahak imtihon,  
Zahmi parokandavu rishi nihon.

یولدا تورور یوز مھاک امتھان

زخمیر لکده و ریش نهان

Jami: 22 bayt, 92-95 -sahifalar.

"Gulshanul asror"ning jami 249 bayti Kurteyli tomonidan nashr qilingan.

Kurteyl tomonidan nashrga tayyorlangan "Gulshanul asror" asarining o'ziga xosligi shuki, unda Xorazm shevasining talaffuzi imlo qoidalari vositasida ifoda qilingan.

Eron milliy kutubxonasida 13524 raqam bilan saqlanuvchi nusxa, Godvald tomonidan nashrga tayyorlangan Qozon davlat universiteti kutubxonasida saqlanuvchi fotonusxa, Fransiyada 978 raqam bilan saqlanuvchi nusxa, Hirotda ko'chirilgan Britaniya kutubxonasida saqlanuvchi 7914 raqami bilan ro'yxatga olingan fotonusxalarining matnini bir-biridan farqli va o'xshash jihatlarni tadqiq etilganda quyidagicha farqlarni ko'rish mumkin.

Quyidagi jadvalda asarning ba'zi so'zlarning farqli jihatlari ko'rsatildi:

No	Kurteyli nashrdagi o'qilishi	Kurteyli nashrining o'qilishi	Eron, Fransiya, Hirotda saqlanuvchi nusxalarida	Qozon, o'qilishi
1	necha	necha	نچه	necha
2	dek	dek	دیک	dek
3	dedi	dedi	دیدی	dedi
4	uruj	uruj	وردج	uruj
5	bila	bila	بیله	bila
6	senga	senga	سینگه	senga
7	yetti	yetti	یاتی	yetti
8	yana	yana	یانه	yana
9	sen	sen	سین	sen
10	degan	degan	دیگان	degan
11	g'a	g'a	غه	g'a
12	kach	kach	کاج	kach
13	ke	ke	که	ke
14	borsa	borsa	بورسه	borsa
15	yetar	yetar	ییتار	yetar
16	kerak	kerak	کیراک	kerak
17	tutar	tutar	توتار	tutar
18	edi	edi	ادی	edi
19	anga	anga	انگه	anga
20	yerga	yerga	یورگه	yerga
21	cherka	cherka	چیرکا	cherka
22	si	si	سی	si
23	oti	oti	وتی	oti
24	ustr	ustr	وسر	ustr
25	kezayin	kezayin	کیزاین	kezayin

Xulosa shuki, Kurteyl tomonidan Haydar Xorazmiyning "Gulshanul-asror" (Mahzanul-asror) asari matnini nashr qilinishi yevropa olimlarning ajdodlarimiz asarlariga bo'lgan qiziqish XVIII-XIX asrlarga kelib yuqori darajaga ko'tarildi. Ushbu qo'lyozma boshqa nusxalar bilan qiyoslanganda "Alloh Taologa bag'ishlangan hamdu sano", "Yaqub alayhissalom", "Sulaymon alayhissalom", "Mulk erur dilbaru sohib jamol", "Necha ey g'ofil ko'ngul oxiri uyon", "Andaki bu azm ila yo'ndum qalam", "Bir nafas ey, dunyo ishindin malul", "Emdiki bozor erur garmu tez", "Buxl aziz odameni xor etar", "Ey sharaf ichra iki olamg'a toj" deb boshlanuvchi masnaviyleri nashrdan o'z ifodasini topmaganligi aniqlandi. Unda asar nashri to'liq bo'lmasada, u Haydar Xorazmiyning ma'naviy merosini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, asar matnini tektologik va leksik jihatdan boshqa nusxalar bilan qiyoslab o'rganishda va boshqa ma'naviy - marifiy va tarbiyaviy ahamiyatini tadqiq etish tadqiqotchilar zimmasidagi dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

7 A. Pavet de Courteille. Miradj-name, Pubiya pour la premyre fois d'apreis le manuskrit ougour de la Bibliotheqe Nationale, Paris, 1882, 63 -6er



## BOLA NUTQIDA BILINGVIZM FENOMENINING KOGNITIV ASOSLARI

*Nasiba Jumayevna Yarashova - f.f.b.f.d. (PhD), Navoiy davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bilingvizm fenomenining asoslari, bolalikda bilingvizm bola hayotida har bir tilning tutgan o'rniga, uning ikki tillilikdan qaysi vaziyatlarda va qay darajada foydalanishiga bog'liq holda shakllanish masalalari hamda maktabgacha yoshda ikki tillilik shakllanishining o'ziga xos holatlari bolalar nutqidan keltirilgan misollar asosida yoritilgan.

**Аннотация:** В данной статье освещены основы феномена билингвизма, вопросы формирования билингвизма в детстве в зависимости от того, какое место занимает каждый язык в жизни ребенка, в каких ситуациях и в какой степени он использует двуязычие, а также конкретные случаи формирования двуязычия в дошкольном возрасте на примерах из речи детей.

**Abstract:** This article highlights the basics of the phenomenon of bilingualism, the formation of bilingualism in childhood, depending on what place each language occupies in a child's life, in what situations and to what extent he uses bilingualism, as well as specific cases of the formation of bilingualism in preschool age using examples from children's speech.

**Калит so'zlar:** til, tafakkur, nutq, muloqot, bilingvizm, psixolingvistik jarayon, kommunikativ layoqat, lingvistik va ijtimoiy komponent.

**Ключевые слова:** язык, мышление, речь, общение, билингвизм, психоллингвистический процесс, коммуникативная компетентность, лингвистическая и социальная составляющая.

**Keywords:** language, thinking, speech, communication, bilingualism, psycholinguistic process, communicative competence, linguistic and social component.

XX asrda Amerika Qo'shma Shtatlari, Angliya, Fransiya, Rossiya, Chexiya singari davlatlarning tilshunoslik maktablarida til birliklarini boshqa ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq holda tadqiq etish yuzasidan bir qator izlanishlar yuzaga kela boshladi. Tilni uni o'rab turgan muhit bilan birgalikda tadqiq qilish, jamiyatda inson omili ta'sirida vujudga keluvchi tilda bilingvizm muammosining tadqiqi tilshunoslar diqqat markazida bo'ldi.

Har qanday millatning boyligini ko'rsatuvchi, avlodlar tomonidan to'plangan madaniy boylik o'z tiliga egalidir. S.A.Grinberg fikriga ko'ra, "til shu bilan birga, jamiyatda madaniyatning mavjudligi, uning muhim qismi va shartidir. Ikki tillilik fenomen sifatida nafaqat bir nechta bilimlarni o'z ichiga oladi, balki bu tillarning prizmasidan dunyoni idrok etish qobiliyatini ham namoyon etadi". Xususan, bolalar nutqida ikki tillilik odatiy jarayon sifatida tushuniladi va uning natijasi, unda bolalar ikki tilni samarali ishlatishadi hamda avtonom nutq kodlarini yuzaga keltiradilar.

Tilshunoslikning hozirgi rivojlanish bosqichi katta qiziqish bilan qayd etildi. Tilning mazmunli va funksional tomonlariga, uni markazga qo'yish, til va madaniyat o'rtasidagi tashqi aloqalarni o'rganish, u aks ettiradigan stend, shuningdek, inson bilan bog'liq holda tadqiq etish ishlari jadallashdi. O'z faoliyatida inson dunyoning o'zi bilan emas, balki

bilim rasmlari va modellari bilan paydo bo'ladi. Hozirgi kunda hech qanday madaniyat yolg'izlikda yashamaydi, bir vaqtning o'zida xalqlarning madaniyatlararo aloqalari tillar va madaniyatlarda aks etadi. Qiyosiy lingvokulturologiya rivojlana boshladi (M.K.Golovanivskaya, 1997 va boshqalar).

M.B.Amalbekova, U.M.Baxtikorova, A.A.Girituskoy, S.A.Grinberg, Y.N.Kremer, N.L.Leyderman, N.G.Mixaylovska, R.O.To'qsaitova, B.V.Hasanova kabi tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, badiiy bilingvizm bevosita ijodkor dunyoqarashi hamda qaysi tilda ijod qilishidan, qahramonlarning qaysi hududda yashashidan kelib chiqadi. Bolalar nutqida mahalliy bo'lmagan til kodlarining mavjudligi ular nutqini boyitadi, to'ldiradi.

Bolalikda bilingvizm (ikki tillilik) bola hayotida har bir tilning tutgan o'rniga, uning ikki tillilikdan qaysi vaziyatlarda va qay darajada foydalanishiga bog'liq holda shakllanadi. Maktabgacha yoshda ikki tillilik shakllanishining quyidagi o'ziga xos holatlarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- bola tug'ilgan paytidan boshlab ikki tilli oilada bir tildan o'zga tilga o'tib muomala qilish sharoitida tarbiyalanadi;

- bola oilada ona tilida so'zlashadi, undan tashqarida esa (qo'shnilar, qarindoshlar va boshqa shaxslar bilan) o'zga tilni o'zlashtiradi;

- bola o'zga tilni aniq maqsadga yo'naltirilgan

mashg'ulotlarda va ulardan tashqari vaqtlarda maktabgacha ta'lim muassasasida egallaydi;

- bola o'zga tilni ommaviy axborot vositalari hamda telefon orqali tez o'zlashtiradi.

Psixolingvistik adabiyotlarda yozilishicha, haqiqiy ikki tillilik faqat odam hech bo'lmaganda bitta tilda har qanday fikrni mos tarzda ifodalashga qodir bo'lgan taqdirdagina rivojlanadi. Agarda nutq bironta tilda ham to'laqonli shakllanmagan bo'lsa, bu holda fikr tuzilmasi buzilib ketadi va o'z fikrini ifodalashga bo'lgan intilish muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, bu esa nafaqat psixologik ezilishlarga, balki muloqot sifatidagi chuqur yo'qotishlarga va bola shaxsiga ziyon yetishiga olib keladi. Yarim tillilik deb ataladigan bunday hodisa, umuman olganda, jamiyat uchun ham ancha xavflidir, chunki bunda uning a'zolarining muayyan qismi hissiyotlarini boshqara olmaydi hamda o'z hissiyotlari, ehtiyojlari, istak-xohishlarini tegishli tarzda so'z shakliga keltira olmaydi. Agarda inson xohlagan narsasini ayta olmasa, u boshqalar bilan teng ravishda raqobatlashishga, kommunikatsiyaning odatdagi shakllaridan foydalanishga qodir bo'lmay qoladi hamda u o'z-o'zini boshqarishning qandaydir boshqa shakllariga murojaat qilishga, ba'zan esa zo'ravonlik qilish, kuch ishlatishga majbur bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda, ilk yoshdan boshlab individning nutqiy rivojlanishini tuzatishni to'g'ri tashkil etish zarurdir. Ilk start ona tilini qabul qilishga va keyinchalik har qanday boshqa tilni o'zlashtirib olishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Til qanchalik oldin egallab olinsa, bilimlar ham shunchalik oson va to'liqroq o'zlashtiriladi", - deya ta'kidlaydi N.I.Jinkin.

Bola tug'ilgan paytidan boshlab ijtimoiy mavjudot hisoblanadi. Uning har bir yosh bosqichidagi ijtimoiy rivojlanishi o'z xususiyatlariga, vazifa va mazmuniga ega bo'lib, ularni amalga oshirish uchun pedagogika sohasidagi ishlarga tegishli shart-sharoitlarni yaratish darkor.

Bola bilan muloqot u bilan hamkorlik asosiga qurilishi lozim. Doimo kattalarning biron narsani majburlashlari bolada faol tadqiq etish va bilishga intilishni emas, balki sustlik, faqat atrof-muhitga moslashish istagini shakllantiradi.

Bir yoshdan uch yoshgacha bo'lgan davrda bola rivojlanishiga oid ijtimoiy vaziyat sezilarli darajada o'zgaradi. O'z yaqinlari bo'lmish kattalar bilan birgalikda bolaning muloqot doirasiga birinchi navbatda kichkintoyning diqqat-e'tibor va g'amxo'rlikka bo'lgan ehtiyojini qondirishi lozim bo'lgan boshqa kattalar (maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari, tarbiyachi yordamchisi) ham kirib kela boshlaydilar. Bunday sharoitda ilk yoshdagi bolalarda kattalar bilan narsalar, o'yinchoqlar va ular bilan bajarilishi lozim bo'lgan harakatlar xususida muloqot qilishga ehtiyoj rivojlanadi.

Bu yoshdagi bolada kattalar bilan emotsional va amaliy aloqalar o'rnatish qobiliyati rivojlanadi, bu unga yangi hayotiy shart-sharoitlarga moslashishga: so'zlar, iltimoslarni baholovchi fikrlarni va boshqa kishilarning emotsional munosabatlarini to'g'ri qabul qilishga yordam beradi.

Uch-besh yoshli bolalarda kattalarning

mehriga, ularning tushunishiga va u bilan muloqot qilishiga ehtiyoj saqlanib qoladi. Kattalarga nisbatan ishonchga asoslangan muloqot va uning emotsional ahvolini (quvonch, zavq-shavq, qayg'u, xotirjamlik, jahldorlik va h.k.) his qilishga, kayfiyat o'zgarganligi sabablarini tushunishga qodirlik rivojlanadi. Kattalar bilan muloqotning yangi shakli - qiziqarli mavzularda muloqot qilish vujudga keladi va rivojlanadi. U dastlab, kattalar bilan birgalikdagi bilish faoliyatiga (masalan, o'yin, predmetlar va o'yinchoqlar bilan tajriba o'tkazish, qog'ozdan va tabiiy materialdan narsa yasash va boshq.) qo'shilib ketgan, so'ngra, bola hayotining beshinchi yili oxiriga kelib muayyan vaziyat bilan bog'liq bo'lmagan bilish mavzularidagi «nazariy» muloqot ko'rinishiga ega bo'ladi.

Ma'lumki, til aloqalari tushunchalarini ifodalovchi terminlardan biri bilingvizmdir. Bilingvizm (ikki tillilik, zullisonaynlik) ikki tilda bemalol muloqot qilish, ikki til sohibi bo'lish demakdir. Ikki tilda o'zaro kommunikativ munosabatga kirishuvchi shaxslar bilingvlar hisoblanadi<sup>2</sup>. Bu atamaning kelib chiqishiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, miloddan avvalgi III-II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galliyani (bugungi Fransiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til - lotin tili bilingvizmi vujudga keladi<sup>3</sup>.

Ommaviy bilingvizm sharoitida interfeysiyaning ba'zi turlari til tizimiga ta'sir etib, ayrim o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Olimlar bu vaziyatda tilning hududiy farqlanishi - etnik sheva yuzaga kelishi mumkin, deb hisoblaydilar. Interfeysiyaning ikki guruhga: dialektal interfeysiya va internatsional interfeysiya turlariga ajratish maqsadga muvofiq. Dialektal interfeysiya til tashuvchisining bir subkod orqali muloqot jarayonida ikkinchi subkod birligini qo'llashi natijasida yuzaga chiqadi

Muloqot vositasi sifatida tilni erkin o'zlashtirish quyidagilarni nazarda tutadi: til haqida muayyan va nazariy bilimlar mavjud bo'lishi; til vositalarini muloqot vazifalari va shartlari, ya'ni vaziyat bilan taqqoslay olish qobiliyati; nutqiy muloqotni xulqning ijtimoiy normalarini hisobga olgan holda tashkil etish ko'nikmasi; til vositalarining milliy xususiyatlarini bilish. Bularning barchasi individning til vositalari yordamida muloqotning turli sohalarida va vaziyatlarida va yoki bu kommunikativ vazifalarni hal etishga qodirlik bilan aniqlanadigan kommunikativ layoqatini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, kommunikativ layoqat - bu ikki komponentning - lingvistik va ijtimoiy komponentlarning ajralmas birligi, muayyan hajmdagi lingvistik va ijtimoiy bilimlarning muloqot malaka va ko'nikmalari bilan bog'liqligidir.

Umuman olganda, bilingvizm fenomeni bola kognitiv layoqatining o'sishiga xizmat qiladi hamda bilingval bolalar lingvokognitiv jarayonlarga doimo tayyor turadi, lingvistik imkoniyatlarni juda puxta o'zlashtiradi, ularda ixtiyoriy diqqat hamda xotira kuchli rivojlangan bo'ladi, bu xotira natijasida ular qisqa muddat ichida o'zlashtirilayotgan ma'lumotni aniq va yuqori darajada egallashadi.

<sup>1</sup> Гринберг С.А. Влияние белорусско-русского двуязычия на мировоззрение и национальное самосознание белорусов // Вестник РУДН. Серия: Вопросы образования: языки и специальность. 2015. № 5. - С. 326-330.

<sup>2</sup> Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. - Ленинград: Наука, 1972. - С. 3

<sup>3</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. - Москва: Большая Российская энциклопедия, 2002. - С. 19.

## O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATIDA SHUHRATNING O'RNI

*Nodira Isomitdinovna Soatova - f.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada shoirning bolalarga bag'ishlab yozilgan she'rlari tadriji kuzatilganda, uning dastlab bolalar uchun kichik-kichik she'rlar yozganligi va jarayon to'lishib, voqeaband she'rlar yaratganligi shoir she'rlari misolida ko'rsatib beriladi. Shuhrat she'rlari bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlari hisoblangan soddalik, badiylik, ma'rifiylik va tarbiyaviylikni to'liq mujassamlashtira olgani maqolada aniqlandi.

**Аннотация:** В статье при рассмотрении стихотворений поэта, написанных для детей, на примере стихотворений поэта показано, что он сначала писал маленькие стишки для детей, и со временем он начал создавать насыщенные стихи. В статье выяснено, что стихи Шухрата смогли в полной мере воплотить в себе простоту, художественность, просвещение и воспитание, которые являются основными чертами детской литературы.

**Abstract:** The article shows the poet's poems dedicated to children when teaching is observed, and he originally wrote Small and small poems for children, and the process was full and created interesting poems using the example of the poet's poems. It was found out in the article that the poems of Fame were able to fully embody simplicity, artistry, enlightenment and upbringing, which are considered the main features of children's literature.

**Kalit so'zlar:** bolalar she'riyati, milliy ruh, milliy manzara, qadriyat, qofiya, xalqona ohang, pafos, holat, kechinma, poetik obraz, lirik qahramon, badiylik.

**Ключевые слова:** детская поэзия, национальный дух, национальный пейзаж, ценности, рифмовка, народное звучание, пафос, ситуация, переживание, поэтический образ, лирический герой, художественность.

**Keywords:** children's poetry, national spirit, national landscape, value, rhyme, folk tone, pathos, status, evening, poetic image, lyrical hero, artistry.

Bolalar uchun yaratilgan ijod namunalarni o'rganilishi millatning ertangi kuni va kelajagini belgilashi nuqtai nazaridan o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Chunki yosh avlodning nafosati va badiiy didini o'stirish, haqqoniylik va badiylikning mukammal birligini ta'minlash, yuksak ma'rifiy-estetik g'oyalarni ilgari surish, ma'naviy kamolotini ta'minlashi nuqtai nazaridan ulkan badiiy-tarbiyaviy mavqe' kasb etishi uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ziga xos o'rnini ham belgilashga xizmat qiladi. Demak, „..Bolalar adabiyoti yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan“<sup>1</sup>, asarlar sirasiga kirar ekan, shunday asarlarni targ'ib qilish bugungi kun adabiyotshunoslarining oldida turgan ulkan vazifadir. Shu o'rinda, akademik M.Qo'shjonovning: "Quddus Muhammadiy-o'zbek bolalar adabiyotining katta avlodiga mansub shoir. Quddus Hikmat esa undan

keyingi avlod vakillaridan. Bir-birlariga yaqin turgan ikki avlod vakillari - birinchisidagi shoirona oddiylik, xalq ijodiga nihoyatda yaqin turishlik, folklor ohanglaridan, shakl va ma'no xususiyatlaridan unumli foydalanishlik, ikkinchisidagi, mazkur xususiyatlarni o'zlashtirgan holda she'riy madaniylik, shakl va mazmundagi mukammallik va tugallik bizni o'ziga jalb qildi“<sup>2</sup>, - degan ta'rifini, garchand bolalar shoiri bo'lmasa-da bolalar shoiri sifatida ham o'z iste'dodini to'la namoyon qila olgan XX asrda yashab, barakali ijod qilgan Shuhratga ham qo'llash mumkin. Shuningdek, Shuhratning bolalarbop she'rlarini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Darhaqiqat, shoirning bolalarga bag'ishlab yozilgan she'rlari tadriji kuzatilganda, uning dastlab bolalar uchun kichik-kichik she'rlar yozganligi va jarayon to'lishib, voqeaband she'rlar yaratganligiga guvoh bo'lish mumkin. Shuningdek, Shuhrat she'rlari

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Китоб махсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида"ги Фармойиши // Халқ сўзи, 2017-йил, 13-январь  
<sup>2</sup> Қўшонов М. Қуддус Муҳаммадий. Қудрат Ҳикмат. - Тошкент: Ўз КП МК нашриёти, 1969.-Б. 4

bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlari hisoblangan soddalik, badiylik, ma'rifiylik va tarbiyaviylikni to'liq mujassamlashtira olganligi bilan ahamiyatga molik. Xususan, "Buvijonim" she'rini yengil, o'ynoqi, xalqona ohangda yozgan va bu holat she'r ta'sirchanligini oshirgan. Shoirning misralari o'zbekona, she'rdagi voqelik milliy tamoyilga asoslangan. She'r barmoq she'r tizimida bitilgan bo'lib, 4+3 turoqlanish asosidagi 7 bo'g'inli o'ynoqi vaznda yaratilgan. Bu esa o'zbek xalq qo'shiqlari ohangni esga soladi:

*O'sma ekdim bir bo'ya,  
Buvim qo'ysin qoshiga.  
Yalpiz terdim bir to'ra,  
Buvim kertsin oshiga.  
Buvi, buvi, buvijon,  
Buvim mehri bir jahon!<sup>3</sup>*

Shoir buvi timsolida kitobxon o'qirman qalbida onaga, vatanga muhabbat tuyudira olish bilan birga, o'zbek xalqining ma'naviy qadriyatlariga hurmat hissini uyg'otishga erishadi, buviga xos muhim jihatlarni obraz va obrazlilik vositasida ifodalaydi. Milliy urf-odatimizga ko'ra o'sma o'zbek ayollarning qoshiga qo'yadigan bo'yoq bo'lsa, yalpiz onalarimiz tomonidan tayyorlanadigan taomga o'shiladigan mahsulot. Bizning xalqimizda ayolga, buviga jannatliy inson sifatida qarash, e'zozlash, qadrlash, uning mehrini dunyolarga qiyoslash xosdir. Shoirning she'rida to'liq mana shu qadriyatning mazmun-mohiyati singdirilgan.

*Lola terdim qir-tog'da,  
Bir dastasi buvimga,  
Baliq tutdim qarmoqda,  
Eng kattasi buvimga.  
Buvi, buvi, buvijon,  
Buvim mehri bir jahon!*

She'r matnidan ko'rinib turibdiki, ko'tarinki pafos she'rdagi estetik ta'sir quvvatni oshirgan. Shoir xalqona ruhdagi vazn orqali yangicha qarashlarni bir nuqtaga birlashtira olgan. Aytish mumkinki, shoir she'rlarida "... milliylik she'riyatning asosiy tamoyilidir. Zero ta'bir joiz bo'lsa, jahon adabiyoti ko'rigida o'zbek she'riyatini ajratib ko'rsatuvchi asosiy xususiyat, o'zgalardan farqini namoyon qiladigan bosh belgi milliy ruh"<sup>4</sup>borligini she'r davomida ko'rishimiz mumkin:

*Kecha tushdim suratga,  
Buvim bilan yonma-yon.  
Buvim loyiq hurmatga,  
Shirin so'zu mehribon.*

<sup>3</sup> Шухрат. Танланган асарлар. 3 жилдлик, 1-жилд. -Т.: Адабиёт ва санъат, 1978.-Б.458 (Бундан кейинги иқтибослар шу нашрдан олинди, саҳифаси қавс ичида кўрсатилади)  
<sup>4</sup> Жабборов Н. Янги замон шеърини тамойиллари. // Шарқ юлдузи, 2014, № 3.-Б.110-111  
<sup>5</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. - Тошкент.: Ўқитувчи, 2005. - Б. 144

turar ekan, Shuhrat she'rlari asosan o'rta va o'smir yoshlarga bag'ishlanganligi bilan xarakterlanadi.

Ma'lumki, "She'r so'z shaklida, ritmik birliklar shaklida qog'ozga tushmasdan avval shoir xayolida hissiyot va g'ira-shira jilvalar shaklida paydo bo'ladi, so'ngra u tobora yorishib, aniq qirralar kasb etadi. Shundan so'ngina u so'z yordami bilan reallasha boshlaydi"<sup>6</sup>. Shuhratning bolalar uchun yozilgan "Bobong yo'li" she'rining g'oyaviy-estetik va badiiy jihatdan ta'sirchan jozibador bo'lishida qofiyaning o'zni muhim. Ma'lumki "...qofiya she'riy misralardagi ayrim so'zlarning ba'zan qo'shimchalar, hijolar yoki so'z birikmalarining bir xilda o'zaro ohangdosh bo'lib kelishiga asoslangan, faqat she'riyat uchun xos bo'lgan belgilardan biri"<sup>7</sup>. Shuningdek "...qofiya ritmik jihatdan misrani ta'kidlash bilan she'r ritmining his qilinishida muhim ahamiyat kasb etadi. She'rni o'qish davomida qofiya misraning tugaganidan darak beradi, pauza bajarayotgan ajratish funksiyasini ta'kidlaydi"<sup>8</sup>.

Ko'p asrlik ma'naviy-milliy qadriyatlarimiz bilan hamohang ruhda yaratilgan "Bobong yo'li" she'rida ko'rgan, kirgan, keltirgan, yetirgan, qolgan, olgan sifatdoshlarning qofiyadosh bo'lib, bu fe'llar orqali shoirning dardchil kechinmalari, badiiy niyati, ohangdorlik asosida yuzaga kelgan. Shu o'rinda alohida e'tirof etish kerakki, shoir ijodining o'ziga xosligini, umrboqiyiligini ta'minlovchi asosiy jihatlardan biri uning she'rlardagi shakl va mazmun uyg'unligidir. Shoir o'z she'rlarida olg'a surilgan fikr va g'oyalarni ifodalash uchun asosan qo'shma vazn 4+5 turoqlanish asosidagi 9 bo'g'inli barmoq vaznda yaratgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, bolalar shoirlari she'rlarining asosiy qismi sodda vaznda, ya'ni bir turkumga kiruvchi bo'g'inlar guruhidan iborat bo'lsa, Shuhratning bolalari uchun yozgan she'rlarini kuzatganimizda, ularning 7, 8, 9 bo'g'inli qo'shma vazn bo'lishi ham shoirning o'ziga xos uslubini ko'rsatadi. She'rda chol va bobong so'zlari bir necha marta takror qo'llangan va bu takrorlik she'r ta'sirchanligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

*Sen shu cholga salom ber, o'g'lon,  
Shu chol sening bobongni ko'rgan.  
Bobong bilan turib yonma-yon,  
Qilich ushlab, janglarga kirgan.  
Jangdan bobong qaytmadi, lekin  
Dovrug'ini shu chol keltirgan.*

*Go'yo bobong qoldirgan yukin,  
Manziliga shu chol yetirgan!  
Qo'lini ol, qo'lida bobong,  
Kaft issig'i saqlanib qolgan.  
Qulog'ing tut, dilida bobong,  
Qalb urishin ardoqlab olgan!*

She'r g'oya mohiyatidan ma'lumki, "Bobong yo'li" she'ri chuqur ma'noga ega. Unda shu vatanda yashab, yoshini yashagan, yaqin inson bo'lgan bobosini ko'rgan cholning poetik timsoli shoir tomonidan mohirona yaratilgan. She'r mazmunidan ko'rinib turibdiki, muallifning lirik qahramonga murojaati orqali xotira – urushga bolalik munosabatlari ko'zgusi sifatida namoyon bo'lishi ko'zga tashlanadi. She'rda xalq dostonlari qahramonlari kabi o'z ona - Vatani himoya qilgan bobo va u bilan janglarga kirgan cholga nisbatan muhabbat, hurmat, sadoqat hissi tarannum qilinadi.

*Ko'ziga boq, ko'zida bobong,  
Aks suratin ko'rishing mumkin.  
So'ziga boq, so'zida bobong,  
Ish sur'atin ko'rishing mumkin.  
Yo'lga boq, yo'li beg'ubor,  
Yo'li bobong tanlagan yo'ldir.  
Sen shu yo'ldan adashmasdan bor,  
Bu yo'llarda shon-sharaf mo'ldir!*

Shuningdek, she'rda shu ulug' siymolar qalbiga singgan vatan tuyg'usini qaror toptirish yo'lidan borilgani, tarixga, o'tmishga nazar solish orqali yosh kitobxoniga vatanni sevish, uni asrash g'oyasi milliy ruhga yo'g'rilgan holda tasvirlangan. Vatan mavzusi bo'yicha juda ko'p she'rlar mavjud, lekin ulardan farqli o'laroq, shoir she'rida o'quvchining bobosi va cholga muhabbati orqali, vatanga muhabbatini kuchaytirish maqsad qilingan. She'r badiiyati, tuzilishi, shakli jihatidan mukammal. Bir so'z bilan aytganda, she'r ma'naviy-madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, udumlar an'analar bola dunyosini badiiy-estetik idrok etishda o'ziga xos milliy kolorit yaratish vositasiga aylangan.

Samimiyligi, jozibadorligi, tabiiyligi bilan o'quvchilarni o'ziga maftun qiladigan shoirning "Qandim qani?" she'ri ham "Buvijonim" she'ri kabi barmoq she'r tizimida yumoristik xarakterda bitilgan bo'lib, 4+3 turoqlanish asosidagi 7 bo'g'inli barmoq vaznda yaratilgan:

*Xo'sh, ayting-chi, qaysi bola,  
Qandni yomon ko'radi?  
Choyiga qand solib qo'ysang,  
Lab-lunjini buradi?!*

She'r tahlili xususida so'z borar ekan, aytish mumkinki, "Shoirning xayol, o'y, tushunish

shakllari tugal, komil bo'lg'ach, o'ziga yarasha bir uslub borliqqa chiqqan bo'ladi. Uslubning adabiyotdagi o'zni juda katta, juda muhimdir. Bir asardagi fikrlar, ma'lumotlarning eskiligini bizga sezdirmasdan, bildirmasdan ifoda qilib uni bizga o'qita olgan kuch uslubdadir"<sup>9</sup>. She'r matnidan ko'rinib turibdiki, shoirning o'zigagina xos soddalik, kuyunchaklik, bolalarbop qilib yozishi, o'qirmanning diqqatini tortibgina qolmay, xushkayfiyat bag'ishlab, ruhiyatini ko'taradi. She'rda shoirning lo'nda ifodasi, nim tabassum singgan tasvir usuli, hayotiy talqinlari o'quvchiga boshqacha zavq bag'ishlaydi:

*Bizning Shodmon bo'lar shodmon,  
Qand solsangiz choyiga.  
Darrov kelib o'tiradi,  
Aya aytgan joyiga.  
Yuzi, ko'zi nurga to'lib,  
Yonar mayda oq tishi..*

Shodmon obrazini tasvirlar ekan shoir, uning timsolida bolalarbop voqelikni hayotiy, haqqoniy, sodda ifodalashga erishadi. Binobarin, bola qalbi ham sohir tuyg'u-kechinma va samimiy hislarga boy bo'ladi. She'r haqida yana shuni aytish mumkinki, she'r hazilomuz shunchaki kulgi, yumor uchun yozilmagan. She'rni o'qigach, o'quvchi kulgi va haqiqat topishgan chorrahani anglab yetadi. Shoir Shodmon obrazi orqali bolalarning ruhiy olamini realistik tasvir orqali aks ettirgan.

*Lekin uning bordir, do'stlar,  
Yarashmagan bir ishi:  
Qand erigach, deydi:  
-Qani? Qandim ketdi qayoqqa?  
Topib bering, topib bering,  
Qani oling bu yoqqa!  
Tushuntirsang tushunmaydi,  
Dod soladi yer tepib.  
Ayajoni aldab ko'rar,  
Goh erkalab, goh o'pib.  
Qani quloq solsa Shodmon!  
Shu qilg'i ko'p yomon!  
Sizlar shunday qilmaysizmi,  
Ali, Vali va Omon? [7; 479].*

Shoir Shodmondagi bolalarga xos injiqlik, o'jarlik va qaysarlikni yumor bilan katta estetik mazmunni yengil va ta'sirchan tarzda yosh kitobxon qalbiga yetkaza oladi. Shoir she'rlarini o'qigan yosh kitobxon o'zi har kuni ko'rib-bilib yurgan, lekin deyarli e'tibor bermagan ayrim narsa-hodisalarning favqulodda nafis va topqirlik bilan chizilgan manzaralaridan hayratga tushadi. She'r tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki,

bolalarning bir qarashda odatiydek tuyulgan qusur va kamchiliklardan, so'z-gaplaridan foydalanib asar yarata bilish Shuhrat badiiy mahoratining yuksakligini ko'rsatadi. Bolalar olamini kashf etishda ularning fikrchanligi, topqirliklari, zukkologiyu, o'ychanliklari, shu bilan birga sho'xlik, qusur va kamchiliklar juda ko'p she'rlarda munosib tarzda, gohida yumor bilan, gohida jiddiy tarzda talqin etilganini ko'rish mumkin. Zero, "Chinakam san'at asari faqat syujet ipiga tuzilgan voqealarni kitobxon e'tiboriga havola etish uchun emas, balki shu voqealar mantiqiga singdirilgan badiiy maqsad uchun yoziladi"<sup>10</sup>, ekan bu ta'rifni Shuhratning "Pero va Adham" she'riga ham tatbiq qilish mumkin. She'rda voqealikni yengil yumor bilan uyg'unlashtirgan holda aks ettira bilish, bolalardagi qusur va kamchiliklarni Adham timsolida bolalarbop talqin qila bilish Shuhratning bolalar she'riyatida ham o'ziga xos uslubga ega ekanligini ko'rsatadi:

*Pero birdan xunuk yozdi,  
Go'yo uning ko'ngli ozdi.  
Adham bog'sa, uchi to'mtoq.  
Jahl bilan uni shu choh,  
Yulib olib otmoq bo'ldi,  
Shunda birdan pero kuldi:*

Yozuvchi qalamida, hatto, narsa-predmetlar odamlardek fikr yuritib, so'zlab, insonlardagi illatlarni fosh etishini, pero misolida ko'rishimiz mumkin. Adhamga pero tomondan aytilgan tanbeh, dashnomlar, o'quvchi kitobxonning idrokida muayyan his-tuyg'ularni uyg'otishi tabiiy.

*-To'xta, Adham shahdingdan qayt,  
Avvalo sen roostingni ayt:  
Menmi aybdor yoki o'zing?  
Olaytirma menga ko'zing?  
Siyohdonga ursang taq-taq,  
Bo'laman-da, axir to'mtoq!.*

She'rda Adhamga pero tomondan berilgan savol, nazarimizda bolalar tabiatiga xos va mos bo'lib, bunday savollar soddaligi, quvnoqligi, yumorga boyligi bilan ham ajralib turadi. Muhimi shundaki, shoir bunday fikr-o'ylarni kitobxoniga ham yuqtira oladi.

Shu bois, savol-she'rlar yozilish uslubiga ko'ra sodda, samimiy, ixcham satrlardan tarkib topgan "Pero va Adham" she'ri tasvir ko'lamining qisqaligi, syujet va kompozitsion jihatdan soddaligi, bayonning bir obraz tomonidan amalga oshirishi Shuhrat she'rlari uchun xosdir.

*Avaylab tut, asta botir,*

<sup>6</sup> Каримов Н. XX аср манзалари. -Т.: O'zbekiston, 2008. -Б.361

<sup>7</sup> Хотамов Н, Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча изоҳли луғати. -Т.: Ўқитувчи, 1979. -Б.261-262

<sup>8</sup> Қуронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. -Т.: Akademiknashr, 2010. -Б.383

<sup>9</sup> Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. IV жилд. -Тошкент.: Маънавият, 2006. -Б.17

<sup>10</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. -Тошкент.: O'zbekiston, 2008. - Б. 185

*Hamma shunday tutayotir.  
Almashtirmas ular kunda,  
Yaxshi yozar ana shunda!  
Xijolatda qoldi Adham,  
Ming zo'ravon bo'lganda ham!*

She'rdagi bunday tasvir o'quvchida mantiqiy ichki mushohadani yuzaga keltiradi, o'yg'a toldiradi, o'zidagi kamchilik, e'tiborsizlikni oynada ko'rib tuzatishga, yo'qotishga harakat qiladi. She'r faqat o'quvchiga zavq-shavq berib qolmay, to'g'ri yo'l ham ko'rsatadi.

"Har bir asar shartli ravishda ijodiy tafakkur mevasidir. Bu tafakkur tarzi o'ziga xos shaklda nutq orqali namoyon bo'ladi hamda adabiy tur va janrlar talabiga ko'ra yorqin ekspressivlik, xolislik va ko'p ma'nolilik kasb etadi. Estetik qimmat yuqori bo'lgan asarlardagi obrazli iboralar tizimida ifodalangan hayot manzaralari sirtidan juda sodda ko'rinsa-da, odatda g'oyat murakkabligi bilan e'tiborni tortadi"<sup>11</sup>, ekan shoirning "O'chirg'ich" she'rini ham shunday asarlar sirasiga kiradi. Shoir tomondan yaratilgan o'chirg'ich obrazi tilidan bolalarga xos haqqoniy, hayotiy, qusur va kamchiliklar fosh qilib tashlanishi, o'qirmanga ta'sirchan lavhalarda yetkazilishi, shoirning o'ziga xos uslubini yorqin namoyon qiladi. Shuningdek, shoir uslubida soddalik, tuyg'ularning samimiy bayoni, yorqin va rangin ifodalari, ohang va rang uyg'unligi alohida bo'rtib ko'rinadi.

*Bir kun dedi o'chirg'ich:  
Hadeb meni ishlatma!  
Ayb mendami erta-kech,  
Xato yozsang sen g'uj-g'uj.  
Avvalo sen yaxshi yoz  
Yaxshi yozu to'g'ri yoz.*

She'rdagi hayot haqiqati va ta'sirchan

tasvir, bolalarga bog'liq odatlar, fikrlash va turmush tarzlaridagi o'ziga xos jihatlarni shoir tomondan tasvirlanishi, hech ikkilanmay aytish mumkinki, she'rni qiziqarlilik chiqishini ta'minlagan. Shoirning topqirligi va mahorati shundaki, kundalik turmushda ko'p uchraydigan oddiy voqeadan katta ijtimoiy-psixologik mazmun yaratadi.

*Yaxshi yozsang qanday soz,  
Bo'lmas menda e'tiroz.  
Mayli, meni olib yur,  
Papkangga ham solib yur.  
Lekin ko'p-ko'p ishlatma,  
Xijolatda qishlatma!  
Yaxshisi yoz bexato,  
Xato qilsang mabodo  
Yordamga men tayyorman,  
Tayyormanu men borman!*

Shuhratning bolalarga bag'ishlab ijod qilgan jozibador yaratilari, muqaddas ezgu qadriyatlarga mehrini yuksaltirish hamda o'quvchilarning shaxs tarbiyasidagi o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Shuhratning biz yuqorida tahlilga tortgan bolalarga bag'ishlab yozilgan she'rlaridan shu narsa ma'lum bo'ldiki, shoirning xalqona ifoda usuli, syujet va kompozitsiya, poetik obraz yaratishdagi o'ziga xos uslubi, aniqlik, obrazlilik, tilning soddaligi kabi unsurlardan obrazlarni individuallashtirishda foydalanishi tahsinga loyiq. Eng muhimi, undan bolalarni o'ylashga, mustaqil xulosa chiqarishga undaydigan ma'rifiy xulosalar bor. Demak, Shuhratning bolalarbop she'rlari sermazmun, tarbiyaviy ahamiyati kuchli va ta'sirchanligi bilan nafaqat yosh kitobxonlar, balki kattalar uchun ham qiziqarli she'rlar sirasiga kiradi.

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY VA ABDULLA QODIRIY IJODIDA MILLAT TALQINI

*Normurod Avazov -f.f.n., dotsent, Toshkent davlat san'at va madaniyat instituti*

**Annotatsiya:** Maqolada Behbudiy va Abdulla Qodiriyning ijodida millat va uning kelajagi uchun kurash, millat qayg'usi masalalari aks ettiriladi. Shuningdek, Behbudiy va Abdulla Qodiriy ijodidagi ayni davrga xos bo'lgan muammolarni o'rganishga qaratiladi. Ularning asarlari qiyosiy ravishda tahlil etiladi.

**Аннотация:** В статье отражена борьба Бехбуди и Абдуллы Кадири за нацию и национальное горе ее будущее. Кроме того, Бехбуди и Абдулла Кадири сосредоточены на решении текущих задач в своей работе. Их работы анализируются сравнительно.

**Abstract:** The article reflects the struggle of Behbudi and Abdullah Qadiri for the nation and national grief its future. In addition, Behbudi and Abdullah Qadiri are focused on solving current problems in their work. Their work is analyzed comparatively

**Kalit so'zlar:** millat, moziy, istiqbol, ma'rifatsizlik, o'lka, baxtsiz kuyov, xayrlik, Turkiston, mustamlakachi, islohat

**Ключевые слова:** нация, мази, перспектива, невежество, страна, несчастный жених, добро, Туркестан, колониализм, реформы.

**Keywords:** nation, ointments, perspective, ignorance, country, unfortunate groom, goodness, Turkestan, colonialism, reforms.

Behbudiy aytgan "Moziy – istiqbolning tarozisidir" mashhur iborasi, A.Qodiriyning "Moziyg'a qaytib ish ko'rish xayrlik, deydilar" iborasi o'rtasida bog'liqlik bu tasodif emas, aksincha bu ikki ashrof zotlarning kelajakka bo'lgan murojaatlari edi. Shu jihatidan bu ikki siymoning ijodiga murojat qilish, ularni o'rganish va taqqoslash xayrlik ishdir. Qolaversa, har bir qalam tebratuvchida mamnuniyat hissini uyg'otadi yoki farz va qarz degan xulosalarni ko'z oldingizda jonlantiradi.

Mahmudxo'ja Behbudiy va Abdulla Qodiriy nomlarini bir – birlariga yonma – yon qo'yar ekanmiz, bu ahli solih insonlarning ijodidagi topqirliklar, jo'shqinliklar, nozik tuyg'ular, jasoratlar, islohot uchun kurashlar ularning ijodlarini yagona maqsadlarga birlashtiradi.

Behbudiy Turkiston o'lkasida ma'rifatsizlikdan ota qotiliga aylanib borayotgan farzandlarning tarbiyasini birinchi o'ringa qo'ydi. U qadimiylar va mustamlakachilar sirtmog'idan faqat ma'rifiy yo'l bilangina qutilishning tamoyillarini ishlab chiqdi. Uning "Padarkush"i o'lkada mavjud bo'lgan tarbiyasizlik illati uchun tipik asar bo'lgan bo'lsa, A.Qodiriy ham "Padarkush" ning orqasidan "Baxtsiz kuyov"ni yozdi (1915)<sup>1</sup>.

Turkiston o'lkasida xalqning ma'rifatsizligi orqasidan yoshlar xatolarga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, A.Qodiriyning "Baxtsiz kuyov"da o'lkada mavjud bo'lgan illat ya'ni orzu – havas deb yoshlarning hayotlarini qurbon qilishi o'zbeklar hayotidagi tipik xususiyat ko'rinishi sifatida tasvirlanadi.

Abdulla Qodiriyning butun ijodida millat va uning kelajagi, milliylik aks etib turadi. Jumladan, uning "Ahvolimiz", "To'y", "Millatimga bir qaror", "Fikr aylag'il" she'rlari mavjud. "Fikr aylag'il" she'ri Behbudiyning "Oyna" jurnalida 1915-yil 12-sonida bosilib chiqqan. Shuningdek, "Millatimga bir qaror" she'ri millatga xitobnoma tarzida yozilgan<sup>2</sup>.

A.Qodiriyning publitsistik ijodiga qaraladigan bo'lsa, millat va uning taqdiri bilan bog'liq mavzularidagi hamohanglik, dadillik, topqirliklar, muammolarni hal etishga qaratilgan kuchli tanqidiy qarashlari, Behbudiy boshlab bergan Turkistonni islohatlarga aylantirish g'oyasi amaliy jihatdan maydonga chiqqanligi bilan ajralib turadi. Mustamlakchilik davridagi shafqatsizliklar ham ochib tashlanadi. Jumladan, "Saylovmi, bosqinchilikmi?", "Qimmatchilik hasrati", "Dumbasi tushub qolgan emish", "Tilanchilik

1 A.Qodiriy. Baxtsiz kuyov. Jadid dramasi. – T.: "Sharq", 1997. – 173-194.

2 A.Qodiriy. Diyori bakr. Uchinchi jild – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. –B. 7-11.

yoxud yengil kasb”, “Bozor surushtirmaydur”, “Azob boqchasida yig’i – sig’i kechasi”, “Qazoyi osmoniyalar”, “Haqiqat – ochib so’zlashdadur”, “Qurbonlik o’g’rilari”, “Mochalov”, “Layli va Majnun”, “Dardi yo’q kessak”, “Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” kabilar shular jumlasidandir.

A.Qodiriyning “Mochalov”<sup>3</sup>nomli (kichkina felyeton-muallif) asari ayni davrning voqeasini real ko’rsatib berishi bilan alohida ajralib turadi. Mavzu nima uchun “Mochalov”. U Chor Rossiyasining generali. Bosqinchilik davrining shafqatsizlikda tengi yo’q jallodi. Muallif u generalni “qahramon” qilib olgan. Uni butun Turkiston o’lkasida yetti yoshdan yetmish yoshgacha hamma tanigan. Taniganda ham qo’rquvdan tanigan. Chunki, uning zolimligidan “homilalik xotunlar bola tashlar, yig’loq bolalar yig’idan to’xtar, dag’dag’ali zolimonangni tatig’an benovalar dir-dir qaltirar edilar”. Millatga zulm o’tkazgan, mahalliy xalqni tahqirlab kelgan. Machalov mardikorlikka olingan o’z bolalarini xizmatdan bo’shatilishini so’rab borgan millatning vakillarini (xalqni) o’qqa tutib qirib tashlagan. Uch mingdan ziyod millat vakillarining talabi bilan Arxip Mixail Mochalov ayblovchi Akmal Ikromov guvohligida sud qilinib, otuvga hukm etilgan. Muallif yozadiki: “Albatta, qo’msaysan. Boshqalarini qo’msamasangda, iftrovovoy gildi (boylikka qarab beriladigan daraja) ko’paslar mehmonxonasida yegan palovlaringni, norinlaringni qo’msaysan. Pudratchilar, zavodchilar uylarida ichkan aroqlaringni, hafta sayin qozilardan kelib turatug’an paketlarni, ayniqsa, 1916-yil rabochiy voqeasida davlatxonangga arz-dod uchun borg’anlarni otib, gunohsiz qonlarni suv o’rnig’a ichishlaringni qo’msaysan!. Falakning gardishi qurib, uyi kuysunki, saning mash’um kunlaringni qaytub kelmaslik etub, tuzatdi”<sup>4</sup>.

Maxmudxo’ja Behbudiy va Abdulla Qodiriyning publitsistik ijodida hamohanglikni ko’rish mumkin. Behbudiy Turkistonda saylov mavzusiga ko’p marta murojaat qilgan. Ayni paytda mavjud bo’lgan mustamlakachilarning yuqori organi sifatida дума faoliyat olib borar edi. Davlat ahamiyatiga molik barcha masalalar dumada ko’rib chiqilgan. Shuning uchun ham Behbudiy matbuotlarda millatning kelajagi uchun дума xususida ko’plab

muammolarni ko’tardi. Uning “3 dumaning aladdul ehtiromon musulmon fraksiyasi rijoli mujohidlari majlislarina”, “2 дума fraksiyasi islomiyaning xizmat oliylarina “ifoda”, “G” Duma xususida”, “Loyiha – projekt”, “Saylov haqida”, “Saylangan mansabdor shaxslarning tasdiq qilinishi haqida”, “Gasudarstvennoy дума vakillari xususida”, “Duma va Turkiston” maqolalari aynan saylov va дума faoliyatini amalga oshirish bilan bog’liq. Uning “Saylov haqida” maqolasida Samarqand hududi bilan bog’liq saylovlarning natijalari tahlil qilinadi. Maqolada Samarqand uyezdi hokimligiga, bo’lis boshqaruv rahbarlik lavozimiga, shu uyezning qozilik mansablariga saylov o’tkazish tartiblari yoritiladi. “Janob uyezd hokimi hurmatlik polkovnik Chertov baldamizni barcha ellikboshilari borasig’a qilgan nasihat va nutqi xayriyalari ta’sirli va yaxshi natijali bo’ldi. Nutqlarini moliy tergov ko’rmagan, noinsof mullo odamlarning saylanmoqlarig’a amir edi”. Ko’rinaydiki, chor hukumati vakili дума saylovida ishtirok etmoqda. U harbiy lavozimdagi polkovnik, uyezdning boshlig’i sifatida qayta saylanmoqda. Mustamlakachilik tizimidagi yozilmagan qonunlarga ko’ra imperiya tomonidan ko’rsatilgan vakil albatta saylovda g’oliblikni qo’lga kiritishi kerak bo’ladi. Go’yoki, saylov xalqning ko’zida o’tkazilib, ammo amalda harbiy boshqaruv joriy etilgan edi.

Behbudiyning “Saylov haqida”gi turkum maqolasining davomi 1903-yilning 10-sentyabrida “Turkiston viloyatining gazetisi”da e’lon qilindi. Bu safar maqolada uyezd boshliqlari va qozilik lavozimiga saylov o’tkazish hamda uning natijalari tahlil qilinadi. “Uezdimizni murakkab bo’lg’uvchi ba’zi syezdlarig’a barkamol qozi ko’rilmaydur. Bo’listlarda qozilik va darsgo’ylik qilib to’rg’uvchi mullolar bordur, onlar o’zlari talab va harakat qilmaydurlar, holbukim, bu nafroti arbaa qazo mansabining idora etmoqindan ojizdurlar. Azbaski, ilmi shariat va ham Turkiston muzofatig’a joriy etilgan nizomlaridan kullisi bexabardurlar”, deb uyezd boshliqlari va qozilarni tanqid ostiga oladi.

A.Qodiriyning 1917-yil 4-avgustda “Ulug’ Turkiston” gazetasida “Saylovmi, bosqinchilikmi?” maqolasi Mazlum taxallusi bilan e’lon qilingan. Maqolada Toshkent

shahar dumasiga navbatdagi qayta saylov o’tkazish masalasi obyekt qilib olingan. Bu yerda eskilikni yoqlovchi “Ulamov” jamiyati, taraqqiyparvarlardan iborat “Sho’roi islomiya” jamiyati va bolsheviklar orasidagi nomzodlik uchun kurash masalalari o’z aksini topadi. Bu yerda qo’llarida uchunchi no’mir qog’oz ushlangan mullalar va mahalla imomlari dastlab bo’lub, kontro’l ravishida tekshirib, agarda uchunchi tarafdori bo’lsa xo’b, o’nunchi bo’lsa necha xil mazammot (tubanlik)ila qo’llidan konvertin olib, o’z qo’llaridagi uchunchi joylangan konvertin bermakda edilar. Saylov butun bosqunchilik holin olgan edi”.

Ko’rinaydiki, A.Qodiriy saylovda katta sallalik mullalarning odamlarga qarata targ’ibotlarini kuchaytirganliklariga e’tibor qaratadi. Ular agarda shu masalani hal qilmasalar kofir bo’lasanlar deb fuqarolarga majburiyatlar yuklab qo’yidilar. Ularning bunday tajavuzkarona harakatlarini ko’rgan muallif ham tashvishga tushadi.

A.Qodiriyning aytishicha, “bu saylovimiz yashirin, tekiz, har kishining xohishicha bo’lmay, ulamov, boy va maxdumlar bosqinchiligi ostida ijro etildi”, deb saylovning adolatsizlarcha o’tganligini tanqid ostiga oladi. Chunki, saylov o’tkazishda hurriyat va huquqqa qarshi bo’lgan eskilik tarafdorlarining ko’pligi hammani hayratga solganligi tasvirlanadi.

Tadqiqotlarning davomida ko’rinadiki, ayni davrda Behbudiy saylov orqali Turkiston o’lkasidagi chiqishlari diqqatga sazavordir. Uning “Duma va Turkiston” maqolasi ham aynan saylov muammolarini o’zida mujassamlashtirgan. Undagi asosiy masala Turkistonning kelajagi uchun saylovlarni o’tkazish orqali islohatlarni amalga oshirishdir. Oldinga qarab intilish natijasida yutuqlarni qo’lga kiritish kerakligi aytiladi. Ya’ni “diniy va dunyoviy va zamoniy va iqtisodiy, moliy va siyosiy, xulosa, jami barcha diniy va dunyoviy ishlarni taraqqiy qildirmoq uchun har birini to’g’risig’a bahs - munozara va muzokara kerak va agar sukut ila o’tkarilsa, har tarafdin siqilib va qisilib, olloh saqlasun, o’n-yigirma yillardan so’ngra din va maishatimizg’a ko’p futurlar kelar. Tadriji din va dunyolikda xor va zaifroq bo’larmiz”, deydi. Shuning uchun dumaga saylanadigan nomzodlar masalasiga alohida e’tibor qaratish, ular ham mahalliy millat, xalq vakillaridan bo’lishi maqsadga

muvofiqligi aytiladi. “Birinchii dumag’a bizdan vakil borgan yo’q. Ikkinchig’a bordi va ammo oz. Turkistonni besh oblastig’a o’n milliyong’a yaqin musulmon 6 nafardan vakil talab qilinib erdi. Hanuz bizni dard va talabimizni bayon qilinmasdan ilgari ikkinchi дума vakillarini so’zi fuqaro nafi va hukumat zararig’a bo’lgan uchun va ba’zi vakillarini fikri balki din va hukumatni buzmoqchi bo’lgani uchun qoldilar. Uchunchi дума uchun saylov qoidasi e’lon qilindi. Biz, Turkistonliklar va Sibir xalqlarini uchunchi dumag’a vakil yubormoqdan vaqtincha mahrum qilinubdur”.

Behbudiy ayni paytda mamlakatning taqdirini, mahalliy millat, xalq taqdirini dumaga qo’yilayotgan masalalarning hal etilishiga qaratadi. Dumada mahalliy xalqning ishtirok etmayotganligidan qayg’urdi. Chunki, u deydi: “Uchunchi дума birinchi noyabrdan ochilib yana rus, yahudiy, polyak, armani, xulosa, 400 dan ziyoda har xil vakillar va to’rt – beshg’ina tatar vakillari Rusiyadagi bir yuz o’ttiz million xalqni diniy va dunyoviy tiriklikg’a teyishli ishlar to’g’risida muzokara qilishib, yangi nizom va zakunlar chiqaradilar va yoyinki, hukumatning alarg’a topshurgan yangi zakun loyihalarini bahs-munozara qilishib, ba’zi radj va aksarini mustahkam qiladurlar. Ya’ni uchunchi дума barcha Rusiya tabaasi uchun yangi nizomlar chiqaradurlar”.

Behbudiy dumada amalga oshirilayotgan boshqa ilg’or millat vakillarining islohotlariga havas bilan qaraydi. Ularning yangi qonunlarni amaliyotga joriy etishlarini g’urur bilan keltiradi. Chunki, ularning o’zlarining manfaatlari uchun qilayotgan harakatlari Behbudiyning tashvishiga soladi. Chunki, ularning chiqarayotgan qonunlari mahalliy xalq vakillarining manfaatlari ifoda etmasligiga achinadi. Behbudiy aytadiki: “Diniy va dunyoviy ishi davlat dumasig’a topshirilgandurki, anda bir murofaa emas, muhorabai ma’naviy maydoni ko’rinur. Har toifani hayot va mamot oyandasi dumag’a bog’liqdur. Bizni oyandag’a baxtlik va yo baxtsiz bo’lishimiz Duma ixtiyorindadir”.

Natijada Behbudiy Turkiston o’lka xalqiga murojaat etib, agarda kelajak uchun ishlamasak, bora – bora shariat va maishatimiz qo’limizdan ketar, deydi. Aytadiki: “Ey Turkiston musulmonlari, birodarlar, ibrat nazari ila boqing, holimiz nadur, bu kun bu ishda sa’y qilmasak, ertag’a din va maishatimizg’a zarar

3 A.Qodiriy. *Diyoriy bakr.Uchinchi jild. – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. –B. 7-153.*

4 A.Qodiriy. *Mochalov. – Toshkent: "Info Kapital Group", 2017. –B. 7-154.*

kelar, so'ngra ilojsiz qolurmiz"<sup>5</sup>.

A.Qodiriyning maqolalarini o'qir ekanmiz, Behbudiy boshlagan millat bo'yicha harakatlari, jasoratlarining davomiyligini unda ko'ramiz. Behbudiy o'zining chiqishlarida saylov orqali vakillarni yuborib, hukumatda mamlakatning xalqi muammolarini hal etishni istagan bo'lsa, A.Qodiriy "Saylovmi, bosqinchilikmi?" maqolasi orqali eski hukumatning zolimlari saylovda fuqarolarning huquqlarini paymol etayotganliklarini, ularning hurriyatga to'sqinlik qilayotganliklarini yozadi. Ya'ni, maqolada shahar dumasiga qayta saylov o'tkazilish tafsilotlari ta'sirlanadi. Saylovda eskilik tarafdorlari bo'lgan "Ulamo" jamiyati, taraqqiyparvarlarning "Sho'roi islomiya" jamiyatlari va bolsheviklar orasida nomzodlik uchun kurash jarayonlari tasvirlanadi.

A.Qodiriyning "Shodmarg" maqolasi esa, Behbudiyning "Duma va Turkiston"dagi g'oyalarini keyingi yillarda rivojlantirganligini ko'ramiz. Behbudiy maqolasidagi asosiy qahramon Turkiston o'lka millat vakili, xalqidir. U Turkiston o'lka xalqini o'qitish, bilimni qilish, tillarni o'rgatish, huquqqa ega bo'lish, dumada ovoz egallash masalalarini qo'yadi.

A.Qodiriyning qahramoni Behbudiyning qahramoniga qaraganida Turkiston o'lkasida islohot uchun kurashuvchi real shaxs hisoblanadi. U Turkiston o'lkasidagi mavjud tuzumga qarshi bora oladigan, kurashadigan milliy qahramon. Ko'rinyapdiki, Qodiriyning milliy qahramoni nohaqliklarni ko'raolmasdan ularni xoinlar, zolimlar deb aytadi. Soxta

saylov orqali qozilikka kelganlar Karim xojini ustidan ariza yozib, hukumatni va ularning a'zolarini zolimlikda ayblashganini vaj qilib, uni turmaga qamattirdilar. Ko'rinadiki, Qodiriyning qahramoni jamoat uchun, xalqning kelajagini hal qiluvchi saylov ishi uchun jonini berib bo'lsada, to'g'rilik uchun kurashadi. Ya'ni, hukumatni zolim debsan deya so'ralganida: "Juda to'g'ri dedim, chunki hukumat jamoatning saylag'an kishisini jamoat ishiga kiritmaydilar, o'z tilovinchasi ish yuritadir. Jamoat biror foyda - zararni ajratuvchini saylovga qaror bersa, darrov hukumat va hukumat bo'rilari sapchiydilar", dedi.

Qodiriyning qahramoni Karim hoji jabrlarni ko'rdi. Uning yoshi ham bir joyga bordi. Har kuni u o'g'lidan yangi xabar kutar edi. Ayni kunda o'g'li: "Suyunchi bering ota! Xalq va askar bir bo'lib, hukumatni o'rnidan tushurgan, hamma ish xalq qo'lga o'tgan, eski hukumat ma'murlari o'rnidan tushurilib, qo'lga oling'on, minstrlar ham hibbs etilg'on, podsho ham qamalg'on, hurriyat e'lon qiling'on, dedi".

Qodiriyning qahramoni Karim hoji ota: - Hurriyat, deb orqasiga yiqildi. Muallifning qahramoni xursandchilikdan, sevinchi ichiga sig'maganidan ya'ni shodmargdan o'ldi.

Xullaski, Behbudiyning qahramoni orzu qilgan istiqlolni Qodiriyning qahramoni ko'rdi. Chunki u butun umrini hurriyat uchun kurashga bag'ishladi. Hurriyat yetib kelganidan, shodligidan yorilib o'ldi. Ammo, u niyatiga yetdi. Chunki, uning xalqi hurriyatga erishdi. Demakki, "Haq olinur, berilmas".

## O'ZGA GAP GRAMMATIKASI

Shoxida Isoqovna Siddiqova - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'zga gap grammatikasi, xususan, sintaksisi haqida fikr yuritiladi. O'zga gap va uning turlarini ham muayyan matn doirasida tadqiq qilish, grammatik xususiyatlarini aniqlash, o'zga gaplarning sintaktik imkoniyatlarini ochib berish, ko'chirma gapli qo'shma gaplarning qo'shma gaplar tizimida tutgan o'rnini milliy tillar misolida belgilash tilshunoslikdagi dolzarb masalalardan biri ekanligi ayrim mulohazalar orqali ifodalanadi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается грамматика второго предложения, в частности синтаксис. В этом смысле исследование иноязычных придаточных предложений и их типов в пределах конкретного текста, определение их грамматических особенностей, выявление синтаксических возможностей иноязычных придаточных предложений, места придаточных предложений в системе союзов в национальных языках на примере выражается через некоторые соображения о том, что маркировка является одной из актуальных проблем языкознания.

**Abstract:** This article discusses the grammar of the second sentence, in particular, the syntax. In this sense, the research of foreign clauses and their types within a specific text, determining their grammatical features, revealing the syntactic possibilities of foreign clauses, the place of clauses in the system of conjunctions in national languages in the example, it is expressed through some considerations that marking is one of the actual issues in linguistics.

**Kalit so'zlar:** o'zga gap grammatikasi, lisoniy birliklarning grammatik tabiati, o'zga gap turlari, ko'chirma gap, o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap, o'zlashtirma gap.

**Ключевые слова:** грамматика чужой речи, грамматическая природа языковых единиц, виды чужой речи, прямая речь, несобственная прямая речь, косвенная речь.

**Keywords:** foreign clause grammar, grammatical nature of linguistic units, types of foreign clauses, derivative clause, non-proprietary clause, adopted clause.

Jahon tilshunosligida o'zga gap kommunikativ-sintaktik va lingvopoetik grammatikasi (sintaksisi), o'zga gap turlaridan imkoniyatlari yetarlicha aniqlanmagan. Ushbu bo'lgan ko'chirma, o'zlashtirma va o'ziniki jarayonlar rus tilshunosligida alohida tadqiq bo'lmagan ko'chirma gaplarning grammatik qilingan. Shubhasizki, ta'lim taraqqiyotini tabiatiga bo'lgan qiziqish hech qachon tilning o'ziga xos teran qonuniyatlarini yanada so'nmagan. So'nggi paytlarda o'zga gap chuqurroq o'rganishsiz, uning bevosita turlari bo'yicha olib borilayotgan tadqiqotlar tabiatiga xos jihatlarning xolis talqinlarisiz ko'payib bormoqda, uning matn tarkibida tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, o'zga o'rinlashishi muammosi ko'p vaqtlardan gap ifodalanishining barcha ko'rinishlari va beri tadqiqotchilarning diqqat markazidan ularning o'ziga xos xususiyatlarini alohida tushmay keladi. Til tadqiqida matn va uning tadqiqot obyektida maxsus o'rganishni taqozo qiladi. o'ziga xos o'zga gap turlarining tarkibiy doirasida maxsus o'rganishni taqozo qiladi.

Albatta, har qanday jamiyat a'zosi, har bir shaxs o'z bilimlarini o'zidan oldingilarning bilimlariga tayangan holda shakllantirar, yaratar va rivojlantirar ekan, u, tabiiyki, boshqalar bilimlariga murojaat qiladi. Bilim-tajriba mahsuli, dunyoni bilish yo'lidagi izlanishlar samarasi og'zaki yoki yozma shakldagi matnlar tarzida namoyon bo'ladi. Zotan, prof. Sh.Rahmatullaev alohida e'tibor qaratganidek, nutq - miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalaridan foydalanish jarayoni, shu jarayonning hosilasi, nutq jarayonining hosilasi tekst - matn deb

yuritiladi<sup>1</sup>.

Demakki, matnda faqat muallifning o'ziga tegishli nutq bilan bir qatorda unga tegishli bo'lmagan nutq yoki nutq parchasi ham ishtirok etadi, ya'ni o'z gap bilan o'zga gapning hamkorligi yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, ilmiy matnda juda keng kuzatiladi. N.Mahmudov alohida va to'g'ri qayd etib o'tganidek, "faqat muallifning o'z gapidan, demakki, o'z fikridangina iborat ilmiy matn bo'lishi mumkin emas, ilmiy matnda muqarrar va majburiy ravishda o'zganing gapi ham ishtirok etadi. Tabiiyki, matnda "o'zniki", "o'zning gapi" va "o'zganiki", "o'zganing gapi" turli shakl va ko'rinishlarda, xilma-xil usullarda hamkorlik qiladi, albatta, bunda "o'zniki", "o'zning gapi" birlamchi, yetakchi, asos sifatida namoyon bo'ladi, "o'zganiki", "o'zganing gapi" esa ikkilamchi, yordamchi maqomda bo'ladi. Intertekstuallik talqinlarida asosiy hollarida "o'zniki", "o'zning gapi", "o'zning nutqi", "o'zning ovozi" kabi ifoda va tushunchalar "o'zganiki", "o'zganing gapi", "o'zganing nutqi", "o'zganing ovozi" kabi tushunchalar bir-biriga zidlanadi va mazkur hodisa bu ikki tur tushunchalar o'rtasidagi dialog, hamkorlik tarzida izohlanadi"<sup>2</sup>. Tabiiyki, o'zning gapi bilan o'zganing gapi o'rtasidagi munosabat ilmiy matndan tashqari har qanday matnda ham kuzatiladi. Ammo, shubhasizki, ilmiy matnning bosh maqsadiga, ya'ni bilimlarni yaratish, to'plash va umumlashtirish maqsadiga muvofiq unda o'zganing gapiga bo'lgan ehtiyoj sezilarli darajada ortiq bo'ladi.

Albatta, o'z gap matn muallifining o'ziniki, o'zga gap esa matn muallifiga tegishli emas, shu jihatdan ular bir-biriga zidlanadi. Ammo ular matn maqsadining, to'liq va tiniq, aniq va xolis ifodalanishida hamkorlik qiladi. Bu o'rinda ta'kidlab o'tish lozimki, o'z va o'zga gapning o'zaro zidlanishi, ayni paytda ularning hamkorligi matn tiplariga ko'ra o'ziga xos bo'ladi, farqlanadi.

Filologiya ilmida matnlarning, eng avvalo, nobadiiy va badiiy tiplarini farqlash zaruriyati e'tirof etilgan, chunki ular mohiyatan bir-biridan farqlanadi. Badiiy matn lingvopoetikasini jiddiy tadqiq etgan M.Yo'ldoshevning asosli ravishda qayd etishicha, "matnning maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining – kommunikativ vazifaningmi yoki estetik vazifaningmi – yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv

tipini farqlash zarur, ya'ni 1) badiiy matn va 2) nobadiiy matn. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad-mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul"<sup>3</sup>.

O'zganing gapini o'z gap tarkibiga, ya'ni o'zga gapga tegishli matn parchasini o'z matn ichiga olib kirishning ham, tabiiyki, xilma-xil ko'rinishlari mavjud, shunga ko'ra tilshunoslikda o'zga gapning bir qator turlari farqlanadi. Albatta, bunda matn tipi ham hal qiluvchi rol o'ynaydi, ya'ni bu ko'rinishlardan qaysi birini tanlashni tabiiy ravishda matn tipi hal qiladi. Masalan, nobadiiy matnning tipik ko'rinishlaridan biri bo'lgan ilmiy matndagi o'zga gapning maqomi ham, maqsad-vazifasi ham badiiy matndagidan farq qilishini isbotlab o'tirishning hojati yo'q. O'zga gapni matnga kiritish ko'rinishlaridan biri sanalgan iqtibos (sitata)ni olib ko'radigan bo'lsak, iqtiboslashtirish, eng avvalo, ilmiy matnga xos hodisa ekanligini ko'rish mumkin<sup>4</sup>. N.Mahmudov "har qanday matnda matn yaratuvchi shaxsdan oldin boshqalar tomonidan qo'lga kiritilgan bilim-tajribalar muayyan shakllarda ishtirok etishini", "buni e'tirof va qayd etish axloq tamoyillaridan biri" ekanligini, "avvalgi yoki eski bilim-tajribalarni matnga olib kirishning xilma-xil shakllari mavjud" bo'lib, "bu shakllar orasida esa iqtibos favqulodda alohida o'rin tutishini" ta'kidlaydi. U ayni paytda yana quyidagi fikrlarni qayd etadi: "Bugun ilmiy matn tarkibini iqtiboslarsiz tasavvur ham etib bo'lmaydi. Tadqiqotchilar ta'kidlaganlariday, iqtibos zamonaviy fan talining bevosita tashkil etuvchisi, zamonaviy ilmiy matn kompozitsiyasining teng huquqli unsuridir. Iqtiboslar, ayniqsa, bugungi kunda ilmiy matnlarning o'ziga xos ko'rsatkichiga aylanib bo'lganligi ham haqiqat. Ammo ilmiy matn yaratilar ekan, o'rinli-o'rinsiz, huda-behuda "iqtibosbozlik"ka berilish ham to'g'ri emas, chunki iqtibos faqat ko'rinish emas, balki muhim mohiyatdir. Iqtibosning ilmiy matn tarkibidagi o'zining zaruriy o'rnini topish, ilmiy maqsadga tamoman muvofiq ravishda, yangi bilimning tarkib topishiga xizmat qiladigan holatda qo'llash zaruriy shartlardandir"<sup>5</sup>. Badiiy matnda esa iqtibos badiiy maqsadlar bilan qo'llanadi va ilmiy matndagi kabi keng tarqalgan emas. Shuni ham aytish kerakki, masalan, o'zga gapni matnga olib kirish

1 Раҳматуллаев Ш. Тил қурилишининг асосий бирликлари. – Тошкент: Университет, 2002. –Б. 2.

2 Маҳмудов Н. Қўрсатилган мақола. –Б.9 – 10.

3 Йўлдошев М. Бадий матн лингвopoетикаси. –Тошкент: Фан, 2008. –Б.87.

4 Яна қар.: Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. –М.: Наука, 1981. –С.58.

5 Маҳмудов Н. Илмий матн ва иқтибос // Ўзбек тили ва адабиёти. –2017. –№6. –Б.31-33.

usullaridan sanaladigan o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gap faqat badiiy matnga xos bo'lib, bunday o'zga gap turidan ilmiy yoki rasmiy matnda deyarli foydalanilmaydi.

Shuni ham aytib o'tmoq foydadan holi emaski, o'zga gapni faqat grammatik hodisa sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq emas. O'zga gap tushunchasini faqat grammatik nuqtayi nazardan baholab bo'lmaydi, aslida u matnga xos tushunchadir, demak, uni faqat gap doirasida o'rganib bo'lmaydi.

Ayni paytda, ayniqsa, badiiy asarda matn yaxlitligicha muayyan muallifga tegishli, demak, unda turli ko'rinishlarda ifodalangan o'zganing gapi ham aslida ijodkor muallifning o'ziniki. N.L.Baydikova alohida ta'kidlaganidek, "o'zga nutq" tushunchasi mutlaqo shartli, chunki asar yaxlitligicha mohiyatan muallifning nuqtidir. Ammo badiiy asarda muallif o'zining to'qima personajlarining xarakteristikasini, shu jumladan, nutqiy xarakteristikalarini chizadi. Bu o'rinda o'zga nutq deganda muallif tomonidan berilgan qahramonlar nutqi tushuniladi"<sup>6</sup>.

Matnga, tabiiyki, o'zganing gapi so'zlovchining turli kommunikativ, ekspressiv, emotsional, poetik va boshqa maqsadlariga muvofiq olib kiritiladi. Rustilitadqiqotchilari o'zga gapli konstruksiyalarning matnda quyidagi vazifalarini qayd etadilar: kommunikativ, apellyativ, poetik, emotiv (ekspressiv), fatik, metatil<sup>7</sup>.

Shuning uchun ham o'z va o'zga gap o'rtasidagi oppozitiv munosabatni faqat grammatik aspektda o'rganib bo'lmaydi. Lekin unutmash lozimki, til hodisalarini o'rganishda grammatikadan tamoman voz kechib bo'lmaydi. Rus tilshunosi I.I.Popova o'rinli ta'kidlaganidek, "so'nggi yillardagi ishlarda o'zga nutqqa grammatik nuqtai nazardan yondashish sezilarli darajada kuchsizlangan, o'zga gapning sof lisoniy belgilari e'tibordan chetda qolmoqda", bular, albatta, maqsadga muvofiq emas<sup>8</sup>. O'zga gap va uning turlarini kognitiv, pragmatik, kommunikativ va lingvopoetik aspektlarda hamda yaxlit matnning tashkil etuvchisi sifatida o'rganish mazkur hodisaning mohiyatini to'laroq ochish imkoniyatini beradi. "O'zga nutq" (o'zga gap)ni faqat "kommunikativ strategiya",

kommunikativ niyat, maqsad bilangina bog'lab qo'yish<sup>9</sup>, undagi juda katta stilistik va lingvopoetik potensialni e'tibordan tamoman soqit qilish unchalik ham maqsadga muvofiq emasday ko'rinadi.

Ta'kidlash kerakki, "o'z gap" va "o'zga gap" tushunchalaridagi gap so'zi ifodalagan ma'no bevosita grammatik mohiyatga ega emas, mazkur ifodalarda o'zning nutqi va o'zganing nutqi nazarda tutiladi. Ulardagi gap so'zining ma'nosi "darak gap", "so'roq gap", "undov gap", "sodda gap", "qo'shma gap" kabi terminlardagidan tamoman farq qiladi. O'z va o'zga gap orasidagi farqning asosi ular tegishli bo'lgan subyektlaridadir. Buning ustiga, o'z gap yoki o'zga gap deganimiz faqat grammatik bir gapdangina iborat bo'lavermaydi, ular bir necha gaplarni ham o'z ichiga olavermaydi, zotan, rus tilshunosligida mazkur tushunchalar uchun "чужая речь", "своя (собственная) речь" terminlari qo'llanadi.

Muxtasar xulosa qiladigan bo'lsak, so'zlovchi fikr ifodalash jarayonida birgina o'z nutqi, ya'ni hikoyachilik bilan chegaralanib qolmaydi. U o'z kommunikativ maqsadi, nutq jarayoni, suhbat mavzusi, mavjud badiiy yoki nobadiiy ifoda imkoniyatidan kelib chiqib, o'rni bilan boshqalarning gaplaridan ham foydalanadi. O'zga gap termini ostida tushuniluvchi boshqalarning gapi so'zlovchi yoki yozuvchi nutqiga kiritilgan yangi, semantik-struktur jihatdan shakllangan, stilistik yoki lingvopoetik qimmatga ega bo'lgan nutqiy parchalardir. Tilimizda o'zga gap ishtirokidagi qurilmalarning o'ziga xosligi ularning tarkibi, tuzilishi, kommunikatsiya jarayonida qanday vazifani bajarish uchun xoslanganligi, grammatik xususiyatlari, lingvopoetik qimmatini, hatto prosodiyasi nutqning shakliga ham bog'liq. Og'zaki va yozma nutqda so'zlovchi va yozuvchining fikr ifodalash imkoniyatlari cheksiz. So'zlovchi yoki yozuvchining kommunikativ maqsadi, nutqiy vaziyat, nolisoniy omillarga bog'liq holda o'zga nutqini berishning yo'llari ham turlicha bo'ladi. So'zlovchining kommunikativ maqsadi qanday bo'lishiga qarab gapning turli ko'rinishlari yuzaga keladi.

6 Байдикова Н.Л. Формально-стилистические характеристики способов передачи чужой речи (на материале англоязычных художественных произведений) // Научный диалог. –Екатеринбург. –2018. –№3. –С.20.

7 Винокур Т.Г., Гловинская М.Я., Голованова Е.И. и др. Русский язык в его функционировании: Коммуникативно-прагматический аспект. –М.: Наука, 1993. –С.76 – 78.

8 Попова И.С. К вопросу использования чужих слов в устнопорождаемой речи / journals.tsu.ru/uploads/import/1445/files/2(34)\_077.pdf

9 Масалан, қар.: Максимова Н.В. "Чужая речь" как коммуникативная стратегия. Автореф. дисс. ...док. филол. наук. –Санкт-Петербург, 2006.

## SHE'RIY TURKUMLARDA SYUJET MASALASI

*Obidaxon Xolbekovna Fayzullayeva - dotsent, Guliston davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada she'riy turkumlarda lirik syujet masalasi meditatif lirika namunalari misolida tadqiq etilgan. Lirik syujetning qahramon kechinmasi tavsifi orqali namoyon bo'lishiga alohida e'tibor qaratilib, kechinma tavsifi tadrijiy shaklda ifodalanganligi uchun ham syujet unsurlari vazifasini turkum tarkibidagi she'rlar bajarishi tahlillar yordamida aniqlangan. Turkum she'rlardagi yangicha poetik mushohadakorlik va metaforalar asosida fikrlashning ahamiyati ham qisman o'rganilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос о лирическом сюжете в поэтических циклах на примере примеров медитативной лирики. Особое внимание уделено проявлению лирического сюжета через описание переживаний героя, а поскольку описание переживаний выражено в поэтапной форме, то анализом определяется, что стихотворения в ряду выполняют сюжетную функцию элементов. Также частично исследуется значение мышления на основе новых поэтических наблюдений и метафор в стихотворениях-циклах.

**Abstract:** In this article, the issue of the lyrical plot in poetic cycles is studied on the example of examples of meditative lyrics. Particular attention is paid to the manifestation of the lyrical plot through the description of the hero's experience, and because the description of the experience is expressed in a gradual form, it is determined by the analysis that the poems in the series perform the function of plot elements. The importance of thinking based on new poetic observations and metaphors in cycle poems is also partially studied.

**Kalit so'zlar:** she'riy turkum, maditativ lirika, qahramon, lirik syujet, kechinma tavsifi, modern she'r, poetik mushohadakorlik, metafora, syujet unsurlari, ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, kechinma rivoji, yechim va boshqalar.

**Ключевые слова:** поэтический цикл, медитативная лирика, герой, лирический сюжет, описание опыта, модерническая стихотворение, поэтическое наблюдение, метафора, сюжетные элементы, экспозиция, проблема, кульминация, развитие переживания, решение и др.

**Keywords:** poetic cycle, meditative lyric, hero, lyric plot, description of experience, modern poem, poetic observation, metaphor, plot elements, exposition, problem, climax, development of experience, solution, etc.

O'zbek adabiyotshunosligida lirik syujet haqida turli qarashlar mavjud bo'lib, ularda bu tushuncha kechinma tavsifi bilan bog'liq ekanligiga alohida urg'u berilgan. Lirik syujetdagi mazmun kechinmaning xarakter-xususiyati, uning zamon va makonga nisbatan obyektiv aloqadorligiga bog'liq bo'lishi haqida ham qarashlar mavjud: "Syujet masalasi lirik turda ham zamon va makon masalasi demakdir, zamon va makon masalasi esa tasvir joy-sharoiti, vaqt va hajm bilan aloqadordir"<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Adabiyotshunos olim Ummat To'ychiyev bu masalasini tadqiq etar ekan, syujetning she'rda aks etayotgan kechinmaning zamoni va makoniga aloqador ekanligiga alohida e'tibor qaratadi. "Syujet lirik asarlarning ham

mazmun, ham shakl xarakteriga ega bo'lgan unsurlaridan biridir"<sup>2</sup>. Yana ham aniqrog'i, lirik qahramonning xayoli, o'yi, kechinmalari ruhiy holatiga bog'liq ravishda aks ettirilayotgan sub'ektning ruhiy harakati lirik asarning syujetini tashkil etadi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, syujet meditatif lirika uchun ham xos ekanligini e'tirof etish zarur. "Sof lirika" ham deb yuritiladigan ushbu she'r turlarida, asosan, kechinma mavjud bo'lib, sharoiti aniqlashtirilmagan holat aks ettiriladi. Mana shu tur lirikada "fabula mavjud bo'ladi... Bunday lirikadagi syujetni "psixologik syujet" deb ham yuritilayotir"<sup>3</sup>. Olim lirikaning tavsifiy ko'rinishida ham lirik syujet o'zining asosiy unsurlari izchilligida namoyon bo'lishi xususida

<sup>1</sup> To'ychiyev U. Adabiy tur va janrlar. 3 tomlik, 2-tom. – T.: "Fan" nashriyoti, 1992, 27-bet.

<sup>2</sup> O'sha kitob, 28-bet.

<sup>3</sup> O'sha kitob, 29-bet.

so'zlamogda.

"Adabiyot nazariyasi" (2 tomlik) darsligida esa "...hodisa o'z mohiyati bilan poetik bo'lishi, o'zining tabiiy oqimi bilan shoir aytmogchi g'oyani "aytib turishi" shart, aks holda, syujetli lirika o'rniga tavsifiy lirika vujudga keladiki, bunday misollarni she'riyatimizda goh-goh uchratib turamiz"<sup>4</sup>, deyiladi. Ya'ni lirik she'rda syujetning tabiiy oqimiga bo'syunish me'yoriga amal qilinmasa, bayonchilik kelib chiqishi mumkin va bu she'r saviyasiga tabiiy ravishda putur yetkazishi mumkinligi haqida so'z bormogda. Bu o'rinda aytilgan tavsifiy lirika atamasi o'ziga xos salbiy ma'noda kelayotganligi seziladi.

Lirik syujet masalasi turkumlilikda ham shakllangan bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari turkum tarkibidagi she'rlarning kechinma tadrijida kuzatiladi. Kechinma tavsifining badiiy-estetik jihatlari she'rning barcha unsurlari, xususan, shoirning badiiy niyati, obrazlilik, unda badiiy tasvir vositalarining qo'llanilishi kabilar orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy o'zbek she'riyatida ko'plab she'riy turkumlar yaratilgan bo'lib, ularda o'ziga xos yangilanishlar kuzatiladi. Ayniqsa, kechinma tavsifidagi rang-baranglik shular jumlasidan. Bahrom Ro'zimuhammadning "Qur'onga tatabbu" turkumi ham sarbast she'r shaklida yaratilgan. 5 qismli bu turkumda asosiy mazmun "Qur'oni karim" mutolaasidan olingan taassurotlar ifodasi. 1-she'rda lirik qahramon o'zi bilmay Azozilning boshlagan yo'lidan yurgan adashgan banda kabi taassurot qoldiradi. 2-she'rda chittakdan ham kichik qushga aylantirilgan vujudga uchishni buyurishganda, u gunohlari zalvori qo'rg'oshincha bo'lganidan ucholmaganligi, ya'ni banda gunohi ko'pligidan parvoz qila olmaganligi xususida so'z boradi. 3-she'rda esa Fir'avnning tavqi lan'atga uchraganligi sababi va gumroh ekanligi haqida bo'lsa, 4-she'rda esa vaqti kelib, oxiri zamon kelganida Alloh bilan yuzma-yuz bo'lganda o'zini qanday tutish kerakligini bilmayotgan bandaning o'y-xayollari tarzida, 5-so'nggi she'rda Ollohning buyuk qudrati xususida so'z boradi:

*Tariqdek urug'ga  
bahaybat olamni jo etding  
suv va olovni birlashtirding sen<sup>5</sup>*

Nodir Jonuzoqning "Chilla" turkumi o'z nomiga munosib tarzda qirq qismdan iborat bo'lib, turkum tarkibidagi she'rlar to'rtliklar

<sup>4</sup> Jamoa. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – T.: "Fan" nashriyoti, 1978, 306-bet.

<sup>5</sup> Bahrom Ro'zimuhammad. Kunduz sarhadlari. – T.: Mehnat. 1999. 115-bet.

<sup>6</sup> Nodir Jonuzoq. Mehribonim. – T.: Sharq, 2008. 23-bet.

<sup>7</sup> Nodir Jonuzoq. Mehribonim. – T.: Sharq, 2008. 24-bet.

<sup>8</sup> O'sha kitob, 28-bet.

shaklida shakllantirilgan. Qofiyalanish tartibi a-a-b-a tarzida. Ushbu qirqta to'rtlikda bitta umumiy mazmun – Allohni tanish, uning marhamatiga musharraf bo'lish uchun o'zini gunohlardan poklash va tavba tazarru qilishdir. 1-she'r ekspozitsiya vazifasida kelgan. Unda Ollohga o'tinib, o'z oshiqlik holini bayon qilish aks ettirilgan.

*Ollohim, kim aytdi, o'yingdan kechdim?!  
Yo'q, yo'q, asrorimni bilmaydi hech kim.  
Ul qizning ko'zlari – pokiza qadah,  
Quyoshni eritib, qadahlab ichdim<sup>6</sup>.*

Ya'ni dunyoviy ma'shuqaga ko'ngil bergan lirik qahramon uning ko'zlarida quyosh, ya'ni Olloh jamolini ko'rganligini va o'shandan bahramand bo'layotganligini ta'kidlaydi, dunyoviy mahbubada Ollohning zarrasini ko'rayotganligi aytmogchi bo'ladi. Bu o'ziga xos tugun vazifasini o'tagan. Demak, ushbu turkum ham tasavvuf g'oyalari asoslangan she'rlar turkumi ekan.

*Tomirim bo'tana bo'lib toshadi,  
Qarog'im qirg'oqqa guhar sochadi:  
Qonimda irillar bir vahshiy yo'lbars,  
Ko'zimda bir o'rmon kiyik qochadi<sup>7</sup>.*

Ya'ni lirik qahramon bo'lgan suluk o'zligini unutish darajasida qalbiga Ollohga bo'lgan cheksiz muhabbatini jo qilganida o'zini qudratli his etganligidan tomiridagi qon bo'tana shakliga keladi, qarog'idan esa gavhar shaklida nurlar yog'iladi, o'zini yo'lbarsdek his etib, uning ko'z o'ngida bir o'rmon kiyik undan qochib ketayotgandek tuyuladi. Bu o'ziga xos kulminatsiya deyish mumkin.

*El mendan qochadi – qiladi gumon:  
"Uning otashidan qolmaymiz omon".  
Holbuki, quritsam qirqta dengizni,  
Ko'zyoshim bo'ladi qirq mingta ummon<sup>8</sup>.*

Bunda suluk o'zligini unutganidan devona holatiga tushgan, uning ohu-nolalari o'tidan omon qolmasliklaridan qo'rqqan olomon undan qochishga harakat qiladi. Ana shu holati bilan yoki qalbidan chiqayotgan otash o'ti bilan qirqta dengizni quritishi yoki to'kkan ko'zyoshlaridan qirq mingta ummon hosil bo'lishi haqidagi shoirona mushohadalarda mubolag'aning g'uluvv san'atidan mohirona foydalanilgan. Bu syujet chizig'idagi yechim unsuriga to'g'ri keladigan mazmundir.

Ollohim, lutf etding: - "Orzung ne – tila",  
Senga maqsudimni aytay qay til-la?  
Aslida Olami Kubrodan edim –



Qaytdimmi?! Bu umrim – kichik bir chilla<sup>9</sup>...

Ya'ni lirik qahramon bo'lgan so'fiydan tilak so'rashini aytishayotganligi uning Olami Kubrodan qaytganligini, ya'ni o'ziga kelib, oddiy bir bandaga aylanganligini ko'rsataganligidan, uning nadomatini ko'rsatadi. Demak, Nodir Jonuzoqning "Chilla" deb atalgan turkumi Olohning vasliga oshufta qalbning 40 kunlik uzlatdagi holati va shu davrdagi o'y-kechinmalarining ifodasi mazmunida shakllantirilgan. Tasavvufiy talqindagi to'rtliklar so'fiyning tariqat bosqichlaridan o'tish jarayonini yodga soladi. Kechinma tavsifi ham qirq kunlik o'ylar izchilligiga asoslangan, syujetning barcha unsurlari orqali shakllantirilgan.

Yana bir ijodkor Abdunabi Boyqo'ziyevning "Tun haqida qo'shiqlar" nomli 5 qismdan tashkil topgan turkumi mavjud bo'lib, undagi 1-she'r "Ilhom og'ushida" deb nomlanadi va undagi lirik qahramon shoir bo'lib, u tunga nisbatan charos tashbehini qo'llash orqali o'ziga xos yangilik qilganligi ko'rinadi.

*Charosim – Tun,  
Yana keldingmi?  
Yolg'izlatib qo'ymay, debsan-da,  
Sezdim. Zor talpindim, men ham,  
Ko'rding-ku, rashkchi subh, azonda<sup>10</sup>...*

Ya'ni shoir Tun unga ilhom manbai bo'lganligidan unga qattiq ko'ngil qo'yan rashkchi subh esa tunni undan qizg'onib Quyoshni chorlaganligi haqida so'zlaydi. Bunday o'ziga xos voqebandlik kechinma tavsifidagi tadrijiylikni yuzaga keltirgan. Chunki undagi voqelikda izchillik mavjud. Keyingi banddagi Quyosh ham Tunni shoirdan qizg'anganligi va buning natijasida Tunni butunlay mahv etganligidan alamda qolgan lirik qahramon ingrab yig'lab yuborishi, aynan ana shu tadrijni dalolatlaydi. She'r so'ngida "Kunduz, sen ham yig'latgil edi" deya ta'na qilishi esa undan lirik qahramonga Tun singari mehr ko'rsata olmasligini ta'na qilishiga o'xshaydi. Turkumdagi 2-she'r "Shunday sevsin" deb nomlangan bo'lib, unda endi lirik qahramon Tunga nisbatan o'z mehrini namoyon etadi:

*Tun, charosim,  
Ilhom siyohim,  
Tuyg'ularda gullagan ohim.  
Sokinginam, sohirso'zginam,  
Yolg'izlikda yolg'iz panohim<sup>11</sup>.*

<sup>9</sup> O'sha kitob, 29-bet.  
<sup>10</sup> Abdunabi Boyqo'ziyev. Cho'lli irog'im. – T.: O'zbekiston, 2014. 125-bet.  
<sup>11</sup> O'sha kitob, 125-bet.  
<sup>12</sup> O'sha kitob, 126-bet.  
<sup>13</sup> Abdunabi Boyqo'ziyev. Cho'lli irog'im. – T.: O'zbekiston, 2014. 127-bet.

Yuqorida ham ta'kidlanganidek, Tun shoirning ilhom manbai va unga ijod qilishi uchun sokinlikni yaratib beradi. Shunga ko'ra ham unga nisbatan "ilhom siyohi", "tuyg'ularda gullagan ohi", "sokingina", "sohirso'zginam" "yolg'iz panoh" kabi sifatlashlar qo'llanilmoqda. She'r davomida lirik qahramon o'zini "kunduzlardan bezor" deb atashidan uning kunduzgi sershovqinlikdan zada bo'lgan qalbi Tun tomon talpinishi bejiz emasligini anglash mumkin. Kunduz ham shunday seva olganida unga ham ko'ngil berishi mumkinligi "Shunday sevsin edi, Kunduz ham" degan misra bilan aks ettirilgan.

Turkumdagi 3-she'r "Biz gina qilmaymiz" deb nomlangan bo'lib, unda lirik qahramon Tunni orziqib kutganligini, ular birgalikda tongni uyg'otish uchun Sharqqa yo'l olishlari kerakligini aytadi va o'zlarining hech kimdan gina qilmasliklarini bildiradi:

*Biz  
gina qilmaymiz – bu hayot,  
Kerak bo'lsa tikamiz boshni.  
Qutqaramiz bugun albatta,  
Mag'rib qamab qo'ygan quyoshni.  
Qutqaramiz yana, albatta!<sup>12</sup>...*

Ya'ni Tun qo'ynida sokin ijod qilish orqali shoir kunduzni madh etadi, uni bor chiroyi bilan namoyon etadi. Turkumdagi 4-she'r "Tonglar kutadi" deb nomlangan bo'lib, unda lirik qahramon Tunga uning ismini hanuz bilmasligidan hasrat qilib, uning oqshom kelib, nahor ketishi va har gal shoir yuragidan o'tishini tavsiflaydi va unga hasratlarini to'kib soladi:

*Ellik besh yil  
Sinog'ingdaman.  
Kun-kun nurab boryapman o'tib,  
Qancha shoshmay shum ajal tomon,  
Meni tonglar oladi kutib...  
Meni tonglar qoladir kutib<sup>13</sup>.*

Ya'ni shoir ellik besh yildan beri kun sayin qarilikka tomon qadam qo'yayotganligi, har qadamini tunlar emas, tonglar qarshilashini aytmoqchi bo'ladi. Turkumning so'nggi she'ri "Unutma meni" deb nomlangan bo'lib, unda lirik qahramon Tun bilan xayrlashayotir u bilan o'tgan damlarning tong va shomlar uchun ham xizmat qilganligini alohida ta'kidlaydi:

*Yaxshi bor, Tun,  
Unutma meni,  
Biz tonglarga sodiq yashadik,*

*Shomlar ozor topmasin uchun  
Yo'llariga oydin to'shadik<sup>14</sup>.*

She'rning keyingi bandida qahramon "Shabiston – nolon kechmishim" tashbehini qo'llash orqali tunda shoir qalbidan o'tadigan iztirobli kechmishlar yodini esga oladi. Shu tufayli ham unda Tun bilan hamdardlik tuyg'usi mavjud ekanligi ta'kidlamoqchi bo'ladi. U hamisha shoir bilan ekanligi, ular birgalikda tongni, kelayotgan kunni madh etib yozishlari kerakligini aytish orqali uning xizmatlarini yana bir bor ko'rsatadi. She'r nihoyasidagi:

*Biz tonglarga intiq yashadik,  
Biz tonglarga o'zni to'shadik<sup>15</sup>...*

misralari ularning orzu-umidlari ham tong bilan bog'liq ekanligini, ya'ni kelajakka umidlar tun sokinligida shakllantirilib, otajak tonglar uchun xizmat qilganligini yana bir bor ta'kidlamoqchi bo'ladi.

Umuman, ushbu turkumning lirik qahramoni shoir. She'rda tavsiflanayotgan asosiy poetik obraz Tun obrazi bo'lib, u orqali, undagi sokinlik orqali shoirning majoziy ma'nodagi tong – kelajak bilan bog'liq rejaları shakllantirilganligi uchun ham uning Tunga mehri bo'lakcha ekanligi anglashiladi. She'rda kechinma tavsifi tadrijiy shaklda ifodalanganligi unda lirik syujet mavjudligini ko'rsatadi. Turkum tarkibidagi beshta she'r syujetning besh unsuri sifatida baholanishi mumkin.

Lekin barcha turkumlarda lirik qahramon yagona ekanligi va turkumlar umumiy sarlavhalarga bo'sundirilganligi ularning o'ziga xos jihatlaridir.

Xullas, she'riy turkumlarda lirik syujet qahramonning kechinmasi tavsifi

va turkumlar she'rlaridagi kechinma tadriji jarayoniga bog'liq holda shakllanar ekan. Bunda mustaqil she'rlardagi umumiy mazmun syujet unsurlaridan birortasi vazifasini o'tashi mumkin ekanligi ham oydinlashtirildi.

Zamonaviy she'riyatdagi turkumlardaham lirik syujet o'ziga xos tarzda shakllantirilgan. Xususan, Bahrom Ro'zimhammadning "Qur'onga tatabbu" turkumi modernistik shaklda yozilgan she'rlar turkumi bo'lib, unda shoir kechinma tasvifini istiora va majoziy tasvirlar vositasida ifoda etgan.

Nodir Jonuzoqning "Chilla" turkumi Olohning vasliga oshufta qalbning 40 kunlik uzlatdagi holati mazmunida shakllantirilgan. Tasavvufiy talqindagi to'rtliklar so'fiyning tariqat bosqichlaridan o'tish jarayonini yodga soladi. Kechinma tavsifi ham qirq kunlik o'ylar izchilligiga asoslangan, syujetning barcha unsurlari orqali shakllantirilgan.

Abdunabi Boyqo'ziyevning "Tun haqida qo'shiqlar" turkumning lirik qahramoni shoir bo'lib, tavsiflanayotgan asosiy poetik obraz Tun obrazi orqali ilhom onlari akslantirilgan. She'rda kechinma tavsifi tadrijiy shaklda ifodalanganligi uchun ham undagi beshta she'r syujetning besh unsuri sifatida baholanishi mumkin.

Umuman, turkum tarkibidagi she'rlarda yangicha poetik mushohadakorlik, metaforalar asosida fikrlash ham kuzatiladi. Lekin barcha turkumlarda lirik qahramon yagona ekanligi va turkumlar umumiy sarlavhalarga bo'sundirilganligi ularning o'ziga xos jihatlaridir. Turkumlarda lirik syujet kechinmaning tadrijiy taraqqiyoti yoki uning o'ziga xos tavsifi shaklida yuzaga kelgan.

<sup>14</sup> O'sha kitob, 127-bet.  
<sup>15</sup> O'sha kitob, 127-bet.

## NAVOIYNING SARLAVHA YARATISH MAHORATI

*Ilyos Abdukayumovich Ismoilov - doktorant, f.f.b.f.d, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiyning sarlavha yaratish mahoratiga xos yetakchi xususiyatlar tadqiq etilib, nazariy xulosalar chiqarilgan.

**Аннотация:** В данной статье исследуются ведущие черты навыков создания заголовков Навои и делаются теоретические выводы.

**Abstract:** This article explores the leading features of Navoi's headline creation skills and draws theoretical conclusions.

**Kalit so'zlar:** Alisher Navoiy, sarlavha, poetika, talqin, badiiy tasvir, so'z, ma'no, talqin.

**Ключевые слова:** Алишер Навои, заглавие, поэтика, интерпретация, художественный образ, слово, значение, интерпретация.

**Keywords:** Alisher Navoi, title, poetics, interpretation, artistic image, word, meaning, interpretation.

Alisher Navoiyning badiiy mahorati, ijodiy originalligi asarlarining turli o'rinlarida xilma-xil bo'y ko'rsatadi. Navoiy jiddiy e'tibor qaratgan va badiiy mahorati yorqin namoyon bo'lgan ana shunday qismlardan biri sarlavhalardir. Navoiy epik asarlaridan tashqari lirik asarlarida ham sarlavhalar yaratadi, bu – uning sarlavhalar yaratishga alohida ahamiyat berganini ko'rsatadi. Shu ma'noda, sarlavhalardagi "mazmun va badiiyat o'zi bir alohida predmetdirki, u doston mohiyatini to'ldiradi, uning mundariyasi uchun bir adabiy ko'zguidek xizmat qiladi"<sup>1</sup>. Ammo sarlavha mustaqilligi nisbiy xarakterga ega bo'lib, uni o'zi mansub bob, asar badiiy to'qimasidagi bir qism yoki asarning boshqa elementlari bilan garmonik aloqadorlikda bo'lgan qism sifatida tushunish maqsadga muvofiq. Chunki sarlavha o'z-alozicha yaratilmaydi, sarlavha muallif ifodalamoqchi bo'lgan yoki ifodalagan mazmun, his-hayajonlarga xos eng umumiy nuqta, yo'nalishni ko'rsatish, o'quvchini tasvirlanajak voqealar mundariyasi bilan tanishtirish va ularga tayyorlash, tasvirlanajak masalani konkretlashtirish, ularga nom berish va qismlar chegarasini ko'rsatish maqsadlari bilan yaratiladi.

Mazkur maqsadlar, bir tomondan, ijodkorga qulayliklar tug'dirsa, boshqa tomondan, kitobxonga yordam beradi, lekin ko'proq muallifning ijodiy konsepsiyasi, niyati bilan bog'liq holda yaratiladi va matn strukturasi o'rin oladi. Ayniq paytda, sarlavha muallif uchun mahoratini namoyish etish vositasi, o'rni, adabiyotshunos uchun esa muallif mahoratini aniqlash, tasavvur etishga imkon beruvchi badiiy unsurdir. Sarlavhalar bir necha jihatdan ahamiyatli: asosiy matn mazmunini muxtasar aks ettiradi,

ijodkorning poetik mahoratini ko'rsatadi, bob yoki doston mazmuni borasida tasavvur beradi, avtointerpretatsion ishoralarni o'zida aks ettiradi, muallifning axloqiy-falsafiy qarashlarini konkret ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, sarlavha yaratilish sababi, ijodiy niyat va asar badiiy to'qimasida joylashuviga ko'ra ikki qutbli hodisa hisoblanadi. Bizni ushbu umumiy masalaning sarlavhada muallif mahoratining aks etishi jabhasi ko'proq qiziqtiradi, shu bois bu faslda Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonida sarlavhalar yaratishiga xos ayrim umumiy qonuniyatlar, xususiyatlar haqida to'xtalamiz.

Asosiy qism "Saddi Iskandariy" dostonida yaratilgan sarlavhalar Navoiy nasrining betakror namunalari bo'lib, ularda Navoiyning jimjimador nasriy uslubi aniq namoyon bo'lgan. Navoiyning nasriy bayon tarziga xos bunday jimjimadorlikni ta'minlab turgan asoslar esa saj', forsiy konstruksiyalar – jumla qurilishi, obrotlar, turkiy til va shoirona pafosdir. Shu tariqa, Navoiy sarlavhalari, asosan, saj', ichki qofiya va murakkab jumladan tarkib topadi. Ularda tez-tez arabiy ko'chirmalar uchrab turadi va bu ham ifoda murakkablashishiga olib keladi. Bularning hammasi tarixiy kontekst – o'sha zamondagi shart-sharoitlar, an'ana-yu tajribalar bilan bog'liq omillar bo'lib, Navoiy o'z davrining farzandi sifatida urfda bo'lgan nasriy tasvir uslubi ta'sirida qolgan. Shu bois Navoiyning nasriy ifoda tarzida ko'rsatgan yangiliklarini ko'rsatishdan ko'ra an'anaviy ifoda-yu qoliplardan qanday fikr-u qarashlar, mazmun va xayolot ifodasi uchun foydalanganligini kuzatish qiziqarli.

Navoiy sarlavhalari uchun eng umumiy qonuniyat shuki, ular tasvirlanajak bobdagi asosiy voqealar mundariyasini ifodalaydi.



Shu ma'noda, Navoiy sarlavhalarini bobning muxtasar nasriy bayoni (A. Qayumov) yoki bob mazmunining siqiq ifodasi, deyish mumkin. O'z navbatida, Navoiyning bob mundariyasini sarlavhalarda yozishida ham uch muhim jihat takrorlanadi:

– tafsilotlar mundariyasini ko'rsatish orqali o'quvchini ularga tayyorlash yoki tasvir yo'nalishi tushunarli bo'lishi uchun tanishtirish;

– bobning mundariyasini bobning ichida uchramaydigan, original poetik ifodalar bilan qayta tasvirlash;

– sarlavhalardagi mundarijaning bobni to'liq aks ettirmasligi.

Mazkur uch jihat – Navoiyning sarlavhalarda mundariyani aks ettirishiga xos asosiy xususiyatlardir. Bu yerda uchinchi jihatga biroz izoh zarur: Navoiy sarlavhalarda syujetning yoki voqelikning asosiy jihatlari muxtasar bayon qiladi, sarlavhalarga xos ayni "muxtasarlik" prinsipi faqat asosiy tafsilotlar qaydiga imkon beradi, natijada qolgan tafsilotlar tushirib qoldiriladi. Hatto, bir guruh sarlavhalarda sujetning yakuni aks etmaydi yoki natija to'g'risida ataylab ramziy, badiiy bo'yoqdor, xullas, aniq bo'lmagan ifodalar beriladi, uning ma'nosini asosiy matn bilan tanishgandan so'nggina fahmlash mumkin. A. Qayumovning fikricha, "Navoiy doston sarlavhalariga alohida vazifa yuklagan. Ular har bir bobdagi voqealarni to'la aks ettirmoqlari kerak. Hatto, agarda bu sarlavhalar dostonning she'riy matosidan ajratib olinganda taqdirda ham sarlavhalar dostonning umumiy mazmuni va mundariyasini o'quvchi fikriga yetkazgan bo'lar edilar"<sup>2</sup>. Ushbu fikr, asosan, to'g'ri, biroq sarlavhalar asosiy matn bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularni alohida tasavvur qilish qiyin, qolaversa, Navoiy sarlavhada syujetni muxtasar tasvirlar ekan, xohlasa-xohlamasa, ichki tafsilot va detallarni, turli munosabat-u talqinlar, personajlarni ifodalay olmasdi. Hatto, Navoiy ayrim sarlavhalarda asosiy tasvir obyektini, manzarasi, fikrni, kulminatsiyani "yashiradi" yoki o'ta umumiy tarzda bayon qiladi va bu usul kitobxonda qiziqish uyg'otadi, asosiy matn bilan tanishishga ishtiyoq paydo qiladi. Sarlavhalar, bir tomondan, bobdagi asosiy voqealardan xabar bersa, bir tomondan, bobni to'liq aks ettirmaydi. Bu holat o'quvchiga voqealar haqida umumiy tasavvur beradi, ayni paytda uni asosiy matndagi tafsilotlar bilan tanishishga qiziqtiradi. Sarlavha va asosiy matn qanchalik mustahkam aloqaga ega ekani, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmamasligini A. Qurbonov "Farhod va Shirin"

sarlavhalari misolida ishonchli tarzda ko'rsatib bergan<sup>3</sup>.

Natijalar va muhokamalar Navoiy sarlavhanavisligining sarlavhalar tuzilishi bilan aloqador yana ikki takrorlanuvchi jihati mavjud. Birinchisi, sarlavhalarning o'z ichki tuzilishida tasvir va izohdan iborat bo'lishi, ikkinchisi, sarlavhalarning tegishli bob yoki asar kompozitsiyasiga moslashishi. Birinchi jihatga ko'ra, Navoiy sarlavhani ikki qismdan iborat qilib tuzadi, bunda birinchi va asosiy qismni bobning mazmuni mundariyasini ifodalovchi obrazli, murakkab jumlar tashkil etsa, ikkinchi qismni ularga xulosa, maxraj o'laroq kiritilgan yengil izoh, siqiq tushuntirish tashkil etadi. Masalan, Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni asosiy qismning IX bobida shunday sarlavha yozadi: "Afv fazilatidakim, daryodil juvonmardlar mujrimlar gunohi xas-u xoshokin baxshish nasimi bila ko'ngul bahridin adam savohilig'a surarlar va yuzlariga daryo mavjidek chin tushmas va hayrat zulomotidagi ovoralarni karam sham'i rahnamoylig'i bila ul vodiya haloktin chiqorurlar va ul tiyaliktin alarg'a hech gard yopushmas"<sup>4</sup>. Ushbu sarlavhaning "Afv fazilatidakim" deb boshlanuvchi qismi qolgan qismning siqiq, yengil izohi bo'lib, u sarlavha strukturasi muallif tasvirlamoqchi yoki aytmoqchi bo'lgan fikrni konkret aks ettirish funksiyasini bajaradi. Sarlavhaning uzoq davom etgan qismida ham "afvning fazilati" haqida gap boradi, lekin u qismda fikr badiiy qobiqda aks ettiriladi. Navoiy keyingi qismda har qancha tafsilot-u fikrlar bayon qilmasin, ularni obrazli tasvirlamasin ulardan maqsad – "Afv fazilati" dir. Navoiy sarlavhalardagi mazkur ikki qism – tasvir va izohni o'zaro turli grammatik vositalar (ya'ni, –ki (kim)), ayrim so'zlar (ta'rifida, bobida, hikoyati) orqali bog'lab boradi. Mazkur zohiriy belgilar, odatda, ikki qism o'rtasida takrorlanadi. Ayrim sarlavhalarda mazkur ichki tuzilishi yanada murakkablashadi va bir sarlavha ichida bir nechta izoh va tasvir kelishi ham mumkin. Misol uchun: "So'z ta'rifida bir necha so'zким, ofarinish daryosidin burung'i chiqqon gavhari serobdurur va xilqat sipehrudin avvalgi tulu' etgan axtari purtob va bu munosabat bilan hazrati shayxi Nizomiy qaddasa sirrahu maddohlig'ikim, bu axtarning sipehri gardoni ul erdi va bu ta'rif bila Mir Xusrav navvara marqadahu avsofikim, bu gavharning daryoyi bepoyoni ul"<sup>5</sup>. Ushbu sarlavhada aks etgan mundarijadan asosiy qismda uch masala – so'z ta'rifi, Nizomiy madhi va Xusrav vasfi bayon qilinishini tushunish mumkin. Shunga muvofiq

<sup>2</sup> Qayumov A. "Xamsa" sarlavhalari. Asarlar. 3–jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – b. 72.

<sup>3</sup> Qurbonov A. "Xamsa" sarlavhalari badiiyati. – Toshkent: Meriyus, 2016. – b. 42 – 127.

<sup>4</sup> Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 228.

<sup>5</sup> Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 29.

sarlavha uch qismdan tarkib topgan va har bir qism, o'z navbatida, alohida-alohida izoh va tasvirdan tashkil topgan. Sarlavhaning ostiga chizib ko'rsatilgan qismlari izohlar, qolgan qismlar ana o'sha izohlarning qayta badiiy ifodalardir. Bunday tuzilishda yengil va sodda izohlar sarlavha ichidagi sarlavha vazifasini bajaradi. Xullas, Navoiy sarlavhalarni, asosan, mana shu strukturada tuzadi, ba'zan u juda sodda bo'lsa, ba'zan ancha murakkab tus oladi. Tasvir nechta bo'lakdan iborat bo'lsa, izoh ham shuncha qismdan iborat bo'ladi. Tasvirda muayyan fikr badiiy yo'sinda tasvirlansa, izohda tasvirdan ko'zlangan maqsad oshkor etiladi. Mazmunan bir fikr ikki ko'rinishda bayon etiladi, lekin ifoda tarzi farqli bo'lgani uchun g'alizlik yuzaga kelmaydi.

Navoiy sarlavhalarining tuzilishi bilan aloqador ikkinchi takrorlanuvchi jihat bu – sarlavhalarning tegishli bob yoki asar kompozitsiyasiga moslashishidir. Bu qonuniyatni ilg'agan A. Qayumov "Saddi Iskandariy" dostoni asosiy qismining to'rt tarkibli tuzilishini nazarda tutib aytadiki, "sarlavhalar ham ana shu tuzilishga moslab yaratilgan"<sup>6</sup>. Bu xususiyat "Saddi Iskandariy" sarlavhalarida yaqqol namoyon bo'lgan, ya'ni doston asosiy qismining to'rt qatlamli (sarguzasht, mulohaza, hikoyat va hikmat tarzida) tuzilishi ularning sarlavhalarida ham aks etib boradi. Masalan, Navoiy "Saddi Iskandariy" dostoni asosiy qismidagi IV bobning "Sarguzasht" qismiga shunday sarlavha qo'ygan: "Iskandar ishlarining tafsilini ijmol bila deyilmak va ul ijmolning mujmalotin tafsil qilmoq va Doroning rasuli anga oltun bayza tilay kelib, po'lod nayzadek itik so'zlar javob topib bormoq va ul sinon lam'asining barqi aning xirman sabrig'a o't solmoq va kunjud bila go'y va chavgon yibormagi va Iskandar ul chavgon bila go'y urub kunjudni qushlar termagi"<sup>7</sup>. "Sarguzasht"larda Iskandarning faoliyati, ishlari tasvirlanadi. Bu fasl asosiy qatlam bo'lgani, unda dostonning asosi tasvirlangani bois tafsilotlarga boy va boshqa fasllarga qaraganda hajman ancha yirik. "Sarguzasht" larga xos mazkur ikki xususiyat – asosiy voqealar tasvirlanishi va hajman yirik ekanligi ularning sarlavhalarida ham aks etadi. Dostondagi hajman eng yirik sarlavhalar aynan "Sarguzasht" larga yozilgan bo'lib, bu holatni ushbu faslda ko'plab voqea-yu hodisalar tasvirlanishi keltirib chiqargan. Shuningdek, bobning tasvir obyektiga muvofiq uning sarlavhasi ham asosiy qismda tasvirlanajak voqealar mundarijasini aks ettiradi. Ushbu mundarijada bobdagi asosiy

voqealarning barchasi mutanosib tasvirlanadi, hatto, jumlar soni asosiy voqealar ketma-ketligiga muvofiq bo'ladi. Ushbu fasllar sarlavhalariga xos yana bir umumiy xususiyat shuki, ularning ifodasida badiiyat kuchli emas, ifoda nisbatan "quruq". Buni keltirib chiqargan sabab esa asosiy qismda, asosan, tarix-u afsonalarning hikoya qilinishidir.

Navoiy IV bobning navbatdagi qismi bo'lgan "Mulohaza"ga esa quyidagi sarlavhani qo'ygan: "Muxolafat mazammatidakim, "mux" hasad bila "ulfat" durur va "muxl" andisha bila "ofat" ko'runurki, aksin tutsa, musodaqat yuz berur va tarkin tutsa, saodat sarmanzilig'a yetkurur va soyir el muxolafati bobidakim, mujibi xonumon xaroblig'idur va saloting'a voqe' bo'lsa, jahon xarablig'i"<sup>8</sup>. Doston tarkibidagi "Mulohaza" fasllarning sarlavhalari, avvalo, mazmundorligi bilan ajralib turadi. Navoiy bunday sarlavhalarda konkret nazariy masala yoki tushuncha borasida tugal, xulosaviy mulohazasini tasvirlaydi. Sarlavhalarda qanday nazariy masala xususida gap borishini esa, avvalo, Navoiy tomonidan "Sarguzasht"ning qaysi jihatiga e'tibor qaratish lozim deb topilishi va muayyan fasldagi asosiy qismning mavzusi belgilab beradi. Misol uchun, "Muxolafat mazammatidakim" deb boshlanuvchi sarlavha muxolifatning mazmun-mohiyatiga oid qarashlar bayon qilingan faslga yozilgan, bu faslda muxolifat masalasining tasvirlanishini esa undan avvalgi faslda Doro va Iskandarning o'zaro kelishmovchiligi tasvirlangani keltirib chiqargan. Ushbu sarlavha tugal mazmunga ega: muxolifatning oqibat ofat, musodaqatning natijasi esa saodat; oddiy odamlar muxolifati xonumon xarobligiga, sultonlar muxolifati jahon xaroblig'iga sababdir. Shu tariqa, "Mulohaza" lar sarlavhalarining mavzusi va mazmundorligi bevosita o'zi tegishli bo'lgan faslning mavzusi va chuqur mazmunidan kelib chiqqan bo'lib, asosiy qismda tasvirlangan turli nazariy fikr-u mulohazalarning xulosasi, muallif pozitsiyasini ko'rsatuvchi qarash sarlavhaga qalqib chiqadi. "Mulohaza" larning sarlavhalariga xos ikkinchi umumiy xususiyat ularning ohorli badiiy ifodasidir. Asosiy boblarni tashkil etuvchi to'rt qism sarlavhalari orasida eng badiiyati kuchlisi "Mulohaza" larning sarlavhalaridir. Yuqoridagi "Muxolafat mazammatidakim" deb boshlanuvchi sarlavhadan ko'rinib turibdiki, Navoiy muxolifat tushunchasining mazmun-mohiyatini shu so'zning arabiy ifodasiga tayanib, kamyob istioralar topish orqali tasvirlab bergan, shu jarayonda betakror poetik ifodalar kashf etgan. Doston tarkibidagi aynan

6 Qayumov A. "Xamsa" sarlavhalari. Asarlar. 3–jild. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – b. 125.

7 Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 92.

8 Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 108.

nazariy mulohazalar bayon qilingan fasllar sarlavhalarining go'zal poetik ifodaga ega bo'lishining sababi ushbu fasllarning tabiatidir. Ya'ni ijodkor ushbu faslda muayyan nazariy masala yoki tushuncha to'g'risida subyektiv mulohazalarini ifodalaydi. Mavzuning kengligi, hajmning cheklanmaganligi va yondashuvdagi erkinlik ijodkorga badiiy tafakkurga erk berish, o'z xayolotini turli tashbeh-u istioralar vositasida obrazli ifodalash imkonini bergan. Navoiy ayni mana shu imkondan o'z mahorati va iste'dodini ko'rsatish uchun samarali foydalangan. Asosiy bobni tashkil etuvchi qolgan fasllarda esa konkret voqelik, epizod va masala ayni ijodiy erkinlikka "xalal beradi". Biroq bu boshqa fasllarda badiiylik unsurlari yo'q, degan xulosaga ham olib kelmasligi kerak, chunki ularda ham saj', tashbeh, tanosub kabi vositalar ma'lum darajada poetik tasvir yuzaga keltira olgan.

"Hikoyat"larning sarlavhalari ham o'zi tegishli bo'lgan qatlamning mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi. Masalan, Navoiy IV bobning "Hikoyat" qismida shunday sarlavha yozadi: "Iki jahondor muxolafatidin jahon ahli xirmanig'a balo barqi yetgani va iki yor muvofaqatidin ul tutashqon o'tqa rahmat yomg'uri yog'ib, shu'lasin past etgani"<sup>9</sup>. Hikoyatlarining sarlavhalariga xos eng umumiy jihat hajman siqqlikdir. Chunki ularda bir kichik lavha yoki epizod hikoya qilinadi, biroq ushbu muxtasarlik hikoyat matnida aks etgan voqea mundarijasini aks ettirishga xalaqit bermaydi. Hikoyatning asosiy qismida, darhaqiqat, Chingiz-u Xorazmshohning kinaxohligi, oqibatda qatli om e'lon qilinishi, lekin bu jarayonning ikki vafodor do'stning bir-biriga sadoqati tufayli bekor qilinishi voqeasi tasvirlanadi. Hikoyatlar sarlavhasiga xos ikkinchi umumiy jihat soddaligidir. Hikoyatlarining sarlavhalari, odatda, juda sodda va tushunarli, ularda murakkab jumlar, arabiy ko'chirmalar deyarli uchramaydi.

"Hikmat"larning sarlavhalari ham o'zi aloqador bo'lgan faslning xarakterini aniq aks ettiradi: "Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, muxolafatki borcha milalda mamnu'durur va nizo'ki borcha mahalda nomasmu', andoq modda topilg'aymukim, anda dilpazir bo'lg'ay va qilmog'i noguzir va Arastu ul tiyralikda yorug'lug' ko'rguzmak va ul muxolif ohangni rostda tuzmak"<sup>10</sup>. Bu IV bobning oxirigi qismi – "Hikmat"ga yozilgan sarlavha. Unda Iskandarning muxolifat haqidagi savoli va Arastuning javobi haqida xabar berilgan, chunki asosiy matn Iskandar

va Arastuning dialogi, muxolifat masalasining nozik jihatlariga oid savol-javoblardan tashkil topgan. Asosiy matndagi mazkur bosh xususiyat sarlavhada ham aks etgan. Shu tariqa, "Hikmat" larning sarlavhalari ular uchun umumiy bo'lgan dialog asosida shakllanadi, ba'zilarida savol ham, javob ham konkret qayd etilsa, ba'zilarida savol aniq, lekin javobi umumiy tarzda qayd etiladi. Xususan, yuqoridagi sarlavhada savol aniq, ammo javob umumiy, ya'ni Navoiy Arastu bu savollarga javob bergani haqida ishora berish bilan cheklangan. Buning sababi shuki, Iskandar bergan savolning javobi ancha batafsil bo'lib, uni sarlavhada muxtasar aks ettirish ham cho'zishga olib kelardi, shu bois Navoiy, odatda, agar javob uzun tafsilotlarga ega bo'lsa, sarlavhada savolga javob berilgani to'g'risida ishora berish bilan cheklanadi. Agar javobni qisqa ifodalash imkoni bo'lsa, uni, albatta, ifodalaydi. Masalan, Navoiy doston asosiy qismidagi III bobning "Hikmat" fasliga shunday sarlavha yozadi: "Iskandarning Arastudin savoli ul bobdakim, adolat natijasi ne nav' ishlar bo'la olg'aykim, ul natija umidiga kishi ul yo'lg'a qadam solg'ay va Arastug'a jahonkushoyliq tili ochilmoq va adl natijasi jahongirlik erkanin sobit qilmoq va odilg'a ul jahon saodati ham topilmoq"<sup>11</sup>. Ko'rinib turibdiki, sarlavhada "adolatning natijasi qanday?" degan savolga shu yerning o'zida "bu dunyo jahongirli va narigi dunyo saodati" degan javob ham turibdi. Navoiy asosiy qismda mazkur savol va javobni turli qo'shimcha qarash va asoslar bilan boyitib qayta she'riy ifodalaydi. "Hikmat" lar sarlavhalarida aks etgan savol-javoblarning mavzusi, mazmuni, tabiiyki, avvalgi fasldan kelib chiqadi.

Xulosa Navoiy sarlavhanavislik bobida ham ijodiy originallik ko'rsatishga jiddiy ahamiyat bergan. Xususan, uning "Saddi Iskandariy" dostoni asosiy qismini tashkil etgan boblarning to'rt tarkibli strukturasi va ularga xos xarakterni ularning sarlavhalarida ham aks ettirishi – sarlavhanavislik takomilida yangi hodisa edi. Diqqat qilinsa, har to'rt qismning sarlavhasi boshqasini kiga o'xshamaydi, ularni farqlab turuvchi prinsipial jihatlar mavjud, ularning eng muhimlarini yuqorida tadqiq etdik. Bu, bir tomondan, Navoiy sarlavhanavisligining konkret asar bilan bog'liq xususiyatini ko'rsatsa, boshqa tomondan, Navoiy bu jarayonda sarlavhalarni o'zi tegishli fasl yoki matnga muvofiq lashtirish qonuniyatiga amal qilishini tasdiqlaydi.

9 Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 111.

10 Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 113.

11 Navoiy A. Saddi Iskandariy: nasriy bayoni bilan, nashrga tayyorlovchi M. Hamidova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2006. – b. 90.

## XITOIY ZAMONAVIY SHE'RIYATINING SHAKLLANISHIDA EVOLYUTSIYA NAZARIYASINING O'RNI

Ozodjon Mardiyevich Ochilov - f.f.b.f.d., PhD, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

**Annotatsiya:** Bu davrda xitoy adabiyoti, xususan she'riyati inqilobiy islohotlarga kuchli zaruriyat sezdi. Bir guruh ziyoli adiblar tomonidan islohotlarni amalga oshirishning g'oyaviy asoslari taklif qilina boshlandi, natijada g'oyalar uyg'unlashdi va zamonaviy she'riyat paydo bo'ldi.

**Аннотация:** К этому времени китайская литература, особенно поэзия, почувствовала острую потребность в революционных преобразованиях. Группа писателей-интеллектуалов стала предлагать идеологическую основу для проведения реформ, в результате чего идеи были согласованы и произошла поэтическая революция.

**Abstract:** The ideology of reform was proposed by a group of intellectual writers, which resulted in the harmonization of ideas and the creation of a poetry revolution.

**Калит so'zlar:** evolyutsiya nazariyasi, she'riyat, yangi she'riyat, uslub, venyan, bayxua, islohot, inqilob, yangi badiiy konsepsiyalar, folklor.

**Ключевые слова:** теории эволюции, поэзия, новая поэзия, стиль, вэньян, байхуа, реформа, революция, новые художественные концепции, фольклор.

**Keywords:** theory of evolution, poetry, new poetry, style, wenyan, baihua, reform, revolution, new artistic concepts, folklore.

1896-yil Yan Fu angliyalik zoolog olim T.G.Gekslining «Evolution and Ethics» asarini xitoy tiliga tarjima qildi va nashrdan chiqardi. Islohotchi adib Xuang Zunsyan bu asarga favqulodda yuqori baho berdi, qadimgi xitoy mutaffakirlarining asarlari bilan qiyosladi, alohida xususiyatlarini ta'kidlab o'tdi<sup>1</sup>. U evolyutsiya nazariyasi bilan tanishib chiqqach, uning asosida xitoy madaniyatidagi muammolar yechimi haqida o'z fikr-mulohazalarini ilgari suradi. Evolyutsiya nazariyasi XIX asr so'nggida yuz bergan Xitoy-Yaponiya urushida Xitoyning mag'lubiyatidan keyin zudlik bilan ijtimoiy islohotlar o'tkazishga muhtoj bo'lgan xitoylik ziyolilar uchun muhim mafkuraviy qurol vazifasini o'tadi. She'riy inqilob tarafdorlari bo'ladimi yoki yangi adabiy oqim tashabbuskorlari, barchasi undan til islohoti va she'riyat islohoti borasida olib borayotgan harakatining mantiqiy asoslarini tushuntirishda nazariy asos va dalil sifatida foydalanadi.

Aniq qilib aytganda, bir tomondan Xuang Zunsyan, Lyang Chichao va boshqalar evolyutsiya trayektoriyasini xitoy tili va yozuvi tarixidan izlay boshlashdi. Xuang Zunsyan xitoy iyerogliflarining rivojlanish tadrijini misol

keltirib, yozuv ham til ham soddalik tomon intilishi kerak, degan g'oyani ilgari surdi<sup>2</sup>. Tarixiy nuqtai nazardan til va yozuv islohotlariga asos keltirish Xuang Zunsyan til borasidagi qarashlarining eng katta xususiyatlaridan biri bo'lganligini payqash qiyin emas. Bunday qarashlarni Xu Shining bayxua haqidagi mulohazalarida ham kuzatish mumkin. Xu Shi: "Men bayxua adabiyoti uch-to'rt yilda bir necha adibning sa'y-harakati bilangina paydo bo'lib qolmaganligini barcha bilishi kerak deb hisoblayman; Bayxua adabiyoti o'z tarixiga ega ekanligini, bo'lganda ham uzoq va ulug'vor tarixi bor ekanligini barcha bilishini xohlardim, milliy tildagi adabiyotimiz ming necha yuz yillik tarixiy evolyutsiya natijasi ekanligini odamlarimiz anglashini istardim"<sup>3</sup>. Xu Shining yuqoridagi fikrlaridan o'zi ilgari surayotgan bayxua adabiyoti shunchaki paydo bo'lib qolmaganligi, uning uzoq tarixi borligini eslatish orqali olib borayotgan adabiy harakatning qanchalik mantiqiy va dolzarbligini dalillashga uringanligini oson anglash mumkin.

Boshqa tomondan esa, Xitoy tarixidagi til va yozuvning evolyutsion jarayonini o'z argumentlari uchun asos qilib olishdan

1 谭彼岸.晚清的白话文运动.武汉:湖北人民出版社,1956:3.

2 黄遵宪.日本国志·学术志二,黄遵宪全集(下).北京:中华书局,2005:1420.

3 胡适.白话文学史·小引,胡适文集(4).北京:人民文学出版社,1998:20.

tashqari Xuang Zunsyan va Xu Shi xoriyda amalga oshirilayotgan til islohotlaridan ham andoza olishga harakat qildi. 1877-yilda Xuang Zunsyan Xitoyning Yaponiyadagi birinchi elchisiga hamrohlik qildi va maslahatchi lavozisiga tayinlandi. Bu unga Yaponiyada barcha sohalarda ketayotgan islohotlarni bevosita kuzatish hamda butun dunyo tsvilizatsiyasi fonida xitoy tili va yozuvi islohi masalalariga yechim izlash imkoniyatini berdi: "Eshitishimcha, butun Rim imperiyasida lotin tili umumiy til hisoblangan, har bir hududning o'z tili bo'lganligi sabab undan foydalanish noqulaylik tug'dirgan. Lotin tilini Fransiya o'zlariga qulay fransuzcha, Angliya inglizcha talaffuzga moslashtirgandan so'ng ular da adabiyot gullab yashnagan... Agar til va yozuv bir-biridan farqlansa, matni tushunuvchilar kam bo'ladi, agar til va yozuv uyg'un bo'lsa matni tushunadiganlar ko'payadi"<sup>4</sup>. Xuang Zunsyan xitoy tilini o'z paytida rivojlangan davlatlar tili bilan qiyoslarkan xitoy tili va yozuvda katta tafovut mavjudligi va bu rivojlanish uchun asosiy to'siq bo'layotganligini ang'ay boshlagan, shu sababdan zudlik bilan til islohotlarini o'tkazish va buni bevosita she'riyat inqilobi bilan amalga oshirish maqsadi paydo bo'lgan bo'lsa kerak. Shu tariqa Sya Seng-yo, Tan Sitong, Lyang Chichao kabilar tomonidan "Yangi she'riyat" harakatini sinovdan o'tkazish va shu bilan bir paytda til islohotlarini amalga oshirish ishlari boshlab yuborildi.

Xuang Zunsyan, Lyang Chichao kabi dastlabki islohotchilar bilan Xu Shini qiyoslaganda Xu Shi ulardan farqli ravishda Yaponiyada emas AQShda tahsil olgan edi. Ikki mamlakat siyosiy tuzimi, madaniyati, ma'naviyati bilan bir-biridan katta farq qilardi. Shunday bo'lsada til va yozuvni isloh qilishning asoslarini izlash yo'lida ular o'rtasida ixtilof yuzaga kelganligi kuzatilmadi, aksincha o'zaro kamchiliklarni to'ldirib, yakdil harakat olib borilganligi guvoh bo'lish mumkin. Uzoq AQShda bo'lgan Xu Shi til islohoti o'tkazish zarurati va maqsadga muvofiqligini isbotlash uchun Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi tillarning rivojlanish yo'li va evolyutsiyasini misol qilib keltirdi.

Lyang Chichaoning fikriga ko'ra, G'arbdan o'rganish g'oyaviy harakatlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat til isloholari kontekstini kengayishga va dalillash imkoniyatining oshishiga, balki harakatning muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizligiga ham ta'sir qiladi. Lyang Chichaoning fikriga

ko'ra, dastlabki mafkuraviy harakatning mag'lubiyatga uchrashiga G'arbdan o'qigan talabalarning qatnashmaganligini asosiy sabab bo'ldi<sup>5</sup>. Uning bu fikri bir tomonlama bo'lsada, boshqa tomondan qaraganda, bu paytda til islohotlari yuzaga keldi (ayniqsa venyan o'rniga baxua) hamda birozdan so'ng sodir bo'lgan yangi madaniy inqilob muvaffaqiyatga erishdi, bunda xorijlik talabalarning qo'shgan hissasini rad etib bo'lmaydi.

Evolyutsiya nazariyasi o'sha davr ziyolilari uchun muhim mafkuraviy qurolga aylanganligi kuzatiladi. Tarixiy muqarrarlik va obyektiv ratsionallik mavjud bo'lgan holda, shuni aniq aytish mumkinki, yangi madaniyat harakatining g'alabasi mana shu tarixiy konsepsiyaning qo'llab-quvvatlanishi bilan uzviy aloqador. Biroq, uni madaniyat, adabiyot va hatto til evrilishlariga tadbir etish va yagona huquqiy me'yor sifatida ko'rishda bir tomonlamalik ko'zga tashlanadi. Xususan, oldingisini keyingisi bilan almashtirilishi tarixiy zarurat sifatida qabul qilinishi va iyerarxik evolyutsiya nuqtai nazaridan keyingi oldingidan yaxshiroq bo'lishi kerakligi haqidagi tushunchalar noxolislikni yuzaga keltirdi. Masalan, mumtoz xitoy tili hisoblangan venyaning tushunish qiyin bo'lgan xususiyatlari mavjud bo'lsa-da, uning kam so'zlar yordamida nozik va teran ma'nolarni anglata olish jihatlarini xalq tili bo'lmish bayxua bilan solishtirib bo'lmaydi. Mumtoz xitoy va xalq foydalanadigan xitoy tilini bir-biridan alohida mos kelmaydigan ikki qutb sifatida qarama-qarshi qo'yish, iyerogliflarni pinyin (拼音 - xitoycha iyerogliflarning lotin alfaviti yordamida transkripsiya qilish) bilan almashtirishga urinish tilning paydo bo'lish, rivojlanish qonuniyatlari va xususiyatlariga muvofiq kelmaydi. Zamonaviy xitoy tili venyan elementlaridan butunlay voz kechib yangi til sifatida shakllana olmaydi, balki to'xtovsiz ravishda venyan resurslarini o'ziga singdirib boradi. Bu hozirgi xitoy tilida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu sababdan til, adabiyot va madaniyatdagi evolyutsiya borasidagi tushunchalarning noto'g'ri talqin qilinishi hamda salbiy ta'siri haqida ham fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

Xuang Zunsyan, Lyang Chichao kabi she'riyat inqilobchilari bo'ladimi yoki bayxua she'riyatini birinchilardan bo'lib targ'ib qilgan Xu Shi, ularning barchasi mavjud til vaziyatida til va matn bir-biridan ajrab qolganligini birdek his qilishgan, bundan tashqari ular til evolyutsiyasi nazariyasiga asoslanib til

4 黄遵宪.日本国志·学术志二,黄遵宪全集(下).北京:中华书局,2005:1420.

5 梁启超.清代学术概论,梁启超全集,第十卷.北京:北京出版社,1999:3105.

islohotlari uchun asos va dalil qidirishdi, shu bilan birga to'xtovsiz ravishda til va matn uyg'unligiga erishishda til islohotining konkret yo'nalish va strategiyasini izladi. Ular yillar davomida alohida-alohida harakat qilgan bo'lsalarda, muammoni hal qilishda ularning yondoshuv va strategiyalaridagi hamohanglik quyidagilarda ko'rinadi:

1) Yozma nutq o'rniga og'zaki nutq. 1868-yildayoq Xuang Zunsyan nutq va matn o'rtasidagi tafovutni tanqid ostiga olib, bu borada o'zining faol harakatini namoyon qiladi: "nimani so'zlasam o'shani yozaman". U "Yaponiya xronikasi" (《日本国志》) asarida nutq va yozuv o'rtasidagi farq oddiy xalqning o'qib o'rganishi uchun katta to'siq yaratayotgani haqida yozdi<sup>6</sup>. Lyang Chichao ham Xuang Zunsyan kabi fikr yuritib, shunday deydi: qadimgilarning tili ham yozuvi ham hamohang bo'lgan, bugungilar o'z nutqini yozuvda ifodalashga juda qiynaladilar, o'z-o'zidan kitob o'qimoqlik ham murakkab bir holatga aylanib qolgan<sup>7</sup>. Aynan ular tomonidan ilgari surilgan "nimani so'zlasam o'shani yozaman" va "til va matn birligi" kabi ilgari surilgan g'oyaviy harakatlar o'sha davr va undan keyingi davr til islohotchilarining provard maqsadiga aylanganini kuzatish mumkin. Xu Shi ularning g'oyalarini yanada rivojlantirgan holda bayxua targ'ibotini keng yo'lga qo'ydi. Uning fikriga ko'ra yozma nutqni xalq tiliga ya'ni bayxuaga muvofiqlashtirish kerak, xalq qanday so'zlasa u yozuvda ham xuddi shunday ifodalanishi zarur<sup>8</sup>. Ko'rinadiki, Xu Shi o'zidan oldingi til va yozuv birligiga erishish g'oyalarni kengaytirdi va rivojlantirdi. Chen Zejan yuqoridagi voqealar haqida shunday yozadi: dastlab Xuang Zunsyan "nimani so'zlasam o'shani yozaman" g'oyasini ko'tarib chiqdi, keyinchalik Xu Shi, Chen Disyu, Chyan Suantong, Jou Zuoren kabi ma'rifatparvar adiblar bayxua adabiyotini faol ravishda ilgari sura boshlashdi<sup>9</sup>. Uning bu xulosasi shubhasiz, mavjud barcha tarixiy faktlarga mos keladi.

2) Shevalarga erkinlik berish. Nutq va yozuvning uzoq vaqt davomida bir-biridan uzoqlashuvi tufayli yozma til sekin-astalik bilan doimo faol va boy bo'lgan shevalardan holi tilga aylanib bordi. Mumtoz she'riyatning eng asosiy konsepsiyasi, u nafis bo'lishi kerak, nafislikka esa turli sheva, jargonlardan kirib kelgan so'zlar zarar yetkazadi deb hisoblangan.

Shu sababdan she'riyat muntazam ravishda ulardan "tozalanib" bordi va natijada u oddiy xalq tilidan butunlay uzoqlashdi, ularni o'qib tushunish tobaro murakkablashib bordi. Mazkur holatga o'zgarish kiritish maqsadida Xuang Zunsyan she'riyatga shevaga xos va ommalashgan so'zlarni olib kirishda yetakchi bo'ldi. U besh ming yillar o'tib avlodlarimiz qadimiy go'zallikdan hayratda qolishadi, biz yaratgan xalqona she'r va qo'shiqlardan zavq olishadi<sup>10</sup>, deya bu harakatlarining mohiyatini ochiqlyadi. Xuang Zunsyaning mazkur tashabbusi ham Lyang Chichao va keyinchalik Xu Shi kabi ma'rifatparvarlarning ham e'tiborini jalb qildi. Men Xuang Zunsyan o'sha davrda "qanday so'zlasam shunday yozaman" shiorini ko'tarib chiqishi uchun bu qadar jasurlik qayerdan paydo bo'lgan ekan deb ko'p o'ylayman. Men uning "Tog'lar qo'shig'i" (《山歌》) to'plamiga yozgan kirish so'zini o'qib hamda ellik yoshida Jyaying viloyatining folklor an'analari asosida yozgan "O'ttiz oltinchi she'r" (《己亥杂诗》)i va unga yozilgan izohlarni mutolaa qildim. Menimcha bu o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtining xalq qo'shiqlari ta'siridan bo'lishi kerak, shuning uchun ham xalq og'zaki ijodining avfzalliklarini qadrlay olgan. Shu sababdan ham u bunday she'r va qo'shiqlar besh ming yillardan so'ng bo'lsa-da ajdodlar tomonidan e'zozlanishiga ishongan<sup>11</sup>, deb yozadi Xu Shi. Xu Shining dastlabki yillardagi bayxua targ'iboti nazariyasida dialekt, jargon va ommalashgan so'zlarga e'tibor qaratgani va ularni umumlashtirishga harakat qilganini ko'rish mumkin. Uning fikricha, shevalar adabiyoti qancha ko'p bo'lsa, xalq adabiyoti shuncha ko'p material bilan boyiydi va bu mazmunning yanada boy, jonli va hayotiy bo'lishiga zamin yaratadi. Milliy tilga ega xalq adabiyoti vujudga kelib, ma'lum bir me'zonlarga ega bo'lganda ham u sheva adabiyoti bilan raqobatlashishdan qo'rqmaydi, balki mahalliy xalqlar tomonidan taqdim etiladigan yangi materiallarga va yangi "qon"ga tayanishi kerak bo'ladi<sup>12</sup>. U milliy tilni shakllantirishda ayrim shevalarni omuxtalashtirishgan holda adabiyotga olib kirish takliflarini ham bayon qildi. Ko'rinadiki, Xu Shi Xuang Zunsyaning bu boradagi tashabbuslaridan ilhomlangan, uning nazariy qarashlaridan foydalangan va buni xalq adabiyotini yaratish nuqtai nazaridan faktik dalilga aylantirgan.

6 梁启超. 清代学术概论. 梁启超全集. 第十卷. 北京: 北京出版社, 1999: 3105.

7 梁启超. 变法通议·论幼学[A]. 梁启超全集. 第一卷. 北京: 北京出版社, 1999: 39.

8 胡适. 白话文学史[A]. 胡适文集(4)[M]. 北京: 人民文学出版社, 1998: 17.

9 陈子展. 中国近代文学之变迁. 中国最近三十年文学史[M]. 上海: 上海古籍出版社, 2002: 19.

10 黄遵宪. 山歌题记[A]. 黄遵宪全集(上)[M]. 北京: 中华书局, 2005: 275.

11 胡适. 五十年来中国之文学[A]. 胡适文集(4). 北京: 人民文学出版社, 1998: 354-355.

12 胡适. 答黄觉僧君《折衷的文学革新论》, 胡适文集(3). 北京: 人民文学出版社, 1998: 87.

3) Chetdan kirgan so'zlar orqali xitoy tili leksikasini boyitish. Ching sulolasining so'nggi davrlarida G'arb davlatlarining bostirib kirishi nafaqat Xitoy darvozalarining dunyoga majburan ochilishiga olib keldi, balki ziyoli qatlamning dunyoqarashini kengaytirish va tafakkur tarzini yangilashga ham zamin yaratdi. Ular muntazam ravishda xitoyliklar uchun yangi bo'lgan narsalarga, tushunchalarga duch kelishar va bu yangi narsalarni qanday nomlash, tilda qanday ifodalash muqarrar muammoga aylandi. Chet tilidan yangi nomlar kirib kelar ekan, tarjimon qanchalik zukko bo'lmasin, o'sha tilning til xususiyatlariga tob'elanish kuzatiladi. Bu esa xitoy tilining leksik, grammatik, struktur, stilistik qatlamining shakllanishiga ta'sir qilmasdan qolmadi. Bu nafaqat so'nggi Ching sulolasi davrida boshlangan til harakati uchun asos va motivatsiya, balki uni isloh qilish uchun tayyor qo'llanma va manba sifatida rol o'ynadi. Ona tilining leksik jihatdan boyishi bevosita chet tilidan o'zlashgan so'zlarga ham bog'liq bo'lib, xitoy tili nuqtai nazaridan Ching sulolasining so'nggi davrlarida boshlangan bu jarayon hamon davom etayotganligini ko'rish mumkin.

Xorij madaniyatining sekin-astalik bilan kirib kelishiga muvofiq, chet tilidan o'zlashayotgan so'zlar borgan sari xitoy tili xususiyatlariga kuchli ta'sir qila boshladi. Natijada grammatik sathda o'zgarishlar ro'y berib, chetdan o'zlashgan so'zlar xitoy zamonaviy milliy tilining shakllanishida asosiy ustunlardan biriga aylandi. Bu yangi madaniy inqilob arafasida inqilobchilarning bosh mafkurasiga aylanayozgandi. O'sha davrning ilg'or ziyolalaridan biri Bo Senyan (博斯年) faol bayxua tilini yaratish masalasini muhokama qilar ekan diqqatini g'arb tillariga qaratadi: tog'ridan to'g'ri g'arb tillarining grammatikasi, leksikologiyasi, sintaksisi, strukturasi, boringki, barcha stilistik ifoda usullaridan foydalangan holda o'ta zamonaviy, yevropalashgan milliy tilimizni yaratamiz, shu tariqa yevropalashgan milliy tildagi adabiyot yuzaga keladi<sup>13</sup>. Umuman aytganda, u g'arb tillariga xos xususiyatlarni o'ziga singdirgan bayxua tilini amaliyotga kiritish g'oyasini ilgari surganini payqash qiyin emas. Yuqoridagilardan shu anglanadiki, she'riyat islohoti yetakchilari

ham, yangi madaniyat inqilobi yo'l boshchilari ham chetdan o'zlashgan so'zlar bir joyda qotib qolgan tilni jonlantirish va yangilashdagi ahamiyatini birdek his qilishdi, shu tariqa adabiyotning ekspressivligini oshirishda mustahkam platforma yaratish uchun muhim vosita sifatida qarashdi.

Tilda kechayotgan jarayonlar, o'zgarishlar avvalombor she'riyatga ta'sir ko'rsatadi va unda akslanadi. Aniq qilib aytganda, she'riy ritmika aslida tildagi akustik unsurlarning tartibli birikuvidir, she'riy obrazlar ham tilning mavjudlik shakli sifatida qabul qilinishi lozim, she'rning stilistik shakli esa ritm, misralarning uzun-qisqaligi, soni kabilarning tartibi va qoidalarini yanada intuitiv tarzda namoyon qilishi kerak. She'riyat islohotchilari harakatni tilni o'zgartirishdan boshlashgan bo'lsa, bu bir tomondan o'sha paytda endigina paydo bo'lgan til islohoti harakati bilan uzviy bog'liq edi, boshqa tomondan esa ular she'riyat tabiatiga xos asosiy jihatlarni yaxshi egallashgani bilan bog'liq bo'lib, manashu omillar ularning she'riyat dunyosiga muvaffaqiyatli tarzda tez va oson sho'ng'ib ketishiga olib keldi. Shu sababdan ham she'riyat va til bir-birini isloh qilishda o'zaro uyg'unlik kasb etishi kerak degan xulosaga kelish mumkin. Sya Seng-yo, Lyang Chichao, Tan Setong kabilar "Yangi she'riyat" g'oyasini ilgari surishar ekan, ular buning asosi yangi ot so'z turkumiga oid so'zlardan foydalanish deb bilishdi. Keyinchalik Lyang Chichao bunday turkumdagi she'rlar yaratilishini inkor eta boshladi va she'riyat islohotining maqsadi va strategiyasini yana qayta ko'rib chiqqa boshladi, biroq tilda ketayotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda she'r qurilish tizimini yangilash eng asosiy g'oya sifatida saqlanib qolgandi. Albatta, yangi she'riyat ijodkorlari faqat chetdan o'zlashgan so'zlardan foydalanibgina qolmay, faol ravishda og'zaki nutq, sheva va jargon so'zlarni ham she'riyatga olib kira boshlashdi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, an'anaviy she'riyat til qoliplarining barbod bo'lishi va she'riyat yangi til tizimining yuzaga kelishida evolyutsiya nazariyasi asosida yuzaga kelgan yuqoridagi uchta jarayon muhim ahamiyat kasb etdi va ular zamonaviy bayxua adabiyoti, xususan she'riyatining yadrosini tashkil qildi.

13 博斯年. 怎样做白话文. 中国新文学大系·建设理论集(影印本). 上海: 上海文艺出版社, 2003: 223-225.

## XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA TALABALARNING XXI ASR KO'NIKMALARINI LOYIHAGA ASOSLANGAN TA'LIM ORQALI RIVOJLANTIRISH

Ug'iljon Kuronboyevna Axmedova - o'qituvchi, Urganch davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'qitishda loyihaga asoslangan ta'limda tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va kreativlik kabi XXI asr ko'nikmalari orqali talabalarning til o'rganishga ijodiy yondashish afzalliklari haqida alohida to'xtalib o'tiladi.

**Аннотация:** В этой статье основное внимание уделяется преимуществам творческого подхода студентов к изучению языка с помощью навыков XXI века, таких как критическое мышление, общение, сотрудничество и творчество в проектном обучении при обучении иностранному языку.

**Abstract:** This article focuses on the benefits of student creativity in foreign language learning through XXI st century skills such as critical thinking, communication, collaboration and creativity in project-based learning.

**Kalit so'zlar:** XXI asr ko'nikmalari, global kompetensiyalar, loyihaga asoslangan ta'lim, texnologiya, kreativlik va innovatsiyalar.

**Ключевые слова:** навыки XXI века, глобальные компетенции, проектное образование, технологии, творчество и инновации.

**Keywords:** XXI Century Skills, Global Competencies, Project-Based Education, Technology, Creativity and Innovation.

XXI asrga kelib, xorijiy tillarni o'qitish metodikasida juda ko'plab yangiliklar yaratilmoqda. Barchasining zamirida xorijiy tillarni oson va qiziqarli o'qitish maqsadi yotadi. Zamonaviy talabalarga zamonaviy ta'lim texnologiyalari bilan dars berish ayni ehtiyojdir. Shu sababli Bell (2010)ning ta'kidlashicha loyihaga asoslangan ta'lim "o'qituvchi tomonidan boshqariladigan va o'quvchi tomonidan osonlashtirilgan ta'limga yondashuv" sifatida belgilanadi<sup>1</sup>. Bundan tashqari, "Loyihaga asoslangan ta'limda talabalar uzoq vaqt davomida haqiqiy, qiziqarli va murakkab savol, muammoni tekshirish va javob berish uchun ishlash orqali bilim va ko'nikmalarga ega bo'lalilar"<sup>2</sup>. Loyihaga asoslangan ta'limning asosiy tarkibiy qismlariga haqiqiy muammo, savol, so'rov, hamkorlik, ommaviy mahsulot va namoyish etish amaliyoti kiradi. Talabalar o'z darolarida loyiha ishi talab qiladigan vazifani muvaffaqiyatli bajarishlari uchun XXI asr ko'nikmalaridan samarali foydalanishlari kerak bo'ladi. Buning uchun biz, avvalo, til o'rganishda XXI asr ko'nikmalarini aniqlashtirib olishimiz kerak. Ushbu ko'nikmalarni aniqlashda

manbalar o'rtasida ba'zi farqlar mavjud. Biz ko'plab manbalarni tahlil qilib quyidagicha fikrga keldik va XXI asrning ko'nikmalari sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. Tanqidiy fikrlash;
2. Hamkorlik;
3. Kreativlik va innovatsiyalar;
4. Muloqot

Talabalar loyihaga asoslangan ta'lim orqali til o'rganishda yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishlari uchun ushbu kompetensiyalarga tayanishi kerak. Aslida o'qituvchilar uchun talabalarning XXI asr kompetensiyalarini o'qitish va baholash qiyin masala. Biroq loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturiga kiritilsa, u o'qituvchilarga ushbu ko'nikmalarni bilvosita va aks ettiruvchi amaliyotlar orqali o'rgatish imkonini beradi.

Nima uchun XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun loyihaga asoslangan ta'limni tanlash kerak?

Loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturiga integratsiyalashgan bo'lishi juda muhimdir. Standart o'quv dasturlari bilan solishtirganda, XXI asr ko'nikmalarini an'anaviy

talim orqali rivojlantirish unchalik aniq emas. Shuning uchun o'qituvchilar talabalarda ushbu ko'nikmalarni rivojlantirishda qiyinchiliklarga uchrashadi. Loyihaga asoslangan ta'lim o'qituvchilarga ushbu bo'shliqni bartaraf etishga yordam beradi, chunki u "hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni takomillashtirish, muammolarni murakkab hal qilish, o'rganishni uzatish va vazifalarga ijobiy munosabatni" rag'batlantiradi. Loyihaga asoslangan ta'lim shuningdek, talabalarga haqiqiy tajriba orqali kontentni o'zlashtirishni rivojlantirishga yordam beradi. U ta'lim nazariyasini idrok etishni qo'llab-quvvatlaydi, chunki o'rganish real dunyo kontekstlari va muammolarni hal qilish imkoniyatlarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi va bu o'quvchilarga o'z bilimlari yangi va haqiqiy kontekstlarga olib kirishga yordam beradi<sup>4</sup>.

Loyihaga asoslangan ta'limning yana bir muhim afzalligi shundaki, u talabalar va o'qituvchilar o'rtasida kuchli munosabatlarni rivojlantirishi mumkin. Loyihaga asoslangan ta'limni o'quv dasturiga integratsiya qilish juda muhim, chunki u "mavzuni yaxshiroq tushunishga, chuqurroq o'rganishga, yuqori darajadagi o'qishga va o'rganish motivatsiyasini oshirishga" olib keladi<sup>5</sup>.

Hutchinson (2015)ning fikriga ko'ra, "loyiha ishlari bilan shug'ullanadigan talabalar hamkorlik va muloqot, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va o'z-o'zini yo'naltirish bilan bog'liq XXI asrning aqliy odatlarini rivojlantiradilar". Fullanning ta'kidlashicha, XXI asrda siz biror narsani bilganingizdan ko'ra uni amalga bajara olishingiz muhimroqdir. XXI asr ko'nikmalariga ega bo'lish talabalarning kelajakdagi bandlik, ta'lim va dunyodagi faol fuqarolik uchun zarurdir.

Talabalarda hamkorlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun loyihaga asoslangan ta'lim Hamkorlik loyihaga asoslangan ta'lim orqali rivojlantiriladigan muhim sinf mahoratidir. Fullan va Scot (2014)ning fikriga ko'ra, hamkorlik mustaqil va jamoalarda ishlash qobiliyatini anglatadi. "Kuchli shaxslararo va jamoa bilan bog'liq ko'nikmalar, jumladan, jamoa dinamikasini samarali boshqarish, birgalikda muhim qarorlar qabul qilish va boshqalardan o'rganish va o'rganishga hissa qo'shish"ga urg'u beriladi.

Sinfda muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchilar hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishi juda muhimdir. Chunki talabalar birorta loyiha ishini bajarish jarayonida umumiy maqsadga erishish uchun jamoaviy ishlash ko'nikmalariga muhtojdirlar<sup>6</sup>. Bu ko'nikmalarni aniq tarzda o'rgatish ham qiyin. Loyihaga asoslangan ta'limning o'quv dasturiga integratsiyalashuvi muhim ahamiyatga ega, chunki u o'qituvchilarga ushbu ko'nikmalarni rivojlantirish yo'lini beradi. Birgalikda ishlaydigan jamoalarda talabalar turli xil ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak, jumladan, turli nuqtai nazarlarni tinglash va hurmat qilish va muammolarni hal qilish kabi. Ijtimoiy ta'lim nazariyasida talabalar hamkorlik jarayonlari orqali o'rganadilar. Xususan, loyihaga asoslangan ta'lim faol tinglash ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlabgina qolmasdan, ijodkorlik, samarali muloqot, boshqalarni hurmat qilish va jamoada ishlash kabi qobiliyatlarni ham rivojlantiradi. Loyihaga asoslangan ta'limni muvaffaqiyatli yakunlash uchun hamkorlik ko'nikmalari muhim ahamiyatga ega. Talabalar guruhlarida ushbu turdagi ishlarda muvaffaqiyatga erishish uchun jamoalarda ishlash natijasida yuzaga keladigan muammolarni muvaffaqiyatli hal qilishlari kerak. Loyihaga asoslangan ta'lim bo'yicha hamkorlik ko'plab loyihalarning fanlararo tabiati tufayli yanada murakkablashadi.

Ma'suliyat. PBL ning hamkorlikdagi tabiati talabalarda kuchli ma'suliyatni rivojlantiradi<sup>7</sup>. Talabalar murakkab turdagi guruh ishlari bilan shug'ullanganda, har bir talaba loyiha ishiga o'zining individual hissasini qo'shmasa, bu ham ijtimoiy, ham akademik tengsizlikka olib kelishi mumkin.

Muammoni hal qilish. Talabalar guruhdoshlari bilan o'zaro munosabatlari orqali ham o'rganadilar, chunki ular o'z jamoalarida ishlash uchun muloqot qilish va muammolarni samarali hal qilishlari kerak. Loyihaga asoslangan ta'limda, o'qituvchi "bilim beruvchi" o'rniga murabbiy/fasilitator vazifasini bajaradi, talabalar tengdoshlariga ko'proq ishonadilar. Loyihaga asoslangan ta'limning bu jihati o'rganish nazariyasini, hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydi, chunki u o'qituvchidan o'z o'quvchilari bilan birga bo'lishini va o'quvchilarning qiziqishlariga ko'proq ochiq bo'lishini talab qiladi va kuchli

4 Bell, S. (2010). Project-Based Learning for the 21st Century: Skills for the Future. The Clearing House, 83, 39-43. Retrieved May 24, 2019. Retrieved from <https://doi.org/10.1080/00098650903505415>

5 Laar, E. V., Deursen, A. J., Dijk, J. A., & Haan, J. D. (2017). The relation between 21st-century skills and digital skills: A systematic literature review. Computers in Human Behavior, 72, 577-588. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2017.03.010>

6 Laar, E. V., Deursen, A. J., Dijk, J. A., & Haan, J. D. (2017). The relation between 21st-century skills and digital skills: A systematic literature review. Computers in Human Behavior, 72, 577-588. <https://doi.org/10.1016/j.chb.2017.03.010>

7 Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.:Nizomiy nomidagi TDPU,2000-52b

1 Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. - T.:Nizomiy nomidagi TDPU,2000-52b

2 What is PBL? (n.d.). [Web page]. Retrieved from <https://www.pblworks.org/what-is-pbl>

3 Lee, D., Huh, Y. and Reigeluth, C.M. (2015). Collaboration, intragroup conflict, and social skills in project-based learning. Instructional Science, 43(5), 561-590.

sinf munosabatlarini o'rnatadi.<sup>8</sup>

Shu bilan birga, guruh ishlarida nizo ehtimoli ham ortadi. Bu holat talabalarni muhim o'rganishga undaydi, chunki nizolarni boshqarish jarayoni "individuallarni o'z g'oyalarini qayta ko'rib chiqishga, muvofiqlashtirishga va o'z g'oyalarini hamkorlikda qurishga chaqiradi". Ba'zi talabalar o'z g'oyalarini tanqid qilishdan ham foyda ko'radilar, chunki ular fikr-mulohazalarni qabul qilishlari va shu asosda o'z g'oyalarini qurishlari kerak. Loyihaga asoslangan ta'lim tomonidan o'rgatilgan ko'nikmalar talabalarning sinfdagi muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.<sup>9</sup>

Kreativlik "iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarga "tadbirkor ko'zi" bilan qarashni, yangi g'oyalarni yaratish uchun to'g'ri savollarni berishni va bu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish uchun yetakchilikni namoyish qilishni" o'z ichiga oladi Loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturiga kiritilishi kerak bo'lgan muhim ta'lim strategiyasidir, chunki u murakkab real dunyo muammolariga yechim topishga harakat qilishni o'z ichiga oladi. Ushbu murakkab masalalarning Google'da qidiriladigan javoblari yo'qligi sababli, yangi g'oyalarni ko'rib chiqish va ijodiy, mos yechimlarni ishlab chiqish uchun kreativlik zarurdir. Loyihaga asoslangan ta'lim talabalarga "yangi yoki ilgari noma'lum g'oyalarni yaratishda yoki tanish g'oyalarni yangi usulda ko'rib chiqishda va bunday g'oyalarni ma'lum bir sohada yangi deb tan olingan mahsulot, xizmat yoki jarayonga aylantirishda" yordam berish orqali talabalaridagi ijodkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Talabalarning fikr-mulohazalari Loyihaga asoslangan ta'limning hamkorlikdagi tabiati va kreativlik o'rtasida ijobiy bog'liqlik borligini ko'rsatdi. Ular bu ijodiy g'oyalarni qo'llab-quvvatlashini his qilishadi, chunki talabalar g'oyalarni ishlab chiqish va muhokama qilish uchun guruhlariga ega.

Tavakkalchilik talaba uchun sinfda va undan tashqarida muvaffaqiyatga erishish uchun muhim mahoratdir. Hutchinson (2015) Loyihaga asoslangan ta'lim va ishchi kuchi o'rtasida muhim aloqani o'rnatadi, chunki loyihaga asoslangan ta'lim professional loyiha menejerlari tomonidan biznes dunyosida qo'llaniladigan bir xil yaxshi sinovdan o'tgan tamoyillarga asoslanadi. Bundan tashqari, u ommaviy mahsulotni talab qilganligi sababli,

talabalar o'z loyihalarini baham ko'rishga tayyor bo'lishlari kerak bo'ladi.

Fullan va Scott (2014)larning fikriga ko'ra, "muloqot uchta ravonlikni o'zlashtirishni talab qiladi: raqamli, yozish va turli auditoriyalar uchun mo'ljallangan nutq". Muloqot loyihaga asoslangan ta'lim bilan shug'ullanadigan talabalar tomonidan ishlab chiqilgan muhim mahoratdir.

Loyihaga asoslangan ta'lim bilan shug'ullanayotganda, samarali muloqot o'quvchilarda rivojlantirish uchun zarur bo'lgan ko'nikma hisoblanadi, chunki bu guruhning birlashishi uchun zarurdir<sup>10</sup>. O'qituvchilar loyihaga asoslangan ta'limni amalga oshirganda, haqiqiy jamoa tajribasi muvaffaqiyat uchun samarali muloqotni muhim deb biladi. Shuning uchun Loyihaga asoslangan ta'lim talabalarga ish joyidagi muhim ko'nikma bo'lgan guruh sharoitida qanday qilib samarali muloqot qilish haqida muhim saboqlarni o'rgatadi. Muloqotning bu turi guruh a'zolari o'rtasidagi og'zaki nutq shaklida ham ochiq, ham tana tili va ko'z bilan aloqa qilish shaklida yashirin bo'ladi. Guruh a'zolari ijtimoiy sezgirlikni namoyon etishlari kerak, chunki ular tegishli ijtimoiy xulq-atvorni tartibga soluvchi guruh normalari haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishlari muhim. Loyihaga asoslangan ta'lim o'qituvchilar uchun ta'lim strategiyasi sifatida foydalanishi uchun muhimdir, chunki u talabalar uchun kuchli muloqotni ta'minlaydi.

Loyiha asosida o'qitish talabalarga yozma va og'zaki muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish orqali ham foydalidir. Loyihaga asoslangan ta'limning tarkibiy qismlaridan biri jamoat mahsulotidir. Ushbu yakuniy mahsulot sinfdan tashqari kengroq auditoriya uchun nashr etilishi kerak (PBL Works, 2015). Ushbu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun talabalar yakuniy mahsulotni aniq, qisqa va maqsadli auditoriyaga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Loyihaga asoslangan ta'lim birligi davomida jarayonga kiritilgan fikr-mulohazalar uchun bir nechta imkoniyatlar mavjud. Talabalar ushbu qayta aloqa tizimidan qimmatli muloqot qobiliyatlarini o'rganadilar. Bu ko'nikmalar talabalarning rivojlanishi uchun zarurdir va loyihaga asoslangan ta'lim ularni haqiqiy va qiziqarli tarzda shakllantirishga yordam beradi.

Tanqidiy fikrlash - bu "loyihalarni ishlab

chiqish va boshqarish, muammolarni hal qilish va turli xil vositalar va resurslardan foydalangan holda samarali qarorlar qabul qilish qobiliyati".<sup>11</sup>

Loyihaga asoslangan ta'limning yana bir afzalligi shundaki, u talabalarga qimmatli fikrlash qobiliyatlarini o'rganishga yordam beradi. Loyihaga asoslangan ta'limda talabalar aniq javob bo'lmasligi mumkin bo'lgan mahalliy va real muammolar bilan shug'ullanishadi. Ushbu muammoni hal qilish uchun talabalar "ko'pincha qarama-qarshi bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtirishlari, qayta ishlashlari, sharhlashlari, mantiqiy lashtirishlari va tanqidiy tahlil qilishlari va oqilona qaror qabul qilishlari va o'z vaqtida choralar ko'rishlari kerak". Talabalar olib boradigan tadqiqot murakkab bo'lgani uchun mulohazalar va yetarli dalillardan foydalangan holda olingan ma'lumotlar va aloqalar haqida "axborotli mulohazalar va tanlovlar" qilishlari kerak bo'ladi. Loyihaga asoslangan ta'limda o'z-o'zini baholash va mulohaza yuritishga urg'u berish talabalarga ushbu qimmatli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Blumning ta'lim maqsadlari taksonomiyasining o'rganish nazariyasi chuqurroq bilim olishning ahamiyatini muhokama qiladi. Loyihaga asoslangan ta'lim buni qo'llab-quvvatlashi mumkin, chunki u "o'quvchilarning asosiy darajadan (bilim) yuqori darajaga (ijodkorlik) rivojlanishiga hissa qo'shadi".

Loyihaga asoslangan ta'lim integratsiyasini qo'llab-quvvatlash uchun foydali texnologiya

Texnologiyadan foydalanish sinfda loyihaga asoslangan ta'limni qo'llab-quvvatlash uchun juda foydalidir. Texnologiya, shuningdek, loyihaga asoslangan ta'limda qo'llab-quvvatlanadigan ko'nikmalarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Loyihaga asoslangan ta'limning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri moslashuvchan va qo'llab-quvvatlovchi sinf muhitini yaratishdir. Muvaffaqiyatga erishish uchun ijobiy o'qituvchi-talaba va tengdosh munosabatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ijobiy muhit talabalarning o'rganishiga ham foyda keltiradi, chunki ular sinfda o'zlarini xavfsiz qo'llab-quvvatlaydilar.

Talabalar guruhlarda ishlayotganda, g'oyalar yaratish eng qiyin komponentlardan biri bo'lishi mumkin. XXI asr zamonaviy texnologiyalar asri talabalarga Google Keep (Google Keep, n.d.), Padlet (Padlet, n.d.) va

Tinglink (Thinglink, n.d.) kabi o'z fikrlashlarini xaritalash va tasavvur qilishda yordam beradigan vositalarni taklif qiladi. Xususan, ushbu vositalarning barchasi aqliy hujum, ongni xaritalash, g'oyalar va vizuallarni kuzatib borish uchun foydalidir. Xususan, Google Docs (Google Docs, n.d.), Google Forms (Google Forms, n.d.), Google Slides (Google Slides, n.d.), Google Sheets (Google Sheets, n.d.), Mindomo (Mindomo, n.d.) va Padlet (Padlet, n.d.) ham guruh aqliy hujumini, ham loyiha boshqaruvini qo'llab-quvvatlashi mumkin. Ushbu vositalar, shuningdek, o'qituvchilarga har bir guruh a'zosining hissalarini baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalar har bir talaba qanchalik mazmunli hissa qo'shganini ko'rishlari mumkin, chunki barcha tahrirlar alohida talabalarga birlashtirilgan. Ushbu vositalar, xususan, Google Docs (Google Docs, n.d.) va Google Slides (Google Slides, n.d.) Loyihaga asoslangan ta'limning asosiy komponenti bo'lgan fikr-mulohaza aylanishi uchun foydalidir.

Loyihaga asoslangan ta'lim ijodiy texnologiyadan foydalanishni qo'llab-quvvatlaydi, chunki talabalar ushbu mahsulotni yaratish va maqsadli auditoriya bilan baham ko'rishlari kerak. Yakuniy ommaviy mahsulotni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan ko'plab texnologik vositalar mavjud. Bularga misol sifatida YouTube (YouTube, n.d.) va Blogger (Blogger, n.d.) ni keltirish mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'lim o'quv dasturiga integratsiya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar XXI asr kompetensiyalarini bilvosita rivojlantirish usuli sifatida sinfga haqiqiy tajribalarni olib kirishlari kerak. Ushbu ko'nikmalar talabalarning jamoalarda muvaffaqiyatli ishlashi va yakuniy loyhasini bajarishi uchun zarurdir. Talabalarning o'rganishi loyihaga asoslangan ta'lim jarayonining ishi bilan boshqariladi. Xususan, talabalarni haqiqiy dunyo muammosiga jalb qilish ulardan samarali hamkorlik qilish, muloqot qilish, ijodiy bo'lish, yangi yechimlarni topish va tanqidiy fikrlash bo'lishni talab qiladi. Loyihaga asoslangan ta'lim shuningdek, kontentning uzoq muddatli saqlanishini oshiradi, muammolarni hal qilish va hamkorlik ko'nikmalarini yaxshilaydi va talabalarning o'rganishiga bo'lgan munosabatini yaxshilaydi.

<sup>8</sup> Stozhko, N., Bortnik, B., Mironova, L., Tchernysheva, A., & Podshivalova, E. (2015). Interdisciplinary project-based learning: Technology for improving student cognition. *Research in Learning Technology*, 23(1), 27577. Retrieved from <https://doi.org/10.3402/rlt.v23.27577>

<sup>9</sup> Lee, D., Huh, Y. and Reigeluth, C.M. (2015). Collaboration, intragroup conflict, and social skills in project-based learning. *Instructional Science*, 43(5), 561-590.

<sup>10</sup> Brown, J., Collins, A., & Duguid, P. (2017) *Situated Cognition*. [Web page]. *Learning Theories*. Retrieved from <https://www.learning-theories.com/situated-cognition-brown-collins-duguid.html>

<sup>11</sup> Fullan, M., & Scott, G. (2014, July). *New Pedagogies for Deep Learning Whitepaper: Education PLUS*. [PDF file]. Seattle, USA: Collaborative Impact SPC. Retrieved from <https://www.michaelfullan.ca/wp-content/uploads/2014/09/Education-Plus-A-Whitepaper-July-2014-1.pdf>

## MUAMMOLI VAZIYATLAR METODI - MATEMATIKA FANINI SAMARALI O'QITISH OMILI SIFATIDA

*Murod Barakayev* - p.f.n., professor, Toshkent davlat pedagogika universiteti  
*Abduvali Shamshiyev* - i.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti  
*Elyor Ostonayev* - o'qituvchi, Toshkent shahar Mirobot tuman 154-maktab

**Annotatsiya:** Maqola ta'lim samaradorligini oshirishda "Muammoli vaziyat" metodining ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda muammoli vaziyat, undan matematika darslarida foydalanishga doir masalalarni yechish metodikasi keltirilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена применению метода проблемных ситуаций в повышении эффективности обучения, в ней представлена методика решения проблемной ситуации, вопросы, связанные с ее использованием на уроках математики.

**Abstract:** The article is devoted to the application of the method of problem situations in improving the effectiveness of teaching, it presents a method for solving a problem situation, issues related to its use in mathematics lessons.

**Kalit so'zlar:** masala, muammo, muammoli vaziyat, noma'lum, muammoli vaziyat metodi.

**Ключевые слова:** проблема, проблема, проблемная ситуация, неизвестность, метод проблемной ситуации.

**Keywords:** problem, problem, problem situation, uncertainty, method of problem situation.

"Fikrlash odatda muammo yoki savol bilan boshlanadi..."

С.Л. Рубинштейн

Matematika turkumidagi fanlar uzluksiz ta'lim tizimida o'qitiladigan asosiy o'quv fanlaridan biri hisoblanib, ular boshqa fanlarni o'qitish va o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki matematika turkumidagi fanlar bilim o'quvchilarda boshqa fanlarni yetarli darajada o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni hosil qilishi bilan bir qatorda yetuk va malakali mutaxassis-kadr bo'lib yetishi uchun zarur bo'lgan mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi va rivojlantiradi. Shuning uchun hamma davrlarda ham matematika fanini samarali o'qitish ta'lim tizimi oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib kelgan.

Mazkur muammoni hal etishda har bir darsda Muammoli vaziyatlar metodidan foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishda muhim hisoblanadi. Bunda birinchi navbatda matematika bo'yicha nazariy materiallarni o'rganishda metodist-olim, pedagogika fanlari doktori, professor N.R.G'aybullayev har bir mavzuni o'rganish rejasini tuzishda quyidagi tamoyillarga amal qilish kerak ekanligini ta'kidlaydi<sup>1</sup>:

Rejaning nazariy asosini bevosita unga bog'liq bo'lgan ma'lumotlar tashkil etishi kerak.

Ko'rsatmalar tizimi diskret xususiyatga ega bo'lib, mavjud bir jinsli masalalar sinfiga

nisbatan umumiy bo'lishi lozim.

Ko'rsatmalar tizimi mazmun jihatdan to'la va yetarli bo'lishi, ya'ni o'qitish va o'rganish faoliyatini yaxlit holatda qaraganda oxirgi natijaga (maqsadga) samarali erisha olishni kafolatlashi (bunda o'quvchilarni oraliq ma'lumotlar bilan ta'minlashi zarur).

Ko'rsatmalar tizimi ziddiyatsiz va yaxlit bo'lishi, ya'ni har bir oldingi ko'rsatma (yoki ko'rsatmalar guruhi) oz bo'lsada, keyingi ko'rsatmalarga uzatuvchi, keyingisi esa oldingisining mantiqiy davomi bo'lishi kerak.

Reja bandlarining soni ko'p bo'lmaligi kerak. Bu ba'zi qadamlarni birlashtirish yoki yanada mayda qadamlarga bo'lish imkonini beradi. Rejani erkin ravishda amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ko'rsatmalar tizimi bir xil tipdagi masalalarni bir necha marta yechish imkonini berishi hamda ommaviy xususiyatga ega bo'lishi kerak.

Egallangan nazariy bilimlarni amaliy qo'llay olish ko'nikmalarini shakllantirishda "Muammoli vaziyat" metodi muhim o'rin tutadi.

Ma'lumki, inson o'z hayotiy faoliyati jarayonida turli qiyinchiliklarga duch keladi. Mazkur qiyinchiliklar yechimini topish jarayonida esa muammoli vaziyat yuzaga keladi. Bunda muammoli vaziyatlar asosan quyidagi holatlarda yuzaga keladi:

maqsadga erishish yo'lida to'siqlarning

bo'lishi;

mavjud hamda talab qilinayotgan bilimlarning o'zaro nomutanosibliigi va h.z.

Muammol vaziyat va masala o'rtasida farq mavjud bo'lib, odatda "muammoli vaziyat" masaladan oldin yuzaga keladi. Bu inson o'z faoliyatida murakkab hamda hozircha o'zi uchun tushunarsiz bo'lgan qiyinchilik bilan to'qnash kelganligini anglatadi va bu muammoli vaziyat hisoblanadi.

Muammoli vaziyat yuzaga kelganda uning asosiy elementi sifatida hal etilishi, aniqlanishi va yechilishi zarur bo'lgan noma'lumlar namoyon bo'ladi va shundan so'ng esa masala hosil bo'ladi.

Eslatma. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga muammoli vaziyatni shunday yuzaga keltirish kerakki, bunda mazkur muammoli vaziyat hal qilinishi kerak bo'lgan masalaning javobiga aylansin.

Odatda, bir kishi uchun muammoli bo'lgan masala ikkinchi bir kishi uchun muammo tug'irmasligi mumkin. Shuning uchun ham muammo - bu masalani yechish jarayonida duch kelinadigan qiyinchiliklar yig'indisidir.

Muammoli vaziyatda "noma'lum", masalada esa "izlanuvchi" asosiy element hisoblanadi. Bunda "noma'lum" umumiyashtirish darajasiga, "izlanuvchi" esa ko'pgina hollarda yagona bir kattalik yoki munosabatga ega bo'ladi va muammoli vaziyatlarda ham masala kabi shartlar mavjud bo'ladi.

Eslatma. Masalada qo'yilayotgan shart va talablar o'zaro bir-birlarini to'ldirib turadi va bular masala o'z yechimiga ega bo'lishini ta'minlaydi. Muammoli vaziyatda esa bunday tayyor yo'nalish bo'lmaydi.

Ta'lim jarayonida noma'lumni izlash muammoli vaziyatni hosil qilishning asosiy bosqichlaridan biri bo'lib, u mazkur ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishda asosiy vazifani bajaradi.

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, Hozirgi kunda ta'lim samaradorligini oshirishda, ayniqsa "Matematika" fanini o'qitish samaradorligini oshirishda "Muammoli ta'lim" texnologiyasi muhim o'rin tutishi sir emas. Lekin mazkur texnologiyadan samarali foydalanishda o'rta umumta'lim maktablari o'qituvchilari ko'pgina qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

Eslatma. Ta'lim jarayonida o'quvchilarga muammoli vaziyatni shunday yuzaga keltirish kerakki, bunda mazkur muammoli vaziyat hal qilinishi kerak bo'lgan masalaning javobiga aylansin.

Masala o'z yechimini topish jarayonida har qanday kishi uchun amaliy yoki nazariy qiyinchiliklaryuzagakeltiradivaundanyechimga

olib keluvchi ijodiy izlanishni talab qiladi. Shaxs tomonidan mazkur qiyinchiliklarning yengib o'tilishi esa masalaning muammolilik xususiyatini yo'qotadi.

Masalan. Rossiyalik T.A.Ball, A.N.Leontev, Y.A.Ponamarev kabi metodist olimlar masalani muammoli vaziyat sifatida qarab, unga subyekt sifatida yondashadilar. Shuning uchun ham ular subyektsiz masala bo'lmaydi - deb qarashadi, ya'ni bir subyekt uchun masala bo'lgan holat ikkinchi subyekt uchun masala bo'lmaligi mumkin. Masalaga subyekt-obyekt sifatidagi yondoshuv muammoli o'qitish jarayonini keng qamrovli va tizimli tadqiq etish imkonini beradi<sup>2</sup>.

Masalaga subyekt-obyekt yondashuvi - uni mustaqil bir obyekt sifatida o'rganadi. Mazkur yondoshuv doirasida masalaning tarkibiy qismi quyidagilardan iborat bo'ladi: masalaning predmetili sohasi; masalaning munosabati; masalaning sharti; masalaning operatori<sup>3</sup>.

Masalaning tarkibini bilish: uning hal etuvchisiga unga nisbatan tartibli yondoshishga va dastlabki bosqichlaridanoq shartni anglab, masalani tez va oson yechish imkoniyatini yaratadi. Bunda dastlab:

masalaning predmet sohasida nimalar berilganligi;

so'ngra bu elementlarni qanday munosabatlar bog'lab turishi;

masalaning sharti nimalardan iboratligi;

masalada noma'lum yordamchi elementlar mavjudligi;

masala operatoriga nisbatan qanday taxminlar bo'lishi mumkinligi haqida fikrlanadi.

Masala-1. "Uchta bo'yoqchi usta uyning devorini katetlari 3 m va 4 m bo'lgan to'g'riburchakli uchburchak shaklida bo'yashlari kerak. Agar qoplama maydoni 10 g / kv.m bo'lsa, ular uchun 1 quti bo'yoq yetarli bo'ladimi?"

Yechish: Dastlab masalani matematika tiliga ko'chiramiz:

"Agar to'g'ri burchakli uchburchakning katetlaridan biri 3 m, ikkinchisi 4 m bo'lsa uning yuzi (S) ni toping".

Eslatma. Ba'zi o'quvchilar to'rtburchakning yuzini topish formulasi yordamida muammoni hal qilish bo'yich taxmin qilishi mumkin.

Birinchi muammoli vaziyat.

"To'rtburchakning yuzini topish formulasini bilgan holda to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini qanday hisoblash mumkin?"

O'quvchilar taklif qiladilar: Berilgan to'g'ri burchakli uchburchakni to'g'ri burchakli to'rtburchakka to'ldiramiz (Agar to'g'ri burchakli uchburchakni to'g'ri burchakli

<sup>2</sup> N.M.Roganovskiy, Ye.N.Roganovskaya. "Metodika prepodavaniya matematiki v sredney shkole". Chast 1. - Mogilev, 2010, -C. 220-221.

<sup>3</sup> M.Tojiyev, M.Barakayev, A.Xurramov. Matematika o'qitish metodika fani o'quv mashg'ulotlarining loyihasi. - T.: "Fan va texnologiyalar", 2015, 224-b.



to'rtburchakgacha to'ldirsak, ikkitadan tomonlari mos ravishda teng bo'lgan ikkita teng uchburchak hosil bo'ladi).

To'g'ri to'rtburchakning yuzini hisoblang, so'ngra to'g'ri burchakli uchburchakning yuzini toping.

Ikkinchi muammoli vaziyat: agar uchburchaklar turli ko'rinishlarda bo'lsa, har doim olingan formuladan foydalana olamizmi?

Masala-2. "Har qanday o'tkir burchakli uchburchakning yuzini toping".

Masalani hal etishda o'quvchilar o'tkir burchakli uchburchakni parallelogrammgacha to'ldirishni taklif qilishadi.

Hosil bo'lgan 2 ta uchburchak, uchburchaklar tengligining uchinchi alomatiga ko'ra teng ekanligini isbotlaymiz.

O'qituvchi: Parallelogramm yuzini toppish formulasini ayting. Shu asosda har qanday o'tkir burchakli uchburchakning yuzini hisoblash formulasini keltirib chiqaring?

Masalasining savoliga javob beramiz: har qanday o'tkir burchakli uchburchakning yuzi uning asosi va balandligi ko'paytmasining yarmiga teng.

Uchinchi muammoli vaziyat: "Har qanday o'tmas burchakli uchburchakning yuzini toping" (o'quvchilar yuqoridagilarga asoslangan holda o'zlari mustaqil bajara olishadi).

Talabalar bu muammoni tezda hal qilishadi.

Endi asosiy muammoni hal qilamiz: "Ixtiyoriy uchburchakning yuzini toping". Barcha holatlarni tahlil qilib, xulosa chiqaring".

Savol: Ixtiyoriy uchburchakning yuzi qanday hisoblab topiladi?

O'quvchilar javobi: "Ixtiyoriy uchburchakning yuzi uning asosi bilan balandligi ko'paytmasining yarmiga teng".

Endi geometriya fanidan ayrim mavzularni muammoli vaziyatlar metodi asosida tashkil etishni ko'rib chiqaylik:

1. 6-sinf, Matematika. Mavzu: "Tub va murakkab sonlar"

O'qituvchi: "G'alvir so'zi nimani anglatishini bilasizmi?"

O'quvchilar o'z fikrlarini bildiradilar, ushbu fanning tavsifi, uning hayotda qo'llanilishining o'rnini va maqsadi haqida gapiradilar.

O'qituvchi: "Matematikada g'alvirdan foydalanish mumkinmi?"


Fikrlar almashinuvi bo'ladi, keyin o'qituvchi Eratosfen g'alviri haqida tarixiy ma'lumotlar e'lon qiladi.

O'qituvchi: Sizningcha, dars mavzusi nima?

O'quvchilar dars mavzusini tuzadilar Agar

zarurat bo'lsa, o'qituvchi boshchiligida dars mavzusi tuzatiladi va darsning maqsadlarini shakllantirish taklif etiladi. O'quvchilarning darsning maqsadi va ularga erishish uchun vazifalarni shakllantiradilar.

2. 8-sinf. Geometriya. Mavzu: "Trapetsiya"



O'qituvchi o'quvchilarga bir qancha orasida yashil rangga bo'yalgan trapetsiya bo'lgan to'rtburchaklarni ko'rib chiqishni taklif qiladi.

O'qituvchi: Slayddagi shakllarga qarang. Nimani sezdingiz?

O'quvchilar javob beradilar: Rasmlarda tasvirlangan, 4 soni bilan belgilangan shakl yashil rangga bo'yalganligi bilan farqlanadi.

O'qituvchi: Bu shakllarda qanday umumiylik bor?

O'quvchilar javob berishadi: "Barcha shakllar to'rtburchaklardir".

O'qituvchi: "Ajrati ko'rsatilgan (yashil rangga bo'yalgan) to'rtburchak boshqalardan nimasi bilan farq qiladi?"

O'quvchilar javob berishadi: "Bu parallelogramma emas. Uning ikkita tomoni parallel, qolgan ikkita esa parallel emas."

O'qituvchi: Bu to'rtburchak nima deb nomlanishini kim biladi?

O'quvchilar javob berishadi yoki javob bera olishmaydi. Shundan so'ng o'qituvchi bu shakl nomini e'lon qiladi.

O'qituvchi: Sizningcha, dars mavzusi nima?

O'quvchilar tomonidan o'qituvchi boshchiligida dars mavzusi shakllantiriladi. Bunda asosiy e'tibor ajratib ko'rsatilgan to'rtburchak tomonida berilgan nom va bu shakl tahliliga asoslaniladi.

Maktabda matematika darslarini tashkil etishda bunday yondoshuv asosida masalani yechish o'quvchilarni angalangan holda bilimlarni egallashini ta'minlaydi va pirovardida ularning matematika fanini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi.

## O'ZBEKISTONDA VETERINARIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Abdullo Yashinovich Samiyev - o'qituvchi, Samarqand veterinariya meditsinasi instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola O'zbekistonda veterinariya fanining rivojlanishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar tarixiga bag'ishlangan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена истории развития ветеринарии в Узбекистане и работе, проделанной в этой области.

**Abstract:** This article is devoted to the history of the development of veterinary science in Uzbekistan and the work done in this area.

**Калит so'zlar:** veterinariya sohasi, Toshkentda yagona hayvonlarni davolash maskani, O'zbekistondagi veterinariya ilmiy tadqiqot muassasalari, professor A.B.Bogorodskiy, alborlen, pushpanblau, gemoeporidin preparatlari.

**Ключевые слова:** ветеринария, единственный в Ташкенте центр лечения животных, ветеринарные научно-исследовательские учреждения Узбекистана, профессор А.Б.Богородский, альборлен, пушпанблау, гемозепоридиновые препараты.

**Keywords:** veterinary, the only animal treatment center in Tashkent, veterinary research institutions in Uzbekistan, Professor A.B.Bogorodsky, alborlene, pushpanblau, hemoeporidine drugs.

Ma'lumki, qishloq xo'jaligi sohasi taraqqiyotida veterinariya sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda sovet tuzumi davrida bu borada olib borilgan ishlar garchi ziddiyatli bo'lsada, veterinariya fanining keyingi rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Keyingi yillarda O'zbekiston tarixi fanida sohalar tarixi o'rganishga qaratilgan tadqiqot ishlari ko'payib bormoqda. Shular orasida qishloq xo'jaligining asosiy yo'nalishlaridan hisoblangan veterinariya sohasi tarixi ham dolzarb masalalar qatorida o'rin egallaydi. Shu jihatdan, tarixiy nuqtai nazardan sobiq sovet tuzumi yillarida O'zbekistonda veterinariya sohasining ahvoli, soha kadrlarini tayyorlash va erishilgan ilmiy tadqiqot ishlarini ochib berish dolzarb ilmiy masala hisoblanadi.

O'zbekistonda XX asrning boshlarida veterinariya sohasiga bo'lgan e'tibor sust edi. Masalan, O'zbekistonning yirik hududlaridan biri Toshkentda bitta hayvonlarga (yordam ko'rsatish) davolash maskani mavjud edi. Bu esa o'z navbatida hayvonot olamiga yetarli darajada veterinar yordam ko'rsatilmaganligini bildiradi. Bu esa o'z navbatida, hayvonlar o'rtasida bir qator kasalliklarning avj olishiga olib keldi. Masalan, bu paytda o'lat va plevropnevmoniya, otlarning yuqumli pnevmaniya kasalligi, yirik shohli mollardagi chungayma, Sibir va boshqa kasalliklarning ko'payishiga olib keldi.

Bunday salbiy holatlarning oldini olish va bartaraf etish bo'yicha tegishli ishlar amalga

oshirildi. Jumladan, sovet hukumatining qarori bilan O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot instituti tashkil etilgan bo'lsa, 1924-yilning mart oyidagi qarori bilan Toshkentda o'lka veterinariya bakteriologiya laboratoriyasi tashkil etildi. Biroz vaqtdan so'ng mazkur laboratoriya O'rta Osiyo veterinariya bakteriologiya laboratoriyasi deb qayta nomlangan bo'lsa, 1926-yilda esa veterinariya bakteriologiya institutiga aylantirildi. Amalga oshirilgan bunday ishlar soha rivojida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Hayvonot olamidagi yuqumli va yuqumsiz kasalliklariga qarshi kurashning ilmiy asoslangan tizimlarini yaratish va amaliyotga tadbiiq etishi evaziga turg'un va sog'lom epizootik holatni barpo etishga erishish, veterinariya sohasida yuzaga kelgan muammolarni o'rganish, chorva mollari mahsulotlarini oshirish, aholini odam va hayvonlar uchun umumiy bo'lgan hamda respublikaga kirib kelish xavfi bo'lgan kasalliklardan himoya qilish kabi dolzarb masalalar soha tadqiqotchilari oldidagi muhim vazifa sifatida belgilandi. Shu bilan birgalikda, veterinariya amaliyoti uchun raqobat bardosh va yuqori samarali mahalliy biologik preparatlarni yaratish, kimyoviy preparatlar miqdorini esa keskin kamaytirish asosiy vazifalar qatoriga kiritildi.

O'zbekistondagi veterinariya ilmiy tadqiqot muassasalari olimlar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlanmalarning amaliyotga

tadbiq etilishi natijasida, respublikada chorvachilikka keskin zarar keltiruvchi qoramollarning o'lat va plevropnevmaniya, otlarning yuqumli plevropnevmoniya kasalligi, manka, yuqumli ensefalomielit kabi kasalliklar butunlay bartaraf etildi. Hayvonlar orasida ko'p uchraydigan kuydirgi, qorason, quturish, leptospiroz, qo'tir, chechak va boshqa infeksiya, invezion kasalliklaridan keladigan zarar kamaytirildi<sup>1</sup>.

Mazkur yillarda O'zbekistonda olimlardan M.C.Abidjanov, V.K.Prinko, R.G.Yarayev, R.A.Ismatova kabi olimlar chorva mollarning bursilyoz kasalligi bo'yicha o'zlarining ilmiy izlanishlarini olib borishgan bo'lsa, N.M.Mamatov, X.S.Salimovlar esa quturish kasalligi bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar<sup>2</sup>.

1924-yildan e'tiboran soha tadqiqotchilari tomonidan hayvonlarda uchraydigan kasalliklarning epizootik holatini o'rganish, shuningdek, qorako'l qo'y va qo'zilar, buzoqlar hamda tuya bolalari kasalliklarini o'rganish ishlari olib borildi. Jumladan, professor G.A.Obordo'yev boshchiligidagi olimlar jamoasi tomonidan 1924-1934-yillarda qishloq xo'jalik hayvonlarining infeksiya kasalliklariga tashxis qo'yish va oldini olish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqot ishlarini olib borilgan bo'lsa, 1934-yilda professor I.D.Do'kalov boshchiligidagi tadqiqotchilar tomonidan qorako'l qo'y va qo'zilar, buzoqlar hamda tuya bolalari kasalliklarini o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ishlarini amalga oshirildi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy izlanishlar natijasida kuydirgi kasalligiga qarshi vaktsina va qon zardobi, qorason kasalligiga qarshi formor vaktsina, bursilyoz ontipeni va boshqa bir qancha preparatlar tayyorlandi, ilk bor echkilarning yuqumli plevropnevmoniya kasalliklarining etiologiyasi o'rganildi, 1937-yilda esa G.A.Obordo'yev tomonidan birinchi marta O'zbekiston rayonlarining epizootik kartasi ishlab chiqildi<sup>3</sup>.

Bu boradagi ishlar keyingi yillarda ham davom ettirildi. Jumladan, 1936-1941 va 1946-1955-yillar davomida professor A.B.Bogorodskiy va uning shogirdlari tomonidan alborlen, pushpanblau, gemoeporidin preparatlarini korashapar davolash profilaktika qilishdagi samaradorligi aniqlanib, veterinariya amaliyotiga joriy qilingan bo'lsa, P.N.Li tomonidan esa 1959-1960-yillarda

propiazmidozlarni epizootik holatini o'rganilib, ularni berinip azidin preparatlari bilan davolash va profilaktika qilishdagi samaradorligi aniqlandi va veterinariya amaliyotiga joriy qilindi<sup>4</sup>.

Shuni alohida takidlab o'tish joizki, mazkur yillar davomida O'zbekistonda veterinariya fanini yo'lga qo'yish va rivojlantirishda O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining o'zni beqiyos bo'ldi. Institut tashkil etilgan dastlabki paytlardan e'tiboran yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish bo'yicha xalq xo'jaligi ahamiyatiga molik yirik ilmiy tadqiqotlar o'tkazildi. Jumladan, I.A.Dukalov va I.C.Porkovnikovsalar tomonidan birinchi bo'lib echkilarning plevropnevmoniyasini<sup>5</sup> virus qo'zg'atishi aniqlangan bo'lsa, T.D.Lukashenka, C.P.Irinovlar tomonidan ushbu kasallikka qarshi yuqori samarali vaktsina yaratildi. Natijadan, mazkur kasallikni mamlakat hududida tugatgani uchun, o'tgan asrlarning 40-yillarda vaktsinaning mualliflaridan biri F.D.Lukashenka davlat mukofoti laureatiga sazovor bo'lgan edi.

Hayvonlarda uchraydigan kasalliklarning oldini olish va ularni bartaraf etish borasidagi ishlarni tizimlashtirish maqsadida tegishli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1970-yildan e'tiboran O'zbekiston veterinariya ilmiy tadqiqot institutining virusologiya laboratoriyasida tadqiqotlar qo'ylarning bola tashlash sabablarini o'rganish va ularga qarshi kurash tizimlarini yaratish hamda quturish kasalliklarini epizootopogiyasi o'rganish va uning maxsus proflaktikasini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda olib borildi.

Mazkur muammolar bo'yicha laboratoriyada bir qancha tadqiqot ishlarini ham olib borildi. Jumladan, A.A.Abdisatorov tomonidan 1983-yilda ushbu yo'nalishda nomzodlik keyinchalik (2000) doktorlik dissertatsiyasi yoqlangan bo'lsa, 1984-yilda R.Qurbonov tomonidan nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilindi. Amalga oshirilgan tadqiqot ishlarini ushbu muammoni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Respublikadagi Veterinariya fanining rivojida Samarqand qishloq xo'jaligi institutida amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Institut tadqiqotchilari tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida institutda ishlab chiqarilgan bialogik preparat va diagnostika hisobiga chet eldan

<sup>1</sup> Узбекский научно исследовательский Ветеринарный институт 50 лет. Издательство "Узбекистан". Ташкент - 1974 г. -С. 12

<sup>2</sup> Samarqand Qishloq xo'jalik instituti 70 yoshda (institutimiz tarixiga bir nazar...). Samarqand -1999-yil. -B15.

<sup>3</sup> Umri ilm-fanga baxshida ustoz (Yoznoma). Samarqand- 2013-yil. -B 28.

<sup>4</sup> Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutiga 90-yil. Samarqand -2016-yil. -B 41

<sup>5</sup> Echkilarning yuqumli plevropnevmoniyasi yuqumli kasallik hisoblanadi. Echkichilik xo'jaliklari uchun juda katta iqtisodiy zarar yetkazadi. Kasallik birinchi marta uchraganda 90-100 foizgacha echkilar o'ladi. Bo'g'oz echkilar yoppasiga bola tashlaydi. Karantin belgilash va veterinariya profilaktikasi uchun ham katta mablag' talab qilinadi.

preparatlar keltirish uchun sarflanayotgan vaktsina sarfi kamaydi.

Mustaqillik yillarida institutning ilmiy va amaliy faoliyati yanada jadallashdi. Jumladan, bu davrda institutda 4 nafar fan doktori 20 dan ortiq fan nomzodlari tayyorlandi, qishloq xo'jaligi hayvonlari kasalliklarini oldini olish va davolash maqsadida veterinariya amaliyoti uchun 50 dan ziyod tavsiyanoma va qo'llanmalar ishlab chiqilib, joriy etildi. Bundan tashqari, 15 turdan ortiq veterinariya preparatlarini yaratilib, sinovdan o'tkazilgan bo'lsa, ularning 5 tasi import o'rnini bosuvchi preparatlar hisobiga to'g'ri keldi<sup>6</sup>.

Institutda ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish ishlari ham olib borildi. Jumladan, institutning ishlab chiqarish sexlarida qo'shimcha 10 turdagi veterinariya preparatlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi, monoftorin preparatini ishlab chiqarish texnologiyasi takomillashtirilishi natijasida

chetdan keltirilayotgan vositalar o'rnini bosuvchi preparatlarning o'zimizda ishlab chiqarilishi va qo'llanilishi yo'lga qo'yildi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, O'zbekistonda veterinariya fanining yo'lga qo'yilishi o'zining bir qator ijobiy natijalari bilan O'zbekiston qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik, veterinariya sohalarida erishgan yutuqlari bilan iqtisodiyotni rivojlanishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, O'zbekiston veterinariya (ilmiy tadqiqot) institutining faoliyati yo'lga qo'yildi. Ilmiy tadqiqot va izlanishlar natijasida, bir qator kasalliklarni oldini olish, bartaraf etildi. Veterinariya sohasida vaktsinalar ishlab chiqarilib, jamiyatimiz qishloq xo'jaligi, xususan, chorvachilik veterinariya sohalarida amaliyotga tadbiq qilindi va chet davlatlarga eksport qilindi.

## KIMYODAN MASALALAR YECHISHNI TASHKIL ETISHDA INDIVIDUAL VA DIFFERENSIAL YONDASHUV

*Komila Xudoyberdiyevna Abduvaliyeva - katta o'qituvchi Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Maqolada bo'lajak kimyo o'qituvchilarining 4+2 dasturi bo'yicha amaliy faoliyatiga tayyorgarligini oshirishda kimyoviy masalalar yechishni o'quvchilarga o'rgatishning individual va differensial usullaridan foydalanish metodikasi berilgan. Shuningdek, kimyoviy masalalarni tuzishda o'quvchilarning bilim darajasini hisobga olish, nostandart topshiriqlar ishlab chiqish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация:** В статье приведена методика использования индивидуальных и дифференциальных методов обучения студентов решению химических задач с целью повышения готовности будущих учителей химии к практической деятельности по программе 4+2. Также, разработаны методические рекомендации по учету уровня знаний учащихся при составлении химических задач, разработке нестандартных задач.

**Abstract:** In the article, the method of using individual and differential methods of teaching students to solve chemical problems is given in order to improve the readiness of future chemistry teachers for their practical activities under the 4+2 program. Also, methodical recommendations have been developed for taking into account the level of knowledge of students when composing chemical problems, and developing non-standard tasks.

**Kalit so'zlar:** differensial (tabaqalashtirilgan) yondashuv, individual yondashuv, ko'nikma, kompetensiya, masalalar.

**Ключевые слова:** дифференциальный (дифференцированный) подход, индивидуальный подход, мастерство, компетентность, проблемы.

**Keywords:** differential (differentiated) approach, individual approach, skill, competence, issues.

XXI asr Butun dunyo hamjamiyatida mamlakatimizda har tomonlama yetuk va bilimlar olami sifatida e'tirof etilib, jumladan, barkamol shaxslarni tayyorlash borasida

<sup>6</sup> Veterinariya ilmiy-tadqiqot institutiga 90- yil. Samarqand 2016 yil. -B 32.

ulkan ishlar amalga oshirilmoqda<sup>1</sup>. Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib borgan.

Bugungi kunda ta'limni tashkil etishning umumiy ta'lim, alohida (individual) ta'lim, tashkiliy ta'lim, sinf-dars ta'limi, kurs tizimi ta'limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda. Buning uchun yosh o'qituvchidan kuchli bilim, metodik tayyorgarlik zarur<sup>2</sup>. Biroq o'qituvchi bir vaqtning o'zida sinfning barcha o'quvchilari bilan ish olib borganida o'rtacha bilimga ega bo'lgan o'quvchiga qarab o'ltutadi. O'qitishning bunday tizimida ba'zi o'quvchilar bilimining ortishi sekinlashadi va boshqa o'quvchilar uchun yengib bo'lmaydigan darajada qiyinchiliklar yuzaga keladi. Shuning uchun o'qituvchi oldida har bir o'quvchining imkoniyatini bilish vazifasi turadi. O'qituvchi dars o'tish davomida har bir o'quvchining moyilligi, qobiliyati, qiziqishi, xotirasi va fikrlashidagi xususiyatlarini bilib oladi. Bu turli o'quvchilarga individual yondashish uchun harakat qilish va butun sinf jamoasini tarbiyalash, differensial o'qitish metodini tashkil etish imkonini beradi. Differensial (tabaqalashtirilgan) yondashish deganda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarishning shunday tizimi tushuniladi, bunda o'quvchilarning individual xususiyatlari ham, shuningdek, ayrim guruhlarining asosiy xususiyatlari ham hisobga olib boriladi.

Differensial o'qitish-bu o'quvchining bilish faoliyatini mazkur tizimda boshqarish bilan boradigan o'quv-tarbiyaviy jarayon. O'qitishda individual yondashish deganda, har bir o'quvchining individual psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish tizimi tushuniladi. Shunga mos ravishda o'qitishni tashkil etish individuallashtirilgan o'qitish deyiladi<sup>3</sup>.

Falsafaning yakkalik, xususiylik va umumiylik kategoriyalari, dialektikaning spiralsimon xususiyatga ega ekanligi, har bir tirik individning o'sish va rivojlanish jihatlarining o'ziga xosligi va o'quvchilar jamoasini tashkil

etuvchi shaxslarni inkubator jo'jalariga qiyos qilib bo'lmasligi nazarda tutilsa, kimyo o'qitishida ham tabaqalashtirilgan yondashuv naqadar muhim pedagogik tadbir ekanligi ayon bo'ladi. Kimyo o'qituvchisi o'z o'quvchilarining aqliy va jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda ularni mustaqil ishlarga turli darajada jalb etishi tabiiy jarayondir. Ushbu yondashuvni tadqiq etishdan maqsad asosiy komponent emas, shu bois, mustaqil ishlarning barcha o'quvchilar bajarishi shart yoki maqsadga muvofiq bo'lgan turlari va shakllariga asosiy e'tiborni qaratish lozim<sup>4,5</sup>.

O'qituvchi o'qitish metodlarini optimal tanlashni amalda ro'yobga chiqarar ekan, ayni bir yosh guruhning o'zidagi o'qish imkoniyatlari turlicha rivojlangan o'quvchilarning o'qish-bilish faoliyatlari xususiyatlarini nazardan qochirmasligi kerak. Bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarda mavzu ichida eng asosiy o'rinlarni ajrata olish qobiliyati, tafakkurning mustaqilligi, rejalashtirish, o'z-o'zini nazorat qilish malakalari ancha bo'sh rivojlangan bo'ladi. Shunday bo'lgach, o'z-o'zidan ma'lumki, ularda o'qish, yozish, hisoblash sur'ati nihoyatda past bo'ladi. O'qishga nisbatan salbiy munosabat ularda tez-tez uchraydi, ko'pincha ularda ongli o'quv intizomi ham bo'lmaydi. Tabiiyki, o'qituvchi darsda bo'sh o'zlashtiruvchilarga differensial yondashish vazifasini aniqlanayotganida bu holatlarning hammasini maxsus hisobga olishi kerak bo'ladi. Bunday o'quvchilarni amaliy mashg'ulotlar nazariy mashg'ulotlarga qaraganda ko'proq qiziqtiradi. Tajribali pedagoglar ana shu imkoniyatdan foydalanib, ularni amaliy ishga kengroq jalb qilishadi. Buning uchun ularning o'quv faoliyatini faol boshqarish, yangi materialni tushuntirishda ularni har tomonlama qo'llab quvvatlash, mavzuning qiyin joylarida tushuntirish sur'atini biroz sekinlatish, o'zlashtirishda qiyinchilik tug'ilganda o'quvchilar tomonidan savollar berilishini rag'batlantirish zarurdir.

Sinfdagi ko'pchilik o'quvchilarga beriladigan ayni bir topshiriqni bajarishda bo'sh o'zlashtiruvchilarga beriladigan yordamni differensiallash foydali. Bunday yordamning turlari juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, mashq, test va masalalarni yechishda muammoli hal etish yo'lini "qismlarga bo'lish", "proporsiyalarga ajratish" va hokazolarni ko'rsatish, ayni vazifaga rasm, sxema ilova qilish, agar masalalar to'plamida uning javobi yo'q bo'lsa, o'z-o'zini nazorat qilish uchun uning javobini berish, o'ylovchi savollar berish, xatolarni ko'rsatish yoki masalani yechishdagi

1 Инге Унт. Индивидуализация и дифференциация обучения. -М.: Педагогика, 1990. -192 с.

2 Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. -М.: Педагогика, 1997. -175 с.

3 Ахлебнин А.К., Лазыкина Л.Г., Лихачев В.Н. Демонстрационный эксперимент на мультимедийном компьютере //Химия в школе. -1999. -№5. -С. 57-61.

4 Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. -М.:Нардное образование, 1998. -256с.

5 Ibragimova G.T., Axmedov Q. Umumiy ximiyani mustaqil o'rganish. Toshkent- O'qituvchi, 1993. - 112b.

boshlang'ich qadamlarning to'g'riligini ma'qullash, ruhlantirish, masalani yechishda tayanilishi kerak bo'lgan qoidani ko'rsatish, masaladagi dastlabki harakatlarning rejasini berish, o'xshashlarini ko'rsatish va shunga o'xshagan masalaning yechimi bilan tanishishga ruxsat berish va kerak.

Tayyorgarligi kuchli o'quvchilar bilan ishlashga kelganda shuni aytish kerakki, darsdagi mashqlar hajmini oshirish, ularga ma'lum vaqt ichida bajarish uchun ko'proq miqdorda masala va mashqlar yoki murakkabroq topshiriqlar berish, izlanish metodlari va mustaqil ishlash metodlarini keng qo'llash kerak.

Differensial yondashish tayyorgarligi yaxshiroq o'quvchilar guruhiga ham bir vaqtda e'tibor berishni talab qiladi. Ma'lum sohadagi qobiliyatlarni rivojlantirishga doir individual uy vazifalari mazmun jihatdan endi boshqacha ahamiyat kasb etadi: masalalarni mustaqil ishlash uchun bu individual topshiriqlar darslikdagi "qo'shimcha o'qish uchun" deb ko'rsatilgan maxsus yozuv ostida berilgan materiallarni mustaqil o'qishni nazarda tutadi.

Bunday o'quvchilarga o'qish uchun tushunarli ilmiy - ommabop adabiyot yangiliklarini o'qishni tavsiya etish maqsadga muvofiqdir; "Mazkur masalani ikki usulda yeching", "Masalani mustaqil tuzing" tipidagi topshiriqlar ular uchun, ayniqsa, qimmatlidir<sup>6</sup>.

Shuningdek, o'quvchining ma'lum mavzu bo'yicha bilimlaridagi kamchilikni bartaraf etishga yo'llangan qo'shimcha mashg'ulot o'tkazishni uning sinfdosh o'rtog'iga topshirish ham foydalidir. Yordam ko'rsatayotgan o'quvchining bunday pozitsiyasi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchi uchun ham, muvaffaqiyatli ulgurayotgan o'quvchi uchun ham o'qishni faollashtirishning o'ta samarali vositasi hisoblanadi<sup>7</sup>.

O'quvchilarning kimyodan masalalar yechish usullarini o'rganishlarida differensial topshiriqlarning muhim. Ular o'quvchilarda individual xususiyatlaridagi farqlarga ko'ra o'qitishda uchta dinamik guruhga bo'linadi-quyi, o'rtacha va yuqori bilimli o'quvchilar (tegishli I, II va III guruhlar). T.V.Cheremuxinaning ta'kidlashicha, o'qitish jarayonida guruh tarkibi o'zgaradi, biroq o'qituvchi oldida doimo yagona vazifa u ham bo'lsa, har bir o'quvchini o'qitishning ayni bosqichida o'zining eng maksimal imkoniyatlaridan foydalanishdek maqsadga yo'naltirishdir.

U uchta dinamik guruhni quyidagicha ta'riflaydi.

I guruh hatto eng sodda analiz qila olish uquviga ham ega bo'lmagan, kimyoviy fikrlay

olmaydigan, moddaning ichki tuzilishini uning kimyoviy va fizik xossalari bilan mantiqiy bog'lay olmaydigan o'quvchilarni birlashtiradi. Sinf uchun berilgan masalani ular yecha olmaydi, chunki uning mazmuni va bajarish usullari bu guruh o'quvchilari uchun tushunarsiz bo'lib ko'rinadi.

II guruh berilgan kimyoviy masalani yechishda reproduktiv xarakterli fikrlash va harakat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan o'quvchilarni birlashtiradi. Ularning ishlaridagi asosiy metod - avvalgi tajribaga suyanish: undan yangi vaziyatda shablon sifatida foydalanish istagi sezilib turadi.

III guruhga bilishga doir berilgan masalaga ma'lum ma'noda ijodiy yondashishi bilan ajralib turadigan o'quvchilar kiradi. Ular yuqori darajada faolligi va masala variantlarini egallashi hamda bajarishining ko'p qirraliligi, berilgan kimyoviy masalalarni yechish uchun eng samarali usulni topishda yuqori darajada faollikni namoyon etishi bilan ajralib turadi.

Bu guruh o'quvchilari I va II guruh o'quvchilariga nisbatan materialni keng va chuqur qabul qilish qobiliyatiga ega.

Qo'yilgan masalaga maksimal darajada yaqinlashish - darsda yangi bilim berish uchun ayni sinf jamoasi qanaqa ekanligini, ba'zi o'quvchilar guruhlarining intellektual rivojlanish darajasi qandayligini, ularning bilim, uquv, ko'nikma va malaka darajalari qay tariqa shakllanganligini bilish kerak [9].

Kimyoviy ta'lim-tarbiya jarayonining barcha tashkiliy shakllarida ommaviy, guruh holiday va individual ishlarni birga qo'shib olib borish maqsadga muvofiqdir.

Kimyo ta'limi jarayonida va o'quvchilarning mustaqil ishlari davomida maxsus ishlab chiqilgan didaktik materiallar kompleksidan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Bu kompleks o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlariga qarab, ta'limni differensiallashga yo'naltirilgan va o'quvchilar bilim olish qobiliyati turlicha rivojlanganligini hamda bilimlarni idrok qilish va tushuntirib berishga tayyorgarligi har xil ekanligini e'tiborga olib ishlab chiqilgan.

Mustaqil ishlovchi I guruh o'quvchilariga o'qitishning birinchi bosqichida faqat aniq umumlasmagan bilimlarni qo'llashga doir yengillashtirilgan topshiriqlar beriladi. II guruh o'quvchilariga oldingi darsdagi olingan bilim va yangi materialni analiz qilishga doir o'rtacha murakkablikdagi topshiriqlar beriladi.

III guruhga esa umumlashtirishga va undagi asosiylarini ajratib ko'rsatishga doir murakkablashtirilgan topshiriqlar beriladi.

I darajadagi o'quvchilar uchun:

6 Maktabda kimyo. Ma'naviy-ma'rifiy, ta'limiy jurnal 2(50)-son 2013 yil. -C. 57-61.

7 I.R.Asqarov, M.A.Bahodirov, K.G', G'opirov Kimyodan masala va mashqlar yechish usullari. Toshkent-2010. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". -C. 38-41.

Masala: 28,2 gr K<sub>2</sub>O dan qancha massa potash olish mumkin.

Yechish: reaksiya tenglamasini yozamiz.  
K<sub>2</sub>O+CO<sub>2</sub>=K<sub>2</sub>CO<sub>3</sub>

Hisoblaymiz:  $28,2 \text{ — } x$   
 $94 \text{ — } 138$

$x = 41,4 \text{ gr}$

Demak, 41,4 gr potash olish mumkin.

II darajadagi o'quvchilar uchun

Masala: A+B=C+D reaksiyasi bo'yicha dastlab 6:3:9:2 mol nisbatda olindi. So'ngra B ga 3 mol qo'shilgach A va D dan qancha mol hosil bo'ladi?

Yechish: muvozanat konstantasini topish formulasidan foydalanamiz;

$$K = \frac{[C][D]}{[A][B]} \quad K = \frac{9 \cdot 2}{6 \cdot 3} = 1 \quad \frac{18 \cdot 12x \cdot 0,2}{36 \cdot 12x \cdot 0,2} = 1$$

$$18 \cdot 23x \quad x = 0,7$$

Demak:  $A = 6 \cdot 0,738 = 5,217 \text{ mol}$   
 $D = 2 + 0,738 = 2,738 \text{ mol}$

III darajadagi o'quvchilar uchun:

Quyidagi sistemada  $A+B = C+D$  tenglamadagi tartibda yozilgan moddalar konsentratsiyalari (mol/l) 8;3;2;12 bo'lgan. Muvozanat holatdagi sistemadan C moddadan 2 mol chiqarib yuborilgan. A va D larning yangi konsentratsiyasini hisoblang.

Yechish:  $A+B=C+D$

A-8 B-3 C-2 D-12

$$1 = \frac{x(12+x)}{(8-x)(3-x)} \quad 12x+x^2 = 24-11x+x^2$$

$$23x = 24$$

$$x = 1,04$$

$A = 8 - 1,04 = 6,96$   $D = 12 - 1,04 = 13,04$

Demak, A modda 6,96 D modda 13,04 mol/l ga teng.

O'quvchilarni kompetensiyaga yo'naltiruvchi masalalardan ham foydalanish maqsadga muvofiq:

1-Masala: Bir stakan suvda (200 ml) qancha suv molekulasi bor.

2-Masala: Havo tarkibida turli xil zaharli moddalar miqdori ruxsat etilgan konsentratsiyasi (rek) dan yuqori bo'lmasa odam sog'ligi uchun xavf tug'dirmaydi. 1m<sup>3</sup> havoda 0,085 mg NO<sub>2</sub>; 3,0 mg CO; 0,05 mg SO<sub>2</sub>; 0,08 mg H<sub>2</sub>S bo'lishi ruxsat etilgan. Odam nafas olishi uchun sutkasiga o'rtacha 10 m<sup>3</sup> havo kerak. Bu hajmni havodagi NO<sub>2</sub>, CO, SO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub>S ning ruxsat etilgan miqdorini hisoblang?

3-Masala: Ma'lumki, odam organizmida qonning massa ulushi 8 % ga teng. 32 gr qon yonganda 0,33 gr kul olingan. Tajribada aniqlanganki 150 mg kul tarkibida 16 mg temir bor. Massasi 80 kg bo'lgan odam qonidagi temirning massasini aniqlang

4-Masala: Odam tana massasining 20 % ini suyaklar tashkil etadi, suyaklardagi kalsiy

floridning massa ulushi esa 0,3 % ni tashkil etsa, massasi 70 kg bo'lgan odam tanasidagi fluor massasini aniqlang?

5-Masala: Qalqonsimon bez tarkibida yodning massa ulushi qalqonsimon bezning 0,044 % iga teng, qalqonsimon bezning massasi esa 40 gr; bo'qoq tarkibida yodning massasini aniqlang.

6-Masala: Odam organizmning to'qimalarida o'rtacha 65 % kislorod, 18 % uglerod va 10 % vodorod (massa jihatdan) bor. Bizning organizmimizda bu element atomlaridan qaysi biri ko'proq

7-Masala: Ilon chaqqanda, maxsus zardoblar bo'lmagan holatlarda, kaliy permanganat eritmasidan birinchi yordam sifatida foydalanish mumkin. Buning uchun 0,5-1 ml 1%li kaliy permanganat eritmasi chaqilgan joyga shpris orqali jo'natiladi. Zichligi 1,006 g/ml bo'lgan 75 ml shunday eritma tayyorlash uchun kerak bo'ladigan kaliy permanganatning massasini va suvning hajmini hisoblang.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarning mustaqil bilim olish jarayonini tashkil etish va undan maqsadga muvofiq foydalanish o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning kuchli omili sifatida xizmat qilishi o'ta zarurdir. Kimyo o'quv predmetining anorganik va organik kimyo bo'limi o'quv materiallarining hajmi va mazmuni, didaktik rang-barangligi, o'zlashtirilish nuqtai nazaridan ancha murakkabligi bilan ajralib turadi. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish muammolari, uning metodologik, umumpedagogik jihatlari ko'pgina tadqiqotlarning obyekti va predmeti sifatida yetarli darajada o'rganilgan. Lekin mazkur masalaning anorganik va organik kimyoni o'rganishga aloqador qismi deyarlik ishlanmagan. Bu boradagi kamchilikni bartaraf etish maqsadida nazariy bilim, amaliy kimyo va malakalarni shakllantirishda o'quvchilar masalalar yechish ishlarining o'zni mavqei va o'quv-tarbiya amaliyotidagi salmog'i aniqlandi. Darsda va uyda bajariladigan masalalar yechishning shakl va mazmuni, mohiyati va pedagogik qamrovi ilmiy-metodik jihatdan belgilandi, baholandi va umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda akademik litseylar uchun anorganik va organik kimyoni o'qitish misolida o'quv amaliyotiga tatbiq qilish uchun tavsiya etildi. O'quvchilarning kimyodan masalalar yechishga individual va differensial yondashuvlarning umumpedagogik va xususiy-kimyoviy jihatlari o'rganildi hamda bu boradagi zaruriy tavsiyalar berildi.

## “BOTANIKA” FANIDAN O‘QUV-DALA AMALIYOTLARINI TASHKIL ETISH USULLARI

*Ilxom Erkinovich Ibragimov - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasalari talabalarining “Botanika” fanidan o'quv-dala amaliyotini tashkil etish (kuzatish, tajribalar o'tkazish) bo'yicha uslubiy tavsiyalar yoritib berilgan.

**Аннотация:** В государстве выделены методические рекомендации по организации учебно-фельдвойной практики (наблюдение, проведение опыта) студентов высших учебных заведений по ботанике.

**Abstract:** Methodological recommendations on the organization of educational field practice (observation, conducting experiments) of students of higher educational institutions in botany are highlighted in this article.

**Кали со'злар:** ekskursiya, reforma, innovatsiya, tur, bioxilma-xillik, pressklub, ekologiya, relyef, landshaft, abiotik, zvena, antropogen, qo'riqxona, dominant, subdominant.

**Ключевые слова:** экскурсия, реформа, инновация, вид, биоразнообразие, пресс-клуб, экология, рельеф, ландшафт, абиотический, связь, антропогенный, заказник, доминанта, субдоминанта.

**Keywords:** excursion, reform, innovation, species, biodiversity, press club, ecology, relief, landscape, abiotic, links, anthropogen, reserve, dominant, subdominant.

Dunyo ta'limining rivojlanish tendensiyalari negizida pedagogik ta'lim-tarbiya jarayoni subyektlari faoliyatini innovatsion tashkil etishni muvofiqlashtirish, har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni voyaga etkazish, kompetensiyaviy yondashuvlar asosida zamonaviylashtirilgan tarbiya texnologiyalarini takomillashtirish vazifalari ustuvorlik qilmoqda.

Darhaqiqat, XXI asr globallashuv va chegaralarning barham topish davri, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va internet asri, jahon maydonida va dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan raqobat asriga aylanib borayotgan bir davrda intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalash naqadar dolzarb ekanligini isbotlashga hojat yo'q, albatta. Chunki, bunday sharoitda inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning o'sishini, hozirgi zamonda demokratik taraqqiyot, modernizatsiya va yangilanish borasida belgilangan maqsadlarga erishishda eng muhim qadriyat va hal qiluvchi kuch bo'lgan bilim va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash vazifasini doimo o'zining asosiy ustuvor yo'nalishlari qatoriga qo'yadigan davlatgina o'zini namoyon eta olishi mumkin.

Albatta, har qanday jamiyatning

kelajakdagi taraqqiyoti shu jamiyatda yoshlar ta'lim-tarbiyasiga beriladigan e'tibor darajasiga bevosita bog'liqdir. Jumladan, Prezident Sh.M.Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida bu xususida to'xtalar ekan “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, - deb ta'kidlaydi. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Har bir jamiyat ma'lum bir rivojlanish bosqichida ta'lim oluvchilar oldida o'zining talablarini qo'yadi. Shunday talablardan biri shu kunda o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishini rivojlantirish hisoblanadi<sup>2</sup>. (O'qitishning kredit-modul tizimida ham bu e'tiborga olingan). Shu kundagi ta'lim shiorlaridan biri “Bilim-ko'nikma-malaka” bosqichlari bo'lib, yaxshi malakaga amaliyot darslarisiz mukammal erishib bo'lmasligi ma'lum. Umumiy va oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlar orasida shunday fanlar borki, ularni o'quv-dala amaliyotisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday fanlar qatoriga botanika fani kiradi. Botanikadan

<sup>1</sup> Ш.М.Мирзиёев БМТ Бosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqi. <https://uz.uz/posts/o'zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyoyev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>  
<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 12-августдаги ПК-4805-сонли Қарори. Тошкент. 2020-йил; Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012-йил 8-октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030-йилгача ривожлантириш тўғрисидаги фармони”, Тошкент – 2019-йил.

o'quvchi va talabalarga bilim berishda ularning botanika fani bo'yicha savodxonligini oshirishda amaliyot, seminar, laboratoriya, ekskursiya, madaniy sayohat, ekoturizm kabi qo'shimcha mashg'ulotlardan foydalaniladi.

Botanika fanida mustaqil ta'limning asoslaridan birini o'quv-dala amaliyoti tashkil etadi. Darhaqiqat, bu borada botanikadan olingan bilimlarni mustahkamlash amaliyotda sinab ko'rishda o'quv-dala amaliyoti mashg'ulotlarining o'рни benihoya kattadir. Hozirgi ta'limda olib borilayotgan reforma yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalardan unumli foydalanishni taqozo etadi. Bu tizimga o'quv dala amaliyoti kurslari ham kiradi. Pedagogika oliygohlarining biologiya yo'nalishi talabalari 1 va 2 kurslarda botanika fanidan o'quv-dala amaliyotini o'tashi o'quv rejaga kiritilgan. (1-kurs o'simliklar anotomiyasi va morfologiyasidan, 2-kursda tuban va yuksak o'simliklar sistemikasidan). Kelajak o'qituvchilariga, tarbiyachilariga eng zamonaviy nazariy bilim va yaxshi amaliy tayyorgarlikni berish zarur. Botanikadan olib boriladigan dala amaliyoti talabalarining o'qituvchilik kasbidagi mahoratini yaxshilashga ijobiy kuch bo'ladi. Dala amaliyoti davrida talabalarda tabiatga ehtiyotkorona yondashish, uni himoya qilish, tabiatning biologik xilma-xiligini saqlash kabi tuyg'ular shakllanib boradi.

Dala amaliyoti talabaning ta'limidagi eng muhim o'quv mashg'ulotlari turiga kiradi. Dala bilan bog'liq ekskursiyani, amaliyotni boshqa birorta o'quv shakli (turi) bilan almashtirib bo'lmaydi. U metodik jihatdan yagona va amaliy betakror. O'quv-dala amaliyotining afzalligi shundaki, talaba tirik o'simlik dunyosini uning yashash muhitida, makonida ko'radi va bu borada aniq obektiv tasavvurga ega bo'ladi. Iqlim va tuproq sharoiti, landshafti, tarqalish areali va jamoa turlari haqida kompleks bilimga ega bo'ladi. Talabada ijobiy psixologik va estetik dunyoqarash shakllanadi. Ona tabiatga bo'lgan mehr va muhabbat oshadi. Botanikadan o'quv-dala amaliyotlari viloyatning yoki Respublikaning o'simliklar dunyosiga boy, rang-barang biologik xilma-xillikka va ko'rkam tabiatga ega bo'lgan hududlarda o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir<sup>3</sup>. O'quv-dala amaliyotlari botanika fani bo'yicha asosan odatiy bo'lgan bahor oylarida o'tkaziladi. Lekin hududning iqlim sharoiti va boshqa sabablarga ko'ra amaliyot davrini bo'lib (Institutning ilmiy kengash Qarori bilan), har xil fasllarda ham o'tash mumkin.

Botanika fanidan o'taladigan o'quv-dala amaliyoti birinchi navbatda talabalarda bir qator malakani amalga oshirishga yordamlashishi kerak:

- talabalarda botanika fanini o'rganishda olgan nazariy bilimlarini yanada kengaytirish va amalda qo'llay bilishga;

- talabada tabiatni kuzata olish ko'nikmalarini shakllantirish, gerbariy va kolleksiyalar to'plash hamda ularni o'rganib aniqlay olishga;

- bo'lajak biolog o'qituvchilarni o'quvchilar bilan tabiatga ekskursiyalar uyushtirish, sinfdan tashqari o'lakashunoslik ishlarini tashkil etish, to'garaklarga rahbarlik qilish, ekologiyaga va tabiatni muhofaza qilishga taalluqli amaliy ishlarni bajarishga, maktab qoshidagi o'quv tajriba uchastkasida amaliy mashg'ulotlar olib borishga;

- talabalar dajonajon tabiatganisbatan g'amxo'rlik, atrof-muhitni muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlash kabi tushunchalarga ega bo'lishiga, tabiatga obyektiv qarashga va ijobiy psixologik muhitni yaratishiga yordam beradi.

Amaliyot darslarining ta'limdagi o'рни muhim ekanligiga qaramasdan, unga shu kunda kam e'tibor berilayotganligi, dars soatlari kam ajratilayotganligi, endilikda bu o'quv shakliga e'tiborni kuchaytirilishini taqozo etadi<sup>4</sup>.

Talabalarining 2019-2020-yil Respublika bo'ylab Oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilgan maxsus pressklub uchrashuvlarida aksariyat ko'pchiligining bergan savollarida amaliyot darslariga kam e'tibor berilayotganligi va kam soatlar ajratilayotganligi e'tirof etilgan. Yozgi o'quv-dala amaliyot darslarining biologiya yo'nalishlarida dars soatlarining uch barobar qisqartirilgani buning yaqqol isboti hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-avgustdagi PK-4805 sonli Qarori alohida ahamiyatga ega va o'rinlidir. Bu Qarorda aynan shu kundagi umumta'lim maktablarida kimyo va biologiya fanlarini o'qitish sifati bugungi davr talabalariga javob bermasligi, o'qitish metodologiyasi, mustaqil, amaliy va laboratoriya darslarining o'tilishi eskirganligi aniq ko'rsatilgan. Biologiya va kimyo fanlarini rivojlantirish uchun Respublikaning har bir hududida kimyo va biologiya fanlariga ixtisoslashtirilgan, tayanch zamonaviy ta'lim maktablarini ochish ko'rsatilgan.

Kelajakda biologiyadan (botanika,

3 Новиков Л. И. Узбекистон қўриқхоналари. – Т.: Фан, 1972.

4 Папорков М.А. Учебно-опытная работа на пришкольном участке. Москва «Просвещение» 1980.

zoologiya, ekologiyadan) dars berishi kerak bo'lgan bugungi talaba ona zaminimizning so'lim, go'zal, betakror manzaralarini tabiatda ko'rmasa, uni amaliyotda o'rganmasa, bu haqida yaxshi bilimga ega bo'lmasa, u o'z o'quvchilariga ona tabiat to'g'risida qanday to'laqonli bilim bera olishi mumkin.

Ishonchimiz komilki, endilikda dala amaliyoti o'quv darslariga e'tibor beriladi. Talabalarining to'laqonli o'quv dala amaliyotlarini o'tashlari uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlar yaratiladi. Umuman olganda nazariy bilimlarni ishlab chiqish, amaliyotiga tatbiq qila olish bu ta'lim islohotlarining asosiy talabalaridan biridir<sup>5</sup>.

O'simlik va hayvonot dunyosi orasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash va o'rganish. Bunda fitotsenozni tashkil etgan o'simlik turlari, biotsenozn, o'simlik hamda hayvonot komponentlari biogeotsenozning tuzilish xususiyatlarini o'rganishga katta e'tibor berish zarur. Amaliyot joyida o'simlik qatlamining shu kundagi holatiga alohida e'tibor beriladi<sup>6</sup>. O'simliklarning inqirozlashish darajasi, usuli va xillari o'rganiladi. Ekologik faktorlardan biotik, abiotik va antropogen ta'sirlar borligi kuzatiladi va sababi aniqlanadi. Hududning mahalliy xalq tomonidan iqtisodiy foyda va oilaviy zarurati uchun ekiladigan o'simliklar alohida o'rganilib, bu haqda amaliyotchi talabalar o'z fikrlarini hisobotda ko'rsatishlari kerak. Amaliyot o'tkazilayotgan hududda qizil kitobga kiritilgan shundayin endim hisoblangan turlar mavjud bo'lsa, ular alohida nazoratga olinishi, adabiyotlardan foydalanib, ular to'g'risida umumlashtirilgan ma'lumotlar hisobotga kiritiladi<sup>7</sup>. Bu o'simlik turlari haqida tashviqot va kuzatuv ishlarini olib borish bilan bir qatorda turlarini saqlab qolish va ko'paytirish borasida amaliy ishlarni olib borish maqsadli hisoblanadi.

Shu o'rinda joyning ziyoratgoh joy bo'lgan holatlarda turizmdagi ahamiyatini bilish, mahalliy xalqning udumlari haqida xonadonlar bilan uchrashuv va tanishuv ishlarini olib borish, ularning fikrlarini bilish ham amaliyotni o'tash samaradorligini oshiradi. O'zbekistonning barcha viloyatlarida yozgi o'quv-dala amaliyoti tog'li hududlarda yoki daryo bo'ylarida o'tkaziladi. Dala amaliyotini o'tkazish davomida quyidagi hududlarga sayohatlarni tashkil etish mumkin: to'qayzorlarga, kengbargli va archazor o'rmonlarga, yaylovlarga, madaniy ekinzorlarga, qo'riqxonalariga milliy bog'larga

hamda fermer xo'jaliklariga.

Agar amaliyot tog' hududida o'tkazilsa, o'simlik hayotiy formalari, o'simlik turlarining tarqalishi akademik Qodir Zokirovning balandlik bo'yicha yaratgan poyaslari (balandlik) asosida o'rganilib, ilmiy xulosalar qilinishi kerak. Bu tadqiqotda nima uchun balandlikka qarab o'simlik turlari va ularning hayotiy shakllarining o'zgarishi turlichaligi o'rganiladi va sababi aniqlanadi.

Atrofning o'simliklar dunyosini ekologik va geobotanik prinsiplar asosida o'rganish maqsadga muvofiq. Har bir (poyasda) balandlikda o'sadigan va uchraydigan asosiy o'simlik jamoalari va komponentlarining hayotiy formalari va fenofazalari alohida o'rganiladi va hududning daraxt, buta, butacha, chalabuta, ko'p yillik hamda bir yillik o'tlar soni foizlarda aniqlanadi. SHU singari joyning efemer va efimiroid o'simliklarning turlari aniqlanib, biologiyasi borasida ma'lumot to'planadi<sup>8</sup>.

O'quv-dala amaliyotini o'tishda quyidagi besh talabga e'tibor berilishi shart:

1. O'qituvchilar rahbarligida amaliyot hududi o'simliklar (flora) bilan tanishuv;

2. Aniq berilgan mavzu topshirig'i bo'yicha amaliyot davomida mustaqil kuzatuv ishlarini olib borish;

3. Kuzatilgan, yig'ilgan ma'lumotlar ustida ishlash, o'rganish, tartibga solish, olingan ma'lumotlarni ilmiy adabiyotlarga solishtirish (aprobatsiya qilish);

4. O'quv-dala amaliyotining oxirida har bir talaba amaliyot rahbari (o'qituvchiga) quyidagi hujjatlarni topshirishi zarur: amaliyot kundaligi va mustaqil bajarilgan ish haqida yozma hisobot gerbariy materiallari, kolleksiyalar, rasm, sxemalar, hisob-kitoblar yozilgan albom;

5. Amaliyot davomida qilingan ishlarining umumlashtirilgan zveno (brigada) tomonidan yozilgan amaliyot hisoboti yozma va og'zaki topshiriladi.

Gerbariy materiallar yig'ish va tayyorlashda biologik xilma-xillikni saqlagan holda har bir zveno uchun ikkita, uchta nusxadan ko'p bo'lmasin deb, o'nlab, yigirmatalab o'simliklar to'plarini payhon qilish yaramaydi.

Har bir zvenoga talabalarining umumiy sanog'idan kelib chiqqan holda 3-4 tadan 6-8 tagacha talabani birlashtirish mumkin.

Amaliyotdan oldin amaliyotchi o'qituvchilar nazoratida amaliyot o'tkazish

5 Қобулов Ж.Т., Файзиева С.З., Қобулова А.Ж. Гулли ўсимликлар систематикаси (дала практикаси ўтказиш учун ўқув қўлланма). – Самарқанд, 1982.

6 Ҳайдаров Қ.Х., Ҳожиматов К.Х. Узбекистон ўсимликлари. – Т.: Ўқитувчи, 1976.

7 Сулаймонов Е.С. Ботаника ва ўсимликлар экологиясидан ўқув дала практикасини ўтказиш бўйича методик тавсиялар. – Самарқанд, 1989.

8 Х.Мавлонов, С.Қодирова Ботаника фани ўқув-дала амалиёти машғулотларини ўтишга доир методик тавсиялар. Хоразм та'лим академияси ахборотномаси –5/3-2022

uchun zarur bo'lgan anjomlar taxt qilib qo'yilishi kerak. Gerbariy papkasi, press gerbariy uchun to'r, qog'oz (40-60), tasha, pichoq, chizg'ichlar, karton, ip elim va ninalar, etiketka blankalari, o'simliklarni aniqlash uchun adabiyotlar, lupalar, mikroskop, preparat ninalari, pinsetlar, foto-video apparatlar. Bundan tashqari talabalarning amaliyot mobaynida to'laqonli ovqatlanish jarayonini gigienik to'g'ri tashkil qilish ta'minlanishi kerak. Amaliyotga ma'sul tibbiyot xodimi biriktirilishi shart.

Dala amaliyoti darslari talabalar sog'lig'idan kelib chiqib, gigiyenaga asoslanib tuzilgan kun tartibi bo'yicha olib borilishi shart.

Talabalar lageridan uzoqda lekin amaliy ahamiyatga ega bo'lgan hududlarni kuzatish va tanishish maqsadida ekskursiyalar tashkil etiladi. Ekskursiyalarni alohida talab va yondashuvni talab etiladi:

- alohida kun tartibini yaratish;
- yo'l xavsizligini e'tiborga olgan holda yo'l harakat marshruti xaritasi tuziladi;
- Safar davomida to'xtab dam olish atrof bilan tanishish, va tushlik joyi belgilangan holda ovqat turi safarbob bo'lishi kerak.

Ekskursiyalar bir kunlik yoki ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Ko'pchilik hollarda bir kunlik bo'ladi. Bir kunlik ekskursiyalar masofasi 8-12 km dan oshmasligi kerak.

O'quv-dala amaliyotlar oliygohlarda iloji boricha botanika fanidan amaliyotni to'laqonli o'tishga javob beradigan hududlarda yaratilish kerak:

1. Amaliyot mo'ljallangan hududning tabiati o'simliklar dunyosiga boy va ko'p turdan iborat bo'lishi kerak;
2. Amaliyot o'tash davri o'simlik turlarining ommaviy o'sib rivojlanishi va gullash vaqtiga to'g'ri kelishi kerak (60-70%);
3. Hududda maxsus amaliyotni to'la o'tashga mo'ljallangan sharoitga ega bo'lgan statsional (har yili o'tash) maskani bo'lishi karek;
4. Amaliyot joyiga olib boradigan yo'llar yo'l harakati talablariga javob beradigan bo'lishi kerak.

O'quv-dala amaliyoti botanika, zoologiya fanlaridan emas, balki pedagogika,

psixologiya, ekologiya va tabiatni muhofaza qilish kabi fanlardan olgan bilimlarini ham mustahkamlashga yordam beradi. O'quv-dala amaliyotini birinchi navbatda amaliyot o'tkazilayotgan joyning (hududning) tabiatini kompleks o'rganishdan boshlash kerak (tuproq relefi, landshafti, geografik joylashuvi, xo'jalik ahamiyati va boshqalar)<sup>9</sup>.

O'quv-dala amaliyotiga shu kunda yangi ilmiy sohalarning kirib kelishi kompyuter, innovatsion texnologiya, gerbariy larni elektron bazalashtirish. Bular talabalardan amaliyotda o'z ustida yanada mukammal ishlashni va oxir oqibatda yuksak mahoratga ega bo'lgan kadr bo'lib yetishishni taqozo etadi.

Amaliyot mashg'ulotlarining boshlanishidan oldin mas'ul o'qituvchi rahbarlar talabalarni amaliyot davrida qilinadigan ishlar, tartib-qoidalar, texnika xavsizligi va kun tartibi bilan yaqindan tanishtirishi kerak. Amaliyot davrida talabalarning quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor berilishi, tayyorlanishi kerak.

- O'simliklarning vegetativ organlarining faoliyatiga;

- Dala amaliyoti o'tkazilayotgan joyning o'simliklar jamoasiga (dominant, subdominant o'simliklarning ishtirokiga);

- Madaniy o'simlik turlariga;
- Soy bo'yi va to'qay o'simliklariga;
- Yaylov, adir o'simliklariga;
- Dorivor o'simliklarga;
- Zaharli va begona o'tlarga;
- Yuz yoshdan oshgan daraxt va bo'talarga.

Hozirgacha Jizzax davlat pedagogika universiteti biologiya yo'nalishi talabalari o'zlarining dala amaliyotlarini har xil hududlarda, har xil sharoitlarda o'tab kelayotgan edi. Joriy yilda 200 nafar talabaga mo'ljallangan o'quv-dala amaliyotlarini talab darajasida o'tadigan statsionar lagerning bunyod etilganligi amaliyot ta'limidagi ibrat va o'rnak bo'ladigan yutuq bo'ldi.

O'quv-dala amaliyoti qanchalik samarali, sermazmun o'tadigan bo'lsa, shunchalik salohiyatli, savodli, mohir kadrlarni tayyorlagan bo'lamiz.

## ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA "VAFO" KONSEPTI

Gulbahor Nuriddinova Abdullayeva - o'qituvchi, Navoiy shahar 11- AFCHO'IM

**Annotatsiya:** Zamonaviy tilshunoslikda "vafo" konseptining lingvistik ontologiyasini iloji boricha to'liq anglash va tavsiflash, konseptning konseptual xususiyatlarini aniqlash va shakllantirish, axloqiy tushuncha sifatida obyektiv tuzilishini tavsiflash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Аннотация:** В современном языкознании актуальным становится понимание и описание в максимально полной мере языковой онтологии понятия "верность", выявление и формирование понятийных свойств понятия, характеристика его объективной структуры как морального понятия.

**Abstract:** In modern linguistics, it becomes relevant to understand and describe the linguistic ontology of the concept of "loyalty" to the fullest extent possible, to identify and form the conceptual properties of the concept, to characterize its objective structure as a moral concept.

**Kalit so'zlar:** antroposentrik paradigma, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, konsept, vafo, sadoqat, xiyonat.

**Ключевые слова:** антропоцентрическая парадигма, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, концепт, верность, верность, предательство.

**Keywords:** anthropocentric paradigm, cognitive linguistics, linguoculturology, concept, loyalty, loyalty, betrayal.

Umumiy umumlashtirilgan va haqidagi bilimlarni taqdim etadi. Ularning jamoaviy mazmunli ma'nolar sifatida orqasida idealizatsiya qilingan dunyo, obyektivlashtirilgan inson ichki dunyosining dunyodagi mavjud vaziyat, mos kelmaydigan semantikasi bir qator universal semantik g'oya mavjud<sup>2</sup>.

diskret konstantalar tomonidan tuziladi, ularning umumiyligi ma'lum bir semiosferani tashkil etadi. Ushbu konstantalar har doim ma'no nuqtai nazariga ega, insonning fikrlash, ong, psixika, til atributlariga ta'sir o'tkazadi. Ularning semantikasi ijtimoiy va psixofiziologik tashkilot tomonidan belgilanadi, inson ma'lum bir semiotik makonda shaxsning sotsializatsiyasi jarayonida shakllanadi va tug'ilish paytida meros qilib olinmaydi, inson ichki dunyosining semiosferasida muhim o'rinni uning axloqiy dunyosi egallaydi: burch, imon, vijdon va boshqalar<sup>1</sup>.

Axloqiy tushunchalar axloqiy munosabatlarni aks ettiradigan va axloqni ijtimoiy ongning shakllaridan biri sifatida yaratadigan toifadir. Ular har bir insonning xulq-atvorini hamma manfaati uchun tartibga soluvchi funksiyani bajaradi, bu ular tabiatining paradoksidir: ular individual ehtiyojlarni cheklashdan rivojlanib boradi, bu ularni qondirish uchun to'siq bo'lib xizmat qiladi. Hech kim axloqiy tushunchalarning obyektivligini va ularning jamoaviy ongda mavjudligini inkor etmaydi. Ularning lug'at talqinining to'g'riligiga shubha qilish mumkin emas. Biroq, ona tilida so'zlashuvchilar uchun ularning aniq ta'rifini berish biroz qiyinchilik tug'diradi, chunki axloqiy (borliq, ijtimoiy va boshqalar) tushunchalarni ko'rsatadigan leksemalarning mohiyati juda mavhum va og'zaki ifoda etish biroz murakkablik tug'diradi. "Ushbu turdagi tushunchalarning mohiyatini tahlil qilish va tushunishning murakkabligi, so'zning tovush shaklidan tashqari, moddiy dunyoda ko'rinadigan jismoniy qo'llab-

<sup>1</sup> Малинович, М. В. Причинность Текст. / М. В. Малинович // Внутренний мир человека: Семантические константы: коллективная монография к юбилею д-ра филол. наук, проф. Ю. М. Малиновича / отв. ред. М. В. Малинович. // Иркутск, 2007. // С. 42, 50-52.

<sup>2</sup> Чернейко Л. О. Лингво-философский анализ абстрактного имени Текст. / Л. О. Чернейко. // Москва: МГУ им. М. В. Ломоносова, 1997. - С. 121.

quvvatlashning yo'qligi bilan bog'liq"<sup>3</sup>.

Axloqiy va axloqiy-konsepsiyat tushunchalari mavhum bo'lib, ular ko'proq jamoaviy bo'lgan aniq ism tushunchalariga qaraganda subyektivdir. Ular doimiy aqliy tasvirga bog'lanmagan; ularning muqim assotsiatsiyalari mavjud emas, ularning mohiyati diagramma shaklida yoki skript, freym shaklida joylashtirilishi mumkin.

Axloqiy konseptlarning nomlari individual ongda noaniq, aniqlanmaydigan intensivlikda mavjud tushunchalardir. "Ijtimoiy tushunchalar sinfida ta'kidlangan axloqiy konseptlar ("sharaf", "burch", "manfaat", "bema'nilik" va boshqalar) til va dunyo rasmlarining asosini tashkil etuvchi asosiy konseptlardir", - deya e'tirof etadi M.V.Pimenova<sup>4</sup>.

Axloqiy konseptlar insonning boshqalar bilan o'zaro munosabatini tartibga soluvchi ijtimoiy-baholash tushunchalari sifatida ularning shakllanishi uchun ma'lum shartlarni talab qiladi:

- 1) an'anaviy qoidalar tizimining mavjudligi - axloqiy, estetik, odob-axloq qoidalari;
- 2) boshqalar tomonidan ushbu normalar tizimiga nisbatan xatti-harakatlar ko'rinishini baholash;
- 3) axloqiy konseptlarning boshqasini baholashga bo'lgan munosabati.

Bunday holda, ushbu shartlarni o'zgartirish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, qoidalar tizimi shaxsga tashqi va ichki bo'lishi mumkin, uning ongiga kiritilgan, korporativ yoki umuminsoniy, an'anaviy yoki qonunda mustahkamlangan, tabiiy yoki ilohiy vahiy bilan berilgan. Bunday tushunchalar ongni ma'lum bir organ sifatida muvofiqlashtirish mexanizmlarida ishtirok etadi, uning maqsadi hukm chiqarishda va insonning samarali prinsipi sifatida namoyon bo'ladi. Ulardan ba'zilari jamiyatda mavjud bo'lgan xatti-harakatlarni tashqi tartibga solish shakllarining aksidir (masalan, "sharaf", "obro"), boshqalari esa o'zini o'zi boshqarish yoki xatti-harakatlarning ichki tartibga solinishi ("ayb", "vijdon").

Axloqiy konseptlar, masalan, "vijdon", "sharaf", shuningdek, tahlilga tortilayotgan "vafo" konsepti inson faoliyatining o'ziga xos faktlari, harakatlar, his-tuyg'ular va tajribalarning "ssenariy" seriyasidan, shaxslararo o'zaro munosabatlarni tushunishdan boshlanadi. Ushbu subyektlar tabiatan "ortiqcha" - "minus" tamoyili bo'yicha baholanadi, har doim ma'lum hissiy tuyg'ular kontekstida ishlatiladi. Epistemologik subyekt ularni lug'at ta'riflari orqali emas, balki shaxsiy ijtimoiy tajriba, shuningdek, oldingi avlodlar tajribasi, unga tegishli bo'lgan jamiyat an'analari natijasida o'rganadi.

"Yaxshi" va "yomon"ni tushunish qobiliyati ona tilida so'zlashuvchilarda o'z harakatlarini, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini, tamoyillarini, ma'naviy ideallarini baholash

natijasida shakllanadi, axloq nuqtai nazaridan "ijobiy" va "salbiy" tushunchalarni tan olishga o'rgatadi.

Lingvistik tadqiqotlarda "uyat" (Arutyunova 2000), "vijdon" (Arutyunova 2000, Urison 2000, Kondratyeva 2006), "poklik" (Yakovleva 2000), "fazilat" (Slepneva 2006), "jinoyat" (Yevtushok 2004), "jazo" (Kontrimovich 2004) konseptlari; "gunoh" (Panova 2000), "burch" (Koshelev 2000), "vijdon" egosentrik yo'nalish toifalari (Chijova 2005); "yaxshi" va "yomon" (Pashayeva 2004), axloqiy nutqni lingvistik yangilash (Oshkina 2006) singari konseptlar yuzasidan maxsus lingvistik izlanishlar amalga oshirilgan.

Tadqiqotlarda o'rganilgan vafo va xiyonatning universal ma'nolari haqiqat va yolg'on tushunchasi bilan bog'liqdir. "Haqiqat" (Bolinger 1987, Arutyunova 1991, Shatunovskiy 1991, Toporova 1995, Yanko 1995, Xromova 2002, Nikitina 2003), "samimiylik / nosamimiylik" (Plotnikova 2000), "yolg'on" (Panchenko 1999, Tokareva 2001), "yolg'on" (Vaynrix 1987, Morozova 2005, Baskett 1974, Zuckerman 1985, Sweetser 1987 va boshqalar) kabi konseptlar yirik planda tadqiq etilgan.

Kuzatilganidek, "vafo" konsepti konsepsiyaga kirish vositasi va inson ongida aniqlangan ma'lum ma'nolarni obyektivlashtiradigan birliklarning lingvistik tavsifidir. Integratsiyalashgan integrativ yondashuvga asosan "vafo" konseptini turli nuqtai nazardan o'rganish imkoniyati mavjud.

Vafo qo'llab-quvvatlash, halollik va yaxlitlik bilan bog'liq bo'lgan shaxsning mulkidir. Ushbu fazilatlar hayot davomida shakllanadi, shaxsning asosini tashkil etadi va uning qiymat potentsialiga aylanadi. Vafo - bu inson tayanadigan po'devor. O'zingizga vafoli bo'lish - bu o'zingizga va kuchingizga ishonish, ideallaringiz va qadriyatlaringizga xiyonat qilmaslikdir. Oilaga vafo ko'rsatish - bu ota-bobolaringizning qadriyatlariga xiyonat qilmaslik, urf-odatlarini saqlash, o'tmishni eslashdir. Sevgingizga sodiq bo'lish sherigingizni qadrlash va hurmat qilish, sizga ishonadigan odamning his-tuyg'ulariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni anglatadi. Agar odamda vafo kabi sifat namoyon bo'lmasa, unda uni yaxlit deb atash qiyin. Har bir insonning xarakter-xususiyatlari turlichadir, shuning uchun har bir kishi "vafo" konseptining turli chegaralari va me'yorlariga ega bo'lishi mumkin, ammo uning qiymati, shubhasiz, hamma jabhada yuqori o'rinlarga egadir.

Ushbu toifalar insoniyat tomonidan uning mavjudligi ko'p ming yilliklarda ishlab chiqilgan o'ziga xos shaxslararo toifadir. Izohli lug'atlar ularning subyektiv majoziy va hissiy xususiyatlaridan chalg'itishda ularning eng keng tarqalgan xususiyatlarini qayd etadi: vafo - his-tuyg'ularda, munosabatlarda, vazifalarni

<sup>3</sup> Корнилов О.А. Языковые картины мира как производные национальных менталитетов Текст. / О.А.Корнилов. 2-е изд., испр. и доп. // Москва: Черо, 2003. - С. 154.

<sup>4</sup> Пименова М.В. Проблемы когнитивной лингвистики и концептуальных исследований на современном этапе Текст. / М.В.Пименова // Ментальность и язык: коллективная монография / отв. ред. М.В.Пименова. Кемерово: КемГУ, 2006а. - С. 46.

bajarishda, burchda chidamlilik va o'zgarimaslik; ...haqiqat mulki; to'liq sadoqat, rostgo'ylik, so'zda qat'iylik, ishda qat'iyatlilik; ishonchlilik, aniqlik, xizmatga yaroqlilik, haqiqat.

Dunyo haqidagi hukmlarda nafaqat unda mavjud bo'lgan obyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar, balki ular haqidagi fikrlar ham mavjud. Shunga ko'ra haqiqat o'z-o'zidan emas, balki ushbu faktga qiymat hukmi ko'rinishidagi munosabat. Boshqacha qilib aytganda, odamni o'rab turgan narsalar nafaqat ontologik xususiyatlarga, balki qiymat xususiyatlariga ham xosdir: foydali va zararli, chiroyli va xunuk, yaxshi va yomon va boshqalar.

"Qiymat hodisasi murakkab-yaxlit, ko'p o'lchovli shakllanish bo'lib, uning biror bir tomoniga, u yoki bu o'ziga xos namoyon bo'lishiga kamaytirilmaydi, uning ko'p tomonlama yaxlitligi faqat falsafa tomonidan modellashtirilishi mumkin"<sup>5</sup>.

Ko'pchilik tadqiqotchilar manfaatlarining diqqat markazida inson, uning his-tuyg'ulari, fazilatlarini turishini ta'kidlab, ular umumam inson ichki dunyosining yarimosferasini tashkil etadi.

Vafo konseptining lug'aviy ta'riflari tushunchalar vakillari leksikografik manbalarida batafsil yoritilgan (WNCD 1973; LDCE 1978; OALDCE 1982; WEUDEL 1989; CCELD 1991; ANED 1992; ALDCE 1996; CDAE 2000; LDCE 2001; COED 2002; OWD 2003). Ushbu manbalarda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi ongda "vafo" konseptining verbalizatsiyasi sadoqat, sadoqatli, amal, yopishish, ilova, sabr, haqiqiy semalariga muvofiq keladi.

"Xiyonat" konsepti iymonsiz, diyonatsiz, vafosiz, sotqin, xiyonatkor, yolg'on, yolg'on-yashiq, betayin, zinokor, yolg'on sememalarini ifodalaydi. Vafo va xiyonat nominatsiyalari ularning konseptualizatsiya usullarida sezilarli o'zgaruvchanlikni ochib beradi, chunki ular nutqning asosiy qismlarida taqdim etilgan. Masalan, vafo - sodiqlik, sadoqatlilik kabi qisman shakllarni o'z ichiga oladi; xiyonat - xiyonat, xoinlik kabi bir qator hosilalarga ega, masalan, vafo sadoqat, sodiq leksemasidan hosil bo'ladi; yolg'on, soxta yurakli semantik parametrlari bilan farq qiladi, masalan, xiyonat - xiyonat qilishning umumiy nominatsiyasi va xiyonat - Vatanga xiyonat qilish, uning manfaatlari va hokazo.

Ko'pincha bir-biri orqali talqin etiladigan diyonat, vafo, sadoqat, vafosizlik, xiyonat kabi lisoniy belgilar "vafo" va "xiyonat" konseptlarining asosiy ifodalanishi darajasiga ishora qiladi.

Leksema lug'at ta'riflarini tahlil qilish obyektivlashtiruvchi tushunchalar kalit so'zlarini aniqlashga imkon beradi: vafo va xiyonat. Yadro birliklarining bu tanlovi vafo va xiyonat stilistik jihatdan betaraf bo'lgan va o'rganilayotgan tushunchalarning eng ko'p konseptual xususiyatlarini aks ettiradigan substansial predikatlar ekanligi bilan izohlanadi.

Biroq sifatdosh va so'z shakl predikatlarini vafo va xiyonat lug'atlarda tez-tez uchrab turishi va substansial predikatlar namoyon bo'ladigan tushunchalardan farqli o'laroq, lug'aviy talqinlarning ko'pligi ko'zga tashlanadi.

Maxsus adabiyotlarda qayd etilganidek, sifatlovchi va verbal predikatlar, ma'nolar yordamida har bir leksema alohida so'zlashuvda individuallashadi, ularning ma'lum qirralarini ta'kidlaydi. Bu ham ko'pincha o'rganilayotgan tushunchalarni ifodalovchi vafo va xiyonat predikatlarining mohiyatiga mos keladi. Sifat va og'zaki predikatlarining lug'aviy talqinlarini tahlil qilish vafo va xiyonatning konseptual belgilarini ochib beradi.

Leksikografik manbalar materiallarini o'rganish asosida vafo konseptining quyidagi belgilari aniqlandi:

1) Konseptual belgi - sabr-toqat, his-tuyg'ulardagi barqarorlik, bog'liqlik; imonni saqlash; sadoqat yoki mehrda barqaror, sodiq; imon bilan to'la, mo'min; sodiq va qat'iyatli bo'lib qolish. Masalan, sodiq do'st emas; do'stiga sodiq qolmadi.

2) Atribut belgi - har qanday diniy e'tiqod ideallariga rioya qilishda, har qanday g'oya, e'tiqod, partiya yoki guruhni qo'llab-quvvatlashda doimiylik ta'riflari bilan ifodalanadi: dinga kuchli ishonish; haqiqiy imonlilar; shaxsga, tashkilotga yoki g'oyaga sodiq bo'lgan kishi; har qanday guruhning sodiq a'zolari tanasi.

3) Konseptual xususiyat - va'dalarni bajarish va burchni bajarishda qat'iylik quyidagi ta'riflar asosida ta'kidlangan: burchni bajarishda qat'iy yoki puxta; o'z so'ziga, va'dalariga va boshqalarga sodiqlik.

O'rganilayotgan tushunchalarni obyektivlashtiruvchi sinonim vositalar tahlili natijasida ularning yangi, qo'shimcha xususiyatlari aniqlandi: "qo'llab-quvvatlash", "himoya", "samimiylik", "axloqiy tamoyillarda qat'iylik", "jo'shqinlik" - "vafo" konseptining belgilari mavjud; "insofsizlik, nosamimiylik", "dushman bilan hamkorlik", "ma'lumotlarni berish", "zarar, xavf" - "xiyonat" konseptining belgilari.

Lingvistik faktologiya "vafo" va "xiyonat" tushunchalarining referentlari guruhini aniqlashga imkon beradi. Ushbu subyektlarning qo'llanilish doirasi juda keng: birinchi navbatda insonning o'zi xarakterlaydi, u shaxslararo va ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, "vafo" konseptini izohlaydigan ko'plab sinonimlar ma'ruzachilar uchun ularning ahamiyatini ko'rsatadi. Lisoniy ifoda jihatidan bu tushunchalar yuqori darajadagi semiotik, "nominativ zichlik" bilan ajralib turadi, ular bir qator sinonimlar bilangina ifodalanmaydi, balki idiomatik va paremiologik birliklarda, mifologik obrazlarda ham aks etadi.

<sup>5</sup> Каган М.С. Философская теория ценностей Текст. / М.С.Каган. - Санкт-Петербург: Петрополис, 1997. - С. 50.

## ФОРМИРОВАНИЕ НЕОБХОДИМЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ ДЛЯ ДОСТИЖЕНИЯ ХОРОШИХ РЕЗУЛЬТАТОВ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ PISA

Шахноза Ахмедовна Сиддикова - преподаватель, Джизакского государственного педагогического университета

**Аннотация:** В статье рассматриваются вопросы и цели современного образования в Узбекистане. О создании условий, необходимых для получения наилучших результатов в международной программе по оценке образовательных достижений учащихся.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda zamonaviy ta'limning muammolari va maqsadlari haqida so'z boradi. Talabalarning ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturida eng yaxshi natijalarga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish to'g'risida.

**Abstract:** The article deals with the issues and goals of modern education in Uzbekistan. On creating the conditions necessary to obtain the best results in the international program for assessing the educational achievements of students.

**Ключевые слова:** модель, саморазвития, самообразования, интеграция, PISA, компетенция, эффективность.

**Kalit so'zlar:** model, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, integratsiya, PISA, kompetensiya, samaradorlik.

**Keywords:** model, self-development, self-education, integration, PISA, competence, efficiency

Целью школьного образования в Узбекистане на протяжении длительного периода остаётся развитие личности ребенка, способной к раскрытию своего таланта, стремящейся приносить пользу обществу. Образование является приоритетом во внутренней и внешней политике нашей страны. В настоящее время в системе образования Узбекистана протекают процессы модернизации, направленные на повышение качества образования и связанные с реализацией современных образовательных тенденций - демократизации и гуманизации образования<sup>1</sup>.

На сегодняшний день народное образование республики, в условиях перехода к модели образования, ориентированного на результат, предусматривает обеспечение дальнейшего развития у учащихся способностей к познанию, творческому использованию полученных знаний в любой учебной и жизненной ситуации, готовности к

саморазвитию и самоуправлению в течение всей жизни<sup>2</sup>. В этой связи более важными становятся не конкретные знания и умения, а умения самостоятельно добывать новую для себя информацию, осваивать новые виды деятельности, т.е. способности к саморазвитию, самообразованию<sup>3</sup>.

Узбекистан с 2022-года участвует в международной программе по оценке образовательных достижений учащихся (Programme for International Student Assessment, PISA). Страна поставила перед собой цель участия в международных исследованиях. Это не просто некоторый контроль состояния образования, а направление, которое даст информацию о том, в каком состоянии находится система образования, поможет совершенствовать систему образования и сделать ее более конкурентоспособной<sup>4</sup>.

Как педагог, я часто задаюсь вопросом, что необходимо для наилучшего результата в этих исследованиях. Чтобы

повысить результаты в международных исследованиях необходимо вести целенаправленную подготовку учителей и менять саму методику преподавания, приоритеты в учебном процессе. А для этого нужно готовить учителей, внедрять более активную систему развивающего обучения и давать учителю материалы, которыми бы он мог более успешно пользоваться в учебном процессе. В Узбекистане уже изданы сборники с материалами, раскрывающими особенность заданий по исследованиям PISA. И дальше нужно шаг за шагом стараться внедрять именно эти задания и работать над устранением возникающих проблем<sup>5,6</sup>. Участвуя в семинарах и онлайн вебинарах, я убедилась, что каждый учитель должен хорошо осмыслить суть заданий и тестов, с которыми будут работать учащиеся. В основе тестов PISA лежит мнение международной группы экспертов о том, что мало просто знать факты и правила. Нужно еще уметь их использовать, например, чтобы сформулировать свою точку зрения в споре о генетически измененных продуктах или понять газетную статью о глобальном потеплении. Еще одна проблема – определение формата задания. Допустим, школьник видит в задаче физические термины и формулы. У него в мозгу щелкает: «Это задача по физике, и решать ее нужно физическими методами. Иного пути не дано. Наши школьники тяжело справляются с такими задачами. Большинство использует простой алгоритм: если речь идет о естественных науках, нужно читать очень внимательно и учитывать каждую деталь, а при работе с художественным или гуманитарным текстом можно ограничиться лишь общим пониманием. Следующая проблема – школьники не умеют привлекать данные, которые не содержатся непосредственно в условиях задания. Исключение составляют разве что некоторые константы математики и физики. А уж когда для решения физической задачи нужно задействовать знания по биологии или истории, чувствуются некоторые затруднения в решении этих вопросов<sup>7</sup>.

Перед нами стоят неотложные задачи, чтобы наши будущие специалисты, смогли подготовить учащихся к международным тестам, и в данный момент должны обладать знаниями, навыками и умениями, соответствующими этому требованию, и они должны обладать соответствующей

компетенцией:

- Эффективное использование современных педагогических технологий, интерактивных методов в обучении (родной язык), математике и естественным наукам (физика, химия, биология, география);

- Усиление междисциплинарной интеграции в преподавании естественных наук (физика, химия, биология, география), связывая науку с разными областями и жизненными процессами;

- Более эффективная организация практических занятий (лабораторные, решения задач) по физике, химии и биологии;

- Проведение внеклассных занятий по естествознанию для развития познавательных и творческих способностей учащихся;

- Создавать учебные задания, направленные на выявление когнитивных и творческих характеристик учащихся.

- Улучшение доступа и качества современных информационных и коммуникационных технологий,

- Доступ в интернет в средних школах;

- Проводить систематические тесты для оценки практических навыков учащихся в средних школах<sup>8,9</sup>.

Своевременное и качественное выполнение вышеперечисленных задач обеспечит интеграцию системы образования нашей страны с международным образовательным процессом, образованием и развитием у учащихся навыков 21 века. Как используются сейчас и как могут быть правильно использованы результаты международного тестирования для национальной образовательной системы Узбекистана. Участие в международных образовательных исследованиях PISA, TIMSS, PIRLS обязательно для узбекской школы.

В Узбекистане результаты международных сравнительных исследований тоже влияют на образовательную политику, но прежде, чем ставить какие-то «диагнозы», нужно учитывать ряд факторов – например, то, что PISA близка к школьной программе Финляндии и ряда европейских стран, а к нашей программе – нет (в отличие от TIMSS), и это сильно влияет на условный «национальный» результат, и так далее. Один из путей, для Узбекистана – участвовать в международных исследованиях PISA, TIMSS, PIRLS несколькими региональными,

1 Siddikova Sh.A. Pisa Program for Reading and Science Literacy Improvement in Biology Studies. // Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 3230 - 3238 / 16 February 2021; Accepted 08 March 2021.

2 Yakshieva Z.Z., Siddikova Sh.A. Formation of teachers' competence in accordance with international programs. //Mental Enlightenment ScientificMethodological Journal Volume 2020 Issue 2 Article 1 12-30-2020 Follow this and additional works at:https://uzjournals.edu.uz/tziuj

3 Siddikova Sh.A. Formation Of Future Specialists In Teaching Natural Sciences.//Publication Year: 2020 Solid State Technology Volume: Home /Archives/Vol 63N°6/2020/Articles Indexedby Scopus

4 Yakshieva Z.Z., Siddikova Sh.A. Functional Literacy In Living Challenges (Pisa Study) // "International Scientific and Current Research conferences" Pedagogy and Modern Education: tradition, experience and innovation" conference date 05-02-2021 DOI https://doi.org/10.37547/iscrc-intconf02 Indianapolis, Indiana USA

5 Siddikova Sh.A. Approche creative basee sur les tests PISA. //International Journal of Aquatic Science ISSN: 2008-8019 Vol 12, Issue 02, 2021

6 Z.Z. Yakshieva, Sh.A. Siddikova PISA savollariga asoslanib o'quvchilar bilimni baholash "Science and Education" Scientific Journal September 2021 / Volume 2 Issue 9

7 Siddikova Sh.A. - Шарипова Л. Почему тестирование PISA - это важный рубеж для системы образования Узбекистана Journal of Natural Science №5 (2021) http://natscience.jspi.uz

8 Яхшиева З.З., Сиддикова Ш.А. Научный подход оценивания знаний на основе вопросов PISA. Journal of Natural Science №4 (2021) http://natscience.jspi.uz

9 Сиддикова Ш.А. Естественнонаучная грамотность (исследование PISA) - это путь осмысления и улучшения знаний учащихся. Scientific Bulletin of NamSU-Научный вестник НамГУ-NamDUilmiy axborotnomasi-2022-yil 4-son



а не одной национальной выборкой. «сделать эти исследования – полезными для образовательной политики нашей страны». Это позволило бы не только сделать результаты специфичными, но и извлечь из них намного больше информации, то есть

## BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING ART-DIZAYNGA OID BILIMLARINI RIVOJLANTIRISHDA ARTPEDAGOGIKANING O'RNI

Shahnoza Erkinovna Doniyorova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Kreativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirishda artpedagogikaning o'rni haqida yoritilgan.

**Аннотация:** На основе творческого подхода объясняется роль артпедагогика в развитии знаний будущих учителей по художественному дизайну

**Abstract:** Based on the creative approach, the role of art pedagogy in the development of future teachers' knowledge of art design is explained.

**Kalit so'zlar:** kreativ yondashuv, art-dizayn, artpedagogika, bo'lajak dizayner, san'at, estetik immunitet, insonparvarlik, bo'lajak dizayner-pedagoglar, refleksiylash, integratsiyalash, klassik uslub, model, intuitsiya, interiorizatsiya.

**Ключевые слова:** креативный подход, арт-дизайн, артпедагогика, будущий дизайнер, искусство, эстетический иммунитет, гуманизм, будущие дизайнеры-педагоги, рефлексия, интеграция, классический стиль, модель, интуиция, интериоризация.

**Keywords:** creative approach, art design, art pedagogy, future designer, art, aesthetic immunity, humanitarianism, future designer-pedagogues, reflection, integration, classical style, model, intuition, interiorization.

Bo'lajak o'qituvchining art-dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish artpedagogikaning yetakchi masalalaridan bir hisoblanadi. Shunga ko'ra artpedagogika talabalarga san'atga oid bilimlarni taqdim etuvchi muhim ilmiy yo'nalishdir. Artpedagogika umumiy pedagogika bilan chambarchas bog'liq bo'lib, dizaynga oid bilimlar va uni taqdim etish metodlarini ham qamrab oladi. Bunda ta'lim oluvchilarni san'at vositasida tarbiyalash va rivojlantirish amalga oshiriladi.

Bo'lajak dizaynerlar pedagogik va korreksion faoliyat jarayonida artpedagogikaning imkoniyatlaridan foydalanadilar. Artpedagogikaning muhim funksiyalaridan biri uyg'un tarzda rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarining keng tarqalishi hamda shaxsning badiiy faoliyat orqali madaniy muhitga moslashishi bo'lajak pedagoglarning imkoniyatlarini kengaytiradi. Artpedagogika pedagogika san'atning kesishuvi natijasida vujudga kelgan va rivojlanib bormoqda.

Artpedagogikaning muhim jihatlaridan biri ta'lim-tarbiyajarayonida bo'lajak mutaxassisda madaniy modellarni tarkib toptirishdan iborat. Shu bilan bir qatorda badiiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyat qozonishga ko'maklashadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda artpedagogika tushunchasining mohiyatini ochishga yo'naltirilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramasdan artpedagogika bugungi kunga qadar o'zining to'liq va aniq talqiniga ega bo'lmayapti. Biroq bo'lajak o'qituvchilarning dizaynga oid bilimlarini rivojlantirish artpedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi<sup>1</sup>. Oliy ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan professor o'qituvchilar o'z tajribalarida artpedagogikaning muayyan usullarini qo'llashga muvaffaq bo'lmoqdalar.

Shu bilan bir qatorda artpedagogikaning, usul, metod va texnologiyalari ta'lim va madaniyat muammolariga oid bilimlarni taqdim etish jarayonida qo'llanilmoqda.

Artpedagogika va madaniyatda

faoliyatning uyg'unlashagan maqsadini ifodalash zaruriyati kuchaymoqda.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, artpedagogikaning usul, metod va texnologiyalari yordamida madaniy-ta'limiy muammolarga yechim topilmoqda. Ko'p asrlar davomida shaxsning ichki hissiy tajribalari yordamida uni umummilliy qadriyatlarni o'zlashtirishga undab kelinmoqda. Bunda san'at asarlaridan unumli foydalanish nazarda tutiladi. Bunday yondashuv natijasida talabalar ijodiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadilar. San'at asarlari talabalarning atrof-olam va madaniy muhitga munosabatini shakllantiradi. Mazkur yondashuv talabalarning madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishlariga ko'maklashadi. Shu orqali bo'lajak dizayner-pedagoglarni ijodiy layoqatlari rivojlantiriladi. San'at asarlari bo'lajak pedagog-dizaynerlarning ichki imkoniyatlari ochilishiga turki beradi. Ularning shaxsiyati va ruhiyatini tadrijiy tarzda rivojlanishini ta'minlaydi.

Bo'lajak dizayner-pedagoglar faoliyatning ikki sohasida o'zlarini namoyon qilishlari lozim hisoblanadi. Bu sohalar fan va amaliyotdan iborat bo'lib, ular o'zaro aloqadorlikda rivojlanadilar. Artpedagogikaning asosiy sohalaridan biri ahloqiy bilimlar bilan estetik bilimlarning o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlovchi pedagogik yo'nalishdir. Umumiy tarzda ma'lum bo'lgan bilimlar bilan sohaga oid bilimlarning uyg'unlashuvi ham artpedagogikaning qamrovi ko'lamini kengaytiradi. Bunday yondashuv bo'lajak dizayner-pedagogning bilimlarini yanada ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda ta'lim jarayoni ishtirokchilari uchun badiiy-ta'limiy jarayoni tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Artpedagogika bo'lajak dizayner-pedagoglarga san'at sohasidagi bilimlarni o'zlashtirish asosida kasbiy-ijodiy rivojlanish imkonini beradi. Badiiy rivojlanish va estetik tarbiya artpedagogika doirasida mustahkam aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Bunday uyg'unlashuv ta'lim jarayoniga o'ziga xos yo'nalishni olib kirish imkonini beradi. Natijada ta'lim jarayonida san'atning ko'plab turlariga oid bilimlarni taqdim etish imkoniyati vujudga keladi. Natijada bo'lajak dizayner-pedagoglar o'quv jarayonida o'quvchilar bilan ijodiy hamkorlikka kirishishga oid kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ladilar. Artpedagogika va umumiy pedagogika yagona umumiy maqsadga ega. Ushbu maqsad ta'lim oluvchilarga o'zini anglash va jarayonning

boshqa subyektlariga atrof-olamni estetik idrok etishga ko'maklashishdan iborat. Shu bilan bir qatorda atrof-olamda mavjud bo'lgan go'zallik qonunlarini anglash va unga axloqiy munosabatda bo'lish tajribasini hosil qilishga ko'maklashadi. Natijada bo'lajak dizayner-pedagoglarning ma'naviy-axloqiy rivojlanishlari ta'minlanib, ularda axloqiy-estetik immunitet hosil bo'ladi, go'zallikni idrok etish layoqati rivojlanadi. Bunday immunitet yordamida bo'lajak dizayner-pedagoglar shaxs ma'naviyati va axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarga qarshi kurasha oladilar. Jumladan, milliy madaniyatimizga xos bo'lmagan liboslarni targ'ib qilishdan saqlanish, madaniyatsizlik ko'rinishlarini bartaraf etish, turli rusumdagi liboslarni ko'r-ko'rona qabul qilish va ular iste'moliga berilish, madaniyatimizga xos bo'lmagan turli shoularda ishtirok etish kabilar bunga misol bo'la oladi<sup>2</sup>.

Estetik immunitet bo'lajak pedagoglar bilan bir qatorda o'quvchilar uchun ham zarur hisoblanadi. Shuning uchun ham o'qituvchilar bunday immunitetni o'z o'quvchilarida shakllantirishlari targ'ib qilinadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim oluvchilarning didsizlik holatlariga qarshi tura olishlari va jamiyatdagi madaniy-estetik va ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga ko'maklashishlarini ta'minlaydi. Shu asosda o'qituvchilar moddiy hamda ma'naviy didsizlik, dunyoqarashdagi bo'shliqlarni bartaraf etish uslublariga ham ega bo'ladilar. Bo'lajak dizayner-pedagogning estetik immuniteti uning shaxsiy-kasbiy tavsifini ham belgilaydi. Bo'lajak dizayner-pedagoglar go'zallikni nomukammalikdan, uyg'unlikni tarqoqlikdan, san'atdagi bo'shliqni g'oyaviylikdan farqlay olish ko'nikmasiga ega bo'ladilar<sup>3</sup>.

Artpedagogika bugungi kunda pedagogika sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash bilan bog'liq holda bir qatorda belgilarga ham ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'quv jarayonida san'at va uning turli vositalaridan foydalanish. O'quv fanlari mazmuniga san'atga oid bilimlar va axborotlar va tushunchalarni tizimli tarzda singdirish, talabalarning ma'naviy-madaniy meros hamda ijtimoiy tajribani yaxlit tarzda o'zlashtirishlariga imkoniyat yaratish.

2. Ta'lim jarayonida interiorizatsiyadan foydalanish. Buning uchun qulay sharoit yaratishga oid bilim, ko'nikma, malakalarga ega bo'lish. Buning uchun qulay

<sup>1</sup> Булатова О.С. Арт-педагогический подход в образовании. // Тюмень, 2004. // 230 с

<sup>2</sup> Бурякова В.В. Дискуссия на современном уроке: Метод, рекомендации. – М.: МГИУУ, 2011. // В 160

<sup>3</sup> Safarova R., Abdullaeva B. va b. Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi // RTM, – T.: 2014

shart-sharoitlar yaratish.

3. Ta'lim jarayonida klassik uslublar yordamida zarur bilim va ijtimoiy tajribalarni talabalarga taqdim etish. Bunda talaba shaxsining bilim olishi, tarbiyalanishi va shaxs sifatida rivojlanishi uchun qulay pedagogik vositalar, qadriyatlar va texnologiyalarni taqdim etish<sup>4</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda artpedagogika quyidagi vazifalarni yechishga yo'naltiriladi. Bunday vazifalar:

- o'qituvchi va talaba uchun ta'lim jarayonini yanada qulaylashtirish;

- turli bosimlar, salbiy his-tuyg'ularni bartaraf etishning umumtomonidan qabul qilingan ijtimoiy-madaniy modellarini izlab topish va pedagogik amaliyot davrida bo'lajak dizayner-o'qituvchi bilan o'quvchilarning muloqotini ushbu modellar doirasida tashkil etish;

- ta'lim oluvchilarning artdizaynga oid bilimlarini tashxislashga oid materiallarning mavjudligini ta'minlash;

- o'qituvchi va talabalarning mavjud tajribalariga tayangan holda ularning qalbi va ruhiga ta'sir ko'rsatadigan darajada o'quv materiallarini qayta ishlash. Bunda talaba shaxsi uchun ahamiyatli bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga e'tibor qaratish;

- bo'lajak dizayner-pedagoglarda o'qituvchi va o'quvchi orasidagi munosabatlarni tashkil etish ko'nikmasini shakllantirish. Bo'lajak dizayner-pedagoglarning va professor-o'qituvchilarning orasida dialogni amalga oshirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- shaxsning yaxlitligi va ma'naviy

sifatlarini saqlash uchun qulay sharoitlar yaratish, ta'lim jarayonida bo'lajak dizayner-pedagogning hissiy-estetik sohalariga ta'sir ko'rsatish.

- bo'lajak pedagoglarning sotsiumga moslashishlari, jumladan, o'z-o'zlarini anglashlari, o'z mavqelarini aniqlashlari, o'z faoliyatlari natijalarini amaliyotga joriy etishlari qulay sharoit yaratish. Muloqot orqali insoniyat yaratgan irodalariga o'zi yaratgan ijodiy mahsulotlari orqali an'anaviylikni singdirish;

- bo'lajak dizayner-pedagoglarda o'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan refleksiv madaniyat, ichki nazorat hissini tarkib toptirish;

- bo'lajak dizayner talabalarda mumtoz va xalq san'atiga oid bilimlar yordamida barcha hissiy jarayonlar xotira, diqqat, iroda, idrok, tasavvur, intuitsiya, tarbiya kabilarni rivojlantirish kabilarni hisoblanadi<sup>5</sup>.

Artpedagogikaning konseptual g'oyalari quyidagilarda o'z ifodasini topadi: insonparvarlik, kreativlik, refleksiyalash, integratsiyalash kabilarni. Artpedagogika doirasida insonparvarlikka alohida ahamiyat beriladi. Chunki insonparvarlik san'atning asosiy maqsadlaridan biri bo'lib, uning butun mohiyati insonning qalbini zabt etib, ezgulikka undashida namoyon bo'ladi. Chunki yangicha pedagogik tafakkurning asosini insonparvarlik tashkil etadi. Insonparvarlik artpedagogikaning asosi va artpedagog faoliyatidagi yetakchi prinsip hisoblanadi. Dizayner pedagoglar o'quvchining qanday layoqat egasi bo'lishidan qat'iy nazar unga insonparvarlik nuqtai nazaridan yondashish tajribasiga ega bo'lishlari lozim.

## KINESIK FRAZELOGIYANING EMOTSIONALLIK XUSUSIYATLARI

Laylo Buriboyevna Doliyeva - o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada noverbal muloqotga asoslangan kinesik frazeologiyaning emotsionallikni ifodalashdagi tutgan o'рни va o'ziga xosligi yoritilgan. Xususan, noverbal muloqot masalalarining tadqiq etilishi va unda noverballik semiotikasining ifodalanish vositalari orqali "til-paralingvistika-kinesika"ning ajralmas tizim ekanligi tavsiflangan. Shuningdek, fransuz frazeologiyasining emotsional muloqotdagi noverbal xususiyatlari qo'l harakati (jestikulyatsiya), ko'z kontakti (vizualizatsiya), yuz ifodasi (mimika), teri reaksiyasi (gaptika), gavda harakati (pantomimika), hamda paralangvistik va ekstralingvistik vositalar orqali amalga oshishi aniq misollar bilan izohlangan.

**Аннотация:** В данной статье описывается роль и своеобразие кинесической фразеологии, основанной на невербальной коммуникации в эмоциональном выражении. В частности, описывается, что «язык-паралингвистика-кинесика» представляет собой неразрывную систему через изучение вопросов невербальной коммуникации и средств выражения невербальной семиотики. Также невербальные особенности французской фразеологии в эмоциональном общении реализуются посредством движений рук (жестикация), зрительного контакта (визуализация), мимики (мимика), кожной реакции (гаптика), телодвижений (пантомима), паралингвистических и экстралингвистических средств, поясняется на конкретных примерах.

**Abstract:** This article describes the role and uniqueness of kinesic phraseology based on non-verbal communication in emotional expressions. In particular, it is described that "language-paralinguistics-kinesics" is an inseparable system through the research of non-verbal communication issues and means of expression of non-verbal semiotics. Also, nonverbal features of French phraseology in emotional communication are realized through hand movements (gesticulation), eye contact (visualization), facial expression (mimicry), skin reaction (haptics), body movement (pantomimics), and paralinguistic and extralinguistic means and explained with specific examples.

**Kalit so'zlar:** kinesika, paralingvistika, noverbal muloqot, imo-ishoralar, noverbal FBlar, emotsional his-tuyg'ular, mimika, emotsional oppozitsiya.

**Ключевые слова:** кинесика, паралингвистика, невербальная коммуникация, жесты, невербальные фразеологизмы, эмоциональные переживания, мимика, эмоциональная оппозиция.

**Keywords:** kinesics, paralinguistics, nonverbal communication, gestures, nonverbal phraseological units, emotional feelings, facial expressions, emotional opposition.

Noverbal muloqot insonlar o'rtasidagi eng qadimiy muloqot shakllaridan biri bo'lib, u til shakllanmasdan oldin paydo bo'lgan. Bu xususda tadqiqot olib borgan A.Mehrabian kishilar o'rtasidagi muloqotda so'zlar 7 foizni, tovush va intonatsiya 38 foizni, nutqsiz muloqot esa 55 foizni tashkil etishini aniqlagan<sup>1</sup>. Noverbal muloqot o'zining dastlabki vazifalariga ko'ra muloqotda ancha barqaror va samaraligi bilan ajralib turadi. Noverbal muloqot masalalari tadqiqi dastlab Ch.Darvinning 1872-yilda nashr

<sup>1</sup> Mehrabian A. Nonverbal Communication. -Chicago: Aldine-Atherton, 1972. -226 p.

<sup>4</sup> Tolipov O'.Q. Oliy pedagogik ta'lim tizimida umummehnat va kasbiy ko'nikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari: Dis. ped. fan. dok. - T.: 2004. - 314-b.

etilgan «Выражение эмоции у животных и человека» (“Hayvon va insonlarda hissiyotlar ifodasi”)<sup>2</sup> nomli asari, shuningdek, 1886-yilda P.Montegatssaning yuz ifodalari alifbosini tasvirlovchi «Физиогномия и выражение чувств» (“Fiziognomiya va hissiyotlar ifodasi”)<sup>3</sup> nomli klassik asari orqali asos solingan. Biroq, tana a’zolari tilini ma’lum bir maqsadli tarzda o’rganish XX asrning 60-yillarida boshlangan<sup>4</sup> va noverbal muloqot asoslari Avstraliyalik olim Allan Piz tomonidan asos solingan dunyodagi eng yirik markaz “Piz Trayning Corporation” markazida keng qamrovli tarzda tadqiq etilgan<sup>5</sup>. Hozirgi kunga kelib noverbal muloqotning vizual turlaridan tortib to prosodik turlariga qadar, hatto kiyim-kechak, soch turmagi, atrofimizdagi narsalar, biz uchun odatiy bo’lgan harakatlarning barchasi “noverbal muloqot” shakllari hisoblanib, hanuz tilshunos, psixolog, madaniyatshunos, faylasuf, sotsiolog va boshqa ko’plab tadqiqotchilarning qiziqishlariga sabab bo’lmoqda.

Chunonchi, professor Sh.Safarov ta’kidlaganidek, biz birovga salom berar ekanmiz, o’do nuqtayi nazaridan qo’lni ko’ksimizga qo’yib, boshni sal egib, ta’zimga yaqin harakat qilib salomlashamiz. Bu - o’zbek urf-odati. Shunda bu nolisoniy, mohiyatan etnik-etnografik tamoyillar bilan birga, albatta, «Assalomu-alaykum!» lisoniy iborasi ham ishlatilishi zarur<sup>6</sup>. Shunday ekan, noverbal va verbal muloqot o’zaro bir-birini to’ldirib kelishi va muloqotni yanada tushunarli, hamda ifodali tarzda qabul qilinishiga yordam beradi. Bundan tashqari, noverbal muloqot verbal muloqotdan farqli o’laroq, o’zining aniq belgilangan lug’at tarkibiga ega emasligi bilan ajralib turadi. Shu sababli ham noverbal muloqotning aynan o’ziga xos turli xil, xususan, izohli, rasmlil, frazeologik yoki boshqa turdagi lug’atlarini yaratish masalasi ham tadqiqotlar obyekti sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tilshunoslik fanida noverbal muloqot semiotikasi rus tilshunoslaridan G.E.Kreydlin

tomonidan quyidagi fanlar orqali ifodalanishi ochib berilgan<sup>7</sup>:

- paralingvistika (nutqning qo’shimcha tovush kodlari haqidagi fan);
- kinesika (imo-ishoralar haqidagi fan);
- okulesika (ko’z ifodasi va muloqot paytida kishilarning vizual xatti-harakati haqidagi fan);
- auskultatsiya (eshitish xatti-harakatlari haqidagi fan);
- gaptika (teginish va teri sezgisi haqidagi fan);
- gastika (ozuq-ovqatlarga xos belgi va kommunikativ funksiyalari haqidagi fan);
- olfaksiya (hidlar haqidagi fan);
- proksemika (muloqot makoni haqidagi fan);
- xronemika (muloqot vaqti haqidagi fan);
- sistemologiya (kishilar atrofini o’rab turgan obyektlar tizimi haqidagi fan).

Kommunikativ muloqot jarayonida nutqni ifodalashning verbal va noverbal shakllari borasidagi ilmiy izlanishlar hozirgi zamon tilshunoslik masalalari orasida o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa noverbal muloqot shakllari va ularni ifodalashning lisoniy vositalari hamda ularga xos xususiyatlar yetarlicha tadqiq etilmagan bois, emotsional muloqot davomidagi noverbal nutqni tasvirlovchi lisoniy vositalardan biri sanalgan frazeologik iboralar tahlili hamon ko’plab ilmiy izlanishlar obyekti sifatida xizmat qilmoqda. Zero, his-tuyg’uni noverbal tarzda ifodalash jarayonida emotsional FBlarning ham o’ziga xosligi mavjuddir.

Emotsional FBlar tarkibidagi turli xil (mimika, imo-ishoralar, yurish va boshqa) ma’nolarni anglatib keladigan kinesikaga doir turlari nutqda qo’llanilish holatiga ko’ra eng yuqori chastotaga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday turdagi FBlar dastlab, G.E.Kreydlin tomonidan “Imo-ishorali frazeologiya” yoki “Kinesik frazeologiya” tushunchasi orqali izohlangan bo’lib, u “imo-ishora nomining o’zi allaqachon idiomadir, bu bunday iboraning yuqori darajadagi barqarorligi va idiomatikligi

2 Дарвин Ч. Выражение эмоции у животных и человека. – СПб.: Питер. 2001. – 384с.

3 Монтегасса П. Физиогномия и выражение чувств. – Москва: Профит Стайл, 2011. – 204с. <https://iknigi.net/avtor-paolo-mantegassa/80841-fiziognomika-i-vyrazhenie-chuvstv-paolo-mantegassa.html>

4 Фаст Дж. Язык тела. Пер. с англ., М., 1998. <https://avidreaders.ru/download/yazyk-tela.html.pdf>, Hall E. The Silent Language. – New York: Anchor Books, 1959. – 212 p.

5 Пиз А. <https://trenerbiz.ru/biznes-trener/alan-piz/>.

6 Сафаров Ш., Тоирова Г., Нуткнинг этнососоциопрагматик тахлили асослари. Уқув қўлланма. – Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. – 5 б.

7 Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2004. – 22с.

bilan bog’liq”, deb ta’kidlaydi<sup>8</sup>.

Noverbal muloqotni o’rganishning yuqorida keltirilgan lingvistik va psixologik yondashuvlaridan kelib chiqqan holda noverbal frazeologiyani ham tadqiq etishning quyidagicha umumiy tasnifiy xususiyatlarini tavsiya etish mumkin: qo’l harakati (jestikulyatsiya), ko’zkontakti (vizualizatsiya), yuz ifodasi (mimika), teri reaksiyasi (gaptika), gavda harakati (pantomimika), paralingvistik va ekstralingvistik vositalar. Agar ushbu masalaga ma’lum bir til, ya’ni fransuz tili frazeologiyasi nuqtayi nazaridan yondashilsa, ulardagi emotsional FBlarga xos noverbal ifoda quyidagicha aks etadi:

Noverbal muloqot vositalari	Fransuzcha misollar	O’zbekcha talqini
Qo’l harakati (Jestikulyatsiya)	se mordre les doigts;	barmog’ini tishlamoq, afsuslanmoq;
	se frotter les mains;	qo’lini bir-biriga ishqalamoq (xursandligidan);
	lever les bras au ciel;	qo’lni osmonga ko’tarib, iltijo qilmoq;
Ko’z kontakti (Vizualizatsiya)	avoir les yeux de Chimère;	oshiq bo’lmoq; shaydo bo’lmoq;
	faire les yeux;	ko’zlarini katta-katta bo’lmoq;
Yuz ifodasi (Mimika)	rester bouche bée;	hayratdan og’zi ochilib qolmoq;
	claquer des dents;	qo’lqandandan qalqiramoq; tishlari taqillamoq;
Teri reaksiyasi (Gaptika)	rougir jusqu’aux oreilles;	qulog’igacha qizarib ketmoq;
	être blanc comme un linge;	do’kadek oqarib ketmoq;
Gavda harakati (Pantomimika)	avoir une boule dans la gorge;	joni xalqumiga kelmoq (qo’ngurdan);
	couper bras et jambes à qq;	hayvondan tiroqqa tashmoq;
Paralingvistik vositalar	rugir comme un lion;	sherdekl o’kirmoq;
	souffler comme un bœuf;	bo’kizdek bo’kirmoq;
	le sourire aux lèvres;	kulib yuboray demoq;
Ekstralingvistik vositalar	sourire jusqu’aux oreilles;	og’zi qulog’ida bo’lmoq;
	esquisser un sourire;	niqillab kulib boshlamoq;

Qo’l bilan muloqotda kommunikativ harakatlarning aksariyati asosan, hissiy holatlarni o’z ichiga oladi. Ularning nutqiy muloqot sifatida qabul qilinishi xabarni, xatti-harakat yoki insonning hissiy holatini tushunish uchun juda muhimdir<sup>9</sup>. Shu o’rinda noverbal vositalarning muloqot jarayonidagi

o’ziga xos ahamiyati shubhasiz, e’tiborga molikdir. Quyida noverbal muloqot vositalari va ularni aks ettiruvchi fransuzcha FBlar xususida batafsil to’xtalib o’tamiz.

Jestlar - bu bosh, qo’l, oyoq, yuz va tana mushaklari tomonidan uzatiladigan maxsus signal tizimi. Ba’zi tadqiqotchilarning fikriga ko’ra, birgina qo’llar orqali 700dan ortiq harakatni amalga oshirish mumkin<sup>10</sup>. Ular orasida emotsional his-tuyg’ularni ifodalovchi imo-ishoralar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Eng dinamik organ hisoblangan qo’l orqali amalga oshadigan hamda emotsionallikni yorqin namoyon etuvchi quyidagi fransuzcha FBlar les doigts, les mains, les bras somatizmlari yordamida hosil bo’ladi: se mordre les doigts - barmog’ini tishlamoq; (afsuslanmoq)/ se frotter les mains - qo’lni bir-biriga ishqalamoq; (sevinmoq)/ lever les bras au ciel - qo’lni osmonga ko’tarmoq; (hayratlanmoq); Bundan tashqari, bosh orqali amalga oshadigan jestlarni ifodalovchi va g’aminglik yoki uyalish tasviridagi ayrim FBlar (baisser la tête – boshini egmoq;) ham mavjud bo’lib, ular fransuz frazeologiyasida juda sanoqlidir. Jestlar yordamida hosil bo’lgan bunday FBlar emotsionallikni namoyon etuvchi asosiy frazeologik vositalardan biri sanaladi.

Vizualizatsiya - ko’z bilan muloqot qilish holatlarini ifodalovchi FBlar “Kinesik frazeologiya”da boshqa noverbal FBlarga qaraganda ancha keng qo’llaniladi. Aniqlanishicha, odatda kommunikatorlar bir-birining ko’ziga 10 soniyadan ko’p bo’lmagan vaqt davomida qaray oladi<sup>11</sup>. Shu qisqa vaqt davomida ham ko’z va nigohlar ifodasi o’ziga xos turli hissiy holat, ichki kechinma va sodir bo’layotgan voqeaga nisbatan munosabatlarni anglatishi mumkin. Bunday ruhiy holatni ifodalash va tasvirlash uchun fransuz tilida turli FBlardan foydalaniladi. Quyida ko’z va uning emotsional vaziyatlardagi funksional holatlar hamda unga doir frazeologizmlar borasida qisqacha quyidagicha ma’lumot berish mumkin:

8 Крейдлин Г.Е. Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык. – М.: Новое литературное обозрение, 2004. – 2с.

9 Altrov R. Aspects of cultural communication in recognizing emotions. TRAMES, 17 (67/62), 2, 2013. –P. 159. doi: 10.3176/tr. 2013.2.04

10 Пронников В.А., Ладанов И.Д. Язык мимики и жестов. – М., 1998. С.14. / - 212 с.

11 Лабунская В.А. Невербальное поведение (социально-перцептивный подход) // Социальная психология: Хрестоматия: Учебное пособие для студентов вузов/Сост. Е. П. Белинская, О. А. Тихомандрицкая. – М: Аспект Пресс, 2003. – С. 27.

His-tuyg'u turlari	Ko'zlarning (ko'z atrofidagi a'zolarining) holati	Vizualizatsion FBlar:
Quvonch	Ko'zlar porlaydi, qoshlar yuqoriga ko'tariladi	éclater de joie - ko'zlari quvonchdan porlamog;
G'azab	Ko'zlar qisilgan, qoshlar chimirilgan, peshonada ajin paydo bo'ladi. G'azab juda yuqori darajaga chiqqanda ko'zlar qizarishi ham kuzatiladi.	faire des yeux de basilic - ko'zlarni lo'q qilib qaramog; nafrat bilan qaramog; le sang aux yeux - qonga to'lgan ko'zlar;
Qo'rquv	Ko'zlar katta-katta bo'ladi, lekin tabiiylikning hech qanday tafsilotini o'tkazib yubormaslik uchun ko'z qorachig'i keng ochiladi.	faire les gros yeux - ko'zlari katta - katta bo'lmoq;
Muhabbat	Ko'zlar porlaydi, ko'zda kulga paydo bo'ladi.	avoir les yeux de Chimène - oshiq bo'lmoq; shaydo bo'lmoq;
Norozilik	Ko'zlari qiyiq holatda bo'ladi, qoshlar chimirilib, peshonada ajin paydo bo'ladi, ko'zlar olayadi, qovoq uyiladi.	faire triste mine - norozilik bilan qaramog; o'qirib qaramog, olaqarash qilmoq;
Uyat	Ko'zlar pastga qaraydi, bosh egiladi, ko'zlar olib qochiladi.	baisser les yeux - yerga qaramog;

Paralingvistik nuqtayi nazardan, ko'zlar avvalambor, his-tuyg'ularni ifodalash markazi bo'lib hisoblanadi. Yuzning eng harakatchan va eng sezgir qismi ham aynan shu ko'zlardir. Shu sababli ular mimik tasvirlarning asosiy elementi sanaladi. Shuningdek, ko'zlar so'zlovchining ixtiyoriy nazoratiga bo'ysinmaydigan organlardan biri ekanligi ularni haqiqatdan "qalb ko'zgusi" ekanligiga aynan ishoradir. Ko'z emotsionallikning turfa shakllarini o'zida mujassam eta oladi, xususan, quvonch, g'azab, qo'rquv, muhabbat, norozilik, uyat kabilar shular jumlasidandir. Shunga ko'ra, ko'zni poliemoatsional organ sifatida talqin qilish mumkin. Yuqorida keltirilgan fransuzcha FBlar shubhasiz fikrimiz dalili bo'la oladi.

Mimika - inson yuz harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning turli o'y va xatti-harakatlari, tasavvuri, xotirlashi, taajjub va hokazolar namoyon bo'ladi. Tabassum qilish, jilmayish, miyig'ida kulish, labni qisish va cho'chchaytirish, tilni chiqarish, qosh uchirish, xullas, turli psixologik holatlarni, ayniqsa, hissiy kechinmalarni aks ettiruvchi kommunikativ, interaktiv, perseptiv xususiyatli nutq turi mimika hisoblanadi<sup>12</sup>. Yuz ifodasini tasvirlovchi

fransuzcha emotsional FBlar ham noverbal muloqot jarayonida o'ziga xos ahamiyatga ega. Negaki, suhbatdoshning yuzi doimo so'zlovchining e'tiborini tortadi. Kishilarning yuz ifodasi turli fikr-mulohazalarni anglatishi mumkin. Masalan, suhbatdoshimiz bizni tushunyaptimi, yo'qmi yoki unga javoban biror narsa demoqchimi, bularning barchasi yuz ifodasi orqali namoyon bo'ladigan ongli hissiy reaksiyalardan dalolat beradi.

Mimikaning asosiy xususiyatlaridan biri uning yaxlitligi va dinamikligidir. Bu shuni anglatadiki, oltita asosiy hissiy holatning, ya'ni g'azab, quvonch, qo'rquv, azob-uqubat, hayrat va nafrat kabilar yuz mushaklarining barcha harakatlari barobarida muvofiqlashadi. Bunday mimik hissiyotlar Pol Ekman jamoasi tomonidan kashf etilgan FAST (Facial Action Scoring Technique) deb ataluvchi metod orqali o'rganilishi ancha maqsadga muvofiqdir. Unga asosan, yuz gorizontol chiziqlar bo'yicha uchta qismga bo'linadi, ya'ni 1) ko'z va peshona; 2) burun va burun atrofi; 3) og'iz va iyak atrofi<sup>13</sup>. Shunga ko'ra, fransuz tilidagi mimik hissiyotlarni ifodalovchi FBlar tahlil qilinganda, quyidagicha natijalar aniqlandi:

Mimik hissiyot turlari:	Ko'z va peshona qismiga doir FBlar:
muhabbat	faire les yeux doux à quelqu'un - noz-karashma bilan qaramog;
quvonch	défroncer le (s) sourcil (s) - kayfi chog' bo'lmoq;
noz-karashma	faire des mines - qosh-ko'zini suzmog;
g'azab	faire les gros yeux - ko'zlarni lo'q qilmoq;
norozilik	faire des yeux - norozi kavfiyatda qaramog;
qo'rquv	avoir froid aux yeux - qo'rqmoq; cho'chimog;
safalik	Avoir une mine renfrognée - xo'mraygan bo'lmoq;
nafrat	faire grise mine à qqn - birorini afuni burishni b kunb olmoq;
<b>Burun va burun atrofiga doir FBlar:</b>	
norozilik	avoir le nez sur quelque chose - burnini juyrmoq;
uyat	le feu aux joues - qizargan yuzlar bilan;
<b>Og'iz va iyak atrofiga doir FBlar:</b>	
hayrat	être comme deux ronds de flan - hayratda qolmoq;
ajablanish	faire le moue - labni burmoq;
afsuslanish	s'en mordre les lèvres - afsuslanmoq, labni tishlamog;
rozilik	rire dans sa barbe - miyig'ida kulmoq;
qo'rquv	claquer des dents - qo'rquvdan tishi taqillamoq;

Demak, ko'z va peshona qismiga

doir FBlar ijobiy va salbiy hissiyotlarni noverbal tarzda birdek ifodalasa, og'iz va iyak atrofiga doir FBlar asosan, neytral hissiyotlarni, burun va yanoq atrofiga doir FBlar esa salbiy hissiyotlarni ifodalashga xizmat qiladi. Yuqoridagi tahlildan shunday xulosa qilish mumkinki, P.Ekman metodiga ko'ra taqsimlangan mimik holatlar orasida asosan, ko'z, burun va og'iz somatizmlari markaziy o'rinlarda harakatlanadi, shuningdek, ko'z va og'iz o'zining dinamikligi bois, turli emotsiyalarni noverbal tarzda ifodalashga xizmat qilsa, burun somatizmi esa nodinamikligi uchun ularga nisbatan sanoqli emotsiyalarni ifodalashga xizmat qiladi. Ya'ni, burun va yanoq organlari noverbal muloqot jarayonida o'zining monoemoatsionalligi bilan ajralib turadi.

Gaptika - teri reaksiyasi ham insonning turli taktil (Taktill sezgi - lotincha tactilis - sezish, tango - teginish so'zlaridan olingan bo'lib, tashqi ta'sir natijasida teri yuzasida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni his qilish.) his-tuyg'ularni noverbal tarzda ko'rsatib kela oladi. Masalan, teri rangining qizarishi va oqarishi kabi holatlar inson emotsiyasining ayrim ko'rinishlarini ifodalay oladi. Shunga ko'ra, fransuzcha FBlar orasida xuddi shunday taktil o'zgarishlarni namoyon etuvchi emotsional FBlar ham mavjuddir. Quyida ularning ayrimlarini keltirib o'tamiz:

His-tuyg'u: Fransuzcha FBlar: O'zbekcha talqini:

His-tuyg'u:	Fransuzcha FBlar:	O'zbekcha talqini:
Uyat	rougir jusqu'aux oreilles;	qulog'igacha qizarib ketmoq;
	avoir le rouge au front;	uyatdan qizarib ketmoq;
	être rouge (rougir) comme une tomate;	qip-qizarib ketmoq (pomidordek);
Qo'rquv	rouge comme un homard;	qisqichbaqadek qip-qizil;
	être blanc comme un linge;	dokadek oqarib ketmoq;
G'azab	être blanc comme un mort;	mudadek oqarib ketmoq;
	se fâcher tout rouge.	g'azabdan qizarib ketmoq;

Keltirilgan bu misollardan ko'rinib turibdiki, teri rangining faqat qizil va oq tusga kirishi kishilar ichki his-tuyg'ularidan uyat, qo'rquv va g'azab kabilarini noverbal tarzda ifodalashda ancha sermahsuldir. Bunda yuz

rangining qizarib ketishi uyat va g'azab his-tuyg'ulari bilan, oqarib ketishi esa qo'rquv his-tuyg'usi bilan bog'liqdir. Fransuzcha emotsional FBlar taktil belgilar orqali asosan, uyatni noverbal tarzda ifodalashga keng xizmat qiladi.

Pantomima - bu imo-ishoralar, tana holati va harakatlari tili bo'lib, ularning aksariyati o'z-o'zidan sodir etiladi va shu bois ular inson ongi tomonidan boshqarilmaydi. Xuddi shunday pantomimik harakatlar orqali oltita asosiy hissiy holatning, ya'ni g'azab, quvonch, qo'rquv, azob-uqubat, hayrat va nafrat kabi tuyg'ularni to'liq namoyon etish mumkin. Fransuz tilida mavjud emotsional FBlar aynan pantomimik xususiyatlarga ko'ra tadqiq etilganda ularning ayrimlari faqat qo'rquv va hayratni ifodalay olishi aniqlandi. Masalan:

His-tuyg'u	Emotsional FBlar:	O'zbekcha talqini:
Qo'rquv	couper bras et jambes à qq - barovning qo'l-oyoq'ini bo'lmoq;	oyoq-qo'li tizarmoq;
Hayrat	poser des castagnettes avec les genoux - tizzalari bilan kastagnet (Castagnettes - apxizlarga xos ikkita yog'och usturidan iborat musiqqa asbobi.) chalmog;	tizzalari tizarmoq;
	être la comme une souche - ko'pidek turib qolmoq;	dong qotib qolmoq;
	rester comme une bûche - to'nladek qotib qolmoq;	dong qotib qolmoq;

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'lishicha, yuqorida ta'kidlanganidek, qattiq qo'rquvdan kishining oyoq-qo'llari dag-dag titrashi yoki o'ta hayratlanish natijasida kishi o'z joyida lol qotib qolish hollari inson ongi tomonidan xohlab boshqarilmaydi. Ayrim psixologlar ta'kidlaganidek, haqiqatdan ham odam o'z ongini nazorat qila oladi, lekin ongsiz harakatlarni nazorat qila olmaydi<sup>14</sup>.

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda ushbu maqolaga xulosa tariqasida quyidagilarni ta'kidlash joizdir:

F.Poyatos ta'kidlaganidek, kishilar o'rtasidagi o'zaro muloqotning uch murakkab tizimdan tashkil topgan "til-paralingvistika-kinesika" tuzilmasi muloqot jarayonida leksik-semantik jihatdan umumiylikni tashkil etadi va ular orasidagi o'zaro uyg'unlik tamoyillari asosida ular bir vaqtning o'zida birdek transkripsiya qilinishi shubhasizdir<sup>15</sup>. Shu

12 G'oziyev E.G. Psixologiya. - Toshkent: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. -316-b.

13 Ekman P., Friesen W.V., Tomkins S.S. Facial Action Scoring Technique (FAST): A first validity study. Semiotica, 1971, 3(1): -B 37-38.

14 Турмухамедова О. Онг ости сирлари. -Ташкент: Янги аср авлоди, 2017. -4 б. <http://e-library.namdu.uz/>

15 Poyatos F. Language and nonverbal systems in the structure of face-to-face interaction / Language & Communication. Volume 3, Issue 2, 1983, -P. 129-140 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/0271530983900101>

sababli noverbal emotiv FBlar turlicha his-tuyg'ularni aks ettirishi tabiiy jarayondir. Ular verbal muloqot bilan bevosita bog'liq holda qo'llaniladi, shunga ko'ra ularni quyidagicha tasniflash mumkin:

- Verbal muloqotni to'lig'icha o'rnini bosa oladigan noverbal FBlar (bunda so'zsiz axborot to'liq tushuniladi);

- Verbal muloqotning qisman o'rnini bosa oladigan noverbal FBlar (bunda verbal va noverbal muloqot aralash holda ishlatiladi);

- Verbal muloqotdagi ma'lumotni aynan takrorlaydigan noverbal FBlar (bunda verbal muloqotdagi axborot noverbal vositalar orqali to'liq takrorlanadi).

G.E.Kreydlin tomonidan nomlangan "Kinesik frazeologiya"da emotsional holatlarni noverbal tarzda ifodalash jarayonida (fransuzcha FBlar misolida) ko'z,

qo'l va yuz organlari "poliemotsionalligi", ya'ni turli his-tuyg'ularni aks ettirishi, bosh, oyoq va ovoz kabilar esa "monoemotsionalligi" bilan ajralib turadi.

His-tuyg'ular – subyektiv psixologik holatlarning alohida sinfi sifatida o'z faoliyatining jarayoni va natijalarini hamda tashqi dunyo bilan bo'lgan munosabatlarini aks ettirishga xizmat qilar ekan, ularning qaysi organlar orqali noverbal tarzda namoyon bo'lishi esa insonlarga xos ichki kechinma va somatik dunyoning uyg'unligi bilan bog'liqdir. Bunday ikki murakkab tuzilmadan tashkil topgan noverbal tizimni tasvirlash uchun esa, albatta, lisoniy birliklar, xususan o'ziga yarasha bo'yoqdorlikka ega bo'lgan FBlar orqali ifodalanishi har bir tilda alohida e'tibor va tadqiqotni talab etadi.

## DESIGNING A SYSTEM OF FORMATION OF LOGIC-PSYCHOLOGICAL THINKING OF CHESS PLAYERS

*Iroda Shaxobovna Xamrakulova - teacher, Samarkand state university*

**Abstract:** The variety of approaches to the concept of "Logical thinking" and their controversy allow us to offer our own version. In our opinion, logical thinking is an actual psychological-pedagogical and social activity in the process of educational and practical activities aimed at applying various consciously reasonable logical operations in one's activity, creating hypotheses and evaluating the results according to the laws of logic, and using these skills. - is a systematic formative mental characteristic of a person based on a complex mechanism in solving cultural problems.

**Annotatsiya:** "Mantiqiy fikrlash" kontseptsiyasiga yondashuvlarning xilma-xilligi va ularning qarama-qarshiligi bizga o'z variantimizni taklif qilish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, mantiqiy fikrlash - bu o'z faoliyatida turli ongli asosli mantiqiy operatsiyalarni qo'llash, gipotezalar yaratish va natijalarni mantiq qonunlari bo'yicha baholash va undan foydalanishga qaratilgan o'quv va amaliy faoliyat jarayonida dolzarb psixologik-pedagogik va ijtimoiy faoliyat. Bu ko'nikmalar. - madaniy muammolarni hal qilishda murakkab mexanizmga asoslangan shaxsning tizimli shakllantiruvchi psixik xususiyatidir.

**Аннотация:** Разнообразие подходов к понятию «логическое мышление» и их противоречивость позволяют предложить свою версию. По нашему мнению, логическое мышление - это собственно психолого-педагогическая и социальная деятельность в процессе учебно-практической деятельности, направленная на применение в своей деятельности различных сознательно обоснованных логических операций, создание гипотез и оценку результатов в соответствии с законами логики, а также использование этих умений - это систематическая формообразующая психическая характеристика человека, основанная на сложном механизме решения культурных задач.

**Keywords:** logical thinking, chess, consciousness, thinking, self-evaluation, self-analysis, nurture educational, competitive

**Kalit so'zlar:** mantiqiy fikrlash, shaxmat, ong, tafakkur, o'z-o'zini baholash, o'z-o'zini tahlil qilish, tarbiyaviy, raqobatbardosh

**Ключевые слова:** логическое мышление, шахматы, сознание, мышление, самооценка, самоанализ, воспитательный, образовательный, соревновательное

In the psychological and pedagogical literature, there is still a debate about the approaches to learning logical thinking and the components that make up its structure. In the context of innovative developments in the field of education and training, the thinking of students is education at a complex structural level, characterized by the hierarchy and interdependence of the components included in it<sup>1</sup>.

In chess, the operational and functional component is implemented in the form of a next move on the board. Thus, one move is the result of the logical reasoning of the chess player, which is based on the knowledge and experience-based methods of the operational and functional component: comparison, selection of features, summarization of information obtained on the basis of analysis, etc<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'L. Matnazarov, D.B. Yaqubova *Shaxmatning boshlang'ich asoslari. Uslubiy qo'llanma. Xorazm Ma'mun akademiyasi noshirlik bo'limi, Xiva-2019. 89 bet. Коломок О.И., Вершинин М.А. О сущности логического мышления Проблемы образования: теория и практика. - 2000. Учебное пособие. № 2 - С. 84-86. Коломок О.И., Вершинин М.А. Программа управления учебной деятельностью студентов // Теоретико-методологические основы формирования педагогической культуры: Мат. межвуз. науч. конф. - Волгоград: ВГАФК, Научный журнал. 2001. - С. 73-76.*

<sup>2</sup> Вершинин М.А., Технологические аспекты формирования логического мышления учащихся // Педагогические технологии развития творческого мышления: Мат. межрегион. науч.-методич. конф. - Волгоград: ВГАФК, 2002. - С. 31-37 Вершинин М.А. Эндшпиль: легкофигурные окончания (конь против слона). - Волгоград: Научный журнал. ВГАФК, 2004. - 28 с.

The purpose of the research is to theoretically and methodologically justify and develop the pedagogically effective technological support of the system of formation of logical thinking of chess players.

The object of research is educational and competitive activities of chess players.

The subject of research is the theoretical, methodological and technological foundations of designing a system for forming the logical thinking of chess players.

Research tasks:

1. To study the situation of the problem of formation of logical thinking of chess players and to determine the important and specific features of the concept of solving it in the field of physical education and sports.

2. Basing the concept of formation of logical thinking, develop a system based on it and develop a technology for developing logical thinking of chess players studying in additional educational institutions and higher educational institutions in the field of sports

3. Theoretical justification of the structure and content of the structural and functional components of the management technology, which represents the technological support for the implementation of the educational activity management system of chess players; to test and determine the conditions for its effective implementation.

Research methods, study, analysis and generalization of materials of scientific methodological literature, study of information materials, official documents published in special periodicals, pedagogical observations, control tests, experience.

- sociological: survey, interview, expert evaluations.

- theoretical and logical: logical analysis, theoretical analysis and synthesis,

- systematization and classification.

- mathematical and statistical data processing: correlation, regression analysis, statistical hypothesis testing.

The formation of logical thinking at the stage of development and formation of technology for the successful implementation of specified tasks is presented in Table 5 below.

The modules of the author's program for the training of chess players for the training and educational process of the third stage of the experiment have been developed.

Table 1

Technology of the formative stage of forming logical thinking

T/r №	Job type name	Teacher activity	Student activity	Result
1	Discuss the learning outcomes of the previous stage	Problem formulation to improve analysis of results and logical thinking	Comparison of planned results with actual results	To improve the skills of self-evaluation and self-analysis of the results of solving educational and educational problems, to improve mental activity in depth.
2	Identifying ways to improve the organization of the formation process of logical thinking	Submission of theoretical material on the organization of the self-education process	Planning a weekly program for the formation of logical thinking, daily self-assessment of the implementation of planning self-analysis of the formation of logical thinking according to criteria.	Mastering problem-solving and problem-solving skills, identifying strengths and areas for improvement in solving professional learning challenges
3	Development of programs for individual selection of educational tasks	Lectures on the organization of biomedical, psycho-pedagogical, physical and special training of chess players.	Choosing and solving educational and educational tasks, self-evaluation of results. Identify strengths and areas to improve logical thinking	To improve the skills of self-evaluation and self-analysis of the results of solving educational and educational problems, to improve mental activity in depth.
4	Self-assessment in solving educational and professional problems	Presentation of materials on the organization of coaching activities	Solving problems in the mode of personal mental activity and brainstorming, evaluating one's own activity to get out of problematic situations. TAS internship, participation in jury work	Self-organization of education and training activities. Forming a logical opinion to determine the areas of more qualified improvement of the level
5	Research directions of chess activity	Analysis of scientific research directions activities related to professional training of chess players	Choosing a research topic, writing theses, independent works, the final qualification work of a bachelor	Mastering the methodologies of scientific activity, increasing professional knowledge in the field of chess
6	Completing the process of self-organization and self-improvement in education and professional activities	Analysis of student self-assessment results and their reports. Focus on the process of reflection, self-evaluation and self-analysis	Self-organization and self-evaluation of the work done. Report and self-report on the level of formation of logical thinking. Analysis, synthesis, discussion, comparison, prediction	Organization of education and training activities. Determining directions for further improvement of professional qualifications is the level of logical thought formation

Analysis of results. The motivational-goal component of the logical thinking of chess players was formed by strengthening internal motivation and cognitive activity, the desire to show oneself in competitive activities as an athlete, more diverse and self-improvement of professionally important skills. Integrated learning and cognitive activity, in which the methods of logical analysis, synthesis, comparison, and generalization are highly relevant in solving theoretical and practical problems. The development of the motivational component was helped by the demonstration of bright and, at the same time, technically rather complex tactical and strategic examples, which reveal a rich spectrum of harmony in the interaction of chess pieces. Analysis of such tasks and self-analysis help to create a highly positive emotional background in learning.

Evaluation of the level of performance of teaching technology is considered as an object of its quality management system.

Table 2

Components of logical thinking

Group name	Components of logical thinking				Integral indicator.
Experimental group	Motivational-purposeful P1	Informant P2	Operationally functional P3	Reflexive P4	G
Control group	0,8	0,71	0,72	0,68	0,74
	0,53	0,62	0,57	0,52	0,51

Description of the integrated indicator of the formed logical thinking of chess players (according to the results of the formative stage of the experiment)

In our opinion, only such a highly differentiated landscape (along with progress in the direction of increasing the level of generalization and systematization of the knowledge accumulated by humanity) provides a full opportunity for a synthetic review of the genetic composition of knowledge<sup>3</sup>.

Based on the above, we distinguish the following sets of knowledge within the structural part:

1) technological, which represents

the information base of the technologies of organization and construction of the activity process;

2) methods of studying various phenomena in the process of activity, which combine a set of knowledge about general laws;

3) theoretical, including knowledge of goals, principles, methods, tools and various forms of action aimed at achieving specific results in the process of activity;

4) methods based on mastering the basics of various methods of organizing and managing the field of activity

Conclusions. Analyzing the concepts of "Thinking", "Logical thinking" and the concept of "Logical thinking of a chess player" are related to them, using various conscious logical operations in their activities, creating hypotheses and evaluating them according to the results. made it possible to describe a person based on a complex mechanism of abilities. with the laws of logic and aimed at using these skills to solve current psychological-pedagogical and socio-cultural problems.

During the development of the system of formation of logical thinking of chess players, a number of its functional (gnostic, design, constructive, communicative, organizational) and structural (motivational-target, informational, procedural, diagnostic, result) components were identified. This makes it possible to take into account the specific features of logical thinking, the features of the construction of its content and components, to predict and control the processes of its formation, and to diagnose the results.

In order to implement the system of forming the logical thinking of chess players, it is necessary to control their educational, educational and competitive abilities. The effectiveness of the system implementation is achieved through the use of multi-stage programs implemented in accordance with the established diagnostic goals through the use of intensive forms, tools and methods of the coach's management activity and the practical activities of athletes.

<sup>3</sup> Xolboyeva G.X. Haydarov B.T. Tojjeva X.B. Methodology of the improvement of preliminary gymnastic disciplines in increasing activity of preschool age children (case of Uzbekistan). // International Journal of Psychosocial Rehabilitation. 2020-№6 ISSN:1475-7192 Scopus. DOI: 2009-2011, 2013-2020.B 4562-4569., Xolboyeva G.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar harakat faolligini oshirishda dastlabki gimnastika mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari // SamDU ilmiy axborotnomasi. Ilimiy jurnal. 2019-yil, 6-son. 2091-5446. B.140-144., Kholboeva, Gulhoyo Kholboeva (2021) "Mechanisms of improving the motor activity of children aged 6-7 years through initial gymnastics classes," Eurasian Journal of Sport Science: Vol. 1:Iss.2, Article.1. Available at: <https://uzjournals.edu.uz/eajss/vol1/iss2/1>

## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EVRISTIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Rustam Xurramov - tadqiqotchi, Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining evristik fikrlashini rivojlantirishda samarali interfaol metod va vositalardan foydalanish va ta'lim sohasida qo'llanilishining ijobiy natijalari haqida ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida evristik fikrlashni shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarni to'g'ri tashkil etish va jahon tajribalarida samarali hisoblangan topshiriqlar berish sezilarli darajada natija berishi ilmiy asosda ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim mazmuniga tayangan nazariya va amaliyotning birligi ilmiy jihatdan tadqiq etilgan mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlarda integratsiyalashgan ta'limdan foydalanishning samarasi va uni mashg'ulotlarda qo'llash bo'yicha ham ayrim tavsiyalar berib o'tilgan.

**Аннотация:** В статье представлена информация о положительных результатах использования эффективных интерактивных методов и средств в развитии эвристического мышления учащихся начальных классов и их применении в сфере образования. Также в статье на научной основе показано, что правильная организация внеурочной деятельности и постановка задач, признанных эффективными в мировом опыте, оказывают существенное влияние на формирование эвристического мышления у учащихся начальной школы. В данной статье научно исследуется единство теории и практики на основе содержания образования, а также приводится эффективность использования интегрированного обучения во внеучебной деятельности и его применения в обучении.

**Abstract:** The article provides information about the positive results of the use of effective interactive methods and tools in the development of heuristic thinking of elementary school students and their application in the field of education. Also, in the article, it is shown on a scientific basis that the correct organization of extracurricular activities and the assignment of tasks considered effective in world experiences have a significant effect on the formation of heuristic thinking in elementary school students. The unity of theory and practice based on educational content is scientifically researched in this article, the effectiveness of using integrated education in extracurricular activities and its application in training are also given.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy fikrlash, rivojlantirish, evristik qobiliyat, metodika, faoliyat, natija, qobiliyat.

**Ключевые слова:** логическое мышление, развитие, эвристическая способность, методология, деятельность, результат, способность.

**Keywords:** logical thinking, development, heuristic ability, methodology, activity, result, ability.

Bugungi kunga kelib ta'lim ta'minlash maqsadida ta'limda pedagogik mazmuni va uning metodik tizimi yanada takomillashtirilmoqda. So'nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va pedagogik amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, o'quv jarayonida o'quvchilarga ma'lum darajada bilim berish, dastlabki amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishning o'zi yetarli emas. Ularda ijtimoiy tajriba, ya'ni kompetentsiyalarni shakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda o'quv jarayonining metodik tarkibini ham boyitish, ta'lim samaradorligini ta'minlash maqsadida ta'limda pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun qulay muhit yaratish nihoyatda zarur. Jahonda ta'lim shaxs kamolotini ta'minlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda. YUNESKO tomonidan 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "sifatli ta'lim ijodiy tafakkurni va bilimni rag'batlantiradi, savodxonlik va hisob malakalari asoslarini, shuningdek, tahlil qilish, muammolarni hal qilish, fikrlash hamda boshqa shaxslararo va ijtimoiy munosabat

ko'nikmalarini yuqori darajada egallashni kafolatlaydi", deb qayd etilgan. Bu esa, boshlang'ich ta'lim tizimida ta'limining sifatini oshirish, o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tanqidiy tafakkur, o'zini-o'zi baholash, tarixiy voqelikni anglash, o'z faoliyatini tahlil qilish, ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish kabi dolzarb vazifa sifatida belgilaydi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz!" – degan da'vatlari ta'limning sifatiga va uning samarali tashkil etilishini, ayniqsa, boshlang'ich sinflardan boshlab o'quvchilarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega shaxs sifatida tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O'quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko'nikmalari uning o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish masalalari yurtimiz olimlari R.X.Djurayev, Sh.M.Zufarov, S.T.Turg'unov, J.K.Fozilov; MDH olimlari Y.V.Vasilyev, N.P.Derzkova, V.S.Lazarev, V.P.Simonov, P.I.Tretyakov, T.I.Shamova, ta'limni ijodiy tashkil etish va qisqa savollar ahamiyatligini B.R.Adizov, M.H.Mahmudov, N.Muslimov va xorij olimlari Dj.Dyui, T.Kono, G.Kuns, M.Meskonlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shuningdek xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki nazariyalardan biri assotsiativ yo'nalishga bag'ishlangan. Bu yo'nalish vakillari assotsiatsiyani fikrlashning asosi deb hisoblaganlar. Angliyada David Yum, Gartli D., Djems Mill, Djon Styuart Milg', Aleksandr Ben, Gerbert S'enser, Frantsiyada T.Ribo, Germaniyada Teodor T.Sigen, Yulius Ebbingauzlar assotsiativ yo'nalish vakillaridir.

"Assotsiatsiya" tushunchasini dastlab D.Lokk izohlagan. Uning fikricha, assotsiatsiyani butun ruhiy kechinmalar, jarayonlar va fikrlashning umumiy mexanizmi sifatida qarash mumkin. Muallif ushbu yo'nalishda uchta asosiy g'oyani ilgari surgan:

- assotsiatsiya to'g'risidagi;
- bilimning hissiyotdan kelib chiqishi;
- fikrlash jarayonining boshqalardan holi xarakteri haqidagi g'oyalar. Ushbu nazariyaning kamchiligi shundan iboratki, unda subyektning aqliy faolligi, hal qilinayotgan muammoning mohiyati bilan bog'liqligiga e'tibor berilmagan. Ushbu nazariya faqat o'z-o'zicha, hamda o'ziga bog'liq bo'lmagan holda fikrlashga asoslanadi. Aqliy faollikning eng rivojlangan ko'rinishi ham xotiraning qayta ishlashi mahsuli deb qarash assotsiativ yondashuv tarafdorlariga xosdir.

Fikrlash jarayoni muammolari bixeviorizm nazariyasida o'ziga xos talqin qilingan<sup>2</sup>.

Biz izlanishlarimiz davomida boshqa psixologlar, didaktlarning xulosalari, g'oyalari va qoidalariga ham tayanganmiz. Ushbu bilimlar, yondashuvlar o'rganilayotgan muammoning fanlarni o'qitish metodikasi sohasidagi uslubiy o'rnini aniqlashda yordam berdi. Bular Elkonin.D.B., Davidov.V.V., Zankov.L.V., Kabanova-Meller.Y.N., Samarin.Y.A.va boshqalarning qarashlarida o'z ifodasini topgan. Rivojlanuvchi ta'lim nazariyasining namoyondalaridan Elkonin.D.B. va V.V.Davidovlar nazariy (ammo, odatiy empirik bo'lmagan) bilim va fikrlash, o'qish faoliyatini yanada batafsilroq tadqiq etishga muvaffaq bo'lganlar. Rivojlantiruvchi ta'lim jarayonida o'quvchilar ham o'qituvchilar ham ta'lim jarayonining teng huquqli subyektlari hisoblanadilar. Ushbu nazariya shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi bilan uyg'unlashgan holda ilg'or texnologiyalarni o'zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda o'qitiladigan darslar, tashkil qilinadigan sinfdan tashqari ishlar, ayniqsa bu jarayonda taqdim etiladigan maqsadga yo'naltirilgan savol va og'zaki mashqlar ham muhim o'rin egallaydi. An'anaviy darslarda esa o'qituvchilar o'quvchilarga yozma mashqlar bajartirishga alohida e'tibor qaratganlar. Bu jarayonda o'quvchining diqqati asosan topshiriqlarni to'g'ri yozishga qaratiladi. Ko'chirib yozilayotgan masala yoki mashqning mazmuniga o'quvchilar yetarlicha e'tibor qaratmaydilar. O'quvchilarning

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б 56.  
<sup>2</sup> Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.

fikrlash faoliyatini shakllantirish abstrakt-obrazli tafakkurini rivojlantirish maqsadida o'qituvchilar maxsus tanlangan og'zaki mashqlar tizimidan foydalanishlari lozim. Chunki og'zaki mashqlar o'quvchilarning fikrlashlarini tezlashtiradi.

Tahlil va natijalar. Fikrlash – muayyan voqea-hodisa haqida ma'lum bir xulosaga kelish uchun mulohaza yuritish, o'ylashni ifodalovchi tushuncha<sup>3</sup>.

Fikrlash ham faoliyatga mos bo'lgan harakatga ega bo'lishni talab qiladi. Boshlang'ich ta'limda o'rganiladigan ta'lim elementlarini o'zlashtirishga, ular ustida amallar bajarishga qaratilgan faoliyatdir.

Og'zaki mashqlar o'quvchilarga hodisaning mohiyatini tezda ko'rish, tushunish va uning bajarilishini to'g'ri izohlay olish imkoniyatini beradi. Yozma mashqlarni bajarish davomida esa boshlang'ich sinf o'quvchilari voqea hodisaning mohiyatini anglab olishga qiynaladilar. Og'zaki mashqlarning xarakteri turli-tuman bo'lishi mumkin: obyekt berilgan belgilariga ko'ra topib olish bo'yicha mashqlar, obyekt o'xshashligi va farqlarini topish bo'yicha mashqlar yoki qonuniyatlarni aniqlash, tasniflashga doir mashqlar va h.k.

Bundan tashqari og'zaki mashqlar dars shakllarini rang-barang qilishga yordam beradi. Avvalo, qiziqarli mashqlarni kiritish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mumkin, xususan, didaktik o'yinli, muammoli darslarni tashkil qilishda og'zaki mashqlar asosiy o'rinni egallaydi. Ma'lumki, darslarda yoki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda didaktik o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini faollashtiradi. Bu esa ixtiyoriy majburiy bo'lmagan diqqatni, xotirani, assotsiativ faoliyatni hamda o'quvchilarning taqqoslash, solishtirish, xulosalar chiqarish va umumlashtirish qobiliyatlarini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarning hal qilinishini ta'minlaydi<sup>4</sup>.

Og'zaki mashqlar sinfdagi har bir o'quvchi bilan individual ishlashga imkoniyat yaratadi. O'quvchining imkoniyatidan kelib chiqib, uning aqliy va psixologik imkoniyatlarini hisobga olib, taklif etilgan tabaqalashgan og'zaki mashqlar tizimi o'quvchilarning individual qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga sharoit yaratadi.

Og'zaki mashqlar fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyani qo'llash vositasi hamda o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish, o'quv jarayoni mahsuldorligini oshirish borasida katta imkoniyatlarga ega

bo'lib, o'quvchi shaxsini rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Demak, maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlar ta'limning shaxsga yo'naltirilganlik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo'yadi. Shuning uchun, boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlardan foydalanish muammosi o'quv jarayonida ta'lim metodlarni qo'llash bilan bevosita bog'liq.

Bu sohada quyidagi muammolar mavjud: -boshlang'ich sinflarda ta'limning rivojlantiruvchi imkoniyatlarini kuchaytirish zaruriyati bilan ularda mantiqiy fikrlashni maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlar vositasida shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladigan metodikani ishlab chiqilmaganligi;

-boshlang'ich ta'limda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlarining batafsil ochib berilmaganligi; -o'qitiladigan darslarda boshlang'ich sinf o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini tashkil qilishda maqsadga yo'naltirilgan og'zaki mashqlardan o'quvchi shaxsini rivojlantirish uchun foydalanishning zaruriyatining mavjudligi.

Yuqorida keltirilgan muammolarni hal etish zaruriyati biz tanlagan mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Xususiy didaktikada o'quvchilarning fikrlashini rivojlantirishga oid ko'plab ilmiy yondashuvlar mavjud. So'nggi yillarda fan-texnikaning rivojlanishi natijasida o'quvchilarning o'qitishdagi ta'lim texnologiyalari ham takomillashtirildi. Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatdiki, ta'limning yangi paradigmasiga o'tilishi munosabati bilan o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini ham yangi sifat bosqichiga ko'tarish ehtiyoji kuchaydi. O'quvchilarning fikrlashini rivojlantirish masalasida mutaxassislar turlicha yondashuvlarni ilgari surganlar.

Bixeviorizm - (inglizcha behaviour – xulq-atvor, xatti-harakat) XIX asrning oxirlarida shakllanib, XX asrda rivojlangan Amerika psixologiyasidagi yetakchi oqimlaridan biri. Bixeviorizm ta'limoti asosida inson va jonivorlardamuhitning ta'siri, qo'zg'atuvchilarga javoban amalga oshiriladigan ishlar, nutqiy va hissiy javoblar tizimining amalga oshirilishini anglatadi.

Bixeviorizm g'oyasi tarafdorlari fikriga



ko'ra tashqi rag'batlarga javoban fikrlash jarayoni vujudga keladi. Mazkur yo'nalish tarafdorlari o'z tajribalarini asosan hayvonlarda o'tkazganlar. Inson va hayvonning fikrlashini bir-biriga o'xshash deb bilgan bixeviorizm tarafdorlari fikrlashni organizmning muammoli sharoitga ko'nikishga qaratilgan harakati deb bayon qilganlar.

A.I.Golikovning aniqlashicha, bu jarayon miyaning tashqi olamni qabul qilishi va javob harakatlari shaklida namoyon bo'ladi<sup>5</sup>. Ushbu nazariyaning kamchiligi shundaki, inson ko'rmagan, his qilmagan va qabul qilmagan narsalari haqida fikr yurita olmaydi, hamda bu qobiliyat unda mavjud bo'lmasligi kerak deb hisoblaydilar. Shunisi ahamiyatliki, ayrim o'quvchilar qulay sharoitda ham bilimlarni yaxshi o'zlashtirmasdan, noqulay sharoitda ham muayyan bilimlarni chuqur egallashi mumkin. Bu holatlar bixeviorizmchilar nazariyasini inkor qilishga asos bo'ladi.

Fikrlash faoliyatining asosiy mexanizmi sifatida struktura tamoyilini ilgari surib bu g'oya fikrlash jarayonining butun dinamikasini fikrning tarkibini almashinuviga olib keldi, ya'ni uning tarkibi fikrlash faoliyati natijalarini o'rganish bilan almashtirildi.

Izlanishlardan ma'lumki, inson tafakkuri insoniyat tomonidan yaratilgan bilim olish jarayonida rivojlanib subyekt uchun faol, yaratuvchanlik faoliyatidir.

Inson fikrlashini rivojlantirishning nazariy yondashuvlari quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko'rsatishga imkon beradi:

- Yaxlitlik va tizimlilik.
- Refleksivlik.
- Tanqidiylik.
- Innovatsionlik.
- Qayishuvchanlik.
- Noaniq vaziyatda o'z taqdirini o'zi belgilay olish qobiliyati.
- Mahsuldorlik.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim asosini ta'lim oluvchilarda ong, xarakter, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish printsiplari tashkil etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi shundaki, u turli bilim sohalari bo'yicha shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi uchun zarur shart-sharoitni yaratib berish orqali ta'lim oluvchining intellektual va axloqiy jihatdan samarali rivojlanishini ta'minlaydi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarning

mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda bilim va malakalarni amalga oshirishni shakllantirish ahamiyatlidir. Turli, haqiqiy bilim va malakalar o'quvchilarda qancha ko'p hosil qilinsa, ularning fantaziyasi, fikrlashi o'sadi hamda murakkabroq bo'lgan topshiriqlarni bajara oladilar.

Insonning dunyoqarashini rivojlanishida uning tili va nutqining rivojlangan bo'lishi juda muhimdir. Chunki, topshiriqning yechilishi jarayonida o'quvchi topshiriqni yechish yo'llarini o'z nutqi orqali bayon qilishi, topshiriqning asosiy elementlarini ayta olishi, grafik chizmalarni chiza olishi va bilishi-o'quvchi ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o'ynaydi. O'quvchi qanchalik darajada ko'p so'z boyligiga ega bo'lsa, uning ichki, aqliy imkoniyatlari ham yuqori darajada rivojlanadi va shakllanadi. Ijodiy jarayonda o'quvchi avval topshiriqni xayoliy tasavvuri, ya'ni aqli orqali bajaradi, reja tuzadi, keyin esa bu reja tashqi imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi.

Forobiy «Aql to'g'risida»gi kitobida axloqli kishining «o'n ikki tug'ma xislati»ni ta'riflab, odamning fikrlash qobiliyatiga to'xtalib o'tadi. Forobiy fikrlash qobiliyati yuqori bo'lgan inson barcha topshiriqlar yuzasidan o'tkaziladigan tahlillarni tez va to'liq tushunadigan, uning ma'nosini o'zlashtirib, so'zlayotgan shaxsning maqsadi va bayon qilingan fikrining rostligini tushunadigan, quvvati hofizasi kuchli, borliqdan qabul qilgan ma'lumotlarining barchasini eslab qoladigan, xotirasida saqlab qoladigan, zehni sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda aniqlab oladigan, fikri va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini to'liq va izchil bayon eta oladigan, bilimlarni oson, tez o'zlashtira oladigan bo'lishini ko'rsatib o'tadi<sup>6</sup>.

Abu Ali ibn Sino «O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar» nomli asarda fikrlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarga batafsil to'xtalib o'tgan. Olimning «Tadbiri manozil» («Bolani tarbiyalash va o'qitish») asarida o'quvchilarning fikrlashini yaxshilash, bilim berish samaradorligini oshirishda fan yutuqlarini egallashga qiziqish yuzaga kelishi va raqobatlashish imkoniyatini yaratishda o'quvchilarni birga o'qitish zarurligini ta'kidlaydi.

Olim suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga to'xtalib, shunday deydi: «Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki

3 Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. -321 бет.

4 Авлоний А. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. - Тошкент: Ўзбекистон, 1992. - 178 б.

5 Голиков А. И. Теория и методика математического развития младших школьников в учебной деятельности: дисс. ... докт. пед. наук. -М., 2008. 323 с.

6 Педагогика. Энциклопедия. III жилд. жамоя // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2017. – 400 б.



do'sting sening so'zlaringga va nasihatlaringga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir»<sup>7</sup>.

Inson fikr, aql, sezgilari vositasida bilimlarni egallanishi to'g'risida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mulohazalarini bayon qilar ekan, shunday deb yozadi: «Faqat sezgi orqali, sezgi organlari bilan erishilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarishda foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Istaklarga mehnattufaylierishiladi»<sup>8</sup>. Uningta'kidlashicha, hayotiy vaziyatlarda, mavjud muammolarni yechish jarayonida sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri idrok qilinmasdan, balki fikr to'liq tashxirlansa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

F.M.Qosimovning<sup>9</sup> «Boshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar va ular ustida ishlash metodikasi» nomli nomzodlik dissertatsiyasida og'zaki mashqlar va ulardan foydalanish muammosi tadqiqot predmeti sifatida qaralmagan, ammo ushbu ilmiy tadqiqot ishida boshlang'ich sinflarda «topshiriqlar nazariyasi» maxsus o'rganilib, boshlang'ich sinf matematikadan ijodiy topshiriqlarning turlari va ularning tasnifi, matematikadan ijodiy topshiriqlarni yaratish usullari va tamoyillari, matematika darslarida ijodiy tobshiriqlardan foydalanish metodikasi kabi jihatlar o'rganilgan.

R.Ibragimovning<sup>10</sup> «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari» nomli doktorlik dissertatsiyasida matematika kursi materiallari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyati mazmuni va uni egallashning texnologik shart- sharoitlari, «Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyati» ilmiy tushunchasining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirish tizimining asoslari keltirilgan, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik tizimi, shart-sharoitlari, bosqichlari va o'quvchilarning bilish faoliyatini shakllanganlik

ko'rsatkichlari belgilangan va ilmiy-metodik tavsiyalar berilgan.

Matematikani o'rgatish jarayonida o'quvchilarda shakllanishi lozim bo'lgan matematik fikrlashni Fridman.L.M., umumiy fikrlash madaniyatining tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Madaniy fikrlash – shunday fikrlashki, bunda fikrlashning turli usullari va amallarining qo'llanishi ma'lum bir tartibda, qat'iy tizimda, yechilayotgan fikrlash masalasi xarakteriga to'la mos ravishda amalga oshiriladi deydi<sup>11</sup>.

Xulosa qilib aytganki biz pedagogik-psixologik «fikrlash» tushunchasiga nisbatan bir nechta yondashuvlarni tahlil qildik. Fikrlash shaxsning faolligini tavsiflovchi jarayon bo'lib, uning uzluksiz rivojlanayotganligi faoliyatda namoyon bo'ladi. Bu faoliyat fanlarni o'rganish jarayonida o'quv masalalarini yechish faoliyatida namoyon bo'ladi.

Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg'unlashtiradi hamda o'ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi.

Konvergent fikrlash muammoning yagona yechimini topishga qaratilgan, divergant fikrlash esa masalaning mumkin bo'lgan barcha yechimlarini izlashga yo'naltirilgan fikrlash tarzidir.

Biz, izlanishlarimizda boshlang'ich sinf o'quvchilari mantiqiy fikrlashni rivojlanishining evristik, mantiqiy algoritmik uslublaridan foydalanishga harakat qildik. Evristik uslublar real hodisalarning matematik modellarini qurishning asosli ekanligini ko'rsatdi, mantiqiy uslublar esa uning «qat'iy» talablari bilan matematik model ichidagi masalani yechishga xizmat qildi.

Fikrlash jarayoni topshiriqni yechish tartibi bilan chegaralanganligi sababli fanlarni o'rgatishda o'quvchilarning fikrlash hodisasiga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Murakkablik darajasiga ega bo'lgan topshiriqlarni yechishda, o'quv kursining qo'shimcha bo'limlarini o'zlashtirishda, o'qitishning muammoli-izlanish uslubidan foydalanish talab qilinadi.

## THE REFLECTION OF THE LYRICAL HEROIC CHARACTER IN JOURNALISTIC LYRICISM

*Khurliman Rakhmanbergenovna Aliyeva - basic doctoral studies, Karakalpak state university*

**Abstract:** In this article, the issue of reflecting the character of the lyrical hero in journalistic lyrics is studied in the works of women, including the poetry of P.Mirzaboyeva, M.Jumanazarova. The work of the poets was analyzed in comparison with the work of the classical poet I.Yusupov. The article also studies the interpretation of the issue of the Aral Sea in the works of poets.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada lirik qahramon xarakterini publitsistik lirikada aks ettirish masalasi ayollar ijodida, jumladan, P.Mirzaboyeva, M.Jumanazarova she'riyati misolida o'rganilgan. Shoiralar ijodi klassik shoir I.Yusupov ijodi bilan taqqoslab tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada Orol dengizi masalasining shoiralar ijodidagi talqini o'rganilgan.

**Аннотация:** В данной статье исследуется вопрос отражения характера лирического героя в публицистической лирике в творчестве женщин, в том числе поэзии П.Мирзабоевой, М.Джуманазаровой. Творчество поэта проанализировано в сравнении с творчеством поэта-классика И.Юсупова. В статье также исследуется трактовка темы Аральского моря в произведениях поэтов.

**Keywords:** poetry, journalistic poetry, lyrics, lyrical hero, image of a lyrical hero, intellectual problem, journalistic content, parallelism, artistic language, stylistic figures, tropes.

**Kalit so'zlar:** she'r, publitsistik she'r, lirika, lirik qahramon, lirik qahramon obrazi, intellektuallik masalasi, publitsistik mazmun, parallelizm, badiiy til, stilistik figuralar, troplar va boshqalar.

**Ключевые слова:** поэзия, публицистическая поэзия, лирика, лирический герой, образ лирического героя, интеллектуальная проблема, публицистическое содержание, параллелизм, художественный язык, стилистические фигуры, тропы и др.

The creativity of our poets M.Jumanazarova and P.Mirzabayeva, who have a significant place in the Karakalpak poetry of the XX century, stands out with its ideological, thematic and vivid character. The poetess M.Jumanazarova entered our poetry in the last quarter of the XX century, and from that time she became known for her lyrical works in newspapers and magazines. He has taught his readers the books "If You Can't Be My Hand", "I Have a Pain in My Heart", "I Don't Say Goodbye, Love", "I'm Still", "I Came to Go", "Selected Works of Art" and in the media. He presented his works of art.

M.Jumanazarova is also known to us with her historical poem and ballad. The poet's poems are based on deep lyricism, deep thoughts and figurative descriptions. The poet enriched Karakalpak poetry with his ideological-thematic, vivid and formal researches. He is known in poetry as a poet with his own creative path, his individual style.

P.Mirzabayeva was one of the poets who had a place in Karakalpak poetry. The poetess was born on January 19, 1962 in

Sverdlov village council of Kanlikul district of Karakalpakstan. In 1979 he graduated from high school in Khojeli district. From 1979 to 1980 he worked as a laboratory assistant at the Faculty of Physics of Nukus State University (now Karakalpak State University). From 1980 to 1985 he studied at the Faculty of Philosophy of KSU. For many years he was the senior editor of the Karakalpakstan publishing house, the literary adviser of the Karakalpak Writers' Union, the executive secretary, the head of the department of the Amudarya magazine, the Amu Tongi, Gulayim, Karakalpakstan. He worked as a special correspondent for the newspaper "ngi", as a head of the department for the newspaper "Ustoz Yuli", as a literary worker for the newspaper "Karakalpak Literature". For several years he worked as a teacher of Uzbek language at school No. 27 in Nukus. During his school years, his poems and articles were published in the Khojeli district newspaper and in the children's newspaper "Yosh Avlod".

Since 1980, his works have been published in the republican press, in particular in the

7 Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: Истиқлол, 1994. -321 бет.

8 Хошимов К., С.Очил Ўзбек педагогикаси антологияси. Икки жилдик. - Тошкент: ўқитувчи, 1995. - 464 б.

9 Касимов Ф.М. Бoshlang'ich sinf matematika darslarida ijodiy topshiriqlar tizimi: Ped. fanl. nomz. ... diss. – Бухоро: БДУ, 2007. - 202 б.

10 Ибрагимов Р. Бoshlang'ich maktab ўқувчиларида билиш фаолиятини шакллантиришнинг дидактик асослари. Ped. fan. dok. diss. ... – Тошкент: ТДПУ, 2001. - 243 б.

11 Фридман Л.М. Психолого-педагогические основы обучения математике в школе. – М.: Просвещение, 1983. 160 с.

magazine "Ámiwdárya" and "Young Leninshi" (now "Youth of Karakalpakstan"), "Free Karakalpakstan". t. b. Newspapers, including "Saodat", "Sharq yulduzi", "Ilhomlarlik" magazines, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" newspaper. In 1985 he published his first book "Strings of Love", in 1986 "Song of three voices" (in Russian), in 1989 "Breath of the Age", in 1990 "Three veins" (collective), in 2001 "Hope for Independence" (collective), "My eyes are wide" (translated from Nazira Matyakubova).

In this article, we will focus on the issue of creating a lyrical character in the works of M.Jumanazarova and P.Mirzobayeva. Commenting on the main demand of journalistic lyricism in literary criticism, Professor K.Jarimbetov says: «The main demand of the public is to take into account the needs of the public reader, that is, the tastes of the public, to reveal to the general public the important new ideas, events, news of the day to the public»<sup>1</sup>. By the way, the main requirement of publicism is to declare these public issues transparently. In this case, the question arises as to what is the difference between journalistic publicism and literary publicism. In this regard, Professor K.Jarimbetov said: "Speaking of publicism, we must distinguish between journalistic publicism and literary fiction. While journalism meets the specific needs of the day based on the circumstances of public, political and social life, literary and artistic publicism filters these situations through an artistic-aesthetic sieve and reflects them with the help of artistic images"<sup>2</sup>.

In the works of the poetess M.Jumanazarova we find examples of journalistic lyrics. We see the openness of the poet in almost all of his poems. Scholar P.Nurjanov says that the poet's lyrical hero is the right word: «M.Jumanazarova speaks directly with sharp words, without hiding her thoughts. M.Jumanazarova The relationship between the author and the lyrical heroine is complex. Often their positions are very close to each other, one complements the other, and sometimes the lyrical protagonist expresses ideas that are different from the author's point of view. The lyrical protagonist seems to be doing his best for free speech<sup>3</sup>. In the lyrics, the spiritual world of man, the important issues of his time, conscience, love, honor, love for the native land, man's sorrows and joys, feelings

of loneliness, his place in society are given. In giving such apologies, the thoughts of each creator must be weighed, and the lyrical apologies must be absorbed into the blood of the subject and take place in his or her soul. Journalistic lyricism also takes into account such characteristic features in the delivery of artistic thought. In the works of the poetess M. Jumanazarova, these characters stand out.

Poet M.Jumanazarova's poem "Children" describes on page I the criticism of the actions of indifferent parents in the educational process through the imagination of the homeless.

*You are with yourself,  
if you play yourself.  
Fairy tales, instead of gods,  
If you listen to the radio, television.  
Take them every day,  
your eyes glaze over,  
If you follow<sup>4</sup>,*

In these lines, the poet tells his child about the life of today's children in need of the love of parents who grow up listening to the radio and television, instead of listening to careless parents and God:

*-Mother, where is she? ...  
Come on, don't enjoy it!  
If you stay silent...  
To go father.  
"Father, what's that?"  
-Go, my son to the room  
Don't bother me!  
Who will notice Child,  
tears in your eyes<sup>5</sup>.*

These lines speak of the mental state of a young child growing up curious about the events around him, along with a parent who does not pay attention to the child as if he is walking with the worries of marriage. The feelings of the homeless boy, who could not get an answer from his mother and could not get an answer from his father, were more clearly expressed by shouting "who can feel the tears in your eyes?" Here, these lines give a clearer picture of the psychological state of children and their parents today. In this poem of the poet, we know more deeply the thoughts and feelings of the lyrical hero through the artistic poetics of the poem. The poem is written in a free (verlibr) form, and the thoughts of the lyrical protagonist are given independently

1 Жаримбетов К, «XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қасиеттері хәм раўажланыў тарийхы» Нөкис «Билим».2004, 81-б.

2 Жаримбетов К, «XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қасиеттері хәм раўажланыў тарийхы» Нөкис «Билим».2004, 81-б.

3 Жуманазарова М. Кетпек ушын келгенмен... Нөкис, «Билим», 2011. // Нуржанов П. Барҳама ел-халық дәрти менен жасайтуғын шайыр. 3-6-б.

4 Жуманазарова М. Кетпек ушын келгенмен...Нөкис, «Қарақалпақстан», 2011, 37-б.

5 Жуманазарова М. Кетпек ушын келгенмен...Нөкис, «Қарақалпақстан», 2011, 37-б.

and freely. We also feel the depth of the poem through its artistic syntax. The reason for this is that the lines, inquiries, exhortations, and many points in the form of dialogue in the poem help us to feel the feelings of the lyrical protagonist about his feelings of helplessness.

In M.Jumanazarova's poem "Norasida", the child's comments about children who could not play the role of a child, who could not play the role of a child, are sharply expressed in antipathy to the actions of parents. While this may seem like an unimportant topic, the poem raises a big public issue. If we don't pay attention to his upbringing today, if we don't try to understand his feelings, tomorrow will be too late. Instead of the great man who will create our bright future, we will cultivate a man who is careless, careless, heartless, unable to start on his own, in the language of the people, "who can't get his head around anything". This is a pedagogical-psychological problem.

In M. Jumanazarova's poem "Children", the comments of children who were children and could not play the role of a child, and whose parents longed for love, are expressed in a sharp language from the point of view of antipathy.

In Karakalpak literature, we know well the poem "Children" by the poet I.Yusupov, written under the same name with the above-mentioned poem by M.Jumanazarova. The poem is written in the form of a program poem, finger-sized, and tells the thoughts of the lyrical protagonist about a newborn child, a homeless person. In doing so, the artist used the means and methods of artistic expression to convey his artistic ideas. For example:

The heart and soul of a homeless person,  
He hadn't seen a cloud yet, it was a golden morning<sup>6</sup>

It is a metaphor with the connection of the lines, where the lyrical protagonist's worries about the homelessness of the offspring, the continuation of life, are given.

The poet also used metaphors to express his thoughts about the homeless:

When I look at the young homeless,  
For the rest of my life I will fall in love like a girl<sup>7</sup>

In these lines, the lyrical protagonist evaluates the attitude of any person towards the homeless, as the girl's feelings of love for life are abundant, a feeling distinguished by her purity.

In particular, in this poem we see the skill of the poet in that the lyrical protagonist's conflicting thoughts are conveyed at the level of artistic thought.

Homeless, he is the greatest of men,  
Whoever you are, you are yesterday<sup>8</sup>.  
Your mother didn't give birth to you while you were standing.

The elderly are also said to have had children

or:  
Homelessness is the first step of a person.

Take it to him at your last step.  
In this case, the lyrical protagonist's apologies in an antithetical way, using words such as "homeless", "old man", "firstborn", "last", paralleling the process of human birth and aging, and philosophical mania in their lives.

Furthermore, we encounter rhetorical inquiries and rhetorical urges that increase the emotional sensitivity of the poet in the context of confirming his views on the homeless.

All of these people are really white  
"Was he a child? I ask.

No, not at all! Only te bases"<sup>9</sup>

These lines express the lyrical protagonist's attitude to the evil people he encounters throughout his life and the consequences of their harm.

In the poem "Homeless" by the poet I. Yusupov, a child born to a new world, not to mention a homeless child, childhood and old age are paralleled, and the human thoughts of the lyrical hero The shores of the dabiwleri are artistically given.

P.Mirzobayeva's poem "A poem written in an orphanage in Khojeli" also raises the issue of the dignity of the child, the obligation of parents to the child. The lyrical protagonist's fierce feelings are given to parents who have made mistakes in the reins of destiny and left their children in an orphanage to escape parental responsibility. Through the lyrical protagonist's feelings of sadness and grief, it is said that the child who longs for the mother's affection longs not only for the mother's cuddles, but also for her claps.

In general, I.Yusupov's poem "Children" speaks from a philosophical point of view about the surviving child. In M.Jumanazarova's poem "Children", the question of the parents, who considered the obligation to provide

6 Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы. II том. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,145-б.

7 Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы. II том. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,145-б.

8 Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы. II том. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,145-б.

9 Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы. II том. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992,145-б.

for their children to be financially secure, to be answered, the psychological state of the homeless child was illustrated with the help of motherly love, affection and feelings of sorrow.

The poetess P. Mirzobayeva also has a lot of publicist poems about public issues. His works include "Every night if you miss my son", "Maman biy monologue", "My student years", "A poem written in an orphanage in Khojaly", "What in the world is happening", "Last call", "Iraq", "Karakalpaks who have never seen the soil of Karakalpakstan", "Mother tongue", "Letters" and so on. b. his poems are written in a journalistic context.

P.Mirzobayeva's poem "To the Karakalpaks who have never seen the soil of Karakalpakstan"<sup>10</sup> is written in a journalistic way and tells about the fate of people working abroad.

Unhappiness is a place of choice, Not good for me: Maybe I'm poorer than you, The wind that blows is not silk. But the grandfathers laughed, My grandparents cried at that.

The poem is freely written. In the first lines, the tragic fate of the Karakalpaks traveling abroad, the hardships they saw, the tears, the lyrical hero's honor. He feels sorry for them, and cares for them with a kind heart, what they ate and what they wore outside their house. Through the lines, "Your dishwashed hands never hurt, your heart never hurts," it shows how strong the milkman is at the heart of his country's longing liver.

We clean the items using water. These lines give the lyrical protagonist the feeling that no matter how many things you wash and clean, you will not be able to quench the longing in the hearts of those who are far away from the country. In the next lines, the lyrical protagonist comforts them by telling them consolation. It is comforting to know that you are unhappy when you travel abroad, unhappiness does not choose a place. Although I am in my own country, I call you "poor", and in the next lines the thoughts of the lyrical protagonist will change dramatically. In the following lines, the lyrical protagonist's sense of gratitude awakens. No matter how poor I am in this land, I will not be able to sleep, because the blood of my ancestors is shed, and the feeling of patriotism is growing. The very fact that I live in this land makes me feel grateful.

Poet M. Jumanazarova's poem "To My Children Working Abroad" contains the same

lines as the above poem.

The crow's footsteps are sad,  
Did you lie down without returning to the wind,  
the wind,  
With tears on their faces,  
Did catch the train<sup>11</sup>

This poem of the poet was written in 2007 during Atirov's visit. The poem is written in a programmatic format and consists of 7 verses. In the poem, the feelings of the lyrical protagonist, such as pity and grief for his children, who worked abroad and set off without returning home, are conveyed with motherly love. The lyrical protagonist not only worries about the motherly kindness, but also about the liver, the feelings of childbirth, because he builds a house for strangers in faraway places and walks away from his home and relatives. When I see that you are suffering here, how can I go back to the river, my heart is bleeding.

The lyrical protagonist of P. Mirzobayeva's poem "Karakalpaks who have never seen the soil of Karakalpakstan" cares about their livers from the outside, while M.Jumanazarova's poem "To my children who are working abroad" menen, ikhvat tiaras prevail. Both poets speak of the hardships of the corpses of their parents, relatives, children, families, and still-living corpses, whose shores are in demand today. Contrary to many people's wishes, there are many people who go out of their way to take care of their families. Their dead relatives miss their distant liver. Both of these poets posed a major problem in society with their feminine sensibilities. Every member of the family is a supporter of living happily with their loved ones in their home.

In particular, P. Mirzobayeva's poem "The Last Bell" reveals some flaws in society.

"... vich" and "... evna"  
of men,  
When it is born from the right  
months,  
One piece sees the old,  
where!  
Forgive them,  
last call<sup>12</sup>.

In these lines of the poet, the actions of those who are working in the society, being someone's child, someone's relative, are revealed. However, such a "liver disease" is growing in our society today. The poet

was able to understand this public problem correctly. The lyrical protagonist's feelings of pity for them are given in an ironic pathos.

One of the poems of the poetess M.Jumanazarova, which deals with a wide range of public issues, is "Ships move away from the rest of the steppe", in which the lyrical heroine's thoughts on the life of the Aral Sea today are as follows.

*From the pulpit, the hand speaks sadly,  
I'm sorry to bother you,  
Indifferent people do not pay attention<sup>13</sup>,*

These lines tell of the international environment in which the lyrical protagonist is indifferent to the plight of the people. In the above lines, the words of the martyr, who sang in the pulpits in front of other people, were in vain, and no one was interested in the grief of the people. It becomes clearer in the lines of In the next paragraph, the opinion is sharpened again and the opinion about the number of such "spectators" is given.

*The waves of the sea kiss your feet;  
A woman lives in the port of Uch Soy;  
The little girl-brother-in-law,  
The ship is looking intently.  
The lifeless picture that became at that time,  
The walls of the museum are decorated,  
Thirty years ago... Explains  
The furry cousin, hunched over.*

In the above two verses, the lyrical protagonist's views on the situation of Muynakchi thirty years later, telling about a picture of a woman looking at her fisherman husband and her daughter in the port of Uchsoy during the turbulent Aral Sea, are expressed by paralleling the past and the present.

The poem of the poet I. Yusupov "Memory to the cemetery of ships" is in line with the theme of the above poem.

*At the bustling port of Uchsay last night  
Today is the cemetery of ships  
In the land of emigrants,  
Shipwrecks<sup>14</sup>.*

In this poem by I. Yusupov, the lyrical hero's feelings when he sees the ships on the dried shores of the Aral Sea are sharply expressed. It is said that the ships, which were built by human power in their time, will one day be destroyed by those people themselves. The purpose of this is to say that in their time, people dried up the sea and suffered under the slogan "Take care of nature, open the land of Tingnan, take more white gold." At the end of the poem, the lyrical protagonist is encouraged to the next generation through his thoughts. Today's Arolding suggests that this type of punishment is the beginning of the punishment for humanity.

The lyrical protagonist of M. Jumanazarova's poem "Ships move away from the rest of the field" is sympathetic to the lyrical hero of I. Yusupov's poem "Elas to the cemetery of ships". I.Yusupov's poem was written in 1989 and coincides with the period when the process of construction of the Aral Sea was announced to the world. burns. M.Jumanazarova's poem is given in the book "Elim deb engiremeseng" published in 1992. The lyrical protagonist of M. Jumanazova is given the Aral Sea and its condition at that time, which humanity could not restore no matter how hard they tried. The lyrical protagonist's feelings are sharpened, and in I.Yusupov's poem he calls the Aral collar "Mazar-i-Sharif" reminiscent of a cemetery.

Thus, in the publicist poems of M. Jumanazarova and P. Mirzobayeva, the lyrical hero is portrayed as a passionate hero, not indifferent to the events taking place around him. In the lyrics of M. Jumanazarova and P. Mirzobayeva, the desire to understand the world, the environment, in many cases, brought success to their lyrics. The analysis of social, economic and political changes in society on the basis of intellectual and morality has given rise to examples of lyrical creativity that affect the public and individual consciousness.

<sup>10</sup> Мырзабаева П. Дәуір нәпеси. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1989.

<sup>11</sup> Жуманазарова М. Кетпек ушын келгенмен... Нөкис, «Қарақалпақстан», 2011, 26-б.

<sup>12</sup> Мырзабаева П. Дәуір нәпеси. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1989.

<sup>13</sup> Жуманазарова М. Қайтар дүнья. // Қарақалпақ әдебиаты, 2013-жыл, сентябрь-октябрь, № 9-10 (33-34)

<sup>14</sup> Юсупов И. Таңлаулы шығармаларының еки томлығы. II том. Нөкис, «Қарақалпақстан», 1992.

## MAHMUDXO'JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA ANTONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK VOQEALANISHI

Mansurbek Masharipov - tadqiqotchi, Toshkent davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada jadid ma'rifatparvar adibi Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida qo'llangan zid ma'noli so'zlarning semantik voqelanishi o'rganilgan. Bunda adib maqolalari matnida qo'llangan leksik va funktsional-semantik antonimlarning uslubiy vosita sifatida publitsistik nutq va uslub shakllanishidagi o'zni ilmiy tahlil qilingan.

**Аннотация:** В статье исследуется семантическая реализация слов с противоположным значением, используемых в публицистике современного просвещенного писателя Махмудходжи Бехбуди. Научно проанализирована роль лексических и функционально-семантических антонимов, используемых в тексте статей писателя, как методического средства в формировании публицистической речи и стиля.

**Abstract:** The article examines the semantic realization of words with opposite meanings used in the publicism of modern enlightened writer Mahmudhoja Behbudi. The role of lexical and functional-semantic antonyms used in the text of the writer's articles as a methodological tool in journalistic speech and style formation was scientifically analyzed.

**Kalit so'zlar:** publitsistik nutq, antiteza, qarshilantirish, ekspressivlik, kontrar qarama-qarshilik, komplementar qarama-qarshilik, leksik-semantik antonimlar, funktsional-semantik antonimlar, kontekstual antonimlar, okkazonal yasalma.

**Ключевые слова:** публицистическая речь, антитеза, оппозиция, экспрессивность, контроппозиция, комплиментарная оппозиция, лексико-семантические антонимы, функционально-семантические антонимы, контекстуальные антонимы, окказиональная конструкция.

**Keywords:** journalistic speech, antithesis, opposition, expressiveness, counter opposition, complementary opposition, lexical-semantic antonyms, functional-semantic antonyms, contextual antonyms, occasional construction.

Publitsistikada tasviriylik matnning jozibali va ta'sirchan bo'lishi bilan bog'liq bo'lsa, ekspressivlik targ'ibot va baho munosabatiga borib taqaladi. Ular matnning mazmun-mohiyatiga ko'ra leksik-semantik munosabatlarning voqelanishi, leksik-grammatik vositalarning uslubiy qo'llanishini taqozo etadi. Ana shunday leksik vositalardan biri antonimlardir. Tildagi zid ma'noli so'zlar badiiy nutq qatorida publitsistik uslub tilining ham ifodaliligi, ekspressivligi, ta'sirchanligini ta'minlashning qulay vositalaridan biri hisoblanadi. Zid ma'noli so'zlardan Sharq adabiyotida tasvir vositasi sifatida keng foydalanib kelingan. G'arb filologiya ilmidan bu san'at "antiteza" deb yuritiladi. Badiiy matnning lingvopoetik tahliliga bag'ishlangan ishlarda zidlantirish, qarshilantirish atamalaridan foydalaniladi. Zid ma'noli so'zlarni yonmayon qo'llash orqali tushunchalar, belgilar,

holatlar, obrazlar zidlantiriladi. Odatda, lisoniy va kontekstual yoki nutqiy zid ma'noli so'zlar farqlanadi<sup>1</sup>. Tilimizda deyarli barcha mustaqil so'z turkumlarida antonimiya hodisasi kuzatiladi. Ikki so'zning bir-biriga nisbatan zid ma'no bildirishining o'zi antonimlar uchun umumiy belgi bo'la oladi. Biroq bu belgi unga muayyan aniqliklar kiritishni talab qiladi. Ana shuning uchun ham qarama-qarshi fikrni har qanday so'zlar ham, masalan, ayrim tilshunoslar tomonidan antonim hisoblab kelingan keldi-kelmadi, aka-uka, tovuq-xo'roz kabi so'zlar zotan antonim bo'lavermaydi<sup>2</sup>.

Tilshunos R.Shukurovning ta'kidlashicha, so'zlarning antonimligini ko'rsatuvchi belgilardan biri antonimik juftlik hosil qiluvchi komponentlar orasida oraliq tushunchalarning mavjud bo'lishidir. Olim bunday oraliq tushunchalarni mantiqiy markaz deb ataydi. Mantiqiy markaz so'zlarning antonim bo'lish-

bo'lmasligini aniqlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Professor S.Usmonov bunday oraliq tushunchalarni faqat to'la antonimlarga xos deb belgilaydi. Mavjud o'quv adabiyotlarida, xususan, "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligida mualliflar tomonidan antonim so'zlar borasida keng ilmiy tahlillar berilgan. Jumladan, antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etishi ta'kidlangan:

- a) kontrar qarama-qarshilik;
- b) komplementar qarama-qarshilik<sup>3</sup>.

Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida qarama-qarshilikning bu ikki turi ham mavjud, ulardan publitsistika tilida logik va obrazli ibtidoaning uyg'unligini, fikr bayonining isbotlash xususiyatini hamda tasvirning obrazlilikini ta'minlashda o'rinli foydalanilgan. Adib maqolalarida kecha-kunduz, kuntu, kunduz-oqshom, yoz-qish antonimlari payt, vaqt va mavsumni anglatish asnosida publitsistik tasvirga hissiylik bag'ishlashga xizmat qilgan: "Xatti istivoning yil o'n ikki oy, kecha-kunduzi o'n ikki soatdan bo'lub, kuntu uzun va qisqa bo'lmaydur"<sup>4</sup>; "Kunduz chirog' yoqqan ablahning oqshom qorong'uda o'lturganini yaqinda ko'rarsan" "Al-on yozda biroz mevada mavjud, albatta, yozning tirikligi, qishnikidan osondur". Bu misollardagi kuntu, kecha-kunduz, kunduz-oqshom antonimlari komplementar, yoz-qish antonimi esa kontrar qarama-qarshilikni hosil qilgan.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi<sup>5</sup>. Masalan, yoz-qish juftligida qish – yilning eng sovuq fasli, yoz – yilning eng issiq fasli. Bular orasida bahor va kuz fasllari borki, sovuq va issiqlikda neytrallik kasb etadi. Bahor yoki kuz leksemasida yoz-qish antonimligi so'nadi.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi. Quyida keltirilayotgan antonimlar orasida uchinchi oraliq leksema mavjud emas: "Har qancha xatti istivo tarfig'a ketilsa, Temur qoziq yulduzi past va baland bo'lganig'a qarab vaz' va taqsim qilgandurki, shoyad boshqa vaqtda tafsil va kayfiyatidan yozilur" "Issiq-sovuqlik jihatidan yerimizning yuzi olti qismg'a bo'lundi, chunonchi, sharqiy va g'arbiy" "Bizning avlodimiz hamda xalqi olam bizg'a rahmat o'rnig'a lan'at o'qurlar" "Har kimga muqarrardek bir qadoqdan yo ko'b va yo oz bermakchi va butun g'alla bozorini, xususiy nonvoyxonalarni berkitmakchi ekanlar" Shu sababli ham misollardagi past-baland, issiq-sovuq, rahmat-

lan'at, ko'p-oz leksemalari orasidagi antonimlik komplementar qarama-qarshilik hisoblanadi.

Antonimiya hodisasining turli o'zakli so'zlarda ham, affiksatsiya usuli bilan yasalgan bir o'zakli so'zlarda ham, hatto bir so'zning o'zaro zid ma'nolarida, shuningdek, zid ma'noda qo'llanishi mumkin bo'lgan frazeologik iboralarda ham uchrashi tilshunoslikda o'z tadqiqini topgan.

Publitsistik uslub tilini boshqa lisoniy vositalar qatorida antonimlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Har qanday publitsist o'z maqolalarida tasvirlanayotgan voqea-hodisalar, xabarlarini dalillash, ishonarli va jonli tasvirlash ehtiyojidan kelib chiqib, zid ma'noli so'zlarni ishlatadi. Biroq antonimlarning estetik qiymat kasb etishi, ularning publitsistik nutqdagi me'yori, geneologik tarkibi, uslubiy qo'llanishi hamda so'z turkumlararo voqelanishi davr nuqtai nazaridan farqlanadi. Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik asarlarida qo'llangan zid ma'noli so'zlar xilma-xil leksik kategoriyalarni, chunonchi, insonlarga xos bo'lgan xarakter-xususiyatni; hayvonlar, jonli va jonsiz predmetlarning xususiyat, holatini; harakat yoki belgining miqdorini ifodalash nuqtai nazaridan ma'lum so'z turkumlararo voqelangan. Ularni quyidagi ikki turga ajratish mumkin:

1. Leksik-semantik antonimlar. Bunday antonimlar an'anaviy tarzda qo'llanib kelayotgan zid ma'noli so'zlardir. Leksik-semantik antonimlarni deyarli barcha so'z turkumlari doirasida kuzatish mumkin. O'zbek tilidagi zid ma'noli so'zlarning salmoqli miqdorini sifat va ravish so'z turkumlariga oid so'zlar tashkil etadi. Adib qo'llagan sifat antonimlarni leksik ma'nosi jihatdan 1) kishilarga xos bo'lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: bexabar-xabarsiz, besavod-savodli, dinli-dinsiz, olim-johil, ulug'kichik, yerli-yersiz, kuchli-kuchsiz kabi; 2) narsalarga xos bo'lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: diniy-dunyoviy, qadim-jadid, oson-qiyin, issiq-sovuq, keng-tor, baland-past, uzun-qisqa, maqbul-nomaqbul kabi; 3) kishi va narsalar uchun umumiy bo'lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlar: qart-yosh, yaxshi-yomon, jonli-jonsiz, epchil-noshud, sodda-ayyor, to'q-och kabi turlarga ajratish mumkin.

"O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati"da kichik so'zining antonimi sifatida katta, yirik leksemalari keltirilgan va ularning "boshqaga nisbatan ko'p yashagan, yoshi ortiq; ko'lami me'yordan ortiq, muhim" kabi ma'nolarni ifodalashi qayd etilgan<sup>6</sup>. Qadimgi turkiy tilga oid ULUG' leksemasida ham

3 Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B.153.

4 Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 1-jild. (nashrga tayyorlovchi Sirojiddin Ahmad). – Toshkent: Akademiya, 2018. – B.447. Bundan keyingi misollar ham shu manbadan olinadi va manba sahifasi qavs ichida ko'rsatildi.

5 Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 153.

6 Rahmatullayev Sh., Mamatov N., Shukurov R. O'zbek tili antonimlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. –B. 112.

“egallagan o’rni, hajmi yirik, katta, ulkan, buyuk” semalarni ifodalash imkoniyati mavjud<sup>7</sup>. Ulug’-kichik leksemalarining o’zaro zid ma’noda qo’llanishi eski o’zbek tilida ham kuzatiladi: “Yana bir necha ulug’-kichik gird va go’shamda bo’lurlar erdi”<sup>8</sup>. M.Behbudiy ulug’-kichik sifat antonimlarini alohida (yakka) shaklda qo’llab, voqea-hodisaning mohiyatini, ahamiyatini ta’kidlashga; juft shaklda qo’llab umumiy grammatik ma’no ifodalashga xizmat qildirgan: “Ulug’lariga hurmat va rioyat qildilar. Kichiklariga marhamat qilib, shul tariqa musulmon nomini jahong’a mashhur qildilar”; “Takror aytamanki, ulug’ - kichik baravar ishlamoq kerak”.

Behbudiy publisistikasida sifat turkumiga oid bunday leksik-semantik antonimlarning hozirgi adabiy til nuqtai nazaridan arxaiklashgan shakllari ham uchraydi: “Biz Turkiston musulmonlariga lozimki, avvalo qadim va jadid nizo lavzisini qo’yib, o’zaro ittifoq istasak”. Qadim va jadid leksemalari mavjud lug’atlarda antonim sifatida qayd etilmaydi, biroq ular anglatgan ma’no esa adabiy til tarixida o’zaro zidlanish hosil qiladi: QADIM “o’tgan, ilgarigi, ko’hna, eski”; JADID “yangi, boyagi, oxirgi”. Demak, leksemalar anglatgan yangi va eski sememalar asosida bu ikki so’z XX asr boshlaridagi o’zbek publitsistik uslubida antonim sifatida qo’llangan. Hozirda jadid leksemasi arxaik variant hisoblanadi. Lekin shuni ta’kidlash kerakki, bu leksemalar anglatgan ma’no, ya’ni eski-yangi leksemalarining o’zi ham maqolalar matnida qo’llanib, o’zaro zidlanish hosil qilgan o’rinlar uchraydi: “Bu kung’acha Turkistonning har tarafidagi eski va yangi maktablarida forsiy nazm va nasr kitoblari ta’lim berilib kelgandur”. Bundan XX asr boshlaridagi davr adabiy tilida an’anada bo’lgan qadim-jadid leksik antonimik jufti o’rnida eski-yangi zid ma’noli juftlik me’yorlashish jarayonida bo’lganligini tushunish mumkin.

Shuningdek, kishilarga xos bo’lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi sifat antonimlarning dialektal variantlari ham qo’llangan. “O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati”da qart – yosh leksemalari o’zaro antonim sifatida berilgan<sup>9</sup>. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da QART so’zining “qari, kekxa” ma’nolarini anglatishi va bu so’z dialektal xoslanganligi ta’kidlanadi. Maqolalar matnida kishilarga xos belgi-xususiyatni ifodalash maqsadida qari – yosh, qart – yosh, kekxa – yosh antonimik juftliklari paralel qo’llangan: “Qartlarimiz aql va fikrlarini sarf qilib, yoshlarni targ’ib qilub, o’ng oyoq bo’lub xizmat yo’lini go’starirlar, yoshlarimiz bo’lsa, mol-jon ila xizmat qilurlar”; “Millat taraqqiyig’a bir necha sabablar bo’lub,

tub sababi kekxa va yoshlarning hamiyat va g’ayratlaridur”.

Adib voqea-hodisaning mohiyatini ta’sirchan yoritishda sifat turkumiga oid leksik-semantik antonimlarni o’ziga xos uslubda qo’llaydi: “Ore, shorihlardan ba’zilari Xudoning ochiq, oson, keng dinini toraytirdilar”; “Johil shorihlar Muhammadning keng va oson dinini tor va qiyin eta-eta undan bir hukminida qoldurmadi”. E’tibor beradigan bo’lsak, birinchi misolda narsalarga xos bo’lgan belgi-xususiyatni ifodalovchi ochiq-yopiq, oson-yengil, keng-tor antonimik juftliklardagi birinchi komponent alohida qo’llangan, uyushib kelgan. Va bu voqea-hodisaning mohiyatini, ahamiyatini ta’kidlab ko’rsatishga xizmat qilgan. Ikkinchi misolda esa antonimik juftliklardagi ijobiy semaga ega bo’lgan qismlar alohida, salbiy ottenkaga ega bo’lgan komponentlar alohida juft holda keltirilib, tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisani o’zaro qiyoslash, taqqoslash imkonini bergan.

Biz to’plagan materiallar Mahmudxo’ja Behbudiy publitsistikasida qo’llangan leksik-semantik antonimlarni so’z turkumlari bo’yicha ma’no jihatdan quyidagi turlarga ajratish imkonini berdi: a) harakatning ijro etilish o’rni va yo’nalishi bi-lan bog’liq bo’lgan hamda harakat yoki belgining miqdorini bildiruvchi ravish antonimlar: “Javob beringiz! Keyinmi qaytamiz, ilgarimi ketarmiz?!”; “Amir hazratlari na avvalda va na oxirda, agarchi bir kalima bo’lsun, so’ylamasdan favran chiqib ketdi”; “Har kimga muqarrardek bir qadoqdan yo ko’b va yo oz bermakchi va butun g’alla bozorini, xususiy nonvoyxonalarni berkitmakchi ekanlar”; b) kishilarning psixologik holati va xarakteri, mavhum tushuncha va tasavvur, urfodat, tomonlarga oid ma’nolarni ifodalovchi ot antonimlar: “Olim va johil musulmonni inspekturlar kelib ko’rgandurlar”; “Xatti istivoni shimolidagi qism “Arzi shimoliy”, janubidagi “Arzi janubiy” atalur”; “Holo bu shaharlarning odami bir-biriga oddiy to’y va azalarga borish-kelish qiladilar”; “Qabr behisht va yo do’zaxni bir ruhi va darchasidur”; v) kishilarga xos ruhiy harakat-holat va qarama-qarshi yo’nalishdagi harakatni ifodalovchi fe’l antonimlar: “Biz musulmonlar dushmanlarimizni kuldurub, do’stlarimizni yig’lataturgon bir holdamiz”; Rusiya hamsheriklarimiz ila borish-kelish qilub, ushbu zamoni jadid to’g’risida alardan bahra olmoq bizlarga lozimdur”; g) modal ma’no ifodalovchi leksemalarning o’zaro zidlanishi: “Muallimning ilmi bor yo yo’q bo’lg’onda na o’qitadur; “Qayda ma’lum bor, qayda ma’lum yo’q”.

Muallif ayrim hollarda birikmalarni zid ma’noda qo’llaydi. Bu esa murakkab

7 O’zbek tilining izohli lug’ati. V jild. IV jild. – Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2020. – B. 280. Keyingi misollarda manba O’TIL tarzida qisqartma shaklida olini va sahifasi ko’rsatildi.

8 Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – Toshkent: O’qituvchi, 1980. – B. 159.

9 To’rayeva U., Shodmonova D. O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. – B. 23.

ko’rinishdagi leksik-semantik antonimlikni yuzaga keltirgan: “Shundayki ersiz xotunlardan paydo bo’lgan jinoyatlar, xotunsiz erlardan paydo bo’lgan jinoyatlardan ikki martaba ziyodadur”; “Uylanmakdan qolmak naqadar zararli bo’lsa, tez uylanmak andan zararliqdur”; “Tiyotrdam savodsiz odam ko’zi ila ko’rub, ko’zsiz odam eshitib mushohada, ibrat va lazzat olar”; “Ammo tartibi qadima ila osori jadida miyonasida ko’p tafovut bor”; Yuqoridagi parchada keltirilgan ersiz xotun – xotunsiz er, uylanmakdan qolmak – tez uylanmak, ko’zsiz odam – ko’zi ila ko’rmoq, savodsiz odam – eshitib lazzat olmoq, tartibi qadima – osori jadida birliklari o’zaro zid ma’nodagi birikmalarga misol bo’la oladi.

2. Funktsional-semantik yoki kontekstual antonimlar. Tildagi ko’pgina so’zlar to’g’ri ma’nosi bilan ham, ko’chma ma’nosi bilan ham antonim bo’la olmaganlari holda, ular nutqda bir-biri bilan mazmunan zid tushunchalarni anglatib kelishi, qarama-qarshi ma’nolarda qo’llanishi mumkin. Til ilmidagi leksik ma’nolari jihatidan antonim bo’lmasdan, faqat matn tarkibidagina qarama-qarshi ma’no-da ishlatilgan so’zlarga kontekstual antonimlar deya ta’rif berilgan<sup>10</sup>. Bunda publitsist, yozuvchi va shoirlarimiz antiteza usulidan foydalanib, nutqning ifodali, ixcham va o’tkirlikiga erishadilar. Bunday zid ma’nolilik – muvaqqat hodisa hisoblanadi. Nutq tarkibidagina antonimlik kasb etib, nutqdan tashqarida qarama-qarshi ma’no ifodalashini yo’qotadi. Kontekstual antonimlikni vujudga keltirish muallifdan mahorat talab qiladi. Chunki so’zdan foydalanish ko’nikmasi, uning ichki ma’nolarini to’la namoyon etishi mana shu hodisada ham namoyon bo’ladi. Mahmudxo’ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida antonimlarning ba’zilari kontekstual xarakter kasb etgan. Kontekstual yoki funksional-semantik antonimlar leksemaning ma’no imkoniyatlarini kengaytirib, muallifning lingvistik mahoratini aks ettirgan: “Hukmronlarning bu qilgan jabrlari o’zlari uchun eng yaxshi, biz musulmonlar uchun esa eng jonsiz va xaroblighi bilan achinarlidir”. Misoldagi yaxshi, jonsiz, xarob leksemalari semantik tabiatiga ko’ra o’zaro antonim emas. “O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati”da yaxshi so’zining antonimi sifatida yomon leksema keltirilgan<sup>11</sup>. “O’zbek tilining izohli lug’ati”da JONSIZ so’zining “hayot alomati yo’q, o’lik; ko’chma ma’noda zerikarli, ta’sirsiz; sukutga cho’ngan, jimjit” kabi ma’nolarni anglatishi ko’rsatilgan. XAROB so’ziga “vayron bo’lish, halokat; moddiy va ma’naviy jihatdan ahvoli tang” kabi ma’nolarni ifodalashi haqida izoh berilgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, misoldagi yaxshi, jonsiz, xarob so’zlari asli antonim

birliklar emas. Chunki ularda biri ikkinchisini inkor etadigan qarama-qarshi belgilar mavjud emas. Shuningdek, bu leksemalar nutqdan tashqarida antonimlik munosabatiga kirisha olmaydi. Lekin ushbu so’zlar matnda zidlikni ifodalashga xizmat qilgan. Muallif mazkur parchada jonsiz leksema ifodalagan “hayot alomati yo’q, ta’sirsiz” semasini; xarob leksema ifodalagan “vayron bo’lish, halokat; moddiy va ma’naviy jihatdan ahvoli tang” semasini YAXSHI leksema ifodalagan “ijobiy sifatga ega bo’lgan, biror talabga to’la javob beradigan, kishiga yoqadigan, ma’qul bo’ladigan” semasiga qarama-qarshi qo’yib leksemalarni publitsistik uslub maqsadi talabi bilan antonimlik munosabatida voqelantirgan.

Yana misollarga murojaat qilamiz: “Azbaski, muxolifi mazhab emas, balki muvofiqi mazhab ishlagan bo’lurmiz”.

“O’zbek tilining etimologik lug’ati”da har ikki so’z arabcha o’zlashma ekanligi, MUXOLIF leksema “qarshi chiquvchi, qarshi ish qiluvchi” ma’nolarini; MUVOFIQ leksema esa “mos, to’g’ri keladigan” ma’nolarini ifodalashi qayd etilgan<sup>12</sup>. Demakki, bu ikki so’z anglatgan ma’no o’zaro zidlikni hosil qilmaydi. Lekin matn tarkibida bu leksemalar komponent sifatida qatnashgan muxolifi mazhab – muvofiqi mazhab izofali qurilmalari orqali kontekstual antonimlikni yuzaga keltirgan, matn tarkibidan tashqarida esa muxolif va muvofiq leksemalari bir-biriga zid ma’noni ifodalamaydi.

Xuddi shu kabi matn tarkibida qo’llangan ziyoli, xayoliy, chalasavod leksemalarining matniy antonim sifatida qo’llanganligi ham e’tiborni tortadi: “Russkiy-tuzemniy maktablarga o’quganlar ziyoli tugul, xayoliy ham hisoblanmaydilar, alar faqat chalasavod kishilardir”. “Oyina” jurnalining 1909-yil 2-oktyabrdagi sonida maktab ta’limi islohi masalalari o’rtaga tashlangan “Ehtiyoji millat” maqolasidan olingan yuqoridagi parchada o’sha davr “rus-tuzem maktablari”dagi o’qitish sifatining nochor ahvoli kontekstual antonimlar ifodalagan majoziy ma’noda o’ziga xos tarzda tavsiflangan. Tilimizda ZIYOLI leksema “aqliy mehnat bilan shug’ullanuvchi; ilmli, o’qimishli, ma’rifatli kishi” ma’nolarini anglatadi; XAYOLIY so’zi esa “fantastik, tasavvurdagi. Odatda bu ikki leksema o’zaro antonimik paradigmani hosil qilmaydi, chunki ular anglatgan ma’nolar o’zaro zidlanishda emas. Muallif rus-tuzem maktablaridagi o’quvchilarning bilim darajasiga tavsif berar ekan, ziyoli leksemasiga xayoliy, chalasavod leksemalarini o’zaro qarama-qarshi qo’yib, masalaning mohiyatini yoritishda uslub ta’sirchanligiga erishgan.

Voqea-hodisaning, aytilayotgan fikr mazmunining ta’sirchanligini oshirish

10 Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o’zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – B. 153.

11 To’rayeva U., Shodmonova D. O’zbek tilining zid ma’noli so’zlar o’quv lug’ati. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”. – B. 33.

12 Rahmatullayev Sh. O’zbek tilining etimologik lug’ati. II tom. – Toshkent: “Universitet”, 2003. – B. 280, 301.

maqsadida muallifning ba'zi o'rinlarda leksik va kontekstual antonimlarni paralel qo'llagan holatlari kuzatiladi: "Alhamdulillah, xalqimiz kufr ila islomni, taraqqiy ila tadanniyni, rost ila yolg'onni tamiz etadurlar". Misoldagi rost-yolg'on leksemalari leksik-semantik antonim sifatida odatiy qarama-qarshi, zid ma'noli antonimlikni ifodalaydi. Arabcha TARAQQIY so'zi "ko'tarilish, yuksalish, rivojlanish" ma'nolarini anglatadi. Muallif bu leksemaga antonim sifatida qo'llagan TADANNIY so'zi esa "sekinlashish; ko'chma ma'noda "orqaga ketish" ma'nolarini ifoda etib<sup>13</sup>, eski o'zbek adabiy tilida keng istifodada bo'lgan. Hozirda eskirgan lug'aviy qatlamga o'tgan. Demak, muallif qo'llagan rost-yolg'on, taraqqiy-tadanniy leksemalari bir turkum doirasida o'zaro zidlanishda bo'lgan odatdagi ikkita antonimik paradigmani hosil qilgan. Matn tarkibida qo'llangan kufr-islom so'zlari, garchi, bir turkum, ya'ni ot so'z turkumiga oid bo'lsa-da, ulardan birining ma'nosi ikkinchisini to'la inkor qilmaydi. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da arabcha ISLOM so'zi "olohga sig'inish, itoat" ma'nolarini; KUFR so'zi esa "dinsizlik, kofirlik, islomni tanimaslik" ma'nolarini anglatishi aytilgan. Ko'rinadiki, leksik sathda odatiy tartibda "dinsizlik, kofirlik, islomni tanimaslik" semalariga ega bo'lgan kufr so'ziga islom so'zi antonim emas. Lekin muallif matn tarkibida kufr va islom leksemalarini zid ma'noda qo'llab, funksional-semantik antonimlikni yuzaga keltirgan. Bu esa, o'z navbatida, fikr ta'sirchanligini oshirishga xizmat qilgan. Maqolalardagi matniy (kontekstual) antonimlarni tahlil qilar ekanmiz, M.Behbudiyning faqatgina tilda avvaldan mavjud so'zlardangina foydalanmaganligiga, balki ba'zi hollarda aytmoqchi bo'lgan fikrni, tushunchani aniqroq, yaxshiroq, kuchliroq, ta'sirchan ifodalaydigan so'zlarni topishga, lozim o'rinlarda ularni o'zi yasashga, original tarzda qo'llashga intilganligini ko'ramiz: "So'zni qisqasi, tiyotrxonalar masxarabozxona bo'lmay, balki ibratxonadur". Lug'atda ibratxona so'ziga esk. belgisi bilan "teatr" ma'nosini anglatishi ko'rsatilgan. XX asr boshlaridagi davr adabiy tilida, ayniqsa, publitsistik uslub tilida "o'g'it, pand-nasihati; namuna, o'rnak" semasiga ega bo'lgan ibrat leksemasiga -xona affiksoidi qo'shilishidan yasalgan ibratxona leksemasi Mahmudxo'ja Behbudiyan boshqa jadid ziyolilarining ijod namunalari ham kuzatiladi. Jumladan, Cho'lpon publitsistik

maqolalarida -xona affiksoidi bilan yasalgan ibratxona, musofirxona, mualajaxona, saforatxona kabi otlar keng qo'llagan bo'lib, ularning aksariyati davr neologizmlaridir<sup>14</sup>. O'zbek adabiyotida dramatik janrning yuzaga kelishi va shu asosda sahna asarlarining yaratilishi davr tilidagi lingvistik ehtiyoj sifatida mazkur leksemaning yaratilishi uchun omil bo'lganligi tabiiy. Biroq XX asr boshlaridagi davr adabiy tili lug'aviy tarkibida ham, hozirgi o'zbek adabiy tili leksik qatlamida ham mazkur o'rin-joy otiga zid ma'noda bo'lgan so'zni uchratmadik. Yuqoridagi parchada qo'llangan masxarabozxona leksemaning okkazonal yasalma sifatida ibratxona leksemasiga nisbatan kontekstual zid ma'noda qo'llanishi muallifning uslubiy mahoratidan, til boyligiga ijodiy yondashganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, kontekstual antonimlar so'zlashuvchining nutqdan foydalanish qobiliyatiga bog'liq holda nutq jarayonida paydo bo'ladi. Ular uchun muayyan qolip bo'lmay, tez-tez o'zgarib turadi. Shuning uchun ham kontekstual antonimlar ilmiy-texnik va rasmiy nutqda emas, balki asosan poeziyada, publitsistikada va og'zaki nutqda ishlatiladi. Yozma nutqda fikr ifodalash jarayonida qo'llaniladigan leksik vositalar voqea-hodisaning reallashishini ta'minlashga xizmat qiladi. Ijodkor asarda aytilmoqchi bo'lgan fikrni butun ma'no nozikliklari bilan ifodalay oladigan so'z yoki so'z birikmalarini tanlashga harakat qiladi. Boshqa janrlar qatorida publitsistik janrda ham so'z – nutqda fikrni ifodalovchi asosiy material hisoblanadi. Zid ma'noli so'zlarning publitsistik matnda leksik, stilistik va grammatik ma'no ifodalash darajasi uning nutqda qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi. U publitsistik nutq va uslubning emosionallik, obrazlilik va ta'sirchanligini oshiradi. Buning yorqin namunasini Mahmudxo'ja Behbudiyning publitsistik maqolalarida uchragan yuqorida keltirilgan misollar ham isbotlab turibdi.

Garchi, publitsistik uslubning ilk shakllanish davrida ijod qilishiga qaramasdan, Mahmudxo'ja Behbudi publitsistikasida nutqning obrazlilik ta'minlovchi boshqa tasviriy vositalar qatorida zid ma'noli leksemalarning ham o'ziga xos semantik voqelanishda salmoqli o'rinni egallashi davr adabiy tili, xususan, o'zbek publitsistik nutq va uslubi rivojida alohida ahamiyat kasb etgan.

## "ALPOMISH" DOSTONIDA QO'LLANILGAN XALQ O'YINLARI NOMLARI XUSUSIDA

Xusniddin Xasanovich Xaitov - mustaqil tadqiqotchi, Guliston davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada "Alpomish" dostoni leksikasida qo'llanilgan poyga, kurash, yoy tortish, ko'pkari singari xalq o'yinlari nomlari xususidagi fikr-mulohazalar bayoni keltirilgan. Doston matnida uchragan xalq o'yinlari nomlarini anglatuvchi dialektal so'zlar ajratib olinib, har biriga tavsif berilgan. Shuningdek, doston matnidagi ushbu xalq o'yinlari nomlari dialektal so'z maqomida ilmiy-nazariy tahlil etilgan.

**Аннотация:** В данной статье содержится изложение мнений о названиях народных игр таких как скачки, борьба, стрельба из лука, купкари, используемых в лексиконе эпоса «Алпомыш». Выделены диалектные слова обозначающие названия народных игр встречающихся в тексте эпоса и дана характеристика каждой из них. Также научно и теоретически анализируются названия этих народных игр в тексте эпоса как диалектные слова.

**Abstract:** This article contains a statement of opinions about the names of folk games such as horse racing, wrestling, archery, kupkari, used in the vocabulary of the Alpomysh epic. Dialect words denoting the names of folk games found in the text of the epic are highlighted and a description of each of them is given. The names of these folk games in the text of the epic are also scientifically and theoretically analyzed as dialect words.

**Kalit so'zlar:** doston leksikasi, poyga, kurash, olishish, yoy tortish, "yoy otish", "kamondan o'q otish", "nishonga urish", ko'pkari, xalq o'yinlari, dialektal matn tahlili.

**Ключевые слова:** эпическая лексика, скачки, национальная борьба узбекского народа, борьба, натянуть лук, стрельба из лука, поразить цель, купкари (улак), народные игры, диалектный анализ текста.

**Keywords:** epic vocabulary, horse racing, national wrestling of the Uzbek people, wrestling, pulling a bow, archery, hitting a target, kupkari (ulak), folk games, dialectal text analysis.

O'zbek xalqining ijtimoiy turmush tarzi, milliy madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlari hamda an'analari aks etgan "Alpomish" dostonida ajdodlarimizning tafakkuri, tasavvur olami bilan bog'liq dialektologik tushunchalar mavjud bo'lib, bu holat bugun ham jamiyatimiz qatlamida urfda ekanligini aytish mumkin.

Doston matnidan ma'lumki, ajdodlarimiz urug'-qabila hamda elat ko'rinishida hayot kechirgan. Xuddi urug' va qabilalarni bir-biridan ajratish maqsadida turli nomlarga murojaat qilinganidek, turmushi davomida turli marosimlar bilan birgalikda xalq o'yinlarini ham o'ziga xos dialektal so'zlar bilan nomlaganligini ko'rish mumkin. "Xalq o'yinlari ajdodlarimizning ming yilliklar davomida to'plagan ulkan tarixiy-madaniy boyligidir"<sup>1</sup>. Bu esa o'z o'rnida dialektal onomastika bilan bog'liq holatlar qadimiy ekanligini ko'rsatadi.

Xalq o'yinlari mohiyatan aslida to'y-tomosh, bayram va xursandchilik bilan bog'liq

marosimlarda o'tkazilgan. Bu esa ularga dialektlashgan xalqchil nomlar qo'yilishiga sabab bo'lgan.

Poygaga qo'shiladigan otdan qalmoqlarning podshosidan ham uch ot keldi<sup>2</sup>:

Dostonda Barchin alplarga qo'yan shartlardan biri otlarni choptirish orqali uyushtirilgan poyga xalq o'yini bo'lib, "Poyga [f-t] 1 sport. Kim o'zdi musobaqasi. Bir-birdan o'tib, o'zib ketish uchun musobaqalashmoq; tezlikni oshirib, o'tib ketishga urinmoq; 2. Boshqalaraga nisbatan yuqori natijalarga, ko'rsatkichlarga erishish uchun bo'lgan harakat; musobaqa"<sup>3</sup>. Hozir ham poyga deyilganda xalq orasida ot choptirish, yugurish yoki texnik ulovda poygalashish ko'rinishlari bu nomning shevaviylashgan leksik birlik ekanligini ko'rsatadi. Poyga – "yaralishiga harakat-holat asos bo'lgan o'yin nomidir"<sup>4</sup>.

"POYGA kim o'zdi musobaqasi. Bu ot asli qadimgi turkiy tildagi "otda kim o'zdigayugur" ma'nosini anglatgan bay fe'lidan –

1 Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. – Тошкент; "ШАРҚ". 2002. –Б. 207.

2 Fozil Yo'ldosh o'g'li. "Alpomish" dostoni. – Toshkent; "SHARQ". 2010. –B. 123.

3 Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва; Рус тили. 1981. 1 жилд. –Б. 595.

4 . Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент. 1998. –Б. 9.

ga qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik so'z boshlanishidagi b undoshi p undoshiga almashgan bayga – payga<sup>5</sup>. Shuningdek, bu so'z etimologiyasini tilshunos olim Sh. Rahmatullayev "O'zbek tilining izohli lug'ati"da forscha deb ta'kidlanganligini, poy qismi forscha (oyoq) so'zi bilan o'xshash ekanini qayd etadi. Dostondagi o'yin shartida manzilga kim birinchi yetib kelishi qo'yilgan. Demak, manzilning oxiri – poyoni bor. Bunda bay fe'lining faqat otda kim o'zidiga yugur ma'nosi emas, manzil poyoniga birinchi yetib borish ma'nosi ham nazarda tutilishi bilan bu so'z bayga – payga tarzida yasalgan, bizningcha. "So'z o'zagida b-p tovush almashinishi yuz bergani ko'rinib turibdi. Tarixiy o'zakka qo'shilgan -ga, -ka, -qa qo'shimchalari yangi so'z hosil qilgan"<sup>6</sup>.

"Alplar bilan o'zbekning polvoni yoy tortishar emish», – deb ovoza bo'lib, hamma tomoshamonlar yig'ilib, shunda Oyna ko'liga, Chilbir cho'liga tomoshamon to'lib, yoyandozlik qilmoqchi bo'lib, bu yoy tortishmoqdagi so'zi"<sup>7</sup>.

Yoy tortish, yoy otish, kamondan o'q otish, kamon otish singari bir nechta nomlar bilan atalgan bu leksik birliklar xalq o'yini nomi sifatida bir xil mazmunni ifodalaydi. Bu o'yinni o'ynash uchun yoydan foydalanilishi inobotga olinib, "yaralishiga predmat asos bo'lgan o'yin nomi" qatoriga kiritilgan<sup>8</sup>.

"Juda qadimiy o'yin-odatlarimizdan biri kurashdir"<sup>9</sup>. Bu tushuncha kurash nomini ham saqlab qolgan, deyish mumkin. Qadimdan urf-odatga aylangan o'yin bayramlar bilan birgalikda shartlarni bajarishda ham qo'l kelgan.

"Yigit va qizlarning balog'otga yetib, turmush qurishlaridagi aosiylar shartlardan biri turmushga chiqadigan qiz avvalo o'z tengdoshlarida besh-oltitasini ko'pchilik oldidagi halol kurashda yengishi, yiqitishi talab qilingan"<sup>10</sup>. Bu holat "Alpomish"da ham mavjud:

"Kurashni ko'ramiz. Toychixonning alpi bilan Qo'ng'irotdan kelgan o'zbeklarning alpi kurash qiladi, kurash juda qiziq bo'ladi, kurashda qaysisi zo'rlik qilsa, o'zbekning qizini oladi», – deb tomoshamonning bari jam bo'ladi"<sup>11</sup>.

"KURASH I. Yiqitish, g'olib chiqish uchun ikki kishi o'rtasidagi, ma'lum qoidaga asoslangan olishuv, o'zaro bellashuv"<sup>12</sup>. Ushbu xalq o'yini nomini ifodalovchi leksik birlik ham

dostonda uchraydiki, bu so'zni ham mohiyatan shevaviylashgan, deyish mumkin. "KURASH bir-birini yiqitish bo'yicha kuch sinash. Bu so'z qadimgi turkey tildagi "sidiir" ma'nosini anglatgan kur fe'lining chalib yigit ma'nosidan birgalik hosil qilingan: kur + ash = kurash"<sup>13</sup>. "Kur: kur er – dovyurak yigit"<sup>14</sup>. Kur birikmada sifat vazifasida. Shuningdek, kur -a fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilishidan shu harakatni bajarishga kirish ma'nosi yuklangan, bizningcha. Kurash xalq o'yinida ikki kishining birgalikda bu harakatni amalga oshiradi. Natijada –sh birgalik shakli qo'shilib, kurash nomi hosil qilingan deyish mumkin. Ushbu leksik birlik kurashning boshqa turiga nisbatan ham qo'llaniladi yoki yana boshqa nom bilan ham ataladi:

"Demak, "Alpomish" dostonini tahlil qilish orqali o'zbeklarning bir qancha kurash turlari mavjud bo'lganligiga amin bo'lamiz. Dostondagi "olish" atamasi turkiy millatlar ichida aosan o'zbeklarga taalluqli ekanligiga shubha qolmaydi"<sup>15</sup>. Matndagi bu so'z xalq o'yini nomi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, hozirda jahon sporti termini darajasida ommalashgan.

Dostonda ko'pkari milliy o'yini ham tashkil etiladi. Bu o'yin ham qadimiy bo'lib, harakat-holat bilan bog'liq.

"Ko'pkari – bu chavandozlar bahsi. Otabobomiz go'daklikdan bolalik fasliga kirgan farzandlarining qo'lini halolash, bo'y yetgan qizlarni uzatish, er yetgan o'g'ilarni uylantirish to'ylarida xalqqa osh berib, so'nggida ko'pkari bahsi tomoshalarini ko'rsatishgan.

Ko'pkari – bu chavandozlik, ot ustida ommaviy musobaqa shartlarini bajarib, g'olib chiqish uchun olib boriladigan kurash jangidir. Ko'pkarining boshqa nomi uloq deyiladi"<sup>16</sup>.

Kunda chiqib bul ko'pkari qiladi, Kunda solim, uloq berib tutadi"<sup>17</sup>.

Hakimbek va Barchinoy to'yida ko'pkari uyushtiriladi. Doston matnidagi ko'pkari, uloq nomlarining har ikkalasi ham xalq o'yini nomi bo'lib, dialektal so'zdir: "Ko'pkari dial. ayn. uloq"<sup>18</sup>. Misralarda ko'pkari va uloq yonmayon qo'llanilgan. "Uloq II echki bolasi. Uloq III 1 sport. Har bir otliq o'rtaga so'yib tashlangan uloqni (odatda echki yoki kichikroq buzoqni) bir-biridan kuch bilan tortib olib, tezroq

5 Raхmatullaev Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент; Университет. 2000. –Б. 270.

6 Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент. 1998. –Б. 15.

7 Fozil Yo'ldosh o'g'li. "Alpomish" dostoni. –Toshkent; "SHARQ". 2010. –B. 151.

8 4. Жабборов Э. Ўзбек халқ ўйинлари лексикаси (Жанубий Ўзбекистон материаллари асосида). Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. –Тошкент. 1998. –Б. 9.

9 Sattorov M. O'zbek udumlari. –Toshkent; Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. –B. 49.

10 O'sha kitob. –B. 50.

11 Fozil Yo'ldosh o'g'li. "Alpomish" dostoni. –Toshkent; "SHARQ". 2010. –B. 153.

12 Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва; Рус тили. 1981. II жилд. –Б. 406.

13 Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент; Университет. 2000. –Б. 220.

14 Кошгарий М. Девону луғатит турк. Индекс луғат. Абдурахмонов Ғ, Муталибов С таҳрири остида. –Тошкент; Фан, 1967. –Б. 175.

15 Azizov N, Ro'ziyev A. O'zbek milliy kurashi va bel olish kurashi haqida // Til va adabiyot ta'limi. 2010. №: 10 –B. 7.

16 Sattorov M. O'zbek udumlari. –Toshkent; Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. –B. 45.

17 Fozil Yo'ldosh o'g'li. "Alpomish" dostoni. –Toshkent; "SHARQ". 2010. –B. 190.

18 Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Москва; Рус тили. 1981. I жилд. –Б. 418.

marraga eltib tashlash uchun kurashishdan iborat sport musobaqasi; ko'pkari. 2. Shunday sport musobaqasida o'rtaga tikilgan – so'yib tashlangan echki yoki buzoq"<sup>19</sup>.

"Ko'pkari – 1. Uloq, ko'pchilik chavandozlar bilan birgalikda o'ynaladigan xalq o'yini, tomoshasi. Katta-katta marosimlarda, to'ylarda ko'pkari berilgan. Unda har bir otliq o'rtaga so'yib tashlangan uloqni bir-birdan kuch bilan tortib olib, tezroq marraga yetkazish uchun kurashishdan iborat ot sporti musobaqasi"<sup>20</sup>. Bu dialektizmning xalq shevalarida variantlari ham uchraydi: "Ko'bori // ko'pkari ko'bori – ko'pkori (Buxoro) // ko'pkari (Jizzax)"<sup>21</sup>.

"Uloq – 1. Ko'pkarida so'yib, o'rtaga tashlangan uloq, echki. 2. Ko'pkarida yutuqqa berilgan hayvon"<sup>22</sup>. Ko'pkari, uloq leksik birliklari bir-birining o'rnida qo'llaniladi, mazmun jihatdan bir mazmunni ifodalovchi dialektal ma'nosiga ega.

"U ajdodlarimiz tarixida muhim o'rin tutgan Alpomishdek xalq qahramonlarini shakllantirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan "yoyotish", "kamondan o'qotish", "nishongaurish", "olishish", "kurash" kabi o'yin musobaqalardan tashkil topdi"<sup>23</sup>. Bu xalq o'yinlarini ifodalovchi nomlarga dialektal merosimizning bir qismi sifatida qarash mumkin.

Shuningek, Abdunazar baxshi variantida kuzatar ekanimiz, dostonda to'y-tomosha tasviri aks etgan voqealarida o'ttizga yaqin turli o'yinlar nomi tilga olinadi:

"Chillak otish, teppa kallabosh, yopa-yopa, kuchmak, hayharak, to'y-to'yga, kes-kes, yashinmachoq, andiq-sandiq, ko'z boylagich, bobal taka, oq terakmi-ko'k terak, qadama tayoq, palaxmon otish, nishonga urish, bachcha poyga, yotib yumalash, kuyov-kelin, yuzgacha sanash, halova cho'kki, halinchak uchish, urchuq yigirish, keli tuyish, un elash, qaroqchi, jun tarash, ip eshish, qo'sh oyoq – boshqa yuzlab o'yinlar boshlangan"<sup>24</sup>. Ushbu o'yinlar faqatgina xursandchilikni aks ettirmay, balki to'y davomida o'tkaziladigan tarbiyaviy qadriyat ham sanalgan. Eng muhimi, xalqning o'zi tomonidan o'ylab topilgan bu o'yinlarning har biri o'ziga xosligi bilan alohida mazmun kasb etgan va dialektlashgan nomlar bilan atalgan deyish mumkin.

Qultoy qiron bosh bo'lib, Chillak o'yinni boshladi"<sup>25</sup>.

"CHILLAK [f-t] 1 Bitta uzun, bitta kalta yog'och bilan o'ynaladigan bolalar o'yini va shu o'yinda xizmat qiladigan ingichka yog'och"<sup>26</sup>. Yuqorida sanalayotgan xalq o'yinlarining aksariyati izohli yoki o'zbek xalq shevalari

lug'atida uchramaydi. Shu ma'noda doston leksikasidagi xalq o'yinlari nomi dialektal ma'noga ega ekanligini aytish mumkin.

Umuman olganda, xalqning tarixiy-madaniy boyligi sanalgan dostonidagi o'yinlar nomini anglatuvchi ushbu leksik birliklar dialektal ma'no-mazmunga ega bo'lib, ularning dialektal xususiyatlariga doir ma'lumotlar "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ham qayd etilgan. Bu kabi jihatlarni inobotga olgan holda "Alpomish" matnidagi xalq o'yinlarini nomlarini ifodalagan leksik birliklarni dostoniga bag'ishlangan dialektal lug'ati tarkibiga ma'nolari bilan kiritish har jihatdan o'rinni bo'ladi, bizningcha. Shu ma'noda xalqning dialektal tafakkuri mahsuli bo'lgan ushbu leksik birliklar qadimdan o'yinlar tashkil etish va ularning dialektal mazmunidan kelib chiqib ularni nomlash madaniyati shakllanganlini ko'rsatadi.

"Dunyoda barcha jonli-jonsiz narsalarning, hatto oniy voqea-hodisalarning ham o'z nomi, ismi, atamasi bor. Ismlarda har bir narsaning, voqea-hodisalarning ahamiyatli tomonlari aks etadi"<sup>27</sup>. Ko'rinadiki, har bir o'yinning mazmuni-mohiyati, o'yin davomida vosita bo'lib xizmat qiluvchi predmetlar tasavvurda turli nomlarni shakllantirgan.

"Narsa va hodisalarga nom qo'yish dialektik qiyosiyot bilan bog'liqdir. Biror narsaga nom qo'yishdan oldin inson tasavvurida ramz, obraz sifatida jonlanadi. Nom uchun shu narsa yoki hodisaning bir yoki bir nechta asosiy belgisini olinadi, xolos. Boshqa belgilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalq o'yinlarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi"<sup>28</sup>.

"Xullas, ming yilliklar avomida xalq o'yinlari ajdodlarimizning jismoniy, ma'naviy, ruhiy va aqliy rivojlanishi uchun asosiy vosita bo'lib kelgan"<sup>29</sup>. Xalq tomonidan o'tkazilgan bunday o'yinlarga qo'yilgan nomlar shevaviylashgan hamda doston matnida milliy qadriyatlar majmuining bir qismi sifatida saqlangan. Shu ma'noda shevaviy nomlarning shakllanishi narsa-predmet, vosita, voqea-hodisa hamda harakatlar bilan bog'lik degan xulosaga kelish mumkin. Bizningcha, bunday o'yinlarga nomlar qo'yilishi, ularning mazmun-mohiyatida xalq tasavvuri aks etib turadi. Shuning uchun ham xalq o'yinlari nomlarini dialektal so'zlar maqomida qo'llanilgan deyish mumkin. Yuqoridagi o'rganishlarda ta'kidlanganidek, ba'zi o'yin nomlari "Devonu lug'atit turk", "O'zbek xalq shevalari lug'ati"da uchrashi ham ularni shevaga xos so'zlar qatorida lug'atlarga kiritish o'rinni ekanligini ko'rsatadi.

19 Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Момква; Рус тили 1981. II жилд. –Б. 272.

20 Мирзаев Т, Эшонкул Ж, Фидокор С. –Тошкент; "Алпомиш" дostonининг изоҳли луғати. 2007. –Б. 55.

21 Ўзбек халқ шевалари луғати. –Тошкент; Фан, 1971. –Б. 147.

22 Мирзаев Т, Эшонкул Ж, Фидокор С. –Тошкент; "Алпомиш" дostonининг изоҳли луғати. 2007. –Б. 100.

23 Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. –Тошкент; "ШАРҚ". 2002. –Б. 206.

24 O'sha kitob. –B. 39.

25 Маъруфов З. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Момква; Рус тили 1981.

26 Sattorov M. O'zbek udumlari. –Toshkent; Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. –B. 15.

27 Sattorov M. O'zbek udumlari. –Toshkent; Cho'lpon nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2007. –B. 15.

## “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA QO‘LLANILGAN MAQOLLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI

Gulhayo Xakim qizi Jo‘rayeva - doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola o‘zbek milliy yozuvchisi, qadriyatlar kuychisi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asaridagi maqollarning lingvokulturologik tadqiqiga bag‘ishlanadi.

**Аннотация:** Данная статья посвящена лингвокультурологическому изучению некоторых пословиц, являющихся единицами языка, отражающими культуру, в произведении узбекского национального писателя, ценителя ценностей Тогай Мурада “Люди, которые ходят на Луну”.

**Abstract:** This article is devoted to the linguistic and cultural study of some proverbs, which are units of language reflecting culture, in the work of the Uzbek national writer, connoisseur of values Togai Murad “People who go to the moon”.

**Kalit so‘zlar:** paremiologiya, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, struktur-semantik tilshunoslik, obraz, idioma, maqol, matal, antroposentrik paradigma, nutq madaniyati, madaniyat tarixi, mubolag‘a, assotsiatsiya.

**Ключевые слова:** паремология, лингвокультурология, когнитивная лингвистика, психоллингвистика, структурно-семантическая Лингвистика, образ, идиома, пословица, поговорка, антропоцентрическая парадигма, культура речи, история культуры, преувеличение, ассоциация.

**Keywords:** paremiology, linguoculturology, cognitive linguistics, psycholinguistics, structural and semantic linguistics, image, idiom, proverb, saying, anthropocentric paradigm, speech culture, cultural history, exaggeration, association.

O‘zbek tilshunosligidagi so‘nggi yillar, ya‘ni milliy qadriyatlarining tiklanish davri so‘zlovchidan tilni, ayniqsa, davlat tili maqomiga ega bo‘lgan o‘zbek adabiy tilini chuqur egallashni; fikrni ixcham, asosli, obrazli va ta‘sirchan shaklda ifodalashni taqozo etadi. Shoir va yozuvchi, notiq va fasih, qari va yosh borki, aytilayotgan fikrini asoslamoqchi yoki mustahkamlamoqchi bo‘lsa, albatta maqolga murojaat qiladi. Maqol vositasida ifodalangan fikr, berilgan javobni tilning hech bir vositasi almashtira olmaydi yoki maqol darajasida asoslab berolmaydi. Pragmatik nuqtayi nazardan maqollar turli maqsadlarda, jumladan, kesatish, yupatish, o‘git berish, maslahat berish, saboq berish, ogohlantirish, tahdid qilish maqsadida qo‘llanilishi mumkin.

Biroq har qanday maqol va matal ham lingvokulturologik tadqiqotlarning predmeti bo‘lavermaydi. Bu o‘rinda faqat muayyan xalq yoki etnosning tarixi, madaniyati, turmushi, ma‘naviyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan maqol, matallar o‘rganilishi lozim bo‘ladi.

Tilshunoslikning ayrim o‘rinlarida maqol

va idioma tushunchalari farqlanadi. Ma‘nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ko‘chma ma‘no beruvchi so‘z yoki so‘zlar bog‘lanmasi idiomalardir<sup>1</sup>. Idioma tuzilishiga ko‘ra so‘zdan ham, so‘z birikmasidan ham, gapdan ham iborat bo‘lishi mumkin. Ma‘nosi tarkibidagi lug‘aviy birliklarning asl ma‘nosiga bog‘liq bo‘lmagan so‘zlar – so‘z idiomalardir: suyug‘oyoq – “Boisi, elda Munavvar suyug‘oyoq ayol, demak gap oralab yurdi”<sup>2</sup>. Tuzilishi jihatidan so‘z birikmasiga to‘g‘ri keluvchi idiomalar tarkibiga frazeologik birliklarning katta qismi mansub: boshini aylantirmoq – “Hali o‘g‘lingizning boshini shunday aylantirayin-shunday aylantirayin; qo‘lini halollamoq – “Shoymardon ferma mudir o‘g‘li qo‘lini halolladi. To‘shakda yotmish o‘g‘il ko‘nmadi. Yuzini goh o‘ng tarafga, goh chap tarafga burib yig‘ladi”. Ichki tuzilishi gapga teng bo‘lgan iboralar va barcha maqollar uchinchi turga – gap idioma guruhiga kiradi: uyidan ilon chiqmoq – “Uyimizdan ilon chiqqanmi? – piching qildi otasi”; Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi – “Shunda nima degan

1 Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning asosiy ma‘no turlari. – T.: Fan, 1955.

2 Tog‘ay Murod. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Qissa. – T.: “Sano-standart” nashriyoti, 2017.

odam bo‘ladi? Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi”. Mana shu uchinchi nuqtada ibora va maqol birlashadi, ammo ular orasida ko‘plab farqlar mavjud.

Individual holat haqida aytilgan gapning maqolga aylana borishi hodisasini “Oydinga yurgan odamlar” asarida qo‘llangan “Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidaydi” maqolida ham ko‘rishimiz mumkin. Bu maqol asarda o‘zbek xalqining go‘zal urf-odatlaridan bo‘lmish nikoh o‘qish uchun kelindan rizolik so‘ralishi, kelin esa ibo qilib, sukut saqlashi, bundan vaqt cho‘zilib kuyov bolaning ko‘ngli g‘ashlanishi manzarasida Tog‘ay Murod tomonidan g‘oyat mahorat bilan o‘z o‘rnida qo‘llangan.

Ushbu maqol rivoyatlar asosida shakllangan maqollar toifasiga kiradi. O‘tmishda podsholar, xon-u beklar gunohkor odamga ta‘zir bermoqchi bo‘lganlarida shariat peshvolarining fatvosiga binoan, uni 40 darra urdirardilar. Xalq rivoyatlaridan birida aytilishicha: “Bir odamga bo‘hton qilib, bo‘yniga gunoh qo‘yib, 40 darra urishga mahkum etadilar. U “tishini tishiga qo‘yib”, g‘ing demay, dod-faryod qilmay, 40 darrani ichida sanab turadi. Ammo darrachi hisobdan yanglishib, unga bir darrani ortiq urib yuboradi. Shunda u odam “dod!” deb yuboradi. Jazolash jarayonini tomosha qilib turgan xon: “Nega dod deysan?! Nima, xon hukmiga qarshimisan?!” deb o‘shqiradi. “Qarshi emasman-u, taqsir, ammo darrachingiz bitta ortiq urib yubordida”, - deysi shunda “gunohkor”. “Axir qirqiga chidaganingdan keyin, qirq biriga ham chidada!” deydi xon...”<sup>3</sup>.

Bu gap dastlab matal bo‘lib, keyinchalik maqolga aylanib qolgan. Odatda, maqolni dastlab o‘tkir kuzatuvchanlik va o‘z fikrini bir necha so‘z bilan o‘z ravshan ifodalab berishga qobiliyatiga ega bo‘lgan bir kishi to‘qib chiqaradi. O‘rinli ifodalangan bu fikr, dastlab individual bo‘lgan bu xulosa keyinchalik jamoa tomonidan qabul qilinishi, qayta ishlanishi, sayqallanishi mumkin. Bu esa maqolning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday maqol dastavval bir aniq voqega, yagona bir holatga bag‘ishlangan bo‘ladi. Bunday o‘rinli aytilgan gap omma orasida qanday ishlatilishiga, ya‘ni jamoat tasdig‘iqa qarab, asta-sekin keng umumlashma ma‘noga ega bo‘la boshlaydi.

Yuqoridagi matal ham shunday etimologik jarayonni boshidan o‘tkazgan bo‘lib, uni majozan qiyinchiliklarga chidamli, bardoshli, sabr matonatli bo‘lishga da‘vat etganda, bir nimadan qiynalib, iztirob

chekayotgan odamni yupatib, unga dalda va tasalli berganda qo‘llaymiz. Tadqiq etilayotgan mazkur asarda ushbu maqolning “Bir qishning bir yozi bo‘ladi”, “Qarg‘aning qag‘illagani qoladi”, “Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘” kabi sinonimlari ham qo‘llangan. Bu maqollarning barchasi tushkunlikka, umidsizlikka tushib qolgan kishiga yo‘qlikda, muhtojlikda, xor-u zorlikda o‘tgan yomon kunlarning o‘tib ketishi, yaxshi kunlarning yetib kelishi haqida xushxabar, tasalli berish uchundir. Bunday vaqtda inson faqat sabr qilishi, chidamli, qanoatli bo‘lishi, sabrsizlikning yomon oqibatlariga olib kelishini unutmasligi, yaxshi kunlarga bo‘lgan umiddan aslo voz kechmasligi kerak. Yozuvchi ham sabr-sinoatlar kaliti ekanini ta‘kidlab, asarning bir o‘rnida sabr haqida ikki maqolni keltiradi: “ - Eshidingmi, momosi, Vaxshivorda biroq yetmishida farzand ko‘ribdi. Yana tag‘in, o‘g‘il emish! Ana ko‘rdingmi, erta-kechi bo‘lmaydi. Sabr qilsang g‘oradin halvo bitadi. Sabr tagi sariq oltin, momosi”.

Ko‘rinadiki, maqollar va hikmatli so‘zlar xalqimiz asrlar davomida juda katta hayotiy tajriba asosida to‘plagan ma‘naviy meros hisoblanadi. Ularda ota-bobolarimiz bosib o‘tgan yo‘lni, kechirgan turmushlarini, shodliklarini va chekkan azob, uqubatlarini, teran mazmunli pand-nasihat va o‘gitlarini, ma‘naviy boyligimiz hisoblangan rasm-rusum, urf-odat va an‘analarini ko‘ramiz. Erkin Vohidov so‘zlari bilan aytganda, odamlar boshqalarni o‘ylab buloq ko‘zini ochadilar, daraxt ekadilar, boshqalar yiqilmasin deb, o‘zlari tushib ketgan chuqurni tekislab yo tayoq suyab qo‘yadilar. Mendan keyin kelgan avlod tashnalik azobini ko‘rmasinlar, ochlikdan, oftob tig‘idan qiynalmasinlar, men yiqilgan chuqurlarga ular ham yiqilmasinlar, deya shunday qiladilar. Bobolar hikmati ana o‘sha buloq, ana o‘sha daraxt, ana o‘sha tayoqdir. Hikmatli so‘zlar, maqollar biz uchun asrlarning sadosi, uzoq o‘tmish bilan hamnafaslik hissini uyg‘otuvchi mangu chaqiriq, zamonlararo ko‘prikdir<sup>4</sup>.

Darhaqiqat, maqol va matallarda xalqimizning asriykechmishlari, qadriyatlarimiz durdonalari namoyon bo‘ladi. Ota-bobolarimiz azal-azaldan nikoh masalasiga jiddiy qaragan. Ikki yoshning oilasi, nasl-nasabi, salomatligi, odob-axloqi qurilajak oilaning poydevorini tashkil etadi. Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur farzandlari va nevaralariga umr yo‘ldoshi tanlashda o‘ta e‘tiborli bo‘lganligini ularning salomatligi va nasl-nasabini puxta

3 Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma. O‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbek Sovet Ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990.

4 Худойберганаева Д. Матнинг антропоцентрик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2013.



tekshirganidan bilamiz. Xuddi shu an'ana "Aslini bilmay so'z demaslar, naslini bilmay qiz bermaslar" matalida o'z ifodasini topgan.

Insonning boshiga yozuvchi aytgan baxt qushi bir marta qo'nadi. Dono xalqimiz yaxshi oiladan, nasl-nasabi pokiza, sog'lom kishi boshqa xonadon farzandini so'rasa, yaxshi ishni orqaga surmaslikni, hatto tengi chiqsa, tekin berish kerakligini nazarda tutib, chiroyi borida, chinorini topish kerakligini uqtiradi.

Ma'lumki, chinor – abadiylik va qudratli tayanch ramzi. Ushbu maqol vaqtning g'animat bilishga, yoshlikda, husn-jamolga to'lishgan paytda aql-hushni yig'ishtirib olib, bir umr chinordek tayanch bo'lishga arziydigan umr yo'ldoshni topishga chorlovchi nasihat bo'lib, gender jihatdan xususiylikka ega. Xuddi shu nasihatni xalqimiz yigitlarga "Bo'laringda bo'lib o't, bo'z yo'rg'aday yelib o't" ("Umr o'tyapti. Bo'laringda bo'lib o't, Bo'z yo'rg'aday yelib o't" tarzida bayon qiladi. Bu maqol kuch-quvvatga to'lgan, omadi kelib, ishi yurishgan paytda ezgu ishlarni qilib qolishga ulgurish, bunday vaqtning g'animat bilib, behuda o'tkazib yubormaslik kerakligini uqtiradi.

Umrning eng gullagan chog'i, yoshlik xotiralarining eng ko'rkami – bu yangi hayot bo'sag'asida bo'lgan, balog'at yoshiga yetib, kimgadir umrini baxshida qilmoqqa tayyor bo'lgan palladir desak, mubolag'a qilmaymiz. Ma'lumki, xalqimiz bu onlarni to'y marosimi, go'zal an'ana-yu, milliy urf-odatlar bilan yanaga ko'rkamlashtiradi. To'y marosimidagi chiroyli odatlarimizdan biri nikoh o'qilayotganda kelindan vakil so'rash odatidir. Vakil bo'lg'usi kelindan tanmahramlikka roziligini so'raganda qiz bola uyatdan, ibo qilganligidan roziligini oshkor qilolmaydi. Shunday holatda uning roziligi sukut saqlaganidan bilinadi: "Yanga bo'lmish kenjasini Oymomoga berdi. – Bo'ldi, sukut alomati - rizo, - dedi".

Sovchilikka borishdan tortib nikoh oqshomiga qadar qilinajak betakror urf-odatlarimiz borki, xalqimiz ularni madaniyat darajasiga ko'targan. Tog'ay Murod shu udumlarimizdan ayrimlarini asarida bayon etadi. Masalan, non sindirish, qalin aytish, fotiha qilish, to'ylik yuborish, To'qqiz marosimi, Toboq keldi, Oyoq bosish, It irillar, Kampir o'ldi, Soch siypatar, Qo'l ushlatar, Oyna ko'rsatar kabilar shunday rasm-rusumlarimizdandir. Yana bir go'zal odatimiz borki, bu- to'y bo'layotgan xonadonga qarindoshlar va qo'ni qo'shnilarining moliyaviy va ma'naviy yordam qilishlari. "To'yniki to'yda qaytsin", -deydi xalqimiz.

Darhaqiqat, to'y har bir ota-onaning

farzandi iqboli, baxti kabi orzusidir. Farzand tug'ilibdiki, uning nikoh to'ylariga hammamiz yetaylik, - deya duo qilinadi. Xayrli duolar ortidan bir kuni to'y qilinarkan, shu muborak kunda jami yaqinlar o'zining topgan-tutganidan to'ychilarga hadya tariqasida yordam ham qilishadi, kam-ko'stlariga qarashadi. Bu xalqimizning betakror udumlaridan sanadi. Hadyalar taqdim etilarkan, o'zlari ham to'y qilishlarini, qilgan yordamlari o'sha kunda o'zlariga qaytishini orzu qilib, Allohdan so'rashadi.

Ayniqsa, to'y yoki boshqa ma'arakalarda qo'shnilarining bir-biriga qiladigan yordami madaniy qadriyatlarimiz ulug'ligidan dalolat beradi: "...Kelin o'ng taraf hamsoya ot yetakladi. Yon qo'shnim – jon qo'shnim bo'ldi. Ot ostonadan hatladi. Kelin uzatildi". Xalqimizda qo'shnichilik ham o'ziga xos qadriyat hisoblanadi. Qo'shnilar yaxshi-yomon kunlarda bir-birlariga hamdam va hamdard bo'ladilar. Shu sabab ham "Uzoqdagi qarindoshdan – yaqindagi qo'shni yaxshi", - deyishadi. Hadislarda ham qo'shnichilik qadriyatlari e'zozlanadi, qo'shnilarga mehr-muruvvat ko'rsatishga chaqiriladi. Taomilga ko'ra, qo'shnilar vaqti-vaqti bilan, ayniqsa, tansiq taom qilingan kuni, bir-birlarinikiga oshnon olib chiqib, bir-birlarini siylashadi. Diniy e'tiqodimizga ko'ra shakllangan "Qiyomat kun – qo'shnidan" matali ham diqqatga sazovor. Rivoyatlarga ko'ra, qiyomat kuni jannati qo'shni do'zaxi qo'shniga shafaatchi bo'lib, uni xudodan tilab olib, o'zi bilan birga jannatga olib kirarkan. Demakki, bu hikmatlarning barchasi, ulushnichilik - do'stlik, hamjihatlik, ittifoqlikni ulug'laydi, kishilarni shunga da'vat etadi. Bobolarimiz bejizga "Hovli olma, qo'shni ol" deyishmagan!

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo

assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (nutq madaniyati)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati)" demakdir. Shunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish obyekti tamoman boshqadir"5.

Tildagi madaniy belgilarni o'rganish tilshunoslikning shu bugunga qadar erishgan yutuqlari samarasidir. Lingvokulturologiyaga qiziqishning ortib borayotgani fanning kelajagini belgilaydi. Shu bilan birga fanning nazariy-metodologik asosi endigina

shakllanmoqda. Frazologizm va paremiyalar tilda madaniy belgilarni aks ettiruvchi asosiy birliklar sifatida tadqiq etilmoqda.

Shuningdek, tilshunos olim D.Xudoyberganova bu borada o'zining "Matnning antroposentrik tadqiqi" monografiyasini yaratdi. U o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini ochib berdi. Unda pretsedent birliklar va lingvomadaniy birliklarning matn yaratilishidagi o'rni, o'xshatish mazmunli matnlar, metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni, jonlantirish asosida matnlarning lingvokulturologik xususiyatlariga alohida e'tibor berildi. Frazologizmlar dunyo, obyektiv borliq va jamiyat haqida madaniy informatsiya tashuvchi lingvomadaniy birlik hisoblanadi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar o'zida xalq mentaliteti va madaniyatini saqlovchi "hikmatlar xazinasi" bo'lib, ular avloddan avlodga meros qilib qoldiriladi.

## O'QUVCHILARDA SINTAKSISGA OID LINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH USULLARI

*Yulduz Qulmurot qizi Qurbonova - tayanch doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti*

**Annotatsiya:** Sodda gap sintaksisining darsliklarda berilishi, unga oid nazariy bilim, amaliy mashq va topshiriqlar o'quvchilarning yozma va og'zaki nutq ko'nikmasini shakllantirishdagi ahamiyati qay darajadagilini aniqlash maqsadida boshlang'ich sinfdan to yuqori sinfgacha bo'lgan "Ona tili" darsliklari sinflar kesimida tahlilga tortilib, umumta'lim maktablarida sodda gap o'qitishning mavjud holati aniqlandi.

**Аннотация:** Предоставление синтаксиса простого предложения в учебниках, теоретические знания о нем, практические упражнения и задания были привлечены к анализу учебников "родной язык" в разрезе классов от начальных классов до старших классов с целью определения степени их значимости в формировании навыков письменной и устной речи учащихся и выявили существующую ситуацию преподавания простого предложения в общеобразовательных школах.

**Abstract:** The presentation of simple sentence syntax in textbooks, theoretical knowledge, practical exercises and tasks related to it in order to determine at what level the importance of students in the formation of written and oral speech skills is, in order to analyze the textbooks of the "native language" from the initial grade to the upper grade in the sections of classes, the current

**Kalit so'zlar:** muloqot, nutq, nutqiy kompetensiya, sodda gap sintaksisi, lingvistik kompetensiya.

**Ключевые слова:** коммуникативная, речевая, речевая компетентность, синтаксис простого предложения, языковая компетентность.

**Keywords:** communication, speech, speech competence, simple sentence syntax, linguistic competence.

Uchinchi ming yillikka O'zbekiston o'z rivojlantira olgan, o'zbek millatini dunyodagi tarixiy va milliy an'alarini yangicha bir tarzda ma'naviyati eng yuksak xalq darajasiga

ko'targan holda kirib keldi. Yangilanayotgan davr har bir soha kishilari uchun o'ziga xos ma'lum talablarni qo'ymoqda. Bugungi kun ta'lim tizimining tubdan isloh qilinishi ta'limga bo'lgan yuksak e'tiborning namunasidir. Jahon tarixiy taraqqiyotidan ma'lumki, yoshligidanoq ma'naviy yuksak, ijodiy tafakkuri to'g'ri shakllantirilgan shaxs har doim jamiyat taraqqiyotida o'z fikriga, o'z o'rniga ega bo'lib yetishadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2019-yil 21-oktabrda "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora – tadbirlari to'g'risida"gi hamda 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6084-son farmoni imzoladi. Ushbu farmonlarga muvofiq Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilib, uning zimmasiga davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini to'liq joriy etish bo'yicha ishlarni jadallashtirish va boshqa bir qator vazifalar yuklandi. Shuningdek, ta'lim sohasiga, ayniqsa, o'zbek tilini o'qitish tizimini yangi bosqichga ko'tarish, ta'limga yangi texnologiyalarni, xalqaro standartlarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Milliy istiqloq tufayli o'zbek tilshunosligida tilimizni ilmiy-amaliy tadqiq etishga jiddiy yondashila boshlandi. Jumladan, o'zbek tili sintaktik qurilishini yangicha asoslarda o'rganish, lisoniy birliklarni til va nutq dialektikasi nuqtayi nazaridan baholash, ularni chuqur ilmiy-nazariy tadqiq etish bugungi o'zbek tilshunosligining asosiy yutuqlaridan biri sanaladi. Natijada umumta'lim maktablarida ham sintaksisni o'rgatish va o'rganish mazmuni takomillashtirildi.

O'zbek tilshunosligida gap va uning qurilishi bilan bog'liq chuqur qiziqish XX asrning 30-yillaridan keyin boshlandi. Xususan, sodda gap qurilishi va gap bo'laklarining ifodalanishiga oid nazariy ishlarga oid ko'plab olimlar tadqiqot olib borganlar. D.Ashurova, A.Abdullayev, I.Rasulov, R.Sayfullayeva, O.Turdiyev, I.Xayrullayev, X.Komilova, B.Egamberdiyev, M.Mamatov, A.G'ulomov kabi tadqiqotchilarimizning ishlarida ko'rishimiz mumkin.

A.G'ulomovning gap qurilishi nazariyasiga oid ishlari o'zbek sintaksisida muhim o'rin egallaydi. Tilshunos olimning nazariyalari rus tilshunos maktabi nazariyotchilari

A.M.Peshkovskiy va V.V.Vinogradov nazariyalari asosida shakllangan.

Tilning sintaktik qurilishini o'rganish o'zbek tilining nazariy grammatikasida va uning amaliy yuzaga chiqishida sintaksisning o'rnini beqiyos. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida sintaksis bo'limi muammolarini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sintaksisning nazariy qismini o'rganish amaliyotga aynan qaysi o'rinlarini joriy etish kerakligini yuzaga chiqarib beroladi. Shunday izlanishlardan biri Sh.Sharasulova "Sodda gap tarkibidagi sifatdoshli qurilmalarning semantik-sintaktik tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiyasi bo'lib, unda -gan shaklli sifatdoshli qurilma tarkibiga kiritilgan murakkablashgan sodda gaplardagi asosiy va ikkilamchi predikatsiyaning o'zaro semantik va sintaktik munosabatlarini o'rgangan. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi rus tilshunosligining nazariy qoidalariga asoslangan holda grammatikani shakllantirgan. Lekin rus tildagi gap qoliplari har doim ham o'zbek tili qoliplariga tushavermaydi. Sodda gap tarkibiga kiritilgan -gan shaklli sifatdoshli qurilmalarga sintaktik nuqtayi nazardan yondashgan va aynan o'zbek tilidagi sintaktik qoliplar asosida ochib berilgan. N.Mahmudovning bir misolga tatbig'ini keltirib o'taylik: Men sevgan qiz meni sevmas ekan. Ushbu gapda ikkita predikatsiya bor. Birinchi predikatsiya men sevgan bo'lib, ikkinchi predikatsiya qiz meni sevmas ekan qurilmasidan iborat<sup>1</sup>. Berilgan sodda gapdagi ikki qurilma ham mustaqil ma'no anglatadi, ularning o'z predikatlari bor. "Sifatdoshli qurilmalarning shundaylari ham borki, u tarkib topdirgan predikatsiyaning subyekti shu qurilma aniqlovchilik vazifasida bog'lanib kelgan sodda gapning bo'laki bo'lishi mumkin. Masalan, Nafasi tiqilib kelgan bola onasiga nimalarnidir pichirladi (H.Nazir). Bu gapdagi nafasi tiqilib kelgan sifatdoshli qurilmasi sodda gapning egasi vazifasidagi bola bo'lagining aniqlovchisi vazifasida kelgan va shu aniqlanmish vazifasidagi bola bo'laki sifatdoshli qurilmaning ham subyekti hisoblanadi. Bunday holda sifatdoshli qurilmaning ergash gap bo'lishi haqida gap bo'lishi mumkin emas"<sup>2</sup>.

Muallif murakkab sodda gap tarkibidagi sifatdoshli qurilmaning sintaktik bo'laklari asosan nimalarda iborat ekanligi va semantikasini tahlil qilgan. Semantik va sintaktik nomutanosiblik tahlil qilinib,

sodda gapning tarkibiga kirayotgan har bir qurilma uning shaklan murakkablashuviga va mazmunan boyishiga xizmat qilishi ochib berilgan.

Murakkab sodda gap tarkibidagi sifatdoshli qurilmaning sintaktik bo'laklari asosan nimalarda iborat ekanligi va semantikasi tahlil qilingan, semantik va sintaktik nomutanosiblik tahlil qilinib, sodda gapning tarkibiga kirayotgan har bir qurilma uning shaklan murakkablashuviga va mazmunan boyishiga xizmat qilishi ochib berilgan.

"Gap modeli – andaza, bu andaza asosida har xil gaplar tuziladi"<sup>3</sup>. O'zbek tilshunosligida ham sodda va qo'shma gaplarni alohida shartli qisqartmalar orqali tadqiq qilishgan. Xususan, sodda gapning minimal qolipi – [WpM] bilan belgilanadi. [WpM] – ega[W], kesim[P], kesimlik kategoriyasi ko'rsatkichlari[m];

Bu qoliplar orqali sodda yoyiq gap va qo'shma gaplarning xususiyatlari tatbiq qilib chiqilgan.

M.Q.Abuzalova "O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi" nomli tadqiqotida, [WpM] – Ongimizda umumiy holda mavjud bo'lgan bu qolipning nutqiy gap uchun zarur bo'lgan lug'aviy, grammatik, fonetik, uslubiy kabi kategoriyalar bilan boyitilib, turli-tuman voqelanishini [IWPmYO](birtarkibli yoyiq sodda gaplar) qolipi asosida sodda gaplar qancha umumiy kategoriyalar bilan murakkablashsa ham, gapning lisoniy bosqichidagi sintaktik qurilishi oddiy va ixcham ko'rinishga egaligi haqidagi xulosaga kelgan.

Nutqimizda grammatik shakllangan sodda gaplarning rang-barang nutqiy ko'rinishlari umumiy [WpM] qolipining [IWPmU], [IWPmYO], [E+IWPmU], [E+IWPmYO], [E-IWPmU], [E-IWPmYO] ko'rinishlarida leksik-grammatik, fonetik to'ldirilgan holda voqelanishidir. Bu to'ldirish va voqelanish o'z ichiga bir necha psixolingvistik bosqichlarini qamrab oladi:

– kommunikatsiya talabi asosida ifoda etilishi lozim bo'lgan hukmning lug'aviy qobig'ini ifodalovchi [W] tilning ato birliklari ichidan tanlanadi;

– shaxsning tavsifi so'zlovchi ongida lisoniy imkoniyatlar doirasida belgilanadi;

– yuqoridagi ikki omil asosida [Pm] ning voqelanish shakli tanlanadi;

– [W] ning imkoniyatlari nutq sharoiti talablari asosida moddiy shakllangan [WpM]

ko'rinishi (yozdim, keldik, ishchiman) [W] ning kengaytiruvchilari (aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol) i bilan to'ldiriladi;

– nutq sharoiti, ifodalanayotgan fikr, uslubiy xususiyat va talablar asosida gap murakkablashtiriladi;

– ifoda maqsadiga mos ravishda intonatsion (ohang) tugalligi bilan shakllantirilib, nutqqa yozma yoki og'zaki shaklda chiqariladi<sup>4</sup>.

Nutqiy voqelanishda bu sodda, ixcham qolip gapning nutqda yashashi uchun zarur bo'lgan kategoriyalarning zarralari bilan bosqichma-bosqich boyitilib, nutqimizda sintaktik, morfologik, leksik, stilistik, fonetik kategoriyalarning birliklari bilan murakkablashtiriladi.

Bu o'rinda M.Qurbonovning o'zbek tilshunosligi nazariyasida olib borgan ishlarini tilga olish o'rinni. Professor olib borgan tadqiqotlarida o'zbek tilida sodda gapning maksimal lisoniy sintaktik qolipi tarkibiy qismlarining so'z kengaytiruvchilari va gap kengaytiruvchilariga munosabatini aniqlab, gap lisoniy sintaktik qolipida ularning o'zaro munosabatlarini ochib bergan.

Tilning sintaktik qurilishini o'rganish uzoq muddatli tarixga ega. Til o'z vazifasini sintaktik qurilma – gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha – fonetik, leksik, morfologik hodisalar ana shu sintaktik kurilishga xizmat qiladi. Biroq, bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki bevosita muximdir. Zero, har qanday sintaktik hodisada so'z va morfologik ko'rsatkichlarni ko'ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatlarni belgilashda leksik va morfologik omillarga tayaniladi.

Sodda gap o'qitishining mazmuni va metodlarini yoritishga qaratilgan ko'plab tadqiqot ishlari mavjud. Xususan, M.Abduraimova, E.D.Ibragimova, M.Omilxonova, O.Bayguatova, T.Yusupova, A.Orlova, M.Sobirova, M.Nazarova, kabi professorlarning ishlarini ko'rishimiz mumkin.

Xususan, T.Yusupova ona tili ta'limida gap o'qitishiga oid olimlar tomonidan yaratilgan metodlarni tasniflash bilan birga ona tili darslarida gapning bosh bo'laklarini va bir bosh bo'lakli gaplarni o'rganish metodlari sifatida quyidagi metodlarni taklif etadi:

1. Retseptiv va til hodisasi haqida mushohada yuritish bilan bog'liq nutqiy faoliyat metodlari.

2. Axborot manbayidan ma'lumot

1 Ш. Шарасуллова. Содда гап таркибидagi сифатдошли қурилмаларнинг семантик-синтактик тадқиқи. Фил.ф. н.Дисс. 19-бет. Тошкент – 2006.

2 Samandarov R.D. Sodda gap sintaktik shakllining amplitativ model doirasida kengayishi. Diss. Fil.fal.dok (PhD) Farg'ona-2019. 21-bet

3 Lomtev T.P. Prinsip postroeniya formuly predlojeniya//Filologicheskie nauki. – 1969.

4 M.Q.Abuzalova "O'zbek tilida sodda gapning eng kichik qurilish qolipi va uning nutqda voqelanishi". Diss., Toshkent, 1994.

olish metodi va reproduktiv metod.

3. Ijodiy nutqiy faoliyat metodi.
4. Kommunikativ nutqiy faoliyat metodi<sup>5</sup>.

Olima taklif etgan bu metodlarini sodda gaplar misolida sharhlab, topshiriqlar bilan tushuntirib beradi. Dastlabki e'tiborini mavjud darsliklarda(2005-yilgacha) sodda gaplarga oid lingvistik bilimlarning berilishi, nazariy bilimlarni mustahkamlashga oid mashq va topshiriqlar samaradorligi hamda u asosida dars tashkil qilayotgan ustozlar bilan so'rovnoma tashkil qilib, ularni tahlilga tortadi.

Sodda gaplarga oid bilimlarni o'zlashtirishda muammoli bayon, izlanish, evirestik, tadqiqot hamda noan'anaviy metodlar lingvistik bilimlarni mustahkamlashga xizmat qilishini aytgan holda o'quvchilar nutqini o'stirishda ijodiy nutqiy faoliyat, kommunikativ nutqiy faoliyat metodlarini samaradorligini: matn yaratish va bog'lanishli matn tarkibiga dialog kiritish kabi ijodiy ishlarga ahamiyat berish kerakligini ta'kidlaydi.

Metodist M.Sobirova o'zining tadqiqot ishlarida yuqori sinf o'quvchilarida sodda gap sintaksisini o'qitishning mazmun-mohiyatini, dars jarayonidagi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabat, mavzuning yoritilishida qo'llanadigan metodlar hamda o'quvchilarning sodda gap sintaksisini o'zlashtirishda qaysi metodlarning afzalliklarini aniqlash borasida olib borgan tajriba-sinov ishlari salmoqlidir. Olima sintaksisini o'qitishga oid ilmiy-nazariy, metodik qarashlar hamda tajriba-sinov ishlari natijasiga tayanib, yuqori sinf o'quvchilarida sodda gap sintaksisini munozara usulida o'qitish va uni takomillashtirishni ilgari suradi.

M.Abuzalova tadqiqotlarida sodda gap qolipi va uning turlarini o'qitishda grafik organayzerlardan foydalanib o'qitish samaradorligini aytadi. Xususan, bu borada "Insert", "Qiyos" metodlarini mavzuni o'rganishdagi o'rnini alohida ko'rsatib beradi.

"Insert" – bu metod o'zlashtirilishi ko'zda tutilgan yangi mavzu doirasida o'quvchilarning lingvistik bilimga oid tushunchalarga ega ekanligini aniqlash va mavzu matniga oid tahliliy yondashishlariga yordam beradi. Jumladan o'quvchilarga yangi mavzu mohiyati yoritilgan, lingvistik bilim beruvchi matn taqdim etiladi. O'quvchilar mustaqil tanishib chiqqanlaridan so'ng "Insert" jadvali taqdim etiladi:

B	-	+	?
Men bilgan	Men bilmagan	Men uchun yangi	Men uchun
ma'lumot	ma'lumot	ma'lumot	tushunarsiz ma'lumot

Bunda o'quvchilarga taqdim etilgan jadvalni o'zlashtirgan bilimlari asosida to'ldirib, asoslarini keltirishlari lozim. Bunda tadqiqotchi "Gap" mavzusini tanlagan, ushbu mavzuga oid ma'lumot matni taqdim etgan hamda jadval bilan ishlagan. Sodda gaplarni o'zlashtirishda bu metodning ustun tomoni, lingvistik bilimni o'zlashtirishga qaratilganligi bo'lsa, kamchilik tomoni faqat nazariy bilimni mustahkamlashni ko'zda tutganligidir.

O'quvchilarning yozma va og'zaki nutqlarida so'zlarni to'g'ri qo'llay olishi, nutqiy vaziyatlarga mos til birliklaridan o'rinni foydalanishi, axborotni tushunarli yetkazish, bildirilgan axborot yuzasidan munosabat bildira olish ko'nikmasini shakllantirish. Ona tili ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Bu jarayonda sodda gap sintaksisini bosqichma-bosqich, tizimli o'tish – til ta'limidagi muhim hodisalardan biridir. Sodda gap sintaksisiga oid ilmiy-nazariy qarashlar turlicha, olimlar sodda gap sintaksisini har taraflama tahlil qilib, ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berishga e'tibor qaratganlar.

## SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODIDA MILLIYLIK VA O'ZIGA XOSLIK

*Shoxsanam Ne'matovna Husanova - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Shukur Xolmirzayev iste'dodi va ijodining o'ziga xosligi, hikoyalari qissa va romanlaridagi xarakterlarning o'zbekona tabiati va yorqin xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Adib ijodining milliy adabiyotimiz rivojidadagi munosib o'rne ko'rsatib beriladi.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается творчество и натура, яркие черты героев в рассказах и романах одного из крупнейших представителей современной узбекской литературы Шукура Холмирзаева

**Abstract:** This article discusses creativity and nature, the bright features of the characters in the stories and novels of one of the largest representatives of modern Uzbek literature, Shukur Kholmiraev

**Kalit so'zlar:** istiqlol, davr, adabiyot, milliylik, xalq, ijod, tafakkur, ma'naviyat, shaxs, hikoya, roman, davr, xususiyat, xarakter.

**Ключевые слова:** независимость, период, литература, национальность, народ, творчество, мышление, духовность, личность, повесть, роман, черта, персонаж.

**Keywords:** independence, period, literature, nationality, people, creativity, thinking, spirituality, personality, story, novel, trait, character.

XX asr va Istiqlol davri adabiyoti boshqa davr adabiyotlariga nisbatan ijodkorlarning ko'pligi, mavzularining kengligi bilan ham e'tiborga loyiq. XX asr o'zbek adabiyotining zabardast namoyandalari biri, shubhasiz, bu- serqirra iste'dod sohibi, yirik adib, dramaturg va publitsist Shukur Xolmirzayevdir. "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, Davlat mukofoti laureati Shukur Xolmirzayev ijodi, eng avvalo, o'zining salmoqdorligi va milliyliigi, xalqchilligi va haqqoniyligi bilan ajralib turadi. O'zining betakror hikoyalari, qissa va romanlari, "Qora kamar" dramasi va tarjimalari bilan hamda teran nutq-maqolalari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan Shukur Xolmirzayev nomini bilmaydigan va uning durdona asarlari kirib bormagan biron shahar yo qishloq, bironta xonadon yo'q desak, xato qilmagan bo'lamiz. Adib asarlari chet tillarda ham chop etilgan. Shukur Xolmirzayevning xalqimiz tafakkuri va ma'naviyatini yuksaltirishda munosib o'rin tutgan va bugun ham qadrini yo'qotmagan durdona asarlari ayni Istiqlol ruhi va ilhomi bilan yaratilgan. Adibning o'ziga xos yorqin shaxsiyati va betakror asarlari o'zligimizni anglashimizda muhim manba, millatparvarlik va yurtparvarlik tuyg'ularimizni kuchaytirishda ham ibratli ma'naviy-ruhiy omil bo'lib xizmat

qiladi. Bizga ma'lumki, har bir iste'dodli san'atkor o'z davrining farzandi sifatida ijod qiladi, tabiiyki, uning asarlarida o'sha davr muhitining obyektiv ta'siri u yoki bu tarzda aks etadi. Shukur Xolmirzayev ijodi ham o'z davr-muhitining ijtimoiy-siyosiy muammolari ta'siridan va hukmron mafkuraning tazyiq va iskanjasidan butunlay xalos bo'lishi mumkin emas edi.

Mustabid sho'ro davridagi adabiy muhit haqida fikr yuritganda, xayol imizda og'riqli savollar tug'iladi. Chunki sobiq sho'ro davrida yashab, ijod qilgan Abdulla Qodiriy va Cho'lpon, Oybek va Abdulla Qahhorlar va boshqa san'atkorlar kabi Shukur Xolmirzayev avlodi ham hukmron partiya siyosati va sostialistik mafkuraning talab va tazyuqlaridan butunlay erkin bo'lmaganligini unutilib bo'lmaydi<sup>1</sup>. Aslida, u yoki bu adib asarlariga baho berishda va ularni tadqiq etishda o'sha ijodkor yashagan va ijod qilgan davrdagi adabiy muhitni va ijtimoiy-tarixiy sharoitni e'tiborga olishimiz zarur. Ijodkor shaxsi va badiiy mahoratini yoritish, adib ijodiy evolyutsiyasini anglash hamisha dolzarb masala ekanligi shubhasizdir. Bunda ijod jarayoni va ijodkor shaxsi, badiiy-estetik tafakkur tarzi, dunyoqarashi, estetik ideali, ijtimoiy-ma'naviy, axloqiy-estetik pozitsiyasi

<sup>5</sup> Yusupova T.A. Gapning bosh bo'laklarini o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'zlashtirishning lingvometodik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Toshkent, 2005.

<sup>1</sup> Shukur Xolmirzayev. Bodom qishda gulladi. T.1991.

va ijodiy konsepsiyasi, asarlari poetikasi va muayyan badiiy obrazlar, tasvir va ifodalarning yangicha talqini kabi muammolarni uzviy bog'liqlikda o'rganish alohida o'rintutadi. O'zbek adabiyotshunosligida ham badiiy-estetik tamoyillar chuqurlashib, ijodkor shaxsini yaxlit ma'naviy-ruhiy va adabiy-estetik olam sifatida talqin etish va asarlari poetikasini tadqiq qilish yanada dolzarb muammo bo'lib sanaladi<sup>2</sup>. Bu jarayon va muammolarni o'rganish davomida adib badiiy tafakkuri mahsuli bo'lgan yetuk asarlarining insoniyat ma'naviy olami dagi o'rnini va ahamiyati uning o'ziga xos xususiyatlari bilan bir butunlikda namoyon bo'ladi.

O'tgan asrning 50-yillar oxiri va 60-yillar boshida Erkin Vohidov, O'lmas Umarbekov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Ne'mat Aminov, Muhammad Ali, Gulchehra Nurullayeva, Oydin Hojiev singari bir guruh talantli ijodkor yoshlar qatorida Shukur Xolmirzayev ham adabiyot maydoniga kirib keldi. Yosh yozuvchi ijodining ilk davridan boshlab, Surxon vohasi hayotiga bag'ishlangan hikoya va qissalarida namoyon bo'lgan o'z mavzusi, milliy qahramonlari va uslubi bilan adabiyotimizga yangi bir ruh bag'ishlab, ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb qiladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Shukur Xolmirzayevning dastlabki hikoya va qissalarida ham va ijodiy kamolotga etishgan davridagi asarlarida ham asosiy o'rin tutgan muqaddas mavzulardan biri-bu ona – yurti tabiati, uning turfa odamlari va ularning dardi va qubonchini aks ettirish bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. 60-70-yillarda adabiyotga kirib kelgan iste'dodli yoshlar hisobiga badiiy-estetik tafakur jarayonida katta sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Eng avvalo, badiiy adabiyotning mavzu doirasi va tasvir ko'lamini kengaytdi. Yozuvchilik iqtidori, ya'ni ijodkorlik Shukur Xolmirzayevning fe'lisa'jijasida, zuvalasida bo'lgani va bunday yuksak missiyaning mas'uliyat-mashaqqatini ham juda erta anglaganini uning butun hayot yo'li, yolg'izlikka moyil yashash tarzi va ijod qilish jarayoni namoyon etib turadi. Talabalik kezaridayoq "Oq otliq", "To'lqinlar" kabi qissalari bilan keng kitobxonlar ommasini, xususan, mashhur yozuvchi Abdulla Qahhor e'tiborini jalb etadi.

Darhaqiqat, talantni-xalqning bebaho mulki deb bilgan Abdulla Qahhorning iste'dodli yoshlarga g'amxo'rlik va homiyiligi ham hayratangiz edi. Boshqa ko'plab adiblardan farqli o'laroq, Abdulla Qahhor talantli yosh ijodkorlarning badiiy-estetik tafakkuri va

ijodiy imkoniyatlariga hamisha yuksak baho berib, ulardagi ana shu ma'naviy-estetik boylikdan ko'proq foydalanish va adabiyotimiz rivoji yo'lida xizmat qilishi haqida qayg'urar edi. Qahhorshunos U.Qosimov kabi olimlar yakdillik bilan ta'kidlaganidek, iste'dodli yoshlar tarbiyasiga Qahhorchalik mehnati ko'p singgan, yoshlar ijodi va intellektual saviyasini Qahhor darajasida chuqur o'rgangan va ularga bu qadar kuchli ta'sir o'tkaza olgan yirik adib o'tmagan deyish mumkin. Xususan, Shukur Xolmirzayev chuqur minnatdorlik bilan, ayni vaqtda, havas va hayrat bilan aytganidek, adib bu jihatdan "istisno shaxs" edi. Abdulla Qahhor talantli yoshlarning ilk asarlarini g'oyat sezgirlik bilan payqab, jumladan shunday deydi: "Yozuvchi adabiyotga ikki xil kiradi: birinchi asari bilan tutab, birinchi asari bilan yashnab kiradi..." Shukur Xolmirzayev adabiyot olamiga o'zining tug'ma iste'dodi va yozuvchilik tafakkuri, o'tkir nigohi bilan yonib kirgan yosh ijodkorlardan biri bo'lgan. Abdulla Qahhordek talabchan ustozning yosh yozuvchilar - O'tkir Hoshimov va Shukur Xolmirzayevning ilk qissalari munosabati bilan ularga ko'rsatgan mehr-e'tibori qanchalik samarali bo'lganini eslash ko'p jihatdan ibratlidir. Shukur Xolmirzayevning "To'lqinlar" va O'tkir Hoshimovning "Cho'l havosi" qissalari "Sharq yulduzi" jurnalida e'lon qilinganida ular hali talaba edi. Ammo chinakam talantlarga xos ijodiy ilhom bilan yozilgan bu asarlardagi iste'dod uchqunlari ulug' adibning o'tkir nigohidan chetda qolmaydi. Ularga matbuot orqali ixcham maktub yo'llab, bu asarlardan olgan iliq taassu rotlari bilan birga, kelajakda zarur bo'ladigan ijodiy maslahatlar ham beradi. Bunday e'tibor va maslahatlar ijod maydonida dastlabki qadamlarini qo'yayotgan Shukur Xolmirzayev kabi yoshlar uchun qanday rol o'ynaganini ularning keyingi asarlari yaqqol ko'rsatib turadi. Haqiqatan ham, Shukur Xolmirzayevning oradan oz vaqt o'tmasdan yaratgan "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasi ham tilga tushadi.

Iste'dodli shaxslarning qalbi, hassos shoirimiz Erkin Vohidov ta'rifla ganidek, hamisha bedor, ruhiyati bezovta, notinch bo'ladi. Shukur Xolmirzayev ana shunday munavvar dardlik qalb sohiblaridan edi. Adabiyotni qismat deb bilgan yozuvchi keyingi salkam chorak asr davomida adabiy-madaniy hayotning qoq markazida turdi, jamiki ijodkorlarning ko'z oldida adabiyotga sadoqati va fidoyiligi bilan astoydil va beta'ma faoliyat ko'rsatdi. Keyingi yillarda yozuvchi yirik

2 XX asr uzbek adabiyoti tarixi. T.1999.

janrga qo'l urib, "So'nggi bekat", "Qil ko'priki", "Yo'lovchi", "Olabo'ji", "Dinozavr" romanlarini yaratdi<sup>3</sup>. Adibning "Qora kamar" va "Ziyofat" pyesalari teatr sahnalarida muvaffaqiyat bilan o'ynaldi. Albatta, barcha iste'dod sohiblari kabi Shukur Xolmirzayev ham o'z uslubi, yo'nalishini topib olguncha, ma'lum muddat adabiyot so'qmoqlarida "izlanib-adashib" yurdi. Bu haqida yozuvchining o'zi shunday e'tirof etadi: "Adashib-adashib, baribir adabiyotimizda boshqacha ruh borligini sezdim. Yozuvchi millat ruhidan kelib chiqmasa bo'lmas ekan". Shukur Xolmirzayevning adabiyot va ijodkor shaxs haqidagi o'y-qarashlari ham an'anaviy, ham o'ziga xos va ular adib ijodi va asarlari bilan so'z va amal birligiday yaxlitdir.

Adabiyot tarixidan bizga ma'lumki, adabiyotning hayotni va davr voqeligi butun murakkabligi bilan keng aks ettirishdek og'ir vazifa hamisha o'sha davrning yetakchi shaxslari, ya'ni yaratuvchi qahramonlar xarakterini to'laqonli tarzda ifodalash orqali amalga oshirilgan. Adabiyot va san'atda inson obrazi va ayniqsa, qahramon orqali muayyan davrning yetakchi xususiyatlari hamda turli darajadagi muammolarini qanchalik keng va haqqoniy aks ettirish mumkinligini Shukur Xolmirzayevning boy ijodi va asarlari misolida ham yaqqol ko'rish mumkin. Adib turli janrlarda yaratgan yetuk asarlarining asosiy qahramonlari ham zamon bilan hamnafas, zamon bilan birga qadam tashlaydigan va o'z taqdirini davr-muhit bilan va elu yurt taqdiri bilan chambarchas bog'lagan faol odamlardir. Ularning ismlaridan boshlab butun hayoti, qiladigan ishlari ham, fikr-xayollari ham, orzu-istaklariyu his-tuyg'ulari ham o'z davriga yarasha, salmoqli va murakkab. Adib o'z qahramonlarining insoniy qiyofalarini tasvirlar ekan, ularni ibrat qilib, kitobxonlarni ularga ergashishga undash hamda insoniy fazilatlarini ulug'lash uchun butun badiiy mahorati va so'z san'atini ishga soladi.

Darhaqiqat, badiiy asar roman va qissa yoki hikoya bo'ladimi – har bir asarning "o'zagi" sanalmish qahramoni bo'ladi. Shukur Xolmirzayev ijodining alohida bir xususiyati shundaki, u o'zbek milliy hikoyachilik san'atini mashhur ustoz Abdulla Qahhordan keyin yangi, yuqori bir bosqichga ko'tarishga muvaffaq bo'ldi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi<sup>4</sup>. U Surxon elining farzandi. Uning o'z tug'ilib o'sgan yurtiga, tabiatiga mehri-muhabbati

cheksiz edi. Shuning uchunmi, aksar asarlarida Surxon qishloqlarida, Boysun tog'larida bo'lib, o'tgan voqealar, shu yurtning tuprog'i, chapani va qaysar fe'lli odamlari, o'ziga xos urf-odatlar haqidato'lib-toshibhikoya qiladi. "Jargaqulagan odam", "Oy yorug'ida", "Zov ostida adashuv" kabi hikoyalari buning yaqqol misolidir. Uning hikoyalarda tabiatni sevib, ardoqlaydigan insonlar obrazi unga qo'pol munosabatda bo'ladigan shaxslar timsoli bilan qarama-qarshi qo'yiladi. Ularni haqqoniy aks ettirgan adib ijodiga xos bo'lgan uslubiy ko'rinishlar ham rang-barang. U o'z qahramonlarining ruhiy holatlari va hissiyotlarini milliy va hayotiy detallar orqali ochib beradi. Asarlarida zamon voqea-hodisalari chuqur tahlil qilinadi. Yozuvchi ijodida inson va zamon, inson va tabiat, inson va hayvonot munosabatlari va odamiylikni qadrlash, qadimiy va milliy qadriyatlar yetakchilik qiladi.<sup>5</sup> Shukur Xolmirzayev o'zining ko'p yillar davomida yozgan hikoyalarini saralab, "Bodom qishda gulladi" nomi ostida nashr ettirganligi adabiy va ma'naviy hayotimizda muhim bir voqea bo'ldi. Adibning ulkan ijodiy tajriba va mahoratining mujassami bo'lgan bu to'plam uning yuksak g'oyaviy-badiiy niyatiga ko'ra shartli ravishda to'rt qismga, ya'ni "Tog'", "Dasht", "Qishloq" va "Shahar"ga bo'lingan. Bunday bo'linish tasodif emas, u juda chuqur ramziy ma'noga ega. Ma'lumki, inson tabiat-nabototga qanchalik yaqin bo'lsa, uning qalbi va fe'l-a'moli shunchalik poklashib, riyodan holi, o'zi sodda, do'lvo'tabiat va jo'mard bo'lib boradi. Har tomonlama tig'iz va tor makonda, ko'p jihatdan bo'g'iq-mahdud jamiyatga, ayniqsa yolg'onlar asosiga qurilgan sotsialistik tuzum qariga yaqinlashgan sari, uning qalbidagi samimiylik o'rnini xudbinlik, mehr o'rnini loqaydlik va shafqatsizlik, soflilik o'rnini baxillik va riyokorlik egallab boradi. Chunki go'zallik, mehr, insonning o'zi qadrsizlangan joyda so'nadi, johillik, bachkanalik esa kuchayadi. Mustabid sho'ro tuzumidagi hayotda shunday hukmron siyosiy va mafkuraviy talab va qoidalar ustuvor bo'lganligi endilikda yanada ravshan ayon bo'lmoqda. Murakkab va ziddiyatli hayotni, undagi turfa xarakter va ruhiyatli insonlarni teran anglagan yetuk adib Shukur Xolmirzayev asarlarini alohida nomlar bilan guruhlariga ajratganda, xuddi shu jihatlarni nazarda tutgan deb o'ylaymiz.

3 Shukur Xolmirzayev. Asarlar.1-2-3-jildlar.T.:2018-2021.

4 Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. Т.2006.

5 Donyorova Sh. Istiqlof davri o'zbek romanlarida milliy ruh va qahramon. T.2011.

## UMUMIY O'RTA TALIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI TAHLILI

**Farrux Rustam o'g'li Abdullayev** - tayanch doktorant, Pedagoglarni kasbiy rivojlantirish va yangi metodikalarga o'rgatish, Milliy-tadqiqot instituti

**Annotatsiya:** Maqolada umumiy o'rta talim maktablarida ta'lim sifatini baholashning amaliyotdagi holati qiyosiy tahlil qilingan, ichki baholash jarayonlariga nisbatan maktab direktorlarining yondashuvlari so'rovnoma usuli orqali o'rganilgan. Tahliliy ma'lumotlar, xulosalar va so'rovnoma ishtirokchilarining takliflariga asosan bir nechta tavsiyalar berib o'tilgan.

**Аннотация:** В статье представлен сравнительный анализ состояния оценки качества образования в средних общеобразовательных школах на практике, подходы директоров школ по отношению к процессам внутренней оценки изучены с помощью метода опроса. Дано несколько рекомендаций, основанных на аналитических данных, выводах и предложениях участников опроса.

**Abstract:** In the article, the practical situation of the assessment of the quality of education in general secondary schools is analyzed comparatively, the approaches of school principals to the internal evaluation processes are studied through the questionnaire method. A few recommendations based on analytical data, conclusions and suggestions of survey participants given.

**Kalit so'zlar:** baholash, so'rovnoma, ichki monitoring, baholash komponentlari, ta'lim sifatini boshqarish, yo'riqnomalar, baholash topshirishlari, baholash mezonlari, baholash usullari.


**Ключевые слова:** оценивание, опрос, внутренний мониторинг, компоненты оценки, управление качеством образования, рекомендация, задания для оценивания, критерии оценивания, методы оценивания. Концепции обеспечения преемственности образовательных программ в непрерывном образовании.

**Keywords:** assessment, questionnaire, internal monitoring, assessment components, quality management of education, guidelines, assessment submissions, assessment criteria, assessment methods.

Maktablarda ta'lim sifatini boshqarishda ichki baholash jarayonlarini tashkil etish va uning natijalari asosida boshqaruvga oid qarorlarni qabul qilish muhim hisoblanadi. Ta'lim sifatini boshqarishda ta'lim muassasasining sifat ko'rsatkichlariga e'tibor qaratiladi. Birinchi navbatda ichki ko'rsatkichlar inobatga olinadi. Ichki ko'rsatkichlar – eng avvalo, boshqaruv xodimlari, pedagog xodimlar, ta'lim oluvchilar, ta'lim muassasasi jamoatchilik organlari uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlardir<sup>1</sup>. Bu ko'rsatkichlarga ega bo'lish uchun ta'lim muassasasida ichki baholashlarni amalga oshirish lozim. Undan oldin bir nechta savollarga javob olishimiz lozim. Monitoring nima uchun o'quv faoliyatiga olib kirilishi kerak? Uni nimadan boshlash kerak? Hozirgi kunda maktablarimizda ta'lim sifati monitoringni o'tkazilishi, natijalarini tahlil qilinishi hamda monitoring natijalaridan ta'lim

sifatini oshirishda foydalanish holati tizimli yo'lga qo'yilganmi yoki yo'q?


Ushbu savolga javob olish uchun umumiy o'rta talim maktabi direktorlari o'rtasida so'rovnoma tashkil etildi<sup>2</sup>. Qariyb 3 hafta davom etgan onlayn-so'rovnomada Respublika bo'yicha jami 10130 nafar maktab direktoridan 1251 nafari (~12,3 %) ishtirok etishdi (1-rasm).




1 Sh. Qurbonov, E. Seytxalilov "Ta'lim sifatini boshqarish" qo'llanma, T.: "Turon-Iqbol" nashriyoti, -zuvu  
2 Maktab direktorlari uchun so'rovnoma [https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSch\\_jX6Ld3yvFy\\_1azotSR6ZSFYIGdKNfjrup0ztKHSI2pQ/viewform?usp=sf\\_link](https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSch_jX6Ld3yvFy_1azotSR6ZSFYIGdKNfjrup0ztKHSI2pQ/viewform?usp=sf_link)



Ishtirokchilarni hududlar kesimidagi soniga e'tibor qaratamiz. Bundan Qashqadaryo (315 nafar) hamda Samarqand (312 nafar) viloyatlarida faoliyat olib borayotgan maktab direktorlarining so'rovnomada faol ishtirok etganligini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).



Respondentlarning so'rovnomadagi savollarga bergan javoblarini tahlil qilib o'tamiz



Yuqoridagi javoblardan bilishimiz mumkin, aksariyat maktablarda ta'lim sifatini baholash ishlari, ya'ni ichki ta'lim sifati monitoringi o'tkaziladi. "Yo'q, o'tkazilmaydi" javobini berganlarning aksariyati maktablarda monitoring o'tkazilmaslik bo'yicha yuqori tashkilotlar (TXTB, VXTB, XTV) tomonidan topshiriq bo'lganligini asosiy sabab ko'rsatishgan (3-rasm).


Navbatdagi savolimiz esa baholash ishlarini o'tkazish davriyligi bilan bog'liq bo'ldi. Natijalar quyidagicha ko'rinish oldi (4-rasm):



Bu yerdan ko'rish mumkin, aksariyat (64,3 %) maktablarda ta'lim sifatini baholash jarayonlarining davriyligi bir o'quv yilida 4 marotaba tashkil etadi, bu esa har chorakda bir marotaba degani. 5,4 % maktab direktorlar esa bir o'quv yilida 1 marotaba baholash o'tkazishi ko'rsatishgan.

Ta'lim sifatini baholash ishlarini o'tkazish faqatgina uning davriyligi bilan emas, balki

baholash jarayonlarida o'rganiladigan parametrlar bilan ham bog'liq<sup>3</sup>. Hozirda maktablarimiz asosan qaysi parametrlarni baholashga e'tibor qaratmoqda? Navbatdagi savol shu masalaga oydinlik kiritib berdi (5-rasm).



Demak, yuqoridagi diagrammada aks etgan javoblardan xulosa qiladigan bo'lsak, maktablarimizda o'tkaziladigan ichki monitoring jarayonlarida asosan o'quv natijalarini (71,5 %) va o'quv jarayonini (53,4 %) baholashga e'tibor qaratiladi. Ta'lim muassasadagi muhitni, o'quv sharoitini, maktab rahbariyatining boshqaruv faoliyatini baholashga juda kam holatlarda murojaat qilinadi.


Hozirga qadar umumiy o'rta ta'lim maktablarimizda ta'lim sifatini baholash bo'yicha ishlar ma'lum bir mexanizmlar asosida amalga oshiriladi. Navbatdagi savol orqali aynan hozirda mavjud bo'lgan va maktablarimiz tomonidan foydalanilib kelinayotgan mexanizmlarga nisbatan fikrlarini o'rgandik (6-rasm).



Demak, umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash ishlarini tashkil etish va o'tkazishning amaldagi mexanizmi faqatgina 37,1 % direktorlarni qoniqtirishi ma'lum bo'ldi. Qolgan aksariyat (62,9 %) direktorlarni qisman qoniqtiradi yoki umuman qoniqtirmaydi. Bundan bilish mumkin, ta'lim sifatini baholash ishlarini tashkil etish va o'tkazishning amaldagi mexanizmini yanada takomillashtirish zaruriyati mavjud.

Baholash jarayonini ma'lum bir me'yoriy hujjatlar (buyruq, tartiblar, yo'riqnomalar) asosida tashkil etish etish juda muhim.

So'rovnomaning navbatdagi savoli baholashni o'tkazish bo'yicha maktabning ichki hujjatlarining ishlab chiqilishi bo'yicha bo'ldi (7-rasm).



Ushbu savoldan so'ng maktab, "Agar imkoniyat bo'lsa, maktabingizda ichki monitoringni o'tkazish bo'yicha ichki hujjatni (buyruq, nizam, pedagogik kengash qarori, tartib, yo'riqnomalar) telegramdagi @monitoring\_tadqiqot\_bot ga yuborishingizni so'raymiz" - deya murojaat qoldirgan edik. Shundan so'ng @monitoring\_tadqiqot\_bot ga 30 dan ortiq maktablardan monitoring o'tkazish bo'yicha ichki buyruqlar, yo'riqnomalar, yo'l xaritalari, ish rejalarining elektron shakllari yuborildi. Ularni o'rganib chiqish natijasida quyidagilar ma'lum bo'ldi:

1. Aksariyat maktablar monitoring o'tkazish uchun yuqori turuvchi tashkilotning buyruq yoki qarorini asos qilib maktabning ichki buyrug'ini ishlab chiqishgan. Lekin ichki buyruqlarning shablonlari deyarli bir xil.

2. Maktablar tomonidan monitoring o'tkaziladigan sinflar va fanlar, o'tkazilish davriyligini belgilashda ham bir xillik aks etgan. Aslida bunday holatda monitoring o'tkaziladigan sinflar va fanlar, o'tkazilish davriyligini belgilash maktabning ichki ehtiyojlari va imkoniyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3. Ichki buyruqlar puxta ishlab chiqilmagan. Buyruqlar asosan bir betlik qog'ozdan iborat hujjatga aylanib qolgan. Buyruqda yoki uning ilovalarida maktabda ichki monitoringni tashkil etish va o'tkazish tartibi (mas'ullar, talablar, baholash mezonlari va hokazolar) yoritilmagan.


Umuman olganda baholash natijalariga maktab direktorlari qay darajada ishonishi ham muhim faktor sanaladi. Chunki natijalar ishonchli va valid (yaroqli) bo'lsagina undan foydalanish ko'rsatkichlari yuqori bo'ladi<sup>4</sup>. Quyidagi javoblar orqali maktab direktorlari monitoring natijalariga bo'lgan ishonchining qay darajada ekanligini ifodalashgan (8-rasm).



qatnashgan 86,9 % direktorlar monitoring natijalariga ishonishini bildirishgan. Bu ijobiy holat albatta. Endi ushbu ishonchli ta'lim sifatini ichki baholash (monitoring) natijalaridan boshqaruv faoliyatida qanchalik foydalanishi bilan bog'liq savolga berilgan javoblarga e'tiboringizni qaratamiz (9-rasm).



Yuqoridagi javoblarga ishonadigan bo'lsak direktorlarimizning katta qismi ichki baholash natijalaridan boshqaruv faoliyatini tashkil etishda foydalanishar ekan. Keyingi savolimiz nazorat savoli hisoblanadi. Ya'ni yuqoridagi savoldan kelib chiqib, uni aniqlashtirishga qaratilgan. Demak, keyingi savol orqali biz ularning aynan qaysi jarayonlarda baholash natijalaridan foydalanishiga aniqlik kiritdik (10-rasm).



Yuqoridagilardan kelib chiqsak, direktorlarimiz asosan pedagogik kengash uchun masalalarni belgilashda va maktabning ish rejasini ishlab chiqishda foydalanishar ekan. Direktorlarimizning bu tanlovini ijobiy baholaymiz. Chunki maktabning ish rejasini ishlab chiqishda baholash natijalaridan foydalanish aniqlangan kamchiliklarni keyingi o'quv yilida bartaraf etish imkonini beradi.


Navbatdagi savolimiz ta'lim muassasasida ta'lim sifatini baholash bo'yicha ichki nazorat (monitoringlar) ni o'tkazishning nechog'lik muhimligi to'g'risida bo'ldi. Bunda

ishtirokchilarning javoblarini ko'rishingiz mumkin.



Respondentlarning 86,1 %i "Ha, judayam muhim", 11,6%i "Ha, qisman muhim", 2,3%i esa "Yo'q, muhim emas" deya javob berishgan. Natijalar ko'rsatadiki ta'lim muassasasida ta'lim sifatini baholash bo'yicha ichki nazoratlarni o'tkazish judayam muhim hisoblanadi. Shunday ekan baholashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish ham kun tartibidagi asosiy masala hisoblanadi.

So'rovnomaning navbatdagi savollari asosan ishtirokchilarning taklif va mulohazalarini yig'ishga qaratildi. Demak ishtirokchilarning fikricha baholash ishlarini quyidagi davriylikda o'tkazish maqsadga muvofiq (12-rasm).



Bunda ishtirokchilarning eng ko'pi (53,3 %) maktablarda ta'lim sifatini baholash jarayonlarining davriyligi bir o'quv yilida 4 marotabani tashkil etishni ma'qul deb bilishadi. Bu esa amaldagi holatga mos tushadi. Baholash jarayonlarini o'quv yilida 3 marotaba tashkil etishni eng kam (2,5%) ishtirokchi qo'llab-quvvatlashgan.

Maktabda ta'lim sifatini baholash ishlarini o'tkazishda asosan qaysi parametrlarni baholashga e'tibor qaratilishi lozimligi to'g'risida ishtirokchilarning fikrlari quyidagicha bo'ldi (13-rasm).



Ta'lim sifatini baholash ishlarini o'tkazishda o'quv natijalarini baholashga (71,3%) va o'quv jarayoni baholashga (60,7%) asosiy e'tiborni qaratish lozimligini ta'kidlashgan. Bu holat ham amaldagi holatdagi baholash jarayonlarining ta'sirini ifodalaydi. Albatta bu ishtirokchilarning

subyektiv fikrlari hisoblanadi. Qolaversa, boshqa parametrlarni baholashga ham e'tibor qaratishni kam bo'lsada ta'kidlab o'tishgan. Baholash jarayonlarini tashkil etishda mos ulushlarda qolgan parametrlarni baholashga e'tiborni qaratish ham muhim sanaladi.

Navbatdagi eng muhim savollardan biri o'quvchilar bilim va o'qituvchilar kompetentligini baholashni qaysi fanlardan o'tkazilishi bilan bog'liq bo'ldi. Ularning fikrlari esa quyidagicha (14-rasm):



Demak, respondentlarning fikricha o'quvchilar bilimi va o'qituvchilar kasbiy kompetentligini baholashda e'tiborni birinchi navbatda Aniq fanlar (88,4%), Filologiya fanlari (69,1%), Xorijiy tillar (62,1) va Tabiiy fanlarga (59,4%), so'ngra Ijtimoiy fanlar (46,9%) hamda Amaliy fanlarga (29,4%) qaratish lozim.

So'rovnomaning so'nggi "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini baholash ishlarini (ichki monitoring) tashkil etish va o'tkazishning qanday samarali usulini taklif eta olasiz?" savoliga ishtirokchilar tomonidan mingdan ortiq takliflar bildirildi. Ularning mazmunan yaqin bo'lgan va eng ko'p ta'kidlanganlari quyidagilardan iborat:

- 1) Monitoring jarayonida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini baholashga ko'proq e'tibor qaratish;
- 2) Monitoring jarayonida ota-onalarning ham ishtirokini ta'minlash (kuzatuvchi maqomida);
- 3) Respublika bo'yicha yagona nazorat materiallari asosida o'tkazish va doimiy ravishda savollar bazasini yangilab borish;
- 4) Baholash jarayonlarida AKTni keng qo'llash;
- 5) Monitoring jarayonini o'tkazishda tumandagi boshqa maktab bilan o'qituvchilar almashish va hokozolar.

Yuqorida tajriba-sinov jarayonlarining 1-bosqichi (aniqlashtiruvchi) yuzasidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalarining qisqacha tahlili keltirib o'tildi.

Xulosa shuki, monitoring (ichki baholash) maktab rahbariyati, o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla orasida axborot almashinuvi orqali ta'lim sifatini oshirish, ta'limda ishtirok etuvchilar mas'uliyatini oshirishga olib keladi. Agar monitoring shaklan va mazmunan puxta o'zlashtirilib, ta'limga to'g'ri yondashuvlar asosida tatbiq etilsa, ta'limda ishtirok etuvchi har bir shaxsni ishga yangicha munosabatda bo'lishga, yangicha izlanish va tashabbus ko'rsatishda hamda ta'limning ichki boshqaruvida samarali uslublar qo'llanishiga, bu orqali esa, ta'lim muassasasi boshqaruvining

4 K.Djalilov. "Baholash nazariyasi asoslari", Toshkent, Akademiya nashri-2020, - 256b.

## TALABALARNI ICHKI TAHDIDLARDAN HIMOYA QILISHNING PEDAGOGIK MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH

Hulkarxon Muhammadjonovna Djumayeva - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

**Annotatsiya:** Maqolada talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda dastlab uni tashxislash, profilaktika qilish va korrektsiyalash ishlarini olib borish, uning turli xil psixologik va pedagogik uslublari mavjudligi, talabalarning ichki tahdidlarga qarshi tura olishida immunitetni rivojlantirish ishlarini dars jarayonida o'ziga xos usulda olib borilishi ko'zda tutilgan. "Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash" dasturi orqali vizuallashgan dars mashg'ulotlari taklif etilgan, shuningdek, bu borada ma'naviy tarbiya. uz sayti yaratilganligi yoritib berilgan.

**Аннотация:** Статья посвящена первичной диагностике, профилактике и коррекции учащихся с целью предотвращения их внутренних угроз, доступности различных психолого-педагогических методов, повышению иммунитета перед лицом внутренних угроз определенным образом на занятиях. Программа «Защита учащихся от внутренних угроз» предлагает наглядные уроки, кроме того, создание сайта для духовного образования.

**Abstract:** The article focuses on the initial diagnosis, prevention and correction of students to prevent them from internal threats, the availability of different psychological and pedagogical methods, the improvement of immunity in the face of internal threats in a specific way in the classroom. The program "Protection of students from internal threats" offers visual lessons, in addition, the creation of a website for spiritual education.

**Kalit so'zlar:** SWOT - tahlil texnikasi, keys, ichki tahdidlar, assesment topshirig'i "Shaxs qadriyatini aniqlash" metodikasi, idrok xaritasi, ma'naviy tarbiya, klaster metodi.

**Ключевые слова:** SWOT-аналитическая методика, кейс, внутренние угрозы, оценочная задача, методика «Определение личностных ценностей», когнитивная карта, духовное воспитание, кластерный метод.

**Keywords:** SWOT - analytical technique, case, internal threats, assessment task, methodology "Determination of personal values", cognitive map, spiritual education, cluster method.

Jahonda yosh avlodni ma'naviy kamoloti yo'lida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki globallashuv jarayonida chuqur ildiz otib borayotgan barcha sohalaridagi tizimli islohotlarning pozitiv samaradorligi va shuningdek, kelajakning bardavom hamda barqaror bo'lishidek o'ta mas'uliyatli va muhim vazifaning qay darajada hal etilishi aynan yoshlarning ma'naviyatiga bevosita bog'liq<sup>1</sup>.

Talabalarning shaxs sifatida mavqei va ma'naviy-axloqiy salohiyatini kuchaytirishni jamiyatning ma'naviy xavfsizligini ta'minlash tizimidagi asosiy strategiya deb hisoblash mumkin. O'z navbatida, ushbu strategiyalar

talabalar muammolarini har tomonlama tushunishga va bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishga asoslanadi<sup>2</sup>.

Talabalar ma'naviyatini yuksaltirish, ichki tahdidlardan himoya qilish mexanizmini takomillashtirish ishi shaxsning faoliyatli yondashuv asosida amalga oshirishni ko'zda tutadi. Tahlil natijalari faoliyatli yondashuvning bir qancha konsepsiyalari mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur konsepsiyalarning asosida pedagog va talabalarning o'zaro birgalikdagi harakatiga asoslangan subyekt-subyekt tizimini yaratishda tarbiya jarayoniga barcha ishtirokchilarining qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olish g'oyasi yotadi, degan xulosaga kelindi<sup>3</sup>.

1 H.M.Djumayeva, (2020). MODEL OF PROTECTION OF STUDENTS FROM INTERNAL THREATS AND ITS MAIN COMPONENTS. European Journal of Research and Reflection in educational Sciences Vol, 8(12), 94-99.

2 Jumayeva, H.M., Makhmudov, Y.G. (2021). THE SYSTEM OF PROTECTION OF STUDENTS FROM INTERNAL THREATS. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS (2767-3278), 2(08), 122-126.

3 H.M.Djumayeva, "Some shapes of spiritual attack, its influences and outcomes for educating the youth", european journal of Research and Reflection in educational Sciences. Research. № 2. 2020. 8.-P. 20-23.

Shaxsiy-faoliyatli yondashuvning shaxslik va faoliyatga doir komponentlari o'zaro bir-biri bilan aloqador bo'lib, talabalarning o'z-o'zini to'liq namoyon etishiga imkon beruvchi reflektorli-ijodiy faoliyat vositasida shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va har bir talabaning individual o'ziga xosliklarini, ichki motivlari, qiziqish, mayl va ehtiyojlarini hisobga olishni ko'zda tutadi.

Talabalarning ichki olamini boyitish, ma'naviyatini yuksaltirish, turli ichki tahdidlardan himoyalash texnologiyasi quyidagi majmual vazifalarni hal etishga imkon beradi: Ta'lim-tarbiya jarayonida neogen (yangicha) topshiriqlardan foydalanish asosida talabalarda ichki tahdidlar va ularning talaba shaxsiga ta'sirini anglashga yo'naltirish. Neogen topshiriqlar talabalarni mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga imkon beruvchi treninglar yakka, guruhviy va jamoaviy shakllarda taklif etilib, interfaol texnologiyalar, assesmentlar vositasida faoliyatda amalga oshiriladi<sup>4</sup>. Talabalar o'z ichki olamida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarga yechim topish, qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Neogen topshiriqlarni bajarish uchun talabalarning o'zlarini o'z "men"i nuqtai nazaridan tahlil qilishadi.

Tadqiqot doirasida talabalarda ichki tahdidlarga qarshi tura olish ko'nikmalarini rivojlantirishning Ta'limiy-tarbiyaviy didaktik tahminoti ishlab chiqildi. Quyida didaktik taminotdan tajriba-sinov ishlari jarayoniga tatbiq etilgan interfaol ishlanmalarining namunalarini keltirib o'tamiz:

"Shaxs qadriyatini aniqlash" metodikasi.

Mazkur metodika yordamida talabalar faoliyatiga moddiy va ma'naviy hayotga qadriyatli munosabatning shakllanganligini aniqlashda foydalanish mumkin. Shuningdek, metodika talabalarning jamiyatning ijtimoiy makonida, hayotning turli sohalarida o'zini o'zi anglash chegaralarini kengaytirdi, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi ishtiroki, faoliyati, shuningdek, o'qishdagi faollik

Ma'lumki, inson hayotida muhim o'rin tutadigan ikki turdagi qadriyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) talaba shaxsining o'z shaxsiy hayotida ma'naviy-axloqiy salohiyatini shakllantirish va mustahkamlashda muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy maqsad, muhim hayotiy qarorlari hamda shaxs harakatining to'g'riligiga bo'lgan ishonch, ya'ni terminal qadriyatlar;

2) shaxsning bir-biridan ajratib turuvchi irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishi, ularning faoliyat samaradorligini ta'minlashdagi ahamiyatini ta'minlovchi instrumental qadriyatlar.

Mazkur metodikadan quyidagi tartibda

foydalaniladi: har bir talabaga yakka tartibda shaxsga yo'naltirilgan hamda faoliyatga yo'naltirilgan qadriyatlar ro'yxati (jadvalda) taqdim etiladi. Ular ro'yxat bilan tanishib chiqib, dastlab shaxsiy, keyin esa faoliyatga yo'nalgan qadriyatlarining talabaning o'z tajribasi, yashash imkoniyati, aniq maqsadi va maqsad, harakatlariga qay darajada daxldor hamda ahamiyatli ekanligini belgilaydilar. Bunda har ikki guruhda berilgan qadriyatlar 1-, 2-, 3- va ... 10-o'rin tarzida qayta tartiblanadi.

Sinov jarayonida respondentlarning erkinliklari ta'minlanadi, ularga hech qanday maslahat berilmaydi, shuningdek, ularning shaxsiy fikrlari tahlil qilinmaydi.

"SHaxs qadriyatini aniqlash" jadvali

Shaxs xos qadriyatlar	Af'holigi ta'rif	Qayta ta'riflash	Amaliy darskarga yo'naltirilgan qadriyatlar	Af'holigi ta'rif	Qayta ta'riflash
Jo'lg'ah hayot	1		Tartiblik (intizom)	1	
Hayotiy tajriba	2		Axloqiylik	2	
Salomatlik	3	1	Hayotiy ehtiyoj	3	
Qiziqarli kashfiy faoliyat	4		Qiziqchilik	4	
Tabiat (sahabat) go'zalligi	5		Mustaqillik	5	
Muhabbat (sevgi)	6		O'ziga va o'ziga nisbatan ta'limiyatiga nisbatan tanqidiy yondashuv	6	
Iqtisodiy firuvonlik	7	2	Bilimlilik	7	
Haqiqiy do'stga ega bo'lish	8		Javobgarlik	8	
Jamoado o'z o'rniga ega bo'lish	9		O'z-o'zini nazorat qilish	9	
Keng tafsilat	10		O'z fikriga ega bo'lish	10	
Ma'naviy jihatda kamolotga erishish	11		Kuchli iroda	11	
Keluvchi baxtga erishish	12		Ratsionalizm	12	
Erkinlik	13		Sabdlilik	13	
Baxtli oilaviy hayot	14		Demagogiya kengligi	14	
Mustaqillik	15		Yildozlilik	15	
Yoshlarning baxti	16		Otilik	16	
Ijod	17		Ish umumdoriigi	17	
O'ziga nisbatan ishonch	18		Saxskovlik	18	

Idrok xaritasi- fikrlashning vizuallashgan ko'rinishi. T.Byuzen va B.Byuzenlar tomonidan kishilarda fikrlash qobiliyatini intellekt xaritalar orqali rivojlantirish g'oyasi ilgari surilgan. Idrok xaritalaridan o'z faoliyatini tahlil etishda, o'quv materialni tarkibini o'rganish, tushunish va eslab qolishda, muammolarni tahlil qilish, qaror qabul qilish, ma'lumotlarni o'zlashtirish, taqdimot o'tkazish kabi jarayonlarda yuqori samaradorlikka erishiladi.

Harakat va munosabatlarning ba'zi shakllari mavjud va ular individual va ijtimoiy deb ikkiga bo'linadi. Shaxsiy axloq – bu insonning o'z vazifasi va ichki axloqi, boshqa odamlar oldidagi burchi. Axloq va ma'naviyat tushunchalari o'zaro bog'liq. Inson ma'naviyatiga ikkita – ma'naviy va axborot xuruj ta'sir etadi. U insoniy aloqalarning mustahkamlanishi va axloqqa jiddiy ta'sir etadi.

Topshiriq:

Ma'naviy xuruj va axborot xurujini qanday idrok etasiz?

4 Artiyoqva M.B. "Umumta'lim maktabi va oila hamkorligi asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish". Pedagogika fanlari bo'yicha fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. 2018. 165-b.



Uning nomi inglizcha so'zlarning birinchi harfidan olingan bo'lib:  
**S**trengths - kuchli tomonlar.  
**W**earnesses - ojizlik yoki muammolar.  
**O**pportunitiss - ichki imkoniyatlar.  
**T**hreats - tashqi xavf-xatar, tahdidlar.

1-keys. "Odatlarga qarab qo'yadigan birinchi qadamingizga juda ehtiyot bo'ling, yaxshilab o'ylang va irodangizga tayaning; yomon yo'ning loyiga tushmaslikka harakat qiling. Keyin oyoqlaringizni yuvishda qiynalmaysiz. O'z hayotini qimor stolida va pivo burchagida o'tkazgan baxtsiz odamlar doimo birinchi qadamning qurbonlari bo'lishadi"<sup>5</sup>.

Keys bo'yicha topshiriqlar:  
 1. Odatlar deganda, nimani tushunasiz?  
 2. Nega irodaga tayanish lozim?  
 3. "Baxtsiz odam" degan iboraga qanday izoh berasiz?  
 4. Qanday xulosa berasiz?

<b>S</b>	<b>Strengths - kuchli tomonlar</b>	-irodali bo'lishga yordam beradi (kitob o'qish, uni nihoyasiga etkazish insondan irodani talab qiladi); -asar qahramonlari xatti-xarakatlari tahlil qilindi, baholandi; -o'qilgan asarni boshqa asarlar bilan solishtirib, tahlil qilish mumkin; -insonning ichki muammolariga echi topishga va harakat rejasini tuzishga imkon yaratadi. -muloqotga kirishish jarayonini osonlashtiradi
<b>W</b>	<b>Wearnesses - ojizlik yoki muammolar</b>	-mutolaa uchun har doim vaqt ajratishga imkon bo'lmashi; -asar mohiyatini har kim o'z dunyoqarashiga moslab olishga urinishi.
<b>O</b>	<b>Opportunitiss - ichki imkoniyatlar</b>	Yana qo'shimcha quyidagilarni qayd etish mumkin: -o'qilgan asarni o'z yaqinlariga, do'stlariga tavsiya etishi yoki taqdim qilishi; -asarni nechta kishi o'qigan bo'lsa muozara qilish istagining ustuvorligi; -asar qahramonlari qiyofasini o'zlashtirish
<b>T</b>	<b>Threats - tashqi xavf-xatar, tahdidlar</b>	Asar mazmunidagi baxshar o'qivchiga noto'g'ri ma'lumot berishi, kitob haqida salbiy fikrlarning paydo bo'lishi, qitobxonlik darajasining pasayishi, ma'naviyatiga zarar etishi.

Globalashuv jarayonida ta'lim tizimining ham taraqqiyotida tezkor va sifatli o'zgarishlarni talab etadi. Chunki ta'lim orqali

keng tafakkurga ega, tanqidiy mushohada qila oladigan yangi avlodni shakllantira olishimiz mumkin. Bunda esa "Assesment" texnoloqiyasining ahamiyati katta.

<p><b>Variyati masala</b></p> <p>Xazrat Rasuly o'zining masalasi "Ichidagi ichidalar" asarida quyidagi savol-javobni keltiradi:                  Dedi: "Osonni ushbu o'ldirding?"                  Dedi: "Unga yaroqatga bir ishni ko'rtdim."                  Dedi: "Anno osonni emas, uni yet begonini o'ldirib bo'lmaymiz?"                  Dedi: "Har kuni birinchi o'ldiraymiz!" mazmunidagi savol-javobning mohiyatini anglash yoshlar ma'naviyatida ahamiyatga ega.                  Talaba sifatida o'sha masalasi savol-javob sizning hayotingizdagi shaxsiy masalalardan iborat?                  1. Inson ma'naviyatiga birer savfli javab mavjudmi? Qanday xulosaga keldingiz?                  2. "Osonni o'ldirish" bilan siznaga erishish mumkin. Bu qo'lingizda keladimi? sharhting.</p>	<p><b>Tushunchalar tahlili</b></p> <p>Qo'sh to xom hayotga borayotgan o'chning to'rtiga ilonaydi va sayyodning to'rti-yu soctigan doniga mayi qilmaguncha, unga ajal qafasi ochilmaydi".                  Sizningcha, soan hayot nima?                  Sizdagi xom sayyolar nimalarda o'z aksini to'adi?                  Xom sayyolar insonni nimaga etkilydi?                  Ma'naviyatga ta'siri qanday?</p>
<p><b>Asosiy ko'nikma</b></p> <p>Har bir insonda ma'naviy xurujga qarshi immunitet shakllangan. Kimsa yuqori, kimsa past. Sizningcha, ma'naviy xurujdan himoyalash omillari mavjud. Quyidagi keltirilgan to'yunda ma'naviy omillar keltirilgan bo'lib siz ularning ichidan asosiy 4 ta omilni eng muhim javobga ko'ma keltirishni joylashtiring:                  *muqaddim aniq qo'yilishi;                  *yomon feld-arvohlarni tark etish;                  *ajl, zeh va farosat;                  *go'zal tarbiya;                  *millat tarixi, an'analari va urf-ododlariga hurmat;                  *muloqotqiyosatlikdan qo'rqmaslik;                  *mehnatga qobiy munosabat;                  *his obilga hurmat;                  *har bir vazifani o'z vaqtida bajarish;                  *irodali bo'lishga ega;                  *o'z o'zini baholash.</p>	<p><b>Test</b></p> <p>Yoshlarga oid Davlat siyosati to'g'risida"gi Qo'mo qachon qabul qilindi?                  A. 2016-yil, 12-avgust                  B. 2016-yil, 12-oktabr                  V. 2017-yil, 12-oktabr                  S. 2017-yil, 12-avgust</p>

Ichki tahdidlardan himoya qilishda talabalarning o'z-o'zlarini anglashlari, tahlil qilishlari, ichki va tashqi xatti-harakatlarini baholashlari muhim ahamiyat kasb yetadi.

Ushbu mavzularga e'tibor qaratiladigan bo'linsa, ularning barchasi umummilliy qadriyatlarni yoshlarda shakllantirishga qaratilgan. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda ularni keltirib chiqaradigan omillarni o'rganish muhim pedagogik muammo ekanligi, shuningdek, ichki tahdidlarning o'zigaxos xususiyatlari, ko'rinishlari, jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini tahlil qilish zaruriyati mavjudligini yuzaga keltirdi. Mavjud holatni o'rganish va tahlil qilish natijalariga ko'ra, talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash qoidalarini ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayonida mazkur qoidalarga asoslanish lozimligi kuzatildi. Talabalarning ichki tahdidlarga qarshi tura olishida immunitetni rivojlantirish ishlarini dars jarayonida o'ziga xos usulda olib borish ko'zda tutildi. "Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalash" dasturi orqali vizuallashgan dars mashg'ulotlari taklif etilib, ishonchli natijalarga erishildi. Shuningdek, bu borada Ma'naviy tarbiya.uz sayti yaratildi. Talabalarni ichki tahdidlardan himoyalashda umummilliy qadriyatlarga tayanish samarali natijaga olib keldi. Zero, umummilliy qadriyatlar

har qanday xurujlarga qarshi kurashishning yagona va ishonchli vositasi.

## PLEONAZM VA UNGA YONDOSH HODISALAR: TAVTOLOGIYA, ANTELLIPSIS, PERISSOLOGIYA, DITTOLOGIYA

Dilnoza Xasan qizi Yo'ldosheva - doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti

**Annotatsiya:** Maqolada pleonazm va unga yondosh hodisalar: tautologiya, antiellipsis, perissologiya, dittologiya, perifrazalar haqida ma'lumotlar keltirilib, nazariy bilimlarga tayanilgan holda, tilshunoslar fikri misollar yordamida izohlanadi. Ushbu hodisalarga bag'ishlangan ishlar o'rganilib, bu hodisalarning farqli jihatlari yoritiladi.

**Аннотация:** В статье приводятся сведения о плеоназме и сопутствующих ему явлениях: тавтологии, антелипсисе, периссологии, диттологии, перифразах, со ссылкой на теоретические знания излагается мнение лингвистов на примерах. Изучаются работы, посвященные этим явлениям, освещаются различные стороны этих явлений.

**Abstract:** The article provides information about pleonasm and its accompanying phenomena: tautology, antellipsis, perissology, dittology, periphrases, with reference to theoretical knowledge, the opinion of linguists is presented by examples. The works devoted to these phenomena are studied, various aspects of these phenomena are highlighted.

**Kalit so'zlar:** pleonazm, tautologiya, antiellipsis, perissologiya, dittologiya, perifraza.

**Ключевые слова:** плеоназм, тавтология, антелипсис, периссология, диттология, перифраза.

**Keywords:** pleonasm, tautology, antellipsis, perissology, dittology, periphrase.

Har qanday axborotning ifodalanishida ham lisoniy tejamkorlik, ham lisoniy ortiqchalilik tamoyillari ishtirok etadi. G.I.Skepskaya fransuz tili materiallari asosida bu boradagi nazariy fikrlarini quyidagicha bayon qilar ekan, har qanday axborotning ikki qarama-qarshi qutb orasida joylashishini, ya'ni bir tomonda lisoniy ortiqchalik tursa, ikkinchi tomonda tejamlilik turishini aytadi. Aynan shu o'rinda R.Yakobsonning "Hozirgi paytda ikki qarama-qarshi protsedurani, ya'ni ortiqchalikni lingvistik tadqiqotni tasavvur ham etib bo'lmaydi" degan haqqoniy fikrlarini keltiradi<sup>1</sup>.

"Umumiy ritorika" kitobining mualliflari - fransuz tilshunoslari lisoniy ortiqchalik tamoyiliga alohida e'tibor berganlar.

Aytish lozimki, lisoniy ortiqchalik tildagi ortiqcha yuk emas, balki til taraqqiyoti, til evolyutsiyasi uchun xizmat qiladigan zaruriy omillardan hisoblanadi<sup>2</sup>.

Ayrim tadqiqotchilar ortiqchalik tamoyili tilning estetik vazifasining namoyon bo'lishida

ishtirok etadigan muhim omillardan ekanligini ta'kidlaydilar<sup>3</sup>.

E.V.Devkinning mana bu fikrlari ham diqqatga molikdir: "Agar ortiqchalik axborot ifodalashdan mahrum elementlar sifatida, shunchaki behuda ifloslantiradigan chiqindi sifatida tushunilsa, nutqda ortiqchalik deyarli yo'q. Hatto parazit so'zlar, har xil mazmunsiz kiritmalarni ham ortiqchalik deb bo'lmaydi. Ular tinglovchi uchun ortiqcha, lekin so'zlovchi uchun fikrlarni jamlash, e'tiborsizlik, hayajonlanishni bosish uchun zarur. Boshqacha qilib aytganda, nima uchun unchalik zarur bo'lmagan ushbu til vositasi qo'llanganligini tushuntirish mumkin bo'lmaganda, "Nima uchun uni ishlatish mumkin bo'ldi?" degan savolni qo'yish kerak. O'shanda uning qo'llangan sababini aniqlash mumkin va bir tomonlama yondashuvda ortiqchadek tuyulgan narsa amalda o'zini oqlaydi<sup>4</sup>.

Demak, lisoniy ortiqchalik til strukturasi uchun ortiqcha emas, balki muayyan bir vazifa

5 Aydin, M. Z., Gurler Akyol Sh., 2013. -38 b.

1 Skepskaya G.I. Введение в синтагматику. // Москва: Высшая школа, 1979.  
 2 Мартин А. Основы общей лингвистики//Новое в лингвистике.... // Москва: Иностранная литература 1963. - Вып.3.  
 3 Грудева Е.В. Избыточность текста. История вопроса и методика исследования// http://tnts. mgu.ru/vestnik/2009.  
 4 Девкин В.Д. Немецкая разговорная речь:Синтаксис и лексика. // Москва: Междунар. отношения, 1979.



bajaradigan kerakli hodisalar sirasiga kiradi. Tilimizda lisoniy ortiqchalik tamoyili ham mavjud bo'lib, bu tamoyilning sintaktik sathda voqelanishi natijasida antiellipsis hodisasi yuzaga keladi. Antiellipsis gapni elliptik shakllantirish uchun yetarli sharoit, ya'ni qulay kontekst, semantika va nutqiy situatsiya mavjud bo'lgani holda stilistik-konnotativ va lingvopoetik maqsad bilan konstruksiyani ataylab to'liq shaklda tuzish natijasidir, ya'ni antiellipsis so'zlovchining nutqda ellipsis imkoniyatidan ataylab foydalanmasligidir<sup>5</sup>.

Ortiqchalikning lingvopoetik vosita sifatida badiiy matnda qay darajada qo'llanishi yozma nutqqa xos imkoniyatlarga ham bog'liqdir. Yozuvchi fikr ifodalashda shoshmay, xotirjam holatda adresatga yetkazmoqchi bo'lgan ma'lumotlarni bir tizim asosida bayon qiladi. Uning o'z fikrlarini mukammal, batafsil, mantiqiy, ifodali va ta'sirchan tarzda yetkazishga intilishi verbal ifodalanishi shart bo'lmagan ayrim gap bo'laklarini ham qo'llashni taqozo qiladi.

I.Qo'chqortoyev va H.Nizomxonovlar badiiy asar matnining turli variantlarini lingvostilistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganib, matnda qo'llanuvchi har bir til birligining ma'lum bir vazifasi mavjudligini alohida qayd etganlar: "Biror gapni lingvistik tomondan tafsiflaganda, biz bu gapning avtorini, ya'ni uni kim aytgani yoki kim yozgani to'g'risida bosh qotirib o'tirmaymiz. Mazkur gapning lingvistik tabiati uning mazmun va shakl tomondan qanday gap ekanligi, uning qanday bo'laklardan tashkil topganligi, bu bo'laklarning nimalar vositasida ifodalanganligi kabi masalalarda namoyon bo'ladi. Bu masalalar tekst uchun ham ayrim hollarda ma'lum qiymat kasb etishi mumkin. Lekin tekstning tub mohiyatini bular belgilamaydi. Tekst konkret shaxs tomonidan konkret maqsadda hosil qilinadi. Tekstni, ayniqsa, badiiy tekstni o'rganganimizda, biz bu tekstni nimani ifodalashga qaratilganligini, uni kim yaratgani kabi masalalarni e'tibordan soqit qilolmaymiz. Tekst ma'lum bilim, ko'nikmaga, ma'lum xulq-atvoriga ega bo'lgan shaxs tomonidan ma'lum sharoitda, ma'lum maqsadni ko'zlab yaratilgani uchun unda muayyan qonun-qoidaga, programmaga asoslangan elementlar bilan bir qatorda mazkur qonun-qoida va programmadan chekinadigan, tasodifan xarakterga ega bo'lgan elementlar ham uchraydi"<sup>6</sup>. Shunday ekan, badiiy matnda lisoniy ortiqchalikning uchrashi tabiiy holatdir.

Tilimizdagi lisoniy ortiqcha hodisalarga pleonazm, tautologiya, pressologiya, dittologiya singari hodisalarni sanab o'tishimiz mumkin. Shu o'rinda antiellipsis hodisasi to'xtalib o'tishimiz joizdir. Chunki, tilimizdagi antiellipsis hodisasi lisoniy ortiqchalik tamoyili asosida vujudga keladi. Ammo ayni tamoyilga ko'ra voqelanadigan boshqa yana bir qator hodisalar ham borki, antiellipsisni boshqa yondosh hodisalardan farqlash lozim. O'zbek tilida sintaktik sathda lisoniy ortiqchalilik tamoyilining voqelanishini tadqiq etgan B.Sheronov, pleonazm va tautologiya haqida fikr bildiradi, ularning sintaktik sathda namoyon bo'lishini ko'rsatishga ham qisqaroq bo'lsa-da harakat qiladi. Ammo u "Ortiqchalilikni ma'lum bir yo'sinda yuzaga chiqaruvchi omillar ham mavjud. Ularga pleonazm va tautologiya hodisalari kiradi" qabilidagi anchayin yanglish mulohazalarni ham bayon qiladiki, bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki mazkur ikki hodisa ortiqchalikni yuzaga keltirmaydi, balki ular aynan ortiqchalik tamoyiliga ko'ra yuzaga keladi. "Nutqiy ekonomiya hozirgi zamon til holatining muhim xususiyati bo'lsa-da, ayni vaqtda, inson nutqi ortiqchalik, ekspressiv-emotsionallik, situativ-uslub ottenkalariga boydir"<sup>7</sup>.

Til vositalarini ekonom qilish, tejash qonuniyatiga qarama-qarshi bo'lgan yana bir hodisa borki, u til vositalarini ortiqcha qo'llashdir. Bu hodisa tilshunoslikda pleonazm deb nomlangan. "Pleonazm (grek. Pleonasmus-ortiqchalik) nutqda bir-biriga yaqin ma'noni yoki deyarli bir xil ma'noli birliklarning (ortiqcha holatda) qo'llanishi, bir informatsiyaning bir necha marta ifodalanishi" demakdir<sup>8</sup>.

Hozirgi zamon tilshunosligida pleonazm juda keng tarqalgan. Ko'p hollarda unga til va nutqdagi turli hodisalar kiradi, ya'ni qanday qism takrorlanayotgani-o'zakmi, affiksmi, so'z shaklimi yoki har xil tuzilishga ega bo'lgan sintaktik konstruksiyaning elementimi, hisobga olinmaydi, shu bilan birga bunday pleonazmlar ba'zan grammatika predmeti qilib yoki stilistika predmeti qilib ajratilmaydi. Gapda pleonastik so'zlarning yoki so'z birikmalarning mavjudligi uning struktura jihatdan kengayishiga olib keladi. Og'zaki nutq qisqa, sodda jumalardan iborat, degan qarash mavjud. Lekin dialektal nutqning turli janrlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, dialektal nutqda murakkab sodda gaplardan to qo'shma gapgacha (bog'langan

5 Ibragimova F. Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis. Fil.fan.nom. dissertatsiya. – Toshkent, 2011.

6 Палькин В.М., Филиппов А.В. Языковые контакты: краткий словарь. – Москва: Наука. 2011.

7 Брагина А.А. Экономика и избыточность в языке. – "Русская речь", 1971.

8 Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985.

va ergash gapning barcha turlari), hatto uch-besh komponentli davriy konstruksiyalar ham mavjud. Shuningdek, ularda o'zbek adabiy tilida mavjud bo'lgan gap tiplarida o'xshamaydigan ifodalar-konstruksiyalar ham uchraydiki, ular qo'shma gaplarga o'xshasa-da, lekin ba'zi xususiyatlari bilan, ayniqsa, tuzilishi bilan ulardan farq qiladi<sup>9</sup>.

Gap tuzilishini o'rganish sohasida qilingan ishlarda sintaktik modelning uzun yoki qisqaligi janr xususiyatga, matnga bog'liq ekanligini aytib o'tadilar. Rus tilshunosi G.A.Lesskis ham badiiy adabiyot va ilmiy adabiyotlarda, gapning o'lchovini qiyosan o'rganib, gapning uzun yoki qisqaligi matnga bog'liqligini ta'kidlaydi. "Har bir yozma nutq o'zining ma'lum intervaldagi gap hajmiga-parametriga ega. Gap parametrik bevosita uning struktura elementi hisoblanadi".

Nemis tilshunosi Admoni gap tuzilishini o'rganishga bag'ishlangan ishida badiiy adabiyot bilan falsafiy adabiyotdagi gap tuzilishini solishtiradi va badiiy adabiyotda har bir gap o'rta hisobda 19,3 so'z, falsafiy adabiyotlarda esa 27,8 so'zgacha yetishini ko'rsatadi<sup>10</sup>. Darhaqiqat, dialektal materiallarini ko'rsatishicha, struktura jihatdan yoyiq bo'lgan gaplar monologik nutqqa xos bo'lib, ular, asosan, syujetli matnlarda ko'p uchraydi. So'zlovchi so'zlash jarayonida bayon qilinayotgan fikrdan chalg'imaslik, uning izchilligini ta'minlash maqsadida bir gap ketidan ikkinchisini ketma-ket, yangi sxemaga solib o'tirmay, shu birinchi gapga ulab ketaveradi. Bunda birinchi gapning oxirgi qismikesim sostavi ikkinchi gap boshida keltiriladi, natijada bo'laklarning ortiqcha qo'llanishi kelib chiqadi, natijada sintaktik pleonazm vujudga keladi: Xolvafurush qiyinchiliklar bilan o'z shahriga yetib keladi, yetib kelib, o'z uyiga kelib, darvozani taqillatadi. Bu gapda yetib kelib qismi ortiqcha ishlatilgan, shu qismi tushirib qoldirilganda yoki va bog'lovchisi qo'llanganda ham o'sha ma'no anglashiladi.

Tilshunos M.Turobova sintaktik pleonazmning voqelanishini dialektal nutq bilan chegaralab qo'yadi. Vaholanki, badiiy nutqda, ayniqsa, dramalarda bunday holatlar juda ko'plab uchraydi. Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish lozimki, mazkur pleonastik ifoda muayyan uslubiy vazifani, xususan, jumalarni zichroq bog'lash orqali fikr uzluksizligini ta'kidlash vazifasini bajaradi.

J.Maruzo pleonazmning perifraza,

perissologiya, dittologiya, tautologiya kabi turlari borligini aytadi<sup>11</sup>. Bunda u perifraza so'z bilan nomlangan tushunchaning tasviriy ifoda, ya'ni ortiqcha kengaygan birlik bilan ifodalanishini, perissologiya deganda bugungi kun kabi ifodalardagi leksik ortiqchalikni, dittologiya deganda so'z yoki jumladagi ayrim unsurlarning ikkilanishini, tautologiya deganda esa muayyan birlikning aynan yoki deyarli aynan takrorlanishini nazarda tutadi.

Olima Fazilat Ibragimova J.Maruzoning perifrazelarni pleonazmning bir turi sifatidagi qarashiga qarshilik bildiradi: "Perifrazaning pleonazmning bir turi sifatida qarash unchalik ham to'g'ri emas, chunki perifrastik ibora so'zga nisbatan hajman katta bo'lsa-da, ma'nani u bilan tengma-teng, buning ustiga perifrazaning mohiyati tushunchani qayta ifodali nomlash bo'lib, yaxlit bir nomdir, uning muayyan bir qismi ortiqcha bo'lolmaydi". Bizningcha ham olimaning fikri asosli, chunki perifrazelar qayta nomlash hisoblanib, tilimizda ortiqcha bo'lmaydi.

Pleonazm adabiyotshunoslikda ham badiiy usul sifatida talqin qilinadi va quyidagicha tavsiflanadi: "Nutqda bir xil so'z yoki iboralarning takror qo'llanishi, takror usuli bo'lib, u o'rniga qarab turlicha funksiyalar bajaradi. Bir ma'noni ifodalovchi so'z yoki birikma yoxud iboralarning takror qo'llash ba'zan badiiy asar ortiqcha qusur sifatida namoyon bo'lsa, ba'zan ijodkorning maqsadi bilan bog'liq holda u yoki bu personaj nutqining tipiklashtirish, individuallashtirish maqsadida atayin badiiy vosita sifatida qo'llaniladi. She'riy asarda esa shoir biror fikrni ta'kidlash, o'z tuyg'ularini ko'tarinki, ta'sirchan ifodalash maqsadida ham pleonazmlarga murojaat etadi. She'riy pleonazm "poetik pleonazm" deb yuritiladi"<sup>12</sup>.

Pleonazmda muayyan birlik tarkibida ortiqcha qo'llanilgan birliklar nazarda tutiladi. Agar bu birliklar nutq jarayonida tushirib qoldirilsa, gapning ma'nosiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ma'lumki, nutqiy muloqot jarayonida so'zlovchi o'z fikr-mulohazalarining emotsional-ekspressivligini, aniqligini oshirishga, uning tinglovchiga tushunarli bo'lishini ta'minlashga muayyan kommunikativ maqsadiga uyg'un holda intiladi. Uning shu maqsadda o'z fikrlarini keng va batafsil yoritib berishini urinishi ayrim birliklarning me'yordan ziyod qo'llanishiga olib keladi.

Ortiqchalikni namoyon qiluvchi

9 Turobova M. O'zbek shevalarida sintaktik pleonazm. O'zbek tili va adabiyoti. 1982. 5-son.

10 Адмони В.Г. Развитие структура предложения в период формирования немецкого национального языка. – Москва, 1966.

11 Марузо Ж. Словарь лингвистических терминов. – Москва, 1970.

12 Хотамов Н., Саримсоқов В. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. 2-nashri. – Toshkent: O'qituvchi, 1983.

hodisalaridan bo'lmish "tavitologiya-(grek. Tavitologiya <touto-aynan o'sha+logos-so'z) bir mazmunni boshqa so'z yoki so'zlar bilan takroran ortiqcha ifodalash, so'zni ortiqcha ishlatish demakdir"<sup>13</sup>. Tavitologiya badiiy matnda faol qo'llanuvchi lingvopoetik vositalardan sanaladi. "Tavitologiya poetik nutq ta'sirchanligini va ifodaliligini kuchaytirish uchun takror ko'rinishlardan biri sifatida keng qo'llaniladi". Ammo o'rinsiz yoki uslubiy maqsadga yo'naltirilmagan tavitologiya ham mavjudki, u jumlaning mantiqiylik sifatiga putur yetkazadi. Bu munosabat bilan N.Mahmudov quyidagilarni ta'kidlaydi: "Mazmunan bir yoki yaqin bo'lgan til birliklarini muayyan uslubiy maqsadsiz ortiqcha, takror qo'llash ham nutqning mantiqiylikiga soya soladi. Bunday holatlarda muayyan bir ma'noning keraksiz ikki marta ifodalanishi natijasida tavitologiya yuzaga keladi, bu mantiq nuqtayi nazaridan xato hisoblanadi. Masalan: Tarbiyachi ikki qo'lini yuqoriga ko'tarib, "Bu dasturxon" deb qarsak chaladi." Tabiiyki ko'tarmoq so'zida yuqoriga degan ma'no mavjud, keltirilgan misoldagi ajratib ko'rsatilgan birikmada ayni ma'nolar ikki marta, takror, ya'ni tavitologik ifodalangan"<sup>14</sup>.

Tabiiyki, pleonazm hodisasi tilning turli sathlarida voqelanaverishi mumkin. Ana shu nuqtayi nazardan kuzatishlar olib borgan tilshunos N.Mahkamov affiksial, leksik-affiksial pleonazmning o'ziga xos xususiyatlarini, o'zlashma va o'zbekcha so'zlarning pleonastik qo'llanishidagi o'ziga xos jihatlarni aniqlashga harakat qiladi. U sintaktik pleonazmlarga ham M.Turobovaning maqolasiga qisqacha to'xtalib o'tgan. N.Mahmudov shunday yozadi: "Pleonazmning yana bir turi sintaktik pleonazmlardir. Ular, asosan, o'zbek tilidagi dialektal nutqqa xos. So'zlovchi so'zlash jarayonida bayon qilinayotgan fikrdan chalg'imaslik, uning izchilligini ta'minlash maqsadida bir gap ketidan ikkinchisini ketma-ket, yangi sxemaga solib o'tirmay, shu birinchi

gapga ulab ketaveradi. Bunda birinchi gapning oxirgi qismi- kesim sostavi ikkinchi gap boshida keltiriladi, natijada sintaktik pleonazm vujudga keladi.

Pleonazm hodisasiga yondosh hodisa sifatida perissologiya va dittologiya hodisalarini ham aytish joiz. Perissologiya (yunoncha, perisos-haddan tashqari, legein-gapirish)- nutqda haddan tashqari ortiqcha so'zlarni qo'llash, nutq uzunligidir. Perissologiya leksik ortiqcha bilan bir xil tushuncha bo'lib, konseptsiyani aniq uzatish nuqtayi nazaridan kerak bo'lmagan hodisadir.

Dittologiya (grek. Dittos - ikki so'zidan olingan bo'lib) bo'g'in yoki so'zni ikki marta ko'paytirish. So'z yoki ibora elementining yozilishida ham, talaffuzida ham tasodifiy ikkilanishni bildiradi. Kamdan kam uchraydigan hodisa.

Xullas, pleonazm, tavitologiya, antiellipsis, perissologiya, shuningdek, dittologiya yuzaga kelishiga ko'ra, bir, ya'ni ortiqchalik tamoyiliga asoslansa-da, ular bir-biridan farqli hodisalaridir. Antiellipsis, oldinroq aytilganidek, gapni elliptik shakllantirish uchun yetarli sharoit, ya'ni qulay kontekst, semantika va nutqiy situatsiya mavjud bo'lgani holda stilistik-konnotativ va lingvopoetik maqsad bilan konstruksiyani to'liq shaklda tuzish natijasida yuzaga keladigan hodisadir. Antiellipsis so'zlovchining ellipsis imkoniyatidan atayin foydalanmasligi oqibati o'laroq namoyon bo'ladi. Tavitologiya esa pleonazmdan farqli ravishda, tushirib qoldirilishi mumkin bo'lgan bo'lakning tushirilmaligi emas, balki muayyan ma'no ifodachisi bo'lgan birliklarning takrorlanishidir.

Badiiy matnda ortiqchalik tamoyiliga asoslangan hodisalar badiiy asar tilining o'ziga xosligini ta'minlashda, personajlar xarakter-xususiyatlarini ochib berishda hamda matnda emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda muhim vositalar hisoblanadi.

## TALABALARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING O'RNI

Gavhar Alisher qizi Qodirova - mustaqil tadqiqotchi, Jizzax politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu ishda talabalarga xorijiy tillarni o'qitishda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanish masalalari o'rganilgan.

**Аннотация:** В данной работе были рассмотрены вопросы использования личностно-ориентированных образовательных технологий в обучении студентов иностранным языкам.

**Abstract:** In this work, the issues of using person-oriented educational technologies in teaching foreign languages to students were considered.

**Kalit so'zlar:** ta'lim, bo'lajak muhandis, xorijiy til, shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar.

**Ключевые слова:** образование, будущий инженер, иностранный язык, личностно-ориентированные технологии.

**Keywords:** education, future engineer, foreign language, person-oriented technologies.

Zamonaviy sharoitda ta'lim jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lim shaxsga yo'naltirilgan ta'lim deb nomlanadi. Ushbu ta'lim yondashuv xorijiy til (ingliz tili) fanining o'ziga xos xususiyatlariga to'liq mos keladi, amaliy ko'nikma va nutq faolligi xorijiy tilda faqat amaliy faoliyat orqali shakllanadi va rivojlanadi<sup>1</sup>.

Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan xorijiy tildarlarida o'qituvchilar emas, balki talabalarning o'zlari, o'rganilayotgan til materiallarini amaliy qo'llashda faol ishtirok etishlari kerak. Bo'lajak muhandislarning xorijiy tildagi mustaqil kognitiv nutq faolligini faollashtirish mavzuni muvaffaqiyatli o'zlashtirishning asosiy muammosi bo'lib qolmoqda.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish bo'yicha zamonaviy uslubiy adabiyotlarda quyidagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin:

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining asosiy tamoyili turli xil ta'lim vaziyatlarida bo'lajak muhandislarning faol o'quv faoliyati xisoblanadi. Hamkorlik o'qitish texnologiyasi

har doim kuchli, o'rta va zaif talaba bo'lgan 3-4 kishidan iborat kichik guruhlarda o'qitishni o'z ichiga oladi. Bo'lajak muhandislarga aniq vazifalarni bajarish taklif etiladi, ammo har bir guruh a'zosining muvaffaqiyati yoki yetishmovchiligi aks etadi. Topshiriq oxirida guruhning barcha a'zolariga bitta baho beriladi, shuning uchun yuqori darajali talaba o'rta darajali talabaga topshiriqni bajarishda yordam berishdan manfaatdor. Guruhning barcha a'zolari birgalikda yangi materialni tushunadilar, birgalikda yangi til materiallarini o'zlashtiradilar va birgalikda bo'shliqlarni to'ldiradilar. Bu hamkorlikda o'rganish umumiy tushunchadir. Texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni birgalikda o'qish amaliyoti eng qiziqarli va samarali hisoblanadi<sup>2</sup>.

Talabalarni jamoa bo'lib ishlashi (Student Team Learning (STL). Butun guruhning muvaffaqiyati o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki masalani ishlab chiqishda guruhning har bir a'zosining (guruhning) boshqa guruh a'zolari bilan doimiy aloqada mustaqil ishlashi natijasida erishiladi. Guruhning har bir a'zosi har bir guruh a'zosi kerakli o'quv materialini o'rganishini ta'minlash uchun javobgardir. STL jamoasida ishni tashkil qilishning asosiy printsiplari:

- jamoaning barcha a'zolariga bir xil mukofotlar yoki alohida rag'batlantirishlar;
- butun guruhning muvaffaqiyati yoki

13 Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1985.

14 Mahkamov N. Adabiy norma va pleonazm. - Toshkent: Fan, 1988.

1 Qodirova G.A. Chet tillarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar. zamonaviy tadqiqotlar, innovatsiyalar, texnika va texnologiyalarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendentsiyalari mavzusida 2021-yil 9-10 aprel kunlari o'tkazilgan Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumani.

2 Jalolov J.J., Makhlamova G.T., Ashurov Sh.S. English Language Teaching methodology. - Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. - 336 p.

muvaqqiyatsizligi uchun barchaning shaxsiy javobgarligi;

- muvaqqiyatga erishish uchun teng imkoniyatlar (guruhning har bir a'zosining muvaqqiyati avval erishilgan natijalarni taqqoslash orqali baholanadi, bu kuchli, o'rta va zaif bo'lajak muhandislarga o'z jamoalariga ochkolar olishda teng imkoniyatlarni beradi). Jamoa bo'lib ishlashning asosiy g'oyasi kuchli talaba u zaif talabaga tayyor javobni aytmaydi, balki unga tushuntiradi va o'rganilgan materialni o'zlashtirishga yordam beradi. Topshiriqni barcha guruhlar bajargandan so'ng, o'qituvchi yangi materialni tushunish uchun test topshiradi. Barcha test topshiriqlari chet tilini bilish darajasi bo'yicha farqlanadi: turli xil test topshiriqlarining zaif va kuchli bo'lajak muhandislar uchun baholar beriladi. Barcha topshiriqlar alohida bajariladi va bajarilgan ish uchun bitta belgilanadi - odatda guruhning barcha a'zolari tomonidan to'g'ri bajarilgan test topshiriqlari uchun o'rtacha ball qo'yiladi. Boshqacha aytganda, guruhning har bir a'zosi jamoadagi har bir talaba yangi materialni yaxshi o'rganishini va yakuniy testga tayyorlanishini ta'minlashdan juda manfaatdor<sup>3</sup>.

Jamoani tayyorlash texnologiyasi. Shaxsiy guruh ishlarida o'qituvchi dastlab yangi o'quv materialini tushuntiradi, so'ngra uni guruh a'zolarini birlashtirishga taklif qiladi. Keyingi bosqich - bu guruh a'zolarining tayyorgarligi darajasi bilan farqlanadigan vazifalarni amalga oshirish. Keyingi har bir vazifa keyingi guruh a'zosi tomonidan, qo'shimcha ravishda tushuntirish va butun guruhning nazorati ostida amalga oshiriladi. Jamoa o'yini faoliyati raqobat ruhida tashkil etiladi. Yakuniy nazorat sifatida jamoalar o'rtasidagi turli xil musobaqalardan foydalaniladi. Birgalikda o'qish (Learning Together). Ta'lim faoliyatini tashkil etishning ushbu turidagi asosiy g'oya shundan iboratki, butun auditoriya xorijiy tillarni bilish nuqtai nazaridan bir xil bo'lgan 3-5 kishilik guruhlariga bo'linadi. Har bir guruh o'z vazifasining bir qismini bajaradi, bu esa o'z navbatida umumiy auditoriya vazifasini bajarish uchun quyi vazifadir. Masalan, butun auditoriyaga London atrofida sayyohlik yo'nalishini rivojlantirish vazifasi berilgan. Har bir guruhni shakllantirishda o'qituvchi nafaqat bo'lajak muhandisning teng darajada tayyorgarligini, balki ularning psixologik muvofiqligi, birgalikda qaror qabul qilish qobiliyatini ham hisobga olishi kerak. Guruh oldiga qo'yilgan vazifa darsning umumiy

mavzusini muhokama qilishda faol ishtirok etish hisoblanadi. Butun guruh oxir-oqibat bitta umumiy bahoni oladi.

Shunday qilib, texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak muhandislarga ingliz tilini o'qitishga bag'ishlangan dars-tajriba natijasida ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda quyidagi xulosalarga keldik:

1) dars maqsadiga erishiladi: bo'lajak muhandislar maxsus matnlar bilan guruhda ishlashni, eshitish-motor ko'nikmalarini, ingliz tilida kasbiy aloqa sohasida kognitiv va kommunikativ faoliyatni o'rganishdi;

2) darsning maqsadlari tugallandi: bo'lajak muhandislar darsning asosiy mavzusi doirasida maxsus matnlarning mazmuni bilan tanishdilar, yangi til materialini tushunishni sinab ko'rish uchun mashqlar qildilar, mavzu bo'yicha monologik og'zaki bayonni tuzdilar, topshiriqlarga berilgan javoblardan tartib munozarada ishtirok etdilar, o'z guruhi a'zolari faoliyatini baholadilar;

3) nutq faoliyatining barcha turlari ishlatiladi: tinglash, o'qish, gapirish va yozish;

4) ta'limni insonparvarlashtirish kontsepsiyasiga amal qilgan holda, chet tilini yuqori darajada biladigan bo'lajak muhandislarga ingliz tilini bilmaydigan bo'lajak muhandislarga yordam beradigan tarzda tashkil etilgan guruhlarda samarali ish olib boriladi;

5) murakkablik darajasida taqsimlangan vazifalar o'quv jarayonida motivatsiyani kuchaytirishga yordam beradi;

6) guruh mashg'ulotlari bo'lajak muhandislardan o'ziga xoslik va o'zini o'zi tashkil etish, shuningdek, kognitiv va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish kabi shaxsiy xususiyatlarni ochib berishni talab qiladi;

7) bo'lajak muhandislar birinchi marotaba bunday darsga tashrif buyurishgan, hamma ham ajratilgan vaqtda test topshiriqlarini bajara olishmagan, shuning uchun uy vazifalari ushbu ishni bajarish uchun taqdim etilgan.

Ilg'or o'quv texnologiyalari. Ushbu texnologiyaning asosiy g'oyasi - barcha bo'lajak muhandislar uchun xorijiy tilni o'zlashtirishda muvaqqiyatga erishish, hamma uchun bilim mavjudligi, xatolar haqida ogohlantirish, ularni to'g'irlamaslik xisoblanadi. Shunday qilib, ilg'or o'quv texnologiyasi shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshiradi. Oliy ta'limda bu xorijiy tilni o'qitishning eng samarali texnologiyalaridan biri bo'lib, bu quyidagi asosiy printsiplar bilan izohlanadi:

1) yangi mavzuni to'liq yoki yetarli darajada o'zlashtirishga erishish.

O'quv dasturi haddan tashqari ko'p bo'lganligi sababli, bo'lajak muhandislar ko'pincha charchagan va band bo'lgan xorijiy tildagi darslarga kelishadi, ular mavzuga e'tibor qaratmaydilar va shuning uchun har doim yangi qiyin mavzuni tushuna va o'rgana olmaydilar. Bunda bir yildan buyon, yoki aql va yangi materiallarni o'zlashtirish yangi mavzu yoki qiyin til material asta-sekin joriy etiladi oldingi mashg'ulotlar, shu sababli ushbu mavzuni tushuntirish bo'lajak muhandislar uchun qisman tanish va tushunarli bo'lib, o'zlashtirish natijasi an'anaviy auditoriyaga asoslangan tematik rejalashtirishga qaraganda ancha yuqori;

2) turli darajadagi o'qitish bo'lajak muhandislar uchun chet tilini mukammal bilishi. Agar talabalar oliy ta'limga kelgunicha chet tilni guruhlar yuqori darajada o'qitilgan bo'lsa, unda texnika oliy ta'lim muassasalarida guruh tarkibi juda turlicha. Ba'zida shunday vaziyat yuzaga keladiki, guruhda juda kuchli va juda zaif bo'lajak muhandislar mavjud. Bunday holda, o'qituvchi yangi til materiallari (istiqbolli mavzu) bilan tanishtirganda, avvalambor asta-sekin o'z ichiga olgan kuchli bo'lajak muhandislarga ishonishi kerak.

3) fikrlarni boshqarish. O'qituvchiga talabani topshiriqni bajarishda yo'naltiradigan kerakli izohlarni izlash tavsiya etiladi. Barcha

sharhlar baland ovozda chiqariladi, shuning uchun butun auditoriya xatolarni tahlil qiladi, to'ldiradi yoki tuzatadi. O'qituvchining roli munozarani to'g'ri yechimni topishga yo'naltirishdir. Ushbu muhokama jarayonida va mumkin bo'lgan xatolarni aniqlashda bo'lajak muhandislar muhim kasbiy ko'nikmalarni rivojlantiradilar: mantiqiy, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlar, o'zini o'zi bilish elementlari;

4) yangi (istiqbolli) mavzuni tushuntirishga sarflanadigan vaqtni qisqartirish. Cheklangan vaqt sharoitida texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalaridagi chet tili o'qituvchisi juda qisqa vaqt ichida turli darajadagi o'qishga ega bo'lgan barcha bo'lajak muhandislarni qanday o'qitish masalasiga duch keladi. Ma'lumki, har qanday xorijiy tilni o'zlashtirishning muvaqqiyati uning tarkibiy tuzilishini, ya'ni sxemasini tushunish qobiliyatiga bog'liq. Leksik material asta-sekin hal etiladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlashni istardimki, ushbu eksperiment va bizning kuzatishlarimiz texnika yo'nalishi oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini professional ravishda o'qitish jarayonida hamkorlik texnologiyalaridan foydalanish mavzuni samarali egallashga yordam beradi, o'rganish uchun g'ayratni oshiradi, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshiradi va vaqtni tejaydi. Og'zaki nutq amaliyoti, o'qishni farqlash va individuallashtirish uchun sharoit yaratadi.

## TA'LIMDA ARALASH O'QITISH METODIKASI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Muxayyo Otaqulovna Xoldarova - tayanch doktorant, Jizzax politexnika instituti*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda ta'lim jarayonida aralash o'qitish metodikasining zamonaviy holati haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В данной работе отражено современное состояние смешанной методики обучения в образовательном процессе.

**Abstract:** This work reflects on the modern state of mixed teaching methodology in the educational process.

**Kalit so'zlar:** aralash o'qitish, elektron ta'lim, masofaviy o'qish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

**Ключевые слова:** смешанное обучение, электронное обучение, дистанционное обучение, информационно-коммуникационные технологии.

**Keywords:** blended learning, e-learning, distance learning, information and communication technologies.

Bugungi kunda elektron ta'lim zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb tarkibiy qismiga aylanib, ta'lim resurslariga kirish va boshqarishda, masofaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim jarayonini boshqarishni tashkil etishda, an'anaviy ta'lim tizimining imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Elektron ta'lim ma'lumotlar bazalarida mavjud bo'lgan va ta'lim dasturlarini amalga oshirishda foydalaniladigan hamda axborot texnologiyalari, texnik vositalar, shuningdek, ushbu axborotni aloqa liniyalari orqali uzatishni ta'minlaydigan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlarini qayta ishlashni ta'minlaydigan ta'lim faoliyatini tashkil etish, talabalar va o'qituvchi xodimlarning o'zaro munosabatlari tushuniladi.

Aralash o'qitishni joriy etish o'qituvchidan odatdagi, ko'p asrlik ish shakliga qaraganda ancha kuch va vaqt talab qiladi<sup>1</sup>. Ustozdan yordamchiga aylangan o'qituvchining o'quv jarayonidagi rolini o'zgartirishga psixologik tayyor emasligi ham aniq to'sqinlik qiladi. Aralash o'qitishni yangilik sifatida joriy etish talaba va o'qituvchining o'z-o'zini boshqarish va faoliyat yo'llarida bir qator o'zgarishlarga olib keladi. Talaba erkinlik va mas'uliyat

muhitini topadi, unda u ongli tanlov qilishni va uning oqibatlarini uchun javobgar bo'lishni o'rganadi. O'qituvchi o'zi uchun yangi rollarda faoliyat ko'rsata boshlaydi, xususan, tarjimon rolidan tarbiyachi rolga o'tadi va o'qituvchining asosiy vositasi sinf muhiti bilan onlayn muhit o'rtasidagi aralash bo'lgan o'quv muhitiga aylanadi.

Aralash o'qitish (ingliz tili. "Blended Learning") elektron ta'lim elementlari bilan yuzma-yuz o'qitishning an'anaviy shakllarining kombinatsiyasi bo'lib, u kompyuter grafikasi, video va audio, interaktiv elementlar va boshqalar kabi maxsus axborot texnologiyalaridan foydalanadi<sup>2</sup>.

Ta'lim faoliyatini rivojlantirishning hozirgi bosqichi o'qitishda an'anaviy yondoshuv shakllari va usullarini faollashtirishga imkon beradigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ustunligi bilan belgilanadi. Odamlarning tobora ko'payib borayotgani minimal vaqt yo'qotish bilan ta'lim olishga intilishmoqda, chunki hayot sur'ati an'anaviy kunduzgi ta'lim uchun tobora kam vaqt qoldirmoqda.

Ta'limning ananaviy (yuzma-yuz) shakli va onlayn ta'lim shakllaridan aralash o'qitish shakliga o'tishning bir necha sabablari

mavjud. Oliy ta'lim muassasalarida bu birinchi navbatda XX asr oxirida biznes-jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan keng tarqalgan tendentsiya bilan bog'liq.

Axborot texnologiyalarining yutug'i birinchi navbatda, Internet orqali ma'lumot almashish qobiliyati orqali aralash o'qitishni rivojlantirishga hissa qo'shmoqda. Imtihonlar uchun savollar, loyiha topshiriqlari namunalari, o'quv materiallari shunchaki platformaga joylashtirilishi yoki e-mail orqali talabalarga yuborilishi mumkin.

Shuningdek, aralash o'qitishning rivojlanishiga robototexnikani rivojlantirish uchun so'nggi yillarda olib borilayotgan zamonaviy-axborot texnologiyalari sohasida tadqiqotlar sababchi hisoblanadi.

"Aralash o'qitish" (Blended learning) atamasi tarixi XX asrning 90- yillarida, Internet sarlavhalarida paydo bo'lgan va Interaktiv o'quv markazlarining onlayn kurslarni aralash o'quv metodikasidan foydalangan holda o'qishlarini taklif qila boshlagan.

Onlayn texnologiyalarning rivojlanishi bilan zamonaviy dars o'tish texnologiyalari takomillashib bormoqda va ta'lim berish jarayonidagi eng katta o'zgarishlardan biri bu Blended learning (aralash o'qitish) texnologiyasidir.

Hozirgi kunda dunyoda "Blended learning" atamasi keng qo'llanilmoqda, Mamlakatimizda ham ta'lim jarayonida bu atama qo'llanila boshladi.

Ta'lim olish jarayoni odatdagidan boshqacha: talaba axborot texnologiyalari yordamida uyida mavzuga doir ba'zi manbalarni o'rganadi. Lekin buni masofaviy ta'lim deb hisoblamaymiz. Chunki mavzuni o'zlashtirish uchun o'qituvchidan deyarli hech qanday yordam olinmaydi, o'qituvchi mavzuga doir materiallar hamda topshiriqlarni taqdim etishi mumkin. Qolaversa, bu kompyuterda individual o'rganish emas: talaba guruhning bir qismi bo'lishi hamda guruh a'zolari bilan birga ishlashi lozim bo'ladi<sup>3</sup>.

Ko'pgina o'qituvchilar aralash o'qitishning har qanday shaklini, ta'limiy majburiyatni, shuningdek, rejani qo'shib yuborgan holda aralash o'qitishga keng qamrovli, dalillarga asoslangan yondashuvni ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'llab-quvvatlash va manbalarni taqdim etishlari mumkin bo'lgan innovatsion

o'qitish usullarini taqdim etishadi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanib borayotganligi sababli o'qituvchilar va talabalar ular foydalana oladigan umumiy onlayn muhitga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu o'qituvchiga talabalar bilan suhbatlashishi, bilimlari bilan o'rtoqlashishi, savollar berishlari, o'quv manbalariga kirishlari, internetda to'liq ishlashi mumkin bo'lgan onlayn tadbirlarni tashkil etish va boshqarish imkonini beradi – har qanday internet foydalanuvchilari bu ma'lumotlarga qiynalmasdan kiradilar. Ta'limda foydalanish uchun ko'plab raqamli manbalar mavjud. Bunga o'quv videofilmlari, interfaol o'quv o'yinlari va talabalarga video, animatsiya, web-sahifalar, musiqa va boshqa narsalarni taqdim qilish imkonini beradigan dasturlar kiradi. Bularning barchasi talabalarni jalb qilish va mustaqil ishlashga yordam beradi.

Aralash o'qitishning ba'zi muhim va pedagogik jihatidan biri talabalarining bu-darslarga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, talabalarining chuqurroq o'rganishni rag'batlantiradi, shuningdek ularni ilhomlantiradigan, faol va texnologiyaga ko'proq jalb qiladi. Aralash o'qitish ta'lim faqat onlayn rejimda olib boriladigan ma'lumotlarga qaraganda yaxshi natijalarga erishishi aniqlandi. Talabalar bunday o'qitish usullarini an'anaviy usuldan afzal ko'rishadi va aralash o'qitish talabalarining tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi.

An'anaviy o'qitish hamda o'quv faoliyatini shaxsan onlayn ravishda qanday qilib uyg'unlashtirishni tanlashda ko'plab omillarni hisobga olish kerak. Ba'zi hollarda, talabalar va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro aloqalar, shuningdek darslarni bevosita yetkazib berish sinfda amalga oshiriladi, manbalar va ba'zi qo'shimcha ma'lumotlar internet orqali yetkazib beriladi. Boshqa hollarda, mashg'ulotlarning aksariyati internetda bo'lib, muammolarni hal qilish va jamoat qurilishini qo'llab-quvvatlash uchun tez-tez uchrashuvlar o'tkaziladi<sup>6</sup>.

Blended learning texnologiyasi asosida dars o'tishning quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin:

1. Dars vaqtdan unumli foydalanish. "Blended learning" texnologiyasi o'qituvchilarga o'z talabalarini bilan bo'lgan vaqtdan unumli

<sup>1</sup> Абрамовский А.Л. Дистанционное образование на современном этапе развития российского высшего образования: автореферат дис. ...кандидата социологических наук. – Тюмен, 2014. – 32 с.

<sup>2</sup> Shafiqat Hameed, Atta Badii, Andrea J. Effective E-Learning Integration with Traditional Learning in a Blended Learning Environment. European and Mediterranean Conference on Information Systems May 25-26 2008

<sup>3</sup> Рахимов Х.А. Олий таълим тизимида электрон таълим муҳитининг афзалликлари. "Замонавий таълим" журнали 2-сон 2021 й.

foydalanishga imkon beradi. An'anaviy sinf mashg'ulotlarini onlayn dunyoga ko'chirish orqali siz sinf oldida kamroq gapirishga va talabalar bilan individual ishlashga ko'proq vaqt sarflashga erishish mumkin.

2. Tabaqalashtirilgan vazifalar. Auditoriyada talabalar bilan individual ishlash uchun ko'proq vaqt talab etilsa, o'qituvchi har bir talabaning imkoniyati va bilim darajasidan kelib chiqqan holda vazifalar beradi. Ko'plab onlayn-resurslar ham avtomatik ravishda bir-biridan farq qiladi: masalan, talaba qanchalik to'g'ri javob bersa, matematik mashqlar asta-sekin qiyinlashishi mumkin.

3. Faol talabalar. An'anaviy ta'lim texnologiyalaridan farqli ravishda "Blended learning" da talabalar darsga kelgunga qadar tayyorlanishlari uchun onlayn video va elektron manbalardan foydalaniladi. Shunday qilib, talabalar darsga nazariy ma'lumotlarni bilgan holda keladi hamda darsda asosiy e'tibor ushbu nazariyani hayotga tatbiq etishga qaratiladi, ya'ni talabalar fan bo'yicha kompetentligi shakllantiriladi. Ushbu modelda fan o'qituvchisi rahbar va murabbiy vazifasini bajaradi.

Darsdan oldin talabalar tomonidan bajarilgan ishlarni baholash ham mumkin - shuning uchun o'qituvchi talabalar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni aniq biladi. Bu Jon Xattining yana bir xulosasi bilan bog'liq: darsda o'qitiladigan narsalarning 50 foizi darsgacha talabalarga ma'lum bo'ladi.

4. Ijodkorlik. Talabalarga video, animatsiya, yangi media-fayllarni yaratishga imkon beradigan minglab onlayn manbalar mavjud. Bu talabalarga mustaqil ishlash va o'rgangan narsalarini amaliyotda qo'llashning yangi usullarini ochib beradi. Shuningdek, talabalar qimmatli dars vaqtini sarflamasdan, mavzuni tushunishlari uchun onlayn ravishda qo'shimcha o'qib- o'rganishlari hamda topshiriqlarni bajarishlari mumkin.

5. Talabalar tayyorgarligi. Talabalarni oldindan tayyorlash bo'yicha onlayn ish olib borilganda (masalan, sinchkovlik bilan ishlab chiqarilgan dars modelida), talabalar darsga yanada yaxshiroq tayyorlanishadi. Bu talabalar o'quv predmeti bo'yicha ko'proq mavzu bilan shug'ullanishlarini anglatadi.

6. XXI asr ko'nikmalarini o'rgatish. Bugungi kun talabalar internetda ishlash, ma'lumot almashishni o'rganishlari zarur.

Shuningdek, ularda zamonaviy ish beruvchilar talab qiladigan tanqidiy fikrlash va ijodiy ko'nikmalarni rivojlantirish lozim. Aralash o'qitish texnologiyasi talabalarni internetda ishlash, ma'lumot almashish va hamkorlik qilishga undash orqali ushbu ko'nikmalarni hosil qilishga yordam beradi.

7. Qog'oz ishlaridan chekinish. Deyarli barcha o'qituvchilarning stollari belgilangan ish hujjatlari hamda talabalar tekshirilishi kerak bo'lgan nazorat ishlari va bajarilgan topshiriqlari yozilgan qog'ozlariga to'la. Baholar talabalar daftariga qayd qilinishi zarur. Onlayn o'quv platformalari ko'plab topshiriqlarni raqamlashtiradi, shuning uchun lozim bo'lgan belgilarni onlayn tarzda (ta'lim muassasasida yoki uyda) bajarish mumkin.

Bundan tashqari, talabalar nazorat ishlari, mustaqil ishlari onlayn tarzda olib, baholarni avtomatik ravishda taqdim etish ham mumkin.

8. Barcha o'quv resurslari bir joyda. Onlayn manbalarga internetga ulangan har qanday kompyuterdan kirish mumkin. Bu bizga bir marta video, web-sayt havolasi, gazeta maqolasi yoki boshqa manbani yuklashimiz kerak degan ma'noni anglatadi. Biz va talabalarimiz, shuningdek boshqa o'qituvchilar ham unga nafaqat internetga ulangan kompyuterdan, balki mobil qurilmalar orqali ham kirish huquqiga ega bo'lamiz.

9. Xarajatlarning qisqarishi. "Blended learning" texnologiyasini qo'llash uchun zarur bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'rnatish ba'zi boshlang'ich sarmoyalarni talab qilishi mumkin bo'lsa-da, ko'plab maktablar va akademik litseylar darsliklari, qog'oz va nusxa ko'chirish xarajatlari kamayganligi sababli umumiy xarajatlarni qisqartirishga olib keladi.

Yuqorida sanab o'tilgan omillar aralash o'qitish tizimlarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha o'z vazifalari va mutaxassislari bilan elektron ta'lim sohasida alohida sektorning paydo bo'lishiga olib keldi. Shubhasiz, aralash o'qitishning samaradorligi, avvalo, elektron ta'lim maqsadlarini to'g'ri belgilash va bu maqsadlarga muayyan elektron ta'lim tizimi yordamida erishish qobiliyatiga bog'liq. Aniq qo'yilgan maqsadlar o'rganish nazariyasiga asoslanishi mumkin.

Shu bilan birga, masofaviy ta'lim

texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha nashrlarni tahlil qilish, ushbu ta'lim turi tadqiqotchilar nazarda tutadigan bir qator kamchiliklarga ega ekanini ta'kidlashga imkon beradi: treningning boshqa ishtirokchilari bilan ijtimoiy aloqaning yo'qligi; talabalar tomonidan nazariy materialni noto'g'ri talqin qilish xavfi; talabalar o'z-o'zini o'rganishining yuqori darajasiga bo'lgan ehtiyoj.

Bu kamchiliklar aralash o'qitish bilan bartaraf etiladi, bu konsepsiya talabaning an'anaviy ta'lim va yangi ta'lim texnologiyalari tomonidan taqdim etilgan barcha imkoniyatlardan maqbul va birgalikda foydalanishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu esa har bir talabaning potensial qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirish uchun cheklangan imkoniyatlar bo'lgan an'anaviy ta'limning asosiy muammosini hal etishga sharoit yaratadi. Aralash o'qitishni amalga oshirish elektron ta'lim elementlaridan (elektron ta'lim resurslari, AKT) foydalangan holda an'anaviy ta'lim jarayonini qurishning umumiy tamoyillarini saqlashni o'z ichiga oladi.

Shu bilan birga texnologiyalarni birlashtirish jarayoni individual dars, umuman ta'lim dasturi darajasida ham sodir bo'lishi mumkin. Bugungi kunda O'zbekistonda va xorijdagi ko'plab ta'lim muassasalari elektron ta'lim platformasida masofaviy ta'limdan foydalanish ko'pincha talabalar bilim sifatini yomonlashtiradi, degan xulosaga kelgan, buning sabablari quyidagilardan iborat: o'qituvchi bilan "jonli muloqot" yo'qligi, ta'lim jarayonini tashkil etishdagi muammolar.

Aralash o'qitish - an'anaviy va elektron ta'lim shakllarining eng yaxshi usullarini o'zida mujassamlashtirgan hamda pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalaniladigan o'qitish shakli hisoblanadi.

An'anaviy ta'limda talabani o'qitadilar, Aralash o'qitishda esa - o'qishga o'rgatib, mustaqil faoliyatini tashkil qiladilar.

An'anaviy ta'limda markazda - o'qituvchi, aralash o'qitishda esa - talaba markazda bo'ladi. Bunda talaba ko'p ishlaydi va muvaffaqiyatlari uning o'ziga bog'liq.

Kunduzgi va elektron ta'lim usullari va texnologiyalaridan foydalanish bir vaqtning o'zida ushbu ta'lim shakllarining afzalliklaridan foydalanishga imkon beradi. Talabalarni rag'batlantirish uchun yuzma-yuz elementlardan foydalaniladi. An'anaviy ta'lim shakllari talaba va o'qituvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri shaxsiy aloqalarga asoslangan.

Zamonaviy ta'lim inson faoliyatining turli sohalarida global rivojlanish bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy jamiyatning deyarli barcha qatlamlariga (xalqaro munosabatlar, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash xizmati, ta'lim va boshqalar) tarqalmoqda. O'qitishning nisbatan yangi konsepsiyasi ta'limga AKT ta'siridan kelib chiqdi. Bu aralash o'qitish bo'lib, o'quv uslublari, ayniqsa yuzma-yuz va onlayn o'qitish kombinatsiyasi sifatida aniqlanadi. Shunday qilib, aralash o'qitish an'anaviy va qog'ozsiz (raqamli) ta'lim metodlarining sinxron shaklidir.

## IXTISOSLASHTIRILGAN UMUMTA'LIM MAKTABLARI FAOLIYATI MONITORINGINI MODELLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

**Sardor Anarbayevich Rasulov** - Jizzax hududiy bo'limi boshlig'i, Vazirlar mahkamasi xuzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyati monitoringini modellashtirish xususiyatlari, modellashtirish jarayonida ta'limning quyi tizimlari o'rtasidagi axborot aloqalarini aniqlashga, shuningdek, boshqarish, tashkil etish va moslashtirish tamoyillariga e'tibor qaratilgan.

**Аннотация:** В данной статье основное внимание уделяется особенностям моделирования мониторинга деятельности специализированных общеобразовательных школ, выявлению информационных связей между подсистемами образования в процессе моделирования, а также принципам управления, организации и адаптации.

**Abstract:** This article focuses on the features of modeling the monitoring of the activities of specialized general education schools, the identification of information connections between the subsystems of education during the modeling process, as well as the principles of management, organization and adaptation.

**Kalit so'zlar:** Ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari, monitoring, modellashtirish, ta'limning quyi tizimlari, axborot aloqalarini aniqlash, boshqarish, tashkil etish va moslashtirish tamoyillari.

**Ключевые слова:** Специализированные общеобразовательные школы, мониторинг, моделирование, подсистемы образования, принципы идентификации, управления, организации и регулирования информационных коммуникаций.

**Keywords:** Specialized general education schools, monitoring, modeling, subsystems of education, principles of identification, management, organization and adjustment of information communications.

Jahon hamjamiyatida yangi O'zbekiston har tomonlama rivojlanish jarayonlarida o'z oldiga bir qator muhim vazifalarni qo'yar ekan, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari uzluksiz ta'lim tizimining bo'g'inlarida qay tarzda amalga oshirilish muammolarini ham dolzarb masalalardan biri sifatida belgilab oldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "...biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazamiz" deb ta'kidlar ekan, davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda o'z yo'lini tanlashida mamlakat fuqarolari har tomonlama komillik sari intilib yashashi, davlat

taraqqiyotining asosiy omiliga aylanadi. Yurt ravnaqi yo'lida yoshlarning bilim egallashlari bilan bir qatorda o'zining mustaqil fikriga ega bo'lgan, ma'nan yetuk, sog'lom fikrlovchi, yuksak kasbiy mahoratli qilib tarbiyalash bu yo'lda dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda.

Aynanyuqoridagimaqsadlarga erishishda ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyati monitoringini modellashtirish xususiyatlarini o'rganish dolzarb hisoblanadi. Bu borada shu vaqtgacha muammoni aniqlash bo'yicha yaratilgan ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, modellashtirish jarayoni boshqa obyektida aniqlangan obyektning aks ettirishni anglatadi. Bundan kelib chiqqan holda, umumta'lim maktablari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan modelda me'yoriy asos bo'lgan bilimlar jamlangan bo'lishi kerak va u pedagogik qonuniyatlarga muvofiq bo'ladigan voqeyelikni aks ettirishi kerak, ya'ni ishlab

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. President.uz sayti <https://president.uz/oz/lists/view/4057>. 2020-yil 29-dekabr.

chiqilgan model ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy tomonlarini birlashtirishi, bog'lashi kerak.<sup>2</sup>

Shu jihatdan A.S.Qurbonov umumta'lim maktablari faoliyati monitoringini modellashtirish jarayonida ta'limning quyi tizimlari o'rtasidagi axborot aloqalarini aniqlashga, shuningdek, boshqarish, tashkil etish va moslashtirish tamoyillariga e'tibor qaratishni taklif qiladi.

Bunday tizimning asosiy xususiyatlaridan biri - bitta yopiq bo'g'inning mavjudligi, teskari aloqaning ta'siri. Bu tizimning ishlashini tashqi tomondan belgilangan maqsad bilan muvofiqlashtirish uchun kerak, ya'ni uni boshqarish uchun kerak. Nazorat muammosi faqat tizimning ishlash natijalarini uning maqsadi bilan obyektiv taqqoslash imkonini beradigan xarakteristikaga ega bo'lganda hal qilinadi. Bu xususiyat - tizim samaradorligi mezoni ichki parametrda kuzatiladigan cheklov bilan uning maqsad funksiyasi bilan belgilanadi. O'quv jarayonini tashkil etishning asosiy shakli dars bo'lganligi sababli, maktab vaqtining 90% darsga sarflanadi. Bu esa o'quvchilarning vazifalarni hal qilishga qaratilgan izchil, doimiy ravishda murakkablashadigan va takomillashtirilgan kognitiv faoliyatini ifodalaydi. Umumta'lim maktabi faoliyatini monitoring qilish elementlarini shakllantirish holatini kuzatish, monitoring qilish, ta'lim natijalarining o'zgarishlar dinamikasi va tuzatishga qaratilgan bo'lishi kerak. Shu bilan birga, monitoring elementlari bir vaqtning o'zida o'quvchilarni o'rganishga undaydigan stimulyator va vosita sifatida ishlaydi.<sup>3</sup>

N.Muxartovning fikricha, deyarli har qanday pedagogik tizimni modellashtirish mumkin, chunki pedagogik hodisa va jarayonlarni o'rganishga tizimli yondashish modellar bilan fikrlashni o'z ichiga oladi va model haqida fikr yuritish bilan tavsiflanadi. Model - tizimning tuzilishini takrorlaydigan ma'lum birtasvirni ifodalaydi. Model har qanday tizimning abstraksiyasi bo'lib, uning asosiy xususiyatlarini aks ettiradi. Modellashtirish maqsadlari va tizimning funksiyalari to'g'ridan-to'g'ri tegishli tadqiqotchi tomonidan shakllantiriladi. Faqatgina ushbu yondashuv tufayli modellarni bevosita ochib beradigan xususiyatlar to'plamini aniqlash mumkin bo'ladi. Modellashtirish bugungi kunda bilim

nazariyasining asosiy toifalaridan biri va qoida tariqasida, zamonaviy inson faoliyatining ko'plab sohalarida turli xil tabiatdagi tizimlar va jarayonlarni ilmiy tadqiq qilishning eng mashhur ilmiy asoslangan usuli hisoblanadi.<sup>4</sup>

T.M.Benkovich o'qitish samaradorligini monitoringini hisobga olib, haqiqiy model deb ataladigan narsani yaratish uchun evristik modellashtirish usulini taklif qiladi, uning mohiyati quyidagicha:

modelga qulay gipoteza kerak, modelni o'rganish jarayonida qarama-qarshiliklar aniqlanadi, ikkinchisi adekvatligi uchun obyekt bilan taqqoslanadi;

kelajak modelning tuzilishi yaratiladi; model eksperimentlar o'tkazish va miqdoriy ko'rsatkichlarni olish uchun vazifalarni ishlab chiqaradi, shundan so'ng faraziy model yanada realroq bo'ladi;

obyekt o'rniga model tekshiriladi, bu uning yashirin xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi;

model obyektning unga adekvat bo'lgan chegaralar ichida boshqarish uchun ishlatilishi mumkin.

Bunday evristik modelni yaratish quyidagicha:

tadqiqot maqsadi shakllantiriladi; modelning maqsadi aniqlanadi, kerakli ma'lumotlarning mavjudligi, uni qayta ishlash imkoniyati, iyerarxik prinsipga muvofiq model darajasi tanlanadi;

obyektning tuzilishi va funksiyalari to'g'risida gipoteza shakllantiriladi, shu bilan birga o'zaro ma'lum qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan bir nechta farazlar ilgari suriladi va tadqiqot maqsadlari uchun ushbu farazlardan obyektga eng yaqini tanlanadi;

obyektning strukturasi quriladi va funksiyalari shakllanadi, tizimning quyi tizimlari va aloqalarining mohiyati ochib beriladi; ulanishlar soni bo'yicha cheklov bilan o'zgaruvchilar tanlovi mavjud;

tizimning tashqi chiqishlari, ularning ahamiyati aniqlanadi;

elementlarning xarakteristikalarini yoki "kirish-chiqish" bog'liqliklari o'rnatiladi, bunda har bir elementning statistik ma'lumotlarini grafikalar, diagrammalar, formulalar, diagrammalar bilan tasvirlash mumkin;

modelni o'rganish jarayonida tuzatiladi, tizimning "kirish" va "chiqishi"

2 Коннычева Г. Мониторинг образовательного процесса. // Директор школы. - 2007. - №9. - С. 21-27 Приходько В.Н. Система мониторинга качества образовательной деятельности. // Управление школой. - Х.: Основа, 2012. - № 19-21. - С. 21-36. Шаталов А. Мониторинг как особый вид научной теории и практики. // Педагогическая диагностика. - 2008. - № 4. - С. 28-39. Строкова Т.А. Теоретические основы и технология комплексного мониторинга качества образования. Тюмень: Изд-во ТюмГУ, 2008. - 204 с.

3 Курбанов А.С. Мониторинг развития деятельности общеобразовательных школ. // Инновации в образовании. - 2006. - №9. - С. 111-117.

4 Мухартова Н. Моделирование мониторинга педагогической системы. // Директор школы. - 2008. - №5. - С. 130-137.

muvoqilashiriladi;

model o'rganilishi uning statistik va dinamik xarakteristikalari, obyekt haqida yangi ma'lumotlar beradi, uning yangi sifatlarini ochib beradi;

modelni tekshirish - model va obyekt xususiyatlarini o'xshash sharoitlarda taqqoslash, shuningdek, ularning ishonchligi va qo'llanilishi chegaralarini belgilaydi.

I.V.Abarsumyaning ta'kidlashicha, modellashtirish usuli eng ko'p qirrali sifatida ilmiy bilimlarning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. O'z navbatida, monitoringni tashkil etish va o'tkazishni modellashtirish pedagogik hodisa va jarayonlarni o'rganish usullaridan biridir. Qoida tariqasida, monitoringni modellashtirish jarayoni bitta modelni yaratish bilan cheklanmaydi. Amalda bu ishlanma bir-birini to'ldiradigan, mos keladigan modellar seriyasidir. Umumta'lim muassasalari faoliyati monitoringini modellashtirishni boshlashda quyidagi tarkibiy bo'g'inlarni bog'lash maqsadga muvofiqdir:

uslubiy tadqiqotlar;  
amaliy tadqiqotlar;  
eksperimental dizayn ishlanmalari;  
professor-o'qituvchilarning amaliy faoliyati va boshqalar.

Umumiy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish va monitoring qilish tamoyillarini amalga oshirish uni amalga oshirishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Xususan, monitoring jarayonida uning oldingi va keyingi bosqichlari bilan uzluksizligida, monitoringni rejalashtirish bosqichida, umumiy ta'lim muassasalari faoliyatini baholashning yaxlitligiga erishishda va boshqalar.<sup>5</sup>

A.N.Daxin pedagogik modellashtirish va loyihalash nazariyasiga tayanib, ushbu jarayonning o'zining umumlashtirilgan modelini taklif qiladi, u o'rganilayotgan muammoning elementlari va quyi tizimlari o'rtasidagi ichki axborot aloqalarini aniqlashni, shuningdek, ushbu jarayonni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini aniqlashni o'z ichiga oladi. O'quv natijalari yoki o'quvchilarning ta'lim yutuqlari darajasi teskari aloqaga ega bo'lib, uning vazifasi modelning ishlashini tashqi tomondan (ya'ni modeldan tashqarida) o'rganish maqsadi bilan muvoqilashiriladi. Modelning vazifasi faqat olingan o'quv natijalarini bashorat qilinganlar bilan obyektiv taqqoslash va kerak bo'lganda ularni tuzatish

imkonini beradigan ma'lumot olinganda amalga oshiriladi. Bu muhim xususiyatdir, chunki modelning samaradorligi mezoni model tarkibiy qismlarining ichki munosabatlari bilan belgilanadi. Ta'lim jarayonining tarkibiy qismlarini tahlil qilishda ta'lim natijalari ta'lim yutuqlari darajalari deb hisoblanadi. Ularning shakllanish darajasi umuman o'quv jarayonining faoliyati samaradorligi (muvaqqiyati)ning asosiy mezoni hisoblanadi. Modelning tuzilishi iyerarxiya sifatida taqdim etiladi, ya'ni, quyi tizimlarning mantiqiy o'zaro bog'lanishi. Faoliyat tizimi va o'quv mazmuni tufayli birga mavjud bo'lgan o'qituvchi va o'quvchining faoliyati eng muhim hisoblanadi. Monitoringning quyi tuzilmalari: o'quv faoliyatini nazorat qilish, o'quv natijalari (ta'lim yutuqlari darajalari), tuzatish harakatlari va faoliyati bir xil darajada muhimdir. O'qituvchining faoliyati faqat yangi materialni tushuntirish bilan cheklanmaydi. O'qituvchining faoliyati o'quvchi faoliyatini tashkil etuvchi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayonini boshqarishni o'z ichiga oladi. Boshqarishning asosiy ma'nosi shundan iboratki, o'qituvchi eng avvalo, o'quvchilarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkilotchisi va rahbari bo'lib, ularning eng oqilona va samarali bilim olishlari uchun sharoit yaratadi.<sup>6</sup>

M.Kirichenkoning fikricha, bugungi kunda modellashtirish amaliyotida natijada tegishli modellarni oldindan belgilab beruvchi quyidagi yondashuvlar mavjud:

tavsiflovchi;  
statistik;  
dinamik;  
tarixiy;  
empirik;  
normativ.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda fizik, moddiy-matematik, mantiqiy-semiotik yondashuvlar ham ko'rsatib o'tiladi. Yuqoridagi yondashuvlar va shunga mos ravishda olingan natija (model) o'rtasida aniq chegaralar yo'q. O'z navbatida, pedagogik modellar asosan moddiy-matematik hamda mantiqiy-semiotik guruhga kiradi va agar yaratilgan tasvir berilgan sharoitda kelajakda nimaga erishish mumkinligini ko'rsatsa normativ bo'lishi mumkin.<sup>7</sup>

Xulosa ilib aytganda modellashtirish jarayoni pedagogik dizayn bilan uzviy bog'liq bo'lishi va uning tegishli tarkibiy

<sup>5</sup> Абарцумян И.В. Моделирование мониторинга деятельности общеобразовательных учебных заведений. // Директор школы. - 2006. - № 4. - С. 32-35.

<sup>6</sup> Дехин А.Н. Педагогическое моделирование: сущность, эффективность и неопределенность. // Школьные технологии. - 2002. - № 2. - С. 62-66.

<sup>7</sup> Кириченко М. Моделирование педагогических систем. // Директор школы. - 2002. - № 17 (209). - С. 13-17.

qismini tashkil qilishi kerak degan xulosaga kelish o'rinni ko'rinadi. Shu munosabat bilan ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablar faoliyati monitoringini modellashtirish jarayonida istiqbolli kelajakka e'tibor qaratish, natijani (modelni) qayta aloqa mexanizmi va rejalashtirilganlardan og'ishlarni tuzatishga samarali yondashuv sifatida ko'rib chiqish, shu jumladan o'tmishda olingan ko'rsatkichlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Bu realizm darajasini belgilash, vazifalarni aniqlashtirish, natijalarni umumlashtirish, xulosalar va qo'llashning ilmiy tajribasini taqdim etish

bilan tasdiqlanadi, bu esa monitoring modelini loyihalash nuqtai nazaridan tavsiflanadi. Shu bilan birga, ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktablari faoliyatini monitoringini modellashtirishning o'zi teskari aloqa mexanizmi va istalgan natijaga erishishga xalaqit beradigan muammolarni aniqlash va hal qilish vositasi sifatida ta'lim muassasasini rivojlantirishni boshqarishning ideal holati modelini ishlab chiqish jarayoniga kiradi va ta'lim faoliyati muvaqqiyatini aks ettiradi.

## TALABALARNI INNOVATSION G'OYALARNI ISHLAB CHIQISHGA O'RGATISH METODIKASI

Maxmuda Nurmatjonovna Qo'ldasheva - (PhD), Namangan davlat universiteti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada fan va texnologiyaning rivojlanishi bilan bog'liq islohotlar, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanini o'rganish predmeti, obyekt, innovatsion yondashuv asosida o'qitishning dolzarb masalalari, innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish bosqichlari, talabalarda innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga o'rgatish metodikasi hamda innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga o'rgatish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлены предложения и рекомендации по реформам, связанным с развитием науки и техники, предмету, объекту изучения экономической и социальной географии, актуальным вопросам обучения на основе инновационного подхода, этапам разработки инновационных идей, методике обучения студентов разработке инновационных идей и обучению инновационным идеям.

**Abstract:** This article presents subjects related to the development of Science and technology, subject, object of study of economic and social geography, topical issues of teaching on the basis of an innovative approach, stages of development of innovative ideas, methods of teaching students to develop innovative ideas, and suggestions and recommendations for teaching the development of innovative ideas.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, ta'lim, innovatsion yondashuv, innovatsion g'oya, loyiha, tabiiy va iqtisodiy jarayon, kompetensiya, kasbiy kompetentlik, axborot vositalari.

**Ключевые слова:** экономическая и социальная география, образование, инновационный подход, инновационная идея, проект, естественный и экономический процесс, компетентность, профессиональная компетентность, средства массовой информации.

**Keywords:** economic and social geography, education, innovative approach, innovative idea, project, natural and economic process, competence, professional competence, media.

Mamlakatimizda fan va texnologiyaning rivojlanishi eng yuqori cho'qqilarga chiqib borayotgan hozirgi davr jamiyatning har bir azosi oldiga juda muhim talablarni qo'yimoqda. Ayniqsa ta'lim sohasi rivojlanishlar, yangilanishlar va sifat o'zgarishlarini kutmoqda. Shu ma'noda tadqiqot ishida tanlangan innovatsion texnologiyalar asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish

masalasi har tomonlama muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu maqsadda Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev "O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kiritishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi.

Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm –fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi<sup>1</sup> degan fikrlarini e'tirof etgan holda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining predmeti dunyoning tabiiy, iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning geografik makonidagi munosabatlarni shuningdek, ulkan ta'lim salohiyatiga egaligini<sup>2</sup> hisobga olib nafaqat ta'lim jarayonida balki ishlab chiqarish, ixtiro va loyiha ishlarida ham innovatsion yondashuv asosida amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalar dolzarb hisoblanadi. Buning uchun talabning bilish faoliyati va geografiyadan tashqari ishlarning mazmunida ham uning o'rnini kattaligini e'tirof etishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish, ularning fan bo'yicha innovatsion loyiha va g'oyalarni ishlab chiqishga o'rgatish muhim sanaladi. Iqtisodiy va ijtimoiy geografyaning aksariyat mavzulari atrof-muhit, tabiiy resurslar, inson xo'jalik faoliyati bilan, nafaqat mintaqada, hatto jahondagi hozirgi iqtisodiy va siyosiy voqealar bilan chambarchas bog'liqdir. Bu esa talablar tomonidan innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga keng imkoniyat yaratadi. Ma'naviy boylik, axloqiy qadriyat va poklikni, shuningdek jismoniy barkamollikni uyg'unlashtirgan har tomonlama barkamol, bilimli shaxsni tarbiyalash innovatsion yondashuvning maqsadi hisoblanadi. Asosiy oliy ta'lim bosqichida geografiyani o'rganish quyidagi maqsadga erishishga qaratilgan bo'lib, bun kadrlar tayyorlashning turli xil o'zgaruvchan jahonda shaxsiy va jamoat farovonligini ta'minlaydigan fuqarolik va kasbiy faoliyatni tashkil etish asosiy vazifa sanaladi:

- talabalar yosh xususiyatlariga muvofiq pedagogik jihatdan moslashtirilgan insoniyatning ilmiy va amaliy yutuqlarining asosiy yadrosini o'zlashtirish;

- fuqarolik madaniyati, bag'rikenglik, muvaffaqiyatli ijtimoiy faoliyatni tashkil etish maqsadida o'z huquqlarini himoya qilish qobiliyatini shakllantirish;


- kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, dialog o'tkazish qobiliyati, mazmunli muosalarini izlash va topish;

- talabalar mustaqilligi, tashabbuskorligi va o'zini o'zi tashkil etish qobiliyatini, o'z harakatlari va faoliyati uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish qobiliyatini rivojlantirish;

- ochiq axborot-ta'lim makoniga yo'naltirish va ishlash, mustaqil izlanish, o'quv faoliyati ko'nikmalarini rivojlantirish;

- har bir talabaga ijtimoiy qo'shilishni ta'minlash va ta'limga teng huquqlar berish hisoblanadi<sup>3</sup>.

Talabalarni innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga o'rgatishda dastavval innovatsion g'oyalarni ishlab chiqish bo'yicha bosqichlarni tushuntirishdan boshlash kerak bo'ladi (1-chizma).



1-chizma. Innovatsion g'oyani ishlab chiqish bosqichlari

Shuningdek, axborot vositalaridan kerakli ma'lumotlarni qidirish va topish, tahlil qilish, qayta ishlash, saqlash, ularning xavfsizligini ta'minlash, madaniyat qobiliyati va ommaviy axborot vositalarining asosiy oqimida rivojlanish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, o'z-o'zini amalga oshirish yoki rivojlantirish vakolatlarini - jismoniy uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirish, axloqiy, ma'naviy, intellektual va ijodiy rivojlantirish, yetuklik, umrbod o'z-o'zini o'rganish, ko'nikmalari va hayot tajribasi, qat'iy harakatlar va ularni xolisona baholashni muntazam oshirish, muqobil va mustaqil qarorlar qabul qilishga o'rgatish kerak bo'ladi.

Talabalarni tabiat va jamiyat axboroti o'rtasidagi munosabatlarni muammolari qiziqtiradi. Ular ommaviy axborot vositalaridan juda ko'p qiziqarli ma'lumotlarni olishadi, ammo ularni muhokama qilish, ularning sabablari to'g'risida

1 Sh. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent. 2021-yil. 240-bet

2 Komilova N., Jumaxonov Sh. "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi". Darslik. "Universitet" 2020-yil

3 Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). - Alexandria - Virginia, USA: ASCD, 2014-P. 4.

o'z nuqtai nazarlarini bildirish, darsda ularni hal qilishning mumkin bo'lgan usullarini aniqlash har doim ham mumkin emas. Bunday imkoniyat geografiyani o'rganishga innovatsion yondashuv bilan taqdim etilishi mumkin<sup>4</sup>. Bir so'z bilan aytganda, geografiyani o'rganishda innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi talabalarga tabiiy va ijtimoiy muhitda o'zini to'g'ri tutishi, uzluksiz ta'limga tayyor bo'lishi va amalda o'z qobiliyatlarini maksimal darajada oshirishi uchun sharoit yaratishdan iborat. Innovatsion yondashuv talabning real ijtimoiy faoliyatini tashkil etishga, ular tomonidan innovatsion g'oya va loyihalarni qaratilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun geografiya darslarida olingan nazariy bilimlar ijtimoiy foydali, ilmiy, ijodiy ishlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini beradi. Kelajakda talabalarga egallangan bilim, ko'nikma va kasbiy malakalarni amaliy faoliyatda qo'llash imkonini beradi. Bu esa kelajakda atrof-muhitga xotirjam moslashishga zamin yaratadi. Innovatsion yondashuv asosida geografiya texnologiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarni yangi geografik darsliklar bilan boyitish;

- qiziqarli, ilmiy asoslangan faktlar, tushunchalar berish;

- jamiyat va tabiat munosabatlari, hayoti va faoliyati to'g'risida materiallar berish;

- mavzuga oid bo'lgan bilim qiziqishlarini shakllantirish;

- talabalar intellektual va loyihaviy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;

- talabalarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish;

- talabalarni loyiha va innovatsion g'oyalarni ishlab chiqishga yo'naltirishni namoyon qilish;

- har bir talabaga tabaqalashtirilgan yondashuvni qo'llash;

- axborot manbalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish;

- iqtisodiy va ijtimoiy geografiya faniga qiziqishni chuqurlashtirish va e'tiborni kuchaytirish.

Yuqoridagilarni amalga oshirishga bo'lajak geografiya o'qituvchilari har doim o'quvchilarning geografiya bo'yicha bilim doirasini kengaytirish, buning uchun turli xil innovatsion texnologiyalarni jalb qilish istagi bilan ajralib turishganligi, geografiya o'qituvchilari maktabda turistik va o'lkashunoslik ishlarining ilhomchilari va tashkilotchilari ekanligi e'tirof etish mumkin. Geografiyani o'qitishda innovatsion yondashuv mazmunida uchta asosiy

yo'nalish mavjud:

1. Geografik ta'lim mazmuni formatida bilimlarni to'ldirish va chuqurlashtirish, talabalar qiziqishini uyg'otadigan masalalar, yangi geografik atamalar bilan tanishish, sabab-oqibat munosabatlari, dunyoning geografik rasmini to'liqroq tasavvur qilishni shakllantirish.

2. Talabalar geografik, shu jumladan kartografik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam berish, yerdagi masofani yo'naltirish va o'lchash, azimut bo'ylab harakatlanish, ko'zni o'rganish va yer rejasini tuzish, oddiy va murakkab geografik xaritalarni o'qish qobiliyati.

3. Tadqiqot xarakteridagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish hisoblanadi.

Fanni o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va uni tashkil qilish hamda o'tkazishda o'qituvchi tomonidan hisobga olinishi kerak bo'lgan bir qator xususiyatlar mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

- talabalar mustaqil faoliyatiga uning namoyon bo'lishining barcha shakllarida: o'quv, tadqiqot, mehnat, o'yin va hokazolarda ko'proq e'tibor berish bilan tavsiflanadi;

- aniq o'lkashunoslik va ekologik yo'nalishga ega;

- mahalliy ekologik muammolarni, shuningdek ularning namoyon bo'lish sabablarini aniqlashga o'rgatadi;

- tabiiy obyektlarni muhofaza qilish bo'yicha amaliy ishlarni mustaqil va ijodiy amalga oshirish va aniqlangan ekologik muammolarni hal yetishga hissa qo'shish imkoniyatini beradi;

- innovatsion texnologiyalarni amaliy yo'naltirish va boshqalar.

Xulosa o'rinda shuni aytosh mumkinki, geografiyadagi innovatsiyalar boshqa o'quv fanlari bilan chambarchas bog'liqdir. Lekin innovatsion jarayon davomida talabalar tomonidan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'rganish va o'quv dasturi talabalar mazkur fanning yangi yo'nalishlarini o'rganishga mustaqil ijodiy yondashish imkonini beradi. Shuning uchun yaratilayotgan innovatsion g'oyalar boshqa geografik materiallar, boshqa tashkiliy shakllar bo'yicha darslarga nisbatan quriladi va o'tkaziladi hamda ko'proq talabalar tadqiqotchilik va loyihaviy faoliyatga qiziqishining mustaqilligiga va talabalar rivojlanishiga asoslanadi. Ushbu talab innovatsion texnologiyalarining asosiy g'oyasiga javob beradi.

4 Ваҳобов Х., О.Мирзамаҳмудов. География ўқитиш методикаси. - Наманган. 2016. -Б. 4-11



## O'QUVCHILARGA TA'LIM - TARBIYA BERISHDA O'QUVCHILARNING OTA ONALARI BILAN O'QITUVCHILAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKNING AHAMIYATI

*Barno Mahmudovna Hamidova - o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti.*

**Annotatsiya:** Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish, ularning bepul ta'lim olishi, kasb-hunar o'rganishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, iqtidorini namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. O'g'il-qizlarning vatanga muhabbat, istiqbol g'oyalariga sadoqat, milliy g'urur, istiqbol tuyg'ularini mustahkamlash hamda bilim salohiyatini yuksaltirish biz pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bilimli va yetuk ma'naviyatli yoshlarni kamolga yetkazishda ta'lim muassasalarining oila va mahalla bilan hamkorligi katta rol o'ynaydi.

**Аннотация:** В нашей стране созданы все возможности для воспитания зрелого поколения, получения им бесплатного образования, овладения профессией, занятия предпринимательской деятельностью, проявления своих талантов. На нас, педагогах, лежит большая ответственность укреплять любовь юношей и девушек к Родине, верность идеям независимости, национальной гордости, перспективности и повышать интеллектуальный потенциал. Большую роль в воспитании образованной и духовно зрелой молодежи играет сотрудничество образовательных учреждений с семьей и соседями.

**Abstract:** In our country, all opportunities have been created for bringing up a mature generation, for them to receive free education, to learn a profession, to engage in entrepreneurial activities, and to show their talents. We pedagogues have a great responsibility to strengthen boys and girls' love for the motherland, loyalty to the ideas of independence, national pride, perspective and increase the knowledge potential. Cooperation of educational institutions with family and neighborhood plays a big role in bringing up educated and spiritually mature young people.

**Kalit so'zlar:** o'qituvchi, o'quvchi, oila, ota-ona, tarbiya, hamkorlik.

**Ключевые слова:** учитель, ученик, семья, родители, воспитание, сотрудничество.

**Keywords:** teacher, student, family, parents, education, cooperation.

Hali o'qish yozishni bilmaydigan, endigina yetti yoshga qadam qo'yan bolalar oiladan maktab ostonasiga qadam qo'yadilar. Ilk saboqni boshlang'ich sinfda egallaydilar. Shaxsning shakllanishiga boshlang'ich sinfda asos solinishini yaxshi bilamiz, shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchisining ishi yuqori sinf dagidan tubdan farq qiladi. Tarbiya-uzluksiz ijod qilish jarayonidir. U tarbiyachi oldiga yangidan – yangi vazifalar qo'yadi. Shaxsning xususiyatlarini individual o'rganish lozim. O'quvchining ota-onalari bilan tanishish, ular bilan aloqa o'rnatish o'qituvchining ishidagi muhim yo'nalishdir. Sharoiti og'ir, yoki oilasi notinch oila farzandlari bilan yakka tartibda suhbatlar o'tkazish, ba'zan mahalla raislari bilan kengashish, oilaga kerak bo'lsa yordam uyushtirish ham yaxshi natijalarga olib keladi. Oila notinch bo'lsa o'quvchining o'qishida ham unum bo'lmaydi. Buni albatta o'qituvchi seza olishi kerak. O'quvchining ko'ngliga yo'l topa bilishi lozim. A'lochi o'quvchilarni

rag'batlantirish, ota – onalariga tashakkurnomalar yuborish, ertalabki yig'inlarda o'rnak qilib ko'rsatish ham albatta yaxshi natijalarga olib keladi. Bugungi kunda jamiyatda o'z o'rnini topgan, yaxshi hayot kechirayotgan kishilarni mahallasidan o'rnak qilib ko'rsatish, ularning ortidan ergashishga da'vat qilish, buning uchun astoydil bilim olish kerakligini o'quvchilar ongiga singdira olish ularni hayotga tayyorlashda juda muhim o'rin tutadi.

Bolalarni o'tish davrining 5-6 yoshidanoq kitobga darsga bo'lgan ishtiyoqi so'nib, bo'sh vaqtini boshqa keraksiz ishlar bilan mashg'ul bo'lishi bizni hamisha munozara qilishga chorlaydi. Aslini olganda oila va maktab o'rtasidagi hamkorlik jarayoni ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga, bo'sh vaqtni o'tkazishga, bolalar va pedagogik jamoa bilan o'zaro munosabatlarga qaratilgan bo'lishi kerak.

Umumta'lim tashkilotining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorligining maqsadlari va

shartlari o'zaro munosabatlarni tashkil etishning muhim tarkibiy qismidir. Ularning yutug'i ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlik qilish shakllari va usullariga - ularning birgalikdagi muloqotini va faoliyatini tashkil etish usullariga bog'liq. Hamkorlikning turli shakllari va usullarini tanlash maktab tomonidan amalga oshiriladi va ushbu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan muayyan vazifalarga, ota-onalarning qiziqishlari va intilishlariga, shuningdek, ushbu davrda jamiyatning rivojlanish darajasiga bog'liq. Guruh va jamoaviy hamkorlikning asosiy shakllari quyidagilardan iborat:<sup>1</sup>

- maktab miqyosida va sinfda ota-onalar yig'ilishi;
- maktab tadbirlari, konsertlar o'tkazish;
- ochiq kunlar (ota-onalar kuni); ota-onalar qo'mitasining tematik konferensiyalarini tashkil etish va ular bilan yaqindan hamkorlik qilish;
- ota-onalarning ijodiy guruhlar bilan ishlash, savol-javob kuni;
- guruh maslahatlari;
- ota-onalarni maktab ma'muriyati, pedagogik jamoa bilan uchrashish;
- ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- seminarlar, treninglar; o'quv filmlarini ko'rish va keyingi muhokamalar;

U m u m a n olganda umumta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlik shakllari an'anaviy va noan'anaviyga bo'linadi.

An'anaviy shakllar - bu barcha umumta'lim muassasalari uchun umumiy bo'lgan, yillar davomida sinovdan o'tganlari. Bunga quyidagilar kiradi:

- ota-onalar yig'ilishi;
- ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- ota-onalar bilan pedagogik suhbatlar;
- oilaviy tashriflar;
- tadbirlarni birgalikda tashkil etish;
- individual va guruh maslahatlari; ota-onalar bilan yozishmalar;
- individual uchrashuvlar va boshqalar.

Hamkorlikning noan'anaviy shakllari oila bilan ishlashning zamonaviy shakllari bo'lib, o'qituvchilarga ota-onalarga bolalarni tarbiyalash va o'qitishda imkon qadar yordam berishga qaratilgan. Har bir ota-ona o'qituvchini bolani har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida rivojlantirishga qaratilgan ishida qo'llab-quvvatlashga intiladi. Ammo zamonaviy ota-onalar - bu paydo bo'lgan muammolarni, mavjud vaziyatni tahlil qilishga qodir bo'lgan bilimli odamlar, shuning uchun o'qituvchi oila bilan hamkorlikning yangi shakllaridan foydalanishi kerak. Umumta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikning ko'plab shakllari mavjud. Belgilangan maqsadlarga erishish va yuqori natijalarga erishish uchun o'qituvchi ota-onalar bilan birgalikdagi faoliyatda turli xil hamkorlik shakllarini to'g'ri birlashtira olishi kerak. Har safar

o'qituvchilar tarkibi har bir oilaning xususiyatlarini hisobga olgan holda kerakli va samaraliroqlarini tanlashi kerak. Axir hamkorlikning asosiy maqsadi ota-onalar bilan ittifoqdosh bo'lishdir.

O'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shakllari ularning birgalikdagi faoliyati va muloqotini tashkil etish usullaridir.<sup>2</sup> O'zaro ta'sirning kollektiv, guruh va individual shakllarini birlashtirish maqsadga muvofiqdir. Demak, har qanday tarbiya muammosi muhokamasini ota-onalar yig'ilishida ota-onalar bilan individual yig'ilishlarda, guruh maslahatlarida davom ettirish foydalidir. Keling, o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning eng keng tarqalgan jamoaviy shakllarini qisqacha tavsiflaylik. Ota-onalar majlisi- sinf va ota-onalar jamoalari hayotining muammolari muhokama qilinadigan ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakli. Ota-onalar qo'mitasi yoki ota-onalar guruhi (ishlar kengashi) - yig'ilishning borishini muhokama qiladi, rahbari tanlaydi va yig'ilishga kiritilgan muammolarni hal qilish variantlarini belgilaydi.

Ota-onalar yig'ilishlarini quyidagilarga bo'lish mumkin: maktab bo'ylab va individual sinf o'quvchilarning ota-onalari yig'ilishi. Maktab miqyosida o'tkaziladigan ota-onalar yig'ilishlari yoki konferensiyalarida oila va maktabning tarbiyaviy ishini takomillashtirishning eng dolzarb muammolari, o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalashning dolzarb masalalari muhokama qilinadi. Shunday qilib, ota-onalar yig'ilishlari o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, maktab o'quvchilarning mehnat ta'limi va kasbiy yo'nalishini yaxshilash bo'yicha vazifalar va tadbirlarni muhokama qilishga bag'ishlangan. Ko'pincha maktab miqyosidagi ota-onalar yig'ilishlarida oiladagi tarbiyaviy ishning ilmiy-pedagogik masalalari ko'tariladi, masalan: ota-onalarning ta'limdagi roli, o'quvchilarning rivojlanishini tezlashtirish va uning ta'limga ta'siri va boshqalar. Maktab miqyosida ota-onalar yig'ilishi odatda yiliga ikki yoki uch marta o'tkaziladi. Oila bilan tashkiliy pedagogik ishning yanada operativ shakli bu alohida sinflarda o'quvchilarning ota-onalari yig'ilishidir. Ularda sinf o'qituvchilari o'quvchilarning taraqqiyoti va intizomi haqida ma'ruzalar qiladilar, ota-onalarning bolalar bilan o'quv-tarbiyaviy ish tajribasi to'g'risidagi ma'lumotlarini muhokama qiladilar, shuningdek, individual o'quvchilarning o'quv ishlari va xulq-atvorini yaxshilash bilan bog'liq masalalarni hal qiladilar. Bunday uchrashuvlar, ayniqsa, oila va maktab tarbiyaviy ishida yagona yo'nalishni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega. Gap shundaki, boshlang'ich sinf o'qituvchisi sinf oldiga u yoki bu tarbiyaviy vazifani qo'yganda, uni hal qilishda ota-onalarni ham jalb qilishi kerak. boshlang'ich sinf o'qituvchisi, albatta, o'quvchilar oldiga tegishli vazifani qo'yadi va uni hal qilish uchun tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqadi.

<sup>1</sup> Беседа, Е.Ю. Взаимодействие семьи и школы в современных условиях / Е.Ю. Беседа // Теоретические и прикладные аспекты современной науки. – 2014. – № 4–3. – С. 110–112.

<sup>2</sup> Бедерханова, В.П. Вопросы взаимодействия общеобразовательной школы и производства / В.П. Бедерханова, А.Н. Демин // Психология. Экономика. Право. – 2013. – № 2. – С. 99–107.

Shu maqsadda sinfning navbatdan tashqari ota-onalar yig'ilihi chaqiriladi, unda boshlang'ich sinf o'qituvchisi ota-onalarni o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifa bilan tanishtiradi va ulardan o'zi kutayotgan aniq yordamga rozi bo'ladi. Agar ota-onalar sinfda yoki maktabda qanday ta'lim muammolari hal qilinayotganini bilsalar va ulardan qanday aniq yordam talab qilinishini yaxshi tasavvur qilsalar, ular o'qituvchilar bilan bir yo'nalishda ishlaydi.

Ota-onalar ma'ruza zali ota-onalarni ta'lim masalalari bilan tanishtirish, ularning pedagogik madaniyatini oshirish, bolalarni tarbiyalashda umumiy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu ota-onalarga faqat ma'ruzalar o'qiladi degani emas. Ish shakllari xilma-xil bo'lib, ko'pincha ular ota-onalarning passiv tinglovchilar sifatida emas, balki ularning faolligini, ijodkorligini, muammolarni muhokama qilishda, darslarni tashkil etish va o'tkazishda ishtirok etishlarini rag'batlantiradilar. Ma'ruza zalining mavzularini belgilashda ota-onalar ishtirok etadilar. Agar ular dars mavzularini shakllantirish, o'rganish uchun muammolarni aniqlash qiyin bo'lsa, o'qituvchi mavjud uslubiy tavsiyalarni, shuningdek, ushbu jamoada bolalarni tarbiyalash muammolarini hisobga olgan holda mumkin bo'lgan mavzular to'plamini taklif qilishi mumkin. Sinflarni bir guruh ota-onalar (ishlar kengashi) tomonidan navbat bilan tayyorlash tavsiya etiladi. Mavzuning murakkabligiga, ota-onalarning bunga tayyorligiga qarab, o'qituvchi, ishbiarmonlar kengashi mutaxassislarini jalb qiladi yoki materialni tanlaydi va darsni mustaqil ravishda o'tkazadi. Agar mutaxassis taklif etilsa, tashkilotchilar birinchi navbatda ular bilan ota-onalarni tashvishga soladigan muammolarni muhokama qiladilar, sinf ishtirokchilarini jalb qilish va faollashtirish yo'llarini o'ylaydilar. Bahs - tarbiya muammolari haqida fikr yuritish ota-onalar uchun qiziqarli bo'lgan pedagogik madaniyatni oshirish shakllaridan biridir. U bo'shashgan muhitda o'tadi, har kimni muammolarni muhokama qilishda ishtirok etishga imkon beradi, to'plangan tajribaga tayangan holda fakt va hodisalarni har tomonlama tahlil qilish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi, faol pedagogik tafakkurni uyg'otadi. Munozara ishtirokchilarining o'zlari guruhlariga bo'linib, eng qiziqarli savollarni shakllantirishlari mumkin, keyin esa ulardan jamoaviy muhokamaga qo'yilishi mumkin bo'lganlarini tanlash va oldindan muhokama qilishlari mumkin. Bu usul har kimni izlanishga qo'shish imkonini beradi, masalaning eng to'g'ri echimi, ota-onalarga ma'lum bir pozitsiyani egallashga yordam beradi, har bir kishi uchun gapirish imkoniyatini beradi. Natijalarni sarhisob qilish uchun ish kengashi, o'qituvchi yoki ota-onalardan biri yakuniy hisobotni tayyorlashi

kerak. Bunday munozaralar, munozaralarning predmeti sinf, oila hayotidan, spektakllardan yoki birgalikda tomosha qilingan filmlardan olingan aniq vaziyatlar bo'lishi mumkin. Har yili ma'muriyat, sinf o'qituvchilari bilan uchrashuvlar o'tkazilishi kerak. O'qituvchilar ota-onalarni o'zlarining talablari bilan tanishtiradilar, individual maslahatlar, suhbatlar yoki guruhlarda ishlash, ayrim bolalar guruhlarini tarbiyalash va o'qitishda yuzaga kelgan muammolar va qiyinchiliklarni hisobga olgan holda bo'lishi kerak.

Ota-onalarning oilada bolalarni tarbiyalashga turli darajadagi tayyorgarligi, ularning kasbiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, ota-onalarning sinfning o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishdagi ishtirokining tabiati, bolalarni tarbiyalashda tengsiz rol o'ynashi bilan bog'liq.

Shunday qilib, aytishimiz mumkinki, umumta'lim muassasasi va oila o'rtasidagi hamkorlikning barcha shakllarining mazmuni o'quvchilarning barkamol rivojlanishiga qaratilgan faol ta'lim o'zaro ta'sirini yaratishdir. O'qituvchilar va ota-onalarning to'g'ri tashkil etilgan o'zaro aloqasi bolani yaxshiroq tushunishga, oilada va maktabda shaxsiy ta'lim muammolarini hal qilishning eng maqbul usullarini topishga yordam beradi. O'qituvchi esda tutishi kerakki, u foydalanadigan barcha shakllar bolalar, ota-onalar va maktab o'rtasida ishonchli munosabatlarni o'rnatishga, ularni bir jamoaga birlashtirishga, ularning muammolarini bir-birlari bilan bo'lishish va birgalikda hal qilish zarurligini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Oila va maktab hamkorligi maktab hayoti davomida davom etadigan jarayondir.

Ota-onalar va o'qituvchilar uchun eng katta muammo - samarali muloqot qilishdir. Bu oddiy tuyulishi mumkin, lekin ko'pincha suhbatlar uzilib qoladi, chunki o'qituvchi maxsus ta'lim sohasiga xos bo'lgan tilni ishlatadi va ota-ona uchun notanish bo'lishi mumkin. O'qituvchilar suhbat boshida ota-onalarga tegishli so'z birikmalarini, masalan, turar joy va modifikatsiyani tushunishlariga ishonch hosil qilishlari muhimdir. Bu keyinchalik muammolarga olib kelishi mumkin bo'lgan o'ziga xos tushunmovchilik yo'qligiga ishonch hosil qiladi.

O'qituvchi ham ota-onani faol tinglashi kerak. Yechimlar va usullarga berilib ketish shunchalik osonki, o'qituvchilar o'quvchi uchun eng samarali bo'lgan narsa haqida fikr-mulohazalarini o'tkazib yuborishlari mumkin. Ota-onalar qaysi tayanchlar ishlayotganini va qaysi biri ishlayotganini aniqlashga yordam beradi va muvaffaqiyatga ta'sir qiladigan o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi.



**Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131**  
**Jurnalning Index raqami: 3535**